

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI
HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**

M.X.RUSTAMBAYEV

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JINOYAT HUQUQI
K U R S I**

I TOM

UMUMIY QISM

JINOYAT HAQIDA TA’LIMOT

Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik
(2-nashr, to’ldirilgan va qayta ishlangan)

TOSHKENT

UO‘K – 343.23(575.1)

KBK -67.408(50’)

R-92

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kengashida ma’qullangan. 2018 yil 29 iyundagi 9-sonli bayonnoma

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. 2018 yil 15 avgustdagi 718-sonli buyrug‘i

Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 441 bet.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2018 yil 1 noyabrgacha kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar inobatga olingan holda tayyorlangan. Unda amaldagi qonun hujjatlari, tergov va sud amaliyoti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari asosida jinoyat huquqining Umumiy va Maxsus qismi masalalari yoritilgan.

Darslik besh tomdan iborat. Birinchi va ikkinchi tomlar JKning Umumiy qismiga bag‘ishlangan. Birinchi tomida jinoyat qonuni va jinoyat to‘g‘risidagi ta’limot masalalari yoritilgan. Ikkinchisida jazo, javobgarlik va jazodan ozod qilish, jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralari yoritilgan. Uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi tomlar JKning Maxsus qismi normalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlik masalalariga bag‘ishlangan. Muallif tomonidan barcha jinoyatlar tarkibining belgilari tahlil qilingan, ularni kvalifikatsiya qilish masalalari, o‘xshash jinoyatlar tarkiblarini farqlash muammolari ko‘rib chiqilgan.

Darslik yuridik oliy o‘quv muassasalari bakalavr va magistrleri, Bosh prokuratura Akademiyasi tinglovchilari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kursantlari, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tinglovchilari, o‘qituvchilarga mo‘ljallangan, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va jinoyat huquqi muammolari bilan qiziquvchi shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin.

Taqrizchilar:

Abdurasulova K.R. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Kriminologiya” kafedrasida boshlig‘i, yu.f.d., professor

Mirazov D.M. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti “Sohaviy huquqiy fanlar” kafedrasida boshlig‘i, yu.f.d., dotsent

ISBN 978-9943-5559-1-4

© Rustambayev M.X., 2018

© O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti, 2018

MUNDARIJA

I BOB. JINOYAT HUQUQI TUSHUNCHASI, PREDMETI, METODI, VAZIFALARI VA PRINSIPLARI.....	7
1-§. Jinoyat huquqi tushunchasi.....	7
2-§. Jinoyat huquqi predmeti va metodi.....	9
3-§. Jinoyat huquqi vazifalari.....	12
4-§. Jinoyat huquqi prinsiplari	20
5-§. Qonuniylik prinsipi	23
6-§. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi	32
7-§. Demokratizm prinsipi	35
8-§. Insonparvarlik prinsipi.....	36
9-§. Odillik prinsipi	40
10-§. Ayb uchun javobgarlik prinsipi	43
11-§. Javobgarlikning muqarrarlighi prinsipi	45
«Jinoyat huquqi tushunchasi, predmeti, metodi, vazifasi va prinsiplari» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar	47
Qo‘shimcha adabiyotlar	48
Rahbariy adabiyotlar	48
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar.....	49
II BOB. JINOYAT QONUNI.....	50
1-§. Jinoyat qonuni tushunchasi va ahamiyati	50
2-§. Jinoyat qonunining tuzilishi.....	54
3-§. Jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishi.....	62
4-§. Jinoyat qonunining vaqt bo‘yicha amal qilishi.....	85
5-§. Jinoyat qonunini sharhlash.....	104
«Jinoyat qonuni» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar	109
Qo‘shimcha adabiyotlar	110
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar.....	110
Ilmiy maqolalar	111
III BOB. JINOYAT TUSHUNCHASI	115
1-§. Jinoyat huquqi nazariyasi va qonunida jinoyat tushunchasining belgilanishi	115
2-§. Jinoyat belgilari.....	116
3-§. Jinoyatlarni tasniflash	123
«Jinoyat tushunchasi» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar	127
Qo‘shimcha adabiyotlar	127
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar.....	127

Ilmiy maqolalar	128
IV BOB. JINOIY JAVOBGARLIK VA UNING ASOSLARI	129
1-§. Jinoiy javobgarlik tushunchasi.....	129
2-§. Jinoiy javobgarlik asosi sifatida jinoyat tarkibi: tushunchasi va ahamiyati ..	136
3-§. Jinoyat tarkibining tuzilishi. Jinoyat tarkibining zaruriy va fakultativ belgilari.....	139
4-§. Jinoyat tarkibining turlari.....	141
«Jinoiy javobgarlik va uning asoslari» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar	144
Qo‘shimcha adabiyotlar	145
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar.....	145
Ilmiy maqolalar	146
V BOB. JINOYAT OBYEKTI.....	147
1-§. Jinoyat obyekt tushunchasi va ahamiyati	147
2-§. Jinoyat obyektining turlari	149
3-§. Jinoyat predmeti.....	153
«Jinoyat obyekt» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar	155
Qo‘shimcha adabiyotlar	156
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar.....	156
Ilmiy maqolalar	156
VI BOB. JINOYATNING OBYEKTIV TOMONI.....	157
1-§. Jinoyatning obyektiv tomoni tushunchasi va ahamiyati.....	157
2-§. Jinoiy qilmish va uning turlari.....	158
3-§. Jinoiy oqibat.....	164
4-§. Qilmish va oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish	167
5-§. Jinoyatning obyektiv tomoni fakultativ belgilari va ularning ahamiyati.....	169
«Jinoyatning obyektiv tomoni» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar.....	173
<i>Qo‘shimcha adabiyotlar.....</i>	<i>174</i>
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar.....	174
Ilmiy maqolalar	175
VII BOB. JINOYATNING SUBYEKT TOMONI.....	176
1-§. Jinoyatning subyekt tomoni tushunchasi va ahamiyati	176
2-§. Ayb tushunchasi va shakllari	178
3-§. Qasd va uning turlari.....	187
4-§. Ehtiyotsizlik va uning turlari	198
5-§. Murakkab aybli jinoyat.....	208
6-§. Aybsiz holda zarar yetkazish	211
7-§. Jinoyatning motivi va maqsadi, emotsional holat.....	213
8-§. Yuridik va faktik xato, ularning jinoyat-huquqiy ahamiyati	221
«Jinoyatning subyekt tomoni» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar	230

Qo‘shimcha adabiyotlar	231
o‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	231
Ilmiy maqolalar	232
VIII BOB. JINOYAT SUBYEKTI	233
1-§. Jinoyat subyekti tushunchasi	233
2-§. Jinoiy javobgarlik kelib chiqadigan yosh	235
3-§. Aqli rasolik va aqli norasolik: tushuncha va mezonlar.....	240
4-§. Mastlik holatida jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarligi.....	251
5-§. Jinoyatning maxsus subyekti	257
6-§. Jinoyat subyekti va jinoyatchining shaxsi	259
«Jinoyat subyekti» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar.....	260
Qo‘shimcha adabiyotlar	261
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	261
Ilmiy maqolalar	262
IX BOB. TAMOM BO‘LMAGAN JINOYATLAR.....	263
1-§. Jinoyat sodir etish bosqichlari tushunchasi, turlari va ahamiyati	263
2-§. Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish.....	267
3-§. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish.....	271
4-§. Jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish	277
«Tamom bo‘lmagan jinoyatlar» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar.....	284
Qo‘shimcha adabiyotlar	285
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	285
Ilmiy maqolalar	285
X BOB. JINOYATDA ISHTIROKCHILIK.....	289
1-§. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi.....	289
2-§. Jinoyat ishtirokchilarining turlari.....	295
3-§. Ishtirokchilik shakllari	311
4-§. Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik asoslari va doirasi.....	325
5-§. Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlikning maxsus masalalari	331
6-§. Jinoyatga daxldorlik.....	336
«Jinoyatda ishtirokchilik» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar	341
Qo‘shimcha adabiyotlar	343
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	343
Ilmiy maqolalar	343
XI BOB. BIR QANCHA JINOYAT SODIR ETISH.....	345
1-§. Bir qancha jinoyat sodir etish tushunchasi va turlari.....	345
2-§. Takroran jinoyat sodir etish	353
3-§. Jinoyatlar majmui.....	358
4-§. Retsidiv jinoyat	366

«Bir qancha jinoyat sodir etish» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar	375
Qo‘shimcha adabiyotlar	376
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	376
Ilmiy maqolalar	376

XII BOB. QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN

HOLATLAR 378

1-§. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi.....	378
2-§. Qilmishning kam ahamiyatli ekanligi.....	380
3-§. Zaruriy mudofaa.....	383
4-§. Oxirgi zarurat	402
5-§. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish	414
6-§. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish.....	426
7-§. Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik.....	431
8-§. Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqitish.....	436
«Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar	439
Qo‘shimcha adabiyotlar	440
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar.....	440

I BOB. JINOYAT HUQUQI TUSHUNCHASI, PREDMETI, METODI, VAZIFALARI VA PRINSIPLARI

1-§. Jinoyat huquqi tushunchasi

Ma'lumki, jinoyat huquqi tushunchasi bir necha ma'nolarda qo'llaniladi, bular: 1) qonun sohasi; 2) huquq tarmog'i; 3) fan tarmog'i; 4) o'quv predmeti.

Jinoyat huquqi qonun hujjatlari tarmog'i sifatida O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi hokimiyati oliy organi – Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadigan, jinoiy javobgarlikning umumiy asoslari va prinsiplarini, jinoyat deb hisoblanadigan qilmishlar doirasi, ularni sodir etganlik uchun javobgarlik, jazo tayinlash, jazo turlari va hajmi, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish asoslari, jazo hisoblanmaydigan boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini belgilovchi huquq normalari tizimini o'zida ifoda etadi.

Jinoyat to'g'risidagi milliy qonun hujjatlari **JKning 1-moddasiga** ko'ra Konstitutsiya va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksidan iboratdir. Bu moddaning ahamiyati shundaki, unda faqatgina Jinoyat kodeksi bilan belgilanadigan, Konstitutsiya va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga zid kelmaydigan jinoyat qonunchiligining manbalari aniq ko'rsatilgan. Qonun chiqaruvchi organ, ya'ni Oliy Majlisning rasmiy hujjati hisoblanuvchi Jinoyat kodeksiga huquqning mazkur sohasidagi yagona manba maqomini berish, barcha huquqiy normalarni bir qonunda jamlash, ularni tizimlilik prinsipidan kelib chiqqan holda muayyan ketma-ketlikda joylashtirish, barcha qonunlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish, huquqni qo'llovchilarning qonunlardan foydalanishlari uchun barcha qulayliklarni yaratish imkonini beradi.

Aksariyat hollarda jinoyat huquqi, o'zining predmeti, metodi va vazifalari bilan farqlanuvchi huquq sohasi va O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Jinoyat huquqi huquq tizimi tarmog‘i, sohasi sifatida jinoyat qonuniga nisbatan ancha keng tushuncha hisoblanadi. Jinoyat huquqi huquq sohasi sifatida qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat qonunchiligi va jinoyat-huquqiy munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Jinoyat-huquqiy munosabatlarni tor va keng ma‘nolarda tushunish mumkin. Jinoyat-huquqiy munosabat keng ma‘noda jinoyat qonunining rasmiy ravishda kuchga kirishi bilan yuzaga keladigan munosabat hisoblanadi. Xuddi shu vaqtdan boshlab yangi jinoyatlarni sodir qilishdan ogohlantiruvchi, ya‘ni ularni sodir qilishni taqiqlovchi qonunning amal qilishi boshlanadi. o‘shandagina jinoyat qonuni barcha fuqarolarga nisbatan o‘zining tarbiyaviy funksiyasini amalga oshirishni boshlaydi.

Jinoyat-huquqiy munosabatlarni keng ma‘noda ko‘rib chiqish, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish uchun muhim bo‘lgan jinoyat qonunining kuchga kirgan paytidan boshlab uning aholi orasidagi ta‘sir mexanizmini aniqlash, jinoyat qonunining samaradorligini o‘rganishga yordam beradi¹.

Jinoyat-huquqiy munosabatlar tor ma‘noda davlat va jinoyatchi shaxs o‘rtasidagi munosabatdir. Bu munosabatlar jinoyat sodir etilishi bilan boshlanadi va sudlanganlikning olib tashlanishi yoki jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish bilan tugaydi.

Jinoyat huquqi yuridik fan tarmog‘i sifatida jinoyat huquqining rivojlanish tarixini o‘rganish; jinoyat qonunini sharhlash; milliy va xalqaro huquqni qiyoslash, xalqaro jinoyat huquqini tadqiq qilish; jinoyat-huquqiy normalarni qo‘llash samaradorligini, jinoyat qonunchiligini qo‘llashning nazariy muammolarini tadqiq qilish; huquqbuzarlikning boshqa shakllari bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat huquqining ijtimoiylashuvini ishlab chiqishga asoslangan qarashlar, g‘oyalar tizimini ifodalaydi.

Jinoyat huquqi fanining asosiy vazifasi jinoyat qonunini qo‘llashning, keyinchalik uni takomillashtirishning amaliy va nazariy muammolarini ishlab chiqish, uning samaradorligini oshirish, jinoyat-huquqiy siyosatni

¹ *Қаранг:* Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов/ Под ред. д.ю.н., проф. Н.Ф.Кузнецовой и к.ю.н., доц. И.М.Тяжковой. – М.: ИКД «Зерцало-М», 2002. – 3-б.

samarali amalga oshirishni ta'minlash uchun jinoyat qonunchiligini kelajakda rivojlanishini bashorat qilishdir.¹

Jinoyat huquqi tushunchasi hozirgi kunda yuridik ixtisoslikka asoslangan o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan va ushbu o'quv maskanlarida o'qiydigan studentlar tomonidan o'rganiladigan **o'quv kursini** anglatadi.

Jinoyat huquqi tushunchasi huquq sohasi, yuridik fan va o'quv kursi sifatida qo'llanilishi yagona normativ huquqiy baza – jinoyat-huquqiy normalar tizimidan iborat bo'lgan amaldagi jinoyat qonuniga asoslanadi.

2-§. Jinoyat huquqi predmeti va metodi

Huquq tarmog'i sifatidagi jinoyat huquqining predmetini davlatning maxsus vakolatli organlari va jinoyat sodir qilgan shaxs o'rtasida vujudga keladigan muayyan ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi.

Jinoyat huquqi muhofaza qiladigan predmetlarga shaxs, uning huquq va erkinliklari, davlat va jamiyat manfaatlari, mulkchilik, tabiiy muhit, tinchlik va insoniyat xavfsizligi kiradi (**JK 2-moddasi 1-qismi**). Bu ijtimoiy munosabatlar doirasi jinoyat huquqining huquq sohasi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Jinoyat-huquqiy normalar vositasida tartibga solinishi natijasida bu ijtimoiy munosabatlar jinoyat-huquqiy munosabatlarga aylanadi. Bu munosabatlar, odatda, jinoyat sodir etilishi oqibatida yuzaga keladi. Ushbu munosabatlarning yuzaga kelishiga JKda nazarda tutilgan boshqa holatlar ham yuridik fakt sifatida asos bo'lishi mumkin. Jinoyat-huquqiy munosabatlar aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketishi, ayblov hukmining ijro etilishi, sudlanganlik muddatining tugashi (olib tashlanishi) yoki jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish munosabati bilan tugaydi. Jinoyat-huquqiy munosabatlarning subyekti bo'lib maxsus vakolat berilgan organlar orqali davlat hamda aniq jinoyat tarkibi alomatlari mavjud bo'lgan, jinoiy jazo qo'llash tahdidi bilan qonun tomonidan taqiqlangan qilmishni sodir qilgan shaxs hisoblanadi. Shunga ko'ra, davlatda jinoyat sodir qilgan shaxsni

¹ *Қаранг:* Уголовное право. Учебник / А.С.Якубов, Р.Кабулов и др. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2005. – 48-б.

jinoiy javobgarlikka tortish majburiyati yotadi, jinoyatchi esa jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya qonunida belgilangan tartibda sodir qilgan qilmishi uchun javob berish majburiyatiga va JKda o‘rnatilgan sodir qilgan qilmishi uchun adolatli jazo va boshqa jinoiy-huquqiy ta’sir choralarini tayinlashni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Jinoyat sodir etgan shaxs va davlat o‘rtasida jinoyat-huquqiy munosabatlarning mavjud yoki mavjud emasligi, shuningdek, bu munosabatlarning tugatilishi surishtiruv va dastlabki tergov organlari, prokuror, sudya va sud tomonidan sodir etilgan jinoyat bo‘yicha protsessual qonunda nazarda tutilgan tartibda jinoyat sudlov ishi yuritish jarayonida aniqlanadi, bu qonun shunday tuzilganki, u aybsizlarni noqonuniy va asossiz jinoiy javobgarlikka tortishning oldini oladi.

Ta’kidlash joizki, huquq tarmog‘i sifatidagi jinoyat huquqining predmeti qatorida, undan kengroq tushuncha bo‘lib hisoblanadigan huquqiy fan tarmog‘i sifatidagi jinoyat huquqi predmetini ham ajratadilar.

Jinoyat huquqi fanining predmetini amaldagi qonunni, uni amaliyotda qo‘llash muammolarini, jinoyat huquqining rivojlanish tarixini, xorijiy mamlakatlardagi jinoyat qonunchiligi va jinoyat huquqini, xalqaro jinoyat huquqini, jinoyatlarning oldini olish va fuqarolarni qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashning jinoyat-huquqiy muammolarini va boshqalarni o‘rganish; jinoyat qonunini sharhlash; qonunchilikni va uni amaliyotda qo‘llashni takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish; jinoyat huquqining sotsiologiyasini ishlab chiqish, ya’ni jinoyatchilikning dinamikasi, tuzilishi va darajasini aniqlash orqali jinoyat qonunining amaldagi real holatini, qonunning samaradorligini, jinoyat-huquqiy tartibga solish mexanizmini, jinoyat qonunining shartliligi va asoslanganligini o‘rganish, qilmishni kriminalizatsiya va dekriminalizatsiya qilish tashkil qiladi¹.

Bizga ma’lumki, jinoyat huquqining predmeti ushbu fan sohasini o‘rganishning metodikasi va ilmiy izlanishning metodologiyasini belgilab beradi. O‘z navbatida, o‘rganish uchun foydalaniladigan umumiy va maxsus metodlar fanining mazmunini aniqlab beradi.

¹ *Қаранг:* Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под ред. д.ю.н., проф. Н.Ф. Кузнецовой и к.ю.н., доц. И.М. Тяжковой. – С. 4.

«**Metod**» tushunchasi real haqiqatni bilish va u haqida obyektiv bilimlarni olish uchun yo‘l, usul va vositalarni qamrab oladi¹. Jinoyat huquqining metodologiyasi haqidagi masala (boshqa har qanday yuridik fan sohasi kabi) hozirgi kungacha bahsli hisoblanadi. Fan sohasini o‘rganishga xizmat qiladigan metodologiya asoslari ba’zi hollarda ilmiy, falsafiy yoki dialektik metodlarni, boshqa hollarda bilishning maxsus usul va vositalarini tan oladi. Bir qancha mualliflarning fikriga ko‘ra, boshqa fan sohalariga asos bo‘lishi lozim bo‘lgan umumiy huquq nazariyasigina metodologik funksiyaga ega².

«**Metodologiya**» va «**metodika**» tushunchalarini farqlar ekanmiz, mamlakatimizda sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarga qaramasdan jinoyatchilikka qarshi kurashning mazmun-mohiyatini, qonunchilikni tadqiq qilish va uni amaliyotda qo‘llashga imkon beradigan dialektik metodni eng asosiy metod sifatida tan olishimiz mumkin. Masalan, sababiy bog‘lanish haqidagi dialektik bilimlar ishtirokchilik faktini aniqlashda, jinoiy harakat (harakatsizlik) va zararli oqibat o‘rtasidagi bog‘lanishni tadqiq qilishda qo‘llaniladi. Jinoyatga suiqasd qilish va tayyorgarlik ko‘rish jinoyat bosqichlari haqidagi qonunchilik va normalarni amaliyotda qo‘llash ehtimollikdan haqiqiylikka o‘tish haqidagi dialektik metodga asoslanadi.

Jinoyat huquqi **metodikasi** jinoyat-huquqiy tushuncha va hodisalarni o‘rganishda qo‘llaniladigan usul va vositalar yig‘indisini, tizimini ifodalaydi. Falsafiy metod hisoblangan dialektik metod bilan birgalikda yana boshqa metodlardan ham foydalanish lozim. Bunday metodlarga quyidagilar kiradi: JK normalarining sanksiya va dispozitsiyasini ishlab chiqishda qo‘llaniladigan **yuridik metod**; son ko‘rsatkichlari orqali jinoyat-huquqiy tushunchalar va hodisalarni sifatliy xilma-xilligini ko‘rsatishga imkon beruvchi **statistik metod**; aholi orasida so‘rovlar o‘tkazish orqali jinoyat huquqining turli jihatlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan **sotsiologik metod**; jinoyat huquqining jinoyat qonuni, prinsiplari, jinoyat, bir qancha jinoyatlar sodir etish, ishtirokchilik, jinoiy

¹ *Қаранг:* Общая теория права / Под общ. ред. А.С. Пиголкина. – М.: 1996. – С. 17; Наумов А.В. Российское уголовное право. Общая часть. – М.: 1996. – С. 29; и др.

² *Қаранг:* Уголовное право. Общая часть: Учебник / А.С. Якубов, Р. Кабулов и др. – С. 60-61.

javobgarlik va jazodan ozod qilish kabi institutlarni sistema, ya'ni bir necha elementlardan iborat bo'lgan yaxlit bir butunlik sifatida o'rganishga imkon beradigan **tizimli metod**; qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash va ilmiy tadqiqot maqsadlarida turli davlatlarning huquq tizimi va qonunchiligini solishtirishga imkon beradigan **qiyosiy-huquqiy metod**; qonunchilik va huquqni qo'llash sohasida o'tmish tajribasidan foydalanishga yordam beradigan **tarixiy metod** va boshqalar.

Ushbu metodlarning barchasi bir-biri bilan bog'liq hamda bir butun holda qo'llanilishi lozim.

3-§. Jinoyat huquqi vazifalari

O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi o'z oldiga **uchta vazifani** qo'yadi: muhofaza qilish, oldini olish va tarbiyalash. **JKning 2-moddasida** jamiyat va davlatning jinoyat-huquqiy taqiq o'rnatish yo'li bilan erishadigan maqsadlari belgilangan. Shu yo'l orqali Jinoyat kodeksining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati mustahkamlanadi, bu o'z navbatida ayrim qilmishlarning jinoyatligi va jinoyat emasligini aniqlash jarayoniga, kodeks me'yorlarining jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan amalda qo'llanilishiga, sud-huquq islohotining keyingi rivojlanishiga va hokazolarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, qonunning vazifasi jinoyat qilmishni aks ettirish, unga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish texnikasini takomillashtirish, buzilishi jinoyat hisoblanadigan qoida va blanket me'yorlarni qat'iy aniqlash va hokazolar maqsadida qonun chiqaruvchiga ta'sir o'tkazishga qaratilgan.

Demak, Jinoyat kodeksi bajarilishi inson huquqlari bo'yicha demokratik institutlarni rivojlantirishning kafolati bo'lib xizmat qilishini aks ettiruvchi uch vazifani aniqlaydi.

Ushbu vazifalar qonunda nihoyatda aniq va tizimli ifodalangan bo'lib, quyidagilardan iborat:

- birinchidan, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoyat tajovuzlardan muhofaza qilish;
- ikkinchidan, jinoyatlarning oldini olish;

– uchinchidan, fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash.

Birinchi, ya’ni **muhofaza qilish vazifasi** umuman jinoyat-huquqiy me’yorlar uchun, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi uchun asosiy mezon bo‘lib, muayyan ijtimoiy munosabatlarni (xavfsizligi va ijrosini ta’minlash orqali) ularga jiddiy zarar yetkazilishi yoki yetkazish imkoniyatidan, ya’ni obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan huquq yoki erkinlikni shaxs, jamiyat va davlat uchun amalda xavf tug‘diruvchi cheklov yoki yo‘q qilib yuborishlardan himoya qilishdan iborat.

Jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish vazifasi ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish holatidan, huquqni muhofaza qilish idorasining tarkibiy tegishliligidan (sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, DXX va shu kabilar), JK amal qilgan hududning ma’muriy-hududiy tegishliligidan va boshqalardan qat’i nazar, doimiy ravishda amalga oshiriladi. Ushbu yuqorida ko‘rsatilgan ijtimoiy munosabatlarni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish JKning amal qilish doirasida hamisha va hamma yerda amalga oshirilishi lozim.

Jinoyat kodeksining vazifasi sifatida ijtimoiy munosabatlarning jiddiy zarar yetkazilishidan himoya qilinishi ikkiyoqlama amalga oshiriladi:

a) jinoyat sodir etilishidan avval ma’lum qilmishlarni taqiqlash yoki tegishli xulq-atvorga rioya etish, ya’ni huquqiy jihatdan yo‘l qo‘yiladigan faoliyat chegaralarini belgilash orqali;

b) ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganidan keyin buzilgan huquqning aybdor shaxsga nisbatan jinoiy jazo choralarini qo‘llash orqali tiklanishini ta’minlash yo‘li bilan.

Buzilgan huquqning tiklanishi deb, yetkazilgan zararning ma’naviy yoki moddiy shaklda qoplanishi ehtimolini tushunish lozim (masalan, soliqlar yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash – JKning 184-moddasi 5-qismi, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish – JKning 167-moddasi 4-qismi kabi jinoyatlarni sodir etganda yetkazilgan zararni qoplash).

Shuni nazarda tutish kerakki, jinoiy tajovuzlardan himoya etiladigan ijtimoiy munosabatlar JKning aynan 2-moddasida mustahkamlanishi

tasodifiy emas, balki jahon hamjamiyatida umume'tirof etilgan demokratik huquqiy davlatning zamonaviy qadriyatlar tizimiga bo'ysundirilgan ko'rinishidir, ya'ni shaxs–jamiyat–davlat. JKning tarkibiy tuzilishi ham aynan ana shu tizim asosida ishlab chiqilgan, chunonchi uning «Maxsus» qismi shaxsga qarshi jinoyatlar bo'limidan boshlanadi.

Markaziy va eng muhim muhofaza obyekti sifatida JK shaxsni, uning huquqlari va erkinliklarini ko'zda tutadiki, bu Konstitutsiyaning 14-moddasi qoidalaridan kelib chiqadi. Konstitutsiyaga muvofiq eng oliy qadriyat inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jinoyat huquqida **shaxs** sifatida jamiyat va davlat bilan aloqalaridan alohida olib qaraluvchi har bir inson tushuniladi.

Insonning JK tomonidan muhofaza obyekti sifatidagi shaxs deb tan olinishi uchun uning yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, salomatligi va boshqa holatlar ahamiyatga ega emas. Jumladan, yangi tug'ilgan chaqaloq ham (masalan, JKning 99-moddasi), muomalaga layoqatsiz kishi ham (masalan, JKning 97-moddasi 2-qismi «v» bandi), voyaga yetmagan bola ham (masalan, JKning 128-moddasi), davlat yoki jamoat arbobi ham (masalan, JKning 155-moddasi 2-qismi), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (JKning 158-moddasi) va boshqalar ham shaxs deb tan olinadi hamda muhofaza qilinadi.

NOTA BENE !

Shaxs huquqlari – bu davlat va jamiyat tomonidan qondirilish majburiyati bilan tavsiflanadigan, insonning davlat va boshqa kishilarga nisbatan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi imkoniyatlari va da'volaridir.

Masalan, shaxsning yashash huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, mehnat qilish huquqlari, mulkka bo'lgan huquqlari va hokazolar shaxs huquqlari hisoblanadi. JKda qaysi huquq va erkinliklar

uning muhofaza qilish obyekti ekanligi ko'rsatib o'tilmagan, lekin JKning Maxsus qismi moddalarini tahlili shuni ko'rsatadiki, muayyan shaxs ega bo'lgan barcha huquqlar – ular o'ziga xos tavsifdaligi (masalan, nomusi va qadr-qimmatini himoya etish huquqi) yoki jamiyat, davlat tomonidan taqdim etilganligi (masalan, Qurolli Kuchlarda buyruq berish huquqi) himoya etilishi lozim.

NOTA BENE !

Shaxs erkinligi – bu insonning Konstitutsiyada yoki boshqa qonun hujjatlarida (qonunlar va qonunosti hujjatlari) aks ettirilgan muayyan xulq-atvori imkoniyati.

Shaxsning har qanday shaxsiy erkinliklari, uning tavsifidan qat'i nazar, JKning muhofaza obyekti hisoblanadi. Jumladan, so'z erkinligi, vijdon erkinligi, ilmiy va texnik ijodiyot erkinligi va boshqalar.

Shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari ham Kodeksning muhofaza obyekti hisoblanadi.

Jamiyat va davlat manfaatlari shaxs, uning huquq va erkinliklari hosilasi bo'lib, mazkur manfaatlarga (shaxs, uning huquq va erkinliklariga) zid bo'lishi mumkin emas. Ayni paytda ushbu manfaatlar bir insonning emas, balki umuman aholining huquq va erkinliklarini aks ettiradi. Shu bois, ular butun jamiyat yoki davlat uchun ham, alohida bir subyekt uchun ham muhim bo'lgan huquqlardir. Shundan kelib chiqib, Kodeks ushbu munosabatlarni jinoyat-huquqiy muhofaza qilish obyekti sifatida mustahkamlaydi.

Jamiyat manfaatlari – jamiyatning borligini belgilovchi uning eng muhim elementlari.

NOTA BENE !

Jamiyat deganda, o'zining ma'lum bir umumiy manfaatlari, o'zaro munosabat va madaniyati bilan o'zgalardan farqlanuvchi kishilar guruhi tushuniladi.

JKning 2-moddasi mazmuniga ko'ra, jamiyat deganda, biron davlatning fuqaroligiga mansubligi yoki boshqa shartlar bilan (jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy ahvoli va boshq.) bog'liqligidan qat'i nazar, Respublikaning butun aholisi tushuniladi.

Jamiyat manfaatlari sifatida axloq, ma'naviyat, iqtisodiy-ijtimoiy asoslar, jamiyatda xulq-atvor qoidalari va boshqalar qaralishi mumkin.

Davlat manfaatlari butun jamiyatning emas, balki uning ma'lum tarzda siyosiy uyushgan qismini ifodalovchi manfaatdir.

NOTA BENE !

Davlat – butun jamiyatga tatbiq etiladigan, uning rasmiy vakili sifatida chiqadigan va majbur qilish vositalari va tadbirlariga tayanadigan ommaviy hokimiyat tashkiloti¹.

JKning 2-moddasi mazmuniga muvofiq, davlat deganda, uni tashkil etuvchi organlarini emas, balki O'zbekiston Respublikasini yaxlit tushunish kerak.

Davlat manfaatlari deganda, unga jamiyat tomonidan yuklatilgan vazifa va funksiyalarni ijro etish uchun mavjud bo'lishi zarur hayotiy faoliyatning o'ta muhim elementlari, jumladan, huquq-tartibot, boshqaruv tartibi, siyosiy barqarorlik, hokimiyat organlarining faoliyat yuritishi, suverenitet va boshqalar tan olinadi.

NOTA BENE !

Mulk JK muhofaza obyekti sifatida moddiy dunyoning, shuningdek, mualliflik huquqi obyektlari sifatida mulkiy ashyolariga ega bo'lish yuzasidan va shunga bog'liq ravishda ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir guruhi sifatida namoyon bo'ladi.

Mulkchilikning shakli ahamiyatga ega emas, chunki konstitutsiyaviy qoidalarga muvofiq, mulk qanday huquqiy shaklda ekanligidan qat'i nazar, bir xilda himoya qilinadi.

Большой юридический словарь. / Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских. – М.: ИНФРА-М, 2000. – С. 129.

Tabiiy muhitni jinoyat-huquqiy muhofazaning mustaqil obyekt sifatida qarash barcha fuqarolar davlat himoyasi ostida bo'lgan va umummilliy boylik hisoblangan tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari (Konstitutsiyaning 50-moddasi) lozimligi haqidagi qoidaga asoslanadi¹.

Bugungi kunda «tabiiy muhitni asrash, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish umummilliy vazifa hisoblanadi va bu ekologiya tizimini, tabiat komplekslari va ayrim obyektlarning muhofazasini ta'minlashga, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashga qaratilgan»².

NOTA BENE !

Atrof tabiiy muhit jinoyat-huquqiy muhofaza obyekt sifatida ham alohida, ham butunligicha ekotizimni tashkil etuvchi biologik (o'simlik va hayvonot olami) va nobiologik (yer, yerosti, suv va atmosfera) elementlarga avaylab, oqilona munosabatda bo'lish va ularning saqlab qolinishini ta'minlash yuzasidan va shunga bog'liq ijtimoiy munosabatlar guruhidan iboratdir.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 17 б.

² Қаранг.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 20 декабря 1996 г. № 36, «О судебной практике по делам о преступлениях и иных правонарушениях в сфере охраны окружающей среды и природопользования» с изменениями и дополнениями, внесенными постановлением Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 июня 2002 г. № 10 // Сборник постановлений Пленума Верховного суда Республики Узбекистан 1991–2006, Т.1. –Т.: «Адолат», 2006. –С. 314. (Далее – Сборник, Т.1).

Shuningdek, Jinoyat kodeksi tomonidan muhofaza qilinadigan obyektlar sirasiga **insoniyat tinchligi va xavfsizligi** ham kiradi, bu esa O‘zbekistonning BMT Nizomi¹, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt², Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt³ va boshqa hujjatlarda aks etgan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me’yorlar tarafdori ekanligi bilan bog‘liq.

NOTA BENE !

Tinchlik va insoniyat xavfsizligi – davlatlar, millatlar va xalqlarning birgalikda tinch-totuv hayot kechirishi, xalqaro kelishmovchiliklarning oldini olish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etishning yagona mavjud usuli sifatida bahslarni tinchlik yo‘li bilan hal qilish, bashariyatning barqaror va progressiv rivojlanishini ta’minlash va jami yer yuzi aholisining manfaatlarini himoyalashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir.

JKning tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari uning Maxsus qismidagi mustaqil bobda jamlangan.

Jinoyatlarning oldini olish, ya’ni alohida me’yor sifatida huquqiy xulq-atvorni belgilovchi huquqiy ong darajasini shakllantirish orqali ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etilmasligini ta’minlash JKning muhim vazifasidir.

Jinoyatlarning oldini olish umumiy va maxsus prevensiya yo‘li bilan amalga oshiriladi.

¹ Qarang.: Устав Организации Объединенных Наций (Сан-Франциско, 26 июня 1945 г., вступил в силу 24 октября 1945 г.; Республика Узбекистан стала членом ООН 2 марта 1992 г.).

² Qarang.: Международный пакт о гражданских и политических правах (Принят и открыт для подписания, ратификации и присоединения Резолюцией 2200 А (XXI) Генеральной Ассамблеи ООН 16 декабря 1966 г., вступил в силу 23 марта 1976 г., присоединение Республики Узбекистан в соответствии с Постановлением Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 31 августа 1995 г., № 127-I, вступил в силу для Республики Узбекистан 28 декабря 1995 г.).

³ Qarang.: Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах (Принят и открыт для подписания, ратификации и присоединения Резолюцией 2200 А (XXI) Генеральной Ассамблеи ООН 16 декабря 1966 г., вступил в силу 3 января 1976 г., присоединение Республики Узбекистан в соответствии с Постановлением Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 31 августа 1995 г., № 126-I, вступил в силу для Республики Узбекистан 28 декабря 1995 г.).

NOTA BENE !

Umumiy prevensiya – umuman aholi tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish, bu esa, u yoki bu xatti-harakatning sodir etilishiga huquqiy taqiqni belgilash bilan ham, jinoyat sodir etgan shaxslarni jazolash bilan ham ta'minlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, keyingi holatda umumiy prevensiya, jinoiy jazolanadigan xatti-harakatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishning muqarrarligini namoyish etish orqali aholiga ta'sir etadi.

Umumiy prevensiyadan farqli ravishda maxsus prevensiya faqat aybdor shaxsga taalluqli bo'lishi bilan birgalikda, mazkur shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishi umumogohlantirish ahamiyatiga ega bo'ladi.

NOTA BENE !

Maxsus prevensiya – jinoiy javobgarlikka tortilgan muayyan shaxs tomonidan kelajakda ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish.

Fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash Kodeksda alohida vazifa sifatida belgilangan bo'lib, u huquqiy javobgarlikning eng og'ir turi hisoblangan jinoiy javobgarlikka tortish tahdidi ostida u yoki bu faoliyatni amalga oshirishda huquqiy mexanizmlarga rioya etishni nazarda tutadi. Aholining huquqiy ongi, huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish tarbiyaning mohiyatini tashkil etadi.

Fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalash umumiy prevensiyadan farqli ravishda muayyan xatti-harakat uchun jinoiy javobgarlik mavjudligini fuqarolar bilishini talab etmaydi, balki ularda qonunni buzishga to'sqinlik qiluvchi faol hayotiy pozitsiyani shakllantiradi. Shunday qilib, fuqarolarni tarbiyalash huquqiy bo'ysunish, ya'ni huquqiy qoidalarga ongli ravishda rioya etilishini ta'minlashdan iborat.

JK 2-moddasi 2-qismi Kodeks tomonidan qo'yilgan vazifalarni, xususan, quyidagilarni aniqlash orqali amalga oshirishning usul va uslublarini ko'rsatib beradi:

- jinoiy javobgarlikning asoslari va prinsiplari;
- jinoyat hisoblanadigan ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar;
- ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo va huquqiy ta'sirning boshqa choralari.

Kodeksning vazifalarini amalga oshirishning belgilangan usullari umumiy bo'lib, ular uning tarkibiy elementlari – Umumiy va Maxsus qismning bo'lim, bob va moddalarida aniqlashtiriladi.

4-§. Jinoyat huquqi prinsiplari

1994 yilgi JKda birinchi marta o'rnatilgan **jinoyat huquqining prinsiplari** jinoyat qonunida mustahkamlangan davlatning jinoyat-huquqiy siyosati mohiyatini va hozirgi yo'nalishlarini ifodalaydigan, sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik negizlari, chegaralari va shakllari haqida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, etnik, diniy va huquqiy tasavvurlarni aks ettiradigan yetakchi g'oyalar va asosiy qoidalaridir.

Jinoyat huquqining prinsiplar tizimi **JKning 3-moddasida** berilgan. Bu prinsiplar tizimi jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarining demokratik mohiyatini aks ettiradi va shu bilan birga huquqni qo'llash amaliyotining barqarorligi va yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi, bu bilan qonun chiqaruvchi tomonidan ayrim jinoyat-huquqiy me'yorlarni o'zgartish, qo'shimchalar kiritish, bekor qilishning hamda vakolatli davlat organlari tomonidan ularni qo'llashning rahbariy asoslarini belgilab beradi.

JKning 3-moddasi qonunning har bir me'yorida mavjud bo'lishi shart bo'lgan qadriyatlar strukturasi aks ettiradigan o'ziga xos andoza vazifasini o'taydi, ya'ni har qanday jinoyat-huquqiy norma ushbu moddada ko'rsatilgan yetakchi qoidalar majmuiga mos bo'lishi lozim, aks holda, u Jinoyat kodeksining normasi sifatida tan olinmaydi va amalda qo'llanilmaydi.

Jinoyat kodeksi normalari tizimi va jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari o'zaro bog'liq hamda bir-birini belgilovchi huquqiy prinsiplardan tarkib topadi.

NOTA BENE !

Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarining huquqiy prinsiplari jinoyat-huquqiy normalarda mustahkamlangan va Jinoyat kodeksi vazifalaridan kelib chiqqan holda jinoiy javobgarlikning umumiy asoslarini, yo'nalishini va hajmini belgilovchi tayanch g'oyalardir.

Kodeks vazifalaridan farqli o'laroq, jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari prinsiplari jinoyat-huquqiy siyosatning yo'nalishini aks ettirmasdan, balki uni amalga oshirishning ayrim tayanch usullarini belgilab beradi. Aynan Kodeksning vazifalari jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarining xususiyatlari va prinsiplar tizimini belgilab beradi. Prinsiplarning kodeks vazifalari bilan avvaldan belgilab qo'yilganligi mazkur g'oyalarning rahbariy asoslar sifatidagi xususiyatiga ta'sir etmasligini qayd etib o'tish lozim. Prinsiplarning bo'lmasligi kodeks vazifalarini faqat deklarativ xususiyatgagina ega qilib qo'yadi. Amaliyotda belgilangan prinsiplardan chekinish ularni bajarmaslikni va jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalarini amalga oshirmaganlikni bildiradi. Demak, vazifalar va prinsiplar birgalikda jinoyat-huquqiy tartibotning va ijtimoiy munosbatlarni himoya qilishning asosini tashkil etadi va aynan shuning uchun Kodeks «Jinoyat kodeksining vazifalari va prinsiplari» bobi bilan boshlanadi.

Jinoyat kodeksining prinsiplari yangi huquqiy me'yorlar ishlab chiqish va qonunni qo'llash amaliyotida rahbariy ahamiyatga ega umumiy g'oyalardan iboratdir. Mazkur g'oyalarning huquqiy me'yorlar shakliga keltirilishi ularga o'zgacha ijtimoiy mohiyat baxsh etadi, ularni tartibga soluvchi ta'sirchan omillarga aylantiradi. Qonunda aks etganidan so'ng ular insonlarning huquqiy ongiga ta'sir etuvchi qonun yaratish va uning huquqiy qo'llash jarayonida rioya etilishi lozim bo'lgan majburiy me'yorlar xususiyatini kasb etadi. Prinsiplarning huquqiy mohiyati O'zbekistonning butun hududida ularni tushunish va qo'llashda yagona yondashuvni ta'minlaydi.

Prinsip-normalarning fuqarolarga ta'siri ularning fuqarolarni tarbiyalash, ularning huquqiy ongini shakllantirishiga ko'maklashuvchi va

shu orqali jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy munosabatlarni sezilarli zarar yetkazilishidan himoya qilishdan iboratdir. Me'yoriy-huquqiy prinsiplarning fuqarolarga ta'siri kodeksda belgilangan qoidalarni buzmaslikka da'vat qilish darajasidagi ularning huquqiy ongini shakllantirish va bu qoidalarga faqat davlat va jamiyat manfaatlari nazaridan emas, balki o'zining shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda yoki bo'lmasa davlat tomonidan o'rnatilgan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning realligidan, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish zarurligidan kelib chiqqan holda rioya ettirish maqsadini ko'zlaydi.

Kodeksda jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarining yetakchi g'oyalarini mustahkamlovchi maxsus moddalar mavjudligi olib borilayotgan jinoyat-huquqiy siyosatning vazifalarini samaraliroq hal etish va uning mohiyatini chuqurroq anglab yetishga ko'maklashadi.

Huquqiy prinsiplarning dastlabki tergov, prokuratura va sud idoralarining mansabdor shaxslarga ta'siri, o'z navbatida, jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarining to'g'ri qo'llanilishi, inson huquqlari va erkinliklarining himoya qilinishiga va bu boradagi O'zbekiston Respublikasi jinoyatga oid siyosatini yurg'izishning barqarorligi va birligi, shuningdek, xizmat vazifalarini bajarishda talabchanlik va shaxsiy mas'uliyatni oshirishdan iboratdir.

Qonun ijodkorligi jarayonida huquqiy prinsiplarning ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Prinsip-normalar qonun chiqaruvchi organning qonun chiqarish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Jinoyat-huquqiy normalarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida qonun chiqaruvchi jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida mustahkamlangan rahbariy g'oyalar tizimiga tayanadi.

Huquq sohasining har biri uchun taalluqli bo'lgan umumiy g'oyalar **3-moddada** keltirilgan huquq sohasining har bir tarmog'ida inobatga olingan. Jinoyat kodeksi mavhum umumijtimoiy qadriyatlarni nazarda tutmaydi, balki aniq huquqiy hodisalarni ifodalaydi. Misol uchun, umumijtimoiy prinsip sifatida tan olingan qonuniylik prinsipining

mazmun-mohiyati Konstitutsiya va qonunning ustunligida aks etadi. Jinoyat kodeksining **4-moddasida** keltirib o‘tilgan «sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi», deb mustahkamlangan normativ-huquqiy normada jinoyat-huquqiy prinsiplarning aniqligi alohida tavsifga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Qonuniylik prinsipi Jinoyat kodeksida mustahkamlangan prinsiplarning tartibini boshlab beradi. Biroq, buni bir prinsipning boshqa bir prinsipdan ustunligi sifatida tushunmaslik kerak. Jinoyat kodeksining **3-moddasida** aks ettirilgan qonuniylik prinsipi har bir prinsipni bir-biri bilan bog‘lab, to‘ldirib turadi. Qonunda prinsiplar tizimini qo‘llash jinoyat-huquqiy normada ifodalangan aniq ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan alohida olingan prinsip elementlarini qo‘llash holatiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Qanchalik muhim bo‘lmasin, Jinoyat kodeksi faqat birgina prinsipga tayanib qolishi mumkin emas, zero, u oldiga qo‘yilgan har bir masalani yechib bera olmaydi. Tizimning ta’sir doirasi Jinoyat kodeksida keltirilgan barcha prinsiplarning harakatida aks etadi.

5-§. Qonuniylik prinsipi

Qonuniylikka rioya etish majburiyligi O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonunida qayd etilganidek, «Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi» (Konstitutsiyaning 15-moddasi 1-qismi)¹.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисmlарига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча қиритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг

Konstitutsiyaning 14-moddasiga asosan¹, qonuniylik prinsipi davlat faoliyatining eng asosiy prinsipi hisoblanib, ushbu konstitutsiyaviy qoidalar Jinoyat kodeksining boshlang'ich asosi sifatida qonuniylik prinsipida o'rnatilgan hamda u Konstitutsiyaning 16-moddasiga asosan², O'zbekiston Respublikasi qonunlari normalari va prinsiplariga zid kelmasligi lozim.

Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida **qonuniylik prinsipi** tor yo'nalishda ifodalangan bo'lib, asosan JK vazifalariga nisbatan qo'llashga mos holda talqin qilinadi. **JKning 4-moddasida** ushbu prinsip quyidagicha belgilangan: «Sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi.

Hech kim sudning hukmi bo'lmay turib, jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs qonunda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi».

Umumhuquqiy sohaning asosi bo'lgan qonuniylik prinsipidan farqli ravishda kodeksdagi ushbu prinsip, avvalambor, jinoyat, jazo va boshqa huquqiy choralarning qo'llanilishi faqat Jinoyat kodeksi asosidagina tartibga solinishini anglatadi. Qonuniylik prinsipiga jinoyat-huquqiy yondashuvning ko'rinishi sifatida aybsizlik prezumpsiyasi va aybdor shaxsning huquqiy maqomini ko'rsatish mumkin.

Qonuniylik prinsipi jinoyat-huquqiy ma'noda quyidagilarni anglatadi:

– faqat Jinoyat kodeksigina qanday qilmish jinoyat sifatida tan olinishini, aybdorga qanday jazo qo'llash (uning turi, chegarasi va tayinlash tartibi) va jinoyat sodir qilish, jazodan tashqari, yana qanday boshqa huquqiy oqibatlar tug'dirishi mumkinligini belgilaydi (nullum crimen sine lege);

Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 7 б.

¹ Ўша жойда.

² Ўша жойда.

– faqat sudning hukmiga va mutlaqo qonunga asosan shaxs jinoyat sodir etgan deb topilishi va jazolanishi mumkin;

– ayblanuvchining huquqiy holati faqatgina qonun bilan tartibga solinadi.

«Nullum crimen sine lege» prinsipi qonuniylikning jinoyat-huquqiy prinsipi uchun asosiy va an'anaviy prinsip hisoblanib, u aynan qonun bilan taqiqlangan xatti-harakatgina jinoyat ekanligini anglatadi. Biroq «nullum crimen sine lege» prinsipi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra yanada kengroq va boy bo'lib, quyidagi bir necha jihatlarni qamrab oladi:

– shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun huquqiy asos bo'ladigan va uning huquqiy oqibatlarini belgilab beradigan qonunchilik manbalari;

– shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish shartlari va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar.

Qonuniylik prinsipi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish va uning huquqiy oqibatlarini aniqlashda qonunchilik hujjatlari turlarining tartibga solinishini nazarda tutadi. Demak, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish, unga jazo tayinlash va huquqiy ta'sir choralarini qo'llash faqat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilangina belgilanadi. Bu har qanday boshqa qonun hujjati qo'llanishi istisno etiladi, demakdir. Bu talabda jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari faqat Jinoyat kodeksidan iboratdir deb ko'rsatilgan. Bu O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 1-moddasi talablariga to'la mos keladi.

Shunday qilib, qonuniylik prinsipi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda jinoyat qonunining aniq va yagona shaklini o'rnatib, uning yuridik va boshqa huquqiy oqibatlarini tartibga soladi. Jinoyat qonunida ko'rsatilmagan har qanday boshqa qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoyat huquqida analogiya institutining yo'qligi sababli amaliyotda paydo bo'lgan har qanday yangi ijtimoiy xavfli qilmish Jinoyat kodeksiga kiritilmagunga qadar jinoyat deb topilmaydi.

Qonuniylik prinsipi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish asoslarini belgilashda namoyon bo'ladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, shaxs jinoiy javobgarlikka sodir etgan muayyan qilmishi (harakati yoki harakatsizligi)

uchungina tortilib, uning fikri va qarashlari jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo‘la olmaydi. Jinoyat kodeksi **4-moddasi 1-qismida** qonuniylik prinsipi haqida to‘xtalib, jinoyat va jazo faqat harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etilishi nazarda tutilgan. Qonuniylik prinsipining ushbu qoidasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (29-modda)¹, Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari va prinsiplari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda (15-modda) ko‘rsatib o‘tilgan qoidalarga to‘la mos keladi.

Shuningdek, qonuniylik prinsipi u yoki bu xatti-harakatni jinoyat sifatida qabul qilish va jinoiy javobgarlikka tortish tahdidi bilan jinoyat qonunida mustahkamlaydi. Jinoiy qilmish shaxsning harakati va harakatsizligi bilan tavsiflanadi.

Qilmishning jinoiyligi uni ijtimoiy xavfli deb baholash uchun asos bo‘ladigan harakat yoki harakatsizlikning tarkibi bilan ifodalanadi. Jinoiy qilmishning ijtimoiy xavfliligi oqibatida Jinoyat kodeksi bilan himoyalangan ijtimoiy munosabatlarga yetgan yoki yetishi mumkin bo‘lgan zarar darajasida ifodalanadi.

Qilmishda jinoiylik xususiyatining mavjud emasligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortmaslikka asos bo‘ladi. Masalan: shaxsning qandaydir shartnoma sharti majburiyatini bajarmaganligini asos qilib ozodlikdan

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 12 б.

mahrum etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi¹. Shunga o‘xshash qoida MDHning Inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risidagi Konvensiyasida ham o‘z ifodasini topgan.

Qilmishni jinoiy deb topish uchun boshlang‘ich nuqta sifatida, uni ijtimoiy munosabatlar uchun xavfliligini aniqlash hisoblanadi, ya‘ni jinoyat qonuni ijtimoiy jihatdan zarur bo‘lishi lozim: agar harakat, ijtimoiy hayot talabidan kelib chiqib, yetarli darajadagi va xususiyatdagi xavflilikni tashkil qilmasa, u jinoiylik xususiyatini yo‘qotadi va Jinoyat kodeksidan chiqarilishi shart.

Qilmishning jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlar ham jinoyat qonunida belgilanishi qonuniylik prinsipining o‘ziga xos ko‘rinishini tashkil qiladi.

Qilmishning jazoga sazovorligi ham qonuniylik prinsipi uchun uning jinoiylikni belgilashdan kam bo‘lmagan ravishda ahamiyatga ega. Ammo qilmishning jinoiylik shaxs harakat yoki harakatsizligining xususiyati bo‘lsa, qilmishning jazoga sazovorligi uni sodir etganlikning oqibati bo‘lib, jinoiy qilmish sodir etgan shaxsni JKda belgilangan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashda ifodalanadi.

JKga muvofiq jazoga sazovorlik jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qattiqroq ta‘sir choralarini – jinoiy jazo choralarini qo‘llashni nazarda tutadi. Ushbu choralar shaxsning huquq va erkinliklarini jiddiy ravishda cheklaydi, shuning uchun ularni qo‘llash faqat jinoyat qonuni bilan tartibga solinishi lozim. Qonuniylik prinsipining jinoyat qonunida namoyon bo‘lishi aynan shunda ifodalanadi. Bunda qilmishning jazoga sazovorligi, jinoiy jazo choralarini jinoyat qonunida umuman (jazo tizimi sifatida) va xususan aniq jinoyat uchun nazarda tutilgan bo‘lishini anglatadi. Ushbu belgilardan birortasining mavjud emasligi qo‘llanilgan jazoni qonuniy deb topishni istisno qiladi.

Boshqa huquqiy oqibatlar kelib chiqishi jinoyat sodir etilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ammo jinoiy jazolar sirasiga kirmaydi. Jumladan, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning barcha ko‘rinishi, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash, sudlanganlik va hokazolar boshqa huquqiy

¹ Каранг: Фукаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт, 11-м.

oqibatlar jumlasiga kiradi. Qonuniylik prinsipiga ko'ra, barcha huquqiy oqibatlar faqat jinoyat qonuniga asoslanmog'i kerak. Shuning uchun jinoyat qonuni qamrab olinmagan jinoiy qilmishning huquqiy oqibatlari qonunga asoslangan deb tan olinmaydi (masalan, sudlanganligi olib tashlangan shaxsni ishga qabul qilishdan bosh tortish noqonuniy hisoblanadi).

Qonuniylik prinsipi jinoyat qonunini qo'llash jarayonida uning mazmunini qonun matniga to'la mos ravishda tushunilishini nazarda tutadi. Huquqni muhofaza qilish organlari Jinoyat kodeksi normalarini o'z xohishlariga ko'ra talqin qilmasdan, birinchi navbatda, qonun mazmuniga hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlariga asoslanishlari lozim. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, plenum qarorlari amaldagi Jinoyat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmasdan olmaydi. Qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish masalasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan organlar tomonidan taklif kiritilganidan keyin qonun chiqaruvchi organ tomonidan tegishli tartibda hal qilinadi.

Qonun to'liq qo'llanilishi lozim. Jinoyat qonunini qisman, to'liq bo'lmagan holda qo'llash, ya'ni uning ma'lum bir qismini – faqat dispozitsiya yoki faqat sanksiyasini qo'llash qonuniylik prinsipini qo'pol buzish hisoblanadi. Qonuniylik prinsipi buzilishi oqibatida aybdor shaxs jazosiz qolishi (jinoiy javobgarlik asoslari bo'la turib, shaxs qonunga xilof ravishda jazodan ozod qilib yuborilganda) yoki aybsiz shaxs jinoiy javobgarlikka tortilib ketishi mumkin (asossiz ravishda qilmishni jinoyat deb kvalifikatsiya qilish oqibatida shaxsning sudlanishi). Qonuniylik nafaqat jinoyat-huquqiy normani uni tashkil etuvchi barcha qismlari hajmida qo'llashni, balki qilmishni muayyan normaga muvofiq, unda nazarda tutilgan jinoyatning barcha belgilari bo'lgandagina kvalifikatsiya qilinishini nazarda tutadi.

Qonuniylik prinsipining mazmuni qonunga asoslangan holda sud hukmi bilan shaxsni aybdor deb topishda va jazo tayinlashda namoyon bo'ladi. Ushbu qoida Konstitutsiyaning 26-moddasida¹ o'rnatilgan aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqqan bo'lib, ayni paytda u jinoyat

huquqidagi qonuniylik prinsipining tarkibiy elementi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

– shaxsning muayyan qilmishining jinoyat ekanligi faqat sud hukmi bilan aniqlanadi;

– sodir etilgan muayyan jinoyat uchun jazo ham faqat sudning hukmi bilan tayinlanadi;

– shaxsni jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topish va sud hukmini chiqarish tartibi faqat qonunda belgilanadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi jinoyat qonuni nuqtai nazaridan nullum crimen sine lege prinsipini qo‘llashning xususiy holati, ya’ni ushbu prinsipni inson tomonidan sodir etilgan muayyan qilmishga qo‘llashdir. To‘g‘rirog‘i, JK qilmishlar tarkibining umumiy shaklini inson faoliyatining muayyan ifodasiga bog‘lamagan holda belgilaydi. Shu bilan bir vaqtda, qonuniylik prinsip sifatida sodir etilgan qilmishning barcha holatlariga nisbatan qonunni to‘liq qo‘llashda individual yondashuvni talab qiladi. Individual yondashuv jinoyat sodir etgan muayyan shaxsga nisbatan, muayyan ish bo‘yicha chiqarilgan sud hukmida o‘z ifodasini topadi.

NOTA BENE !

Sud hukmi – sud hokimiyatining jinoyat ishi yuzasidan chiqarilgan hamda sudlanuvchining aybdor yoki aybsizligini, jazo chorasini belgilaydigan, shuningdek, sudlanuvchini aybdor yoki aybsiz deb topish natijasida boshqa huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan huquqiy akt.

Bir necha sudlanuvchiga nisbatan chiqarilgan sud hukmi jinoyat qonunini individuallashtirgan holda qo‘llanilishi bilan farqlanib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 457-moddasiga asosan, sud hukm chiqarishda sudlanuvchilarning har biriga nisbatan quyidagi masalalarni hal etishi lozim:

– sudlanuvchi aybli deb topilayotgan qilmish haqiqatan ham sodir etilganmi;

– bu qilmish jinoyat hisoblanadimi va u Jinoyat kodeksining qaysi moddasida nazarda tutilgan;

- bu qilmishni sudlanuvchi sodir etganmi;
- sudlanuvchi jinoyat sodir etilishida ayblimi, basharti aybli bo‘lsa, uning aybi qanday shaklda;
- sudlanuvchining javobgarligini yengillashtiradigan va og‘irlashtiradigan holatlar mavjudmi;
- sudlanuvchi sodir etgan jinoyati uchun jazolanishi kerakmi;
- sudlanuvchiga nisbatan qanday jazo tayinlanishi lozim va shu jazoni o‘tashi kerakmi;
- sudlanuvchini Jinoyat kodeksining 34-moddasiga muvofiq o‘ta xavfli retsivist deb topish lozimmi;
- ozodlikdan mahrum qilingan mahkum jazoni qanday tartibli koloniyada o‘tashi lozim va u jazo muddatining bir qismini turmada o‘tashi kerakmi;
- fuqaroviy da‘voni qanoatlantirish kerakmi, bu da‘vo kimning foydasiga va qancha miqdorda qanoatlantirilishi lozim, shuningdek, fuqaroviy da‘vo qo‘zg‘atilmagan bo‘lsa, jinoyat tufayli keltirilgan mulkiy zarar undirilishi kerakmi, sudlanuvchilar solidar yoki hissali javobgarlikka tortilishlari kerakmi;
- fuqaroviy da‘voni ta‘minlash uchun xatlangan mol-mulkni nima qilish kerak;
- ashyoviy dalillarni nima qilish kerak;
- protsessual chiqimlarni kimning zimmasiga va qancha miqdorda yuklash kerak;
- sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash, ilgarigisini qoldirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish kerakmi;
- sudlanuvchiga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash yoxud uning ustidan homiylik belgilash zarurmi.

Sud hukmi – bu sud hokimiyatining O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqaradigan yagona hujjati bo‘lib, u shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishga nisbatan huquqiy baho beradi.

Shaxsni jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topish va hukm chiqarish tartibi faqat qonunda belgilanishi kerak bo‘lib, u qonuniylik prinsipining ajralmas qismidir. Agar shaxsning harakat yoki harakatsizligidan iborat

qilmishlarning jinoyligi va jazoga sazovorligining umumiy qoidalari qonun tomonidan oʻrnatilgan boʻlsa, unda muayyan holatlarga nisbatan ushbu qoidalarni qoʻllash tartibi ham qonunda belgilangan boʻlishi kerak. Oʻzbekiston Respublikasida shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish va unga nisbatan hukm chiqarish tartibini belgilovchi qonun Jinoyat-protsessual kodeksidir.

Qonuniylik prinsipining tarkibiy qismlaridan biri boʻlmish aybsizlik prezumpsiyasiga koʻra, aybdorligi isbotlangan jinoyatchiga nisbatan qoʻllanilishi mumkin boʻlgan huquq va erkinliklarni cheklash choralari hali jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsga nisbatan qoʻllanilishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Ayblanuvchi, hattoki, qamoqda saqlanayotganda ham mahkumning huquqiy maqomidan farq qiluvchi huquqiy maqomga ega boʻladi, xususan, u saylovlarda qatnashish huquqiga ega, ishdan boʻshatilishi mumkin emas, u shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilish va boshqa huquqlaridan foydalanadi. Ayblanuvchining konstitutsiyaviy huquqlarini barcha cheklashlar faqat zarur hollardagina qonun asosida qoʻllanilishi mumkin.

Jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxsning huquq va majburiyatlari faqat qonun bilan tartibga solinib, bu jinoyat huquqidagi qonuniylik prinsipining yakunlovchi bosqichidir.

Shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish uning huquqiy maqomining oʻzgarishiga olib keladigan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Xususan, aybdor deb topilgan shaxsning baʼzi bir huquqlari cheklanishi bilan birga unga ayrim qoʻshimcha majburiyatlar ham yuklatiladi. Huquqiy holatdagi bu oʻzgarishlar mahkumga jazo tayinlashda yoki ayblanuvchiga boshqa taʼsir choralari qoʻllashda (tibbiy yoʻsindagi majburlov choralari, shartli hukm qilish va boshqalar) namoyon boʻladi. Shunday qilib, ayblanuvchining huquqiy maqomini cheklovchi u yoki bu choralar faqat qonunga (JK, JPK) asoslanadi, boshqa qonunosti aktlar inobatga olinmaydi.

Ushbu talablar **JKning 4-moddasida** oʻrnatilgan «nullum crimen sine lege» qoidasidan kelib chiqib, unga muvofiq jazoga sazovorlik va boshqa huquqiy oqibatlar faqat qonunda belgilanadi. Unga koʻra aybdor deb

topilgan shaxsga nisbatan tayinlanadigan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarning mohiyati qonun bilan belgilangan bo'lishi kerak.

Qonuniylik prinsipi, nafaqat, qonunni qo'llash amaliyotida, balki qonun ijodkorligi jarayonida ham muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, jinoyat qonuni jinoiy qilmish va uni sodir etishning huquqiy oqibatlariga xos bo'lgan alomatlarni aniqlasa, qonuniylik prinsipi qonun chiqaruvchini muayyan jinoyatning alomatlarini aniq va to'liq ko'rsatish hamda jinoyat qonunining o'zida huquqni muhofaza qiluvchi organlar duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni yechishga undaydi.

Qonunchilikda ushbu prinsipning roli xatti-harakatlarning jinoyat yoki jinoyat emasligini aniq ko'rsatgan holda qonunning aniq va bir xilda amal qilishini ta'minlashda ko'rinadi.

Bu prinsipga rioya qilish jinoyat qonunchiligida jazo tayinlash amaliyotida bir xillikni ta'minlashga yordam beradi. O'z navbatida, ushbu qoidalar jazo sanksiyalari miqdorining minimumi va maksimumini va boshqa holatlarni belgilashi bilan ham uzviy bog'liqdir.

6-§. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi

JKning 5-moddasida barcha demokratik davlatlarning umumhuquqiy prinsipi – **fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi** izchil ravishda aks ettirilgan. Konstitutsiyaning 18-moddasida¹ mustahkamlangan ushbu

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисmlарига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган

prinsipning Jinoyat kodeksi vazifasi sifatida o‘rnatilishi uning konstitutsiyaviy qoida bo‘lmish qonun oldida tenglik prinsipini amalda bo‘lishini ta‘minlaydi. Bunga ko‘ra, JK umumiy tenglik prinsipini emas, balki jinoiy qilmishni sodir etish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslarning tengligini nazarda tutadi. **JKning 5-moddasiga** muvofiq, «Jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar».

Qonun oldida tenglik prinsipi jinoyat sodir etgan shaxslarning huquqiy maqomi asoslarini mustahkamlaydi, ular shaxs, jamiyat va davlat oldida bir xil huquq va majburiyatlarga ega va qonun tomonidan ularga bir-biriga nisbatan biron-bir imtiyozga ega emas. Shuni aytib o‘tish kerakki, **JK 5-moddasidagi** bir xil huquq va majburiyatlar – bu jinoyat sodir qilgan har bir shaxs uchun bir xilda bo‘lgan huquqiy maqomdan darak beruvchi tavsifdir. Bu shaxslarning birortasi ham boshqalariga nisbatan imtiyozlarga ega bo‘lmaydi, boshqacha aytganda, jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning huquq va erkinliklari qonun oldida bir xil bo‘lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jinoyat qonuni oldidagi tenglik to‘g‘risidagi qoida huquq va majburiyatlarning tengligi to‘g‘risidagi qoidaning hosilasi hisoblanadi. Qonun oldida tenglik jinoyat sodir qilgan shaxslarning huquq va majburiyatlari JK bilan tartibga solinishini va bunda hech kim imtiyozlardan foydalanmasligini hamda hech kimning huquq va erkinliklari cheklanmasligini anglatadi.

Jinoyat kodeksida mustahkamlangan qonun oldida tenglik prinsipi faqat jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Ya‘ni, jinoyat-huquqiy jihatdan tenglik prinsipi cheklangan xususiyatga ega va jinoyat sodir qilgan muayyan shaxslar doirasida amalda bo‘ladi.

Qonun oldida tenglik prinsipi umumiy jinoiy va xususiy jinoiy ko‘rinishlarga ega.

қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 8 б.

Jinoyat huquqi uchun umumiy ko‘rinish sifatida ushbu prinsip jinoyat sodir etgan shaxslarning huquqiy maqomining fundamental asoslarini Kodeksda mustahkamlashda namoyon bo‘ladi. Bu ko‘rinish sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik va jazoning muqarrarligi, og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligi bilan ifodalanadi. Shunday qilib, tenglik prinsipining umumjinoiy ko‘rinishi jinoyat tarkibiga aloqador bo‘lmagan asosiy huquq va majburiyatlarning qonun oldida tengligini o‘zida namoyon etadi.

Jinoyat huquqi uchun xususiy ko‘rinish tenglik prinsipida bir xil jinoyat sodir etgan shaxslar bir-biridan ustun qo‘yilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Tenglik prinsipining ushbu ko‘rinishi sodir etilgan jinoyat tarkibidagi bir xillik hamda jinoyat sodir etgan shaxsning huquqiy maqomidagi tenglikda namoyon bo‘ladi. Xususan, bezorilikda ayblangan bir necha shaxsni bir-biridan farqli qarash bekor bo‘lmaydi, biroq ayni paytda odam o‘ldirish jinoyatini sodir etgan shaxs bilan o‘g‘irlik sodir etgan shaxsning huquqiy holati yoki boshqa holatidagi farq, masalan, ularning voyaga yetgan-yetmaganligi, tayinlanadigan jazo, jazoni o‘tash va boshqa holatlarida bo‘lishi mumkin.

Jinoyat kodeksida, faqat maxsus subyektlar (mansabdor shaxslar, harbiylar) javobgarligi bilan cheklanadigan moddalarning mavjudligi sharhlanayotgan moddaga zid kelmaydi. Ushbu subyektlarga nisbatan javobgarlik ularning majburiyat va vakolatlaridan kelib chiqib sodir etadigan qilmishlari uchun nazarda tutiladi. Ayni paytda, bunday tarkibdagi jinoyat sodir qilgan shaxslarning huquqiy maqomi doirasida ham tenglik prinsipi qat’iy amalda bo‘ladi.

Tenglik prinsipiga zid kelmagan holda ayrim fuqarolar (deputatlar, sudyalari va boshq.) jinoiy javobgarlikka tortilmay yoki jazodan ozod qilinmay sodir etgan jinoyati uchun alohida tartibda javobgarlikka tortiladi. Ko‘rsatib o‘tilgan toifadagi mansabdor shaxslarga nisbatan alohida qoidalarining mavjudligi, ularning alohida turdagi davlat xizmatini bajarishini hisobga olganda, to‘la asoslidir. Shuningdek, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan shaxslar aholining normal va mustaqil hayot kechirishini

ta'minlash yo'lida o'z funksiyalarini amalga oshiradi, lekin ularning huquqiy maqomini belgilashda imtiyoz va ustunliklar nazarda tutilmaydi.

Sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibining mavjudligi (JKning 16-moddasi) – jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlariga ko'ra, jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib, u har qanday shaxslar uchun bir xil amal qilib, tenglik prinsipiga rioya qiladi. Qilmishda jinoyat tarkibidagi barcha elementlarning mavjudligi jinoyat sodir qilgan shaxsda maxsus huquqiy maqomning vujudga kelishiga asos hisoblanadi. Boshqa hech qanday shaxsiy xususiyatlar bu maqomga ta'sir qilmaydi.

Jinoiy javobgarlikka tortishda jinoyat tarkibi yagona asos sifatida qaralishi fuqarolarning qonun oldida tengligida namoyon bo'ladi va qonun huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga jinoyatning barcha belgilarini aniq ko'rsatib, keyin uni JKning tegishli moddasiga asosan isbotlash majburiyatini qo'yadi.

7-§. Demokratizm prinsipi

O'zbekiston Respublikasi suveren demokratik davlat bo'lib, o'z istiqbolini ijtimoiy adolat va qonuniylik asosida ko'rib, u hozirgi va kelajak avlod manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat hokimiyati xalq irodasiga asoslanib, bu davlat hokimiyatiga xalq vakillarini saylashda namoyon bo'ladi va demokratiyaning bir elementi sifatida ko'rinadi. Demokratizm har bir jabhada mavjud bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasi jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari ham bundan xoli emas.

Demokratizm prinsipining jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida namoyon bo'lishi jinoyat huquqi normalarida xalqimiz irodasini ifoda etib, pirovardida bu normalar O'zbekiston fuqarolarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. **JK 6-moddasiga** binoan, «Jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki jamoalar jinoyat sodir etgan shaxslar axloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilinishi mumkin».

Demokratizm prinsipi jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari normalarini amalga oshirishda, xususan, jinoyat sodir etgan shaxslarni tarbiyalashda jamoatchilik vakillarini jalb qilishni nazarda tutadi. Xuddi

shu yo'l bilan o'tkazilayotgan islohotlar davlatning jinoyat-huquqiy siyosatini amalga oshirishning samaradorligini ta'minlaydi.

Demokratizm prinsipi jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan holda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llaniladigan shaxslarni tarbiyalashda jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoalar ishtirokining ko'pgina jihatlarini belgilab bergan jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida o'zining ifodasini topgan. Qonun asosiy e'tiborni ozodlikdan mahrum etish muassasasidan ozod qilingan shaxslar axloqini tuzatish, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan voyaga yetmaganlarni tarbiyalashga jamoatchilik vakillarini jalb qilishga qaratadi.

8-§. Insonparvarlik prinsipi

Insonparvarlik prinsipi **JK 7-moddasiga** ko'ra quyidagilarni anglatadi:

«Jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi.

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerak.

Jazolashdan ko'zlangan maqsadga ushbu kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo'llash orqali erishib bo'lmaydigan taqdirdagina og'irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin».

JKning 7-moddasi – insonparvarlik prinsipi inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi mustahkamlangan Konstitutsiyaning 13-moddasi¹ mazmunini aks ettiradi. Ayni paytda ushbu modda konstitutsiyaviy normaning Jinoyat kodeksidagi takrori hisoblanmaydi, balki jinoyat-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

Jinoyat kodeksida mazkur prinsipning mohiyati muayyan shaxslarga nisbatan (jinoyat sodir etgan) jazo tayinlash yoki boshqa ta'sir choralarni qo'llashda namoyon bo'lib, kodeksning ushbu qoidasi boshqa qoidalar

¹ Ўша жойда 7-б

kabi real, ijtimoiy hayotda asoslangan va amaliy ijrosi mavjud bo'lishi kerak. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jazo tayinlash instituti ushbu tavsifga mos keladi. Jinoyat huquqidagi insonparvarlik prinsipi jinoyat sodir etgan shaxs bilan munosabatga kirishilganda o'z mohiyatini namoyon etishi jahon amaliyotida tan olingan.

JKning 7-moddasi tarkibiy tuzilishi mazmuni insonparvarlik prinsipini jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan izchil mustahkamlashga bo'ysundirilgan bo'lib, jamiyat va davlatning ushbu shaxsga nisbatan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llashida namoyon bo'ladi. Moddaning bunday konstruksiyasi huquqni qo'llash faoliyatidagi birlikni ta'minlash va jinoyat huquqi sohasida qonun ijodkorligining istiqbolini belgilashda katta ahamiyatga ega.

JKning 7-moddasi 1- va 2-qismlari jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llashning umumiy asoslarini o'rnatgan holda ularning mohiyatini aniqlaydi. Bunda jazo va boshqa ta'sir choralari shaxsga nisbatan qo'llanilishi negativ va pozitiv uslublarda ko'rinadi:

– jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi;

– jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilgan chora uning yana qayta jinoyat sodir etishining oldini olishi zarur.

Jinoyat kodeksidagi ushbu prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (26-modda, 2-qism)¹ hamda umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga muvofiq, shaxsga nisbatan jazo va boshqa ta'sir choralari qo'llash bilan unga jismoniy azob berish yoki ruhiy ta'sir o'tkazishni maqsad qilmaydi.

JK 7-moddasidagi jismoniy azob berish va inson qadr-qimmatini kamsitish deganda, jismoniy va ruhiy xususiyatdagi har qanday azob emas, balki faqat jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llash mohiyatidan kelib chiqmaydigan yoki tasodifan kelib chiqadiganlarini anglash lozim. Keltirilgan modda qoidalariga muvofiq, jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari ortiqcha azob va kamsitishlarni keltirib chiqarmasligi kerak, chunki bunday harakatlar shaxsning o'z hayot

¹ Ўша жойда 11-б

faoliyatini davom ettirish qobiliyatiga putur yetkazadi. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga binoan jazo jinoyat sodir etgan shaxsdan o‘ch olish maqsadida emas, balki kodeksning insonparvarlik g‘oyalariga tayanib, uni tarbiyalash va jamiyatga qaytarishni ko‘zda tutadi.

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jazo tayinlash unga jismoniy azob berish yoki qadr-qimmatini kamsitishni nazarda tutmasdan uning qayta tarbiyalanishi va yangi jinoyat sodir etmasligi uchun zarur va yetarli ta‘sir choralari insonparvarlik prinsipining mohiyatini belgilaydi.

Zarurlik va yetarlilik – bu jazo va boshqa huquqiy ta‘sir chorasi tayinlashning muhim ikki belgisi hisoblanib, biri eng kam miqdorni, boshqasi eng ko‘p miqdorni ko‘rsatadi.

Jazo tayinlashning zarurligi sodir etilgan jinoyatga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo turi va miqdorini belgilashda namoyon bo‘lib, u sodir qilingan jinoyatga nisbatan umumiy xususiyatga ega.

Jazoning yetarliligi jinoyat sodir etgan shaxsni tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan jazo turi va miqdorining eng kamini tanlashda namoyon bo‘ladi. Jazo tayinlashning yetarliligi aniqroq xususiyatga ega bo‘lib, shaxs va u sodir qilgan muayyan jinoyatning xususiyatlarini hisobga oladi.

Jazo tayinlashning zarurliligi va yetarliligi qoidasiga har bir holatda qat‘iy rioya qilinishi lozim. Xususan, hukm chiqarishda sud insonparvarlik prinsipini nazarda tutgan holda qonun talab qilgan jazo tayinlashning umumiy asoslariga qat‘iy rioya qilishi lozim.

Jazo tayinlashning umumiy asoslari to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llashda sudlar u yoki bu jazoni tayinlashning sabablarini hukmning tavsif qismida bayon qilinishi lozimligini nazarda tutgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida»gi qaroriga rioya qilishlari lozim.

JKning 56-moddasida nazarda tutilgan jazoni og‘irlashtiradigan holatlar ro‘yxati tugallangan bo‘lib, u kengaytirilgan holda sharhlanishi mumkin emas. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar ro‘yxati esa sud tomonidan muayyan ishning holatlaridan kelib chiqib hukmning tavsif

qismida asoslantirgan holda kengaytirilishi mumkin. Ya'ni jazo tayinlanganda sud qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan holatlarni ham yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin. Jinoyatni kvalifikatsiyalovchi belgilar qonunda nazarda tutilgan tartibda muddati tugallangan va olib tashlangan aybni og'irlashtiruvchi holat sifatida talqin qilinishi mumkin emas. Hukmda jazo aybdorning shaxsi hisobga olingan holda tayinlanganligi ko'rsatib o'tilishi yetarli emas.

Shaxsning xavfli retsivist deb topilishi bir qator jinoyatlarning kvalifikatsiyalovchi belgisi bo'lib, u og'irroq jazo choralari qo'llashga asos bo'ladi. Ammo shaxsni xavfli retsivist deb topishda dastlabki tergov organlari aybloviga asoslanadi va hukmning tavsif qismida ushbu motiv bayon qilinadi¹.

JK 7-moddasi 3-qismi sud organlarining sodir etilgan jinoyatga nisbatan muayyan jazo chorasini tanlash tizimini mustahkamlaydi. Insonparvarlik prinsipining asl mohiyatini, xususan, huquqni qo'llash jarayonida jazoning muqarrarligi va yetarliligini ko'zda tutadi.

JK 7-moddasi 3-qismiga ko'ra, og'ir jazo choralari yengil jazo choralari bilan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydigan taqdirdagina qo'llaniladi. Sudlar jazo tayinlash paytida ushbu qoidaga e'tibor bergan holda, Jinoyat kodeksining maxsus qismiga murojaat etishlari lozim. Jamiyatdan ajratmagan holda qayta tarbiyalash mumkin bo'lgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlashda qonunda belgilangan barcha imkoniyatdan foydalanishlari lozim.

Insonparvarlik prinsipi Jinoyat kodeksining barcha normalariga singdirilgan. Bu holat ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan ta'sir choralari, jazo tizimida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bunda shaxslarni jazodan ozod qilish instituti, ya'ni muomalaga layoqatsiz va boshqacha qilib aytganda, o'zi sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishning mohiyatini anglab yetmaydigan shaxslarga tibbiy yo'sindagi majburlor choralari qo'llash ham nazarda tutilgan. Umumlashtirib aytadigan

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги "Судлар томонидан жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида"ги 1-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси олий суди Пленуми қарорлари тўплами. - 1991 - 2006, 2-жилд. - Т.: "О'qituvchi", 2007. – 225-229-б. (Бундан кейин - Тўплам, 2-жилд).

bo'lsak, amnistiya va afv etish institutlari ham insonparvarlik prinsipining to'g'ridan-to'g'ri ifodasidir.

Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida mazkur prinsip og'ishmay amalga oshirilayotganligi haqida so'nggi paytlarda amaldagi Jinoyat kodeksiga kiritilgan quyidagi o'zgartishlar ham dalolat beradi:

– jazoni yengilrog'i bilan almashtirish va jazoni o'tashdan shartli ravishda ozod qilish qoidalari soddalashtirildi¹;

– jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda qayta tarbiyalash imkoniyati sifatida iqtisodiy jazo choralari qo'llash ko'lami kengaytirildi;

– jinoiy jazo tizimidan o'lim jazosi olib tashlandi va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi kiritildi² (shuni ta'kidlab o'tish lozimki, o'lim jazosi bekor qilingunga qadar ushbu jazo faqat ikki holatdagina tayinlanishi mumkin edi: og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlari, shuningdek, qonunda o'lim jazosi ayollarga, voyaga yetmaganlarga va 60 yoshdan oshgan erkaklarga nisbatan qo'llanilishi taqiqlab qo'yilgan edi).

9-§. Odillik prinsipi

Odillik prinsipi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-, 18-moddalarida mustahkamlangan bo'lib³, xalqaro huquq tamoyillaridan biri

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги “Жиноий жазоларнинг либераллаштирилиши муносабати билан ўзбекистон республикаси жиноят, жиноят-процессуал кодекслари ҳамда маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида” ги 254-11 сон Қонуни.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 июлдаги “Ўлим жазоси бекор қилиниши муносабати билан ўзбекистон республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-99 сон қонуни

³ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва

sifatida e'tirof etilgan. Mazkur asosiy qoidaning O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mustahkamlanishi jinoyat huquqiga doir qo'llaniladigan konstitutsiyaviy me'yorlarning mantiqiy amalga oshirilishi hisoblanadi.

Adolat umumiy kategoriya sifatida o'zida hayotiy voqelikning ayrim qimmatlik va qadriyatlarini, xususan, voqelikning to'g'ri va haqqoniy baholanishini aks ettiradi. Odillikning bunday tushunilishi jinoyat huquqiga ham xos bo'lib, uning xususiyati o'zida adolat mezonining bir oz boshqa jihatini nazarda tutadi.

JKning 8-moddasiga binoan adolat quyidagilardan iboratdir:

«Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak.

Hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas».

Adolat jinoyat huquqi prinsipi sifatida jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir choralarining sodir qilingan jinoiy qilmishga yarasha yuqoridagi uchta kategoriya asosida jazo tayinlanishini taqozo etadi.

JK 8-moddasi 1-qismida odillik, jinoyat huquqining prinsipi sifatida, o'zida jazoning sodir qilingan jinoyatga muvofiq bo'lishi yoki ushbu holatda muhim yo'nalish sifatida namoyon bo'luvchi sodir qilingan qilmishning og'irligi, ayb darajasi, aybdor shaxsning ijtimoiy xavfliligini ifoda etadi, deyilgan.

Jinoyatning og'irligi deganda, aybdor tomonidan sodir qilingan jinoiy qilmishning xavflilik darajasi va xususiyatining unga nisbatan tayinlanadigan jazo va boshqa ta'sir chorasiga muvofiq bo'lishi tushuniladi.

кўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва кўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 7, 9 б.

Muayyan jinoyatning og'irlik darajasi uning uchun jazo nazarda tutilgan modda sanksiyasida o'z aksini topadi. Shu nuqtai nazardan qonunni qo'llashda ushbu moddaning sanksiyasidagi jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir choralari jinoyatning og'irligiga muvofiq ravishda tayinlanadi.

(Jinoyatning og'irlik darajasi haqida ushbu tom III bobining «Jinoyatlarni tasniflash» deb nomlangan 3-§ ga qarang.)

Muayyan jinoiy qilmishning obyektiv tomonini ifodalovchi jinoyatning og'irlik darajasidan farqli ravishda, **aybning darajasi** bu shaxsning ruhiy holati, ayb shakli, xulq-atvorining motivi, maqsadi, aybdorning kayfiyati, his-hayajoni va turli kechinmalarini umumiy tavsiflovchi kategoriyadir. Mazkur elementlar jinoyat huquqi nuqtai nazaridan turlicha xususiyatga ega bo'lib, ularning ba'zilari jinoyat tarkibiga kiritilgan, ba'zilari kiritilmagan. Biroq tanlangan jazo yoxud boshqa huquqiy ta'sir choralari baholash uchun aybning darajasini aniqlashda shaxsning o'zi sodir qilgan jinoiy qilmishiga ruhiy munosabatini ifodalovchi yuqorida keltirilganlarning barchasi inobatga olinishi zarur.

(Subyekt tomon aybining darajasi haqida «Jinoyatning subyekt tomoni» deb nomlanuvchi VII bobda batafsil berilgan.)

Tayinlanayotgan jazo yoki boshqa ta'sir choralari va sodir etilgan qilmish, jinoyatchi shaxsining ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosibliigi qo'llanilayotgan choralarning adolatlilikini aniqlashda e'tiborga olinadi.

Jinoyatchi shaxsining ijtimoiy xavfliligi uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, xulq-atvorining huquqqa xilof qat'iy yo'nalishga ega ekanligi yoki uning g'ayriijtimoiy xulq-atvoridan dalolat beradi (misol uchun, retsidivist, alkogolli ichimliklar, giyohvandlik vositalari ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol qiluvchilar va boshq.).

Shaxsning ijtimoiy xavfliligini aniqlashda uning sodir qilgan jinoyati, shuningdek, uning jinoyat sodir qilgunga qadar va muayyan holatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgandan keyingi xulq-atvori hisobga olinishi kerak.

JK 8-moddasining 2-qismi bir jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortish mumkin emasligini belgilaydi. Ushbu qoidaning qonunda mustahkamlanganligi odillik prinsipining ikkinchi bir jihatini ochib beradi. Xususan, agar **JK 8-moddasi 1-qismida** jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi belgilangan bo'lsa, uning 2-qismida, umuman, jinoiy javobgarlikning odilona bo'lishi ta'kidlangan. Bu o'rinda bir jinoyat uchun bir marta javobgarlikka tortish mezon bo'lib xizmat qiladi. Bunda jinoyat sodir etgan shaxsning holati, ilgari jinoiy javobgarlikka tortilganligi, uning sudlanganligi yoki oqlanganligi ahamiyatga ega emas. Ushbu va boshqa holatlarda uning mazkur qilmishi uchun qayta jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida odillik prinsipi jinoyat subyektlarining tengligini belgilovchi fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipini amalga oshirishda mavjud bo'lgan bir qator rasmiyatchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Odillik prinsipi jinoyat ishlarini ko'rishda odil sudlovni amalga oshirishda fuqarolarning qonun oldida haqiqiy tengligiga erishishning obyektiv imkoniyatini ifoda etadi. Fuqarolarning qonun oldida tengligi va odillik prinsipining birgalikda tatbiq qilinishi keng ma'noda qonunni amalda to'g'ri qo'llash imkoniyati hamda huquqni qo'llash faoliyatida jinoyat huquqi subyektlari tengligining real asoslarini belgilaydi.

10-§. Ayb uchun javobgarlik prinsipi

Jinoiy javobgarlik – bu yuridik javobgarlikning muayyan turi bo'lib, jinoyat sodir etgan shaxs uchun jinoyat qonunida belgilangan ayrim salbiy oqibatlar yuzaga kelishini tavsiflaydi. Javobgarlik bir butun alohida institut sifatida bir qator umumiy va xususiy, jumladan, jinoyat sodir qilgan shaxsni tuzatishga yo'naltirilgan belgilarga ega.

Jinoyat sodir etgan shaxsning **tuzalishi** deb, eng avvalo, jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida taqiqlangan harakatlar (harakatsizlik)ni sodir etmaslikka undovchi qonunga itoatkorlikni shakllantirish tushuniladi. Tuzalish jarayoni, jinoiy javobgarlikka tortishdan ko'zlangan maqsadga erishishda ayb uchun javobgarlik prinsipi asosiy rol o'ynaydi.

JK 9-moddasiga muvofiq, «Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo‘ladi».

Ushbu prinsipning ahamiyati shundaki, ayb – jinoiy qilmishning xususiyati sifatida, jinoyat sodir etgan shaxsning jamiyat huquq-tartibotiga salbiy munosabatida ifodalanadi. Demak, shaxsni tuzatish uchun, avvalo, ushbu salbiy munosabatlarning o‘zini aniqlab olish zarur. Shaxsdagi bunday salbiy munosabatlar jamiyat manfaatlariga zid bo‘lib, jinoiy javobgarlikka tortishning ahamiyatini yo‘qotadi.

Ayb uchun javobgarlik prinsipi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun majburiy bo‘lgan quyidagi belgilarni aniqlaydi:

- shaxsning o‘z qilmishiga nisbatan ruhiy munosabati;
- mazkur qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati.

Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish jarayonida jinoiy-huquqiy normalarni ko‘rsatilgan prinsipga muvofiq ravishda shakllantirish va ushbu normalarni amaliy tatbiq qilish, qonun chiqaruvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun majburiydir. Ta’kidlash joizki, jinoiy javobgarlik tushunchasi va asosini aniqlovchi Jinoyat kodeksining 16-moddasidan farqli, ushbu prinsipning mustahkamlanishi subyektga nisbatan umumiy jinoiy javobgarlik qoidasini o‘rnatishni ko‘zda tutadi. Jinoyat kodeksining 16-moddasida ta’riflangan qoidalar esa, ayb uchun javobgarlik prinsipining ayrim ko‘rinishlarini aks ettiradi.

Sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan shaxsning ruhiy munosabati qasd yoki ehtiyotsizlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ushbu prinsipga muvofiq, har bir muayyan holatda aynan jinoyat qonuni bilan talab qilingan ayb belgilanishi lozim. Masalan, qonunda bolani faqat qasddan almashtirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lsa (Jinoyat kodeksining 124-moddasiga asosan), mazkur moddada ayb uchun ehtiyotsizlik oqibatida sodir etganlik sifatida jinoiy javobgarlik qo‘llash mumkin emas.

Ayb uchun javobgarlik prinsipi muayyan jinoiy qilmishning tavsiflanayotgan belgilariga nisbatan jinoyat subyektining aybini majburiy belgilashda qo‘llaniladi. Shaxs o‘z qilmishining xavflilik darajasini ko‘rsatuvchi obyektiv holatlarni anglamagan, anglashi shart bo‘lmagan

yoxud anglay olmaydigan hollarda, bu holatlar uning javobgarligini og'irlashtirishga xizmat qilishi mumkin emas. Bunday xulosaga faqat jinoiy javobgarlikning obyektiv va subyekt asoslari mavjudligiga asoslanib kelish mumkin.

Bu o'rinda isbotlash qonunga to'liq bo'ysungan holda amalga oshirilishi lozim. Mazkur talabga rioya qilmaslik aybning isbotlanmaganligini va oqibatda jinoyat sodir etmagan shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emasligini ko'rsatadi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu prinsip aniq jinoyatlar tarkibini shakllantirish va jinoyat tarkibini jinoiy javobgarlikning asosi deb tan olish bilan mamlakatimizda mavjud bo'lgan qonun hujjatlarida ijtimoiy xavfli va qonunga xilof harakat ko'rinishida aks etmagan qilmish uchun jazolanish holatlarini inkor etadi.

Ushbu prinsip yana obyektiv ayblovni, ya'ni aybsiz holda zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishni ham inkor etadi. Aybsiz holda yetkazilgan har qanday qilmish, ijtimoiy munosabatlarga yetkazgan moddiy zararidan qat'i nazar, jinoyat deb topilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ayb uchun javobgarlik prinsipining mavjudligi jinoyat uchun javobgarlikning qat'iy belgilanganligini ko'rsatadi. Jinoyat sodir etganlik uchun faqatgina aybdor shaxs javobgarlikka tortiladi. Ushbu qoida jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida bajaruvchining ektsess institutini, ya'ni jinoiy guruh a'zolarining qasdi bilan qamrab olinmagan harakati uchun faqat ijrochining o'zi javobgar ekanligini tan olishda aksini topadi.

(Bu haqda ushbu tom X bobining «Ishtirokchilikda sodir qilingan jinoyat uchun javobgarlik asoslari va chegaralari» deb nomlangan 4-§ da batafsil to'xtalib o'tilgan.)

11-§. Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi

JKning 10-moddasi jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan qutulib qolmasligi haqidagi umumiy talablarni mustahkamlaydi: «Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart».

Jinoyat kodeksidagi mazkur qoidaning mavjudligi, jinoyat huquqi normalarining barqarorligi va bir xilligi jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari mavqeining oshishiga yordam beradi. Shu bilan birga javobgarlikning muqarrarligi prinsipi barcha fuqarolarning harakatiga nisbatan ogohlantiruvchi ta'sir kuchiga ega bo'lib, shu orqali Jinoyat kodeksining oldiga qo'yilgan vazifalarning amalga oshishiga ko'maklashadi.

Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi birinchi navbatda jinoyat sodir qilgan shaxslarga qaratilgan va mazkur shaxslar tomonidan sodir qilingan harakatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi ko'p qirrali qoidalarni o'rnatadi. **JKning 10-moddasidagi** prinsip qonuniylik prinsipi va fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsiplarining davomi hisoblanib, ularni aniqlashtiradi va bir paytning o'zida ularning chegarasidan bir oz chiqadi ham. Xususan, ushbu modda muayyan shaxslar doirasiga, ya'ni qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo'lgan har bir shaxsga qaratilgan.

Shaxsning xatti-harakatida jinoyat tarkibi mavjudligini aniqlash javobgarlikka tortishning muhim belgisi hisoblanadi, ya'ni, bu jinoyat qonuni bilan jazolovchi va harakatni ijtimoiy xavfli deb o'rnatuvchi obyektiv va subyekt belgilar majmuidir. Shaxsning qilmishida jinoyat tarkibining aniqlanmaganligi shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilmasligiga sabab bo'ladi.

Qonun talabiga ko'ra, qilmishda jinoyat tarkibi mavjud bo'lsa, shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bunday talab shuni bildiradiki, har bir ijtimoiy xavfli qilmishda shaxs muayyan qonun normasi bilan cheklangan salbiy oqibatlarni boshdan kechirishi kerak.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, salbiy oqibatlar quyidagilarda ifodalanadi:

– Jinoyat kodeksi normalari tatbiq etiladigan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortishda;

– amaldagi qonunlar, xalqaro shartnomalar yoki bitimlarga muvofiq chet el fuqarolarining javobgarligi to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi sudlariga tegishli bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasi

hududida jinoyat sodir etgan holda xalqaro huquq normalariga muvofiq hal qilinadi.

Shuni aytib o‘tish lozimki, Jinoyat kodeksiga muvofiq, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish jazo qo‘llanilishi shartligini anglatmaydi. Sodir qilingan qilmish uchun javobgarlik faqat jazo vositasidagina emas, balki jinoyat qonunida nazarda tutilgan boshqa huquqiy ta’sir choralarini amalga oshirish orqali ham qo‘llanilishi mumkin¹. Amaldagi qonunchilikda jazodan ozod qilishning turlari ham mavjud. Jumladan, shartli hukm qilish, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish va hokazo.

**«Jinoyat huquqi tushunchasi, predmeti, metodi,
vazifasi va prinsiplari» mavzusi
yuzasidan yakuniy savollar**

1. Jinoyat huquqi tushunchasi qanday ma’nolarda ishlatiladi?
2. O‘quv tizimida jinoyat huquqining o‘rni va roli qanday?
3. Jinoyat huquqi predmeti.
4. Jinoyat huquqini o‘rganish metodikasi qanday?
5. Jinoyat huquqining muhofaza qiluvchi, ogohlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalari nimalardan iborat?
6. Jinoyat huquqining prinsiplar tizimini tavsiflab bering.
7. Qonuniylik prinsipiga ko‘ra shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish asosi nima?
8. Huquqni qo‘llash faoliyatida qonuniylik prinsipining ta’siri qanday?
9. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida huquq analogiyasini qo‘llash mumkinmi?
10. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipining mohiyati nimadan iborat?
11. Demokratizm prinsipi nimalardan iborat?
12. Odillik va fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipining bog‘liqlik joyi nimalardan iborat?
13. Odillik va insonparvarlik prinsiplarining bog‘liqligi nimalarda ko‘rinadi?

14. Ayb uchun javobgarlik prinsipining jinoyat-huquqiy mohiyati nimada?

15. Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi majburiy jazo tayinlashni anglatadimi?

Qo‘shimcha adabiyotlar

Rahbariy adabiyotlar

Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2016.– 48 б.

Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо эташимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.– 32 б.

Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104

Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабул қилинган куннинг 25-йиллиги муносабати билан бўлиб ўтган тантанали маросимдаги “Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” номли нутқидан // Халқ сўзи. 2017-йил 7 декабр. 247 (6741)-сон.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2017-йил 22-декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2017-йил 23-декабр. 258 (6952)-сон.

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Зуфаров Р.А. Уголовное право. Общая часть. Казусы (задачи). – Т.: ТГЮУ, 2014. – 164 с.

Зуфаров Р.А. Уголовное право. Схемы. –Т.: ТГЮУ, 2015. – 127 с.

Мальцев В.В. Введение в уголовное право. – Волгоград: 2000. – 204 Б.

Мальцев В.В. Принципы уголовного права и их реализация в правоприменительной деятельности. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2004. – 597 Б.

Мальцев В.В. Принципы уголовного права. – Волгоград: 2002. – 266 Б.

Понятовская Т.Г. Концептуальные основы системы понятий и институтов уголовного и уголовно-процессуального права. – Ижевск: 1996. – 232 Б.

Пудовочкин Ю.Е., Пирвагидов С.С. Понятие, принципы и источники уголовного права: сравнительно правовой анализ законодательства России и стран Содружества Независимых Государств. – СПб.: «Юридический центр Пресс» 2003. – 297 Б.

Разгельдиев Б.Т. Задачи уголовного права Российской Федерации. – М.: 1996. – 146 Б.

Тургунбоев Э. О. Жиноят хукуқи (умумий қисм): (Альбом схемалар). Ўқув услубий қўлланма. // Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. Қ.Р.Абурасулова. –Т.: ТДЮУ, 2013. – 129 б.

Филимонов В.Д. Охранительная функция уголовного права. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 224 Б.

II BOB. JINOYAT QONUNI

1-§. Jinoyat qonuni tushunchasi va ahamiyati

JKning 1-moddasi qonun darajasida O‘zbekistonning jinoyat qonunchiligini tashkil etuvchi normativ-huquqiy hujjatlarning doirasini, shuningdek, ushbu hujjatlarning huquqiy asosini muayyan va aniq belgilab beradi. Unga muvofiq, «O‘zbekiston Respublikasining jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari Konstitutsiya va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga asoslangan bo‘lib, ushbu Kodeksdan iborat». Bunda shuni qayd etish lozimki, sharhlanayotgan moddaning qoidalari jinoyat huquqi sohasida vatanimiz an‘analarini, jumladan, jinoyat-huquqiy normalarni kodifikatsiya qilish hamda ularning alohida qonun – **Jinoyat kodeksi** shaklida mavjud bo‘lishining lozimligini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi respublikamizning jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini tashkil etuvchi barcha jinoyat-huquqiy normalarning asosiy va yagona shaklidir. Tarkibida jinoyat-huquqiy normalar bo‘lgan yangi qonunchilik hujjatlari qabul qilingan taqdirda ular majburiy tartibda Jinoyat kodeksiga kiritilishi lozim va mustaqil ravishda qo‘llanilishi mumkin emas.

NOTA BENE !

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi ichki uzviy birligi va o‘zaro bog‘liq jinoyat-huquqiy normalarning tizimli mustahkamlanishi bilan ajralib turgan, jinoiy javobgarlikning tamoyillari, asoslari va shartlarini, sodir etilishi jinoyat deb e’tirof etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlarni belgilab beruvchi, bunday qilmishlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan huquqiy ta’sir choralari qo‘llanilishining turini va chegarasini belgilovchi qonunlashtirilgan qonun hujjatidir.

Jinoyat kodeksiga jinoyat-huquqiy normalarni mustahkamlashning asosiy va yagona shakli maqomini berish qonunchilikning kuchaytirilishi jinoiy qonunchilikni yagonalashtirishga ko‘maklashadi, huquqni muhofaza qilish idoralarining xodimlari uchun normativ materiallardan foydalanishni

osonlashtiradi va aholining huquqiy xabardorligini oshiradi. Shu bilan birga, bu holat qonunchilik texnikasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, qonun chiqaruvchini Jinoyat kodeksi tizimiga tezda kirishib keta oladigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibini mustahkamlaydi.

Jinoyat qonunining Jinoyat kodeksida mustahkamlanishi, birinchi navbatda, o'z ifodasini shunda topadiki, u muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning himoya qilish vositasi, jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy bazasi bo'lib hisoblanadi. Jinoyat hisoblanadigan qilmishlarning obyektiv va subyekt belgilarini ifodalagan holda ularni sodir etganlik uchun aniq jazo turlarini belgilaydi. Bundan tashqari, u fuqarolarga nisbatan ogohlantiruvchi va tarbiyalovchi jihatlarga ega. Jinoyat-huquqiy ahamiyatdagi taqiq va majburiyatlarni o'rnatib, jinoyat qonuni odamlar o'zlarining xulq-atvorini huquq normalariga solishtirgan holda idrok qilishi uchun ularning ongi va irodasiga ta'sir ko'rsatadi.

Jinoyat kodeksining jinoyat-huquqiy normalarni mustahkamlashning yagona va mutlaq shakli sifatida ta'riflanishi bilan birga **JKning 1-moddasida** ushbu normalarning huquqiy negizi to'g'risida qoidalar mavjud, bular O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalaridir. Shu bilan barcha huquq sohalari, jumladan, jinoiy huquqning bosh manbai bo'lgan Konstitutsiyaning ustuvorligi va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarining Kodeks normalaridan ustuvorligi belgilanadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining jinoiy qonunchilik asosi sifatida tan olinishi asosiy qonun qoidalarining Jinoyat kodeksi normalarini talqin etishda qo'llash zaruriyatiga olib keladi. «Sudlar shuni nazarda tutishlari lozimki, Konstitutsiyaning 16-moddasiga muvofiq, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat uning normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas»¹. Shu munosabat bilan, agar Jinoyat kodeksini

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-

qo‘llash paytida sud uning ayrim qoidalarining Konstitutsiyaga mos emasligi haqidagi xulosaga kelsa, u ishni to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risida ajrim chiqarishi va barcha materiallarni Oliy sud Raisiga yuborishi lozim, u esa «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonunga¹ asosan tegishli masalani Konstitutsiyaviy sudga ko‘rib chiqish uchun kiritishga haqlidir.

Jinoyat kodeksining huquqiy negizi, shuningdek, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari ham bo‘ladi, bu **1-moddada** mustahkamlangan. Bunda shunday normalar sifatida xalqaro huquqning imperativ-buyruq tusida bo‘lgan hamda barcha xalqaro huquq subyektlari, jumladan, davlatlar tomonidan e’tirof etilgan qoidalari tan olinishi lozim.

Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari uning tamoyillari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining qoidalari, shuningdek, Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda mustahkamlangan qoidalardir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining preambulasida xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalarining ustuvorligi tan olinadi, bu esa qonun qo‘llanganda uning shunday qoidalarga mos emasligi

моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 7 б.

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майдаги “Ўзбекистон Республикасининг конституциявий суди тўғрисида”ги ЎРҚ-431 сон Қонуни // “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2017 йил 5 июнь, 22-сон, 407-модда; “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси”, 2017 йил, 5-сон, 201-модда.

aniqlangan taqdirda sud tomonidan ishni to'xtatib qo'yish to'g'risida ajrim chiqarilishi va tegishli masalani Konstitutsiyaviy sudga ko'rib chiqish uchun kiritish to'g'risidagi iltimosnoma bilan birgalikda barcha materiallarni Oliy sud Raisiga yuborilishini belgilab beradi.

Ayni paytda O'zbekistonda qo'llanishi uchun umume'tirof etilmagan xalqaro shartnomalarning normalari vatanimiz qonunchiligiga, jumladan, Kodeksga tegishli qo'shimchalar va o'zgartishlar shaklida kiritilishga muhtoj. Bu shundan kelib chiqadiki, birinchidan, ko'pgina xalqaro shartnomalar (konvensiyalar) faqat ishtirokchi davlatlarning u yoki bu jinoyatlar bilan kurashish niyatinigina bildiradi; ikkinchidan, agar xalqaro shartnoma u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishning belgilarini aniqlagan holda ham, odatda, u tegishli jazoni belgilab bermaydi; uchinchidan, jazoni ko'rsatgan holda shartnoma uning qo'llanish chegaralari va shartlarini ko'rsatmaydi. Natijada, hatto, O'zbekiston Respublikasida ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning qoidalari amaldagi jinoiy qonunchilikka tegishli o'zgartishlarni kiritmagan holda amalda qo'llanmaydi.

JKning 1-moddasi Jinoyat kodeksini jinoyat-huquqiy normalar mavjudligining yagona va mutlaq shakli sifatida belgilaydi hamda jinoiy qonunchilikning asosi sifatida faqat Konstitutsiyani va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlarini belgilaydi, bu kengaytirilgan ravishda talqin etilmaydi. Shu munosabatda jinoyat-huquqiy tisdagi qoidalarni mustahkamlashning boshqa shakllari (masalan, Oliy sudning qarorlari, sud pretsedentlari, doktrinal talqin etish va hokazo) O'zbekiston jinoiy qonunchiligining manbalari sifatida tan olinishi yoki uning asosi bo'lishi mumkin emas. Ushbu hol shundan kelib chiqadiki, bu hujjatlarda yangi huquqiy normalar yaratilmaydi va mustahkamlanmaydi, balki Jinoyat kodeksida mavjud bo'lgan normalarning asl mazmuni tergov va sud amaliyotida ularga aniq va yagona shaklda rioya etilishi maqsadida ochib beriladi.

Buzilishi jinoyat deb tan olinadigan, xulq-atvor va harakatlarning ma'lum qoidalari va me'yorlari bo'lgan huquqiy hujjatlar (masalan, maxfiy hujjatlar bilan ish yuritish qoidalari, veterinariya yoki zoologiya qoidalari, harakat xavfsizligi va transportdan foydalanish qoidalari va boshqalar) jinoiy qonunchilik sifatida tan olinishi mumkin emas. Bu

hujjatlarda blanket tusda bo‘lgan muayyan jinoyat-huquqiy normaning (masalan, JK ning 285-moddasi) tutgan o‘rni va mazmuni batafsilroq aks etadi, lekin unga xos bo‘lgan dispozitsiyasi va sanksiyasi bo‘lgan normaning o‘zi faqat Jinoyat kodeksida mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Qoraqalpog‘iston O‘zbekiston tarkibiga kirishi va O‘zbekistonning qonunlari Qoraqalpog‘istonning hududida ham majburiy ekanligi to‘g‘risidagi qoidalariga muvofiq (Konstitutsiyaning 71- va 72-moddalari)¹ Jinoyat kodeksi, shuningdek, jinoyat-huquqiy normalarni mustahkamlashning yagona shakli bo‘ladi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida ham amal qiladi.

Jinoyat kodeksi ham O‘zbekiston hamda Qoraqalpog‘iston uchun yagonalashtirilgan (yagona) bo‘lib, boshqa qonunchilik hujjatlari (masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunlari, Jo‘qorg‘i Kengesning qarorlari va hokazolar) Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududida jinoyat qonunining manbai sifatida tan olinishi mumkin emas.

2-§. Jinoyat qonunining tuzilishi

Bir-biriga bog‘liq yuridik normalar tizimi sifatida jinoyat qonunchiligi bir qancha huquqiy institutlarga asoslanadi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. -24 б.

NOTA BENE !

Jinoyat huquqi instituti – bu o‘xshash ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muayyan texnik qoidalarga binoan tartibga solingan turdosh yuridik normalar majmuidir.

Masalan, jinoyat qonuni; jinoyat; jazo; qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar; tamom bo‘lmagan jinoyatlar, ishtirokchilik; bir qancha jinoyatlar sodir etish institutlari va boshqa.

Bu institutlar mazmuni va hajmi jihatidan bir-biridan farq qiladi, lekin bir butun holda ular jinoyat huquqining yagona manbasi – Jinoyat kodeksini tashkil qiladi.

Har bir jinoyat-huquqiy norma bir butunni tashkil qiladigan va xarakteri jihatidan farqlanadigan JKning Umumiy va Maxsus normalari tarkibiga kiradi.

Jinoyat kodeksi jinoyat-huquqiy normalarning ifoda qilinish shakli hisoblanib muayyan tuzilishga ega.

NOTA BENE !

Jinoyat qonuni tuzilishi qonun chiqaruvchi irodasining JKda muayyan tarzda tartibga solingan shaklidir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, o‘z navbatida, bo‘lim va boblarga bo‘linadigan Umumiy va Maxsus qismlardan iborat. Boblar qism va bandlarga bo‘linadigan moddalardan iborat. Qismlar satr boshi bilan, bandlar harflar bilan ajratilgan.

NOTA BENE !

Maxsus qism normalarini qo‘llash Umumiy qism normalariga asoslanadi. o‘z navbatida Umumiy qism normalari Maxsus qism normalarisiz ma’nosiz va predmetsiz bo‘lib qoladi.

Umumiy qism, o‘z navbatida, 17 bobga bo‘linadigan 7 bo‘limdan iborat. JK Umumiy qismi normalarida jinoyat qonuni uchun umumiy

ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar belgilanadi yoki tartibga solinadi: jinoiy javobgarlik prinsiplari va asoslari; jinoyat qonunining hudud bo'yicha, vaqt bo'yicha va shaxslar doirasi bo'yicha amal qilish doirasi; jinoyatlar tushunchasi va tasnifi, jinoiy javobgarlik kelib chiqishi mumkin bo'lgan yosh, aqli norasolik belgilari va huquqiy oqibatlari, ayb shakllari; tamom bo'lmagan jinoyat belgilari va huquqiy oqibatlari; jinoyatda ishtirokchilik va ishtirokchilar turlari; bir qancha jinoyat sodir etish; qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar; jazo turlari va ularning tizimi, jazo tayinlashning umumiy asoslari; tamom bo'lmagan, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar, bir qancha jinoyat sodir etganlik uchun va bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlashning o'ziga xos xususiyatlari; jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish shartlari, sudlanganlikning tugallanishi va olib tashlanishi qoidalari; voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari; jinoyat-huquqiy xususiyatdagi boshqa ta'sir (voyaga yetmaganlarga nisbatan tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari va ruhiy kasallikka, alkogolizm va narkomaniyaga chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari) choralarini qo'llash asoslari va qoidalari.

JK Umumiy qismi moddalarining aksariyati tartibga soluvchidir, chunki ularning qo'llanishi aniq jinoiy qilmishlar bilan bog'liq emas va u yoki bu ko'rsatmaning aniq bayoni ko'rinishidagi tasvirlov xususiyatiga ega. Biroq majburlovni qamrab oluvchi qonunni qo'llash xususiyatidagi normalar ham uchrab turadi. Bular jazoni o'tashdan bo'yin tovlash holatlarida bir jazoni boshqasi bilan almashtirish tartibini o'rnatuvchi normalardir. Masalan, JK 44-moddasi 3-qismi (jarima) jarimani (aniqrog'i, uning to'lanmagan qismini) majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash va ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirish tartibini belgilab beradi. 72- va 73-moddalar shartli hukm va muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishda, muvofiq ravishda tayinlangan shartli jazoni yoki uning o'talmay qolgan qismini, sinov muddati davomida qonunda belgilangan talablarga rioya qilinmaganda, amalda o'tashning turli variantlarini o'rnatadi.

Jinoyat qonuni **Maxsus qismi** normalarida alohida jinoyatlar uchun javobgarlik va ularni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga qo'llaniladigan muayyan jazolar o'rnatiladi.

JK Maxsus qismi 8 bo'lim va 24 bobdan iborat.

BIRINCHI BO'LIM.

Shaxsga qarshi jinoyatlar.

I bob. Hayotga qarshi jinoyatlar.

II bob. Sog'liqqa qarshi jinoyatlar.

III bob. Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar.

IV bob. Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar.

V bob. Oilaga, yoshlarga, axloqqa qarshi jinoyatlar.

VI bob. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar.

VII bob. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

IKKINCHI BO'LIM.

Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar.

VIII bob. Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.

IX bob. O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar.

UCHINCHI BO'LIM.

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar.

X bob. O'zgalar mulkini talon-toroj qilish.

XI bob. O'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar.

XII bob. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar.

XIII bob. Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar.

TO'RTINCHI BO'LIM.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar.

XIV bob. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlar.

BESHINCHI BO'LIM.

Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar.

XV bob. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar.

XVI bob. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar.

OLTINCHI BO‘LIM.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar.

XVII bob. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.

XVIII bob. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar.

XIX bob. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar.

XX bob. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar.

XX¹ bob. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar.

YETTINCHI BO‘LIM.

Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar.

XXI bob. Bo‘ysunish va harbiy sha’nga rioya etish tartibiga qarshi jinoyatlar.

XXII bob. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar.

XXIII bob. Harbiy mulkni saqlash yoki undan foydalanish tartibiga qarshi jinoyatlar.

XXIV bob. Harbiy mansabdorlik jinoyatlari.

Sakkizinchi bo‘lim – «Atamalarning huquqiy ma’nosi»da kiritilgan ayrim atamalarning huquqiy ma’nosi ochib berilgan. Bunday sharh rasmiy va umummajburiy ahamiyatga ega. JK sakkizinchi bo‘limining o‘ziga xosligi, undagi qoidalar, JK Umumiy va Maxsus qismining boshqa qoidalaridan farqli ravishda, alohida raqamlar bilan belgilangan moddalarga rasmiylashtirilmagan, biroq o‘z mohiyatiga ko‘ra shunday hisoblanadi.

Maxsus qism moddalari «xususiy moddalar» deb ham nomlanadi. Chunki ularda ko‘zda tutilgan jinoyat turlarining belgilari va unga muvofiq jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan qo‘llanadigan jazo choralari ham o‘z aksini topgan. Maxsus qism normalari – ijtimoiy xavfli qilmish belgilarini ifodalovchi dispozitsiya, jazoning turi va me’yorini belgilovchi sanksiyadan iborat. Dispozitsiyada alohida jinoyatlar va shu jinoyatlarning

ta'rifi beriladi. Jinoyat-huquqiy normalarda dispozitsiyaning quyidagi to'rt turi: oddiy, tasvirlov, blanket va havolaki dispozitsiya nazarda tutiladi.

NOTA BENE !

Dispozitsiya – modda qismining o'z mazmuniga ko'ra taqiqlovchi yoki farmoyish beruvchi elementi bo'lib, unda muayyan jinoiy qilmish, uning belgilari ko'rsatiladi.

Oddiy dispozitsiyada jinoyat tarkibining belgilarini ifodalamasdan, jinoyatning umume'tirof etilgan, tanish nomi ko'rsatiladi. Masalan, JK 97-moddasi 1-qismi (Qasddan odam o'ldirish) yoki 215-moddasi (Davlat ramzlariga hurmatsizlik qilish). Bunday dispozitsiyada jinoyatning belgilari ochib ko'rsatilmaydi. Ko'rinib turibdiki, birinchi holatda qonun chiqaruvchi tomonidan «o'ldirish», ikkinchi holatda «hurmatsizlik qilish» iboralari ishlatilgan.

Tasvirlovchi dispozitsiya qilmishni ijtimoiy xavfli va jinoiy deb tavsiflovchi belgilar majmuini ko'rsatadi. Masalan, JK 209-moddasi 1-qismi jinoyatni ko'rsatibgina qolmasdan, mansab soxtakorligi deganda, mansabdor shaxsning g'arazgo'ylik yoki boshqa manfaatlarni ko'zlab, rasmiy hujjatlarni bila turib, soxta ma'lumotlar va yozuvlar kiritish, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki bila turib, soxta hujjatlar tuzish va taqdim etish, fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamiyat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa yoki, JK 169-moddasi 1-qismida o'g'rilik o'zgalar mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish sifatida berilgan.

Blanket dispozitsiya muayyan jinoyatning belgilarini Jinoyat kodeksida yoritmasdan, boshqa huquq sohasiga oid qonunlar yoki normativ hujjatlar asosida aniqlaydi. Masalan, JK 266-moddasi 1-qismida transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, deb ko'rsatilgan. Yo'l harakati xavfsizligining aynan qaysi qoidalari buzilganligini aniqlash uchun, ular nazarda tutilgan normativ-huquqiy

hujjatlarga murojaat qilish kerak. Ta'kidlash joizki, transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning deyarli barchasi blanket dispozitsiya sifatida shakllantirilgan. Shu kabi moddalar JK XII bobida «Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar», XVI bobida «Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar», XVII bobida «Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» va boshqalarda ustunlik qiladi.

Havolaki dispozitsiyada ortiqcha takrorlashlarni bartaraf qilish maqsadida normaning mazmunini aniqlash uchun kodeksning boshqa bir normasiga murojaat etiladi. Masalan, JKning o'rtacha og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 105-moddasi 1-qismida yetkazilgan shikast hayot uchun xavfli bo'lmasligi va JK 104-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarini keltirib chiqarmasligi kerak deyilgan.

Ta'kidlash joizki, JKning aksariyat moddalarida og'irlashtiruvchi va o'ta og'irlashtiruvchi tarkiblarda o'sha moddaning asosiy tarkibiga havola qilish hollari uchraydi. Bunda «o'sha qilmish ... sabab bo'lsa», «o'sha qilmish ... sodir etilgan bo'lsa», «mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmish ... sabab bo'lsa» kabi ta'rif ishlatiladi.

Aralash (kombinatsiyalashgan) dispozitsiya blanket yoki havolaki, shuningdek, oddiy yoki tasvirlov dispozitsiyalarning belgilarini o'zida aks ettiradi. Masalan, Jinoyat kodeksining 137-moddasi 1-qismiga ko'ra, ushbu kodeksning 245-moddasida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo'lmagan holda odam o'g'irlash jinoyat deb hisoblanadi. Ushbu moddada dispozitsiyaning ham oddiy (odam o'g'irlash), ham havolaki (Jinoyat kodeksi 245-moddasida nazarda tutilgan alomatlar mavjud bo'lmasa) turlari mavjud bo'lganligi sababli «aralash» deb yuritiladi¹.

NOTA BENE !

Sanksiya – modda qismining elementi bo'lib, dispozitsiyada ko'rsatilgan muayyan jinoyat uchun jazo turi va doirasini belgilaydi.

¹ Уголовное право. Общая часть: Учебник / А.С. Якубов, Р. Кабулов и др. – 94-95 б.

Ma'lumki, qonun chiqaruvchi JK 15-moddasidagi jinoyatlar tasnifini jazoning me'yorini bilan bog'laydi, chunki qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi aynan sanksiyada namoyon bo'ladi.

Nisbiy muayyan sanksiya – muayyan bir jazo turini nazarda tutib, uning miqdori chegarasini (chegarasini yoki eng quyi va eng yuqori chegarasini) belgilovchi sanksiya. Masalan, Jinoyat kodeksining 99-moddasida onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirgani uchun uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, qasddan odam o'ldirganlik uchun 97-moddasi 1-qismida o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilangan. Birinchi misolda ko'rinib turibdiki, sanksiyada faqat yuqori chegara ko'rsatilgan. Bunday hollarda quyi chegara, jazoning mazkur turi uchun JK Umumiy qismida ko'rsatilgan quyi chegara bilan belgilanadi.

Alternativ (muqobil) sanksiyada ikki yoki undan ortiq jazo turlari nazarda tutilib, sudga qilmish va uni sodir etgan shaxsning xususiyatlarini inobatga olgan holda jazoni individuallashtirish imkonini beradi. Masalan, Jinoyat kodeksi 110-moddasi 1-qismida (Qiyinash) besh turdagi jazodan birini qo'llash mumkinligi nazarda tutilgan:

eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazo turlari belgilangan. Alternativ sanksiyaning belgilanishi sudyalarga shaxsning ijtimoiy xavfliligiga, qilmishning xususiyatiga qarab jazolardan birini tayinlash imkonini beradi.

Jinoyat huquqi nazariyasida, yuqorida zikr etilgan sanksiyalardan tashqari, **mutlaq-muayyan** va **havolaki** sanksiyalar ham ko'rsatiladi. Biroq insonparvarlik va odillik prinsiplariga muvofiq bo'lmaganligi uchun, ular amaldagi JKda nazarda tutilmagan.

Ta'kidlash joizki, jinoyat huquqi doktrinasida «jinoyat qonuni moddasi tuzilishi» va «jinoyat-huquqiy norma tuzilishi» tushunchalarini farqlash qabul qilingan, chunki bitta jinoyat-huquqiy norma JKning bir necha moddalarida mavjud. Buning sababi jinoyat-huquqiy norma

tuzilishi, JK moddasidan farqli ravishda, ikki o‘zaro bog‘liq elementlarni emas (dispozitsiya va sanksiya), balki uchta: aksariyat mualliflar fikriga ko‘ra, jinoiy javobgarlikning asoslari hamda qilmishni jinoiy va jinoiy javobgarlikka sazovor sifatida belgilashga oid qoidalarni o‘z ichiga olgan **gipotezani**¹, jinoyatning obyektiv va subyekt ta‘rifini aks ettiradigan va shu munosabat bilan javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan shaxslarning belgilarini, aybning shakllarini, tamom bo‘lmagan jinoyat tarkibini va boshqalarni belgilaydigan **dispozitsiyani** hamda JK Umumiy qismining ayrim qoidalariga asoslangan holda jinoyat-huquqiy ta‘sir choralarini nazarda tutgan **sanksiyani** qamrab oladi.

3-§. Jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishi

JKning 11-moddasi O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining qo‘llanish hududiy doirasini belgilaydi. Unda bayon etilgan qoidalar **hududiy tamoyilni** ifoda etadi, ya‘ni qaysi davlat hududida jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, o‘sha davlatning jinoyat kodeksi qo‘llanishi tamoyili ko‘rsatiladi. Shunga muvofiq, O‘zbekiston hududida jinoyat sodir etgan barcha shaxslar, ular qaysi davlat fuqarosi bo‘lishidan qat‘i nazar yoki fuqaroligi bo‘lmasligiga qaramay, faqat O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

Hududiylik tamoyili davlat hokimiyatining suverenlik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, uning huquq sohasida umuman va jinoyat sohasida qisman ifoda topishidir. Davlat suvereniteti va qonunning hududiylik tamoyili o‘zaro uzviy bog‘langandir: davlat hokimiyati uning hududiy masofalari bilan chegaralangan va uning qonunlari ham shu chegaralari doirasida amal qiladi.

JK 11-moddasi 1-qismi hududiylik tamoyilining umumiy qoidasini ifoda etadi: «O‘zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxs mazkur Kodeksga muvofiq javobgarlikka tortiladi».

«**Hudud**» deyilganda, makonning shunday qismi, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi suverenitetiga qarashli quyidagi joylar tushuniladi:

a) quruqlik hududi;

¹ Каранг: Ўша жойда. – 97 б.; Наумов А.В. Российское уголовное право. Общая часть. – М.: 1996 г. – 97 б.

- b) suv hududi, shu jumladan, ichki suvlar;
- v) havo hududi;
- g) yerosti¹.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68–70-moddalariga muvofiq, mazkur Kodeksning amal qilish hududiga respublikaning barcha hududi, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududi ham kiradi².

NOTA BENE !

Quruqlik hududi – bu O‘zbekiston Respublikasi chegarasi ichidagi suv bilan qoplanmagan quruq yer maydoni. Bu hudud tarkibiga suv bilan o‘ralmagan va suv bilan o‘ralgan (orol) barcha quruqlik maydoni kiradi.

Quruqlik hududi tarkibiga davlat chegaralari ichidagi sun‘iy hosil qilingan yer maydonlari (masalan, sun‘iy orol, suv ustiga qurilgan binolar va hokazo), suv yo‘lidagi texnik inshootlar – plotina, damba, ko‘prik va boshqalar ham kiradi. Davlat chegarasi chizig‘idan qat‘i nazar, O‘zbekiston hududiga qarashli deb, bunday texnik inshootlarning

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 20 августдаги “Ўзбекистон Республикасининг давлат чегараси тўғрисида”ги N 820-I сон Қонуни // “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси”, 1999 йил, 9-сон, 217-модда

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 23 б.

o'rtasidan yoki o'q chizig'idan respublikaga qarab o'lchangan qismi hisoblanadi¹.

Quruqlik hududi tarkibiga yana O'zbekiston anklavlari kiradi (har tomonlama o'zga davlatlar hududi bilan o'ralgan yer maydonlari, agar ular dengizga chiqadigan yo'lga ega bo'lmasa). Quruqlik hududi tarkibiga O'zbekiston hududidagi qattiq shakldagi suv resurslari – muzliklar ham kiradi.

NOTA BENE !

Anklav – davlat hududining boshqa davlat chegaralari bilan o'rab olingan va dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan qismi.

NOTA BENE !

Suv hududi – bu davlat chegaralari ichidagi suyuq holatdagi suv resurslaridir.

Suv hududi tarkibiga ichki suvlar va O'zbekiston Respublikasi hududiy suvlari hamda chegaraviy suvlarning tegishli qismi kiradi. Suv hududiga yerosti suvlari, termal va mineral suvlar kirmaydi. Bunday suvlar yerosti boyliklari deb hisoblanadi.

O'zbekistonning ichki suvlariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston hududida to'liq joylashgan suv havzalari, uning qirg'oqlari ham, masalan, Chorvoq suv ombori;
- Orol dengizining O'zbekiston hududiga qarashli suvlari, ya'ni suvning chegara hisoblangan kengligidan yaqin qirg'oqqacha qismi;
- Orol dengizi tomonidan chegara chizig'i bilan ajratilgan port suvlari, dengizning chegara chizig'igacha bo'lgan gidrotexnik va boshqa port inshootlari;
- Orol dengizining O'zbekiston hududiga tarixiy qarashli bo'g'oz, buxta, gut va limanlar;

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 20 августдаги “Ўзбекистон Республикасининг давлат chegarasi тўғрисида”ги N 820-I сон Қонуни, 5-м. // “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси”, 1999 йил, 9-сон, 217-модда

– Orol dengizining O‘zbekiston hududiga to‘liq qarashli bo‘g‘oz, buxta, gut va limanlar qirg‘oqlari, qirg‘oqdan qirg‘oqqacha bo‘lsa, kenglikning dengiz tomonidan birinchi marta tashkil bo‘lgan bir necha o‘tish joylari, agar uning eni 24 dengiz milyasidan oshmaydigan bo‘lsa (44 km 448 m).

O‘zbekistonning hududiy suvlari – bu Orol dengizining qirg‘oqoldi suvlari bo‘lib, 12 dengiz milyasi (22 km 224 m) eniligidan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasiga tegishli bo‘lgan materik qismi hamda orollar atrofidan yoki O‘zbekistonning ichki dengiz suvlarining tashqi chegarasidan hisoblanadi.

O‘zbekistonning chegara suvlari – chegara hisoblangan daryolar, soylar, ko‘llar va havzalarining davlat chegarasi chizig‘idan yaqin qirg‘oqqacha bo‘lgan qismidir.

Bu yerlarda davlat chegarasi quyidagi tarzda belgilanishini ta’kidlab o‘tishimiz lozim:

«... kema qatnaydigan daryolarda – daryoning asosiy farvateri yoki talvegi o‘rtasi bo‘ylab; kema qatnamaydigan daryolarda, jilg‘alarda – ularning o‘rtasi yoki daryoning asosiy o‘zanining o‘rtasi bo‘ylab; ko‘llar yoki boshqa suv havzalarida – Davlat chegarasi ko‘l yoki boshqa suv havzasi qirg‘oqlariga chiqqan joylarni tutashtiruvchi to‘g‘ri yoki boshqacha chiziq bo‘yicha. Daryo, jilg‘a, ko‘l yoki boshqa suv havzasi orqali o‘tadigan Davlat chegarasi ular qirg‘oqlarining ko‘rinishi yoki suv sathi o‘zgarganda ham, daryo, jilg‘a oqimi u yoki bu tomonga burilganda ham o‘zgarmay qolaveradi;

suv omborlarida va boshqa sun‘iy suv havzalarida – ular suv bilan to‘ldirilgunga qadar Davlat chegarasining mazkur joydan o‘tgan chizig‘iga muvofiq ravishda;

daryolar, jilg‘alar, ko‘llar va boshqa suv havzalari orqali o‘tuvchi ko‘priklarda, to‘g‘onlar va boshqa inshootlarda – Davlat chegarasi suvdan o‘tish-o‘tmasligidan qat’i nazar, shu inshootlarning o‘rtasi yoki ularning texnologik o‘qi bo‘ylab»¹.

¹ Ўша жойда.

NOTA BENE !

O‘zbekistonning **samoviy hududi** – bu Respublikaning quruqlikdagi yerlari va suv havzalari ustidagi yer atmosferasining qismidir¹.

Samoviy hududi quruqlik va suvdagi O‘zbekiston davlat chegaralaridan vertikal chiziq bilan belgilanadi.

NOTA BENE !

Yerosti boyliklari – bu yer qobig‘ining tuproq qatlamidan quyida joylashgan, tuproq qatlami bo‘lmaganda esa, yer yuzasidan yoki suv obyektlari tubidan quyida joylashgan, geologik jihatdan o‘rganish va o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan chuqurlikkacha yastangan qismi hamda foydali qazilmalarning yer qa‘ridan yuzaga chiqishi².

Yerosti chegaralariga tabiiy qattiq jismlar, suyuq va gaz holatidagi jinslar va bu jinslar orasidagi bo‘shliqlar kiradi.

Ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining amal qilish doirasiga faqat respublikaning quruqlik va suv hududi ostiga joylashgan yerosti chegaralari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi hududi sifatida respublikaning chet davlatlardagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari joylashgan hudud ham qabul qilinadi.

Xalqaro huquqning umumiy qoidalariga muvofiq, bunday muassasalar **eksterritorial** maqomga ega bo‘ladi, ya‘ni ular mahalliy qonunchilik ta‘siridan ajratilgan holda qaysi mamlakatga qarashli bo‘lsa, o‘sha davlat qonunchiligi ta‘siriga o‘tadi³.

¹ См.: Воздушный кодекс Республики Узбекистан (Введен в действие Постановлением Верховного Совета Республики Узбекистан от 7 мая 1993 г. № 864-ХІІ), ст. 1 // Ведомости Верховного Совета Республики Узбекистан, 1993 г., № 6, ст. 247; Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1998 г., № 3, ст. 38; 2000 г., № 5-6, ст. 153; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2003 г., № 11, ст. 82.

²Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 23 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг давлат чегараси тўғрисида”ги N 820-I сон Қонуни // “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси”, 1999 йил, 9-сон, 217-модда

³Қаранг: Дипломатия муносабатлари тўғрисидаги Вена Конвенцияси (Вена, 1961 йил 18 апрел. 1964 йил 24 апрелдан кучга кирган. Ўзбекистон Республикасининг кўшилиши Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1994 йил 6 майдаги 1078-ХІІ-сонли қарорига мувофиқ)

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi xorijdagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari hududida sodir etilgan jinoyatlar har doim O‘zbekiston hududida sodir etildi, deb hisoblanadi. Xuddi shunday tarzda O‘zbekistondagi chet davlatlar elchixonalarida sodir etilgan jinoyatlar ham o‘sha davlatlar qonunchiligiga muvofiq ko‘riladi. Vakolatxonaning hududi sifatida undagi bino va xonalargina emas, balki shu binoga qarashli yer, hovli, vakolatxona boshlig‘ining rezidentsiyasi, vakolatxona xodimlari, davlat yurisdiksiyasi immunitetiga ega bo‘lgan shaxslar yashaydigan turar joy binolari hamda transport vositalari tan olinadi.

Shuni ko‘rsatish lozimki, vakolatxona hududiga yoki uning xodimlariga qarshi qaratilgan jinoyat, jinoyat subyekti O‘zbekiston Respublikasida jismonan turganligi sharti bilangina, O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan deb topiladi, aks holda bunday harakatlarni boshqa davlat hududida sodir etilgan, deb qarash kerak.

JK 11-moddasi 2-qismi O‘zbekiston hududida sodir etilgan jinoyat deb hisoblash mezonlarini belgilaydi. Moddaning mazkur qismini kiritish zaruriyati shundan iboratki, sodir etilgan harakatni O‘zbekiston Respublikasi hududidagi jinoyat sifatida belgilash chegaralarini qonuniy belgilash va shu asosda qonunni qo‘llash faoliyatini bir xil tarzda olib borish imkoniyatini ta‘minlashdir.

JK 11-moddasi 2-qismi jinoiy harakat sodir etilishining barcha bosqichlari va ko‘rinishlarini, aybdor jinoiy xulq-atvorining deyarli barcha ko‘rinishlarini qamrab oladi. Xususan, mazkur moddaga muvofiq «Qilmish:

a) O‘zbekiston hududida boshlangan, tamomlangan yoki to‘xtatilgan bo‘lsa;

b) O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O‘zbekiston hududida yuz bergan bo‘lsa;

v) O‘zbekiston hududida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O‘zbekiston hududidan tashqarida yuz bergan bo‘lsa;

g) bir necha qilmishlardan iborat yoki boshqa qilmishlar bilan birgalikda sodir etilgan bo‘lib, uning bir qismi O‘zbekiston hududida yuz bergan bo‘lsa, O‘zbekiston hududida sodir etilgan jinoyat deb topiladi».

Ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan jinoiy harakat belgilari mazmun-mohiyatiga ko'ra obyektiv hisoblanadi va qonun chiqaruvchi jinoyat tarkibining barcha belgilarini obyektiv ravishda ko'rsatib beradi. Bu belgilar jinoiy harakatning faqat tegishli belgilariga xos bo'lib, jinoyat tarkibining boshqa qismlariga tegishli bo'lmaydi. Ayni vaqtda jinoyatning muhim belgilari (subyekt, obyekt, subyekt tomonlari) qonun chiqaruvchi tomonidan muhim apriori deb hisoblanadi, ya'ni qonun moddalaridan qat'i nazar har bir jinoyat ko'rib chiqilganda, bu belgilar aniqlanadi. Bu belgilar jinoiy ish sodir etilgan hududni aniqlashga ta'sir etmaydi, lekin sud va tergov organlari tomonidan har bir harakatning jinoyatga aloqadorligini aniqlash maqsadida ko'rib chiqiladi (masalan, harakat jinoyat sodir etishga layoqatsiz kishi tomonidan qilingan bo'lsa, bunday jinoyat jamiyat uchun xavfli hisoblanmaydi, garchand jinoiy harakatning obyektiv belgilari mavjud bo'lgan holda ham). Shunday qilib, yuqorida ko'rsatilgan belgilar ro'yxati Jinoyat kodeksining tamoyillarini ifoda etadi, ya'ni qonuniylik, adolatlilik, barcha fuqarolarning qonun oldida tenglik tamoyillarini ko'rsatadi.

JK 11-moddasi 2-qismi «a» bandida jinoyat sodir etishning **boshlanishi** deganda, aybdor sodir etish shart deb hisoblagan va sodir etgan, ular jinoiy oqibatga olib kelmagan bo'lsa ham har qanday jinoiy qilmishni (harakat yoki harakatsizlik) tushunish kerak. Shunday qilib, jinoyat sodir etishni boshlash tamom bo'lgan suiqasdni qamrab oladi.

(Tamom bo'lgan suiqasd haqida mazkur tom IX bobining «Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish» deb nomlangan 3-§ da batafsil berilgan.)

Jinoyat sodir etishning boshlanishi sifatida yana shunday dastlabki jinoiy harakat tan olinadiki, bunday harakat keyingi uzoq davom etuvchi qonunbuzarlik harakatlari bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni uzoq davom etuvchi jinoyatning boshlanishidir.

Uzoqqa cho'zilgan jinoyat, masalan, soliq yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash, harbiy qism yoki xizmat joyini o'zboshimchalik bilan tashlab ketish kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

(Davom etuvchi jinoyat haqida mazkur tom XI bobining «Takroran jinoyat sodir etish» deb nomlangan 2-§ da batafsil berilgan.)

O‘zbekiston Respublikasi JKda javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatning barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmish O‘zbekiston hududida **tamom bo‘lgan** deb topiladi. Shuning uchun, muayyan qilmish tamom bo‘lganligi to‘g‘risidagi masalani hal qilishda JK Maxsus qismidagi modda tushunchasidan kelib chiqish lozim.

Amaldagi Kodeksga muvofiq, jinoyat tamom bo‘lgan deb quyidagi holatlarda tan olinadi:

– ma‘lum oqibatlarni keltirib chiqargan qilmish, ya‘ni **moddiy tarkibli jinoyat** (masalan, qasddan odam o‘ldirish, o‘g‘rilik va h.k.);

– kvalifikatsiyaga jiddiy ta‘sir qilmaydigan oqibatlarni keltirib chiqargan qilmish – **formal tarkibli jinoyat** (masalan, tuhmat, haqorat, davlatga xoinlik qilish va boshq.);

– ijtimoiy xavfli zarar yetkazishning real xavfini tug‘diruvchi qilmish – **kesik tarkibli jinoyat** (bosqinchilik, zo‘rlash va boshq.).

To‘xtatilgan jinoyat ham jinoyat O‘zbekiston hududida sodir etilgan deb hisoblanadi. Mazkur moddaga muvofiq, jinoiy harakat o‘zining moddiy ifodasiga ko‘ra va subyekt qabul qilinishi jihatidan tugallanmagan bo‘lsa, to‘xtatilgan jinoyat deb baholanadi.

Amaldagi qonun to‘xtatilgan jinoyatning ikki shaklini ko‘rsatadi:

– qilmish shaxs tomonidan ixtiyoriy ravishda to‘xtatiladi. Bu shaxsning jinoyatni to‘xtatish imkoniyati borligini tushunishi oqibatida ro‘y berishi mumkin hamda shaxs qilmishining yomon oqibatlari kelib chiqishining oldini olish imkoniyati mavjudligini tushunib, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy ravishda qaytishi mumkin – **jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish**;

– shaxs irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra qilmishning oxiriga yetkazilmasligi – **tamom bo‘lmagan suiqasd**.

Tamom bo‘lmagan suiqasd deganda, aybdor o‘zining jinoiy harakatlarini oxirigacha yetkaza olmagan, ko‘zlagan maqsadiga erisha olmagan tushuniladi. **Tamom bo‘lgan suiqasd** bilan tamom bo‘lmagan suiqasd orasidagi farq shundaki, birinchisida aybdor mo‘ljallagan barcha harakatlarini amalga oshirdim, deb hisoblaydi.

(Tamom bo‘lgan va tamom bo‘lmagan suiqasd haqida mazkur tom IX bobining «Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish» deb nomlangan 3-§ ga qarang.)

Ta’kidlash lozimki, aybdor tashabbusi bilan uzoqqa cho‘zilgan yoki davomli jinoyatlar to‘xtatiladigan (masalan, o‘z xohishi bilan aybini bo‘yniga olib kelish) yoki jinoyat sodir etilishiga to‘sqinlik qiladigan vaziyat yuzaga kelishi (masalan, organlarning aralashuvi) to‘xtatilgan jinoyat sifatida baholanadi. Bunday hollarda uzoqqa cho‘zilgan va davomli jinoyatlar tamom bo‘lmasdan aynan to‘xtatiladi, chunki vaqt bo‘yicha jinoiy harakat davom etuvchi akt bo‘lib, u tamom bo‘lmaydi, lekin davom ettirilishi to‘xtatilishi mumkin.

JK 11-moddasi 2-qismining navbatdagi ikki bandi – «b» va «v»**bandlari** qilmishning tamom bo‘lgan jinoyatning ayrim holatlariga nisbatan – moddiy tarkibli jinoyatlarga O‘zbekiston hududida sodir etilgan jinoyat sifatida baholashning shartlarini belgilaydi.

Bunday shartlarning alohida ko‘rsatilishiga sabab umumiy qoida bo‘yicha qilmishning ijtimoiy xavfliligi uning sodir etilishigagina emas, balki uning qonunda ko‘rsatilgan oqibatlariga qarab aniqlanadi va bu oqibatlar kelib chiqqandan so‘ng jinoyat sodir etilgan hisoblanadi. Lekin bu qoida jinoiy harakat bir davlat hududida sodir etilgandagina qo‘llanadi. Agar jinoyat ikki yoki bir necha davlat hududida sodir etilgan bo‘lsa, bunday qoidani qo‘llash jinoyatchining jazodan qutulib qolishiga imkoniyat tug‘diradi. Shunga ko‘ra qonun belgilaydiki, agar sodir etilgan jinoyat moddiy tarkibga ega bo‘lsa, oqibatlari mavjudligiga qaramay, u O‘zbekiston hududida sodir etilgan deb baholanadi. Bunday shartning belgilab qo‘yilishi Kodeksning javobgarlikning muqarrarlik prinsipiga mos keladi.

Ta’kidlash lozimki, qilmishning O‘zbekiston hududida sodir etilgan jinoyat sifatida baholanishi zaruriy obyektivlik belgilaridan birortasining formal mavjudligini talab qilmasa ham, bu belgining faktik aniqlanishi haqidagi talabga rioya qilish zarurligini inkor etmaydi. Boshqacha qilib aytganda, sud va tergov organlari shaxsni shunday jinoyat uchun javobgarlikka tortishda har doim jinoyatning mazkur belgilari

yig'indisining amalda mavjudligini aniqlashlari shart. Bu jinoyatning moddiy tarkibi talabidan kelib chiqadi. Bu belgilardan birortasining amalda mavjud bo'lmashligi ayblanuvchi harakatlarining tamom bo'lgan jinoyat sifatida baholanishiga yo'l qo'ymaydi.

JK 11-moddasi 2-qismi «g» bandida bir necha qilmishlardan iborat yoki boshqa qilmishlar bilan sodir etilib, uning bir qismi O'zbekiston hududida yuz bergan bo'lsa, bunday jinoyat O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan deb baholanadi.

Bu holda birgalikda yagona jinoiy yo'nalishga ega bo'lgan jinoiy xulq-atvor aktlarining birlashishi **bir necha qilmishlardan** iborat qilmishni anglatadi. Xususan, bir necha qilmishga jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, sodir etish, unda ishtirok etish, tashkilotchilik qilish, yordamlashish kabi harakatlar kiritiladi. JK 11-moddasi 2-qismi «a» bandiga kiritilmaydigan belgilar: jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, ishtirok etish kabilar bir qilmishni tashkil etadi, unda aybdor bo'lganlar javobgarlikka tortilishi lozim.

Boshqa qilmishlar bilan birgalikda degan tushuncha yagona maqsadga yo'naltirilgan va natijada bir jinoyatni tashkil etadigan harakat yoki harakatsizlikning bir xil aktlarini qamrab oladi. Natijada, mazkur bandga muvofiq, **davom etuvchi jinoyatlarni** tushunish lozim.

(Davom etuvchi jinoyat haqida mazkur tom XI bobining «Takroran jinoyat sodir etish» deb nomlangan 2-§ da batafsil berilgan.)

Shunday qilib, **JK 11-moddasi 2-qismi «g» bandi** mazmuniga muvofiq, bir necha qilmish shaxs harakatining xususiyati bo'lsa, boshqa harakatlar bilan birgalikda degan tushuncha, muayyan jinoyat tarkibini tashkil etuvchi qilmishning xususiyatini qamrab oladi. Bu yerda bir necha xil qilmishlar mavjudligi talab etiladi. Agar harakat yoki harakatsizlik bir martagina sodir etilgan bo'lsa, aybdor shaxs mazkur bandga muvofiq javobgarlikka tortilmaydi, biroq «a», «b» bandlar yoki JKning 11-moddasi 2-qismiga muvofiq tegishli belgilar mavjudligida javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, mazkur bandga muvofiq qonunda bayon etilgan qoidadan kelib chiqib, shaxsni javobgarlikka tortish uchun jinoyat boshqa davlat hududida boshlangan, tugallangan yoki to'xtatilgan, lekin jinoiy

harakatning bir qismi O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilganini aniqlash lozim (masalan, O‘zbekistonning qo‘shni davlat bilan chegarasida boshlanib, o‘sha yerda genotsid (qirg‘in) yuz bergan va chegaradosh O‘zbekistonning aholisiga ham tegib o‘tgan). Aks holda, jinoyat sodir etgan shaxs mazkur moddaning «a» bandiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

JK 11-moddasi 3-qismi hozirgi zamon xalqaro huquqning umum-e’tirof etilgan qoidalarini ifoda etadi. Unga muvofiq, dengiz, daryo yoki havo kemasida ustidagi bayroq yoki ro‘yxatga qo‘yilgan port qaysi davlatga mansub bo‘lsa, o‘sha davlat hududidan tashqarida, lekin boshqa chet davlat hududiga kirmagan bo‘lsa, u o‘z davlati hududida deb hisoblanadi.

NOTA BENE !

Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga muvofiq, davlatlar chegara chizig‘idan tashqarida bo‘lgan yoki alohida iqtisodiy hudud chizig‘idan tashqarida joylashgan suv yoki havo hududi **ochiq dengiz** yoki **ochiq havo hududi** deb hisoblanadi.

Ochiq dengiz va ochiq havo hududida jinoyat sodir bo‘lgan dengiz yoki havo kemasida O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i turgan bo‘lsa yoki O‘zbekiston portida ro‘yxatda bo‘lsa, jinoyatchi shaxs O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq javobgarlikka tortiladi. Agar dengiz yoki havo kemasida xorijiy davlat portida turgan paytda, o‘sha davlat hududida yurgan paytda sodir etilgan bo‘lsa, jinoyat o‘sha davlat hududida sodir etildi deb hisoblanadi.

Aybdor shaxsning fuqaroligi hamda kema kimning mulkiga mansubligi (davlat, shaxsiy) jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi masalani ko‘rishda ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Dengiz, daryo, havo kemasida¹ O‘zbekiston bayrog‘i o‘rnatilgan bo‘lsa yoki O‘zbekiston portida ro‘yxatga olingan hollarda, O‘zbekistonning jinoyat qonunchiligi qo‘llanishi mumkin.

¹ Айтиб ўтиш керакки, кема сифатида нафақат кемаларнинг ёрдамчи қурилмалари, масалан, шлюпкалар, траплар ва бошқа қурилмалар, балки унинг бутловчи буюмлари, масалан якорьлар ҳам эътироф этилиши лозим.

Kemaning **O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i ostida bo‘lishi** uning milliy mansubligini belgilaydi va bu mansublik kema Respublika Davlat bayrog‘i ostida bo‘lish huquqiga ega va majburligida ko‘rinadi.

Har bir davlat kemaga uning bayrog‘i ostida yurish huquqini va hujjatlarini o‘zi belgilaydi va beradi¹.

Portda ro‘yxatdan o‘tkazilishi – bu kemaning kemachilikni tartibga soluvchi organlar qirg‘oq kemachilik inspeksiyalarining kemachilik reestriga kiritilishi².

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini yana ayrim hollarda jinoyat xorijiy davlatning suv yoki havo hududida sodir etilganda ham qo‘llash mumkin. Lekin bunday holatlarda xorijiy davlat manfaatlarini saqlash shartlari bilan chegaralashga to‘g‘ri keladi, ya’ni o‘sha davlat manfaatlariga zarar keladigan bo‘lsa, unda o‘sha davlat qonuni qo‘llaniladi³.

Notijorat davlat kemalari (harbiy, bojxona, politsiya kemalari va boshqalar) har doim qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, faqat O‘zbekiston Respublikasi jinoiy yurisdiksiyasiga ega bo‘ladi. Bu ochiq suv yoki havo hududi, boshqa davlat hududidagi dengiz yoki havo hududi, dengiz porti yoki aeroport bo‘lishi mumkin. Shunday joylarda ham O‘zbekiston dengiz, daryo yoki havo kemasida jinoyat sodir etgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

JK 11-moddasi 4-qismi O‘zbekiston Respublikasi jinoiy qonunchiligining amaldagi hududiylik prinsipidan qonuniy istisno qilish holatlarini belgilaydi. Bu, davlat vazifalarini bajaruvchi ayrim shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishda huquqiy immunitet berilishi haqida hozirgi zamon jahon konsepsiyasini ifoda qiladi.

¹ Қаранг: Большой юридический словарь / Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских. – 129 б.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг ички сув транспорти устави (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 26 февралдаги 106-сон қарори билан тасдиқланган), 21-банд // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг тўплами, 1997 йл, февраль. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами 2005 й., 27-сон, 191-модда.

³ Қаранг, масалан: Ҳаво кемаси бортида содир этиладиган жиноятлар ва баъзи бошқа актлар тўғрисидаги Конвенция (Токио, 1963 й. 14 сентябрь. Ўзбекистон Республикасининг кўшилиши Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1995 йил 6 майдаги 81-И-сон қарорига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси учун 1995 йил 29 октябрдан бошлаб кучга кирган), II боб (3—4-моддалар).

Huquqiy immunitetdan foydalanish huquqi berilgan shaxs uning jinoyati xarakteri va ijtimoiy xavfliligi darajasidan qat'i nazar, qaysi mamlakat manfaatlariga xizmat qilgan bo'lsa, o'sha davlat roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, O'zbekiston hududida huquqiy immunitetdan quyidagi chet el fuqarolari foydalanishi mumkin:

- xorijiy davlat diplomatik xodimlari;
- xorijiy davlat vakolatxonalari xodimlari;
- xalqaro hukumatlararo tashkilotlar xodimlari;
- xorijiy davlatlarning boshqa vakillari.

Diplomatik vakolatxona xodimlari – bu vakolatxona boshlig'i va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining shunday maqomga ega bo'lishini tasdiqlovchi hujjat berilgan shaxsiy tarkib a'zolari, xodimlar¹.

Vakolatxona shaxsiy tarkibi a'zolari – bu, avvalo, vakolatxona shaxsiy tarkibi a'zolari – diplomatik xodimlar, vakolatxonaning ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari. Diplomatik xodimlar qatoriga, birinchi navbatda, diplomatik rangga ega bo'lgan vakolatxona xodimlari kiradi. Ma'muriy-texnik xodimlar tarkibiga vakolatxona shaxsiy tarkibi a'zolari kiritiladi. Ularning vazifasi vakolatxonaga ma'muriy-texnik tomondan xizmat ko'rsatishdan iborat. Bundan tashqari, vakolatxonaga maishiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ham bor². Ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar faqat xizmat vazifalarini bajarayotgan vaqtda immunitetga ega bo'ladilar³.

Diplomatik vakolatxona xodimlari bilan bir qatorda jinoiy yurisdiksiyaga nisbatan immunitet, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqaroligida turmagan bo'lsalar, vakolatxona xodimlarining oila a'zolariga

¹ Qarang: Masalan, Xoriжий davlatlarining Ўзбекистон Республикасидаги дипломатик ваколатхоналар ва консуллик муассасалари тўғрисидаги Низом (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2001 йил 8 майдаги 207-сон қарорига 1-илова), 6.4-банд // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2001 й, 9-сон, 47-модда; 2002 й, 14-сон, 112-модда.

² Qarang: Дипломатия муносабатлари тўғрисидаги Вена конвенцияси, 1-модда.

³ Qarang: Ўша жойда, 37-модда. Хорижий davlatlarining Ўзбекистон Республикасидаги дипломатик ваколатхоналар ва консуллик муассасалари тўғрисидаги Низом (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 8 майдаги 207-сон қарорига 1-илова), 3.17-банд.

ham beriladi, lekin bunday immunitet vakolatxonaning xizmat ko'rsatuvchi personalni xodimlari oila a'zolariga berilmaydi¹.

Immunitetga ega bo'ladigan vakolatxona xodimi statusiga kuryer ega bo'ladi, ya'ni diplomatik pochta tashish uchun tayinlangan rasmiy shaxs. Diplomati kuryer doimiy yoki bir martaga, ya'ni muayyan pochta ma'lumotini yetkazish bilangina mazkur huquqiy holatga ega bo'lishi mumkin.

Konsullik muassasasi xodimi – bu, avvalo, konsullik vazifasini ado etuvchi va Tashqi ishlar vazirligi tomonidan berilgan maxsus hujjatlarga ega bo'lgan har qanday shaxs, jumladan, konsullik muassasasi rahbari ham². Shunday qilib, mazkur bandga muvofiq elchixonada xodimi sifatida faqat konsullikning mansabdor shaxslari tushuniladi. Bunday shaxslar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlardan ozod etuvchi immunitetga ega bo'ladi³.

O'zbekiston Respublikasi konsullik kuryeriga ham diplomatik kuryeriga berilgan huquqiy maqomni beradi⁴.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning xodimlari sifatida O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tkazilgan tashkilotlarning vakillari tan olinadi. Bunday mansabdor shaxslar va ularga taqdim etiladigan immunitetlar ro'yxati xalqaro shartnomalar va bitimlarga muvofiq belgilanadi, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va turli ixtisoslashgan muassasalar foydalanadigan imtiyozlar va daxlsizlik huquqlari to'g'risidagi Konvensiya⁵, Xalqaro jinoiy sudning Rim statuti⁶ va h.k.

O'zbekiston jinoiy yurisdiksiyasidan saqlovchi immunitetga ega bo'lgan boshqa shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududi orqali

¹ Қаранг.: Ўша жойда.

² Қаранг.: Ўша жойда., 6.4-банд.

³ Қаранг.: Ўша жойда, 3.17- банд.

⁴ Қаранг.: Ўша жойда, 4.10-банд.

⁵ Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ва турли ихтисослашган муассасалар фойдаланадиган имтиёзлар ва дахлсизлик ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция (Вашингтон, 1947 й. 21 ноябрь, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1996 й. 26 апрелдаги 234-сон қарорига мувофиқ,) Ўзбекистон Республикаси учун 1997 й. 18 февралдан бошлаб кучга кирган.

⁶ Халқаро жиноий суднинг Рим статuti (Рим, 1998 й. 17 июль, Халқаро жиноий судини таъсис этиш бўйича БМТ раҳбарлигида ваколатли вакиллар конференцияси томонидан қабул қилинган, Ўзбекистон Республикаси томонидан 2001 й. 28 июнда ратификация қилиниши лозим).

tranzit ravishda o'tuvchi uchinchi davlatdagi elchixona boshliqlari, diplomatik tarkib a'zolari, ularning oila a'zolari kiradi.

Shunday immunitet davlatlararo muzokarlarda, xalqaro konferensiyalarda va yig'ilishlarda qatnashish uchun yoki boshqa rasmiy topshiriqlar bilan O'zbekiston Respublikasiga keladigan xorijiy davlatlarning vakillariga, xorijiy davlatlarning parlament va hukumat delegatsiyalari a'zolariga, shuningdek, ularni kuzatib boruvchi va ularning O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lmagan oila a'zolariga ham beriladi¹.

JKning hududiylik prinsipidan mustasno qilish immunitetidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish mumkin emas degan ma'no kelib chiqmasligi kerak. **JK 11-moddasi 4-qismida** belgilab qo'yilgan: javobgarlikka tortish haqidagi masala xalqaro huquq normalariga muvofiq amal qilinadi, ya'ni umuman javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Diplomatik immunitetlar haqidagi Vena konvensiyasiga muvofiq, akkreditatsiya qilgan davlat vakolatxona boshlig'i va uning oila a'zolari yoki vakolatxona shaxsiy tarkibining boshqa a'zosini persone non grata deb e'lon qilish mumkin, bunda bu qarorni qabul qilgan davlat o'z harakatlarini izohlab berishga majbur emas.

Bunday hollarda akkreditatsiya qiluvchi davlat bu shaxsni chaqirib olishi yoki vakolatxonada uning faoliyatini to'xtatishi lozim. Agar akkreditatsiya qiluvchi davlat uni chaqirib olishdan bosh tortsa yoki faoliyatini ma'lum muddatga to'xtatmasa, vakolatxona turgan davlat bunday shaxsni vakolatxona xodimi sifatida tan olmaslik huquqiga ega².

Aslida sodir etilgan qilmish uchun javobgarlikdan ozod etilmaydi, faqat uni shu mamlakat sudida ko'rish imkoniyati olib tashlanadi. Bu qoida Jinoyat kodeksi 10-moddasida zikr etilgan javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga mos.

¹ Хорижий давлатларнинг Ўзбекистон Республикасидаги дипломатик ваколатхоналар ва консуллик муассасалари тўғрисидаги Низом (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси 2001 йил 8 майдаги 207-сон қарорига 1-илова), 6.1-банд, 6.2-банд.

² Қаранг: Дипломатия муносабатлари тўғрисидаги Вена конвенцияси, 9-модда.

JK 12-moddasi Jinoyat kodeksining amal qilish hududiy chegaralarini belgilaydi. 11-moddadan farqli o'laroq, bu o'rinda **fuqarolik prinsipi** asos qilib olinadi. Bu prinsip O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining hududiylik prinsipini to'ldirishga qaratilgan.

Fuqarolik prinsipiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda fuqarolikka ega bo'lmagan, lekin respublika hududida doimiy yashayotganlar, ular qayerda bo'lishlaridan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qilishlari shart. Shuning uchun, bu shaxslar ma'lum shart-sharoitlarga mos kelgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, javobgarlikka tortiladilar, garchi ular jinoiy harakatni boshqa davlat hududida sodir etgan bo'lsalar ham. Shunday qilib, fuqarolik prinsipi Kodeks vazifalarini bajarishga yordam beradi, xususan, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalaydi.

JK 12-moddasi 1-qismi umumiy shartlarni belgilaydi, shu yo'l bilan fuqarolik prinsipi davlatimiz qonunchiligi hududiy amal qilish mezonlarini belgilaydi.

Bu shartlar fuqarolik prinsipining quyidagi tarkibiy elementlarini ifodalaydi:

- aniq-muayyan subyektli tarkibi;
- prinsipni qo'llashning hududiy sohalari;
- jinoiy javobgarlikka tortish asoslari;
- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortishni istisno etuvchi holatlar.

Fuqarolik prinsipining aniq-muayyan subyektli tarkibi shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi amal qilish doirasi qonunda ko'rsatilgan ma'lum toifadagi aholi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va respublikada doimiy istiqomat qiluvchi fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslar bilan chegaralanadi.

NOTA BENE !

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi – bu qonun bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqarosi maqomiga ega bo'lgan shaxs.

Amaldagi qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi bilan o‘zaro huquq va majburiyatlariga ko‘ra siyosiy-huquqiy aloqada bo‘lgan shaxs fuqaro hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, pasport olingunga qadar esa – tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma yoki shaxsning fuqaroligiga doir ma‘lumotlar bo‘lgan o‘zga hujjat – O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlar deb hisoblanadi¹. Shaxsning fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatlar – bu faqat rasmiy mezon, sud-tergov xodimlari har bir holatda shaxsning respublika bilan siyosiy-huquqiy bog‘langanligini aniqlashi lozim, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq, shaxsning fuqarolik mansubligini, uning qachon olgan-olmagani, chiqarilgani haqidagi faktni aniqlashi lozim.

NOTA BENE !

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxs – bu O‘zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan va chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo‘lmagan shaxs².

JK 12-moddasi doirasida, chet elda jinoyat sodir etgan, fuqaroligi bo‘lmagan barcha shaxslar ham O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi asosida jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, ulardan faqat O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslargina tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar deb, doimiy yashash uchun ruxsatnoma va yashash guvohnomasi mavjudligidan iborat bo‘lgan doimiy yashashning formal mezoni bilan ta’riflanayotgan mazkur shaxslarning guruhi tushuniladi³.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 2 июлдаги «Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида»ги 632-ХП-сон Қонуни, 1-модда, 1-қисми ва 5-модда// Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 8,9-сон, 338-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда.

² Ўша жойда, 11-м.

³ Хорижий фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикасида бўлишлари қоидалари (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 199 йил 21 ноябрдаги 408-сонли қарорига 2-илова), 28-банд // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг қарорлари тўплами, 1996 й., ноябрь; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг қарорлари тўплами, 1999 й., 4-сон 20-модда, 2004 й., 4-сон 43-модда.

O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 26 fevraldagi PF-2240-son Farmoni¹ bilan tasdiqlangan Xorijiy shaxsga O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi fuqaroligi bo‘lmagan shaxsga O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxs guvohnomasi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq beriladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash uchun ruxsatnoma qonunda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan beriladi.

Fuqarolik prinsipining navbatdagi elementi **JK 12-moddasida** ifoda etilganidek, uning qo‘llanishi mumkin bo‘lgan hudud doirasidir. Bu o‘rinda Jinoyat kodeksining hududiylik prinsipi fuqarolik prinsipiga o‘z navbatini topshiradi. Qonun talabiga binoan, fuqarolik prinsipi faqat jinoyat xorijiy davlat hududida sodir etilgan holda qo‘llaniladi, lekin umuman O‘zbekiston hududidan tashqarida emas.

Fuqarolik prinsipining tarkibiy elementi sifatida qonun jinoiy javobgarlikka tortish uchun asosni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda belgilaydi. Jinoiy javobgarlikka tortishga asos sifatida Kodeks faqat boshqa davlat hududida sodir etilgan jinoyat faktini ko‘rsatadi.

Shuni nazarda tutish lozimki, bu o‘rinda konkret qilmishning jinoyat sifatida baholanishi uchun ikki shart mavjudligi talab etiladi:

birinchidan, mazkur qilmish sodir etilgan davlat hududida bu qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilanganligi;

ikkinchidan, bu qilmishning O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat deb baholanishi.

Yuqorida keltirilgan shartlar majmuining mavjud bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo‘yicha shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi. Bu qonunchiligimizning inson erkinligi va huquqlarini uning eng oliy boyligi sifatida tan olish g‘oyasini bildiradi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmasdan O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchilar chet davlat hududida jinoyat sodir etganda o‘sha mamlakatda bu qilmishlar

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 3-сон 65-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 22-23 сон 256-модда.

jinoyat hisoblanmasa, buni aniqlash mumkin bo'lmaydi (masalan, bachchavozlik, valyutalarni noqonuniy sotib olish, sotish va hokazo). Shuningdek, O'zbekistonda qilmish jinoyat hisoblanmaydigan bo'lsa, chet davlatda hisoblanadigan bo'lsa ham, javobgarlikka tortilmaydi.

Ta'kidlash lozimki, chet davlat qonunchiligida qilmish jinoyat qonunida taqiqlangan bo'lsa ham, sud va tergov organlari ishni ko'rishda konkret qilmish uchun aybdorni jazolash imkoniyati bor yoki yo'qligidan kelib chiqmay, bunday jinoyat shu davlatda jinoiy jazolanadigan harakat deb baholanadimi yoki yo'qmi, degan savoldan kelib chiqishi kerak. Aks holda, jinoyat sodir etgan shaxsning javobgarlikka tortilmasligi O'zbekiston Respublikasida davlat va jamiyatga, amaldagi boshqaruv tartibiga, xavfsizlikka, davlat hokimiyati tizimiga qarshi yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

O'zbekiston fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan respublika hududida doimiy yashovchi shaxs boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyati uchun agar o'sha davlat qonuni bo'yicha jazolanmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Qonuni bo'yicha javobgarlikka tortilishi mumkin.

Fuqarolik prinsipining ushbu qoidasiga muvofiq, chet davlatda jinoyat sodir etgan shaxs, faqatgina o'sha davlat qonuni bo'yicha javobgarlikka tortilmagan bo'lsa jazolanishi mumkin. **JK 12-moddasi** mazmunida jazo deganda, faqatgina davlat majburlov choralari emas, balki sodir etilgan jinoiy qilmish uchun xorijiy davlatlarning qonunlarida ko'zda tutilgan barcha huquqiy oqibatlarini tushunish zarur. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra, sud hukmiga muvofiq shaxs javobgarlikdan ozod qilingan bo'lsa yoki o'z jinoiy xulqi uchun boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llanilgan bo'lsa (masalan, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, jamoatchilik tanbehi, ruhiy ta'sir choralari va boshqalar), javobgarlikka tortish mumkin emas. Bu o'rinda, davlatimiz qonunida bu masalaga oid jazo turi va me'yori, konkret ta'sir etish chora-tadbirlari ko'zda tutilgani yoki tutilmagani ahamiyatsizdir. Bu shart-sharoitga va umuman fuqarolik tamoyilini qo'llashga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

- jinoyat sodir etgan shaxsga davlat nomidan sud hukmi chiqarish;
- aybdorga nisbatan hukmni ijro etish.

Mazkur shartlardan biri bajarilmasa, tergov va sud organlari tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikka tortiladi (masalan, agar aybdor hukm qilinmagan, qochib ketgan yoki hukm ijro etilishidan qochgan holatlarda).

Shuni alohida aytish kerakki, xorijiy davlatda sud hokimiyatini amalga oshiruvchi organlar yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan fuqarolik prinsipining rad etuvchi shartini qo‘llashga ta’sir etmaydi.

JK 12-moddasi 2-qismida fuqarolik tamoyillarining maxsus qoidalari, ya’ni sodir etgan jinoyati uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijiy mamlakat oldidagi javobgarligi bayon qilingan.

Bu qoida quyidagi hollarda, aybdor, ya’ni O‘zbekiston fuqarosi, boshqa davlat hududida jinoyat sodir etsa, lekin turli sabablar ta’siri ostida o‘z vaqtida ushbu davlat tomonidan javobgarlikka tortilmagan bo‘lsa qo‘llaniladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida JK 12-moddasi 2-qismida bayon qilingan qoida **jinoyatchini ushlab berish instituti bilan (ekstraditsiya)** qamrab olingan.

NOTA BENE !

Ekstraditsiya – jinoyat sodir etgan yoki jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki unga nisbatan oxirgi ayblov hukmini ijro etish uchun bir davlat tomonidan boshqa davlatga berish.

Shu bilan birga, mazkur institut ko‘p jihatdan jinoyat-protsessual faoliyatga ham taalluqli bo‘lib, shunga ko‘ra, bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida to‘liq holda bayon etilgan.

JK 12-moddasi 2-qismiga muvofiq, O‘zbekiston fuqarosi chet davlat hududidagi jinoyat uchun, xalqaro kelishuv yoki xalqaro shartnomalarda ko‘zda tutilgan hollardan tashqari jazoga tortilmaydi. Shunday qilib, ushbu normalar faqatgina O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan shaxslarnigina o‘z ichiga oladi, bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasida o‘z

ifodasini topgan, ya'ni O'zbekiston o'z fuqarolarining huquqiy himoyasini kafolatlashni va homiylik qilish majburiyatini oladi¹.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosini u jinoyat sodir etgan davlat ixtiyoriga berish yoki berishni man etish, bu davlatning mazkur masalada boshqa davlatga talablar qo'yishi, shuningdek, chet mamlakatning boshqa talablarini bajarish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalaridan² kelib chiqib hal etiladi. Bunday hollarda, O'zbekiston Respublikasining nufuzli organlari uchinchi davlatga nisbatan o'zining talablarini qo'yishi kerak – shaxsning ushlangan joyi – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining fuqarolik tamoyillariga muvofiq javobgarlikka tortish iltimosi bilan ish ko'rishi kerak (**JK 12-moddasi 1-qismi**).

Shaxsni boshqa davlatga ushlab berishni man etuvchi qoida faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga nisbatan qo'llaniladi va qonunning bu talabi aynan tushunilishi kerak. Bu qoida O'zbekiston hududida bir qancha muddat istiqomat qilganligidan qat'i nazar, doimiy yashashga rasmiy ruxsatnomasi bo'lgan, biroq chet elda jinoyat sodir etgan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 10 б.

² Ўша жойда.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, agar xalqaro shartnoma va kelishuvlarda qayd etilgan bo‘lsagina o‘zga mamlakatga berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi yoki kelishuvi – respublikaning bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvidir¹.

JK 12-moddasi tarkibidagi xalqaro shartnomaning nomlanishi ahamiyatga ega emas, bu shartnoma, kelishuv, deklaratsiya, konvensiya, pakt, kommoniya, qaror va boshqalar barchasi teng yuridik kuchga ega. Shuning uchun, bu aktlarning vaqt bo‘yicha ta’sir etishiga diqqat qaratiladi.

Bugungi kunga qadar O‘zbekiston bir qator shartnomalarga qo‘shilgan yoki ularni tan olgan, masalan, terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi Shanxay konvensiyasi²; O‘zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o‘rtasida ekstraditsiya to‘g‘risidagi Shartnoma³; Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Konvensiya⁴ va boshqalar.

Shuni ta’kidlash kerakki, xalqaro shartnoma yoki kelishuvning bo‘lmasligi O‘zbekiston fuqarosini, masalan, diplomatik muzokaralar chog‘ida boshqa davlatga berishga monelik qiladi. Bu shaxs mazkur holatda muqarrar ravishda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortilib, jazolanadi.

JK 12-moddasi 3-qismida jinoyat qonunining makonda amal qilishiga oid universal tamoyil ko‘rsatilgan. Bu tamoyil boshqa xalqaro

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1995 й. 22 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги 172-I-сон қонуни, 3-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й 12-сон 262-модда 2003 й 5-сон 67-модда 2004 й 1-2-сон 18-модда Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005 й, 49-50-сон, 365-модда.

² Қаранг: Терроризм, сепаратизм ва экстремизмга қарши кураш тўғрисидаги Шанхай конвенцияси (Шанхай, 2001 й. 15 июнь, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2001 й. 30 августдаги 274-II-сонли қарори билан ратификация қилинган).

³ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси билан Покистон Ислам Республикаси ўртасида экстрадиция тўғрисидаги шартнома (Исломобод, 2001 й. 12 майдаги 233-II-сон қарори билан ратификация қилинган).

⁴ Қаранг: Фуқаролик, оилавий ва жиноий ишлар бўйича ҳуқуқий ёрдам ва ҳуқуқий муносабатлар тўғрисидаги Конвенция (Минск, 1993 й. 22 январ, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1993 й. 6 майдаги 825-XII-сонли қарори билан ратификация қилинган).

hamjamiyatlarda e'tirof etilgan xalqaro jinoyatlar va xalqaro xarakterdagi jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha respublikada olib borilayotgan jinoyat-huquqiy siyosat yo'nalishini aks ettiradi.

Xalqaro xarakterdagi jinoyat – bu xalqaro jinoyatlar doirasiga kirmaydigan, lekin xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli xatti-harakatlardir. Xalqaro jinoyatlardan farqli o'laroq, xalqaro xarakterdagi jinoyat uchun javobgarlik davlatning emas, balki shaxsning zimmasiga yuklanadi¹.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida xalqaro xarakterdagi bir qator jinoyatlar tarkibi ko'rsatilgan: terrorizm, qalbaki pullar, aksiz markalari, qimmatbaho qog'oz yoki markalar (qalbaki tangafurushlik) tayyorlash va tarqatish; marodiyorlik va boshqalar.

Jinoyat kodeksi amal qilishining **universal prinsipi** jinoyat sodir etilgan joyga bog'liq emas, u O'zbekiston hududidan tashqarida, ya'ni chet davlatlar hududida yoki hech qaysi davlatga tegishli bo'lmagan daxlsiz joylar (masalan, ochiq dengiz, havoda, Antarktida)da sodir bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyilga amal qilishning yagona sharti konkret xatti-harakatning xalqaro xarakterdagi jinoyat sifatida xalqaro shartnomalarda yoki O'zbekiston Respublikasi bitimlarida nazarda tutilganligi hisoblanadi. Xususan, bunday shartnomalarga Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi Xalqaro Konvensiya², Yollanma jinoyatchilarni yollash, ulardan foydalanish, moliyaviy ta'minlash va o'qitishga qarshi kurash to'g'risidagi Xalqaro Konvensiya³, Odamlarni garovga olishga qarshi kurash to'g'risidagi Xalqaro Konvensiya⁴ kabi hujjatlar misol bo'la oladi.

¹ Қаранг: Большой юридический словарь. Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских. М., ИНФРА, 2000, стр. 479-б.

² Қаранг: Терроризмни молиялаштиришга қарши кураш тўғрисидаги Халқаро Конвенция (Нью-Йорк, 2000 й. 9 декабрь, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2001 й. 12 майдаги 225-II-сон қарори билан ратификация қилинган, Ўзбекистон Республикаси учун 2002 й. 10 апрелдан бошлаб кучга кирган).

³ Қаранг: Ёлланма жиноятчиларни ёллаш, улардан фойдаланиш, молиявий таъминлаш ва ўқитишга қарши кураш тўғрисидаги Халқаро конвенция (Нью-Йорк, 1989 й. 4 декабрь, Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 й. 26 декабрдаги 555-I-сон қарорига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси учун 2001 й. 20 октябрдан бошлаб кучга кирган).

⁴ Қаранг: Одамларни гаровга олишга қарши кураш тўғрисидаги Халқаро Конвенция (Нью-Йорк, 1979 й. 17 декабрь, Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 й. 26 декабрдаги 554-I-сон қарорига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси учун 1998 й. 18 февралдан бошлаб кучга кирган).

Bu tamoyil amal qilishining yagona sharti O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma va kelishuvlarida xalqaro xarakterdagi muayyan qilmish to‘g‘risida aniq chora-tadbirlarning borligidir. Shunday qilib, chet ellik shaxs (muhojir) yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs O‘zbekiston hududida doimiy yashamay turib, ilgari xorijiy davlat jinoiy qonunchiligiga muvofiq tegishli javobgarlikka tortilgan bo‘lsa, uni O‘zbekiston Respublikasi hududida aynan o‘sha qilmishlari uchun qayta javobgarlikka tortib bo‘lmaydi. Bunda Kodeksning odillik prinsipiga asoslanganligi namoyon bo‘ladi.

4-§. Jinoyat qonunining vaqt bo‘yicha amal qilishi

JK 13-moddasi Jinoyat kodeksini qo‘llashda vaqt bo‘yicha amal qilish tartibini o‘rnatishga bag‘ishlangan bo‘lib, jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qaysi qonun asosida ish olib borish yoki qaysi qonunni yetakchi qilib olish kerakligini nazarda tutadi. Bunda mamlakatimiz jinoyat qonuni qoidalariga xos bo‘lgan izchillik, tartib bilan ish ko‘rish va nihoyat Jinoyat kodeksining vaqt bo‘yicha ta’sir chegaralari o‘z ifodasini topdi. Ko‘rsatib o‘tilgan qoidalar shundan kelib chiqadiki, jinoyat qonunini to‘g‘ri qo‘llash quyidagi shart-sharoitlar yig‘indisiga albatta, mos kelishi kerak:

- qonun ta’sir qilish davrini aniq belgilash zarurligi;
- jinoyat sodir etilgan vaqtni aniqlash zarurligi.

Yangi qonun kuchga kirmasdan turib jinoyat tugagan hollarda eski qonunni qo‘llash kerak. Agar jinoyat yangi qonun amal qilish vaqtida sodir etilgan bo‘lsa, jinoyat davomlimi, bir martalimi, qancha davom etishidan qat’i nazar, yangi qonunni qo‘llash bilan ish olib boriladi.

JK 13-moddasi 1-qismiga ko‘ra, «qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi ana shu qilmish sodir etilgan vaqtda amalda bo‘lgan qonun bilan belgilanadi» va shu orqali qonun amal qilishining vaqt chegarasi formulasini mustahkamlaydi. Qonunni qo‘llashning yagona sharti, jinoyat sodir etilgan vaqtda ushbu qonun amalda bo‘lishi, ya’ni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 24 dekabrda «Normativ-huquqiy hujjatlar

to'g'risida»gi 342-sonli Qonuni (yangi taxrirdagi)¹ hamda jinoyat sodir etilgan vaqtda O'zbekiston hududida bu qonunlarning albatta, ijro etilishi shart bo'lgan holatlar nazarda tutiladi.

JK 13-moddasi mazmuni eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilingan va bir qancha muhim va qat'iy ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlarnigina² emas, balki jinoyatchilik va jazolash ishlarini aniqlashga ta'sir etuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ham to'laligicha qamrab oladi. Xususan, buzilishi jinoyat deb topiladigan xulq-atvor qoidalarini o'rnatuvchi normativ-huquqiy hujjatlar ham qonun hisoblanadi, masalan, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi va boshqalar. Boshqacha qilib aytganda, qonun shunday bir normativ-huquqiy hujjatki, u albatta, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida yoki referendumda qabul qilingan, qonun sifatida tan olingan, shuningdek, mohiyati adolat va insonparvarlik tamoyillariga muvofiq keluvchi hujjatdir.

Haqiqatan ham, ko'pchilik hollarda sodir etilgan qilmishlarning xavflilik darajasi va shu bilan birga jinoiy jazoning og'irligi, uni keltirib chiqargan oqibatlar ko'rsatib o'tilgan qoidalarning buzilishi natijasidami yoki yo'qmi (masalan, Jinoyat kodeksi 266-moddasi 2-qismi), bu qilmishlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab aniqlanadi.

Shunday qilib, qonun tushunchasi Kodeksning vaqt bo'yicha ta'sir qilish nuqtai nazaridan quyidagi aktlar guruhini o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari;

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 24 декабрдаги «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги 342-сонли Қонуни. (янги тахрирдаги)» // "Ўзбекистон Республикасининг Қонун ҳужжатлари тўплами", 2012 й., 52-сон, 583-б

² Ўзбекистон Республикасининг 200 йил 24 декабрдаги «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги 342-сонли Қонуни

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Bu normativ-huquqiy hujjatlarning barchasi, ular O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qilmishlarning jinoyligi va jazoga sazovorligiga ta’sir ko‘rsatgan holdagina jinoyat qonuni sirasiga kiradi.

Shuni nazarda tutish kerakki, sanab o‘tilgan aktlar guruhi jinoyatni va bu qilmishning jazolanishi kerakligini aniqlamaydi – bu O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining faqatgina o‘ziga xos alohida huquqidir, biroq bu aktlar u yoki bu harakatni jinoyat deb tan olishga yoki jinoyatdagi harakatsizlik va jamiyat uchun xavflilik darajasini aniqlashga ta’sir etadi. Masalan, Chet elda hisobvaraqlar ochish uchun ruxsatnomalar berish Tartibiga muvofiq «yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan chet el banklarida ochilgan hisobvaraqlarga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ruxsatisiz mablag‘larning hisoblab yozilishi ularni yashirish deb hisoblanadi»¹, lekin uning jamiyatga xavfliligi va chet el valyutasini yashirishning jazolanishi esa, faqat Jinoyat kodeksi bilan aniqlanadi.

JK 275-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortish uchun giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, saqlash, hisobga olish, o‘tkazish, jo‘natish yoki tashish tartibini o‘rnatuvchi qoidalari amaldami, yangisi bilan almashtirilganmi, degan masalaga aniqlik kiritish kerak, ya’ni ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normativ akt mavjudligini aniqlash kerak.

Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga doir qoidalarni qo‘llashda ularning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiqligi talab etiladi. Masalan, Konstitutsiyaning 16-moddasi 1-qismiga binoan, qonun Asosiy Qonunning prinsiplari va moddalariga zid bo‘lmaslik va ularni buzmaslik talablariga javob berishi lozim². Bunda,

¹ Қаранг: Чет элда ҳисобварақлар олиш учун рухсатномалар бериш Тартиби (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 1999 йил 22 январда 610-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган, Ўзбекистон Республикаси Марказий Банки бошқаруви томонидан 1998 йил 28 мартда 390-сон билан тасдиқланган), 4.5-банд // Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборотномаси, 1999 й., 1-сон; 2003 й., 5-6-сон; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007й., 21-сон, 254-модда; 2008 й., 35-36-сон, 355-модда.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган

qonunni qabul qiluvchi organ kompetentligi, qabul qilinayotgan qonun statusiga mos kelishi muhim talab hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Qonuni faqatgina, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezident farmoni esa, faqat O‘zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilinadi.

Agar normativ-huquqiy hujjatlar ko‘rsatilgan talablarga mos kelmasa, u huquq manbasi sifatida tan olinmaydi va o‘z-o‘zidan jinoyatni baholash ishlarida unga asoslanish mumkin emas. Agar sud ishni ko‘rishda to‘g‘ri qaror qabul qilishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan birorta normativ hujjatning Konstitutsiyaga mos kelmayotganligini aniqlasa, ishni to‘xtatish to‘g‘risida ajrim chiqaradi va barcha materiallarni Oliy sud yoki Oliy xo‘jalik sudlari raislariga yuboradi, ular «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida»gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq, masalani Konstitutsiyaviy sudga ko‘rib chiqish uchun kiritish huquqiga ega.

Qonun O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tamoyil va qonunlariga mos kelishi bilan bir vaqtda o‘z mazmuni, shakli, rekviziti bilan O‘zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonuni tamoyillariga javob berishi kerak. Xususan, ushbu Qonunda uning mazmunidagi muayyan talablar, normativ-huquqiy

умумхалк референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 7 б.

hujjatlar rekviziti, rasmiy mavzusining tasdiqlanganligi va boshqalar ko‘zda tutiladi. Shu bilan bir qatorda, ushbu Qonun normativ qoidalar shaklini mustahkamlash tartibini ko‘rsatadi: qonun va qarorlarni – Oliy Majlis; Prezident farmonini – Prezident; qarorlarni – Vazirlar Mahkamasi; buyruq va qarorlarni – vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar; qarorlarni – mahalliy davlat hokimiyati organlari qabul qiladi. Huquqiy normalarni mustahkamlashning boshqa shakli mazkur talablarga rioya etmaslik sifatida e‘tirof etilishi, shunga o‘xshash hujjatlarning o‘zi esa normativ-huquqiy deb tan olinmasligi lozim. Shu asnoda xatlar, maktublar, ko‘rsatmalar normativ-huquqiy hujjat deb tan olinmaydi va bu haqda S.Murotxo‘jayev murojaati natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarorida ko‘rsatilgan edi¹.

Qonunni tatbiq etishning zarur elementi uning O‘zbekiston hududida qo‘llanilishi shartligi hisoblanadi. Nazarda tutish kerakki, **me‘yoriy hujjat majburiy ravishda ijro etilishi shart bo‘lgan hudud** tushunchasi, butun O‘zbekiston hududinigina emas, balki ma‘lum bir chegaralangan joyni ham anglatib, lokal xususiyat kasb etadi va normativ hujjat bajarilishi shart bo‘lgan hududni anglatadi. Lokal xarakterdagi aktlar quyidagilar, masalan, joylardagi hokimiyat organlari, normativ-huquqiy hujjatlar, o‘z ta‘sirini ma‘lum bir hududda yoyadigan, xususan, Ugom-Chotqol Davlat milliy tabiat bog‘i to‘g‘risidagi Nizom², «O‘zbekiston Respublikasi hududida chegara zonasi belgilangan tumanlar, shaharlar, qishloqlar va ovullarning qo‘shimcha ro‘yxatini e‘lon qilish to‘g‘risida»gi buyruq³ va boshqalar.

NOTA BENE !

Qonunni e‘lon qilish – bu qonunni muayyan bir nashr vositasida e‘lon qilish orqali uni ommaga yetkazishdir.

¹ Қаранг Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судида // Ҳалқ сўзи. – 2001 йил 17 октябрь, 207-сон (2767). Бундан ташқари, бу қоида Ўзбекистон Республикаси Конституциявий сувининг 2001 й. 9 августдаги “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Қонуни 16-моддасининг иккинчи қисмини шарҳлаш тўғрисида”ги тўхтамида ҳам ўз аксини топган.

² Қаранг: Угом-Чотқол Давлат миллий табиат боғи тўғрисидаги Низом (Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 19 июнь кундаги 530-сонли Қарорига 1-илова) // “Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами”, 2017 йил 31 июль., 30-сон, 734-б.

³ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2001 йил 10 октябрда 1072-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган.

O‘zbekiston Respublikasi «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonunining 24-moddasi 1-qismida ko‘rsatilganidek, «hammaning e‘tibori uchun rasman e‘lon qilinmagan qonun asosida hech kim ... jazoga tortilishi ... mumkin emas». Ayni bir paytda faqatgina rasmiy e‘lon qilingan nashr muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qonunchilik jarayonida mustaqil bosqichni tashkil etadi va u normativ-huquqiy hujjatning rasmiy matni asosida uning dublikatini yaratish hamda uning kuchga kirishini yoki vaqt bo‘yicha amal qilishini aniqlash imkoniyatini beradi. Rasmiy e‘lon qilish huquq-tartibot organlari nomidan qonunchilikda nazarda tutilgan manbada mazkur masalaga oid to‘liq va aniq me‘yoriy aktlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni tartibga solishdan iborat.

Ko‘rsatilgan Qonunning 25-moddasiga muvofiq, O‘zbekistonda normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy manbalari quyidagilardir:

– «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi», «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», «Xalq so‘zi» va «Народное слово» gazetalari O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari e‘lon qilinadigan rasmiy manbalardir;

– «O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami», «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», «Xalq so‘zi» va «Народное слово» gazetalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari e‘lon qilinadigan rasmiy manbalardir;

– «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning rasmiy nashrlari O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari e‘lon qilinadigan rasmiy manbalardir;

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari mazkur organlarning rasmiy nashrlarida e‘lon qilinadi.

Normativ-huquqiy hujjat mazmunini ommaviy tarzda tarqatish uchun chop etishga doir talablarning maxfiy ma‘lumotlarga aloqasi yo‘q. Bunday hollarda tergov va sud organlari normativ-huquqiy hujjatning rasmiy

matnida maxfiy ma'lumot mavjudligi va bu ma'lumotlar jinoyat sodir etgan shaxsga ma'lum bo'lganligini aniqlashi lozim.

Qonun ijrosining majburiyligini belgilaydigan muhim holat bo'lib, normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishi yoki uning amal qilishi tugatilishi vaqtini aniqlash hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirishini aniqlash qonun va normativ hujjatlarning qo'llanilishida muhim element hisoblanadi, chunki ayni o'sha paytga qadar u majburiy hisoblanmaydi, ya'ni qonun kuchga kiringunga qadar eskisi amalda bo'ladi, kuchga kirmagan qonunning harakat qilishi amaldagi normalarni buzish hisoblanadi.

NOTA BENE !

Qonunning kuchga kirishi deganda, shu paytdan boshlab normativ-huquqiy hujjatlarning qoidalari, ularning hududda kuchga kirishi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, mansabdor shaxslar, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, shuningdek, davlat hokimiyati organlari tomonidan ijro etilishi, rioya etilishi, amal qilishlari tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirish tartibi ularning qaysi turga mansubligiga qarab joriy qilingan:

– O'zbekiston Respublikasining qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, agar hujjatlarning o'zida boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, rasman e'lon qilinganidan so'ng o'n kundan keyin kuchga kiradi¹. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi qabul qilingandan (1994 yil 22 sentyabr) keyin 1995 yil 1 apreldan kuchga kirgan, O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy

¹ Айни бир пайтда, шуни алоҳида таъкидлаш керакки, қонуннинг кучга кириш муддати ва кучга кириш тартиби фақат қонуннинг ўзидагина эмас, балки махсус актларда ҳам кўрсатилган. Шунга ўхшаш ҳолатлар Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунларини таҳлил қилганда учраб туради. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодекси ва бошқа бир неча актлар мана шу тарзда кучга кирган.

javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni (29 avgust 2001 yil) e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kirgan¹. Biroq, shuni nazarda tutish kerakki, odatda, qonunning kuchga kirish muddati kech muddatlarda ko'rsatiladi, chunki bu qonunlar mazmuni bilan aholining tanishuvi, shuningdek, huquq-tartibot organlari tomonidan ularning fikrlarini aniqlash muhim ekanligi nazarda tutiladi;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda kuchga kiradi;

– vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, agar hujjatning o'zida kechroq muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan so'ng o'n kundan keyin kuchga kiradi.

Agar qonun hujjati bir necha manbalarda e'lon qilingan bo'lsa, uning kuchga kirish muddatini hisoblab chiqish uchun dastlabki rasmiy e'lon qilingan muddatdan foydalaniladi.

Shuni nazarda tutish lozimki, normativ-huquqiy hujjatlarning kuchga kirish vaqti uning rasmiy chop etilgan muddati bilan qat'iy bog'liq bo'lmasa-da, bunday nashrsiz ularning amaldaligi tan olinishi mumkin degan xulosa chiqarish uchun asos bo'lmaydi. Normativ-huquqiy hujjatlarning nashr etilishi va ularning kuchga kirishi O'zbekiston Respublikasida amal qilishining ikkita asosiy talabidir. Agar normativ-huquqiy hujjat chop etilmagan bo'lsa, ma'lum vaqt ichida uning haqiqatan qo'llanilgan bo'lishiga qaramay, bu hujjat amalda bo'lgan deb tan olinmaydi.

Sud va tergov organlari tomonidan rasmiy nashr to'g'risidagi masalani hal qilishda normativ-huquqiy hujjat kuchga kirishidan oldin yoki keyin rasmiy manbalarda chop etilganligi ahamiyatga ega emas. Ayni paytda, agar haqiqatan ham hujjat kuchga kirgandan keyin chop etilgan bo'lsa, dastlabki rasmiy manbaning vaqti muhim ahamiyatga ega, shunga o'xshash boshqa aktlarning ham haqiqiyliги uning rasmiy nashri bilan

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-хуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги 2012 йил 24 декабрдаги Қонуни (янги таҳрири), 35-модда. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 52-сон, 583-модда.

bog‘liq bo‘lib, uning nashr qilingan vaqtdan boshlab amalda ekanligini aniqlash zarur.

NOTA BENE !

Qonun amal qilishining tugatilishi qonunning ushbu vaqtdan boshlab qo‘llanilishi mumkin emasligini nazarda tutadi.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonunning 30-moddasiga muvofiq normativ-huquqiy hujjat faqat belgilangan hollardagina o‘z kuchini yo‘qotishi mumkin:

– normativ-huquqiy hujjat (uning qismi) mo‘ljallangan muddat tugaganda yoki hodisa boshlanganda;

– normativ-huquqiy hujjat (uning qismi) qonunda belgilangan tartibda konstitutsiyaviy emas deb topilganda;

– normativ-huquqiy hujjat (uning qismi) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilganda;

– normativ-huquqiy hujjat qonunda nazarda tutilgan hollarda bekor qilinganda.

Normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash muddati o‘tganligi yoki biror hodisa sababli uning ta‘sirini bekor qilish – uning muddati o‘tganligi yoki biror voqelik munosabati bilan shu vaqtdan boshlab haqiqiy emasligini bildiradi. Muddatini aniqlash uchun biror-bir o‘zgarishning sodir bo‘lishi (masalan, taqvim bo‘yicha hammaga ma‘lum bo‘lgan davriy voqealar) qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ayni bir paytda, ayrim hollardagina qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin, masalan, harbiy holatning tugashi, tabiiy ofatlar sodir bo‘lganda va hokazo. Bunday holatlarda sud va tergov organlari nufuzli davlat organlarining shunga o‘xshash normativ-huquqiy hujjatlarini ko‘rsatilgan muddatdan boshlab to‘xtatish haqidagi maxsus ko‘rsatmalarini talab qilishlari kerak.

Normativ-huquqiy hujjatni konstitutsiyaviy emas, deb topish uning amalda bo‘lishini tugatishning alohida asosi bo‘lib, maxsus tartib bilan tavsiflanadi va mohiyatan qoidadan istisno hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviy emasligini hal etish faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan qonunda ko‘rsatilgan

shaxslar arizasiga asosan qo‘llaniladi¹. Bunda normativ hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligi yoki nomuvofiqligi to‘g‘risidagi xulosasi sud qarori shaklida qabul qilinadi.

Masalani ko‘rib chiqish vaqtida qonun chiqaruvchi yoki qonun ostidagi akt Konstitutsiyaviy sud qarorining nashr qilingan vaqti ko‘rsatilgan holda konstitutsiyaviy emas deb tan olinadi, chunki aynan shu vaqtdan boshlab, sud qarori kuchga kiradi va shunga muvofiq ravishda, qonun chiqaruvchi akt (uning qismlari) konstitutsiyaviy yoki nokonstitutsiyaviy deb tan olinadi. Shu bilan birga, normativ hujjatlarning konstitutsiyaviy emasligini tan olish boshqa usullar bilan uning ta‘sirini to‘xtatishdan shu bilan farq qiladiki, hujjat Konstitutsiyaviy sud qarori chiqarilgan vaqtdan emas, balki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, qabul qilingan kundan boshlab konstitutsiyaviy emas deb topiladi. Bu shuni bildiradiki, normativ-huquqiy hujjat qaror chiqquncha va qaror chiqqandan keyingi holatlarda qo‘llashga loyiq emasligini ko‘rsatadi. Chunki, sud va tergov organlarining barcha dastlabki yechimlari qonunchilik asosida so‘zsiz qayta ko‘rib chiqilishi zarur. Normativ-huquqiy hujjatning yaroqsizligi shuni ham bildiradiki, **JK 13-moddasi 2- va 3-qismlarida** nazarda tutilgan qonunning orqaga qaytish kuchi haqidagi qoida sudlanayotgan, ayblanayotgan, gumon qilinayotgan shaxsga qulay vaziyat yaratgandagi hollarda ham qo‘llanilmaydi.

Shuni nazarda tutish kerakki, Konstitutsiyaviy sud qarori e‘lon qilinadigan rasmiy manba belgilab qo‘yilmagan, Konstitutsiyaviy sud qarori u O‘zbekiston Respublikasi hududidagi ommaviy axborot vositalari orqali dastlabki e‘lon qilingan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi.

NOTA BENE !

Qonun o‘z kuchini yo‘qotishi – bu uning amalda bo‘lishini to‘xtatishning ikki shart mavjudligi bilan tavsiflanadigan usuli: (formal-yuridik emas) ilgari qonun hujjatini amalda bekor qilish va bir vaqtning o‘zida o‘xshash ijtimoiy munosabatlarini tartibga soladigan yangi akti qabul qilish.

¹ Қаранг.: «Ўзбекистон Республикаси Конституциявий суди тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 май кунидаги ЗРУ-431-сонли Қонуни, 19-б.

Ilgari qabul qilingan barcha hujjatlar yoki ularning qismlari, agar ular yangi normativ ko'rsatmalarga zid bo'lsa yoxud yangi hujjat bilan to'raligicha qamrab olingan yoki amalda o'z ahamiyatini yo'qotgan, lekin rasman o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilmagan hollarda¹ (masalan, qonun hujjati tartibga solishi lozim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning yo'qolishi) hujjat o'z kuchini yo'qotadi.

Qonun hujjatini bekor qilish uning kuchini yo'qotishdan shunisi bilan farq qiladiki, keyingi shunga o'xshash munosabatlarni boshqaradigan ikkinchi hujjatni qabul qilishdan iborat. Bunday hollarda normativ-huquqiy hujjat so'zsiz maxsus farmoyish bilan nufuzli davlat organlari tomonidan (yuridik rasman bekor qilish deb ataladi) normativ-huquqiy hujjat shaklida bekor qilinadi.

Normativ-huquqiy hujjatning bekor qilinishi yoki kuchini yo'qotish vaqti yangi normativ ko'rsatmalarning yoki vakolatli davlat organlarining maxsus farmoyishi kuchga kirgan vaqtdan boshlab tan olinadi.

Jinoyat sodir etilgan vaqtni aniqlash qonunning vaqt bo'yicha amal qilishining zaruriy belgisi hisoblanib, uni aniqlash qoidalari **JK 13-moddasi 1-qismida** ko'rsatilgan. Mazkur norma qoidalariga muvofiq, **jinoiyat sodir etish vaqti** jinoiyat tarkibi turiga qarab aniqlanadi:

– **moddiy tarkibli jinoiyatlarda** jinoiyat sodir etish vaqti ijtimoiy xavfli oqibat yuzaga kelgan vaqt hisoblanadi (masalan, o'lim kelib chiqishi);

– **formal tarkibli jinoiyatlarda** jinoiyat sodir etish vaqti kelib chiqadigan oqibatdan qat'i nazar qilmish sodir etilgan vaqt bilan belgilanadi (jumladan, qalbaki pul tayyorlash).

Shu taxlitda, jinoiyat sodir etish vaqti qilmishning obyektiv mezonidan kelib chiqib, xususan, jinoiy javobgarlikka tortish asoslari, ya'ni JK 16-moddasida ta'kidlanganidek, jinoiyat tarkibi mavjudligidan kelib chiqib aniqlanadi. Qonunning vaqt bo'yicha amal qilishini aniqlash uchun jinoiyat sodir etishning butun jarayoni (boshidan oxirigacha) emas, balki faqatgina jinoiyatning tugagan vaqti, ya'ni qonun bo'yicha jinoiy deb hisoblangan barcha xatti-harakatlar yakunlanganligi ahamiyatga ega.

¹ Қаранг.: Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 24 декабрдаги «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги 342-сонли Қонуни. (янги таҳрирдаги)» // "Ўзбекистон Республикасининг Қонун ҳужжатлари тўплами", 2012 й., 52-сон, 36-б

Jinoyat sodir etilgan vaqtni aniqlashda tergov va sud organlari asosiy diqqat-e'tiborni uzoqqa cho'zilgan va davomli jinoyatlarni, ikkita harakatdan iborat bo'lgan jinoyatlarni, takroran sodir etilgan jinoyatlarni, shuningdek, ishtirokchilikdagi jinoyatlarni tergov qilishga qaratishlari kerak.

Sodir etilgan jinoyatlar vaqti, odatda, **JK 13-moddasi 1-qismi** asosida aniqlanib, unga muvofiq, qilmish jinoyat tarkibining barcha belgilariga ega bo'lgan payt jinoyat tamom bo'lgan vaqt deb hisoblanadi. Bundan kelib chiqib, jinoyatni sodir etish vaqti Jinoyat kodeksining Maxsus qismidagi jinoyat tarkibi tuzilishiga bog'liq, jumladan, davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish uni tashkil qiluvchi oxirgi qilmish sodir etilganda amalda bo'lgan qonunga asoslanishi kerak.

NOTA BENE !

Davomli jinoyatlar – bu yagona qasd bilan qamrab olingan va umumiy maqsadga qaratilgan bir qancha o'xshash harakatlarni sodir etish bilan tavsiflanadigan huquqqa xilof ijtimoiy xavfli qilmishlardir.

Bunday qarorning to'g'riligi yuqori turuvchi sud instansiyasining «... jinoyat qonuniga ... jazoni kuchaytiradigan yoki shaxsning holatini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan o'zgartirishlar kiritilganda, agar jinoyat epizodlaridan hech bo'lmaganda bittasi qonun yangi tahrirda amal qila boshlagan davrda sodir etilgan bo'lsa, davomli jinoyatning barcha epizodlari yangi qonun bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak»¹ degan fikrida ham o'z isbotini topadi.

NOTA BENE !

Ikki harakatli jinoyat – o'xshash jinoyatlar tarkibi qonunda shunday ko'rsatiladiki, bunda faqat ikki harakatni amalga oshirgan shaxs jinoyatchi deb hisoblanadi. o'xshash qilmish sodir etish vaqti deb esa, oxirgi harakatlar yakunlangandan keyin jinoyat tarkibini aniqlangandagi vaqt tan olinadi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2008 йил 15 майдаги «Бир неча жиноят содир этилганда қилмишни квалификация қилишга доир масалалар тўғрисида»ги 13-сон қарори, 4-бандининг 2-қисми // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси, 2008 й., 3-сон. 13-б.

Berilgan muayyan jinoyat tarkibini aniqlash uchun muhim bo'lgan oxirgi harakatni sodir etish payti ikki harakatli jinoyat sodir etish vaqti deb topilishi kerak.

NOTA BENE !

Uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar jinoyat-huquqiy tahdidni ifodalaydigan majburiyatlarni uzoq vaqt mobaynida bajarmaslikdan iborat bo'lgan harakat yoki harakatsizlikda namoyon bo'ladi.

Birinchi harakat (harakatsizlik) sodir etilgan payt uzoqqa cho'zilgan jinoyat sodir etilgan vaqt deb topiladi.

Ayni paytda, uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar sodir etilgan vaqtini aniqlashda uning ayrim o'ziga xos tomonlariga e'tibor beriladi: agar uning ijtimoiy xavfliligi uzoq davom etuvchi jinoyatlarda, masalan, harbiy xizmat yoki qismni tashlab ketish (JK 287-moddasi) yoki keltirilgan zararining umumiy miqdori, masalan, soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash hollari. Ko'pincha, agar keltirilgan zarar muddati yoki summasi ko'paysa, jinoyat sodir etish vaqti yangi muddatning o'tishi yoki yangi qonun endigina kuchga kirgandan so'ng hali ilgari yetkazilgan katta zarar muddati tugamay turib yana yangidan katta zarar yetkazish bilan o'tgan vaqtdan tan olinadi. Agar muddat yangi qonun bilan qisqartirilsa, jinoyatni tan olish uchun eski muddatning o'tishi yoki ilgari keltirilgan zarar miqdori yangi muddatni yoki to'liq o'tashi kerak yoxud yetkazilgan yangi zarar miqdori yangi qonun kuchga kirgandan boshlab hisobga olinadi.

Takroriylikni tashkil qiluvchi oxirgi yoki og'irlashtiruvchi belgi hisoblangan qilmish sodir etilishi **takroran jinoyat sodir etish**, shuningdek, **og'irlashtiruvchi tarkibli jinoyatlar** sodir bo'lgan vaqt deb topiladi.

Agar ijtimoiy xavfli qilmish **ishtirokchilikda** sodir etilgan bo'lsa, u holda har bir ishtirokchining bu qilmishga qo'shilgan vaqti hisobga olinadi. Bunday hollarda jinoyatni sodir etish faqatgina shu guruhning sodir etgan jinoyatiningina emas, balki bu guruhdagi har bir ishtirokchining

amalga oshirgan xatti-harakatlardagi ishtiroklaridan boshlab hisoblanadi. Shuning uchun, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar vaqtini aniqlashda bajaruvchidan tashqari, tashkilotchi, dalolatchi, yordamchilarning ham har bir harakati nazardan chetda qolmaydi.

Shunday qilib, agar ishtirokchilikda yangi qonun kuchga kiringunga qadar jinoyat sodir etilsa, aybdor ilgari jinoyat qonunchiligi bilan ayblanadi. Bunda jinoiy tarkib ishni haqiqatan ham butunlay amalga oshirganligi yoki yangi qonun kuchga kiringandan keyin amalga oshirganligi muhim ahamiyatga ega. Masalan, aybdor yangi qonun kuchga kiringunga qadar o'g'rilik qilish uchun guruh tashkil qilgan, haqiqiy o'g'rilik esa qonun kuchga kiringandan so'ng bajarilgan. Bunda, jinoyat sodir etish paytini **JK 13-moddasi 1-qismida** ko'rsatilgan qoidaga muvofiq aniqlanib, tashkilotchi eski qonun bo'yicha javobgar bo'lib, bajaruvchilar esa yangi qonun bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Bu masalaning ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatning barcha ishtirokchilar uchun tamom bo'lish vaqti bajaruvchi tomonidan jinoyatni sodir etish vaqtining hisoblanishiga asoslangan boshqacha yechimi odillik prinsipiga mos kelmaydi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki **suiqasd qilish** shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan tamom bo'lmagan jinoiy faoliyatni keltirib chiqaradi. Shu sababli qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilish deb kvalifikatsiya qilinadi va jinoiy faoliyat to'xtatilgan vaqtda amalda bo'lgan qonun qo'llaniladi.

Jinoyat kodeksi amal qilish doirasining ketma-ket va tizimli tarzda chegaralanishi **qonunning orqaga qaytish kuchi** shartlarini aniqlashda ham o'z ifodasini topadi. Qonunning teskari kuchi sharti shundan iboratki, bunda vaqt bo'yicha jinoyat qonunlarini umumiy qoidalardan chiqarib tashlash va jinoyat qonunlarini u kuchga kiringunga qadar barcha qilmishlarga teng taqsimlashdan iborat. Qonunning orqaga qaytish kuchi haqidagi talab umumiy holda 1966 yil 16 dekabrda fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 15-moddasida shakllantirilgan bo'lib, hamma tan olgan xalqaro huquq me'yorlaridan biri hisoblanadi.

Adolat va insonparvarlik prinsiplariga asoslangan vatanimiz jinoyat qonunchiligining qonunning orqaga qaytish kuchi haqidagi holatlari **JK 13-moddasining 2- va 3-qismlarida** mustahkamlangan bo'lib, ularga muvofiq qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega, ya'ni ushbu qonun kuchga kirgunga qadar tegishli jinoiy qilmish sodir etgan shaxslarga, shu jumladan jazoni o'tayotgan yoki o'tab bo'lgan shaxslarga nisbatan, agar ular hali sudlangan hisoblansalar tatbiq etiladi.

Qilmishni jinoyat deb hisoblaydigan, jazoni kuchaytiradigan yoki shaxsning holatini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas.

Shuni nazarda tutish kerakki, qonunga aks ta'sir tushunchasini berish nuqtai nazaridan qaraganda, qonun tushunchasi normativ-huquqiy hujjatlardan farq qiladi, ya'ni qonun tushunchasi **JK 13-moddasi 1-qismida** berilgan. Qonunning aks ta'sir kuchi vaziyatida qonun huquqiy me'yorlar mustahkamlanadigan shakl emas, balki me'yoriy-huquqiy aktlar mazmunidan iborat. Boshqacha qilib aytganda, bunday holatlarda qonunni jinoyat-huquqiy normalarining o'zi deb e'tirof etiladi va bu normativ-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan va mustahkamlangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi 2001 yil 29 avgustdagi «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonunining 1, 2-bandlari, O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 mart kunidagi **“Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”**gi 421-sonli Qonuni va boshqa qoidalari qonun deb e'tirof etilishi lozim, biroq ushbu normativ-huquqiy hujjat o'zi huquqiy me'yorlar tizimi sifatida qonun tomonidan orqaga qaytish kuchi nuqtai nazaridan e'tirof etilmasligi kerak.

«Qonun» tushunchasiga bunday yondashish normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy normalar yig‘indisidan iborat ekanligidan, ayrimlari esa, ilgari amal qilgan normalarga qaraganda talabchanligidan kelib chiqadi¹. Shunga muvofiq, qonunning aks ta’sir kuchi o‘z ichiga jiddiyroq holatlarni olib, insonparvarlik va adolat prinsiplariga qarama-qarshi borib aybdor ahvolining butunlay yomonlashuviga sabab bo‘lishi mumkin.

Yangi qonunni qo‘llash sudlanuvchi uchun qulay bo‘lishi lozim. Aynan shunda qonunning aks ta’sir kuchi o‘z ifodasini topadi. Shuni nazarda tutish kerakki, huquqiy normalarga teskari kuch berish ular Jinoyat kodeksining Umumiy va Maxsus qismlariga kirish-kirmasligiga bog‘liq emas.

Kodeksning Umumiy qismi normalarining qo‘llanilishi jinoyat qonuni qo‘llanilishining umumiy qoidalariga bo‘ysunadi. Shu sababli har bir holatda norma jinoyat sodir etgan shaxsning umumiy holatini yumshatishni ta’minlashdan kelib chiqadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 21 avgustdagi Qonuni bilan JKga kiritilgan o‘zgartishlarga muvofiq, jinoyatlar klassifikatsiyasi o‘zgartirilgan, jumladan, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar doirasi kengaytirilgan². Shunga ko‘ra bu norma orqaga qaytish kuchiga ega, chunki u ilgari mavjud bo‘lgan normalarga qaraganda ancha yengil.

NOTA BENE !

Qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan **qonun orqaga qaytish kuchiga ega.**

Qilmishning jinoiyligini bekor qilish deganda, uni dekriminalizatsiyalash, ya’ni jinoiy jazolanuvchi qilmishlarni ma’muriy,

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги «Жиноий жазоларнинг либераллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг Жиноят, Жиноят-процессуал кодекслари ҳамда Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш хақида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш тартиби тўғрисида»ги 254–II-сон Қонуни, 6, 23-бандлари // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 й., 9–10-сон, 165-модда.

² Ўша жойда.

intizomiy yoki boshqa huquqbuzarlik turlariga o'tkazish tushuniladi. Masalan, dekriminalizatsiya, Jinoyat kodeksining 187-moddasini Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlash, ya'ni xaridor yoki buyurtmachilarni aldash uchun javobgarlikdagi kabi.

Ilgari amalda bo'lgan jinoyat-huquqiy normada jinoyat tarkibi belgisi sifatida nazarda tutilmagan yangi belgining nazarda tutilishi qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan holat sifatida ko'riladi. Bunday yangi belgilarning qo'shilishi, jinoiy javobgarlikning torayishini anglatadi, chunki mazkur belgining bo'lmasligi eski qonun amalda bo'lgan vaqtda sodir etilgan qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligini bekor qiladi. Bunday dekriminalizatsiya, ko'pincha, aybdor ma'muriy javobgarlikka tortilgandan keyin qaytadan jinoiy qilmish sodir etish hollarida mavjud bo'lishi mumkin.

Aynan o'xshash qilmishlari uchun aybdorga yengilroq jazo tayinlash imkonini beradigan normalar **jazoni yengillashtiruvchi qonunlarga** kiradi.

Ularga quyidagi normalarni kiritish mumkin:

- ilgari jazo turini yengilroq jazoga almashtirish;
- sanksiyadan bir yoki bir necha asosiy yoki qo'shimcha jazolarni chiqarib tashlash;
- asosiy yoki qo'shimcha jazoning eng ko'p yoki eng kam miqdorini pasaytirish;
- asosiy jazoni o'zgartirmasdan zaruriy qo'shimcha jazoga fakultativlik xususiyatini berish;
- modda sanksiyasiga yengilroq muqobil jazo kiritish;
- moddiy zarar qoplangan hollarda mahkumga ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolari qo'llamaslik, ya'ni uni jamiyatdan ajratmasdan jazo tayinlashni nazarda tutadi.

Jinoiy xatti-harakatlarni amalga oshirish faqat jazolashnigina emas, balki boshqa huquqiy oqibat, asoratlarni ham o'z ichiga oladi va bu bilan bog'liq bo'lgan Kodeks yordamida aniqlanadigan orqaga qaytish kuchi ham shunday qoidalarga ega bo'ladiki, jinoyat sodir etgan shaxsning huquqiy ahvolini biror-bir tarzda yaxshilashi mumkin bo'ladi. Jinoyat sodir etgan shaxs huquqiy ahvolidan yaxshilanishi uning darajasi

(maqomi)ga turli tomonlardan daxldordir, xususan, uning ahvoli yaxshilanishini jinoyatlar klassifikatsiyasining o'zgarishi deb e'tirof etish, jazoni o'tashning aniq muddatlarini kamaytirish, shaxsga yengilroq jazo qo'llab, uni muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishgacha yetib boradi. Aybdorning huquqiy ahvolini yaxshilashda me'yori sifatida Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida ko'rsatilgan jabrlanuvchi va boshqa tomonlarning yarashuvi bilan javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatini berish ko'zda tutiladi.

Shaxsning huquqiy ahvolini yaxshilashda normaning barcha variantlarini ko'rib chiqishning imkoni yo'q, chunki bu Kodeksda barcha umumiy qoidalarda bayon etilgan. Huquqni qo'llovchi organlar har bir aniq holatlarda jinoyat sodir etgan shaxsning huquqiy ahvoli qonun normalari tufayli yaxshilanyaptimi yoki yo'qmi kuzatib boradi.

Jinoyat qonuni jinoyat sodir etgan shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yomonlashtirsa yoki jinoiy xatti-harakatlarini aniqlab jazoni kuchaytirsa, mazkur qonun orqaga qaytish kuchiga ega bo'lmaydi. Shunday qilib, agar qonun o'z xarakteriga ko'ra, yuqorida ko'rsatilgan holatlarga zid bo'lsa, uni kuchga kirgunga qadar amaliyotda qo'llash mumkin emas.

Huquqni qo'llash amaliyotida muayyan bir qiyinchiliklar sodir bo'lishi ham mumkin, bunda qonun normasi jazoning eng ko'p miqdorini pasaytirsa va shu bilan birga, uning eng kamini oshirsa, bunga ba'zan yangi qonunda jinoyatning yangi maxsus tarkibining ishlab chiqilgani sabab bo'ladi. Bunday paytda yuqorida eslatilgan jinoiy xatti-harakat holati javobgarlikning umumiy me'yori sifatida qabul qilinadi.

Agar yangi qonun ta'sirida jazoning eng ko'pi pasaysa va ayni bir paytda uning kamining ko'tarilish holati sodir bo'lsa, huquqni qo'llovchi organlar ishni oydinlashtiruvchi aniq belgi-xususiyatlarni hisobga olib, sanksiyaga qiyosan olgan holda, shunday qonunni tanlab olmoqlari zarurki, unda aybdorga nisbatan imkon qadar yengil jazo belgilangan bo'lsin. Xususan, agar aybdorga qattiq jazo tayinlangan bo'lsa, u holda yangi qonunni qo'llash zarur. Biroq, huquqni qo'llovchi organlar muayyan holatdan kelib chiqib jazoni yengillashtirish zarur degan xulosaga kelsa, unda ilgarigi qonun bo'yicha ish tutishga to'g'ri keladi.

Bunday vaziyat shu bilan izohlanadiki, bir tomondan, sud hech qanday holatda qonunda ko‘rsatilganidan qattiqroq jazo tayin etolmaydi, ayni bir paytda qonunda belgilangan eng yengil jazoni tayinlash yoki boshqa yengilroq jazo bilan almashtirish sud tomonidan Jinoyat kodeksining 57-moddasiga muvofiq, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi quyidagi holatlarda amalga oshiriladi: ma’naviy zararining yo‘q bo‘lganligi yoki moddiy zararining to‘liq qoplanganligi, sudlanuvchi yoki ota-onasining og‘ir kasalligi, ularning mehnatga layoqatsizligi, aybdor ota-onasining yoki bolasining boshqa boquvchisi yo‘qligi, sudlanuvchining keksa yoshda ekanligi, jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishiga turtki bergan huquqqa xilof xulq-atvori va h.k.¹.

Agar qabul qilingan qonun jinoyatning yangi, maxsus tarkibini shakllantirgan bo‘lib, dastlabki o‘xshash jinoiy xatti-harakatlar ko‘proq umumiy normalar ta’siri ostida qolib, jinoiy javobgarlikni kuchaytirsam, bu holda sanksiya bilan umumiy va maxsus normalarni o‘zaro qiyoslash kerak. Agar xatti-harakatlarning umumiy normadan ajratib olingan jinoiy xatti-harakat uchun berilgan sanksiya yangi qonun sanksiyasidan yengilroq bo‘lsa, bunday qonun orqaga qaytish kuchiga ega bo‘lmaydi.

JK 13-moddasi 2-qismining qoidasiga muvofiq, qonunning orqaga qaytish kuchi jinoyat sodir etgan barcha shaxslarga nisbatan qo‘llanadi. Bu o‘rinda ularning sudlangan-sudlanmagani, ularga belgilangan jazo tayinlangani yoki tayinlanmaganining ahamiyati yo‘q. Biroq, shuni hisobga olish kerakki, yangi qonunga muvofiq sodir etilgan jinoiy harakat yengilroq jazolanib, aslida aybdorga yangi qonun bo‘yicha o‘rnatilgan jazo doirasidan tashqari chiqqan holda ish tutilgan bo‘lsa, u holda belgilangan jazoning yuqori chegarasi yangi qonunda ko‘zda tutilgan maksimumga qadar kamaytirilgan bo‘lishi zarur².

Shuni ham yodda tutish lozimki, qonunning orqaga qaytish kuchi faqat jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Плулумининг 2006 йил 3 февралдаги “Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида”ги 1-сонли қарори // Тўплам. 2-жилд – 235-236-б.

² Қаранг: масалан: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 2001 йил 29 августдаги “Жиноий жазоларнинг либераллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Жиноят, Жиноят-процессуал кодекслари ҳамда Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида” ги Ўзбекистон Республикаси қонунини амалга киритиш тартиби тўғрисидаги 255-II-сон қарори, 4-банд.

Shunga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxslarga, aytaylik, «qonunlar oralig‘i» deb atash mumkin bo‘lgan haddan ortiq yumshoq qonun qo‘llanilmaydi. Ayni vaqtda shuni ta’kidlash kerakki, qonunning orqaga qaytish kuchi jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan, ya’ni sud va tergov ishlariga jalb qilingan yoki tayinlangan jazoni o‘tayotgan shaxslarga nisbatan amal qiladi. Shu sababli jinoyat sodir qilgandan keyin qabul qilingan, lekin jinoiy javobgarlikka tortgunga qadar o‘z kuchini yo‘qotgan qonun bunday jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

5-§. Jinoyat qonunini sharhlash

Jinoyat qonunini amaliyotga tatbiq etishda uni maxsus sharhlashga bo‘lgan ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Sharhlash jinoyat tarkiblarining baholovchi belgilarini, bir qator atamalarni, JKning Umumiy va Maxsus qism normalarining ma’nosini tushunish uchun kerak. Sharhlashga faqatgina istisno holatlarida, ya’ni elementar huquqiy amaliyotdagina ehtiyoj yo‘q.

NOTA BENE !

Jinoyat qonunini sharhlash – JK moddalarini, moddalarining qismlarini ulardagi atama va tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochish orqali tegishli modda mazmunini tushunish yoki tushuntirishdan iborat bo‘lgan fikrlash jarayonidir.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat huquqida jinoyatni analogiya asosida aniqlashga va jazolashga yo‘l qo‘yilmaydi.

NOTA BENE !

Analogiya deganda, jinoyat huquqida, jinoyat qonunida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmagan holatlarga, u yoki bu belgilariga ko‘ra o‘xshash qonunni qo‘llash tushuniladi.

Analogiya bo‘yicha qonunni qo‘llash qonuniylikni buzish, jinoyat sodir qilmagan shaxslarni asossiz repressiya qilishga olib kelgan bo‘lardi.

Milliy jinoyat qonunchiligida analogiyani qo‘lashdan voz kechish uning rivojlanishidagi muhim etaplardan biri hisoblanadi.

Fanda turli xil sharhlash usullari ajratilib ko‘rsatiladi. Majburiy yoki majburiy emasligiga ko‘ra sharhlash rasmiy va norasmiy sharhga bo‘linadi.

Rasmiy sharh autentik, legal va sud sharhiga bo‘linadi.

Qonunlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan sharhlashga **autentik sharhlash** deyiladi. Yuridik adabiyotlarda sharhlashning bu turi ko‘pincha legal sharhning bir turi sifatida ko‘riladi¹.

Legal sharhlash qonun tomonidan shunday vakolat berilgan organ – Konstitutsiyaviy sud tomonidan amalga oshiriladi. Konstitutsiyaning 109-moddasi 1-qismiga asosan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh berish hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, Hukumatning va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga mosligini aniqlash kabi vakolatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga taqdim etilgan².

¹ Қаранг.: Уголовное право. Общая часть: Учебник / А.С. Якубов, Р. Кабулов и др. – С. 120.

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисmlарига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган

Sud sharhi jinoyat ishini ko‘rib chiqishda turli instansiya sudlari tomonidan amalga oshiriladi. Sud sharhi ikkiga bo‘linadi : kazual va normativ.

Kazual sud sharhi – muayyan jinoyat ishini ko‘rib chiqish davomida yuzaga kelgan va faqat o‘sha ish uchun majburiy bo‘lgan sharh. Qonuniy kuchga kirgan sud hukmi ushbu hukm bilan bog‘liq bo‘lgan barcha fuqarolar, mansabdor shaxslar, korxonalar, muassasa va tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi. Ba‘zi hollarda sharhlashning bu turi sud precedenti xususiyatiga ega bo‘ladi. Advokatura, prokuratura va sud faoliyatini axborot bilan ta‘minlash uchun alohida jinoyat ishlari bo‘yicha yuqori instansiya sudlarining qarorlarini o‘z ichiga olgan Oliy sud axborotnomasi chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarida o‘z ifodasini topgan sharhlash **normativ sharh**dir. Oliy sud Plenumi sud amaliyotini o‘rganadi, sud statistikasini umumlashtiradi va jinoyat ishlarini ko‘rishda sudlarga tushuntirishlar beradi. Bu tushuntirishlar sudlar, mansabdor shaxslar va boshqa organlar uchun ishlarni ko‘rib chiqishda orientir vazifasini bajarishi kerak. Bu holatda shuni ta‘kidlash kerakki, Plenum qarorlari Jinoyat huquqining manbasi bo‘lib hisoblanmaydi. Plenum qarorlariga Jinoyat huquqining manbasi sifatida yondashish Konstitutsiyaning 112-moddasi 1-qismida ifodalangan «sudyalarning mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘ysunadilar» degan qoidaga va O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi Jinoyat kodeksidan iboratdir deb ifodalangan JK 1-moddasiga ziddir. Biroq o‘z navbatida, Oliy sud Plenumi tomonidan qabul qilingan hujjatlar Konstitutsiyaning 110-moddasi 2-qismiga ko‘ra qat‘iy va O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir. Oliy sud Plenumining rahbariy qarorlari tavsiya qiluvchi xarakterga ega va o‘rganilgan sud amaliyotidan kelib chiqib qonunni to‘g‘ri va aniq qo‘llashga imkon beradi.

Ba‘zida, yuridik adabiyotlarda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki advokatlarning tomonidan amalga oshiriladigan **professional sharh**

конуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгаришлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 62 б.

haqida aytilib, u ham sud tomonidan sharhlashning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Norasmiy sharh o‘z ichiga ilmiy-doktrinal va oddiy sharhni qamrab oladi.

Doktrinal (ilmiy) sharhlash jinoyat huquqi sohasidagi huquqshunos olimlar, mutaxassislar tomonidan beriladi. Majburiy ahamiyatga ega bo‘lmagan doktrinal sharhlash huquqni qo‘llash organlari xodimlariga ularning professional huquqiy ongini shakllantirgan holda JK normalarining mohiyatini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

Odatdagi sharhlash ham huquqiy ahamiyatga ega emas va oddiy fuqarolar tomonidan berilishi mumkin (masalan, jurnalistlar tomonidan ommaviy axborot vositalarida). Uning ahamiyati shundaki, bu sharhlash umumiy prevensiya masalalarini yechishda fuqarolarning huquqiy ongini oshirishda ta’sir kuchiga ega.

Hajmiga ko‘ra, sharhlashning uchta turini ko‘rsatishadi: so‘zma-so‘z, cheklangan va kengaytirilgan sharh.

So‘zma-so‘z sharhlashda berilgan sharh jinoyat qonunining matniga, unda ishlatilgan atamalarga va ifodalarga so‘zma-so‘z mos bo‘lishi kerak. Normaning mazmuni uning qonundagi verbal ifodasiga to‘liq mos bo‘lishi shart. Boshqacha aytganda, qonunning formal tomoni uning mazmunini belgilaydi.

Cheklangan sharhlashda berilgan sharh asosiy matn hajmiga nisbatan kichikroq bo‘ladi. Masalan, JK 124-moddasida tamagirlik yoki boshqa past niyatlarda qasddan bolani almashtirib qo‘yish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Ko‘rsatilgan moddaning tahriridan kelib chiqib, bola deganda, yangi tug‘ilgan chaqaloq nazarda tutilganmi yoki voyaga yetmagan bolami degan savolga javob berish kerak bo‘ladi¹. Bunda 124-moddaning umumiy mazmunidan kelib chiqib (bunda ota-

¹ Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенциянинг 1-моддасига мувофиқ, ҳар бир инсон ўн саккиз ёшга тўлгунига қадар бола ҳисобланади, агарда мазкур болага қўлланиладиган қонунга асосан у балоғатга олдинроқ етмаса (Қаранг: Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция (БМТ Бош Ассамблеясининг 1989 й. 20 ноябрдаги 44/25-Резолюцияси билан қабул қилинган ҳамда имзолаш, ратификация қилиш ва қўшилиш учун очилган, Ўзбекистон Республикаси учун 1994 й. 29 июлдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1992 й. 9 декабрдаги 757-ХП-сон қарорига асосан кучга кирган).

onalar bolani tanib olishlari qiyin bo'lganligi uchun) bu holatda yangi tug'ilgan chaqaloq nazarda tutilganligini ta'kidlash mumkin.

Kengaytirilgan sharhda sharh qonunning asosiy matnidan katta bo'ladi. Masalan, JK 180-moddasi soxta bankrotlik uchun javobgarlikni nazarda tutgan, ya'ni amaldagi obyektiv haqiqatga zid ravishda xo'jalik yurituvchi subyektning o'z kreditorlari oldida iqtisodiy jihatdan nochorligini e'lon qilish va ularga ko'p miqdorda zarar yetkazish. Bunda ko'p miqdordagi zarar tushunchasining mohiyatini ochib berishga to'g'ri keladi. Bundan kelib chiqqan holda 180-modda faqatgina eng kam oylik ish haqining 100 baravaridan 300 baravari miqdorda zarar yetkazilganda emas, balki 300 baravar va undan ko'p miqdorda zarar yetkazilganda qo'llanilishi mumkinligini aytishimiz mumkin.

Sharhlash usuliga ko'ra mantiqiy, grammatik, tarixiy va tizimli sharhlash ajratib ko'rsatiladi.

Mantiqiy sharhlashda qonun normasi mantiq qoidalari asosida sharhlanadi.

Shuni aytish lozimki, ba'zi olimlar mantiqiy sharhlashni mustaqil sharhlash deb hisoblashmaydi va barcha sharhlash turlari mantiq qoidalari asosida amalga oshirilishini ta'kidlashadi¹.

Grammatik sharhlash grammatika, morfologiya, sintaksis qoidalariga muvofiq qonunning mazmunini aniqlashga yordam beradi.

Tarixiy sharhlash yordamida hozirda amal qilib turgan JK normalarini ilgari mavjud bo'lgan jinoyat-huquqiy normalarga solishtirgan holda ularning mohiyati ochib beriladi.

Tizimli sharhlash turli xil normalarni va ularning qismlarini o'zaro va boshqa jinoyat-huquqiy normalar hamda institutlar bilan solishtirish va muayyan bir normaning jinoyat qonunchiligida tutgan o'rnini aniqlashga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, qonunni sharhlash doimo uni amalga oshirishning usul va yo'llari majmuasi bilan birgalikda olib boriladi. Masalan, sud tomonidan sharhlash sharhlashning grammatik, kengaytirilgan va tizimli turlari bilan birga moslashtirilgan holda amalga oshiriladi.

**«Jinoyat qonuni»
mavzusi yuzasidan yakuniy savollar**

1. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi manbasi nima? Sud pretsidenti nima?
2. Xalqaro huquq normalari O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi normalaridan ustuvormi?
3. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining konstitutsiyaviy asoslarini tavsiflab bering.
4. Jinoyat qonunining yuridik asosi nimada?
5. Jinoyat qonunining tuzilishi qanday? JK Umumiy va Maxsus qismi moddalari turlari va strukturasi tavsiflab bering.
6. Sanksiyaning qanday turlari JKda qo‘llanilmaydi?
7. Jinoyat qonuni amal qilishining hududiylik prinsipi mazmunini yoritib bering. O‘zbekiston hududi deganda nimani tushunasiz?
8. JK amal qilishining eksterritoriallik prinsipi nimani tashkil qiladi?
9. Fuqaroviylik prinsipi mazmunini yoritib bering.
10. Jinoyat qonuni amal qilishining universal prinsipini yoritib bering.
11. Ekstraditsiya deganda nima tushuniladi?
12. Jinoyat qonunining vaqt bo‘yicha amal qilishi deganda nima tushuniladi? Moddiy tarkibli, formal tarkibli va keskin tarkibli jinoyatlarni ta’riflab bering.
13. Qaysi jinoyatlarga taalluqli ravishda ularni sodir etish vaqtini tushunish bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi?
14. «Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi» tushunchasini yoritib bering. Qonunning orqaga qaytish kuchining ma’nosi nimadan iborat?
15. Jinoyat qonunini sharhlash deganda nimani tushunish lozim?
16. Jinoyat qonunini rasmiy sharhlash qanday turlarini o‘z ichiga qamrab oladi? Sharhlashning qanday turlari norasmiy hisoblanadi?
17. Jinoyat huquqida analogiya nima?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Абзалова Х.М., Неъматов З.К., Раджабова М.З. Компаративный анализ уголовного законодательства Германии, Франции, Испании, Польши и Латвии. Монография. // Отв.ред.: ю.ф.д., проф. Р.А.Зуфаров –Т. ТГЮУ, 2018 – 191 с.

Беляев В.Г. Применение уголовного закона. Волгоград, 1998. – 124 Б.

Бойцов А.И. Действие уголовного закона во времени и пространстве. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 1995. – 207 Б.

Закон: создание и толкование / Под ред. А.С. Пиголкина. – М.: 1998. – 283 Б.

Керимов Д.А. Законодательная техника: Научно-методическое пособие. – М.: 1998. – 127 Б.

Клеонова Т.В. Основы теории кодификации уголовно-правовых норм. – Самара: 2003. – 244 Б.

Коняхин В.П. Теоретические основы построения Общей части российского уголовного права. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 348 Б.

Салаев Н.С. Пенитенциар тизимнинг профилактик функцияси самарадорлигини ошириш. Монография. –Т.: ТДЮУ, 2017. – 310 б.

Сальников В.П., Степашин С.В., Хабибулина Н.И. Государственная идеология и язык закона: Монография. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 208 Б.

Соцуро Л.В. Неофициальное толкование норм права: Учебное пособие. – М.: 2000. – 112 Б.

Щепельков В.Ф. Уголовный закон: преодоление противоречий и неполноты. – М.: «Юрлитинформ», 2003. – 416 Б.

Якубов А.Е. Обратная сила уголовного закона. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 206 Б.

Ilmiy maqolalar

Абдуқодиров Ш.Ё., Мирзаев У.М. Жиноят қонунчилиги соҳасида амалга оширилган ислохотлар ва уни ривожлантириш истиқболлари // Жиноят ва жиноят процессуал қонунчилигини такомиллаштириш масалалари: миллий ва хорижий тажриба. Халқаро илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2014. – Б. 62-78.

Абдурасулова Қ.Р. Уголовное законодательство Узбекистана: история создания, действительность, перспективы развития // Жиноят ва жиноят процессуал қонунчилигини такомиллаштириш масалалари: миллий ва хорижий тажриба. Халқаро илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, ТДЮУ, 2014. – Б.14-29.

Абдурасулова Қ.Р. Давлатчиликнинг жиноятчиликка қарши кураш сиёсатини амалга оширишда декриминализациянинг аҳамияти. // Суд-ҳуқуқ ислохотлари устувор йўналишларидан бири бўлган жиноят-ҳуқуқий соҳаларни такомиллаштиришда ёш олимларнинг тутган ўрни. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2014. – Б.5-13.

Абдурасулова Қ.Р. Жиноий қилмишларни декриминализация қилиш тушунчаси, турлари ва ривожланиш истиқболлари // Суд-ҳуқуқ ислохотларининг назарий ва амалий масалалари, мавжуд муаммолар ва истиқболлар. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Бухоро, 2014. – Б.7-12.

Абдурасулова Қ.Р. Суд-тергов декриминализацияси ва унинг амалий аҳамияти. // Жиноят қонунчилигининг либераллаштириши шароитида айрим жиноятларни декриминализация қилиш масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2014. – Б.5-12.

Абдурасулова Қ.Р., Салаев Н.С. Жиноят ҳуқуқида декриминализация қилиш масалалари // Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратурасининг Олий ўқув курслари Ахборотномаси. – 2013. №4 (16). – Б. 35-40.

Абдурасулова Қ.Р., Эрматов Ф.О. Декриминализация тушунчаси ва жиноят қонуни айрим нормаларини декриминализация қилиш масалалари // Суд-ҳуқуқ ислоҳотларини чуқурлаштириш шароитида Жиноят кодексини унификация қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2015. – Б. 5-12.

Жалинский А. Обратная сила уголовного закона: Правовая позиция Конституционного суда РФ // Ж. Уголовное право. 2006. № 4. –13-б.

Зуфаров Р.А. Либерализация уголовного законодательства и проблемы назначения наказания // Суд-ҳуқуқ ислоҳотларини чуқурлаштириш шароитида Жиноят кодексини унификация қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2015. – Б. 20-23.

Махкамов О.М. Жиноят қонунчилиги таҳлили: амалга оширилган ислоҳотлар ва уларнинг истикболлари // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана.Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2015. №3. –Б. 26-30.

Махкамов О.М. Мамлакатда жиной жазоларни либераллаштириш соҳасидаги сиёсати: амалга оширилган ислоҳотлар ва келажакдаги истикболлар // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана.Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2016. №1. –Б. 36-40.

Махкамов О.М. Суд-ҳуқуқ тизимини янада демократлаштириш ва эркинлаштириш шароитида жиноят қонунчилигини такомиллаштиришнинг янги босқичи // Ҳуқуқ ва бурч. Ижтимоий ҳуқуқий журнал. – №10(130) 2016. – Б. 26-29.

Мирзаев У.М. Жиноят кодексини унификация қилиш: бу борадаги муаммолар ва уларнинг ечимлари хусусида айрим мулоҳазалар. // Жиноят қонунчилигининг либераллаштириши шароитида айрим жиноятларни декриминализация қилиш

масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2014 йил 29 март). – Т.: ТДЮУ, 2014. – Б. 63-71.

Нарбутаев Э.Х. О структурных преобразованиях уголовного законодательства Республики Узбекистан // Ж. Ҳуқуқ–Право–Law. 2001. № 4. – 44–48-б.

Салаев Н.С. Актуальные вопросы совершенствование декриминализации в уголовном законодательстве. // Сборник материалов Международной научно-практической конференции Современные тенденции развития науки и производства. – Кемерово, 2014. Том II. – С.173-178.

Салаев Н.С. Декриминализация: жиноят қонуни нормаларининг ислоҳоти йўлида. // Адвокат журнали. –2014. №5. – Б. 6-8.

Салаев Н.С. Жамият ривожининг янгиланиш босқичида криминализация ва декриминализациянинг зарурати ва истиқболлари // Суд-ҳуқуқ ислоҳотларини чуқурлаштириш шароитида Жиноят кодексини унификация қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2015. – Б. 62-66.

Салаев Н.С. Пенитенциар жиноятчилик: тушунчаси, сабаблари ва уни профилактика қилиш // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2016. №1. –Б. 40-43

Салаев Н.С. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси Махсус қисмидаги муайян қилмишларни декриминализация қилиш масалалари // Суд-ҳуқуқ ислоҳотларининг назарий ва амалий масалалари, мавжуд муаммолар ва истиқболлар. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Бухоро, 2014. – Б.20-23.

Тургунбоев Э.О. Жиноят қонунчилигини амал қилиш доирасини такомиллаштириш масалалари (ЖК 13-модда мисолида) // Жиноят ва жиноят процессуал қонунчилигини такомиллаштириш масалалари: миллий ва хорижий тажриба. Халқаро илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2014. – Б.118-124.

Турғунбоев Э.О. Жиноят қонунчилигини либераллаштиришда жиноят қонунининг орқага қайтиш масалалари // Жиноят ҳуқуқининг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами (2014 йил 22 февраль). – Т.: Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б.23-28.

Турғунбоев Э.О. Жиноят ҳуқуқида микдор белгилари ўзгарганда жиноят қонунининг орқага қайтиш кучи //Фан ва ёшлар. Наука и молодёжь. – 2013. №1.– Б.122-124.

Халикулов У.Ш. В русле либерализации декриминализации // Жиноят ва жиноят процессуал қонунчилигини такомиллаштириш масалалари: миллий ва хорижий тажриба. Халқаро илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2014. – Б. 87-91.

Халикулов У.Ш. Гармонизация и унификация норм уголовного законодательства Республики Узбекистан с учетом процессов глобализации // Суд-ҳуқуқ ислохотларини чуқурлаштириш шароитида Жиноят кодексини унификация қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2015. – Б. 37-44.

Шакуров Р.Р. Соотношение формы и содержания поощрительных норм в уголовном праве // Ж. Проблемы физического и нравственного воспитания здорового поколения студентов. 1995. № 1. – 82–84-б.

Шакуров Р.Р. Юридическая природа уголовно-правового поощрения // Ж. Конституция – ҳуқуқий давлат қуришнинг асоси. 1998. № 1. – 137–139-б.

III BOB. JINOYAT TUSHUNCHASI

1-§. Jinoyat huquqi nazariyasi va qonunida jinoyat tushunchasining belgilanishi

Jinoyat – jinoyat huquqi fanining asosiy kategoriyasi. Ushbu tushunchaning mohiyatini aniqlash prinsipial ahamiyatga ega.

Jinoyat huquqi nazariyasi va qonunchiligida keltirilgan jinoyat tushunchasida ikkita metodologik yondashuv bo‘lib, ularni shartli ravishda formal va moddiy yondashuvlar deb atashimiz mumkin.

Formal yondashuv – tarixan birinchi. Bunda jinoiy qilmish jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida jazo qo‘llash tahdidi bilan taqiqlanadi, lekin bu taqiqning sabablari ko‘rsatilmaydi.

Moddiy yondashuv jinoyatni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmish sifatida tavsiflaydi. Formal yondashuvdan farqli o‘laroq ushbu yondashuv jinoyatni jamiyatga zararligi nuqtai nazaridan baholaydi va u yoki bu qilmishni jinoyatlar qatoriga kiritgan qonun chiqaruvchi organning maqsadini aniqlashga harakat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonuni asosli ravishda ikkala yondashuvni ham o‘z ichiga oladi.

NOTA BENE !

Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan **jinoyat** deb topiladi (**JK 14-moddasi**).

JK 14-moddasi 1-qismida belgilangan jinoyat tushunchasi quyidagi holatlarni o‘zida ifodalovchi moddiy-formal belgilarni qamrab oladi.

Formal belgi, bu ma’lum bir xatti-harakatlarni sodir qilish yoki ba’zi bir harakatlarni bajarish shart bo‘lgan hollarda ularni sodir qilmaslikni man qilishda ifodalanadi.

Jinoyat qonuni bilan taqiqlangan harakat yoki bajarilishi shart bo‘lgan harakatni bajarmaslikda ifodalanadigan harakatsizlik, ya’ni huquqqa xilof

qilmish jinoyat deb hisoblanadi. Ushbu shartning formalligi qonunda jinoyat-huquqiy taqiqning o‘rnatilishi va **nullum crimen nulla poena sine lege**¹ prinsipini qamrab oladi. Shundan kelib chiqqan holda biror-bir xulq-atvorni huquqqa xilof deb baholashda huquq yoki qonun analogiyasining qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Faqatgina Jinoyat kodeksida belgilangan ijtimoiy qadriyatlariga jinoyat-huquqiy muhofaza obyekti hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy qadriyatlarga qaratilgan tajovuzlar jinoyat-huquqiy normalarga qarshi qaratilgan bo‘ladi va qonun tomonidan taqiqlanadi.

Bundan kelib chiqqan holda, JKda ko‘rsatilmagan qilmishni sodir qilish jinoyat deb topilmaydi.

Moddiy belgi – bu har qanday jinoyatning tub mohiyatini, ijtimoiy xavfliligini ifodalab berish. Shunga ko‘ra **JK 14-moddasi 2-qismidagi** moddiy belgi jinoyat- huquqiy muhofaza obyektlariga havola qilingan holda ifodalangan. Moddiy belgini, shuningdek, qonun bilan qo‘riqlanadigan jinoiy tajovuz obyektini aniqlash uchun JK 2-moddasida mustahkamlangan qoidadan kelib chiqish zarur.

2-§. Jinoyat belgilari

JK 14-moddasi 1-qismi O‘zbekiston Respublikasining jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq jinoyat tushunchasining umumiy tavsiflarini o‘z ichiga oladi. Eng avvalo, ushbu moddada jinoyat tushunchasining asosiy belgi va alomatlari belgilanganki, ularga qarab u yoki bu qilmishning ijtimoiy xavfliligi yoki ijtimoiy foydaliligini aniqlab olish mumkin.

Ushbu tavsifdan kelib chiqqan holda jinoyatning quyidagi belgilarini ko‘rsatish mumkin:

- ijtimoiy xavflilik;
- huquqqa xiloflik;
- aybning mavjudligi;
- jazoga sazovorlik.

Birinchi navbatda shuni aytish kerakki, **JK 14-moddasi** jinoyatni **qilmish** sifatida ifodalagan.

¹ Қонунда кўрсатилмаган бўлса, жиноят ҳам, эаза ҳам йўқ (лот).

Jinoyat tashqi tomonidan inson xulq-atvorining ifodasi bo'lmish ma'lum bir qilmishni namoyon qiladi. Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari shaxsning konkret aktiv yoki passiv xulq-atvoriga nisbatan jinoiy javobgarlikni qo'llashga yo'l qo'yadi. Muayyan harakat va harakatsizlikni qamrab olmagan qilmishni sodir qilish jinoyat deb topilmaydi.

Qilmish aktiv xulq-atvorni ifodalaydigan harakat va bajarilishi shart bo'lgan majburiyatni bajarmaslikda ifodalanadigan passiv harakatsizlikdan tarkib topgan bo'ladi. JK Maxsus qismida nazarda tutilgan ko'pchilik jinoyatlar harakat orqali sodir qilinishi mumkin.

(«Harakat», «harakatsizlik» tushunchalari to'g'risida mazkur tom VI bobining «Jinoiy qilmish va uning turlari» deb nomlanuvchi 2-§ ga qarang.)

Insonning har qanday xatti-harakati, xulq-atvori jamiyatning a'zolari manfaatlari nuqtai nazaridan yo ijobiy, yo salbiy baholanishi mumkin.

Ijtimoiy xavflilik jinoyatlarni jinoiy bo'lmagan huquqbuzarliklardan va kam ahamiyatli qilmishlardan farqlay olish imkonini beruvchi jinoyatning muhim tarkibi hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi huquqbuzarliklarni jinoiy, ma'muriy, intizomiy yoki fuqaroviy-huquqiy da'voli ishlarga ajratadi.

NOTA BENE !

Ijtimoiy xavflilik umumjamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan shaxsning xulq-atvorini baholashga imkon beruvchi jinoyat-huquqiy muhofaza obyektlariga zarar keltiruvchi obyektiv xususiyatni ifodalaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy xavflilik mezoni, bu – nafaqat jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish qobiliyati, balki qilmishning xususiyati va uning ijtimoiy xavflilik darajasi hamdir. Ijtimoiy xavflilik xarakteri jinoyat qonuni tizimida o'z ifodasini topgan bo'lib, u asosiy qadriyat hisoblanuvchi shaxsning hayoti va sog'liqi, huquq va erkinliklarini belgilab beruvchi qoidalardan kelib chiqadi.

NOTA BENE !

Ijtimoiy xavflilik xususiyati – alohida olingan jinoyatning ijtimoiy holati bo‘lib, muayyan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi va ushbu ijtimoiy munosabatlarga qarshi qaratilgan tajovuzlar, zararning tarkibi, joyi, qadriyatlar tizimida tutgan o‘rni, ayb shakllari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ijtimoiy xavflilik darajasi jinoyatning miqdor ko‘rsatkichini aks ettirib, zararning hajmi, qasd va ehtiyotsizlik shakllari, jinoyatning motivi va maqsadi, shuningdek, jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, vaziyat, usul va boshqa holatlar bilan belgilanadi.

NOTA BENE !

Ijtimoiy xavflilik darajasi – bu ijtimoiy xavflilik darajasi bir xil bo‘lgan jinoyatlarning qiyosiy xavflilik darajasi ifodasidir.

Sud-tergov xodimlari jinoyatni aniqlashda ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasidan kelib chiqqan holda aybdorning shaxsi va ish holatlarini, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olish haqidagi individual yondashuvni o‘z ichiga olgan qonun talablariga so‘zsiz rioya qilishlari kerak. Oliy sud Plenumi ko‘rsatmalariga muvofiq, «jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati tajovuz obyekti (inson hayoti va sog‘liqi, mulk, jamoat xavfsizligi va h.k.), ayb shakli, jinoy qilmishning qonunda qaysi toifaga (JK 15-moddasi) kiritilganligi bilan belgilanadi.

Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi qilmish sodir etilishi holatlari (jinoiy niyatning amalga oshirilganligi darajasi va bosqichlari, jinoyatni sodir etish usuli, zarar miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlar og‘irligi, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatda sudlanuvchining roli) bilan belgilanadi»¹.

JK 14-moddasi 2-qismi ijtimoiy munosabatlarni buzish, ulardagi salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarish, umuman, ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish qobiliyatiga ega bo‘lgan qilmishda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy xavflilikning yuridik tuzilishini ifodalaydi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Плулумининг 2006 йил 3 февралдаги “Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида”ги 1-сонли қарори // Тўплам. 2-жилд – 226-б

Insonlar tomonidan sodir qilinadigan turli-tuman qilmishlarning xavflilik xususiyatini hisobga olgan holda qonun chiqaruvchi ular orasidan boshqalariga nisbatan ijtimoiy xavfliroq bo'lganlarini jinoyat qonuni normalarida ifodalab, ularni jinoyat deb e'lon qiladi.

JK 14-moddasi 2-qismiga ko'ra, kam ahamiyatli qilmishlar jinoyat deb topilmaydi. Qilmishning kam ahamiyatliligi (JK 36-moddasi) Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qilmishning belgilari rasmiy mavjud bo'lsa-da, aslida hech qanday ijtimoiy xavfli xususiyatni aks ettirmaydi.

Qilmishni kam ahamiyatli deb topish va uni jinoyatni istisno qiluvchi holat deb topish masalasi ish holatlariga bog'liqdir. Sud-tergov amaliyotida qilmishning kam ahamiyatliligi masalasi ko'rilayotganda zararli oqibat haqiqatan kelib chiqqanligi, qilmishni sodir etish usuli, ayb shakli, motiv va maqsadiga e'tibor qaratish lozim. Agar sodir etilgan qilmish kam ahamiyatlilik belgisiga ega bo'lsa, jinoyat ishi qo'zg'atilishi mumkin emas, qo'zg'atilgan jinoyat ishi esa jinoyat tarkibi mavjud emasligi tufayli tugatilishi kerak.

Agar konkret qilmish jinoyat deb topiladigan bo'lsa, uning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi ish holatlarini (ayb shakli, jinoyat sodir qilish usuli, motiv, jinoyat sodir etish vaqti va holati, kelib chiqqan oqibatning og'irligi, ishtirokchilarning jinoyatni sodir qilishdagi qatnashganlik darajasi, xususiyati va boshqalar) hisobga olgan holda aniqlanishi lozim.

Ijtimoiy xavfli bo'lgan qilmishni sodir qilish o'z-o'zidan davlat tomonidan jinoyat-huquqiy ta'qib va jinoyat-huquqiy muhofazani vujudga keltirmaydi, javobgarlikning majburiyligi jinoiy javobgarlikning asosi hisoblanmaydi. Jinoyat va jazo masalalari huquqqa xilof, jinoyat qonunida belgilangan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi, jinoyat huquqi normalaridagi aniq bir jinoyat alomatlariga ega bo'lgan qilmish sodir etilgandagina yuzaga keladi.

Jinoiy javobgarlik jinoyat-huquqiy normalarga qarshi qaratilgan, jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan o'rnatilgan taqiqlarni buzadigan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik uchun qo'llaniladi.

NOTA BENE !

Huquqqa xiloflik deganda, qilmishni Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalari orqali taqiqlash tushuniladi, ya'ni shaxs jinoyat qonuni taqiqlagan harakatni sodir qiladi yoki qonunda bajarilishi shart deb ko'rsatilgan harakatni bajarmaydi (harakatsizlik).

Huquqqa xiloflik belgisini faqat jinoyat qonuni Maxsus qismi normalari dispozitsiyalari bilan chegaralab qo'yish noto'g'ri bo'ladi. Maxsus qism normalarini Umumiy qism normalari bilan birga qo'llash kerak, chunki Maxsus qismda ko'rsatilgan qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va jinoiy javobgarlikni qo'llash masalalari ularning birgalikdagi kuchda bo'lishi bilan aniqlanadi. Faqat shundagina bosh va asosiy masala – o'z ichiga ijtimoiy xavflilik darajasi va tabiatini olgan hamda jinoyat-huquqiy taqiq o'rnatuvchi jinoyat huquqi normalarida ifodalanuvchi jinoyatning moddiy mohiyatini to'g'ri aniqlash mumkin.

Jinoiy huquqqa xiloflik va jinoyat-huquqiy taqiq tushunchalari aynan bir xil bo'lib, Maxsus qismning aksariyat normalari tuzilishi jihatdan taqiqlovchi normalardir. Ma'lum holatlarda qilmishlarga yoki usul, yo'sin va hokazolarga taqiq qo'yilgan (masalan, JK 148–149-moddalari). JK Maxsus qismidagi normalar majburiyat yuklovchi xususiyatga ega. Ba'zi bir hollarda Maxsus qism normalari muayyan bir qilmish sodir etishni majbur qilib qo'yadi.

Shu bilan birga, taqiqlar boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan bo'lishi ham mumkin. Maxsus qismda o'sha normativ-huquqiy hujjatlar talabi buzilganligi uchun jazo chorasi – sanksiya belgilanadi. Buni JK **blanket normalari** deyiladi.

Huquqqa xiloflik jinoiy qilmish orqali huquq normalarining buzilishini ifodalaydi. Huquqqa xiloflik, umumiy ma'noda, huquq normalariga qarshi borishdir.

Huquqqa xiloflik mavhum tushuncha, zero, uning tarkibi huquqning turli sohalaridagi, jumladan, jinoiy, ma'muriy va boshqa huquq sohalaridagi normalarning aniq xususiyatlariga bog'liq emas.

Jinoyat huquqida huquqqa xiloflik tushunchasi jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan farqlash uchun jinoyat huquqining boshqa huquq sohalari bilan bog'liqlikda bo'lishini ifodalaydi. Shundan, huquqqa xiloflik jinoyatning jazoga sazovorligi bilan, jinoyatning o'zi esa, jinoyatni sodir qilgan shaxs aybi bilan uzviy bog'liq. Bu belgilar jinoiy huquqqa xiloflik va jinoyat tushunchalarini umumiy tarzda ifodalaydi.

Huquqqa xiloflik obyektiv va nisbatan mustaqil tabiatga ega. Qilmishning darajasi va zararini tavsiflovchi moddiy belgi hisoblangan ijtimoiy xavflilikdan farqli ravishda huquqqa xiloflikni jinoiy javobgarlikning formalligini ifodalovchi jinoyat qonunining buzilishi sifatida baholash kerak.

Ijtimoiy xavflilik va huquqqa xiloflik belgilari birgalikda qilmishning jinoiylikni va u uchun javobgarlik asosini belgilovchi omil hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy xavfli bo'laturib jinoyat qonunini buzmagani yoki jinoyat qonuni normalari buzgani holda ijtimoiy xavflilik alomatlari mavjud bo'lmagan qilmishga nisbatan jinoiy javobgarlikni qo'llab bo'lmaydi.

Jinoyat tushunchasini izohlashda ijtimoiy xavflilik va huquqqa xiloflik jinoyatning asosiy va bir-biriga aloqador belgilari ekanligini ko'rish mumkin. Jinoyatning ijtimoiy xavflilik belgisining mavjud emasligi, o'z navbatida, huquqqa xiloflikning mavjud emasligini bildiradi, ya'ni faqat jinoyat qonuni bilan ijtimoiy xavfli deb topilgan qilmishlarga huquqqa xilof hisoblanadi. Qilmishning jinoyat huquqiga xilof deb topish asoslari bo'lib, bunday qilmishning ijtimoiy xavfliligi, u yoki bu qilmishga aynan jinoyat-huquqiy vositalar bilan ta'sir etishning umumiylik hisoblanadi. Jinoiy huquqqa xiloflik qilmishga ijtimoiy xavflilik darajasini berib, aynan shu daraja orqali qilmish jinoyat tavsifini oladi. Jinoyatning moddiy belgisi ijtimoiy xavflilik bo'lsa, jinoyatning formal belgisi huquqqa xiloflik hisoblanadi.

Ayb – qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan u yoki bu huquqqa xilof qilmishni ijtimoiy xavfli deb belgilovchi belgi.

NOTA BENE !

Ayb jinoyatning belgisi sifatida shuni anglatadiki, birinchidan, shaxs o‘zi sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishi va uning natijasida kelib chiqqan ijtimoiy xavfli oqibat uchun aybi mavjud bo‘lgan taqdirdagina jinoiy javobgarlikka tortiladi, ikkinchidan, aybsiz holda zarar yetkazganlik uchun shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmishning huquqqa xilofligi uni sodir qilgan shaxsning ana shu qilmishga nisbatan ruhiy munosabati mavjud bo‘lishini talab qiladi, ya’ni jinoyatni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir qilish. Ayblilik belgisining mavjud emasligi jinoyat ijtimoiy xavfliligining formal belgilari mavjud bo‘lganda ham qilmishda jinoyat tarkibi mavjud emas deb baholanishi mumkin. Buning sababi jinoiy javobgarlikka tortish asosi hisoblangan jinoyat tarkibining muhim elementi – subyekt tomoning mavjud emasligida ifodalanadi.

(«Ayb» tushunchasi haqida mazkur tom VII bobining «Ayb tushunchasi va shakllari» deb nomlanuvchi 3-§ da batafsil tushuntirilgan.)

Javobgarlik muqarrar bo‘lgan holatlarda ayblilik JK moddalarida javobgarlik asosi sifatida keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari aybsiz javobgarlikka yo‘l qo‘ymaydi (JK 9-moddasi).

Har qanday ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof qilmish jinoiy **jazoga sazovorlikni** nazarda tutadi. Jazoga sazovorlik sodir etilgan qilmish uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ifodalaydi. Shu bilan bog‘liq ravishda jazoga sazovorlikni qilmishni jinoyat sifatida tavsiflaydigan belgilar qatoriga kiritish faqatgina jinoyat huquqi tabiati va xarakteri tufayli emas, balki qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilganligi uchungina amalga oshirilgan. **JK 14-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan «jazo qo‘llash tahdidi bilan» jumlasini jazoga sazovorlikni jinoyatning asosiy belgilaridan ekanligidan dalolat beradi.

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish kerakki, qilmishning huquqqa xilofligi jazoga sazovorlik bilan bevosita bog‘liq. Jinoyat-huquqiy taqiqni o‘rnatuvchi huquq normasi qonun bilan o‘rnatilgan qoidalarga rioya

qilishni, bu qoidalar buzilgan taqdirda aybdorni jazolashni ta'minlovchi jinoiy sanksiyalar mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Harakat yoki harakatsizlikning taqiqlanganligi jinoiy-huquqiy norma bilan bog'liq bo'lmasa, jinoyat ham, jazo ham mavjud bo'lmaydi¹.

NOTA BENE !

Jazoga sazovorlikni jinoyatning mustaqil belgisi sifatida quyidagi ikkita jihat bilan xarakterlashimiz mumkin: 1) ijtimoiy xavfli qilmish jazo qo'llash tahdidi bilan qonun chiqaruvchi tomonidan taqiqlanadi; 2) ushbu taqiqni buzgan shaxs qoidaga ko'ra jazoga tortiladi.

Shuni ta'kidlashimiz lozimki, javobgarlikning muqarrarligi har doim ham jazo qo'llash shartligini nazarda tutmaydi. Jinoyatni aniqlash «jazo qo'llash tahdidi» bilan bevosita bog'liqdir. Jinoiy jazo bu jinoyat sodir qilishning oqibatidir. o'z navbatida, bu oqibat ba'zi bir holatlarda qo'llanilmasligi ham mumkin. Shu yo'l bilan qonun chiqaruvchi jazo qo'llanilishini ogohlantirish orqali javobgarlikning muqarrarligi prinsipining buzilmasligini ta'minlaydi. Masalan, aybdorning qilmishida uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun zarur bo'lgan barcha alomatlar mavjud bo'lishi mumkin, lekin shunga qaramasdan amnistiya akti tufayli u jinoiy jazodan ozod qilinishi mumkin (lekin jinoiy javobgarlikdan emas). Shuning uchun jinoiy jazo va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplari har doim ham jinoiy-huquqiy majburlovning aynan bitta mexanizmi bo'la olmaydi.

3-§. Jinoyatlarni tasniflash

JK 15-moddasi ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatiga asoslangan moddiy belgiga ko'ra jinoyatlarni turlarga ajratadi.

¹ Таъкидлаб ўтиш керакки, айрим муаллифлар жазога сазоворликни жиноятнинг мустақил белгиси сифатида ажратишмасдан, уни (аниқроқ айтганда, “жазо қўллаш таҳдиди” каби тушунчани) жиноят қонуни билан таъқиқланганлиги билан бир қаторда ҳуқуққа ҳилофликнинг ифодаси сифатида эътироф этадилар. (Қаранг: Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под. Ред. д.ю.н., проф. Н.Ф.Кузнецовой и к.ю.н., доц. И.М.Тяжковой. – 138-б), Ушбу позиция муайян шубҳаларни туғдиради. Чунки жиноят тўғрисидаги қонун ҳужжатлари акли норасо шахсларнинг ижтимоий хавfli қилмишларини назарда тутди, уларга нисбатан эса жиноий жазо ўрнига тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари қўлланилади.

Jinoyatlarni tasniflash aybdor tomonidan sodir qilingan qilmishni Maxsus qism moddalaridagi yuridik va faktik alomatlar bilan solishtirgan holda, ijtimoiy xavflilik nuqtai nazaridan jinoyatlarni xarakterlash imkoniyatini beradi.

JK 15-moddasi ko'rsatilgan jinoyatlarni aniq tasniflashga, ya'ni ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatiga ko'ra ularni to'rt turga ajratishga yordam beradi.

Yana bir bor shuni ta'kidlab o'tish joizki, **jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati** uning sifat belgisini ifodalaydi. Uni aniqlashning asosi sifatida tajovuz obyektining ahamiyati, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish natijasida yuzaga keladigan oqibatlar (moddiy, jismoniy, ma'naviy va boshqalar) xizmat qiladi.

Masalan, bir turdagi jinoyat obyektiga tajovuz qiluvchi jinoiy qilmishning xususiyati ham bir xildir (masalan, shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga yoki davlat xavfsizligi va konstitutsiyaviy tuzumga qarshi jinoyatlar).

Ijtimoiy xavflilik darajasi — bir xususiyatdagi jinoyatlar ijtimoiy xavfliligining miqdor ko'rsatkichidir. Uni aniqlashda yetkazilgan zarar miqdori, jinoyat sodir etish usuli, ayb shakli, motiv va maqsad hamda boshqa holatlar hisobga olinishi mumkin.

Ushbu ikki aspektning bitta jinoyat-huquqiy mezonga birlashishi JK Maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyatlarni tasniflashga yordam beradi. Bular: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar (**JK 15-moddasi 1-qismi**).

Ijtimoiy xavflilikning darajasi va xususiyati faqatgina jinoyatlarni tasniflash asosi bo'libgina qolmasdan, balki ular qilmishni jinoyat sifatida baholovchi belgi ham hisoblanadi, shuningdek, ular sudlar tomonidan jazo tayinlash vaqtida hisobga olinishi kerak.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddatiga asoslangan ijtimoiy xavflilik darajasi, shuningdek, ayb shakliga qarab barcha jinoyatlar to'rtta turga bo'linadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, jinoyatlarni tasniflashga sodir qilingan jinoyatning turi va miqdori, uning huquqqa xilofligi asos qilib olingan.

Dastlabki ikki kategoriyaga qasddan va ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlarni kiritish mumkin. Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar esa, faqat qasddan sodir etiladi.

JK 15-moddasi 2-qismiga muvofiq, **ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga** qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Jinoyatlarning boshqa turlariga qaraganda ushbu turkum jinoyatlar qolgan uch turkum jinoyatlariga nisbatan kamroq ahamiyat kasb etadi. Shunisi xarakterliki, jamiyat uchun unchalik katta xavf tug‘dirmaydigan qilmishlarga ma‘muriy preyuditsiya mavjud bo‘lgan hollarda javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar kiradi, ma‘muriy javobgarlikka tortilgan shaxs bir yil davomida yana shunga o‘xshash huquqbuzarlikni sodir etsa, jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan ayrim jinoyatlar nazarda tutilgan moddalar sanksiya qismida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bo‘lmasligi mumkin (masalan, JK 140- yoki 192-moddalari). Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar aks etgan moddalarning aksarida ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilmagan (faqatgina ayrim ixtisoslashgan yoki o‘ta ixtisoslashgan jinoyatlarda bu jazo qo‘llaniladi). Bu turdagi jinoyatlarga quyidagi qasddan sodir qilinadigan JK 139-, 140-, 145-, 149-moddalari va boshqalar, shuningdek, 280-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan ehtiyotsizlikdan sodir qilinadigan jinoyatlar kiradi.

Uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi (**JK 155-moddasi 3-qismi**).

Jinoyat qonunida belgilangan qoidaga ko‘ra, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar turkumiga sanksiya qismida qasddan sodir etiladigan, besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar taalluqlidir. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, nazarda tutilgan jazo, o‘z navbatida, boshqa yengil turdagi jazolar bilan muqobil ravishda mos kelishi kerak.

Og‘ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda og‘ir jazo sifatida besh yildan ortiq, lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi (JK 155-moddasi 4-qismi).

Ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi eng yuqori jinoyatlar – o‘ta og‘ir jinoyatlardir.

O‘ta og‘ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi (**JK 155-moddasi 5-qismi**).

Bu turkumdagi jinoyatlarga qonun chiqaruvchi, eng avvalo, shaxs hayoti va sog‘liqiga qarshi qaratilgan qasddan sodir qilinadigan jinoyatlar, shuningdek, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni kiritgan.

Jinoyatni tegishli turkumga kiritish JKda belgilangan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Retsidiv jinoyatni xavfli yoki o‘ta xavfli deb topish masalasi shaxsning ilgari sodir qilgan uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyati uchun necha marotaba sudlanganligiga qarab, hal qilinadi (JK 34-moddasi); umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqat o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun tayinlanishi mumkin (JK 51-moddasi); shaxs jazoni o‘taydigan koloniyaning turi sodir etilgan jinoyat qaysi turkumga kirishi bilan bog‘liq holatda belgilanadi.

Jinoyatlarni tasniflashda jinoyatlar majmui bo‘yicha jazo tayinlash (JK 33-moddasi), jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK beshinchi bo‘limi), shu jumladan javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi (JK 64-moddasi), sudlanganlik holatining tugallanishi (JK 78-moddasi) munosabati bilan, shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan

majburlov choralarini qo'llash (JK 88-moddasi) va boshqa holatlar bevosita bog'liqdir.

«Jinoyat tushunchasi» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar

1. O'zbekiston Respublikasining jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq jinoyat deganda nima tushuniladi?
2. Jinoyat tushunchasida formal (normativ) va moddiy yondashuvning mazmuni nimadan iborat?
3. Jinoyatning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tushunchasi qaysi belgilar bilan ta'riflanadi? Ushbu belgilarning har birini yoritib bering.
4. Jinoiy qilmish ijtimoiy xavfliligining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
5. Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi va huquqqa xilofligi kabi belgilarining o'zaro nisbati qanday?
6. «Jinoiy jazo» va «javobgarlikning muqarrarligi» kabi tushunchalarning o'zaro nisbati qanday?
7. Jinoyatlarni tasniflash asosiga qanday mezonlar qo'yilgan?
8. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qanday jinoyatlar kiradi?
9. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar nima bilan ta'riflanadi?
10. Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga qanday jinoyatlar kiradi?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Ковалев М.И. Понятие и признаки преступления и их значение для правильной квалификации. – Свердловск: 1974. – 228 Б.

Козлов А.П. Понятие преступления. – М.: 2004. – 436 Б.

Преступление: вопросы и ответы (по Уголовному кодексу Российской Федерации): Научно-практическое пособие / Отв. ред. Н.Ф. Мурашов. 2-изд., испр. и доп. – М.: Изд-ль Шумилова И.И., 2001. – 150–151-б.

Ilmiy maqolalar

Веселов Е. Граница преступного и непроступного // Ж. Уголовное право. 2004. № 3. – 12–14-б.

Гребенкин Ф. Общественная опасность преступления и ее характеристика // Ж. Уголовное право. 2006. № 1. – 22-б.

Ерасов А. Темпоральное действие промежуточного уголовного закона // Ж. Уголовное право. 2005. № 5. – 20–24-б.

Камалова Д.Г. Жиноят содир этиш босқичлари: уларга оид қоидаларни моддий ва формал таркибли жиноятларга татбиқ этиш // Ҳуқуқ ва бурч. Ижтимоий-ҳуқуқий журнал. –2016. №4(124). – Б. 46-49.

Марцев А., Михаль О. Уголовно-правовая классификация преступлений // Ж. Уголовное право. 2005. № 5. – 49–54-б.

Марцев А.И. Общественная вредность и общественная опасность преступления // Ж. Правоведение. 2001. № 4. – 150–151-б.

Михаль О. О классификационных принципах при классификации преступлений // Ж. Уголовное право. 2006. № 1. – 50-б.

Турғунбоев Э.О. Вояга етмаганларга нисбатан мажбурлов чорасини қўллаш билан боғлиқ жиноят қонуни нормаларини такомиллаштириш (ЖКнинг 15-моддаси билан унификация қилиш) // Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги қонуни ижросини таъминлашнинг асосий йўналишлари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2015 йил 22 март). –Т.: Ўзбекистон Респбликаси Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – Б.152-156.

IV BOB. JINOIY JAVOBGARLIK VA UNING ASOSLARI

1-§. Jinoiy javobgarlik tushunchasi

JK 16-moddasi jinoiy javobgarlikni yuridik javobgarlikning bir ko‘rinishi sifatida atroflicha yoritib beradi. Ushbu moddaga ko‘ra, «Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.

Ushbu kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi».

JK 16-moddasi 1-qismida bir qator alomatlarga ega bo‘lgan **jinoiy javobgarlik tushunchasi** o‘z ifodasini topgan.

Birinchi, jinoiy javobgarlik o‘zining yuridik ma’nosiga ko‘ra jinoyat sodir etishning oqibati hisoblanadi. Ikkinchi, u ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishidan keyin vujudga keladi. Uchinchi, jinoiy javobgarlik sud hukmi bilan jazo va boshqa ta’sir choralari qo‘llashda ifodalanadigan davlat majburlov chorasidir. To‘rtinchi, u jinoyat-huquqiy munosabatlar doirasida vujudga keladi, amalga oshiriladi va to‘xtatiladi.

Qonun subyektlarga ijtimoiy xavfli qilmish sodir etmaslik majburiyatini yuklaydi, ya’ni muayyan harakatlarni sodir qilmaslik yoki bajarilishi shart bo‘lgan harakatlarni amalga oshirish. Bu majburiyat barcha uchun majburiy va muayyan bir shaxs uchun alohida hisoblanadi. Ushbu majburiyatlarning bajarilishini talab qilish davlat organlarining huquqi hisoblanadi. Yuridik normalar buzilganda davlat aybdor shaxslarga nisbatan majburlov choralari qo‘llaydi.

Shu bilan birga, o‘z-o‘zidan qonunda biror-bir normaning yozma ifodalanganligi jinoiy javobgarlikka tortish kerakligini anglatmaydi. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, jinoiy javobgarlik faqatgina haqiqatan sodir etilgan aybli qilmish uchun qo‘llanilishi lozim. Qonun normalari jamiyat hayotining real sohalarini qamrab olishi uchun jismoniy shaxslar

jinoyat-huquqiy taqiqlarga rioya qilishlari kerak. Bu talablar shaxs, jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqadi, javobgarlikning hajmi va chegarasini aniqlaydi. Bu talablarsiz subyektlar o'z xulq-atvorini hech narsa bilan solishtira olmaydi.

Jinoiy javobgarlik jinoyat-huquqiy normalar vositasida ijtimoiy jihatdan zarur bo'lgan munosabatlarning faoliyatini ta'minlaydi.

Ushbu javobgarlik JK 2-moddasida ko'rsatilgan qadriyatlarni jinoyat-huquqiy normalar bilan muhofaza qilishning asosi hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlik keng ma'noda jinoyat-huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari ifodalangan qonun normalarini ijro etish protsessi, u yoki bu nizoning adolatli hal qilinishi natijasi bo'lgan jinoyat-huquqiy normalarning bajarilishi, aybdor shaxslarga nisbatan jazo tayinlaydigan maxsus organ – sudning shaxslar tomonidan sodir qilinadigan ijtimoiy xavfli qilmishlarga nisbatan salbiy munosabatini ifodalaydi.

JK 16-moddasidagi jinoiy javobgarlikning konstruksiyasini ko'rib chiqq turib, uni aniqlashning eng muhim jihati bu huquqiy oqibatdir, deb aytish mumkin. Ana shu oqibatgina jinoiy javobgarlikning mohiyati va xarakterini ifodalaydi. Jinoyat-huquqiy munosabatlarning muhim belgisi hisoblangan jinoiy javobgarlik jinoyat-huquqiy taqiqlar va normalarning buzilishi oqibatidir.

NOTA BENE !

Jinoiy javobgarlik – bu jinoyat sodir etgan shaxsning belgilangan tartibga ko'ra, huquqlari cheklanishi, davlat nomidan sudlangan bo'lishi va jazo hamda boshqa huquqiy ta'sir choralarini o'tashga bo'lgan majburiyatidir. Javobgarlikning asosi JK Maxsus qismi moddalarida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlik natijasida kelib chiqadigan **huquqiy oqibatlarning** elementlari quyidagilardan iborat:

1) ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganlikda sudlanganlikning vujudga kelishi;

2) aybdor shaxsga nisbatan jazo yoki boshqa ta'sir chorasi qo'llanilishi;

3) sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sud hukmi bilan baholash natijasida ma'lum bir huquqiy oqibatlar kelib chiqishi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, faqatgina sud ayrim bir shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishi mumkin, javobgarlikning boshqa turlari esa (ma'muriy, intizomiy) davlat hokimiyatining nosudlov organlari tomonidan qo'llanilishi va ushbu organlarning faoliyati natijasi bo'lishi mumkin.

Jinoiy javobgarlik aybdor shaxsga sud tomonidan belgilangan ma'lum jazo choralari bilan chegaralanmaydi. Jinoiy javobgarlik shaxs sudlanishida, ya'ni ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishda aybdor deb topish, unga jazo chorasi belgilash va shu jazo chorasini ijro etish jarayonlarining birligida ifodalanadi.

NOTA BENE !

Hukm qilish jinoiy javobgarlikni amalga oshirish shakli bo'lib, qilmishga va shaxsga bo'lgan munosabat ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga sud tomonidan tegishli hukm chiqarish orqali tegishli miqdorda va shaklda jazo tayinlashda ifodalanadi.

Modda sanksiyalaridagi jazolarning muqobilligi va og'irlik darajasini hisobga olib, hukmda ifodalangan qilmishga nisbatan baho berishda jazo turi va miqdori katta rol o'ynaydi. Sud tomonidan tayinlangan jazo turi va miqdoriga qarab, shaxsning ayblilik darajasi to'g'risida xulosa qilish mumkin.

Hukm qilish shaxsni sud tomonidan jinoyat sodir etishda aybdor deb topib, hukmda jazo choralari bilan bog'liq bo'lmagan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashni ham nazarda tutadi (JK 91-moddasi).

Jinoiy javobgarlik – hukm qilish – hukmda nazarda tutilgan jazo choralari o'tashda ifodalanadi.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganlik uchun hukm qilish va jinoiy javobgarlikka tortishning oqibati bo‘lib jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari qo‘llash hisoblanadi.

Jazo – javobgarlikning muhim xususiyatidir.

NOTA BENE !

Jazo – jinoyatchiga nisbatan sud tomonidan qo‘llaniladigan, jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatini ifodalaydigan, jinoiy javobgarlikning amalga oshirilish shakli bo‘lgan maqsadli davlat majburlov chorasidir.

Jinoiy javobgarlikning real ifodasi, asosan, jazoda o‘z aksini topadi. Biroq jinoiy javobgarlik va jazoni aynan bir tushuncha deya olmaymiz. Jinoiy javobgarlik va jazo bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Bu fikrlar ayrim xulosalar chiqarishimizga imkon beradi.

Birinchi, jinoiy javobgarlik davlat majburlov chorasining bir turi va mohiyatan jinoyat-huquqiy munosabat bilan bir bo‘lganligi uchun jinoiy jazo tushunchasiga nisbatan keng. Ikkinchi, jinoiy jazo, jinoiy-huquqiy majburlov chorasidir sifatida jinoiy javobgarlikning barcha bosqichlarida namoyon bo‘ladi.

Birinchi bosqichda (jinoyat sodir etilgan paytdan to ayblanuvchi sifatida ishga jalb qilingunga qadar bo‘lgan oraliq davr) jinoyatchiga ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilingani uchun jazo xavfi yuzaga keladi. Ikkinchi bosqichda (shaxsni ayblanuvchi sifatida ishga jalb qilinganidan to ishni sudga topshirilguniga qadar) jinoyatchini jazoga tortishga hozirlanadi. Uchinchi bosqichda (sud protsessidan to hukm ijroga topshirilguniga qadar) mahkum sud tomonidan belgilangan muayyan tur va miqdordagi jazo bilan jazolanadi. To‘rtinchi bosqich (sud ayblovi hukmi qonuniy kuchga kirganidan to jazo muddati tugagunigacha yoki muddatidan avval jazodan ozod qilingunga qadar) jinoyatchi tomonidan jazo o‘tash jarayoni bo‘ladi. Nihoyat, jinoiy javobgarlikning beshinchi bosqichida (jazoni o‘tab bo‘lgan yoki jazodan muddatidan avval ozod qilinganidan to sudlanganlik holatining tugallanishi yoki olib

tashlanguniga qadar) jazoni ijro etish va sudlanishning oqibatlari namoyon bo‘ladi.

Jazo maqsadli davlat majburlov chorasi sifatida shaxsning huquq va erkinliklarini cheklash bilan birga uni qayta tarbiyalaydi ham, shuningdek, umumiy va maxsus tarzda ogohlantiradi.

Shunday qilib, jinoiy javobgarlikning jazolash tomoni hukm qilishdan kelib chiqqan, ammo unga nisbatan ikkinchi darajali, ya’ni jazo jinoiy javobgarlikning huquqiy oqibati bo‘lishi bilan birga sudlanish jazo qo‘llashsiz ham amalga oshirilishi mumkin.

Jinoiy javobgarlikning barcha bosqichlarida u yoki bu turdagi jazo to‘g‘risida so‘z borar ekan, u aksariyat hollarda davlat majburlov chorasining asosiy ko‘rinishi, jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning asosiy shakli hisoblanadi.

NOTA BENE !

Boshqa jinoiy-huquqiy ta’sir choralariga tibbiy yo‘sindagi hamda voyaga yetmaganlarga nisbatan tarbiyaviy xarakterda bo‘lgan majburlov choralarini kiritishimiz mumkin.

Ushbu majburlov choralarining asoslari, maqsad va vazifalari haqida to‘xtalmasdan, ular qaysi hollarda jinoiy javobgarlikni yuzaga keltirishi va buning huquqiy oqibati haqida to‘xtalsak, ularning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) bu choralarni qo‘llash yoki jinoiy jazoni istisno qiladi (muomalaga layoqatsizlar va voyaga yetmaganlar uchun) yoki jazoni vaqtincha to‘xtatadi (ayblov hukmi kuchga kirganidan so‘ng surunkali ruhiy kasallikka duchor bo‘lgan shaxslar uchun) yoxud jinoiy jazoni ijro etish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi (alkogolizm yoki giyohvandlikka chalinganlik tashxisi bor shaxslar uchun);

2) qaysi shaxslar davlat majburlovining ushbu choralariga tortilishi lozim bo‘lsa, ularning xohishidan qat’i nazar tortiladi, bosh tortgan taqdirda davlat tomonidan huquqiy ta’sir chorasi ko‘riladi;

3) bu choralarni qo‘llash sud organlari tomonidan amalga oshiriladi;

4) mazkur choralarni qo‘llash jazo sifatida ko‘rinmaydi va sudlanganlikni keltirib chiqarmaydi, lekin jinoiy javobgarlikni istisno qilmaydi.

Ushbu huquqiy ta’sir choralarining bir qator jinoiy jazoga o‘xshash tomonlari mavjud, ammo ular umumiy jihatdan bir-biridan farq qiladi. Huquqiy ta’sir choralarining jinoiy jazo bilan o‘xshashliklari quyidagilarda ko‘rinadi:

– mazkur huquqiy ta’sir choralari jazo singari jinoiy javobgarlikni amalga oshirish shakllaridan hisoblanadi;

– jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini qo‘llashning asosi – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi sanaladi;

– bu choralarni huquqiy tartibga solish va qo‘llash jinoyat qonuni bilan amalga oshiriladi;

– bu ta’sir choralarini qo‘llashning bevosita huquqiy asosi – sud organlarining qonuniy hujjatidir;

– ushbu huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash jinoyat sodir etgan shaxslar muayyan huquqlarining cheklanishini nazarda tutadi.

Mazkur huquqiy ta’sir choralarining jinoiy jazodan asosiy farqi shuki, garchi ular jinoiy javobgarlikni amalga oshirish shakli sanalsa ham, bu choralar sudlanganlikni keltirib chiqarmaydi.

Huquqiy ta’sir choralari ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishning huquqiy oqibatidir. Ushbu choralar aksariyat hollarda, umumiy va xususiy ogohlantiruv mazmunida bo‘ladi. Aybdor shaxs sud tomonidan aqli noraso deb topilgan taqdirda tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari ko‘rinishida huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishi to‘g‘risidagi masala qo‘yiladi. Xolbuki, mazkur choralarning asosiy maqsadi kelajakda jinoyat sodir qilinishining oldini olishdan iborat bo‘ladi. Shu sababli huquqiy ta’sir chorasini jazo deb baholash noto‘g‘ridir. Shu bilan birga bu huquqiy ta’sir choralari shaxsning huquqlarini chegaralab qo‘yadi va hech qanday so‘zsiz ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning kelajakdagi jinoyatining oldini oladi. Jinoiy javobgarlik ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining huquqiy oqibati ekan, huquqiy ta’sir choralari ham sodir etilgan jinoyat oqibatidir.

JK 16-moddasi 1-qismiga ko'ra, jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari aybdorga nisbatan faqat sud tomonidan qo'llanadi. Jinoiy javobgarlikning mazmuni sud javobgarligini ham o'z ichiga oladi.

«Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi» (Konstitutsiyaning 26-moddasi)¹. Bundan tashqari, Konstitutsiya qoidalariga asoslangan JPK 12-moddasiga muvofiq, jinoiy ishlari bo'yicha odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi. Shu sababli bu norma jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lmay, faqat jinoiy-protsessual ahamiyatga ega deyish noto'g'ri bo'ladi.

Konstitutsiya ham JPK singari jinoiy javobgarlikning muhim belgisi bo'lgan **jazoning sud tomonidan qo'llanilishini** qayd etgan. Shu jumladan, **JK 16-moddasi 1-qismida** ushbu qoida jinoiy javobgarlikning eng muhim belgisi qilib belgilangan.

Sud tomonidan ayblov hukmining chiqarilishi (uning qonuniy kuchga kirishi) jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiruvchi formal tarkibning oxirgi belgisi hisoblanadi. Bu holat formal va moddiy ahamiyatga ega.

Formal ahamiyatga egaligi – jinoiyat qonuni jinoiy javobgarlikni jinoiyat sodir etgan shaxsni aybdor deb topilishi bilan bog'laydi.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 7 б.

Moddiy ahamiyatga egaligi shundaki, aynan shu holatda, shu daqiqada jinoyat-huquqiy munosabat yuqori darajada aniqlanib, jinoiy javobgarlik tarkibiga aylanadi. Sud ayblov hukmi chiqarish orqali davlat bilan sudlangan shaxsning o‘zaro huquq va majburiyatlarida bevosita davlatning jazo choralarini qo‘llash funksiyasini amalga oshiradi. Jinoiy javobgarlikning mazmun-mohiyati jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxsni tayinlangan jazo muddatini o‘tash majburiyatida ifodalanadi. Bu majburiyat shaxs sud hukmi qonuniy kuchga kirganidan boshlab, to sudlanganlik muddati tugaganda yoki tegishli ravishda olib tashlanganda namoyon bo‘ladi. Javobgarlikning amalga oshirilish usullaridan biri ayblov hukmida ko‘rsatilgan jazo turi va miqdorini o‘tab chiqish majburiyatini yuklash hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jinoiy javobgarlik shakli – jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxsni davlat nomidan sud qilish, ommaviy tanbeh berish.

NOTA BENE !

Jinoiy javobgarlikning mazmuni javobgarlikka tortilgan shaxs bilan davlat o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro huquq va majburiyatlar yig‘indisida ifodalanadi.

Jinoiy javobgarlik faqatgina sud hukmida ko‘rsatilgan jinoyat-huquqiy munosabatlar doirasidagi huquq va majburiyatlarni ifodalaydi. Jinoiy javobgarlik sud hukmi bilan shaxs aybdor deb topilgan vaqtdan boshlab (hukmning qonuniy kuchga kirishi bilan) vujudga keladi.

2-§. Jinoiy javobgarlik asosi sifatida jinoyat tarkibi: tushunchasi va ahamiyati

Jinoyat-huquqiy munosabatlarning eng muhim xususiyati bu jinoyatni kvalifikatsiya qilish hisoblanadi. **JK 16-moddasi 2-qismiga** muvofiq, jinoiy javobgarlikka tortishning yagona asosi JKda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etishdir. Bu

holatda qonun chiqaruvchi jinoiy javobgarlikning ham faktik asosi (shaxs tomonidan sodir qilingan qilmish), ham normativ asosini (Maxsus qismning tegishli moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi) ko'rsatgan. Sodir etilgan qilmish bilan Maxsus qism tegishli moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining muvofiqligi maxsus vakolatli davlat organlariga aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish borasidagi huquq va majburiyatlarni amalga oshirish uchun imkon beradi. Aynan jinoyat tarkibi jinoiy javobgarlikning asosi bo'lib hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jinoyat tarkibi deganda, aniq ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb baholash uchun zarur bo'lgan obyektiv va subyekt elementlar yig'indisi tushuniladi. Bu elementlar jinoyat qonunida mustahkamlanganligi bois, u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishning jinoyat deb baholanmog'i uchun zarur hisoblanadi.

Albatta, qonun chiqaruvchi jinoyat tarkibini shakllantirishda jinoyatning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqadi.

Jinoyat tarkibi – jinoiy javobgarlikning asosi bo'laturib, istalgan jinoyatni kvalifikatsiya qilishning muhim sharti – yuridik asosi bo'lib xizmat qiladi. Jinoyat tarkibining tarkib deb nomlanishining asosiy sababi shundaki, unda jinoyatning **obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyekt tomoni** degan tushunchalar (elementlar) bir butun holda mujassamlashgan. Bularning barchasi ijtimoiy hayotning ayrim (ijtimoiy xavfli) holati bo'lgan jinoyatni tashkil qiladi.

Jinoyatning aniq tarkibida shu jinoyatning o'zigagina xos bo'lgan umumiy belgilar mavjud bo'lib, bu belgilar haqiqatda sodir etilayotgan har bir qilmishda o'z aksini topadi. Jinoyat qonunida jinoyat tarkibini tashkil etadigan bu belgilar, birinchidan, ushbu turdagi har bir ijtimoiy xavfli qilmishda takrorlanadi, ikkinchidan, ahamiyatli hisoblanadi, uchinchidan, ijtimoiy xavflilikni ifodalaydi.

Har bir aniq jinoyatning tarkibi va belgilari jinoyat qonuni – JK Umumiy va Maxsus qismi moddalarida nazarda tutilgan. Maxsus qism

moddalarida har bir jinoyatning tarkibi individual ravishda ifodalanib, bu tarkibning boshqa jinoyat tarkiblaridan farqini namoyon qilsa, Umumiy qism moddalari barcha yoki bir guruh jinoyat tarkiblarining belgisini ifodalaydi.

Jinoyat tarkibi umumijtimoiy va jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega.

Jinoyat tarkibining **umumijtimoiy ahamiyati** jinoyat tarkibini tashkil etuvchi belgilar birligida ifodalanuvchi xulq-atvorga nisbatan jamiyat, davlat va tegishli huquq normasining salbiy munosabatida namoyon bo'ladi, ya'ni jinoyat tarkibi – bu taqiqlovchi norma yoki jamiyat a'zosining xulq-atvor me'yorida.

Jinoyat tarkibining **jinoyat-huquqiy ahamiyati** bir qator holatlarda ifodalanadi:

– birinchidan, u sodir qilingan qilmishni baholash, aniqrog'i jinoyatni kvalifikatsiya qilishning qonuniy asosidir. Jinoyat tarkibi – sodir bo'lgan hodisa (holat)ni solishtirish uchun etalon (o'lchov birligi) hisoblanadi;

– ikkinchidan, jinoyatni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibi muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonni ro'yobga chiqaruvchi sud-tergov xodimlari sodir bo'lgan holat belgilarini JK tegishli moddalarida belgilangan jinoyat tarkibi bilan solishtirgan holda kvalifikatsiya qiladilar;

– uchinchidan, jinoyat tarkibining to'g'ri aniqlanishi jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'ladi. Kvalifikatsiya qilish haqiqatda sodir etilgan qilmishni qonunda ko'rsatilgan belgilar bilan solishtirib, boshqalar uchun shunga o'xshash qilmishlarni sodir qilishni taqiqlashga imkon beradi;

– to'rtinchidan, bir tomondan muayyan jinoyat tarkibi belgilarini, ikkinchi tomondan sodir bo'lgan jinoyat tarkibi belgilarining bir-biriga mosligini qayd etish jinoyat sodir qilgan shaxs huquqlari kafolatlaridan biridir, ya'ni uning o'z qilmishini qonunga muvofiq kvalifikatsiya qilishni talab qilish huquqini ifodalab beradi;

– beshinchidan, jinoyat tarkibi va uning belgilarining aniqlanishi sud-tergov amaliyotida jinoyat-huquqiy normani qo'llashda qonuniylik prinsipining kafolatidir.

3-§. Jinoyat tarkibining tuzilishi. Jinoyat tarkibining zaruriy va fakultativ belgilari

Qilmish o‘z-o‘zidan jinoyat deb topilmay, qonun chiqaruvchi tomonidan chiqarilgan jinoyat-huquqiy normalarda, aniqrog‘i, JK Maxsus qismi aniq moddalarida belgilangan jinoyat belgilari bilan solishtirilgandan keyingina shunday to‘xtamga kelish mumkin.

Jinoyat tarkibining barcha belgilarini tashkil etuvchi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarli asosdir, ya‘ni jinoyat-huquqiy ta‘qibni amalga oshiruvchi organ gumonlanuvchi (ayblanuvchi)ni jinoiy javobgarlikka tortish uchun uning qilmishida jinoyat tarkibi mavjudligini aniqlashi lozim.

JK Maxsus qismi moddalari jinoyatning konstruksiyasini, ya‘ni obyektiv va subyekt elementlarini ajratib ko‘rsatadi.

Jinoyat tarkibi elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- jinoyat obyekti;
- jinoyatning obyektiv tomoni;
- jinoyatning subyekt tomoni;
- jinoyat subyekti.

Obyektiv elementlarga jinoyat tarkibining obyekti va obyektiv tomoni kiradi.

Subyekt elementlarga subyekt va subyekt tomon kiradi.

Jinoyat tarkibi elementlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Agar sodir etilgan qilmishda yuqorida ko‘rsatilgan elementlardan birortasi mavjud bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikka tortishga asos ham bo‘lmaydi.

Boshqa barcha holatlar (aybdorning shaxsini ifodalovchi va boshqa holatlar) jinoiy javobgarlikka tortishda ahamiyatga ega emas. Ammo bu holatlar sud tomonidan jazo tayinlashda e‘tiborga olinishi mumkin. Qilmishda jinoyat tarkibining mavjud emasligi jinoyat qidiruv ishlari olib borilishini taqozo etmaydi. Agar jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, jinoyat tarkibi yo‘qligi sababli tugatilishi lozim.

Har bir jinoyat tarkibida uning elementlarini va umuman tarkibni tashkil etadigan va muayyan jinoyat tarkibiga xos bo‘lgan belgilar mavjud.

Obyektiv va subyekt elementlar zaruriy va fakultativ belgilarga ega.

NOTA BENE !

Zaruriy belgilar jinoyat tarkibi mavjud bo'lishi uchun zarur bo'lgan belgilar bo'lib, ularning yig'indisi qilmishni jinoyat deb hisoblash uchun minimal va yetarli bo'lgan ijtimoiy xavfliligini tashkil qiladi.

Ushbu belgilarning hatto bittasi mavjud bo'lmasa ham jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos ham bo'lmaydi. Bularga quyidagilar kiradi: jinoyat obyekti; formal jinoyat tarkibining obyektiv tomonida – qilmish (harakat yoki harakatsizlik); moddiy jinoyat tarkibining obyektiv tomonida esa, qilmish, oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish; tarkibning subyekt tomonida – qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ayb; subyektda – «umumiy» subyektning alomatlari, ya'ni qonunda nazarda tutilgan yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs.

NOTA BENE !

Fakultativ belgilar – jinoyat tarkibining mavjudligini anglatmaydigan, kvalifikatsiyaga ta'sir etmaydigan, lekin jazoni individuallashtirishda hisobga olinadigan belgilar.

Fakultativ belgilarga quyidagilar kiradi: jinoyat predmeti; formal jinoyat tarkibining obyektiv tomonida – jinoiy oqibatlar, sababiy bog'lanish, jinoyat sodir etish vaqti, joyi, usuli, vositasi, quroli, sharoiti, moddiy jinoyat tarkibining obyektiv tomonida esa faqatgina jinoyat sodir etish vaqti, joyi, usuli va boshqa tashqi holatlar; subyekt tomonida – motiv va emotsional holat; subyektda – maxsus subyektning belgilari.

Jinoyat-huquqiy normalar dispozitsiyasida fakultativ belgilar ko'rsatilishi ham, ko'rsatilmasligi ham mumkin. Agar Maxsus qism moddalari dispozitsiyasida ushbu belgilar ko'rsatilgan bo'lsa, qilmishni o'sha belgisiz kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. Masalan, JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandi tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish uchun javobgarlikni nazarda tutadi. Qilmishni ushbu modda bilan kvalifikatsiya qilish uchun tamagirlik niyatini o'zida ifodalagan motivni aniqlash zarur. Mazkur belgi umumiy qoidaga ko'ra fakultativ, biroq dispozitsiyada

to'g'ridan- to'g'ri ko'rsatilganligi uchun zaruriy belgi bo'lib kelyapti. Yanada aniqroq qilib aytganda, tamagirlik niyatidagi motiv bo'lmasa, JK 97-moddasi 2-qismi «i» bandidagi jinoyat tarkibi ham mavjud bo'lmaydi. Yoki bo'lmasa, masalan, o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash yoki ularga qonunga xilof ravishda egalik qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarda (JK 247–248-moddalari) jinoyat predmeti zaruriy belgi hisoblanadi.

4-§. Jinoyat tarkibining turlari

Jinoyat qonuni – JK Maxsus qismi moddalarida ifodalanishiga ko'ra jinoyat tarkibi uchta asos bo'yicha tasniflanadi:

- ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra;
- tavsiflanish usuliga ko'ra;
- tuzilishining xususiyatiga ko'ra.

Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra jinoyat tarkibi uch turga bo'linadi: asosiy; yengillashtiruvchi; og'irlashtiruvchi (alohida og'irlashtiruvchi). Bu tasniflash xarakteri jihatdan o'xshash bo'lgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasini cheklangan doirada individuallashtirishga, aybdorni jazolash va kvalifikatsiyaning aniqligini ta'minlashga imkon beradi.

Asosiy tarkib – bu shunday jinoyat tarkibiki, uning belgilari shunday jinoyat yoki jinoyatlar guruhidagi barcha jinoyatlar uchun xosdir. Masalan, JK 97-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan qasddan odam o'ldirish JK 97-moddasi 2-qismi, shuningdek, JK 98–101-moddalaridagi jinoyatlarga nisbatan asosiy tarkibli jinoyat hisoblanadi.

Yengillashtiruvchi tarkib yengillashtiruvchi belgilarga ega bo'ladi. Masalan, JK 98–101-moddalarida nazarda tutilgan jinoyat tarkiblari – kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish, onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi.

Og'irlashtiruvchi (alohida og'irlashtiruvchi) tarkib – og'irlashtiruvchi belgilarga ega bo'lgan jinoyat tarkibi. Masalan, JK 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyatlar tarkiblari – ikki yoki undan ortiq shaxsni bir guruh shaxslar tomonidan tamagirlik niyatida o'ldirish.

Yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi tarkiblar jinoyatning asosiy tarkibiga bog'liq ravishda ta'riflanadi.

Tavsiflanish usuliga ko'ra jinoyat tarkibi ikkiga bo'linadi: oddiy va murakkab.

Oddiy tarkib – bir obyekt, bir qilmish, bir oqibat va bir ayb shakliga ega jinoyat tarkibidir. Masalan, o'g'rilik (JK 169-moddasi 1-qismi).

Murakkab tarkiblarda elementlar sonining ortishi (masalan, ikkita obyekt, ikkita qilmish, ikkita oqibat, ikkita ayb shakli); jinoyat sodir qilish protsessining uzayishi (davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar); elementlarning muqobilligi; bitta tarkib doirasida bir necha oddiy tarkiblarning mavjudligi (tarkibli jinoyatlar) bilan bog'liq ravishda ko'p elementlilik yuzaga keladi.

Ko'p obyektli jinoyat tarkiblarida tajovuz ikki yoki undan ortiq jinoyat-huquqiy normalar bilan qo'riqlanadigan obyektga qaratiladi. Mulk va ijtimoiy xavfsizlikka tahdid soluvchi JK 247-moddasida ko'rsatilgan jinoyat tarkibi (o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash) ko'p obyektli jinoyatga misol bo'ladi.

Ikki yoki undan ortiq harakatni nazarda tutuvchi murakkab jinoyat tarkiblari aniq bir jinoyatni ikki yoki undan ortiq harakat bilan sodir etishni nazarda tutadi. Masalan, nomusga tegishda (JK 118-moddasi) jinsiy aloqa zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining ojizligidan foydalanib qilinadi.

Ikki yoki undan ortiq oqibatni nazarda tutuvchi jinoyat tarkibiga jabrlanuvchining o'lishiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish uchun javobgarlikni belgilaydigan JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandidagi jinoyat tarkibini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ikkita ayb shakliga ega bo'lgan jinoyat tarkibida obyektiv tomon murakkablashgan bo'ladi. Bunda qasddan sodir etilgan jinoyat oqibatida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqqanligi uchun qonun javobgarlikni og'irlashtiradi (JK 23-moddasi). Masalan, jabrlanuvchining o'lishiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandi).

Muqobil tarkiblarda bir qator qilmishlar nazarda tutiladiki, ulardan birini sodir qilish, jinoyatni tugallangan deb topish va jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarlidir. Masalan, monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi JK 183-moddasiga muvofiq, ushbu jinoyat monopoliyaga qarshi faoliyat olib borish vakolati berilgan organga axborotlar bermaslik yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni bila turib taqdim qilish orqali, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin, sodir qilinishi mumkin. JK 256-moddasiga ko'ra, ilmiy tadqiqot yoki sinov tajriba faoliyatini amalga oshirish vaqtida xavfsizlik qoidalarini buzishdan iborat bo'lgan jinoyat tarkibi mazkur moddaning 1-qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan oqibatlar yuz bergan, shu jumladan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilgan holdagina mavjud bo'ladi.

Tarkibli jinoyatlar ikki yoki undan ortiq oddiy mustaqil jinoyatlardan iborat bo'lgan jinoyatlardir, ular alohida olinganida har biri mustaqil jinoyat tarkibini tashkil etadi. Bunday belgilarga zo'rlik ishlatish bilan bog'liq bo'lgan talonchilik jinoyatining tarkibi (JK 166-moddasi 2-qismi) ega, unda o'zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-toroj qilishdan iborat jinoiy maqsadga hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish orqali erishiladi. Yoki masalan, bezorilik jinoyati (JK 277-moddasi) badanga tan jarohati yetkazish va o'zganing mulkini nobud qilishni qamrab oladi.

Tuzilishining xususiyatiga qarab jinoyat tarkiblari uchta turga bo'linadi: formal, moddiy va kesik.

Oqibatni qamrab olmagan va faqat qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dan iborat bo'lgan jinoyat tarkibi **formal tarkib** hisoblanadi. Masalan, urushni targ'ib qilish (JK 150-moddasi), agressiya (JK 151-moddasi) va boshqalar. Formal tarkibli jinoyatlarda faktik oqibatlar kelib chiqqanligiga qaramay qilmish sodir etilgan vaqt jinoyat tamom bo'lgan vaqt deb hisoblanadi.

Moddiy tarkib JK Maxsus qismi moddalarida nazarda tutilgan qilmish natijasida yuzaga keladigan oqibat hamda qilmish va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni qamrab oladi. Masalan, qasddan badanga

o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 105-moddasi) yoki ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (JK 193-moddasi) va boshqalar. Moddiy tarkibli jinoyatlarda dispozitsiyada ko‘rsatilgan oqibat yuzaga kelishi bilan jinoyat tamom bo‘lgan hisoblanadi.

Kesik tarkibda jinoyatning oxiriga yetgan vaqtini qonun oldingi bosqichga ko‘chiradi. Masalan, bosqinchilik (JK 164-moddasi) yoki jinoiy uyushma tashkil etish (JK 242-moddasi) va boshqalar.

Jinoyat tarkibini bunday tasniflash ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega, zero shu yo‘l bilan jinoyat qonunining odillik (JK 8-moddasi), insonparvarlik (JK 7-moddasi) kabi muhim prinsiplari ro‘yobga chiqadi va jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishning muhim sharti hisoblanadi.

Yana shuni ta’kidlash lozimki, jinoyat huquqi nazariyasiga muvofiq, elementlarning aniq va baholovchi belgilarini ko‘rsatuvchi jinoyat tarkiblari ajratiladi.

Elementlarning aniq belgilarini ko‘rsatuvchi jinoyat tarkiblarida barcha belgilar Maxsus qism moddalari dispozitsiyasida ijtimoiy xavflilik nuqtai nazaridan aniq ko‘rsatiladi. Bu qonunda «ko‘p miqdor» yoki «juda ko‘p miqdor» kabi qolipli so‘zlarni qo‘llashda ifodalanadi. Ular eng kam oylik ish haqi miqdoridan kelib chiqadi.

Elementlarning baholovchi belgilarini ko‘rsatuvchi jinoyat tarkiblarida xavflilik darajasini qonunda aniq ko‘rsatishning iloji yo‘q. Bunda ijtimoiy xavflilik darajasi sud yoki doktrinal sharhlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, «fuqarolar, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga jiddiy zarar», «o‘ta shafqatsizlik», «shaxsiy manfaatlar» kabi atamalar sud tomonidan sharhlanishga muhtoj.

«Jinoiy javobgarlik va uning asoslari» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar

1. Jinoiy javobgarlik nima?
2. Jinoiy javobgarlik va jinoyat-huquqiy munosabatning o‘zaro nisbati nimadan iborat?

3. Jinoiy javobgarlikning huquqiy oqibatlari nimadan iborat? Uni amalga oshirishning oxirgi bosqichi qanday?

4. Jinoiy javobgarlikning asosi nima?

5. Jinoyat tarkibi deganda nima tushuniladi? Uning umumijtimoiy va jinoyat-huquqiy ahamiyati nimada?

6. Jinoyat tarkibining qanday elementlari mavjud? Jinoyat tarkibi elementi va belgisining o'zaro nisbati nimadan iborat?

7. Jinoyat tarkibining zaruriy va fakultativ belgilari soniga nimalar kiradi?

8. Jinoyat tarkibi fakultativ belgilarining ahamiyati nimadan iborat?

9. Jinoyat tarkiblarini tasniflashning qanday asoslari mavjud?

10. JKda asosiy, yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi jinoyat tarkiblarining mavjud bo'lishini aniq misollar bilan isbotlang.

11. O'ta og'irlashtiruvchi jinoyat tarkibi nima?

12. Oddiy va murakkab jinoyat tarkiblarining o'zaro nisbati nimadan iborat?

13. JK Maxsus qismida ko'p obyektli jinoyat tarkiblarini, ikki yoki undan ortiq harakat bilan, ikki yoki undan ortiq oqibat bilan, ikkita ayb shakliga ega bo'lgan, muqobil jinoyat tarkiblarini hamda tarkibli jinoyatlarni toping.

14. JK Maxsus qismida formal, moddiy va kesik tarkibli jinoyatlarni toping. Formal va kesik tarkibli jinoyatlar o'rtasidagi farq nimadan iborat?

15. JK Maxsus qismida elementlarning baholovchi belgilarini ko'rsatuvchi jinoyat tarkiblarini toping.

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Горлач М.Ю. Реализация юридической ответственности: вопросы теории и практики: Монография. – Орел: Орловский юридический институт МВД России, 2003. – 116 Б.

Гаухман Л.Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. 2-е изд., переработанное и дополненное. – М.: АО «Центр ЮрИнфор», 2003. – 448 Б.

Кругликов Л.Л., Васильевский А.В. Дифференциация ответственности в уголовном праве. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 300 Б.

Поляков И.Н. Ответственность по обязательствам вследствие причинения вреда. – М.: 1998. – 172 Б.

Сперанский К.К. Теория и практика квалификации преступлений. – Краснодар: 1999. – 120 Б.

Чистяков А. Механизм формирования основания уголовной ответственности: Монография. – Рязань: 2000. – 149 Б.

Чистяков А. Уголовная ответственность и механизм формирования ее основания: Монография. – М.: 2002. – 275 Б.

Ilmiy maqolalar

Дворецкий М.К. К вопросу о видах уголовной ответственности // Ж. Российский следователь. 2007. № 2. – 40-б.

Кабулов Р. Понятие и значение состава преступления по уголовному праву Республики Узбекистан. // Ж. Ҳуқуқ–Право–Law. 2002. № 5. – 25–26-б.

Ляпунов Ю. Состав преступления: гносеологический и социально-правовой аспекты // Ж. Уголовное право. 2005. № 5. – 54–58-б.

Марцев А. Состав преступления: структура и виды // Ж. Уголовное право. 2005. № 2. – 54–58-б.

Рахмонкулов А.Х. Виды юридической ответственности по законодательству Республики Узбекистан // Ж. Қонун номи билан. 2000. № 2–3. – 93–96-б.

Рахмонкулов А.Х. О формировании содержания понятия юридической ответственности // Ж. Ҳуқуқ–Право–Law. 2000. № 2. – 45–50-б.

V BOB. JINOYAT OBYEKTI

1-§. Jinoyat obyektini tushunchasi va ahamiyati

JK Maxsus qismida nazarda tutilgan har qanday jinoyat kimgadir yoki nimagadir qaratilgan tajovuz hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jinoyat obyektini – jinoiy tajovuz qaratilgan va ana shu tajovuz orqali unga zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy munosabatdir.

Jinoyat obyektini jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan **ijtimoiy munosabatdir**. Ushbu ijtimoiy munosabatlar **JK 2-moddasida** ma‘lum qadriyatlar tariqasida hamda JK Maxsus qismi bo‘lim (8-bo‘limdan tashqari) va boblari nomlanishida ifodalangan.

Ijtimoiy munosabatlar insonlar o‘rtasida ularning hayoti faoliyati jarayonida vujudga keladigan aloqalardir. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatning mavjudligi jarayonida shakllanib boradi. Ular qonun tufayli, jumladan, jinoyat qonuni tufayli yuzaga kelmaydi, ammo qonun ularning rivojlanishi, shakllanishi va shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari bilan mosligini mustahkamlashga zamin yaratishi mumkin.

Ijtimoiy munosabatlarni jinoyat qonuni o‘z himoyasiga olganida, ular jinoyat-huquqiy muhofaza obyektini deb e‘lon qilinadi va ma‘lum shartlarda potentsial jinoyat obyektini bo‘lishi mumkin, shuningdek, bir ijtimoiy munosabat bir yoki bir necha jinoyat obyektini bo‘lishi mumkin.

Jinoyat sodir etilayotganda jinoyat-huquqiy norma buziladi. Ammo u ikkilamchi, chunki doimo ijtimoiy munosabat birlamchidir. Zero, jinoyat-huquqiy norma ijtimoiy munosabatni muhofaza qilish uchungina mavjuddir. Jinoyat jinoyat-huquqiy normani buzishga emas, balki ijtimoiy munosabatga zarar yetkazishga qaratiladi. Jinoyat obyektini esa, jinoyat zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan narsadir.

Bu holatda obyektini moddiy deb o‘ylamaslik lozim. Jinoyat obyektini – ijtimoiy kategoriya va u hech qanday moddiy alomatlariga ega emas, ijtimoiy munosabatlar esa, xuddi shunday kategoriyadir.

Bir qator hollarda, masalan, xususiy mulk huquqi fuqarolik huquqi yoki boshqa huquq sohalarida ijtimoiy munosabatlar huquqning boshqa tarmoqlari normalarida belgilab qo'yiladi.

Ijtimoiy munosabat jinoyat obyektini sifatida bir necha tarkibiy elementlarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy munosabat mavjudligining sababi bo'lgan predmet;
- ijtimoiy munosabat subyekti;
- ijtimoiy munosabat tarkibi sifatida ijtimoiy aloqa.

Jinoyat obyektini sifatida ijtimoiy munosabatlarga bir qator belgilar xos bo'lib, ular yordamida jinoyat obyektini deb e'lon qilingan ijtimoiy munosabatlarni ajratish, ularning mohiyatini ochish, ularning boshqa jinoyat-huquqiy kategoriyalar bilan chegarasini belgilash va nihoyat, jinoyat obyektiga yetkaziladigan zarar xususiyatini aniqlash mumkin.

Birinchi, jinoyat obyektini deb e'lon qilingan ijtimoiy munosabatlar o'zida jamiyatda yuzaga kelgan qimmatli mezon asoslarini tasvirlaydi. Jinoyat qonunida belgilangan muhofaza obyektlarining qanchalik qattiq qo'riqlanishiga qarab, jamiyatdagi eng muhim, birinchi darajali ijtimoiy munosabatlarni bilib olish mumkin. Bu ko'p jihatdan ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qiluvchi normalar ketma-ketligiga ham bog'liq. Xususan, qonunchilik bu ketma-ketlikni **JK 2-moddasidagi** prinsipga asosan amalga oshiradi.

Ikkinchi, qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat obyektini sifatida faqat eng muhim, qiymati yuqori va davlat muhofazasiga muhtoj ijtimoiy munosabatlar tan olinadi. Shunga e'tiborni qaratish lozimki, jinoyat obyektini deb e'lon qilinadigan ijtimoiy munosabatlarning aksariyati umuminsoniy qadriyatlardir, masalan, shaxsning jismoniy va ma'naviy daxlsizligiga oid munosabat va boshqalar.

Uchinchi, jinoyat obyektini ijtimoiy kategoriya bo'lib, hech qanday moddiy ahamiyatga ega emas, ya'ni jinoyat obyektini jinoyat predmetidan farqlash mezonidir.

To'rtinchi, jinoyatning obyektiga nisbatan ta'sir etish mexanizmi shundan iboratki, jinoyat sodir etilayotganda jinoyat obyektini sifatida ijtimoiy munosabat parchalanib, yo'qolib ketmay, faqatgina buziladi.

Masalan, odam o'ldirish jinoyatida shaxs o'ldiriladi, ammo u jinoyat obyektini sifatida yo'q qilib yuborilmaydi (inson hayotini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar). Bundan kelib chiqadiki, jinoyat obyektining subyekti (ijtimoiy munosabatning tarkibiy qismi sifatida) jamiyatning har bir a'zosi hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jinoyat obyektini jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan eng ustuvor va ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan umumlashgan holda sof ijtimoiy kategoriya bo'lgan **ijtimoiy munosabat** bo'lib, jinoyat sodir etilishi natijasida ularga zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazilishi xavfi ostida qoladi.

Jinoyat obyektining ahamiyati shundaki, u har bir jinoyatning zaruriy elementi bo'lib, birinchi navbatda, aniqlanishi lozim. Tajovuz obyektisiz hech qanday aniq jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi. Jinoyat obyektini to'g'ri aniqlash qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va jinoyat tarkibini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek, jinoyat qilmishlarni ma'muriy huquqbuzarliklardan farqlash imkoniyatini beradi.

Jinoyat obyektini haqiqatan zarar yetkaziladigan yoki zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabatni aniqlashga, ya'ni jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatini aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, jinoyat obyektini alomatlariga qarab JKning Maxsus qismi ishlab chiqilgan. Shunga binoan, jinoyat qonunchiligini kodifikatsiya qilishda jinoyat obyektining o'rnini baholamaslik mumkin emas.

2-§. Jinoyat obyektining turlari

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat obyektini ikki xil tasniflash mumkin: hajmiga ko'ra, tarkibidagi elementlarning o'xshashligiga ko'ra va funksional xususiyatlariga ko'ra. Shartli ravishda ularni vertikaliga ko'ra va gorizontaliga ko'ra tasniflash deb atash mumkin.

Vertikaliga ko'ra jinoyat obyektini umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlarga bo'linadi.

NOTA BENE !

Umumiy obyekt deganda, jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar majmui tushuniladi.

Bu majmua **JK 2-moddasida** nazarda tutilgan bo‘lib, ular shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulkchilik, tabiiy muhit, tinchlik va insoniyat xavfsizligi va boshqalardir. Ularning jamiyat tomonidan qimmatli va ahamiyatli ijtimoiy munosabat sifatida baholanganligi ularni birlashtirib turadi. Shuning uchun jinoiy javobgarlikka tortish tahdidi bilan jinoyat qonuni tomonidan qo‘riqlanadi. Umumiy obyekt huquqni tatbiq etuvchiga jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan (masalan, ma‘muriy, intizomiy va boshqalar) u yoki bu ijtimoiy munosabatning muhimlik darajasidan kelib chiqqan holda ajratish imkoniyatini beradi.

Umumiy obyekt – alohida olingan va barcha jinoyatlar qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir.

NOTA BENE !

Maxsus obyekt – JK Maxsus qismining bir bo‘limiga kiritilgan moddalarda nazarda tutilgan, jinoyat tajovuz qiladigan, o‘z tabiatiga ko‘ra bir turdagi ijtimoiy munosabatlardir.

Maxsus obyekt JK Maxsus qismi tuzilishini shakllantirish va bo‘limlarga ajratishning asosiy mezoni hisoblanadi. JK muayyan bo‘limlari jinoiy qilmish qaratilgan maxsus obyektlarning o‘xshash va farqli jihatlariga ko‘ra tuzib chiqilgan. Maxsus obyekt JK Maxsus qismi tuzilishiga qarab, ulardagi ijtimoiy qadriyatlarning boshqa ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ustunligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Maxsus obyektlarning ketma-ketligi u yoki bu ijtimoiy munosabatlarning qadriligi va muhimligidan dalolat beradi. Bir turdagi ijtimoiy munosabatlarga qaratilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi JK Maxsus qismi bo‘limlari doirasida boblarning joylashuviga qarab aniqlanadi.

NOTA BENE !

Turdosh obyekt ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy qadriyatlar, qimmatlilik maxsus belgilariga qarab guruhlanishi bo‘lib, ayni paytda maxsus obyektning bir elementi hisoblanadi.

Turdosh obyekt – jinoyatlarning xususiyati bo‘yicha bir-biriga yaqin bo‘lgan obyekt turi. Amaliy va nazariy jihatdan bunday tasniflash tajovuzning darajasi va xususiyatini aks ettiradi. Masalan, shaxsga qarshi jinoyatlar (maxsus obyekt) o‘z ichiga shaxsning hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar (I bob), sog‘liqqa qarshi jinoyatlar (II bob), jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan jinoyatlar (IV bob) kabi tartibda joylashib, bular jinoyatning turdosh obyektini tashkil etadi. Ba’zi hollarda, Maxsus qism bo‘limi bitta bobdan iborat bo‘lgan taqdirda (masalan, 4-bo‘lim va XIV bob – ekologiya sohasidagi jinoyatlar) turdosh obyekt mavjud bo‘lmaydi, ya’ni u maxsus obyekt bilan birikkan bo‘ladi.

NOTA BENE !

Jinoyatning **bevosita obyekt**i deyilganda, ijtimoiy xavfli tajovuz sodir etilayotganda bevosita tajovuz qaratilgan ijtimoiy munosabat tushuniladi.

Aynan bevosita obyekt sud-tergov amaliyotida jinoyat tarkibining aniqlanishi lozim bo‘lgan qismidir. Bevosita obyekt JK Maxsus qismining moddalarida aks ettiriladi.

Gorizontal bo‘yicha obyektlarni tasniflash jinoyatning bevosita obyekt bilan bog‘liqdir, ya’ni umumiydan xususiylik orqali alohidalikka yoki aksincha. Ushbu tasniflashga ko‘ra asosiy, qo‘shimcha va fakultativ obyektlar farqlanadi. Bunday tasniflashning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, jinoiy tajovuz bir vaqtning o‘zida bir yoki bir necha obyektga qaratilgan bo‘lishi mumkin (masalan, bosqinchilik jinoyatida tajovuz bir vaqtning o‘zida ham mulkka, ham shaxsga qarshi qaratiladi). Bunday holatlarda, ijtimoiy xavfli qilmish odatda ikkita obyektga tajovuz qilib, ulardan biri albatta, **asosiy**, ikkinchisi esa **qo‘shimcha** obyekt bo‘ladi.

NOTA BENE !

Asosiy obyekt – JK moddasini tuzishda ushbu norma bilan maxsus himoyalangan ijtimoiy munosabat turi.

NOTA BENE !

Qo‘shimcha obyekt – JK Maxsus qismi tegishli moddalari bilan qo‘riqlanadigan asosiy obyektga tajovuz qilish natijasida xavf ostida qoladigan ijtimoiy munosabat turi.

Bunday chegaralash obyektning muhimlik darajasiga ko‘ra emas, balki maxsus obyekt bilan bog‘liqligiga qarab amalga oshiriladi. JK 164-moddasidagi bosqinchilik jinoyatida asosiy obyekt mulk huquqini tashkil etib, bu modda JK Maxsus qismining «o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish» deb nomlangan bobida joylashganligi uchun qo‘shimcha obyekt bo‘lib, shaxs, uning hayoti va sog‘liqi hisoblanadi.

Yoki, masalan, JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandida nazarda tutilgan jabrlanuvchining o‘lishiga sabab bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish jinoyatida tajovuz ikkita obyektga qaratiladi: shaxsning sog‘liqini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabat va shaxsning hayotini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabat. Bu obyektlarga nisbatan tajovuzning bo‘lmasligi moddaning aynan shu qismi va shu bandidagi jinoyat tarkibini istisno qiladi. Jabrlanuvchining o‘limi bir tomondan qo‘shimcha obyekt, ikkinchi tomondan aybdorning ijtimoiy xavfli qilmishi oqibati hisoblanadi.

Qo‘shimcha obyekt qilmishning kvalifikatsiyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ahamiyatga ega. Masalan, bosqinchilik jinoyatining qo‘shimcha obyektini uni mulkka qarshi qaratilgan jinoyatning boshqa bir turi – talonchilikdan farqlash imkoniyatini beradi.

NOTA BENE !

Jinoyatning **fakultativ obyektini** – alohida olingan jinoyatning asosiy obyektiga (ba‘zan qo‘shimcha) tajovuz qilishda zarar yetkazilishi mumkin yoki mumkin bo‘lmagan ijtimoiy munosabat turi.

Fakultativ obyekt jinoyat tarkibining zaruriy elementi emas va jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatga ega bo'lmaydi. Ba'zi hollarda jinoyat sodir qilinganida unga zarar yetkaziladi, boshqa hollarda esa yo'q, ya'ni biror-bir jinoyat sodir qilinganida obyektning bu turi mavjud bo'lishi yo bo'lmasligi ham mumkin.

Fakultativ obyektga zarar yetkazish aybdorga jazo tayinlashda va yetkazilgan zararni qoplashda hisobga olinadi.

3-§. Jinoyat predmeti

Jinoyat obyektini ijtimoiy munosabat sifatida jinoyat predmetini nazarda tutadi. Jinoyat-huquqiy muhofaza obyektiga qaratilgan tajovuz bevosita jinoyat predmetiga ko'chadi.

NOTA BENE !

Jinoyat predmeti – jinoyat obyektiga nisbatan tajovuz qilishda aybdor shaxs to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadigan, u tufayli yoki uning uchun jinoyat sodir qilingan obyektiv olamdagi jonli yoki jonsiz moddiy narsalar.

Har qanday jinoyat tarkibining zaruriy elementi bo'lgan jinoyat obyektidan farqli ravishda jinoyat predmeti fakultativ belgi hisoblanadi. Masalan, tuhmat (JK 139-moddasi), haqorat qilish (JK 140-moddasi), dezertirlik (JK 288-moddasi) kabi jinoyatlarda jinoyat predmeti mavjud emas. Agar jinoyat predmeti JK Maxsus qismi tegishli moddalarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa jinoyat tarkibining zaruriy elementi vazifasini bajaradi va kvalifikatsiyaga ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, kontrabanda (JK 246-moddasi), transport vositasini olib qochish (JK 267-moddasi) kabi jinoyat tarkiblarida jinoyat predmeti jinoiy javobgarlikka tortish bilan bevosita bog'liq.

Bunday holatlarda jinoyat tarkibining zaruriy elementi sifatida jinoyat predmeti ijtimoiy xavfli qilmishni kvalifikatsiya qilishda ahamiyatli rol o'ynaydi.

Jinoyat predmeti va jinoyat obyektini o'rtasidagi farq shundaki, jinoyat predmeti har doim obyektiv olamdagi moddiy narsadir, masalan, transport

vositasi, hujjatlar, hayvonlar, o'simliklar, jinoyat obyekti esa ijtimoiy kategoriya hisoblanadi. Agar jinoyat sodir etilishi natijasida jinoyat obyektiga zarar yetkazilsa yoki zarar yetkazish xavfi tu g'ilsa, jinoyat predmeti esa jinoyat oqibatida butunlay yo'q qilib yuborilishi (masalan, odam o'ldirish, JK 173-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda o't qo'yish) yoki o'zgarishsiz qolishi (masalan, transport vositasini olib qochish yoki ashyoni o'g'irlash) va hatto o'zining sifatini yaxshilashi mumkin.

Jinoyat predmetini jinoyat obyektiv tomonining belgilari bo'lmish jinoyat sodir etish quroli va vositalaridan farqlash lozim. Jinoyat predmeti jinoyat obyektiga tajovuz qilishda aybdor to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan narsadir. Masalan, o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (JK 247-moddasi) jinoyatida qurollar jinoyat predmeti hisoblanadi, uyushgan qurolli guruh tuzish (JK 242-moddasi 2-qismi) jinoyatida esa jinoyat sodir etish quroli hisoblanadi. Yoki masalan, transport vositasini olib qochish (JK 267-moddasi) jinoyatida avtomobil predmet bo'lib hisoblanadi, o'Qirlangan ashyoni tashishda esa jinoyat sodir etish vositasi hisoblanadi.

Jinoyat predmetining ahamiyati katta. Bundan tashqari, jinoyat predmeti kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatishi mumkin, u yaqin bo'lgan jinoyat tarkiblarini (masalan, kontrabanda va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish) bir-biridan ajratish asosi sifatida xizmat qiladi va jinoyat oqibatida yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini aniqlashga yordam beradi.

JK Maxsus qismi ayrim moddalarida jismoniy shaxs sifatida inson jinoyat predmeti sifatida nazarda tutiladi. Bunday hollarda jinoyatning jabrlanuvchisi haqida so'z yuritish mumkin. Bunda subyekt tajovuz qaratilgan ijtimoiy munosabatga aylanadi.

NOTA BENE !

Jabrlanuvchi – jinoyat bevosita qaratilgan, jinoyat natijasida zarar yetgan va zarar (jismoniy, mulkiy, ma'naviy) yetkazilish xavfi ostida qolgan shaxs.

Jabrlanuvchi ko'p hollarda shaxsga qarshi jinoyatlarda namoyon bo'ladi (odam o'ldirishda, tan jarohati yetkazishda, nomusga tegishda va boshqalarda). Jonsiz predmetlar singari jabrlanuvchi, aniqro g'i uning shaxsiy xususiyatlari, xulqi zaruriy va og'irlashtiruvchi belgi rolini bajargan holda qilmishni kvalifikatsiya qilishga, shuningdek, og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holat sifatida jazo miqdorini belgilashga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi jinoyatida jabrlanuvchi faqatgina yangi tug'ilgan chaqaloq bo'lishi mumkin. Shuningdek, ojiz ahvoldagi shaxsni o'ldirishda jabrlanuvchi faqatgina jinoyatchiga qarshilik ko'rsata olmaydigan yoki unga nisbatan sodir qilinayotgan qilmishning xususiyatini tushunishga layoqatsiz bo'lgan shaxs bo'lishi mumkin. Yoki masalan, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish jinoyatida o'lim jabrlanuvchining G'ayriqonuniy zo'rliigi yoki og'ir haqorati, shuningdek, boshqa G'ayriqonuniy harakatlari tufayli yuz bergan bo'lishi lozim.

«Jinoyat obyekti» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar

1. Jinoyat obyekti nima? Uning ahamiyati nimadan iborat?
2. Jinoyat obyektlarini tasniflash asosiga qanday mezonlar qo'yilgan?
3. Jinoyat obyektlarini vertikalligiga ko'ra va gorizontalligiga ko'ra tasniflash qanday obyektlarni o'z ichiga qamrab oladi?
4. JK Maxsus qismi bo'limlari va boblarining tuzilishi asosiga jinoyat obyektlarining qanday turlari qo'yilgan?
5. JK Maxsus qismining muayyan moddasi misolida asosiy va qo'shimcha obyektlarni aniqlang.
6. Fakultativ obyekt deganda nima tushuniladi? Fakultativ obyektning mavjudligini nazarda tutuvchi jinoyat tarkiblarining misollarini keltiring.
7. Jinoyat predmeti deganda nima tushuniladi?
8. Jinoyat obyekti va predmetining o'zaro nisbati nimadan iborat?
9. Jinoyat predmeti va jinoyatni sodir etishning qurollari va vositalari o'rtasidagi farq nimadan iborat?

10. «Jabrlanuvchi» tushunchasi nimani anglatadi? Shaxsning yoki jabrlanuvchi xulqining xususiyatlari sodir etilgan qilmishning kvalifikatsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Новоселов Г.П. Учение об объекте преступления. Методологические аспекты. – М.: НОРМА, 2001. – 208 Б.

Ilmiy maqolalar

Зателенин О. К вопросу о понятии объекта преступления в уголовном праве // Ж. Уголовное право. 2003. № 1. – 29–31-б.

Расторопов С. Понятие объекта преступления: история, состояние, перспектива // Ж. Уголовное право. 2002. № 1. – 37–40-б.

Рустамбаев М.Х. Объект и потерпевший в посягательстве на здоровье личности // Ж. Судебная экспертиза и вопросы борьбы с преступностью. – Т.: ТАШНИИСЭ. 1991. – 114–124-б.

VI BOB. JINOYATNING OBYEKTIV TOMONI

1-§. Jinoyatning obyektiv tomoni tushunchasi va ahamiyati

Har qanday jinoyat – inson xulq-atvorining tashqi ko‘rinishi, ya’ni ong va iroda nazorati ostida sodir qilinadigan harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishidagi qilmishdir.

JK Maxsus qismi norma va qoidalari o‘rganilganda, jinoyat tarkibining ko‘rib chiqilayotgan elementiga xos tomonlarni ko‘rish mumkin:

– birinchidan, obyektiv tomon jinoyat-protsessual tartibda isbot qilinadigan va o‘rnatiladigan, jinoyat obyektiga qarshi qaratilgan tajovuzni ta’riflaydigan jinoyatning belgilari majmuini ifodalovchi shaxs qilmishining tashqi ko‘rinishi;

– ikkinchidan, obyektiv tomonni ifodalaydigan belgilar (holatlar) ijtimoiy ahamiyatli hisoblanadi va qilmishning ijtimoiy xavfliligi hamda darajasini bildirib turadi;

– uchinchidan, bu belgilar umumiy ifodaga ega, ya’ni real voqelikda sodir qilinadigan jinoyatlardan kelib chiqadi;

– to‘rtinchidan, jinoyat tarkibining obyektiv tomoni yuridik ahamiyatga ega, chunki u jinoyat qonunida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda blanket dispozitsiya sifatida nazarda tutiladi.

NOTA BENE !

Jinoyat tarkibining **obyektiv tomoni** – tajovuzning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalaydigan, jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektga qarshi qaratilgan ijtimoiy xavfli tajovuzning tashqi holatini xarakterlovchi obyektiv, ijtimoiy va yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar yig‘indisidir.

Jinoyat obyektiv tomonining birinchi navbatdagi ahamiyati shundan iboratki, uni to‘g‘ri aniqlash ijtimoiy xavfli qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishning garovidir. Ta’kidlash joizki, JK Maxsus qismi moddalari dispozitsiyalarida jinoyat tarkibida boshqa elementlarga nisbatan obyektiv tomonning belgilari ko‘proq ifodalangan bo‘ladi. Bu belgilar jinoyatlarni

bir-biridan farqlash, buning natijasi sifatida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish mezoni hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida bitta obyektga qaratilgan bir xil ayb shakllariga ega bo'lgan qilmishlarni chegaralashda obyektiv tomon muhim rol o'ynaydi. Masalan, bir vaqtning o'zida bitta obyektga qaratilgan, qasddan sodir etiladigan, g'arazli niyatlarda amalga oshiriladigan va umumiy subyektga ega bo'lgan mulkni talon-toroj qilish jinoyatlarini farqlash JK Maxsus qismi moddalarida turli xil tarzda ifodalangan obyektiv tomonning belgilari orqali amalga oshiriladi.

Obyektiv tomonni tahlil qilish bir qator hollarda qo'shimcha obyektни aniqlashga imkon beradi (masalan, JK 164-moddasining dispozitsiyasi fuqarolarning hayoti yoki sog'liqi xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabat shakli sifatida qo'shimcha obyektни aniqlash imkonini beradi). Shuningdek, obyektiv tomonning alohida belgilari qonun chiqaruvchi tomonidan kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida ifodalanadi (masalan, jinoyat sodir etish usuli va vositasi).

Tuzilishi jihatidan obyektiv tomonning zaruriy va fakultativ belgilari mavjud. Bunda zaruriy va fakultativ belgilar moddiy va formal tarkibli jinoyatlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

(Bu to'g'risida mazkur tom IV bobining «Jinoyat tarkibining tuzilishi. Jinoyat tarkibining zaruriy va fakultativ belgilari» deb nomlanuvchi 3-§ ga qarang.)

2-§. Jinoiy qilmish va uning turlari

Obyektiv tomonning zaruriy belgisi – **qilmish** JK Maxsus qismi barcha moddalarida nazarda tutilgan. Shuning uchun qonun chiqaruvchi qilmish deganda, asosan, jinoyatni nazarda tutadi.

Jinoiy javobgarlikka faqat jinoiy harakat (harakatsizlik) sodir qilgan shaxslar tortilishi mumkin. **Qilmishsiz**, ya'ni insonning tashqi dunyodagi muayyan xulq-atvorisiz jinoyat ham, jinoiy javobgarlik uchun asos ham yo'q. Insonning ma'lum jinoiy xulq-atvorida namoyon bo'lmagan jinoyat sodir qilish haqida fikr bildirishning o'zi jinoyatni tashkil qilmaydi.

Ayni paytda, jinoyat-huquqiy ma'noda qilmishni harakatlar tizimi, shaxsning faoliyati, xulq-atvori bilan tenglashtirish kerak emas. Aksariyat hollarda jinoyat tarkibi sifatidagi qilmish «xulq-atvor», «faoliyat»ni emas,

balki alohida bo'g'inlardan tashkil topgan aniq harakatni qamrab oladi (nomusga tegish, shikast yetkazish, qasddan odam o'ldirish). Bundan, jinoyat-huquqiy ma'nodagi har qanday harakat yoki xulq-atvor ham jinoyat tarkibidagi qilmish bo'la olmaydi, degan xulosa qilishimiz mumkin.

NOTA BENE !

Jinoiy qilmish – aybdorning ongli, ixtiyoriy faol yoki passiv xulq-atvoridir.

Faqatgina jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilarini ko'rsatuvchi va to'rtta quyidagi qismdan iborat qilmish jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega:

- huquqqa xiloflik;
- ijtimoiy xavflilik;
- onglilik;
- ixtiyoriylik.

Ijtimoiy xavflilik va undan kelib chiqadigan **huquqqa xiloflik** jinoyatning asosiy belgilaridir. Ammo ulardan qilmishning jinoyat-huquqiy tushunchasi kelib chiqmaydi, balki ular faqat jinoyat-huquqiy ahamiyatga (yoki taqiqqa) ega bo'lgan harakat yoki harakatsizliklar ro'yxatini belgilash bilan chegaralanishadi. (Ushbu tushunchalar to'g'risida mazkur tom III bobining «Jinoyat belgilari» deb nomlangan 2-§ ga qarang.)

Onglilik – qilmishni obyektiv tomondan tavsiflovchi belgisi sifatida shaxsning qilmishni sodir qilishni ongli nazorat qilishini, ya'ni shaxsda fiziologik va jismoniy jihatdan bunday nazoratni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligini anglatadi.

Qilmishni ongsiz ravishda sodir qilish, masalan, uyquda yoki refleks tana harakatlari orqali sodir qilish qilmishning jinoyat-huquqiy ahamiyatini, jinoiyligini istisno qiladi.

Shu bilan birga, qilmishni ongsiz ravishda – mastlik holatida sodir etish – ongli ravishda qilmish sodir etish deb baholanadi, chunki u o'z

ixtiyori va ongi bilan mastlik holatiga tushgan. Bu holat JK 56-moddasiga muvofiq, og'irlashtiruvchi holat deb baholanadi va shaxs umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Ixtiyoriylik – (qilmishni obyektiv tomonidan tavsiflovchi belgi) qilmishning ong nazorati ostida sodir qilinishida shaxsning qilmishni sodir qilmasdan boshqa xulqni tanlay olishi real imkoniyatining mavjudligidir. Ixtiyoriylik obyektiv belgi bo'lib, u shaxsning u yoki bu xulqni tanlashida tashqi ta'sirlar ostida yuzaga kelgan yengilmas kuchlarning to'siq bo'lmasligida ifodalanadi. Bu holatda ixtiyoriylik subyekt belgilardan farq qiladi, zero ular ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilishga qaratilgan ongning ayb shaklini ifodalaydilar. Noixtiyoriylik ham jinoyat sodir qilinishining salbiy belgisi, ya'ni u qilmishning o'zini va uning jinoyat-huquqiy ahamiyatini inkor qiladi.

Ehtiyotsizlik orqasida sodir qilingan jinoyatlarga ham irodalilik xos. Ehtiyotsizlik ortida sodir qilinadigan jinoiy harakatsizlikda kerakli ongli harakatning sodir qilinmasligi to'g'risida so'z boradi. Bu holatda biror obyektga nisbatan shaxsning ruhiy xususiyatlari (e'tibori yoki ongi) qaratilishi imkoniyati va zarurati bor edi. Shu sababli, bu belgi harakatsizlikka ham xos.

Bu belgining muhimligini ta'kidlar ekanmiz, qonun chiqaruvchi jismoniy yoki ruhiy zarurat (yoki majburiyat) ortida qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazish oxirgi zarurat ekanligi to'g'risidagi qoidalarni hisobga olgan holda hal qiladi. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etishda ixtiyoriylik belgisi haqidagi masala ham xuddi shunday hal etiladi.

Bu to'rt belgining birligi obyektiv tomonning elementi – qilmishning har ikki shakliga – harakat va harakatsizlikka ham xos.

Harakat inson xulq-atvorining faol shaklini ifodalaydi. Umumiy tushunishga ko'ra, bu obyektiv olamdagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan tana a'zolarining harakati, tashqi ko'rinishidir. Jinoyat sodir qilinayotganda subyekt voqealar rivojini kutib o'tirmaydi, balki kutilgan natijaga erishish uchun bevosita voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, qilmish xulqning ayrim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, ma’lum motivlardan kelib chiqadi va ma’lum maqsadlarga qaratilgan bo‘ladi.

Jinoiy harakatni tahlil qilish uchun uning tashqi ifodasi, shakllariga e’tibor qaratish lozim.

Har qanday qilmish – harakatlanish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ya’ni, bu harakatlar insonning ichki yo‘nalishlarini, fikrining harakatini ifodalaydi (imo-ishora, so‘zlar). Ammo tashqaridan ayrim tana harakatlarida ifodalanadigan jinoiy harakat ular bilan cheklanib qolmaydi. Jinoiy harakat harakatlar jamini qamrab oladi, shu bilan birga ahamiyatiga ko‘ra, bir xil harakat har xil harakatlanishlar bilan sodir qilinishi mumkin. Masalan, hujjatlarni qalbakilashtirishni aybdor uni o‘chirish, tuzatish kiritish, boshqa matn yozish va sh.k. usullarda sodir qilishi mumkin, bunda jinoyat sodir qilish aybdorning individual imkoniyatlari, ishlatilishi mumkin bo‘lgan qurol va usulga bog‘liq.

Jinoiy harakat tashqi jihatdan imo-ishora shaklida (masalan, haqorat qilishda), biron so‘z aytish orqali (masalan, qo‘rqitishda) yoki ko‘plab hollarda boshqa shaxs yoki atrofdagi turli predmetlarga jismoniy ta’sir qilishda (masalan, davlat mulkini o‘zlashtirishda yoki odam o‘ldirishda miltiq tepkisini bosishda) ifodalanadi.

Imo-ishora va so‘z shaklidagi harakat – jabrlanuvchi ongiga ta’sir qilsa, tashqi muhit predmetlariga ta’sir qilish shaklidagi harakat ularning sifat va xususiyatlariga, ularning joylashuviga hamda boshqa predmet va tashqi borliq bilan o‘zaro aloqasiga ta’sir qiladi va shunday yo‘sinda boshqa odamlarga ham, ularning xulqiga ham ta’sir qiladi.

Ijtimoiy xavfli harakat murakkab xususiyatga ega va JKda jinoiy faoliyat, soxta tadbirkorlik va soxta bankrotlik ko‘rinishida ifodalanadi.

Qasddan sodir qilinadigan jinoyatlarda ijtimoiy xavfli qilmishning boshlang‘ich holati jinoyat sodir etishga shart-sharoit yaratishga qaratilgan tana harakatlarining tashqi ko‘rinishida ifodalanadi. Ehtiyotsizlikdan sodir qilinadigan jinoyatlarning boshlang‘ich vaqti obyektga nisbatan zarar yetkazilganda yoki shunday zarar yetkazish xavfi vujudga kelganida namoyon bo‘ladi. Bu shunda ifodalanadiki, JKda belgilanishicha, ehtiyotsizlikdan sodir etiladigan jinoyatlar zarar yetkazish bilan bog‘liq.

Shunday qilib, alohida olingan tana harakatlarining birligi jinoyat tarkibini tashkil qilishi mumkin, lekin bu alohida olingan tana harakatining jinoyat-huquqiy ahamiyatini istisno etmaydi.

Har qanday qilmishning jismoniy belgilari shulardan iboratdir. (Ijtimoiy belgilar mazkur tom III bobining «Jinoyat belgilari» deb nomlangan 2-§ da ko‘rib chiqilgan.)

Jinoyat huquqida qilmish deganda, faqatgina tana harakatlari tushunilmasdan, balki jinoyat vositasi sifatida boshqa shaxslardan foydalanish ham tushuniladi. Shu bilan birga tana harakatlari orqali tashqi dunyo predmetlaridan, tabiat kuchlari va ne‘matlaridan ham foydalanish mumkin.

NOTA BENE !

Jinoiy harakat – tana harakatlari, shu bilan birga tana harakatlari orqali tashqi dunyo predmetlaridan, tabiat kuchlari va ne‘matlari, shuningdek, boshqa shaxslar vositasida jinoyat sodir qilinishi, jinoyat obyektiga faol ta‘sirning yo‘naltirilganligi, ya‘ni jinoyat qonuni muhofazasidagi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishning faol ko‘rinishidir.

Harakatsizlik – biror-bir harakatdan saqlanishda ifodalanadigan shaxsning passiv xulq-atvoridir.

Harakatsizlik harakatdan jismoniy jihatdan, ya‘ni tana harakatlari va u bilan bog‘liq tashqi dunyo predmetlarini ishlatish, tabiat kuchlari va ne‘matlaridan foydalanilmasligi bilan farq qiladi.

NOTA BENE !

Jinoiy harakatsizlik – shaxsning bajarishi shart va mumkin bo‘lgan harakatni bajarmaslikda ifodalanadigan passiv xulq-atvoridir.

Aniq harakat ijtimoiy jarayonning normal faoliyat yuritishini ta‘minlovchi bo‘g‘inlar zanjiridagi zaruriy bo‘g‘indir. Mazkur bo‘g‘inning tushib qolishi, ya‘ni harakatning sodir etilmasligi mazkur zanjirning

uzilishini va muvofiq ravishda zikr etilgan jarayonning buzilishini anglatadi.

Jinoiy harakatsizlik muayyan harakatlarni sodir etishdan tiyilishdagi yagona harakatda yoki yuridik jihatdan zarur va obyektiv jihatdan muhim bo'lgan harakatni bajarmaslikda ifodalanadigan passiv xulq-atvor tizimida namoyon bo'ladi. Jinoiy harakatsizlik bo'lishi uchun shaxs, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni saqlash va mustahkamlash uchun talab qilinadigan harakatni bajarishi lozim va shunday imkoniyatga ega bo'lishi kerak.

Bundan kelib chiqib, harakatsizlikka xos bo'lgan ikki obyektiv va subyekt mezonni belgilab olamiz.

Obyektiv mezon – aniq ijtimoiy zarur harakatning uni bajarishi shart bo'lgan shaxs tomonidan bajarilmasligi. Ijtimoiy zarur harakatlarni sodir qilish majburiyati nafaqat jinoyat-huquqiy normalarda, balki boshqa normalarda ham, shu jumladan, ijtimoiy normalarda ham belgilangan bo'lishi mumkin. Ular quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

– jinoyat qonuni, masalan JK 117-moddasida xavf ostida qoldirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan;

– boshqa qonun yoki normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan bo'lib, JK Maxsus qismi blanket dispozitsiyali moddalarida nazarda tutilgan, masalan, JK 262-moddasida transportni ta'mirlash yoki uni foydalanishga chiqarish qoidalarini buzish uchun javobgarlik belgilangan;

– shaxsning o'z zimmasiga olgan ish yoki xizmat faoliyatiga oid majburiyat, xususan, uning kasb majburiyatlari, masalan, vrach kasalga tibbiy yordam ko'rsatishi shart, agar u birinchi yordam ko'rsatmasa, u JK 116-moddasiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladi;

– shaxsning o'zi shaxsni biron nojo'ya holatga soluvchi va uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazmasligi uchun harakat qilishi majburiyati, bunda shaxs bu holatda o'z ishini oxiriga yetkazishi shart, masalan, jarroh operatsiyani boshladimi, oxiriga yetkazishi shart, agar u operatsiyani oxiriga yetkazmasa, u shaxsga qarshi qaratilgan jinoyati uchun javobgarlikka tortiladi;

– ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxs xulqini muvofiqlashtirib turuvchi umumijtimoiy normalar, masalan, ona o‘z emizikli bolasini parvarishlashi va boqishi shart va agar bu harakatsizligi bola o‘limiga sabab bo‘lsa yoki sog‘ligiga zarar yetkazsa, ona jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bu holatda konkret harakat sodir qilish majburiyatining yo‘qligi jinoiy harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishga asosning yo‘qligidir.

Muayyan harakatlarni bajarish majburiyati shaxsning zimmasida bo‘lmasa, shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Harakatsizlikning **subyekt mezon** – shaxsning ma’lum holatlarda konkret harakatni sodir qilish uchun real imkoniyat mavjudligidir.

Biror shaxsning konkret harakat sodir qilish uchun real imkoniyatining yo‘qligi harakatsizlikning subyekt mezonini hamda harakatsizlikning o‘zini istisno qiladi. Bu imkoniyatning yo‘qligi shaxsning shaxsiy xususiyatlari bilan, xususan, uning tajribasi, ma’lumoti va shu kabilarning yo‘qligi bilan yoki obyektiv shartlar tufayli, masalan, tabiiy ofat tufayli izohlanishi mumkin.

Agar bunday harakatni bajarish majburiyati boshqa bir harakatni bajarish majburiyati bilan chegaralansa, bunday qarama-qarshilik oxirgi zaruratga oid (JK 38-moddasi) qoidalar bilan tartibga solinadi.

Biror-bir majburiyatni bajarishda imkoniyat bo‘lgani holda shaxsda ushbu majburiyatning vujudga kelishi harakatsizlikning boshlanishi hisoblanadi. Harakatsizlikning tugashi jinoiy oqibatlarining kelib chiqishi bilan baholanadi.

3-§. Jinoiy oqibat

Insonning har bir harakati atrofdagi reallikda ma’lum o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Jinoiy harakat (harakatsizlik)ning ijtimoiy xavfli oqibati shundaki, u o‘zi tufayli ijtimoiy xavfli oqibatni yuzaga keltiradi.

Umumiy holda aytsak, jinoiy oqibat jinoyatning ijtimoiy munosabatlarga yetkazadigan real zarari bo‘lib, u jinoiy xulq bilan sababiy bog‘langan to‘g‘ri, egri, bevosita va bilvosita salbiy o‘zgarishlar (zarar, ziyon, yo‘qotish va sh.k.)da ifodalanadi, oxirgi hisobda esa, ijtimoiy

(iqtisodiy, axloqiy, huquqiy va boshqa) qimmatliklar salbiy o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Moddiy tarkibli jinoyatlarda jinoiy oqibat zaruriy element, formal tarkibli jinoyatlarda esa ular talab qilinmaydi, ammo oqibat kelib chiqishi mumkin.

NOTA BENE !

Jinoiy oqibat jinoiy qilmish tufayli jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga moddiy yoki nomoddiy ko'rinishda ifodalanadigan zarar, ziyon yoxud boshqacha salbiy o'zgarishda ifodalanadi.

Jinoiy oqibat – qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilab beradi. Shuningdek, jinoiy oqibat qilmishning jinoiyligi yoki jinoiy emasligini aniqlab beradi. Jazo tayinlashda sud tomonidan jazoni og'irlashtiruvchi holatlarni qo'llashda asos bo'lib hisoblanadi.

Jinoiy-huquqiy oqibatlarni quyidagi mezonlarga qarab guruhlariga ajratishimiz mumkin:

- zarar tabiatiga qarab;
- yetkazilgan zararining xavflilik darajasiga qarab;
- qonunda belgilanishiga qarab;
- jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatiga qarab.

Zarar xususiyatiga ko'ra, oqibat ikki guruhga: moddiy va nomoddiy oqibatga ajratiladi.

Moddiy oqibat – jismoniy va mulkiy zarar ko'rinishidagi oqibat bo'lib, aniq isbotlash va belgilashga moyil. Jismoniy zarar – shaxsga qarshi jinoyatlarda ifodalanib, u shaxs o'limida yoki turli darajadagi sog'liqqa zarar yetkazishda ifodalansa, mulkiy zarar esa, masalan, o'zgalar mulkini talon-toroj qilishga qaratilgan jinoyatlar, jabrlanuvchi mulkini kamaytirishga qaratiladi.

Nomoddiy oqibat ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik va boshqa shunga o'xshash mazmunlarda ifodalanadi. Masalan, tuhmat va haqorat qilishda jabrlanuvchi ongida ijtimoiy-psixologik ta'sirning mazmuni,

urushni targ'ib qilishda mafkuraviy va siyosiy mazmun muhim ahamiyat kasb etadi.

Nomoddiy oqibat esa ikki turda ifodalanadi:

– real ziyon ko‘rinishidagi nomoddiy zarar, masalan, JK 144-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan zarar: «fuqarolar, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga»ga zarar yetkazish;

– zarar yetkazish xavfi ko‘rinishidagi oqibat. Masalan, JK 113-moddasida nazarda tutilgan tanosil kasalligini yuqtirish xavfi ostida qoldirish jinoyatida shaxs sog‘liqiga nisbatan xavf vujudga keladi.

Yetkazilgan zararining **xavflilik darajasiga** ko‘ra oqibat 2 guruhga bo‘linadi:

– asosiy jinoyat tarkibi belgisi sifatida nazarda tutilgan, masalan, 266-moddadagi badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lgan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish;

– og‘irlashtiruvchi jinoyat tarkibi belgisi sifatida nazarda tutilgan, masalan, JK 266-moddasi 2- va 3-qismida javobgarlik odamlar o‘limi, halokat va boshqa og‘ir oqibatlar kelib chiqqanda yuzaga keladi.

Qonunda belgilanishiga qarab:

– JK Maxsus qismi moddasi dispozitsiyasida **aniq belgilangan** oqibat, masalan, JK 102-moddasi 1-qismi – ehtiyotsizlik orqasida odam o‘ldirish yoki JK 173-moddasi 1-qismi – mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish;

– **baholanuvchi** oqibat, ya‘ni qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda bunday zararining aniq soni ko‘rsatilmagan bo‘lib, ular huquqni tatbiq qiluvchi organlar tomonidan qilmish sodir bo‘lgan faktik holatlardan kelib chiqib belgilanadi, bunga misol qilib, jinoyat-huquqiy normalarda belgilangan «ancha miqdordagi zarar» yoki «boshqacha og‘ir oqibatlar» degan iboralarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Kvalifikatsiya uchun ahamiyatliligiga qarab:

– **majburiy**, ya‘ni bunday oqibatlarining bo‘lishi shart, masalan, ayolni o‘z homilasini sun‘iy ravishda tushirishga majburlash (JK 115-moddasi);

– **qo‘shimcha** oqibatlar, masalan, JK 104-moddasida nazarda tutilgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazishning oqibatlari JK 164-moddasi 3-qismi «g» bandi bilan qamrab olinadi va bu holatda 104-modda bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya talab qilinmaydi.

Moddiy tarkibli jinoyat JK Maxsus qismi moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan oqibat kelib chiqishi bilan tugagan hisoblanadi. Bungacha jinoyat jinoyatga tayyorgarlik yoki jinoyatga suiqasd qilish bosqichida deb kvalifikatsiya qilinadi.

Moddiy tarkibli jinoyatlardan farqli ravishda, formal tarkibli jinoyatlar qilmish sodir qilingan daqiqadan tugagan hisoblanadi, chunki JK Maxsus qismi formal tarkibli jinoyat dispozitsiyalarida oqibat ko‘rsatilmagan, shu sababli bu jinoyatlar uchun oqibat kelib chiqishi talab etilmaydi.

4-§. Qilmish va oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish

Moddiy tarkibli jinoyatning yana bir zaruriy sharti qilmish va oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishdir.

Ta’kidlash joizki, jinoyat qonuni bilan sababiy bog‘lanish aniqlanmagan. JKda sababiy bog‘lanishni ifodalovchi oddiy atama «yetkazish» hisoblanadi (masalan, JK 104-moddasida). Lekin JK moddalarining ayrim dispozitsiyalarida «yuqtirish» (JK 113-moddasi 2-, 3- va 4-qismlari), «nobud qilish yoki zarar yetkazish» (JK 173-moddasi) kabi atamalar ham uchrab turadi.

NOTA BENE !

Moddiy tarkibli jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgilaridan yana biri – **sababiy bog‘lanish** – sababni ifodalovchi ijtimoiy xavfli qilmish hamda natijani ifodalovchi ijtimoiy xavfli oqibat o‘rtasidagi aloqadir.

Hozirgi zamon milliy jinoyat qonunchiligi va sud amaliyoti sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish bilan ijtimoiy xavfli oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishning obyektivligidan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, qilmish bilan oqibat o‘rtasida har doim obyektiv ketma-ketlik mavjud bo‘ladi. Bunday yondashish moddiy tarkibli jinoyatlarning zaruriy

belgisi bo‘lmish sababiy bog‘lanishning mohiyatini ochib berishga yordam beradi.

Sababiy bog‘lanish uchun bir qator belgilar xosdir.

Birinchi, sababiylik – **obyektiv** kategoriya va shaxsning qilmishga va oqibatga bo‘lgan subyekt munosabatidan holi ravishda o‘rganilishi kerak.

Ikkinchi, jinoyat huquqidagi sababiy bog‘lanish **hodisalar o‘rtasidagi umumiy universal sababiy aloqaning qismidir** va bunda ijtimoiy xavfli oqibat haqiqatda qilmish natijasida yuzaga kelganligini aniqlash kerak hamda bu qilmishni oqibat keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan boshqa har qanday holatlardan ajratib olish kerak.

Uchinchi, **sabab doim oqibatdan oldin kelishi kerak**. Oqibatdan keyin sodir etilgan qilmish ushbu oqibatning sababi bo‘la olmaydi. Bunda sabab va oqibat o‘rtasidagi vaqt muddatining qanchaligi hisobga olinmaydi. Bu masala qasdning mazmuni va yo‘nalishi bilan belgilanadi.

To‘rtinchi, **zaruriy** sababiy bog‘lanishgina jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega («zaruriy yetkazish» nazariyasi)¹. Bu shuni anglatadiki, qilmish oqibat kelib chiqishining zaruriy sharti bo‘lgan taqdirdagina sababiy bog‘lanish mavjud bo‘ladi, ya’ni bu qilmishsiz oqibat vujudga kelishi mumkin emas. Boshqa tomondan oqibat kelib chiqishiga boshqa biror sabab emas, aynan shu qilmish hal qiluvchi shart bo‘lgan bo‘lishi kerak².

Moddiy tarkibli jinoyatlarda qilmish va oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni tushunish uchun quyidagi holatlarni aniqlash talab etiladi:

- qilmish va oqibatning ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof bo‘lganligi;
- sodir qilingan qilmish tufayli o‘sha oqibat kelib chiqqanligi;
- tugallanmagan jinoyatda qilmish tugallangan jinoyat tarkibining obyektiv tomoni zaruriy belgisi – nomoddiy oqibat yoki boshqacha tarzda oqibat keltirib chiqarishi xavfini yuzaga keltirganligi;

¹ Впервые данная теория была обоснована А.А. Пионтковским. (Пионтковский А.А. Проблема причинной связи в праве. – М.: 1949. – С. 135; его же. Учение о преступлении. – М.: 1961. – С. 212-240).

² Отечественная наука уголовного права не признает принципа «condition sine qua non» - «условие без которого нет», согласно которому все предшествующие условия наступившего результата признаются равноценными, в связи с чем каждое из них рассматривается как причина наступившего последствия.

– bir necha oqibat yuzaga kelganida ushbu qilmish har bir oqibatning sababi bo‘lganligi yoki boshqa oqibatlarni keltirib chiqargan bir oqibatning sababi bo‘lganligi va boshqalar.

Bundan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sababiy bog‘lanish – ikkita holat o‘rtasidagi aloqa bo‘lib, bu holatlardan biri (sabab) ikkinchi holatni yuzaga keltiradi.

Sababiy bog‘lanish jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgisi bo‘lishi uchun quyidagi hollarda shakllangan bo‘lishi lozim: zarar kelib chiqishi real imkoniyati yuzaga kelganidan, to uni haqiqatga aylantirilgunga qadar bo‘lgan davrda mavjud bo‘lganda. Ijtimoiy zararli oqibat keltirib chiqaruvchi real imkoniyatni yuzaga keltirmaydigan harakat yoki harakatsizlik natijani keltirib chiqarmaydi va jinoiy javobgarlikni ham keltirib chiqarmaydi. Ammo obyektiv tasodif (ham ichki, ham tashqi) tufayli bunday real imkoniyatlar haqiqatga kirib ketishi mumkin. Shuning uchun aybdorning qilmishi va shu qilmish natijasi – oqibatning bog‘liqligi – sababiy bog‘lanish isbotlash jarayonining zaruriy bosqichidir.

5-§. Jinoyatning obyektiv tomoni fakultativ belgilari va ularning ahamiyati

Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining **fakultativ belgilari** quyidagilar: jinoyat sodir qilish joyi, vaqti, holati, usuli, quroli va vositasi kabilardir. Ular nazariy jihatdan fakultativdir. Ammo amaliyotda ular jinoyatni ochish, kvalifikatsiya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu belgilar qonunda bevosita ko‘rsatilgan bo‘lsa, ular zaruriy belgi bo‘lib hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jinoyat sodir qilish **joyi** – bu jinoyat sodir qilingan chegaralangan hudud, joy, geografik nuqta bo‘lib, unga masalan, uy-joy, o‘rmon, ombor va shu kabilar kirishi mumkin.

Jinoyat sodir qilish joyi jinoyat qonuni amal qiladigan butun Jinoyat kodeksi 11–12-moddalaridagi prinsipga ko‘ra belgilangan hududda jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiradi. Bu holatda jinoyat sodir qilish joyi hudud

va fuqarolik prinsiplariga asosan belgilanadi. Bu prinsiplar asosida O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida sodir qilingan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinadi. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan hollarda jinoyat sodir qilish joyi jinoyatning zaruriy belgisi bo'ladi, masalan, Jinoyat kodeksi 202, 220, 222-moddalari.

Agar moddaning dispozitsiyasida jinoyat sodir qilish joyi zaruriy belgi bo'lsa, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari jinoyatning aynan o'sha joyda sodir bo'lganligini aniqlashlari lozim.

NOTA BENE !

Jinoyat sodir etish **vaqti** sekund, minut, soat, sutka, oy kabi vaqt birliklari bilan o'lchanadigan ma'lum davr bo'lib, aynan shu davrda jinoyat sodir qilinadi.

Jinoyat sodir qilish vaqti jinoyat sodir qilish joyi kabi jinoiy javobgarlikning umumiy shartlari va fakultativ belgisi sifatida chiqadi. Umumiy shart sifatida jinoyat sodir qilish vaqti Jinoyat kodeksi 13-moddasida belgilangan va umuman Jinoyat kodeksini qo'llashda muhim ahamiyatga ega. Jinoyat sodir qilish vaqti Jinoyat kodeksi Maxsus qismi dispozitsiyasida maxsus tarzda belgilangan hollarda ahamiyatga ega, masalan, Jinoyat kodeksi 99-moddasi onaning o'z chaqalog'ini tug'ish vaqtida yoki tug'ilishi hamon qasddan o'ldirishini nazarda tutadi. Yoki bo'lmasa, qorovul xizmatini o'tash qoidalarini buzish jinoyati (JK 291-moddasi) faqatgina mana shu xizmatni o'tayotgan vaqtda sodir etilishi mumkin.

Kamdan-kam hollarda jinoyat sodir qilish vaqti Jinoyat kodeksi moddalari dispozitsiyalarida nazarda tutiladi. Ammo nazarda tutilgan hollarda uni aniq belgilab olish zarur. Vaqt aniq ko'rsatilmagan bo'lishi mumkin, lekin u aynan nazarda tutiladi. Masalan, saylov natijalarida ovozlarni noto'g'ri hisoblash jinoyati uchun javobgarlik faqat saylov vaqtida yuzaga keladi (JK 146-moddasi).

Jinoyat kodeksida jinoyat sodir qilish **usuli** to'g'risida ko'p gap boradi, chunki aynan jinoyat sodir qilish usuli bir-biriga yaqin jinoyatlarni bir-biridan farqlash mezonidir. Shu bilan birga, jinoyat sodir qilish usuli yakka holda ham, bir guruh holatida ham ifodalanishi mumkin.

NOTA BENE !

Jinoyat sodir qilish **usuli** – bu jinoyat sodir qilinayotganda aybdor tomonidan jinoyatni sodir qilishda ishlatiladigan aniq uslub va usullar yoki ularning birligidir.

Jinoyat tarkibining umumiy ta'rifi nuqtai nazaridan jinoyat sodir qilish usuli ikki ma'noda keladi:

– jinoyat tarkibi obyektiv tomonining zaruriy va alternativ belgisi sifatida;

– obyektiv tomonining fakultativ belgisi sifatida.

Birinchi guruhdagi ma'no Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarida aniq jinoyat turini tushunarli va aniq holda ta'riflaydi hamda uni boshqa jinoyatlardan ajratib, uni individuallashtiradi.

Ikkinchi – fakultativ ma'noda esa, jinoyat sodir qilish usuli qo'shimcha ravishda Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida nazarda tutiladi, xususan, JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandida boshqalar hayotiga xavfli usulda odam o'ldirish jinoyati yoki 244-moddaning birinchi qismidagi jinoyat.

Jinoyat sodir qilish **quroli** va **vositasi** – moddiy dunyo ne'matlari bo'lib, ular yordamida shaxs jinoyat sodir qiladi, ya'ni jinoyatning nima yordamida sodir qilinishi ularning jinoyat tarkibi belgilariga qo'shilishiga sabab, ular jinoyat sodir qilinishini yengillashtiradi, bu esa jinoyatning ijtimoiy xavfliligi darajasini oshiradi. Ularning birgalikda o'rganilishiga sabab esa, ularning bir butunni tashkil etishidadir. Jinoyat sodir qilish quroli jinoyat sodir qilish vositalarining bir qismi deyiladi. Qonunchilikdagi ko'p joylarda ular bir kategoriyadek baholangan, masalan, jinoyat sodir qilish quroli va vositasi (JK 31-moddasi 2-qismi).

Ammo ular o'rtasida farq ham bor. Jinoyat sodir qilishda jinoyat quroli va vositasini aniqlash va bir-biridan farqlashda qilmishning jinoyat-huquqiy ma'nosidan kelib chiqish, jinoyat sodir qilish uchun aynan qanday predmetning ishlatilishi, ya'ni bu qilmish jinoyat-huquqiy norma bilan taqiqlangan yoki yo'qligini aniqlash lozim.

NOTA BENE !

Jinoyat sodir etish **quroli** – jinoyat sodir etishga ixtisoslashtirilgan va jinoyat sodir etishda bevosita ishlatiladigan moddiy dunyo predmeti.

Jinoyat sodir etish qurollari o'qotar va sovuq qurollar, insonning turli ehtiyojlari uchun ishlatiladigan turli xil predmetlar bo'lishi mumkin (lom, belkurak, ketmon va sh.k.). Bir so'z bilan aytganda, bular hammasi shaxsning sog'lig'iga, shuningdek, JK bilan qo'riqlanadigan boshqa obyektlarga zarar yetkazishga qaratilgan, shunga ixtisoslashtirilgan predmetlar.

NOTA BENE !

Jinoyat sodir qilish **vositasi** – jinoyat sodir etishni yengillashtirish uchun ishlatiladigan vosita-predmet.

Masalan, yerda, suvda va havoda harakatlana oladigan mexanizatsiyalashtirilgan transport vositalari hayvonot olami vakillarini ov qilish imkoniyatini yengillashtirgani bois, qonun chiqaruvchi buni ham nazarda tutgan holda buning uchun ham jinoiy javobgarlikni nazarda tutgan (JK 202-moddasi 3-qismi «v» bandi), bu holatda mexanizatsiyalashtirilgan transport vositalari jinoyat sodir qilish vositasi sifatida ishlatilgan.

Jinoyat sodir etish qurollaridan farqli o'laroq jinoyat sodir etish vositalari o'z mazmuniga ko'ra jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazishga ixtisoslashmagan. Lekin ular yordamida jinoyat sodir etishni yengillashtirish mumkin.

NOTA BENE !

Jinoyat sodir qilish **holati** – bu bir qator obyektiv shart-sharoitlar (vaqt, joy va boshq.) yoki ularning birligi bo‘lib, ularning borligi sharoitida ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilinadi.

Jinoyat sodir etish holati qilmishni kvalifikatsiya qilishda ta’sir ko‘rsatishi hamda jazoni og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holat sifatida xizmat qilishi mumkin. Xususan, agar harbiy jinoyat jangovar sharoitda sodir qilinsa, jinoiy javobgarlik va jazo og‘irroq bo‘ladi. Masalan, jangovar sharoitda harbiy qurol-aslahalarni, harbiy texnikani yoki harbiy mulkni qasddan buzish yoki shikast yetkazish og‘irroq jinoiy javobgarlikka tortiladi (JK 295-moddasi 3-qismi). Yoki ommaviy tartibsizliklar jarayonida jinoyat sodir qilish (JK 97-moddasi 2-qismi «e» bandi). Shu bilan birga, masalan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashda zarur chora-tadbirlar chegarasidan chetga chiqib o‘ldirib qo‘yish jinoyat ijtimoiy xavflilik darajasini kamaytiradi (JK 101-moddasi).

Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilarini o‘rganishda asosan, jinoyat ijtimoiy xavfliligini har tomonlama va obyektiv hal qilish, jinoyatning shartlari hamda boshqa holatlarini o‘rganish, jinoiy javobgarlikka tortilishi lozimmi yoki ijtimoiy ta’sir choralarining o‘zi yetarli yo yetarli emasligi kabi masalalar hal qilinadi. Masalan, jinoyat sodir etishning aniq holati faqatgina sababiy bog‘lanishni aniqlashga ta’sir qilib qolmasdan, balki aybdorni javobgarlikka tortish va qilmishni kvalifikatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Jinoyat sodir etish vaqtini aniqlashning javobgarlikka tortish muddati o‘tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishda ham o‘rni bor. Jinoyat sodir etish vaqti jinoyat qonunini qo‘llashda ham o‘z ifodasini topadi. Jinoyat sodir qilish joyi qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda ham ahamiyatga ega, ya’ni jinoyat sodir etilgan joy bo‘yicha jinoyat qonuni amalda qo‘llaniladi.

«Jinoyatning obyektiv tomoni» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar

1. Jinoyatning obyektiv tomoni nima? Uning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?

2. Jinoiyatning obyektiv tomonini qanday belgilar tashkil etadi? Jinoiyat obyektiv tomoni zaruriy va fakultativ belgilarining roli va mazmun-mohiyati qanday?

3. Jinoiy xulqning akti sifatida harakatning mazmuni nimadan iborat?

4. Harakatsizlikda jinoiy javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang. Harakatsizlikning obyektiv va subyektiv mezonlari nimadan iborat?

5. Jismoniy va ruhiy majburlash deganda nima tushuniladi?

6. Jinoiy oqibatlar nima? Ularning jinoiy-huquqiy mohiyati qanday?

7. Jinoiy oqibatlarning turlarini ayting. «Og'ir oqibatlar» tushunchasi bilan qamrab olinadigan oqibatlarning turlarini aniqlang.

8. Jinoiy qilmish va jinoiy oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish nimalardan iborat?

9. Jinoiy mohiyatga ega bo'lgan sababiy bog'lanish qanday mezonlarga (belgilarga) javob berishi kerak?

10. Jinoiyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilarini ta'riflab bering.

11. Jinoiyat sodir qilish joyi va holati o'rtasidagi farq nimadan iborat.

12. Jinoiyat sodir etish quroli jinoiyat sodir qilish vositasidan nima bilan farqlanadi?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Бойко А.И. Преступное бездействие. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 320 Б.

Кудрявцев В.Н. Объективная сторона преступления. – М.: Госюриздат, 1960. – 244 Б.

Малинин В.Б. Причинная связь в уголовном праве. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2000. – 316 Б.

Тимейко Г.В. Общее учение об объективной стороне преступления. – Ростов-на-Дону: Издательство Ростовского университета, 1977. – 215 Б.

Церетели Т.В. Причинная связь в уголовном праве. – Тбилиси: 1957. – 274 Б.

Ярмыш Н.Н. Теоретические проблемы причинно-следственной связи в уголовном праве. Философско-правовой анализ. – Харьков: 2003. – 524 Б.

Ilmiy maqolalar

Абзалова Х.М. Роль и значение объективной стороны при квалификации преступлений. // Жиноят ишлари юритишда суд фаолиятининг самарадорлигини таъминлаш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.ТДЮУ, 2016. – Б.15-19.

Марцев А.И. Общественная вредность и общественная опасность преступления // Ж. Правоведение. 2001. № 4. – 150–151-б.

Рустамбаев М.Х., Ниёзов А. Ответственность за угрозу в зарубежном законодательстве // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2000. №2. – 64–68-б.

Тарасов А. О причинно-следственной связи в современном уголовном праве // Ж. Уголовное право. 2002. № 2. – 61-б.

Хачатуров Р. Время как признак объективной стороны правонарушения // Ж. Закон и право. 2006. № 7. – 28-б.

VII BOB. JINOYATNING SUBYEKT TOMONI

1-§. Jinoyatning subyekt tomoni tushunchasi va ahamiyati

Subyekt tomon jinoyatning ruhiy mazmunini ta'riflab, u jinoyat tashqi ko'rinishi, ya'ni obyektiv tomoni bilan chambarchas bog'langan. Agar jinoyatning obyektiv tomoni – bu tashqi ko'rinishi bo'lsa, subyekt tomoni esa, teskarisi – ichki mazmuni bo'ladi. Subyekt tomon o'zida jinoyat tarkibining muhim elementini ifodalaydi. Uning yo'qligi esa, jinoyat tarkibi mavjudligini rad etadi, subyekt tomonni to'g'ri belgilash esa, aybdorning xatti-harakatlarini to'g'ri, asosli va adolatli kvalifikatsiya qilinishini ta'minlaydi.

NOTA BENE !

Jinoyat tarkibining **subyekt tomoni** aybdorning jinoyat qonunida jinoyat sifatida nazarda tutilgan, aybdor o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan bo'lgan ruhiy munosabati bo'lib, uning aybi, motivi, maqsadi va his-tuyg'usini ifodalaydi.

Jinoyatning subyekt tomonini va uning ayrim belgilarini to'g'ri aniqlash tergov va sud amaliyotida ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, bu ko'p hollarda sodir qilingan qilmishni kvalifikatsiya qilishda xatolarga olib keladi.

Jinoyat tarkibining elementi sifatida subyekt tomon intellektual, irodaviy, his-tuyg'u holati kabi turli vaqtlarda qilmishning o'ziga bog'liq holatlar va bir vaqtning o'zida yoki kelajakda yuz beradigan holatlarda ifodalanadi.

Shu bilan birga jinoyat qonunchiligi, eng muhim voqea-hodisa sifatida subyekt tomonni ifodalovchi va jinoyatni kvalifikatsiya qilishda va jazo tayinlashda jinoyat-huquqiy ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Jinoyat qonunchiligida aybdorning o'z qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati xarakteriga ko'ra, jinoyat tarkibining subyekt tomoni o'z ichiga ayb, motiv, maqsad va his-tuyg'u kabi belgilarni oladi.

Ayb – bu barcha turdagi jinoyat tarkibi subyekt tomonining majburiy belgisi hisoblanadi. Ayb, shaxsning o‘zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi (harakat yoki harakatsizligi)ga nisbatan ruhiy munosabatida va ushbu ijtimoiy xavfli qilmish natijasida kelib chiqqan oqibatida ko‘rinadi. Ayb qasd yoki ehtiyotsizlik shaklida bo‘lishi mumkin.

Motiv shaxsning jinoyat sodir etishga bo‘lgan ichki mayli va xohishida ko‘rinadi.

Maqsad – bu aybdorning shunday tasavvuriki, unda o‘zi istagan natijaga jinoyat sodir etish bilan erishishi uchun intilishi tushuniladi.

Motiv va maqsad fakultativ belgilar bo‘lib, ya’ni ular har qanday tarkibni ham ifodalamaydi. Qachonki ular JKning maxsus qismi dispozitsiyasida ko‘rsatib o‘tilganida yoxud ularning mavjudligi yuridik tabiatning aniq bir jinoyat tarkibidan kelib chiqqanida, motiv va maqsad mana shu jinoyat tarkibi subyekt tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi.

His-tuyg‘u shaxs jinoyat sodir etishida o‘zida his qiladigan ichki kechinmalarda ko‘rinadi.

Aytish kerakki, ayrim olimlar his-tuyg‘uni, jinoyat huquqida uncha muhim ahamiyatga ega bo‘lmaganligi uchun subyekt tomon tarkibiga kirg‘izishmaydi. Qonun chiqaruvchilar tomonidan ham qoida bo‘yicha his-tuyg‘u tushunchasi ishlatilmaydi. Biroq quyidagi: kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish (JK 98-moddasi); onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi (JK 99-moddasi); kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 106-moddasi) kabi jinoyat tarkiblari istisnoni tashkil etadi. Bunday holatlarda, odam o‘ldirganlik va qasddan badanga shikast yetkazganlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar sifatida, subyektning jinoyat sodir etish vaqtidagi muayyan emotsional holati, ya’ni uning chuqur his-tuyg‘uga boy kechinmalari, jabrlanuvchi tomonidan g‘alamislik (huquqqa yoki axloq qoidalariga zid) harakatlarini yoki uzoq vaqt ruhiy azoblanishni keltirib chiqarganligi holatlari yaqqol ko‘rinib turadi.

Jinoyat subyekt tomonining belgilari bo‘lmish: ayb, motiv, maqsad va his-tuyg‘u kabilar to‘g‘risida quyida batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

Ta'kidlash joizki, jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda jinoyat **subyekt tomonining mazmuni** quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

– birinchidan, subyekt tomon har qanday jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanadi. Uning mavjud emasligi esa, qilmishning jinoiyligini istisno etadi;

– ikkinchidan, jinoyat tarkibidagi barcha belgilarni o'z ichiga olgan jinoyatning subyekt tomonini belgilash sodir etilgan qilmishning to'g'ri va asosli kvalifikatsiya qilinishining majburiy va zaruriy shartidir;

– uchinchidan, subyekt tomonning to'g'ri belgilanishi, obyektiv belgilari bo'yicha o'zaro bir-biriga bog'langan jinoyat tarkibini bir-biridan ajratishda yordam beradi;

– to'rtinchidan, subyekt tomonning tarkibi (mazmuni) shaxsning sodir etgan jinoiy qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash imkonini beradi. Masalan, jinoyatga puxta tayyorgarlik ko'rish, uni sodir etishning tafsilotlarini o'ylab chiqish, subyektning yuqori darajadagi xavfli shaxsligidan dalolat beradi. Shuningdek, aksincha, to'satdan yuzaga kelgan holatlar natijasida sodir etilgan jinoyatlar yoki ruhiy kechinmalar ta'siri ostida sodir etilgan jinoyatlar subyektning ijtimoiy xavfliligi past darajadagi shaxs ekanligini ifodalaydi;

– beshinchidan, jinoyat subyekt tomonining to'g'ri belgilanishi, jinoiy javobgarlikni va ozodlikdan mahrum etish kabi jazolarni individuallashtirish uchun shart-sharoit hisoblanadi;

– oltinchidan, sodir etilgan qilmishning subyekt tomonini aniq tahlil qilish, jinoiy javobgarlikka olib keladigan ijtimoiy xavfli qilmishni, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazgan bo'lsa ham, jinoiy bo'lmagan qilmishdan ajratib olish imkonini beradi;

– yettinchidan, subyekt tomonni to'g'ri aniqlash – jinoyat huquqining qonuniylik, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik kabi tamoyillarini ta'minlash va mustahkamlashning zaruriy shartidir.

2-§. Ayb tushunchasi va shakllari

Ayb uchun javobgarlik prinsipi JK 9-moddasida keltirilganidek, shaxsning qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli

qilmishlari uchungina javobgar bo'lishida ifodalanadi. Aybsiz zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortishga yo'l qo'yilmaydi.

«Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi»¹. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi aybni sodir etilgan jinoyatning asosiy elementlaridan biri sifatida ko'rsatib, uning tushuntirishiga ko'ra, hukm shaxsning aybdorligini (aybsizligini) belgilaydi, huquqiy jihatdan uning harakatini (harakatsizligini), jazo turi va miqdorini aniqlaydi².

Ayb jinoiy javobgarlik va jazoning subyekt zaruriy dastlabki sharti hisoblanadi.

NOTA BENE !

Ayb – shaxsning o'zi tomonidan sodir etilgan, JKda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishi (harakat yoki harakatsizlik)ga va uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga nisbatan bo'lgan ruhiy munosabatining qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ko'rinishidir.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 11 б.

² См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 2 мая 1997 г. № 2 «О судебном приговоре» (с изменениями и дополнениями, внесенными постановлениями Пленума Верховного суда Республики от 14 июня 2002 г. № 10, 19 декабря 2003 г. № 20 и 3 февраля 2006 г. № 5) // Сборник. Т.І. – С.335.

Ayb, shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga va shuning natijasidagi ijtimoiy xavfli oqibatlariga nisbatan bo'lgan ruhiy munosabati sifatida jinoyat subyekt tomoni tarkibini batamom tugatmasa-da, uning yadrosini tashkil etadi. Shu bilan birga, ayb o'zida subyekt tomonning zaruriy belgisini ifodalaydi, bo'lmaganida esa, jinoyat tarkibi butunlay bo'lmaydi, shunday ekan, jinoiy javobgarlikka tortish uchun ham asos bo'lmaydi.

Aybli ishlarni qilishga faqat o'z xatti-harakatini anglab yetish va ularni boshqara olish qobiliyatiga ega odam qodir, shunday ekan, aqli rasolik aybning dastlabki sharti bo'lib chiqadi.

Ruhiy munosabat bilan har qanday munosabat o'rtasida bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik subyekt (shaxs) va obyekt o'rtasida, subyekt atrofida tabiat, boshqa odamlar, ijtimoiy sharoit, jamiyat manfaati kabi voqelik yoki uning alohida tomonlarining ko'rinishidir. Odam o'z ongli maqsadini qo'ya bilishida va unga erishishida ifodalanadigan munosabatni anglash qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu odamning ruhiy munosabatining faolligi munosabat predmetining tarkibiga va aniq bir shaxsga bog'liq bo'lgan uning tanlash xarakteridan kelib chiqadi. Shuning uchun har bir harakat ruhiy lahzalarni ifodalab, bir necha aniq aspektlarni o'zi ichiga oladi. Ayb (yoki ruhiy munosabat) ning bu aspektlari bo'lib ong va iroda hisoblanadi.

Shunday qilib, ayb ikki (komponent): intellektual va irodaviy elementdan tashkil topgan.

Ular ruhiy sog'lom (aqli raso) odamning obyektiv borliqni, xususan, o'z harakatini yoki harakatsizligining ijtimoiy ahamiyatini anglashida va baholashida; ijtimoiy xavfliligini e'tiborga olgan holda qilmishning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish (sodir etilayotgan harakatlar bilan uning keltirib chiqaradigan oqibatlari o'rtasidagi sababiy bog'lanishning rivojlanishini tushunish); uzoqni ko'ra bilishga ega bo'lishi, ya'ni ancha uzoqdagi oqibatlarni ko'ra bilishi hamda orttirilgan tajriba, bilim, mahorat bilan bog'liq yuqori diqqatni va ruhiy kuchni talab etadi; maqsadga erishish uchun intilish, natijaga erishishni xohlash yoki bunga loqaydlik bilan qarash, ya'ni u yoki bu oqibatning kelib chiqishini xohlamaslik

(irodaviy jihat); o'zining his-tuyg'ularini bildirish, emotsional reaksiyalarini yoki holatini ko'rsatishda aniq ko'rinishda ifodalanadi.

Aybning **intellektual elementi** barcha yuridik ahamiyatga ega bo'lgan sodir qilinayotgan qilmishning obyektiv xususiyatini: tajovuz qilinayotgan obyekt yoki predmetning o'ziga xos xususiyatlari, harakat yoki harakatsizlikning xarakterini, xavfli oqibatlarining va boshqalarning og'irlik darajasi va xarakterini anglash yoki anglash imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Aybning **irodaviy elementi** ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish natijasida real borliqdagi o'zgarishlarga bo'lgan jinoyat subyektini irodasining munosabatini ifodalaydi.

Jinoyat subyektini ruhiyatida kechadigan intellektual va irodaviy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi (birikma)dan kelib chiqqan holda, ko'rinishidan bir xil bo'lgan shakl doirasida ayb shakllarga bo'linadi.

NOTA BENE !

Aybning shakli – bu jinoyat sodir etuvchi shaxsning, o'z qilmishiga nisbatan bo'lgan munosabatini ifodalovchi ong va iroda elementlarining jinoyat qonuni bilan o'rnatilgan o'zaro bog'liqligi (birikmasi)dir.

Qonunchilik tuzilish shakliga muvofiq, aybning tuzilishi **qasd** va **ehtiyotsizlik** shaklida bo'ladi. **JK 20-moddasiga** muvofiq, «Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan shaxs jinoyat sodir etilishida aybdor deb topilishi mumkin».

Aybning har bir shakli bir necha turlarga bo'linadi. Qasd to'g'ri va egri qasdga bo'linadi (**JK 21-moddasi**), ehtiyotsizlik esa, o'z-o'ziga ishonish va beparvolikka bo'linadi (**JK 22-moddasi**).

Jinoyat tajovuzning xususiyati va shaxsning o'zi sodir etgan qilmishiga bo'lgan munosabatining ba'zi darajalarida namoyon bo'lganidek, har qanday ijtimoiy xavfli qilmish qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladi.

To'g'ri yoki egri qasdda intellektual element harakat (harakatsizlik)ning ijtimoiy xavfini anglashni va ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini yoki muqarrarligini yoki faqat ularning kelib chiqish imkoniyatini oldindan ko'ra bilishni (egri qasdda) ifodalaydi, irodaviy element esa, xohish (to'g'ri qasdda) yoki ongli ravishda yo'l qo'yishda yoki unga beparvo munosabatda bo'lishda (egri qasdda) ifodalanadi.

Jinoiy o'z-o'ziga ishonishda, intellektual element o'z-o'ziga ishonishning ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqishi ehtimolini oldindan ko'ra bilishda va ularning oldini olishga yetarli asoslar bo'lmaganida, irodaviy element esa, ularning kelib chiqishini istamaslikda, ularning oldini olishga intilishda ifodalanadi.

Jinoiy beparvolik uchun intellektual va irodaviylikni inkor etuvchi elementlar xosdir, ijtimoiy xavfli oqibatlarga mumkin va zarur bo'lgan muayyan intellektual munosabatning, ya'ni shaxsning bu oqibatlarni ko'rishining va oldindan ko'ra bilishligining mavjud emasligi xosdir.

Irodaviy jarayonning mohiyati, aybning qasdli shaklida shaxsning o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda oldindan belgilangan yoki oldindan ko'ra olishi mumkin bo'lgan maqsadiga yo'naltirishida, ehtiyotsizlikda esa, o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini o'ylamasligida va e'tiborsizligi natijasida ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishida ko'rinadi. Ehtiyotsizlikning irodaviy elementining o'ziga xos xususiyati shundaki, unda shaxs kerakli ruhiy zo'r berishni, ruhiy kuchni ishlatmaydi, ijtimoiy xavfli oqibatlarni keltirib chiqarish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, ijtimoiy xavfli oqibatlarni keltirib chiqarishdan qochadi.

Sud tomonidan shaxsning xususiyatini va uning sodir etgan qilmishiga munosabatini hisobga olgan holda, unga jazo tayinlanayotgan vaqtda ruhiy ko'rinishlari ham hisobga olinadi.

Ayb faqat yuridik jihatdan qonunchilik tomonidan belgilangan forma va shakllarda mavjud. Shu bilan birga qonunchilik aybning boshqa shaklini, ya'ni jinoyat sodir etishda qasd va ehtiyotsizlikni ajratib ko'rsatadi (**JK 23-moddasi** – qilmishga nisbatan qasd va kelib chiqqan oqibatlarga nisbatan ehtiyotsizlik).

Ayb shaklining mazmuni aybning shakli va uning qonuniy belgilanishi aybdorning ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish chegaralarini ko'rsatib berishga olib boradi. Subyektning sodir etgan qilmishiga bo'lgan turli xil ruhiy munosabati faqat shu ajratib ko'rsatilgan chegaralar ichida bo'lganida aybli deb topilishi mumkin.

Agar qonun faqat qasddan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishga jinoiy javobgarlikni belgilasa, aybning shakli jinoiy harakatni jinoiy bo'lmagan harakatdan ajratib beradi. Masalan, bolani almashtirib qo'yish, agar ehtiyotsizlik orqasida sodir etilsa, jinoiy javobgarlikka olib kelmaydi.

Shu kabi hodisalar qatorida aybning shakli jinoiy javobgarlikni qonuniy tabaqalashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Qasddan odam o'ldirish, qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'irlikda shikast yetkazish, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish kabi qilmishlar ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganlariga qaraganda, ular uchun javobgarlik ancha qattiqroq.

Qasd va ehtiyotsizlikning ko'rinishi jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmasdan, jinoiy javobgarlik va jazoni individuallashtirishda muhim mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, agar jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etilgan bo'lsa, egri qasd bilan sodir etilganga nisbatan u o'zida ancha ko'proq darajada xavflilikni ko'rsatadi, jinoiy o'z-o'ziga ishonish esa, beparvolikka nisbatan ancha xavfliroq ekanligini ko'rsatadi.

Faqat aybning qasd shakli bilan jinoyat sodir etishning bir necha huquqiy oqibatlari bog'langan. Chunonchi, retsdiv jinoyatlarni belgilash faqat ilgari qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun hukm qilinishi bilan bog'liq (JK 34-moddasi). Jinoiy faoliyatning boshlanishi va jinoyat sodir etishda ishtirokchilik kabi tushunchalar aybning faqat qasd shaklini taqozo etadi; aybning shakli (ijtimoiy xavflilik darajasiga bog'liq holda) jinoyatlarni kategoriyalar bo'yicha kvalifikatsiya qilishning asosida yotadi.

Va nihoyat, aybning shakli jazoni, shuningdek, uning o'talish shart-sharoitlarini oldindan belgilab beradi.

Qonunchilikni loyihalashtirishda JKning Maxsus qismi moddalarida ko'rsatilganidek, aybning shakli normalarning dispozitsiyasida to'g'ridan-

to'g'ri ko'rsatiladi yoki nazarda tutiladi (masalan, JK 97-moddasi – qasddan odam o'ldirish). Oxirgi vaziyatda aybning qasd shakliga qonunchilikda ko'rsatilgan xususiyat (o'g'rilik, talonchilik, nomusga tegish, tuhmat, pora olish yoki berish va h.k.) yoki qonunchilikda ko'rsatilgan qilmishning ayni bir maqsadi yoki sodir qilinayotgan qilmishning o'zboshimchaligi va noqonuniyligi yo bo'lmasa, jinoyat tarkibiga qilmishning maxsus motivini kiritish ko'rsatiladi.

Ehtiyotsizlik, asosan, dispozitsiyada ko'rsatilgan, o'z vazifalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, harakatsizlik (agar bunday harakat qandaydir maqsad yoki motivni tug'dirgan bo'lmasa) kabilarda aniq ifodasini topadi.

Shunday qilib, aybning ichki tuzilishi bilan bog'langan aybning shakli va boshqa elementlari (irodaviy va intellektual elementlari), shaxsning o'zini o'rab turgan real voqelikka bo'lgan ruhiy munosabatini belgilovchi aybning mohiyatini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, aybning ijtimoiy-huquqiy mohiyati, jinoyat qonunchiligi bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmishni jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat sifatida aniqlashiga tayanadi. Bunday mohiyat, ayb o'zida shaxs o'zi qilgan har qanday qilmishlari va uning oqibatlarini uchungina ruhiy munosabatini namoyon etmaydi, balki u faqat jazo qo'llash tahdidi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy xavfli, ya'ni Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar uchun xavfli qilmishlarni namoyon etadi. Aybdor shaxs jinoyat sodir eta turib, qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida davlat tomonidan o'rnatilgan qadriyatlarga nisbatan o'zining salbiy ichki munosabatini namoyon etadi.

Aybning ijtimoiy mohiyati, salbiy (qasddan sodir etiladigan tajovuzlar uchun xarakterli) yoki e'tiborsizlik yoki kam e'tiborli (ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan jinoyatlarga xarakterli bo'lgan) qasd yoki ehtiyotsizlik orqasida ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishda asosiy qadriyatlarga nisbatan ruhiy munosabatning namoyon bo'lishida ko'rinadi.

Sud-tergov amaliyoti nuqtai nazaridan ayb tasdiqlanishi qiyin bo'lgan konkret va aniq bo'lmagan kategoriya hisoblanadi. Shu bilan birga ayb jinoiy tajovuzlarni, ularning ijtimoiy xavfliligi, zararliligi va huquqqa xilofliligini ifodalovchi o'ziga xos miqdoriy o'lchovlariga ega. Shunday

aybni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri darajadir. Aybning mohiyati tushunchasi kabi ayb darajasi tushunchasi ham jinoyat qonunchiligida nazariy xarakterga ega. Bundan tashqari, sud va dastlabki tergov uchun ayb darajasini aniqlash amaliy ahamiyat kasb etadi.

NOTA BENE !

Aybning darajasi jinoyat subyektining jinoyat holatlariga bo'lgan munosabatining shakli va tarkibi majmui bilan aniqlanadi hamda ijtimoiy qilmish darajasi bilan belgilanadi. Bular quyidagilardan iborat: ruhiy munosabat xususiyatlari, jinoyatning motiv va maqsadi, shaxsni xarakterlaydigan holatlariga oid jinoiy qasd va ehtiyotsizlikning kelib chiqishiga turtki bo'lgan sabab va shart-sharoitlar.

Masalan, qasddan sodir etilayotgan jinoyatda, aybdor obyektga tajovuz qilishida o'zining munosabatini ongli ravishda aniq ko'rinishlarda namoyon qiladi, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatda esa bunday ko'rinish bo'lmaydi. Binobarin, aybning darajasi qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etiladigan jinoyatlarga qaraganda ancha yuqori bo'ladi.

Qasdning va ehtiyotsizlikning ko'rinishlarini qiyoslash birmuncha qiyinroq. Agar to'g'ri qasd bilan egri qasdni bir xil sharoitlarda baholaydigan bo'lsak, har doim to'g'ri qasdning egri qasdga nisbatan xavfliroqligini ko'ramiz. Shuningdek, bir kishining o'lishini istagan odamga qaraganda, bir necha kishining o'lishini istagan odam xavfliroq, yong'in bo'layotgan uyda kasal odamni ongli ravishda qoldirish, kasal odamni yoqib yuborish yo'li bilan o'ldirishga qaraganda xavfliligi kamroq.

Qasdning ko'rinishi jinoyat xavfliligiga ta'sir etuvchi faktor sifatida qasddan odam o'ldirish jinoyatining subyekt belgilari qatoriga qo'yilishi tasodif emas. Bu, umuman olganda, hamma qasddan sodir etiladigan jinoyatlarga tegishli. Shuningdek, beparvolik orqasida sodir etilgan jinoyatga qaraganda, o'z-o'ziga ishonish orqasida sodir etilgan jinoyat har doim xavfliroq bo'lgani kabi jinoyatlarning ehtiyotsizlik orqasida sodir etilishining ko'rinishlarini ham belgilash joiz bo'ladi.

o‘z-o‘ziga ishonishda aybdor o‘zining o‘ylamasdan qilinadigan harakatidan to‘xtatib qoluvchi kontrmotivni yengib chiqishi talab etiladi, aybdor nafaqat qilmishining yomon oqibatlaridan o‘zini tiyishni, balki yuz bergan holatni va uning oqibatlarining hamma detallarini diqqat bilan baholashni ham o‘z zimmasiga olmaydi. Aybdorning qilmishiga nisbatan bunday munosabati, ya’ni uning kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatlarni ko‘ra olmasligi beparvolikka qaraganda ancha xavfliroqligi turgan gap.

Shakli va ko‘rinishiga qaramay aybning darajasiga aybdorning psixikasidagi intellektual va ruhiy jarayonlarning tarkibiy xususiyatlari ta’sir etadi. Ongning hajmi va aniqligi, oldindan ko‘ra bilish xususiyati, oldindan o‘ylab qo‘yishlik, maqsadga erishishda qat’iylik qasddan sodir etilgan aybning darajasiga jiddiy ta’sir qilishi mumkin. Xolatni baholashdagi o‘z-o‘ziga ishonishning darajasi, oqibatlarni oldindan ko‘ra bilishning va ko‘ra olmaslikning xususiyati hamda sababi ehtiyotsizlik natijasidagi aybning darajasi oshishiga yoki pasayishiga ta’sir etishi mumkin.

Muayyan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishida aybning darajasi uning aybdorning mo‘ljali chegarasini xato ko‘rishidagi bevosita ko‘rinishi hisoblanadi. Shuning uchun undan aybdorga tayinlanayotgan jazoning xususiyati va miqdori, huquqbuzarning mo‘ljalidagi ijtimoiy defektlarni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan, jinoiy-huquqiy majburlashning o‘lchovi to‘g‘ri bog‘langan holda bo‘ladi.

Sud-tergov amaliyotida ayb va jinoiy javobgarlik masalasining hal etilishida shaxsning holati va ruhiy xususiyati, uning o‘ziga xosligi va jihatlari, unda kechayotgan psixologik jarayonlar shaxsning ongida qilmish mohiyatining to‘g‘ri ko‘rinishiga ta’sir etishi mumkin. Xususan, zaruriy mudofaaning chegarasidan chetga chiqish masalasini hal etishda javobgarlik faqat tajovuzning xavfliligi va mudofaaning xususiyatiga mutlaqo mos kelmasligidan boshlanadi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, zaruriy mudofaada, qoida bo‘yicha, shaxs to‘satdan jinoiy tajovuz bilan to‘qnashadi, uning nerv sistemasida birdan keskin qo‘zg‘alish, emotsional chayqalish paydo bo‘ladi. Bunday holatda shaxs har doim ham zaruriy

mudofaa qilishda tajovuzning xususiyati va xavflilik darajasini o'zining zaruriy mudofaa qilish uchun harakatlari (ularning kuchlari, intensivligi, foydalanilgan vositalar) bilan taqqoslay olmaydi hamda unga to'g'ri baho bera olmaydi¹.

3-§. Qasd va uning turlari

Aybning qasd ko'rinishi aybning ehtiyotsizlik shakliga qaraganda ancha ko'proq tarqalgan turi bo'lgani uchun qonun chiqaruvchilar tomonidan ko'proq ko'rib chiqiladi. Qasd ehtiyotsizlikka qaraganda ancha xavfliroq, xususan, qonun chiqaruvchilar tomonidan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlar kiritilganligi shu bilan tasdiqlanadi (JK 15-moddasi 5- va 4-qismlari).

Qonunchilik **JK 21-moddasida** qasdning holatini moddiy va formal tarkibli jinoyatlarda ko'radi. Xususan, formal tarkibli jinoyatni kvalifikatsiya qilishda aybdorning qasdi ijtimoiy xavfli qilmishni qamrab oladi. Moddiy tarkibli jinoyatlarda esa, aybdor muayyan jinoiy oqibatning kelib chiqishini tushunib yetishi va unga yo'l qo'yib berishi zarur.

Qasdning tarkibi aniqligi va maqsadga qaratilganligi jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishning dastlabki zaruriy sharti hisoblanadi.

Qasdning **tarkibini** intellektual tomon, **maqsadga qaratilganlikni** esa, irodaviy tomon ifodalaydi. Agar tarkib shaxsning o'z harakatini (harakatsizligini) ijtimoiy xavflilik darajasini anglab yetishi qobiliyatida ifodalansa, moddiy tarkibli va oqibatlarni oldindan ko'ra bilganida esa, aybdorni maqsadga yo'naltirilganlik, muayyan obyektga tahdid soluvchi va ma'lum zarar yetkazuvchi (moddiy tarkibli), yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni borligini ifodalovchi qilmishni sodir etishga yo'naltiradi (formal tarkibda). Masalan, mushtlashuv jarayonida pichoq bilan tan jarohati yetkazishda ko'p hollarda qilmish qasddan sodir etiladi. Biroq bu qilmishni kvalifikatsiya qilishda birgina faktning o'zi yetarli emas: jinoyatning tarkibi va maqsadga yo'naltirilganligini hisobga olgan

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 20 декабря 1996 г. № 39 «О применении судами законодательства, обеспечивающего право на необходимую оборону от общественно опасных посягательств» (с изменениями и дополнениями, внесенными постановлением Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 июня 2002 г. № 10) // Сборник. Т. I. – С. 326.

holda buni bezorilik yoki tan jarohati yetkazish yoki odam o'ldirishga suiqasd qilish yo bo'lmasa zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb baholash mumkin.

JK 21-moddasi 1-qismida qonun chiqaruvchi formal tarkibli jinoyatning tugallangan vaqtdan, ya'ni ijtimoiy xavfli qilmishning obyektiv sodir etilishiga qarab qasdning tarkibini ochib beradi. Keltirib o'tilgan normaga asosan: «Ushbu Kodeks moddasida jinoyat tamom bo'lgan payt ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan vaqt deb hisoblangan bo'lib, uni sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi». Qandaydir oqibat kelib chiqadimi yoki yo'qmi, undan qat'i nazar, shaxs aybdor deb topiladi va javobgarlikka tortiladi.

Formal tarkibli jinoyatlarda qasd turlarga bo'linmaydi, boshqacha aytganda, ayb faqat to'g'ri qasdli bo'ladi.

Formal tarkibli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda shaxsning o'z harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglab yetishi (intellektual holat) hamda shunday harakatlarni sodir etishni yoki harakatsizlik (irodaviy holat)ni istashi kabi faktlar muhim hisoblanadi.

Bu yerda qonun chiqaruvchi tomonidan tajovuzning ijtimoiy xavfli oqibatlari huquqiy xususiyat doirasidan tashqarida qoldiriladi va sud tomonidan tayinlanadigan jazoning turi va miqdoriga ta'sir etsa ham subyektning aybdorligini belgilash vaqtida ahamiyat kasb etmaydi.

Intellektual holat shaxs tomonidan o'zi sodir etgan u yoki bu qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashi bilan bog'liq jarayonlarni o'zi ichiga oladi.

Shaxs tomonidan **qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglash**, birinchidan, qilmishning haqiqiy mohiyatini, ikkinchidan, uning ijtimoiy ahamiyatini bilishni bildiradi. Anglash, tajovuz qaratilgan manfaat, qadriyatlarining xususiyati to'g'risida tasavvur mavjudligi, ya'ni jinoyatning obyekti, qilmishning mohiyati, uning vositasida tajovuz amalga oshiriladigan hamda boshqa jinoyat sodir etishdagi faktik holatlar (vaqt, usul, holat)ni namoyon etadi. Bu jarayonlar hammasining aks etishi

aybdorning ongida unga jinoyat qonunchiligi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy manfaatlarga qilmishning obyektiv yo'naltirilganligini, ya'ni ijtimoiy xavfni anglash imkonini beradi. Ijtimoiy xavf ostida qilmishning haqiqiy belgilaridan tashqarida yotuvchi qandaydir mustaqil elementi emas, balki barcha obyektiv belgilarini yuzaga keltiruvchi qilmishning yaxlit tarkibi nazarda tutiladi. Shuning uchun ijtimoiy xavfni anglash, qilmish faktik belgilarining ijtimoiy tarkibini anglashga olib boradi.

Jinoyat subyektining o'zini ifodalovchi belgilarini anglash qasdning tarkibiga kirmaydi. Masalan, agar 13 yoshli shaxs odam o'ldirganlik uchun og'irlashtiruvchi holatlarda javobgarlikka tortiladi, hattoki u xuddi shu jinoyat uchun javobgarlik 14 yoshdan kelib chiqadi deb o'ylagan bo'lsa ham. Bundan tashqari, qasd maxsus subyektning belgilarini anglashni o'z ichiga olib, ular aybdorga yuklatilgan maxsus majburiyatlarni buzganlik bilan bog'langan bo'lib, jinoyatning maxsus belgilari hisoblanadi (masalan, mansabdorlik jinoyati).

Qilmishning ijtimoiy xavfliligini uning huquqqa xilofligi bilan tenglashtirib bo'lmaydi, ya'ni shaxs o'zi sodir etgan qilmishi jazo qo'llash tahdidi bilan qonun tomonidan taqiqlanganligidan va bu uchun javobgarlikdan umumiy tarzda bo'lsa ham xabardor bo'lishi kerak. Ko'p hollarda jinoyatlar huquqqa xilofligi anglangan holda sodir etiladi. Biroq qonunchilik sodir etilayotgan qilmishning huquqqa xilofligini anglashni ayb shaklining tarkibiga kiritmaydi, shuning uchun sodir etilgan qilmishning huquqqa xilofligini aybdor anglab yetmagan hollarida, hattoki qonunchilik ignorantia legis neminem excusat¹ tamoyilini nazarda tutsa ham, jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi.

Formal tarkibli jinoyatlarda qasdning intellektual tomonini qilmishning ijtimoiy xavfliligi va uning ijtimoiy ahamiyati tashkil etadi. Yuqorida keltirib o'tilgan jinoyatlar tarkibini kvalifikatsiya qilishda, sudtergov xodimlarining birinchi galdagi vazifasi aybdorning ruhiy ko'rinishini, ya'ni sodir etilayotgan qilmishning ijtimoiy xavfli xususiyatini belgilashdir, chunki formal tarkibli jinoyatlarda aybdorning qasdi muayyan ijtimoiy xavfli oqibatni keltirishni istash yoki uning kelib

¹ Незнание закона никого не извиняет (лат.).

chiqishini oldindan ko'ra bilishni qamrab olishining zarurati bo'lmaydi. Formal tarkibli jinoyatlarni sodir etishda qasdning irodaviy holati birmuncha moddiy tarkibli jinoyatlar bilan taqqoslashda chegaralangan va faqat u ijtimoiy xavfli qilmishning o'ziga, ya'ni uning sodir etilishiga bo'lgan irodaviy munosabat bilan tugallanadi.

JK 21-moddasi 2-qismida moddiy tarkibli jinoyatlarda qasdning tarkibi nazarda tutiladi: «ushbu kodeks moddasida jinoyat tamom bo'lgan payt ijtimoiy xavfli oqibat yuz bergan vaqt deb topilgan qilmishlar to'g'ri yoki egri qasddan sodir etilgan bo'lishi mumkin». Bunday ajratish qonunchilik tomonidan qasddan sodir etilgan jinoyatlarning irodaviy holati asosida quriladi. Qasdning aynan shu elementida qasdni turlarga bo'luvchi muhim belgilari ko'rinadi. Aybdorning turli xil ruhiy munosabati, istagi yoki ongli ravishda jinoyat sodir etishda ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqishiga yo'l qo'yib berishi qasdning to'g'ri va egri qasdga bo'linishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun istak va ongli ravishda yo'l qo'yib berish to'g'risidagi masala, jinoyat tarkibining elementi hisoblanuvchi oqibatlarga aybning shaklini ajratish uchun ahamiyatga ega. Qasdning bunday to'g'ri va egri qasdga bo'linishi faqat moddiy tarkibli jinoyatlarga tegishli, ularning ijtimoiy xavfliligi va huquqqa xilofligini jinoyat qonuni zarar yetkazish, ijtimoiy munosabatlarning destruktiv o'zgarishi bilan bog'laydi.

Qasdning turini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etgani uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi bir necha marotaba sudlarga jazo tayinlashda qasdning turini, uning yo'nalishini, jinoyat motiv va maqsadining zaruriyligini hisobga olishlikni ko'rsatib o'tdi.

JK 21-moddasi 3-qismi moddiy tarkibli jinoyatlarda to'g'ri qasdning mohiyati va xarakterli chiziqlarini ifodalaydi: «agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo'lsa, bunday jinoyat to'g'ri qasddan sodir etilgan deb topiladi».

To'g'ri qasdning ushbu tarkibida to'g'ri qasd bilan sodir etilgan moddiy tarkibli jinoyatlarning mohiyatini ochib beruvchi va uni ifodalovchi intellektual va irodaviy holatlar ajratib ko'rsatiladi.

To'g'ri qasd intellektual holatining ikkita aspekti mavjud: sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglash va ijtimoiy xavfli

oqibatlarining kelib chiqishini oldindan ko'ra bilish. Mazkur holatda aybdor shaxsning ongida, uning harakati (harakatsizligi)da ijtimoiy xavfli xususiyat mavjud va bu harakat (harakatsizlik)larni sodir etishlik bilan muayyan ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishi namoyon bo'ladi. Barcha aytilganlar odamning ongidan o'tadi, shuning uchun to'g'ri qasdning intellektual tomonini tashkil etadi.

O'z qilmishining (harakat yoki harakatsizlik) **ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan ko'ra bilish**, ularning kelib chiqishi va huquqqa xilof xususiyatini oldindan bilish shaxsning jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga o'zi yetkazgan zararni qamrab oladi.

To'g'ri qasdda oldindan ko'ra bilishlik, ijtimoiy munosabatlarda kelgusida bo'ladigan o'zgarishlarning faktik tarkibi to'g'risida tasavvurni qamrab oladi. Shuningdek, u bu o'zgarishlarning ijtimoiy zararliligini tushunish bilan ham bog'liq. Va nihoyat, oldindan ko'ra bilish sodir etilgan qilmish va ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanishdan iborat bo'ladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko'ra bilish ikki turda namoyon bo'ladi: to'g'ri va egri qasdlarda. Garchi qonunchilikning ta'rificha, to'g'ri va egri qasdlarda ko'rsatilgan oqibatlar o'zgarishsiz qoladi. Oldindan ko'ra bilishning ikki turi to'g'ri va egri qasdning irodaviy holatiga sezilarli darajada ta'sir etadi.

Ko'p hollarda to'g'ri qasdda shaxs ijtimoiy xavfni yetkazishga o'z maqsadlarining haqiqatda amalga oshishiga ishonib va kelib chiqadigan oqibatlarni ideal shaklda tasavvur etar ekan, ijtimoiy xavfni o'z qilmishining muqarrar natijasi sifatida oldindan ko'ra oladi. Shuningdek, shaxs to'g'ri qasdda jinoiy qilmish sodir etilishi natijasida ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishining real imkoniyatini ko'ra olishi mumkin.

To'g'ri qasd uchun ahamiyatli tomoni muayyan natijaga erishishdagi niyat uning amalga oshishidagi zaruriy shart bilan bog'langan. Qachonki aybdor shaxs oqibat kelib chiqishi muqarrarligini oldindan ko'rsa, harakat bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lsa, shu bilan birga aybdor buning rivojlanishini anglaydi, ya'ni uning harakatlari

muayyan oqibatlarni keltirib chiqarishi muqarrarligini anglaydi. Shuning uchun oqibat kelib chiqishining muqarrarligi uning haqiqatan ham (faktik) kelib chiqishi bilan kuzatilmisligi mumkin. Oqibatning kelib chiqishi muqarrarligini anglash to'g'risida, aybdorning fikricha, qachonki u oqibatning kelib chiqishi uchun hamma zaruriy ishlarni qilsa ham, unga oldindan ko'rinmagan holatlar to'sqinligi sababli natija kelib chiqmagan taqdirda gapirish mumkin.

To'g'ri qasdning irodaviy holati uning yo'naltirilganligini ifodalaydi va qonunchilikda ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishini istashda aniqlanadi.

Xohish – bu maqsadga erishishga jalb etuvchi iroda, belgilangan maqsadga qarab intilishdir. «Istak – bu belgilab qo'yilgan intilishdir, u aniq bir predmetga qaratilgan bo'ladi. Istakning tug'ilishi, shuning uchun har doim maqsadning vujudga kelishini va qo'yilishini bildiradi. Istak – aniq bir maqsadga yo'naltirilgan intilishdir»¹.

Xohish turlicha bo'lishi mumkin. To'g'ri qasdning belgisi sifatida xohish muayyan maqsadlarga intilishda aybdor uchun quyidagilarni bildirishi mumkin:

- oxirgi tugal maqsad (rashk tufayli qasddan odam o'ldirish, qasos);
- oxirgi maqsadga erishishning orasidagi bosqich (boshqa bir jinoyatni yashirish maqsadida qasddan odam o'ldirish);
- oxirgi maqsadga erishish vositasi (jabrlanuvchining mol-mulkini egallash maqsadida qasddan odam o'ldirish);
- qilmishning muqarrar birga keladigan elementi (zaharlangan ovqat orqali qasddan o'ldirish yo'li bilan mo'ljallangan odamnigina emas, balki uning oila a'zolarini ham o'ldirish).

Aybdor harakatining maqsadi to'g'ri qasdda istakning predmeti bo'lib, mazkur jinoyat tarkibining elementini o'zida ifodalovchi ijtimoiy xavfli oqibat hisoblanadi. Masalan, qasddan odam o'ldirishda – bu jabrlanuvchining o'limi, o'g'irlikda – o'zgarar mulkini qo'lga kiritish, bezorilikda – jamoat tartibini buzishdir. Inson o'z oldiga qo'ygan faoliyatining maqsadlari motiv bilan aniqlanadi. Shuning uchun to'g'ri

¹ Каранг: С.Л. Рубинштейн. Основы психологии. М., 1946, стр. 513.

qasd natijasidagi jinoiy oqibat, aybdor harakatining asosiy maqsadi hisoblanib, shaxs faoliyatining motividan kelib chiqadi va shu motiv bilan aniqlashtiriladi.

To'g'ri qasdning maqsadga qaratilganligi (irodaviy holatning belgisi sifatida) jinoyat tarkibining faqat keltirilgan zarar bilan chegaralanib qolganini bildirmaydi. Alohida maqsadga qaratilgan jinoyatlarda, jinoyat tarkibi chegarasida bo'lgan, shuningdek, boshqa bir holatlarda ham yo'nalish maxsus natijaga qaratilgan bo'ladi. Ammo bu natijalar jinoyat tarkibida ko'zda tutib o'tilgan umumiy qasdning yo'naltirilgan bir bosqichi sifatida qaraladi.

NOTA BENE !

To'g'ri qasd – qasdning shunday ko'rinishiki, unda shaxs o'z harakati (harakatsizligi)ning ijtimoiy xavfliligini anglaydi, ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishining real imkoniyatini va muqarrarligini oldindan ko'ra oladi va ularning kelib chiqishini istaydi.

JK 21-moddasi 4-qismiga ko'ra, «agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday jinoyat egri qasddan sodir etilgan deb topiladi».

Egri qasdda ham to'g'ri qasdda bo'lganidek intellektual va irodaviy holatlar kiritilgan.

Egri qasdda intellektual holat quyidagilar bilan izohlanadi:

- sodir etilayotgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglash;
- ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishini oldindan ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lish.

Egri qasdda qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglash to'g'ri qasdning belgilariga muvofiq ravishda bu belgilardan farq qilmaydi. Lekin egri qasddagi ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko'ra bilishda farqlar mavjud bo'lib, bu qasdni turlarga ajratib turadi: to'g'ri qasdda subyekt oqibat kelib chiqishi zarurligini oldindan ko'ra biladi, egri qasdda esa, jinoiy oqibatning kelib chiqishi real imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bundan

tashqari, to'g'ri va egri qasd o'rtasidagi farq ularning ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko'ra bilishdagi irodaviy holatiga ko'ra aniqlanadi. To'g'ri qasddan farqli ravishda egri qasdda shaxs ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishini xohlamaydi, lekin ularning kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

Egri qasdda faqat ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishini oldindan ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lish uning mohiyatini chegaralaydi. Shaxs o'zi sodir qilayotgan harakatlari obyektiv borliqqa qanday ta'sir o'tkazib, ijtimoiy xavfli oqibat olib kelishini anglaydi, lekin ba'zan oqibat yuzaga kelmasligi ham mumkin, chunki oqibat yuzaga kelishi uchun subyekt tomonidan nazorat qilinmaydigan boshqa shartlar ham zarur bo'ladi. Bu yerda oqibat birgina oqibat bilan bog'liq bo'lmay, aybdorga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar natijasi hisoblanadi. Gap aniq sharoitda shartlardagi real imkoniyatlar haqida bormoqda, individual holatdagi mavhumlik haqida emas.

«Real imkoniyat» atamasi **JK 21-moddasi 4-qismida** ishlatilmagan bo'lsa-da, bu egri qasddagi oldindan ko'ra bilish tushunchasini aniq ifodalaydi.

Egri qasdning irodaviy holati ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yib berishda va xohishning mavjud emasligida ifodalanadi.

Ongli yo'l qo'yishda oldindan ko'ra bilish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jinoiy oqibatga nisbatan mavhum bo'lmay, real bo'lishi muvofiqdir. Egri qasdning mohiyati shundaki, shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini tushunib, uning natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatni oldindan ko'ra bilish real imkoniyatlariga ega bo'ladi va bunday oqibatlar yuzaga kelishiga ongli ravishda yo'l qo'yadi. o'z navbatida, egri va to'g'ri qasd o'rtasida nafaqat irodaviy holatlardagi ruhiy mohiyatda, balki anglashda ham farqlar mavjud.

Egri qasddan sodir etilgan jinoyatlarda aybdor ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishini xohlamaydi. Biroq shaxsning jinoiy oqibatlarni keltirib chiqarishni istamasligini faol xohlamaslik sifatida, ularning kelib chiqishidan qochishga intilish sifatida tushunish kerak emas. Aksincha, **ongli ravishda yo'l qo'yish** aybdorning o'z qilmishi bilan keltirib

chiqaradigan muayyan voqealar zanjirini, ongli ravishda ijtimoiy xavfli oqibatlarni keltirib chiqarishga olib keluvchi sababiy rivojlanishini anglatadi. Ijtimoiy xavfli oqibatlarga nisbatan salbiy munosabatlarni bildiruvchi faol irodaviy jarayon – xohlamaslikdan farqli ravishda, ongli ravishda yo‘l qo‘yib berishda oqibatlarga nisbatan ijobiy irodaviy munosabatlarni anglatuvchi faol kechinma mavjud.

Egri qasdga xos bo‘lgan oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yib berishda jinoiy oqibat aybdor qilmishining maqsadi ham, unga erishishdagi vosita ham, maqsad yo‘lidagi bosqich ham emas. Boshqacha aytganda, aybdorga jinoiy oqibat kerak emas, u oqibatning kelib chiqishini xohlamaydi ham.

Shunday qilib, **JK 21-moddasi 4-qismida** keltirib o‘tilganlarga asosan, egri qasdning ilmiy-nazariy tushunchasini aniqlash mumkin.

NOTA BENE !

Egri qasd qasdning shunday ko‘rinishiki, unda shaxs o‘z harakati (harakatsizligi)ning ijtimoiy xavfliligini anglaydi, ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishining real imkoniyatiga ko‘zi yetadi, ularning kelib chiqishini xohlamaydi, biroq bu oqibatlarning kelib chiqishiga ongli ravishda yo‘l qo‘yib beradi yoki ularga befarq bo‘ladi.

Qasdning to‘g‘ri va egri qasd turlariga bo‘linishi javobgarlikni va jazoni individuallashtirishda, aybdorning shaxsini va u sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishning darajasini, shuningdek, uning aybi darajasini aniqlash imkoniyatini berishi sababli hisobga olinishi lozim. Jumladan, to‘g‘ri qasdda subyektning irodasi oqibatlarga nisbatan faol pozitsiyani egallagani uchun, boshqa teng sharoitlarda jinoyat sodir etilishida to‘g‘ri qasdning mavjudligi ijtimoiy xavfning ancha yuqori darajasini ifodalaydi.

Amaldagi Jinoyat kodeksida qasdning faqatgina ikki turi mavjudligiga qaramasdan, jinoyat-huquqiy doktrinada to‘g‘ri va egri qasdning shunday nomlanuvchi turlari ajratib ko‘rsatiladi.

Jinoiy niyatning vujudga kelish holatiga bog‘liq holda oldindan o‘ylangan, to‘satdan paydo bo‘lgan va affektli qasdlar farqlanadi.

Oldindan o‘ylangan qasdda jinoyat sodir etish niyatining vujudga kelishi jinoyat sodir etishning o‘zidan bir qancha vaqt oraliqlari bilan ajratilgan bo‘lib, unda shaxs jinoyatning tafsilotlarini o‘ylab qo‘yadi, rejasini tuzadi, usullarini belgilab oladi, jinoyat sodir etish uchun qurol, vosita, sherik va sh.k.larni tanlab oladi. Odatda, qasdning bunday turi shaxsning barqaror jamiyatga qarshi bo‘lgan moyilligini namoyon etib, jinoyatchi aybining ancha yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Ba’zi hollarda shunday ham bo‘ladiki, sezilarli darajadagi vaqt oralig‘i ham jinoyat sodir etish niyati vujudga kelishi bilan uni sodir etish o‘rtasidagi, aslini olganda, subyektning motivlari ichki kurashi va h.k. lar bilan tushuntiriladi, shundagina oldindan o‘ylangan qasdning mavjudligi aybdorning yuqori darajadagi ijtimoiy xavfliligidan dalolat bermasligi mumkin.

«Oldindan o‘ylangan qasdning mavjudligi kvalifikatsiyaga ta’sir etmaydi. U ko‘proq guruh tashkil etish va tayyorgarlik ko‘rish institutlari alomatlari sifatida namoyon bo‘ladi»¹.

To‘satdan paydo bo‘lgan qasdda qasdning paydo bo‘lishi va uning amalga oshirilishi o‘rtasidagi vaqt oralig‘i uncha ahamiyatli emas. Jinoyatni sodir etish niyati qasdning paydo bo‘lishi bilanoq amalga oshiriladi. Qoida bo‘yicha to‘satdan paydo bo‘luvchi qasd jinoyat sodir etishda aybdorning kam darajali ijtimoiy xavfliligini ifodalovchi holatlarda ko‘rinadi. Shu asnodda qasdning mazkur turi sodir etilgan qilmishning va shaxs xavfliligining yuqori ekanini namoyon etadi. Masalan, ko‘chada tasodifan o‘tib ketayotgan odamni sababsiz (chekishga bermaganlik uchun va h.k.lar) bezorilik orqasida o‘ldirish oldindan va puxta o‘ylangan rashk tufayli odam o‘ldirishdan ancha og‘irroq jinoyat hisoblanadi.

Affekt holatidagi qasdning xarakterli tomoni shuki, shaxsda jinoyat sodir etish niyati kuchli ruhiy hayajonlanish holatida bo‘lgan paytida (fiziologik affekt holati) paydo bo‘lib, shaxs o‘zi sodir etayotgan qilmishining xususiyatini anglashi qiyinlashadi. Affekt holatidagi qasd to‘satdan paydo bo‘lgan qasddan farqli hisoblanib, uning jinoyat-huquqiy mazmunga ega bo‘lishiga affekt holatini keltirib chiqargan

¹ Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под ред. д.ю.н., проф. Н.Ф. Кузнецовой и к.ю.н., доц. И.М. Тяжковой. – С. 319.

jabrlanuvchining axloq va huquqqa xilof harakatlari sabab bo‘ladi. Mazkur fakt qonunchilikda kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish (JK 98-moddasi) va kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir va o‘rtacha og‘irlikda shikast yetkazish (JK 106-moddasi) kabi jinoyatlar tarkibini yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olingan.

Subyektning o‘zi sodir etgan qilmishi to‘g‘risidagi tasavvuri va keltiruvchi jinoiy oqibatlariga ko‘ra qasd aniqlangan (konkretlashtirilgan), aniqlanmagan (konkretlashtirilmagan) va alternativ turlarga bo‘linadi.

Aniqlangan (konkretlashtirilgan) qasdda subyekt kelib chiqishi mumkin bo‘lgan zararning hajmi va xususiyati to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lib, muayyan ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishini oldindan ko‘ra oladi, qandaydir bir jinoiy natijaga erishishni istaydi. Masalan olaylik, ko‘krak yoki bosh qismiga o‘q otish orqali aybdor butunlay konkret bo‘lgan individual aniqlangan jinoiy natija – jabrlanuvchining o‘limi kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘ra oladi.

Aniqlangan qasdda aybdorning qilmishi qasdning yo‘naltirilganligi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Aniqlanmagan (konkretlashtirilmagan) qasd aybdorning o‘zi sodir etayotgan qilmishi oqibatlari to‘g‘risida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi, ya’ni ularning individual aniqlangan bo‘lmaganligi, yetkaziladigan zararning hajmi va xususiyati konkret bo‘lmasligi bilan ifodalanadi. Masalan, jabrlanuvchining boshiga va gavda qismiga urish orqali, aybdor unga tan jarohatlari yetkazayotganligini angelaydi, biroq uning tasavvuri yetkazilayotgan zararning og‘irlik darajasini, ya’ni og‘irmi, o‘rtacha og‘irmi yoki yengil tan jarohati bo‘ladimi buni qamrab ololmaydi.

Aniqlanmagan qasddan sodir etilgan jinoyatlarni faktik kelib chiqqan oqibatlarga bog‘liq holda kvalifikatsiya qilish kerak bo‘ladi.

Alternativ qasd aniqlangan (konkretlashtirilgan) qasdning bir turi bo‘lib, aybdor o‘zining sodir etgan huquqqa xilof qilmishi natijasidagi ikki yoki ancha individual aniqlangan ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘ra oladi va anglab yetadi, shuning bilan subyektning irodasi teng darajalarda oqibatlardan xohlagan biriga erishishga qaratiladi. Masalan, jabrlanuvchining bosh qismiga urish orqali

aybdor, jabrlanuvchining o'limi yoki unga og'ir tan jarohatlari yetkazish kabi oqibatni bir xil darajada oldindan ko'ra bilishi va ularning kelib chiqishini istashi mumkin. Bunday holatlarda sodir etilgan qilmishni kelib chiqqan faktik oqibatlar bilan bog'langan holda kvalifikatsiya qilish lozim. Agar subyektning bunday harakatlari natijasida jabrlanuvchiga o'rtacha og'irlikdagi shikast yetkazilgan bo'lsa, javobgarlik aybdorning qasdi ancha og'irroq zarar yetkazishga qaratilgan bo'lganligi sababli og'ir tan jarohati yetkazishga suiqasd deb belgilanishi lozim.

4-§. Ehtiyotsizlik va uning turlari

Aybning ehtiyotsizlik shakli aybdorlikning uncha ijtimoiy xavfli bo'lmagan ko'rinishi hisoblanadi. Ehtiyotsizlik qasddan farqli ravishda aybdorning jinoiy oqibatlarga salbiy munosabati bilan bog'langan bo'lib, unga ko'ra aybdor jinoiy oqibatlarning kelib chiqishini istamaydi va bunday oqibatlar kelib chiqishiga ko'zi yetmaydi.

NOTA BENE !

Agar jinoyatni sodir etgan shaxs o'z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yeta turib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo'lsa (**o'z-o'ziga ishonish**) yoxud bunday oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lsa (**beparvolik**), bunday jinoyat **ehtiyotsizlik orqasida** sodir etilgan jinoyat deb hisoblanadi.

Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanganidek, ehtiyotsizlik orqasida sodir qilingan jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi ijtimoiy xavfli oqibat yetkazilishi bilan yuzaga keladi. Qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning mavjud bo'lmasligi, o'z navbatida, javobgarlikni yuzaga keltirmaydi. Biroq jinoyat kodeksida istisnolar ham bor. Jumladan, hujjatlarni, predmetlarni va narsalarni, davlat siri yoki harbiy sir

hisoblangan hujjatlarni ehtiyotsizlik orqasida yo‘qotish jinoyat deb topiladi (JK 163-moddasi).

Qonunchilik ehtiyotsizlikning o‘z-o‘ziga ishonish va beparvolik shakllarini belgilasa-da, har ikki holatda ham ularni kelib chiqadigan oqibat bilan bog‘laydi. Ular insonning salbiy jihatlari – e‘tiborsizlik, befarqlik va ehtiyotsizlik kabi xislatlari bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, u yoki bu holatda shaxs zarur darajada ehtiyotkorlik qilmaydi, shuning uchun o‘z-o‘ziga ishonish va beparvolikni ehtiyotsizlik tushunchasi birlashtirib turadi.

Ehtiyotsizlik orqasida sodir qilingan jinoyatlarni birlashtirib turuvchi xususiyatlardan biri, bu – aybdorning qilmishga nisbatan ruhiy munosabati bo‘lib, shaxs o‘zining qilmishida (harakat yoki harakatsizlikda) ijtimoiy xavfli xususiyatlarni anglamaydi. Bepervolikda bunday xususiyat ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko‘ra bilmaganlik bilan, o‘z-o‘ziga ishonishda oqibat kelib chiqishiga asossiz umid qilish, jamiyatga zarar yetkazmasligiga ishonchda ifodalanadi. Ayni vaqtda, o‘z-o‘ziga ishonish va beparvolikda ham shaxs sodir etayotgan qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashi lozim va anglashi mumkin bo‘lish majburiyati mavjud bo‘ladi.

Odatda, ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyatlar yetkazilgan oqibatga qarab, ayrim holda esa, bu oqibatlarni vujudga keltirgan usul va vositasiga qarab tasniflanadi.

Qonun ehtiyotsizlik orqasida sodir qilingan jinoyatni qilmishni sodir etgan shaxsning o‘z qilmishi oqibatiga bo‘lgan munosabati sifatida baholaydi. Shunga muvofiq, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlar va ehtiyotsizlik ayb shaklini aks ettiruvchi jinoyatlar ko‘p hollarda moddiy tarkibga asoslangan bo‘ladi. Bu holatni rad etish asossiz javobgarlikning vujudga kelishiga, ayb uchun javobgarlik prinsipining buzilishiga olib keladi.

Ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlarda jinoyatning tayyorgarlik, suiqasd bosqichlari va ishtirokchilik belgilari bo‘lmaydi.

JK 22-moddasi 2-qismiga ko‘ra, agar jinoyatni sodir etgan shaxs o‘z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib

chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo'lsa, bunday jinoyatlar o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilgan deb topiladi.

O'z-o'ziga ishonish qasd singari aybdor ongida aks etuvchi obyektiv faoliyat faktlari (qilmishning faktik belgilari, uning kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlari, subyekt hisobga olgan holatlar)ni tashkil etuvchi o'zining predmetli mohiyatiga ega.

Ehtiyotsizlikning mazkur ko'rinishiga qonunchilikning bergan ta'rifi ko'ra, **o'z-o'ziga ishonishning intellektual (tafakkuriy) holati** shundan iboratki, aybdor o'z xulq-atvori natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko'ra biladi. Shu sababli, ba'zi kriminalistlarning fikricha, o'z-o'ziga ishonishda ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishini oldindan ko'ra bilish bu oqibatlarning kelib chiqmasligiga ishonchni neytrallashtirgani uchun sodir etilayotgan qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglash bilan bir xil qiymatga ega emas. Kelajakda xavfli oqibatlarning oldini olishga ishonsa-da (asossiz bo'lsa-da), subyekt sodir etgan qilmishining jamiyatga zarar yetkazmasligiga ishonadi, ya'ni uning ijtimoiy xavfli xususiyatga ega ekanligini anglamaydi. Shaxs, hatto, o'z harakatlarini ijtimoiy foydali deb o'ylashi ham mumkin. Misol uchun ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko'ra bilish huquqiy faoliyatlarda ham bo'lishi mumkin (jarrohlik operatsiyalari va boshqa tavakkalchilikka asoslangan sohalar). Mazkur hollarda shu tarzda oqibatni oldindan ko'ra bilish, salbiy oqibatlar kelib chiqishi oldini olishning zarur sharti hisoblanadi. Shuning uchun, o'z-o'ziga ishonishda ayb holati ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan ko'ra bilishda emas, balki ularning oldini olishga qaratilgan asossiz umidga nisbatan olinadi.

Boshqa bir huquqshunos olimlarning fikricha, o'z-o'ziga ishonish oqibatida jinoyat sodir etishda, subyekt qonun hujjatlari bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga to'laqonli zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, o'zi sodir etayotgan harakat yoki harakatsizlikning ijtimoiy xavfliligini anglaydi va shaxsning bunday holatni anglashi o'z-

o'ziga ishonishning qonun tomonidan belgilangan zaruriy belgisi bo'lib, har bir ishda sudlar tomonidan aniqlashtirilishi kerak.

Bu masalani hal etish jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etmagani uchun qonunchilik o'z-o'ziga ishonishni belgilab bergan holda, subyektning o'zi sodir etgan qilmishiga intellektual munosabatini kiritmagan.

O'z-o'ziga ishonish orqasida jinoyat sodir etgan subyekt ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini ko'ra oladigan darajada o'zi sodir etgan qilmishning faktik belgilarini anglashi lozim. Ta'kidlab o'tilganidek, ehtiyotsizlik uchun javobgarlik aksariyat ko'p hollarda ijtimoiy xavfli oqibatlar (qoida bo'yicha og'ir holatlar) mavjud bo'lib, ularning kelib chiqishida va shaxs qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyati aniqlangan hollarda kelib chiqadi.

Shaxsning muayyan ehtiyotkorlik qoidalari buzilganida, o'zi sodir etayotgan qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglashi yoki anglamasligi to'g'risidagi masalani hal etish, jazoni individuallashtirishdagina ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, jinoyatda o'z-o'ziga ishonishning intellektual holati **shaxsning ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'ra bilishiga** kiradi. Shuning uchun belgilariga ko'ra, o'z-o'ziga ishonish egri qasddagidek ijtimoiy xavfli oqibatlarni oldindan anglash bilan bir-biriga o'xshab ketadi. Biroq, egri qasdda aybdor aniq holat bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatni aniq anglasa, o'z-o'ziga ishonishda bunday oqibatni oldindan anglash mavhum xarakterga ega bo'ladi. Bunda shaxs yuzaga kelishi mumkin bo'lgan aniq shaklda bo'lmagan qilmish natijasidagi ijtimoiy xavfli oqibatni anglaydi.

Shu bilan birga mavhum oldindan anglash imkoniyatini unifikatsiya (bir xillashtirish) qilish mumkin emas. Bunday imkoniyat faqat aniq holat va vaqtlarda ko'rib chiqilishi mumkin. Har doim ham avtomashinaning tormoz shlangi yorilib, avariya uchurashi; o'rmonda daraxt kesayotganda yoki hayvonga qaratib ovchi o'q uzganda odam o'ldirishi; bemorning organizmida noma'lum anomaliyalarning mavjudligidan shifokorning aralashuvi natijasida uning sog'lig'iga zarar yetkazilishidagi holatlarda mavhumlik mavjud.

O‘z-o‘ziga ishonishda oldindan ko‘ra bilish shu bilan izohlanadiki, shaxs irodaviy jihatlar, ruhiy bosim va ta‘sir bilan mazkur holatlarning haqiqiy sababiy bog‘lanish rivojlanishini anglashi mumkin bo‘lsa-da, ularni anglamaydi. Aybdor holatga jiddiy yondashmay, lekin amalda oqibat kelib chiqishining oldini olishga umid qiladi, lekin amalda oqibat kelib chiqishiga monelik qila olmaydi.

Ta‘kidlash joizki, o‘z-o‘ziga ishonishda jinoiy oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko‘ra bilishi ongli ravishda ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga rioya qilmaslik bilan ifodalanadi.

Ehtiyotkorlik choralarga amal qilmaslikda shaxs kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan anglash imkoniyatiga ega bo‘lib, uning kelib chiqishining oldini olishda yetarli va zarur choralarni ko‘rmaydi. Mazkur holatlarda shaxs bunday oqibat ma‘lum bir holat va sharoitlar o‘tishi bilan kelib chiqmaydi, deb hisoblaydi, biroq oqibatning oldini olishga qaratilgan hech qanday mustaqil harakatni amalga oshirmaydi.

Shuning uchun aybdor shaxs sababiy bog‘lanishning bir-biriga to‘g‘ri kelib qolishini kuzatish holatida bo‘lmaydi yoki oddiygina jinoiy natijaning kelib chiqishi uchun qarshilik qiluvchi holatni noto‘g‘ri baholaganligi sababli o‘zi taxmin qilgan sababiy bog‘lanishining rivojlanishida adashishi mumkin. O‘z-o‘ziga ishonish bilan qasdning sababiy bog‘lanishdagi xato o‘rtasidagi asosiy farq, bu kelib chiqqan oqibatga nisbatan qasddan aybni rad etadi.

Ehtiyotkorlik choralari zaruriy va majburiy xususiyatga ega bo‘lgan ish, kasb va mansabdagi shaxs majburiyatlariga to‘laligicha kiradi. Bundan tashqari, ehtiyotkorlik choralari muayyan holatdan kelib chiqqan holda ham belgilanishi mumkin. Shuning uchun amal qilinishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni ko‘rsatib bo‘lmaydi.

Ehtiyot choralarining mavjudligi o‘z-o‘ziga ishonish ijtimoiy xavfli oqibatining oldini olishga qaratilgan asossiz tavakkalchilikni ifodalovchi **irodaviy holatning** xususiyati bilan ham bog‘liq. Bunda aybdor ehtiyot choralariga rioya qilmayotganini anglaganligi muhim ahamiyatga ega. Mazkur holat shundan dalolat beradiki, aybdor qandaydir obyektiv va

subyekt holatlarni anglaydi va ularga muvofiq ravishda o'z xulq-atvorini shakllantiradi.

O'z-o'ziga ishonishning irodaviy holati ijtimoiy xavfli oqibatlarining oldini olishga qaratilgan asossiz (yetarli asoslar mavjud bo'lmagan, yengiltaklik bilan) tavakkalchilikdan iborat. Bu bilan o'z-o'ziga ishonishlik to'g'risidagi hisob-kitobdan shunday fakt dalolat beradiki, unda jinoiy oqibat baribir kelib chiqadi. Aynan bu belgi o'z-o'ziga ishonishni egri qasddan ajratuvchi muhim belgi hisoblanadi.

Agar shaxs egri qasdda ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ysa yoki ularning kelib chiqishiga befarq bo'lsa, ya'ni kelib chiqqan oqibatni yoqlasa yoki ularga ijobiy yondashsa, o'z-o'ziga ishonish esa, shaxs nafaqat xohishining mavjud emasligi, oqibatlarga ongli ravishda yo'l qo'yishni istamasligi, ularni keltirib chiqarmaslikka harakat qilishi va ularga nisbatan nisbiy munosabatda bo'lishi bilan farqlanadi. Qonun o'z-o'ziga ishonishning irodaviy holatini (mazmun-mohiyatini) umid sifatida emas, balki ijtimoiy xavfli oqibatning oldini olishga qaratilgan to'la voqelik sifatida qaraydi. Subyekt tavakkalchilikka, holatlarning bir-biriga to'g'ri kelib qolishiga asoslanmaydi, balki uning fikri bo'yicha jinoiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan konkret shart-sharoitlar va holatlarga taxmin qiladi. Bunday shart-sharoit va holatlar (kuch, uddaburonlik, tajriba, ko'nikma, bilim va h.k.lar) qoida bo'yicha aybdorning shaxsi va qilmishiga nisbatan (tegishli) bo'ladi, shuningdek, jinoyat sodir etiladigan vaziyatlar (tungi vaqtda, odam yo'qligida va h.k.lar), boshqa shaxslarning harakatlari (piyodaning yo'ldan kesib o'tishga ulgurishiga ishonish, o'rmonda gulxanni kimdir o'chirishiga ishonish va h.k.), mexanizmlarning harakati va boshqa tabiat kuchlari ham.

Bunda taxmin o'z-o'ziga ishonishda yengiltaklik va ijtimoiy xavfli oqibatlarining oldini olishga qaratilgan holatlarga, ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga rioya qilmaslikda ko'rinuvchi noto'g'ri baho berish natijasida yuzaga keladi.

Qonunchilikda o'z-o'ziga ishonishni asossiz ravishda umid qilish konstruksiyasi ikki xil ifodalanadi. Uning ikki xilligi shundaki, asossiz ravishda umid qilish belgisi birinchi navbatda, o'z-o'ziga ishonishning

irodaviy holati va o‘z navbatida, uning intellektual holati ham hisoblanadi. Shaxs o‘zi taxmin qilayotgan holatlarni (to‘g‘rimi-noto‘g‘rimi) anglaydi va uning qilmishi bilan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibat o‘rtasida sababiy bog‘liqlikdagi rivojlanishning to‘xtatilishi yoki izdan chiqishiga taxmin qiladi. Shaxs kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan anglashi bilan birga uni o‘zining ishongan harakatlari ta‘sirida oldindan anglamasligi ham mumkin. o‘z navbatida, o‘z-o‘ziga ishongan holda harakat qilib, shaxs natijaning oldini olish imkoniyatlarini oldindan anglamaydi (aks holda, bu zararlarning oldini olishga bo‘lgan harakatlarga umid qilmasdi), biroq shaxs bu oqibatlarni oldindan ko‘ra bilishi lozim va mumkin edi.

Shu bilan birga shuni e‘tiborga olish kerakki, agar shaxs jinoyatning oldini olishga qaratilgan barcha choralarni ko‘rgan bo‘lsa hamda unda turli xil sabablar bo‘lib, natijaning oldini olish uchun yetarli bo‘lmagan va shaxs bilishi mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, u holda tasodif – aybsiz holda zarar yetkazish deb topiladi. Boshqacha aytganda, shaxs agar ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishini oldindan ko‘ra bilganda va uning oldini olish uchun zarur chora-tadbirlarni ko‘rganda ham baribir oqibat kelib chiqsa, jinoiy javobgarlik bo‘lmaydi. Bunday holat quyidagi hollarda yuzaga keladi:

- aynan hisobga olingan qoidalarining yuzaga kelgan vaziyati va ehtiyot choralarinig to‘liqsizligi (ilmiy va texnik ilmlarning yetarli emasligi);

- bu qoidalar mo‘ljallangan (taxmin qilingan) vaziyatlarga to‘g‘ri kelmasligi;

- oqibatlar kelib chiqishining oldini olishga yengib bo‘lmas va oldindan ko‘rinmagan kuch ta‘siri;

- ma‘lum bir harakatlarni amalga oshirishi lozim bo‘lgan shaxsning harakatlariga umid qilib, keltirib chiqarish ehtimoli bo‘lgan xavfli oqibat haqida uni ogohlantirish mumkin bo‘lgan holatlar bo‘lishi mumkin. Mana shu harakatlarni sodir etmaslik va faktik oqibatlarining yuzaga kelishi tavakkalchilikni ongsiz ravishdagi tavakkalchilikka, shu bilan birga o‘z-o‘ziga ishonish darajasiga o‘sib chiqishiga olib kelmaydi.

O‘z-o‘ziga ishonishda shaxs jinoyat sodir etilish vaqtida asossiz o‘ziga ishonuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgani uchun aynan mana shu oqibat vujudga keladi.

Shunday qilib, o‘z-o‘ziga ishonish, subyektning jinoyat sodir etish paytida o‘z-o‘ziga ishonib, oqibat kelib chiqmasligiga asossiz umid qilishi xuddi shu ijtimoiy xavfli oqibatlarining haqiqatan kelib chiqishiga olib keladi. Jinoyat subyektini taxminining intellektual holati shundan iborat bo‘ladi.

NOTA BENE !

O‘z-o‘ziga ishonish ehtiyotsizlikning shunday turiki, unda shaxs o‘zining harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli oqibatlarini anglamaydi, o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlari keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan mavhumlikni oldindan ko‘radi, ehtiyotkorlik choratadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qiladi.

JK 22-moddasi 3-qismi beparvolikning mohiyatini ochib beradi. «Agar jinoyat sodir etgan shaxs o‘z xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko‘zi yetmasa-da, lekin ko‘zi yetishi lozim va mumkin bo‘lsa, bunday jinoyat beparvolik orqasida sodir etilgan deb topiladi».

Qonunchilik jinoiy beparvolikni shaxsning qilmishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan anglash real imkoniyatiga ega bo‘ladi, lekin bu oqibatni kelib chiqishini anglash uchun qilinishi kerak bo‘lgan zarur irodaviy harakatlarni amalga oshirmaydi, diqqat-e’tiborini va ehtiyotkorlikni namoyon qilmaydi, deb hisoblaydi.

Beparvolikda **ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko‘ra bilmaslik** oqibatga nisbatan har qanday munosabat mavjud bo‘lmaydi degan tasavvurga olib kelmaydi, balki bunday munosabat maxsus shaxsning qonun talablariga, ijtimoiy xulq-atvor qoidalariga, boshqa shaxs manfaatlariga beparvo munosabatda bo‘lishida ifodalanadi. Shuning uchun **beparvolikda intellektual holat** ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko‘ra

bilmaslikdan tashqari, shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatini anglamasligi bilan ifodalanadi.

Jinoiy beparvolikning intellektual holati ijobiy va nisbiy mezonlarga bo'linadi.

Jinoiy beparvolikning **nisbiy mezoni** shaxsning kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan anglamasligida namoyon bo'ladi. Beparvolik shaklidagi ayb formasida shaxs oqibat kelib chiqishi mumkinligini ham, realligini ham yoki mavhumligini ham oldindan anglab yetmaydi.

Oqibatni oldindan ko'ra bilish mumkinligi qilmish sodir etilayotgan vaziyatning o'ziga xosligi va aybdorning individual xususiyatlari bilan izohlanadi. Aybdorning individual xususiyatlariga uning (jismoniy holati, rivojlanganlik darajasi, ma'lumoti, kasbiy mahorati, sog'lig'i holati, qabul qilish darajasi) qilmish sodir etilayotgan vaziyatdan kelib chiqib, asosli xulosalar qilishi va atrof muhitni to'g'ri qabul qilishi hamda ularga baho berishga imkon yaratishi kiradi. Bu ikki tayanchning mavjudligi aybdor sodir etilayotgan qilmishning ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan ko'ra bilishga real imkoniyat yaratadi.

Jinoiy beparvolikning **ijobiy mezoni** normativ ahamiyat kasb etib, u aybdorning kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan bilishi lozim va mumkin bo'lganligini anglatadi. Aynan mana shu belgi beparvolikni mustaqil ayb turi sifatida jinoyat-huquqiy ahamiyatini oshiradi. Bu insonning anglashi va irodaviy xususiyatlari bilan belgilanadi: bilish lozimligi normativ ahamiyatga ega bo'lgan obyektiv belgi hisoblansa, oldindan ko'ra olishi mumkinligi katta darajada ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan subyektiv belgi. Obyektiv belgining o'zi bilangina shaxsda ijtimoiy xavfli oqibatlarni kelib chiqishining oldini olish uchun imkoniyatlar mavjud degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'ra bilish lozimligi va mumkinligi shaxsning majburiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Bu qoida aybdorning mansab maqomini belgilovchi, uning kasbiy vazifalari va umummajburiy ijtimoiy xulq-atvor qoidalarida, qonun, shartnoma va

boshqalarda aks ettirilgan bo'lishi mumkin. Biroq bu tarzdagi normativ va ijtimoiy majburiyatlarning mavjudligi shaxsning u yetkazishi mumkin bo'lgan ijtimoiy zararli va xavfli oqibatni to'la anglashi uchun yetarli hisoblanmaydi. Buning uchun nisbiy mezonlar mavjudligini aniqlash lozim.

E'tiborlilik va ehtiyotkorlik jinoyat huquqida xulq-atvorning lozimligi va mumkinligini yorituvchi atamalar hisoblanadi. Ular ijtimoiy normalar, to'g'ridan-to'g'ri qonundan kelib chiquvchi normalar, boshqa hujjatlardagi qoidalardan kelib chiqqan holda mohiyatni ochib beradi.

O'z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatlarini oldindan ko'ra bilish yoki ko'ra bilmaslik tasodif hisoblanmay, bu shaxsning mazkur harakatlari bilan buzilishi mumkin bo'lgan boshqa shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga bo'lgan munosabatdan kelib chiqadi.

O'z-o'ziga ishonish va beparvolik irodaviy holatlarining farqi shundaki, o'z-o'ziga ishonishda shaxs kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatning kelib chiqishini mavhum tarzda oldindan ko'ra oladi, beparvolikda esa, shaxs kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatning hech qanday shaklini oldindan ko'ra olmaydi.

Jinoiy beparvolikning irodaviy holati aybdorning ruhiy imkoniyatlari va quvvati ijtimoiy xavfli oqibatning oldini olishga qaratilgan zarur faoliyatni amalga oshirishda faollashmaydi.

O'z-o'ziga ishonish va beparvolikda irodaviy holatlar bir-biriga o'xshash. U va bu holatda ham kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatga nisbatan ijobiy oqibat mavjud bo'lmaydi, ya'ni aybdor zararli oqibatlar kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'ymaydi va xohlamaydi. Ular o'rtasidagi farq shunda ko'rinadiki, o'z-o'ziga ishonishda shaxs kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatning kelib chiqishini mavhum tarzda oldindan anglab, ongli ravishda xavfli irodaviy harakatlarni sodir qiladi, biroq bunda shaxs o'z hisobidagi ayrim omillarni xavfli oqibat kelib chiqishining oldini olish maqsadida ishlatadi, beparvolikda irodaviy xohish aybdorga ijtimoiy foydali yoki ijtimoiy neytral tasavvur qilinib, uning hech qanday chora ko'rmasligiga sabab bo'ladi.

NOTA BENE !

Beparvolik ehtiyotsizlikning shunday turiki, unda shaxs o'zining harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfli oqibatlarini anglamaydi, o'z xulq-atvori ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmaydi, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'ladi.

Jinoiy beparvolik shaxsning o'z qilmishiga va uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabatning shakli sifatida o'z-o'ziga ishonish va tasodifiy, aybsiz holda zarar yetkazish o'rtasidagi oraliq holatni egallaydi.

5-§. Murakkab aybli jinoyat

JK 23-moddasi murakkab ayb shaklida sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilab beradi. Ushbu qonunga ko'ra, «agar shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog'lagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi».

Bir jinoyat tarkibida ikki ayb shaklining mavjudligi ayrim jinoyat tarkiblariga kiritilgan: jinoyat qonuni bir tarkibga yuridik jihatdan mustaqil bo'lgan ikki jinoyatni: birinchisi, qasddan sodir etilgan jinoyatlar; ikkinchisi, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan ikki mustaqil jinoyatni birlashtiradi. Ularning har biri mustaqil tarkib hosil qilishi mumkin, lekin ular subyekt xususiyati bilan bir-biriga mosligi jihatdan yangi jinoyat tarkibini hosil qiladi.

Ikki ayb shaklining bir jinoyat tarkibida mavjud bo'lishi faqat kvalifikatsiya qilish belgisi sifatida namoyon bo'ladi: qasd qasddan sodir etilgan jinoyat tarkibining asosiy tashkil etuvchi elementi sifatida qaralsa, ehtiyotsizlik kvalifikatsiya qilinayotgan belgiga nisbatan olinadi. Bunday hollarda qasd (to'g'ri yoki egri) asosiy jinoyat tarkibining subyekt belgilariga kiritilib, ehtiyotsizlik (o'z-o'ziga ishonish) esa, kvalifikatsiya qilishdagi belgi sifatida olib qaraladigan asosiy jinoyat tarkibiga kirmaydigan oqibatga nisbatan ruhiy munosabatni ifodalaydi.

Bir vaqtning o'zida aybning ikki shaklini o'zida mujassam etgan jinoyatlarning soni Jinoyat kodeksida unchalik ko'p emas. **JKning 23-moddasi** tahlili hamda JKning Maxsus qismi qoidalari shundan dalolat beradiki, qonun chiqaruvchi bunday jinoyat tarkiblarini tuzishda:

– ikki har xil oqibatlariga;

– birinchi tomondan, qilmishga nisbatan va ikkinchi tomondan, JK Maxsus qismi moddalaridagi kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida qonunda nazarda tutilgan oqibatga nisbatan aybdorning bir xil bo'lmagan (qasd va ehtiyotsizlik) ruhiy munosabatida o'z aksini topgan ayb shaklining ikki xilligidan kelib chiqqan.

Murakkab aybli jinoyatlarning **birinchi turi** shaxsning Maxsus qism moddalarida nazarda tutilgan sodir etayotgan jinoyatining kelib chiqishi mumkin bo'lgan yaqin va og'irroq oqibatga nisbatan bo'lgan ruhiy munosabati qasd shaklida deb qaralsa, kelib chiqishi nazarda tutilmagan og'ir oqibatlar ehtiyotsizlik shaklida deb olinishi bilan ta'riflanadi. Bu yerda ikki bir-biriga o'xshamagan oqibatning mavjudligini ko'rishimiz mumkin. o'z navbatida, bunday ikki mustaqil ayb shakli kelib chiqishi vaqti va ijtimoiy xavflilik darajasi har xil bo'lgan jinoyat tarkibining asosiy belgisi sifatida oqibat qaraladigan moddiy tarkibli jinoyatga nisbatan olib qaraladi. Boshqa so'z bilan aytganda, buni asosiy jinoyat tarkibi belgilaridan hisoblangan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatdan ko'ra og'irroq oqibatning yuzaga kelishi bilan izohlash mumkin. Masalan, badanga og'ir tan jarohati yetkazish jinoyati shaxs o'limiga sabab bo'lsa (JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandi), badanga og'ir tan jarohati yetkazish jinoyati kabilarni o'zida qamrab oluvchi shaxs sog'lig'i uning mustaqil obyektini sifatida namoyon bo'lsa (JK 104-moddasi 1-qismi), biroq u ehtiyotsizlik orqasida shaxs o'limiga sabab bo'lganda, shaxsning hayoti tajovuz (JK 102-moddasi) obyektini hisoblanadi. Mazkur holatda qasddan aynan shaxsga og'ir tan jarohati (nutqi, ko'rish, eshitish qobiliyatining yo'qolishiga va qandaydir organidan ajralishiga olib keluvchi) yetkazishga, ancha og'ir oqibatlariga nisbatan (jabrlanuvchining o'limi, aybdorning ichki ruhiy holati) ehtiyotsizlik bilan ifodalanadi.

Ish holatlari (yetkaziladigan tan jarohatining xususiyati, zarar yetkazishda ishlatiladigan jinoyatni sodir etish qurollari, vositalari va boshqa holatlar) o‘lim kelib chiqishi xavfini ko‘rsatsa-da (ehtiyotsizlikning intellektual holati), bunda irodaviy holat og‘ir tan jarohati yetkazishni xohlashida va bunga ongli ravishda yo‘l qo‘yishida ifodalanadi. Aybdor o‘z navbatida, o‘limning kelib chiqishini oldindan ko‘ra bilishi mumkin va lozim bo‘lgan holda ehtiyotsizlik (irodaviy holat)ka yo‘l qo‘yadi, lekin bunday oqibat kelib chiqmasligini anglamagan holda taxmin qiladi yoki oldindan ko‘ra bilmaydi.

Bu holatlarni aniqlash jinoyatni kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori turuvchi sud instansiyasi ko‘rsatmasiga ko‘ra, sudlar qasddan odam o‘ldirish jinoyatini jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish jinoyatidan farqlashi lozim. «Qasddan odam o‘ldirish jinoyatini sodir etayotganda aybdor shaxsni hayotdan mahrum qilish niyatida harakat qiladi, badanga og‘ir shikast yetkazish shaxsning o‘limiga sabab bo‘lgan hollarda esa, o‘limga nisbatan uning aybi ehtiyotsizlik shaklida ifodalanadi»¹.

Murakkab aybli jinoyatlarning **ikkinchi turiga** qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ga nisbatan bir xil bo‘lmagan munosabatda oqibat kelib chiqishi talab qilinmaydigan va oqibatga nisbatan bo‘ladigan jinoyatlar kiradi. Bu holat formal tarkibli jinoyatlarda ko‘zga tashlanadi. Bu kvalifikatsiyaga ta’sir qiladigan oqibat jinoyat-huquqiy norma bilan qo‘riqlanadigan asosiy jinoyat tarkibidagi obyektдан tashqari qo‘shimcha obyektga zarar yetkazishda ifodalanadi. Bu turkumdagi jinoyatlarga asosiy tarkibli formal, kvalifikatsiyaga ta’sir qiluvchi belgilari ma’lum bir og‘ir oqibatni yuzaga keltiruvchi jinoyatlarni misol keltirish mumkin. Masalan, jabrlanuvchining o‘limi abort o‘tkazishda kelib chiqishi (JK 114-moddasi 3-qismi «a» bandi). Bunday shakldagi qasddan sodir etilgan jinoyatlar kvalifikatsiya qilinadigan oqibatga nisbatan ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan deb baholanadi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 4-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 193-б.

NOTA BENE !

Aybning murakkab shakli faqatgina moddiy tarkibli jinoyatlardan o‘rin egallaydi va shaxsning turli xil ruhiy munosabatlari bilan ifodalanadi, chunonchi, birinchidan bu qilmishni kvalifikatsiya qiluvchi qilmishga va oqibatlariga nisbatan, ikkinchidan, uncha og‘ir bo‘lmagan va o‘ta og‘ir bo‘lgan ikki xil oqibatlariga nisbatan qasd va ehtiyotsizlikni qo‘shish orqali ifodalanadi.

Murakkab aybli jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishning muhimligi obyektiv belgilariga ko‘ra, o‘xshash bo‘lgan qasddan sodir etilgan jinoyatlardan ajratishda ko‘rinadi. Agar qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish natijasida shaxsning o‘limi yuzaga kelsa, shuningdek, harakat umumiy qasd (egri qasd bo‘lsa ham) bilan qamrab olingan bo‘lsa, sodir etilgan jinoyat qasddan odam o‘ldirish deb kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim.

Murakkab aybli jinoyatlar umuman qasddan qilingan jinoyat hisoblanadi va bu kategoriya jazoni o‘tash tartibiga va boshqa jinoiy-huquqiy oqibatlariga ta‘sir qiladi.

6-§. Aybsiz holda zarar yetkazish

Ayb uchun javobgarlik prinsipi JK 9-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, JKning Umumiy va Maxsus qismidagi jinoyat tarkibining subyekt tomonidagi masalalarni ko‘rib chiqish va kvalifikatsiya qilishda ahamiyatli bo‘lgan asosiy prinsiplardan sanaladi. Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo‘ladi.

JK 24-moddasiga ko‘ra, «agar shaxs o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo‘lmagan yoki uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko‘zi yetmagan va ishning holatlariga ko‘ra ko‘zi yetishi mumkin va lozim ham bo‘lmagan bo‘lsa, bunday qilmish aybsiz holda sodir etilgan deb topiladi».

Subyekt **kazus** bilan bog‘liq bo‘lgan aybsiz holda zarar yetkazish haqidagi JK 24-moddasi mavjud holatning ikki turini ko‘rsatib o‘tadi:

– ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs, o‘z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamaganligi va ish holati bo‘yicha anglashi mumkin va lozim ham bo‘lmaganligi;

– shaxsning ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishini majburiyat va imkoniyatning yo‘qligi sababli oldindan ko‘ra olmasligi.

Birinchi ko‘rinishdagi subyekt holat (kazus) qoida tariqasida formal tarkibli jinoyatlarga xosdir, jumladan, aybsiz holda zarar yetkazishni ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan formal tarkibli jinoyatlardan ajratish imkonini beradi. Kazusning ikkinchi ko‘rinishi moddiy tarkibli ehtiyotsizlikda sodir etilgan jinoyatlardan ish holati bo‘yicha hodisalarni ajratib olishga mo‘ljallangan.

Shaxs tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan anglash imkoniyati va majburiyatining yo‘qligi aybni inkor etadi. Shuning uchun shaxsning ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan anglashi imkoniyati va majburiyatining yo‘qligi jinoiy qilmish sodir etilgan muayyan holat yoki subyektning shaxsiy sifatleri (tajribasi yo‘qligi, kasbiy mahorat, intellektual rivojlanishning pastligi va h.k.) bo‘lishi mumkin.

NOTA BENE !

Aybsiz holda zarar yetkazish (kazus), qachonki shaxs o‘z qilmishi (harakat yoki harakatsizligi)ning ijtimoiy xavfliligini anglamaganda yoki ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishi mumkinligiga ko‘zi yetmagan va ish holati bo‘yicha anglashi va oldindan ko‘ra bilishi mumkin va lozim bo‘lmaganda yuz beradi.

Kazus qasddan intellektual va irodaviy holatlarga ko‘ra farq qiladi. Qasdda (to‘g‘ri yoki egri) shaxs o‘z qilmishi (harakat yoki harakatsizligi)ning ijtimoiy xavfli xususiyatini anglaydi. Kazusda esa, o‘z harakatlarning ijtimoiy xavfli xususiyatini anglamagan, anglashi lozim va mumkin bo‘lmagan bo‘ladi. Bunda (qasd uchun xos bo‘lgan) kelib chiqishi lozim va mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko‘ra bilish mavjud emas. Kazusdagi qasdda bo‘lganidek, ijtimoiy xavfli oqibatning

kelib chiqishini xohlash va uning kelib chiqishiga yo‘l qo‘yish kabi irodaviy holatlarning yo‘qligi bilan farqlanadi.

Ehtiyotsizlikdan katus irodaviy holatiga ko‘ra farqlanadi. Kazusda shaxs yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko‘ra bilmaydi, oldindan anglashi mumkin va lozim ham bo‘lmaydi, ehtiyotsizlikda esa, aksincha, bu oqibatlarni oldindan ko‘ra bilishi mumkin va lozim bo‘ladi.

Subyekt holatda aybdan farqli ravishda ruhiy munosabat emas (u mavjud bo‘lmaydi), balki alohida u yoki bu ijtimoiy xavflilik, shu bilan birga, jinoyat va jazoni inkor etadigan vaziyatda harakat qiladigan (yoki qilmaydigan) shaxs ruhiy holatini tushunish kerak. Bu shaxsning ijtimoiy xavfli oqibat yetkazgan qilmishi tarkibida ayb mavjud bo‘lmaganligi uchun jinoiy javobgarlik yuzaga kelmaydi.

7-§. Jinoyatning motivi va maqsadi, emotsional holat

Jinoyat tarkibi subyekt tomonining qasd kabi zaruriy belgilaridan tashqari, ba’zi jinoyat tarkibi tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari tufayli boshqa elementlari ham ajralib chiqadi. Ular jinoyat sodir etishdagi motiv va maqsadlar hisoblanadi. Ular ayb qatori shaxsning sodir etgan qilmishiga va uning oqibatlariga nisbatan bo‘lgan ruhiy munosabatning bildirish shaklini, mohiyati, darajasini ifodalaydi. Motiv va maqsad real harakatlarning aniq vazifalarini, vositalar tanlash va ularni hal etish usullarini qo‘yishni belgilaydi. Ularning asosida jinoiy qilmishning ideal xayoliy modeli vujudga keladi hamda shuning bilan, shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishiga, ya’ni aybiga nisbatan real ruhiy munosabatini tug‘diruvchi fundamentni ko‘rsatadi.

Har qanday qasddan sodir etilgan jinoyat qandaydir motiv va u yoki bu maqsadda sodir etiladi. Motiv va maqsadning ijtimoiy va kriminologik ahamiyati shundan iborat bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, ba’zi tadqiqotchilar ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlarning motiv va maqsadlari mavjudligini turli xil shartlar bilan isbotlashga urinmoqdalar¹. Bu esa

¹ См.: Российское уголовное право. Курс лекций. В 2-х т. – Владивосток: 1999, Т.1 – С. 437 (автор главы – Р.М. Михеев); Квашиc В.Е. Преступная неосторожность. Социально-правовые и криминологические проблемы. – Владивосток: 1986. – С. 51.

noto'g'ri, bunday yo'sinda jinoyat-huquqiy va kriminologik yondashishlarning bu ko'rinish bilan aralashib ketishiga yo'l qo'yiladi. «Odam xulq-atvorining motivi shundagina jinoyat motivi bo'ladiki, qachonki motiv jinoiy qilmishning barcha muhim xususiyatlarini qamrab olganida, bu esa faqat qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda bo'lishi mumkin»¹.

Bundan tashqari, qonunchilik motiv va maqsadni aybning ehtiyotsizlik shaklidagi jinoyat tarkibining zaruriy va kvalifikatsiyalangan belgilari qatoriga kiritmaydi. Shuningdek, maqsad ko'zlangan natija to'g'risidagi tasavvur bo'lgani uchun hech ham ehtiyotsizlikning ichiga kiritish mumkin emas, deb hisoblash kerak emas. Shuning uchun ehtiyotsizlik orqasidagi jinoyatlarga muvofiq faqat motiv va maqsad to'g'risida gapirish mumkin, biroq jinoyat to'g'risida emas.

Har qanday jinoyat tarkibi ham motiv va maqsadni ifodalayvermaydi. Bu ko'rinish motiv va maqsadning kvalifikatsiyasiga ta'sir etuvchi jinoyat subyekt tomoni fakultativ belgilarining jinoyat-huquqiy ahamiyatini aks ettiradi.

Motiv muayyan harakatlarni sodir etishga bo'lgan niyat bo'lib, xususan, jinoyat motivi o'zida, odam ruhiyatida ro'y beradigan juda qiyin emotsional (hissiy) va irodaviy jarayonni namoyon etadi. Chunonchi, motiv jinoiy faoliyatga shaxsning faol qiziqtiruvchi omili (stimul) hisoblanuvchi kuch va shiddat bilan intilishni beradi.

Xulq-atvorning boshqa shakllaridan huquqiy bahosi va o'zining yo'naltirilganligi bilan ajralib turuvchi jinoyat individ ijtimoiy faolligi bir ko'rinishi bo'lgani uchun, jinoyat motivining jinoyat-huquqiy va kriminologik tushunchasi faqat ruhiy poydevor asosida quriladi va shunga muvofiq, xulq-atvorning hamma asosiy ijtimoiy va ruhiy qonuniyatlari, uning me'yoriy bo'lmagan xarakteri bilan bog'langan xususiyatini hisobga olgan jinoyatga ham xosdir.

Psixologiyada motiv ostida shaxs faolligi omili, ya'ni shaxs xulq-atvori negizida yotuvchi harakatdagi kuch tushuniladi. Bunday kuchning manbai bo'lib, ehtiyojlar, ya'ni hayotiy faoliyatning muayyan

¹ Рагог А.И. Квалификация преступлений по субъективным признакам. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – С. 137-141.

sharoitlaridagi anglangan va anglanmagan talablarning aks etishi kabilar ko‘rinadi¹. Anglash jarayonida va ehtiyojlarni moddiylashtirishda shaxs ongining manfaatlar, qiziqishlar, intilishlar, istaklar va boshqa «elementlari» paydo bo‘ladi. Bu barcha mahsulotlar ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular asosida shakllanadi, genetik planda «ikkilamchi» hisoblanadi, biroq aynan ular shaxsning bevosita harakatdagi kuchi – motivni shart qilib qo‘yadi.

Ko‘p hollarda manfaat shaxs faolligining qo‘zg‘atuvchisi bo‘lib hisoblanadi. Manfaat ehtiyojlardan hosil bo‘ladi. Psixologik tushunishda u o‘zida nimagadir shaxsiy ishtiyoqni², ya’ni anglab yetilgan ehtiyojni namoyon etadi. Manfaatning anglab yetilganligi uni mayl (qiziqish)dan – ehtiyojning anglab yetilmagan kechinmasidan farqlaydi. Vujudga kelgan manfaat va qiziqish, o‘z ehtiyojlarini qondirish yo‘llariga ega. Shuning uchun ular ehtiyojni qondirishi mumkin bo‘lgan predmetni uchratganlarida xatti-harakatning motivi bo‘ladi. Ehtiyojning uning predmetida konkretlashganligi va bu muhim ehtiyoj bilan uni qondirishning sharoitlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik motivning – qilmishga undovchi psixika faol holatining vujudga kelishiga olib boradi³.

Shaxsning manfaatlari uning ongida aks etgan holda, tasavvur, fikr-mulohaza, g‘oya, ideal ko‘rinishidagi motivatsion ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bu motivning mohiyatini ko‘rsatuvchi tomon bo‘lib, uning asosida muayyan qilmishning oldindan kelib chiqadigan oqibatlarini hisobga olgan holda maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosani hosil qiladi. Biroq bunday xulosa o‘zidan-o‘zi harakatga olib keladigan niyat bo‘lavermaydi (jumladan jinoyatga olib keladigan). Shaxsning faolligi intilish, istak, qiziqish, ehtiros kabi emotsional (hissiy) kechinmalar ta’siri

¹ См.: Селиванов В.И. Сила потребности и волевое усилие. – В кн.: Проблемы формирования социогенных потребностей. – М.: 1964. – С. 40.

² А.Г. Ковалев, в частности, определяет интерес как «специфическое отношение личности к объекту в силу его жизненной значимости и эмоциональной привлекательности». (Ковалев А.Г. Психология личности. – М.: 1965. – С. 101).

³ Зелинский А.Ф. Осознаваемое и неосознаваемое в преступном поведении. – Харьков: «Вища школа», Изд-во при Харьковском Университете, 1986. – С. 41.; Удовлетворенная потребность не может стать мотивом поведения, поэтому, как правильно отмечает болгарский философ С. Попов, интерес личности к чему-либо возникает при наличии противоречий между потребностью и условиями ее удовлетворения, или, иначе говоря, при наличии препятствий к удовлетворению потребности. (Попов С. Сознание и социальная среда. – М.: 1979. – С. 160).

ostida amalga oshadi. Hissiyot o'zida ehtiyojning funksiyasini va subyekt tomonidan uning muhim ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini baholashni namoyon etib, ular motivning dinamik (energetik) tomonini belgilaydi¹. Natijada, motivning ta'sirchanligi kuch va hissiy kechinmalarning keskinligi, ya'ni kuchayganligi va nihoyat ehtiyojning muhimligi hamda uni qondirishning o'sha paytdagi imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Hissiy (emotsional) kechinmalarining o'tishi shaxsning asab (nerv) sistemasi va ruhiy (temperament) holatiga ham bog'liq bo'ladi.

Qasdning vujudga kelishidan oldin ba'zan murakkab jarayon – turli imkoniyatlarni o'ylab ko'rish: harakat qilish yoki harakat qilishdan tiyilish, qaysi yo'l bilan va qanday usulda harakat qilishda ko'rinadigan motivlar kurashi bo'lib o'tadi². Qaror qabul qilishda, oxirgi natijada subyektning keyingi irodaviy yo'nalishini belgilaydigan eng kuchli bo'lgan motiv yutib chiqadi.

Ko'pincha, affekt holatidagi va «aqlsiz» sodir etilgan jinoyatlarda subyekt tomonidan ularning asl mohiyati aniqlanadi. Ba'zan bular subyektning ehtiyojlarni noto'g'ri aks ettirishidan kelib chiqadi. Turli odamlarda bir xil obyektiv shart bo'lgan ehtiyojlar bir xil shaxsiy ma'no kasb etadi va ongda aks etgan holda ham doim jinoyatchining G'ayriijtimoiyligini aniqlashni belgilash orqali singdiriladi.

Yuridik adabiyotlarda muqarrar anglab yetilgan niyatlar kabi motivlar to'g'risidagi tushunchalar ustunlik qiladi. Biroq shaxsning muammolarini o'rganuvchi ko'pgina faylasuf va psixologlar har qanday harakatning haqiqiy motivi har doim ham uzoq to'liq anglab yetilmaydi deb hisoblaydilar³.

Motivning mazmundor tomoni, ya'ni qilmishni (harakat yoki harakatsizlikni) anglash – uni sodir etishning xayoliy tasavvuri – har doim

¹ Мотивы всякого поведения, в том числе и преступного, имеют две стороны: содержательную и динамическую (энергетическую). (См. Асеев В.Г. Мотивация поведения и формирование личности. – М.: 1976. – С. 22; Мясищев В.Н. Личность и отношения человека. // Проблемы личности: материалы симпозиума. – М.: 1969, т.1 – С. 69).

² Теплов Б.М. Психология. – М.: 1951. – С.191.

³ См.: Боровский М.И. Детерминизм и нравственное поведение личности. – Минск: 1974. – С.150-151; Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: 1977. – С.201; Якобсон И.М. Психологические проблемы мотивации поведения человека. – М.: 1969. – С.208; Спиркин А.Г. Сознание и самосознание. – М.: 1972. – С.121; и др.

ham bir xil ongda namoyon bo'lmaydi, ba'zida esa, unda mutlaqo belgilanmaydi. Oxirgi holatda motivlashmagan xulq-atvor to'g'risida gapiriladi, garchi bunday motivlashmagan xulq-atvor bo'lmasa ham. Bunday nomlanuvchi motivlashmagan xulq-atvorda (xatti-harakat) faqatgina motivning bitta kategoriyasi – niyat mavjud. Yana motivning dinamik tomoni sifatida keluvchi hissiyot kamdan-kam hollarda to'g'ri anglab yetiladi. Juda ko'p hollarda ular ong osti darajasida yoki faqat ichki ruhiy darajada boshdan kechiriladi va ular subyektning kechinmalaridan tashqariga chiqib ketmaydi. Shuning uchun agar xatti-harakatning o'zini anglamasalar, ya'ni xohish va ularning natijalarini anglamasalar, motivning anglab yetilganligi to'g'risida va shaxs qilmishini anglaganda bunday deyish mumkin emas.

NOTA BENE !

Jinoyat motivi – bu shart bo'lgan muayyan ehtiyojlar va manfaatlarning anglangan yoki anglanmagan ichki xohish-niyati bo'lib, shaxs unga jinoyat sodir etishda tayanadi.

Ba'zida motiv tushunchasi bilan motivatsiya tushunchasi tenglashtiriladi. Biroq, ular garchi o'zaro chambarchas bog'langan bo'lsa ham ta'rifi mohiyati jihatidan farqlanadi.

Agar motiv deb, individni jinoiy faoliyatga undovchi dastlabki sababni olsak, **motivatsiya** – bu motivlarning majmui bo'libgina qolmay, balki motivni amalga oshirish jarayoni, xatti-harakatning sababiy bog'lanishdagi ichki ruhiy jarayonidir. Motivatsiyani o'rganishda motivning o'zini emas, balki shaxsning barcha motivatsion sferasini – uni o'rnatish, irodaviy va hissiy sifatlari, ya'ni shaxs xatti-harakatlarini aniqlab beruvchi ruhiy holatlarning majmui e'tiborga olinadi.

Motiv va maqsad tushunchalari o'rtasidagi o'zaro munosabat bir xillikka olib bormaydi. Agar motiv jinoiy faoliyatning zaruriy elementi bo'lsa, maqsad jinoyat sodir eta turib subyekt erishishga intilayotgan xayoliy natijadir. Jinoyatning maqsadi jinoiy faoliyatning yo'nalishini belgilaydi. Unga faoliyat turi, uning usullari va vositalari bog'liq bo'ladi.

Ko'pgina psixologlarning fikricha, maqsad har doim birinchi navbatda, ongning harakati bo'lgani holda, undovchi, motivlashgan kuch orqali emotsional (hissiy) kechinmalarni – maqsadni amalga oshirish istagini oladi. Mohiyatan, maqsad – bu istalgan natijani tasavvur qilingan ko'rinishdagi anglangan motivdir¹.

NOTA BENE !

Jinoyat maqsadi – bu aybdorning jinoyat sodir etish orqali o'zi xohlagan natijaga erishish haqidagi tasavvuridir.

Jinoyat motivi va u belgilaydigan maqsad ko'proq bir-biriga to'g'ri keladi. Talon-toroj qilishda g'arazli motiv va g'arazli maqsad mavjud bo'ladi. Biroq motivga to'g'ri kelmaydigan boshqa maqsadlarni ham qo'yish mumkin. Masalan, qasddan odam o'ldirishda bosqinchilikni yashirish maqsadida aybdor tomonidan g'arazli motiv qo'llanadi.

Motiv va maqsad doim konkret bo'ladi va qoida tariqasida JKning Maxsus qismidagi moddalar dispozitsiyasida asosiy, kvalifikatsiya qilingan yoki imtiyozga ega bo'lgan jinoyat tarkibi belgisi sifatida ta'riflanadi. Masalan, shaxsning diniy taassublar natijasida qasddan odam o'ldirishi (JK 97-moddasi 2-qismi «m» bandi) yoki kishi a'zolarini kesib olib boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «n» bandi) jinoyatlarini sodir etishi. Biroq JK Maxsus qismining ayrim moddalarida berilgan motiv g'arazli yoki past niyat singari umumlashgan xususiyatga ega (JKning 124, 125, 131, 133-moddalari va boshqalar) yoki boshqa shaxsiy manfaatdorlikni (JKning 209, 212, 228¹- moddalari va boshqalar) bildiradi.

¹ Так, Леонтьев А.Н. называл осознаваемый мотив «мотивом – целью» (См.: Леонтьев А.Н. Указ. соч. – С.201; см. также: Давыдов В.В., Зинченко В.П., Талызин Н.Ф. Проблема деятельности в работах Леонтьева А.Н. // Ж. Вопросы психологии. – 1982. – №4. – С. 61-66). Ивашкин В.С. пишет: «Мотив сознательно регулируемого действия имеет форму цели, актуализирующей ассоциированную в ней установку в виде плана и образа конечного результата» (Ивашкин В.С. Личность и деятельность. – М.: 1977. – С. 44). По мнению Зелинского А.Ф. «Осознанный мотив преступления в виде представления о желаемом результате имеет форму цели» (Зелинский А.Ф. Указ. соч. – С. 68).

Jinoyat motivi va maqsadiga ko'rsatmalar JKning Umumiy qismida ham mavjud. Masalan, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilikni qonunchilik ijtimoiy foydali maqsadga erishish belgilari – muayyan maqsad deb ataydi (JK 41-moddasi). Bunday hollarda motiv va maqsadni ko'rsatish alohida jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etadi.

Yuridik adabiyotlarda motiv va maqsadlarni kvalifikatsiya qilishning bir necha yo'llari keltirib o'tilgan. Jumladan, motiv va maqsadni ma'naviy va huquqiy baholash asosidagi kvalifikatsiyaga muvofiq, barcha motivlar va maqsadlar **pastlik** (g'arazlilik, shuhratparastlik, bezorilik motivi, millatlararo yoki irqiy adovat, diniy taassublar, boshqa jinoyatni yashirish yoki sodir etishni osonlashtirish va h.k.) va **pastlik** (tubanlik, razillik) **holatidan xoli bo'lgan** (qo'rqqoqlik, burch tushunchasini noto'g'ri tushunish va h.k.) turlarga bo'linadi¹.

Pastlikka qonun chiqaruvchi jinoiy javobgarlikning belgilanishi va kuchayishini bog'laydigan motiv va maqsad kiradi. Masalan, bolani almashtirib qo'yish uchun javobgarlik faqatgina tamagirlik va boshqa past niyatlarda sodir etilganida kelib chiqadi (JK 124-moddasi).

Past niyatdan xoli motiv va maqsad, aksincha, jinoiy javobgarlikning og'irlashishi bilan bog'lanmagan.

Boshqa huquqshunoslar motivni jinoyatning og'irligi bo'yicha quyidagicha klassifikatsiya qilishadi: **g'ayriijtimoiy** (siyosiy, agressiv-zo'ravonlik, g'arazli, g'arazli-majburlash va h.k.); **asotsial** (egoistik, anarxiya-individualistik va h.k.); **soxta ijtimoiy** (alohida ijtimoiy guruhlarining manfaatlari bilan bog'langan motivlar, jinoyat qonuni normalariga zid keluvchi, alohida shaxslarning va butun jamiyatning manfaatlariga zid keluvchi motivlar); **ijtimoiy zid** (jinoyat ijtimoiy negativ motividagi ijtimoiy ma'qullangan xatti-harakatlar motivlarining o'sishi natijasida yuzaga kelgan, jumladan, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish va kuchli ruhiy hayajonlanish natijasida jinoyat sodir etish)².

¹ См.: Российское уголовное право. Общая часть. – М.: «Спарк», 1997. – С. 157-158.

² См.: Уголовное право России. Часть Общая: учеб. для вузов: учеб. для студентов вузов, обучающихся по специальности «Юриспруденция» / Отв. ред. проф. Л.Л. Кругликов. 2-е изд., перераб. и доп. – С. 223-224.

Shuningdek, motiv va maqsadning uch hadli bo‘linishi ham mavjud: 1) **insonga qarshi qaratilgan** (insoniyat xavfsizligiga va tinchligiga qarshi sodir etiladigan jinoyatlar motivlari); 2) **g‘arazli yoki past niyatli** va 3) **shaxsiy** (rashk, ko‘raolmaslik, shuhratparastlik va h.k.).

Motiv va maqsad qatoriga jinoyat sodir etgan shaxsning emotsional (hissiy) holatini ham kiritish lozim. Shu sababli jinoiy qilmish sodir etish va unga tayyorgarlik ko‘rish jarayonini kuzatib boruvchi shaxsning emotsional (hissiy) holatigina jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etadi.

NOTA BENE !

Subyektning jinoyat sodir etish paytidagi **emotsional (hissiy) holati** o‘zida jabrlanuvchining ig‘vo, g‘alamislik (huquqqa xilof yoki axloqsiz) xatti-harakatlari yoki uzoq vaqt ruhiy azob berishi holatlarini keltirib chiqargan chuqur kuchli ruhiy kechinmalarni namoyon etadi.

Ko‘pincha ba‘zi bir jinoyatlar tarkiblari subyekt tomonining tarkibiy qismi sifatida affekt – kuchli ruhiy hayajonlanish holati namoyon bo‘ladi.

NOTA BENE !

Jinoyat huquqida affekt – bu qisqa muddatli, to‘satdan paydo bo‘luvchi, jabrlanuvchining huquqqa xilof, axloqsiz xatti-harakatlari natijasida kelib chiquvchi kuchli ruhiy hayajonlanishdir.

Affekt fiziologik (jismoniy) va patologik (g‘ayritabiiy holat) bo‘lishi mumkin.

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida yuzaga kelgan **fiziologik affekt** o‘zida shaxs ongida ustunlik qiluvchi, o‘z xatti-harakatlari ustidan uning nazorat qilishini susaytiruvchi, intellektual faoliyatni ma‘lum darajada tormozlantiruvchi, ongning torayishini ifodalovchi intensiv (birdan keskin kuchlangan) hissiyotni namoyon etadi. Biroq bu bilan ongning chuqur xiralashishi kelib chiqmaydi, o‘zini tuta bilish saqlanib qoladi va shuning uchun fiziologik affekt javobgarlikni istisno qilmaydi¹. **Patologik**

¹ Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под ред. д.ю.н., проф. Н.Ф. Кузнецовой и к.ю.н., доц. И.М. Тяжковой. – С. 349.

affektda shaxs jinoyat subyekti bo‘la olmaydi, chunki o‘zi sodir etayotgan qilmishining xususiyatini anglamaydi va ularni boshqara olmaydi, ya‘ni o‘z qilmishiga javob bera olmaydigan bo‘lib qoladi.

Qonunchilik tomonidan kuchli ruhiy hayajonlanish holati (fiziologik affekt) jazo choralarini kamaytirish uchun asos sifatida ko‘rib chiqiladi. Shu munosabat bilan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirish (JK 98-moddasi), onaning o‘z chaqalog‘ini qasddan o‘ldirishi (JK 99-moddasi), kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (JK 106-moddasi) kabi bunday jinoyatlar tarkibi yengil holatlar qatoriga kiradi.

8-§. Yuridik va faktik xato, ularning jinoyat-huquqiy ahamiyati

Xato – bu shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat sifatida ko‘rsatuvchi obyektiv xususiyatlariga nisbatan yanglishish yoki noto‘g‘ri tasavvur qilish, noto‘g‘ri baholash hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, xato bu shaxsning sodir qilgan jinoyati holatlariga bo‘lgan noto‘g‘ri munosabatidir. Shuning uchun huquqni qo‘llash amaliyotida aniqlanishi lozim bo‘lgan muhim masalalardan biri, bu – subyekt xato bo‘lib, sodir etilayotgan ijtimoiy xavfli qilmishning xarakter va darajasini aniqlashtiradi yoxud yanglishishning yuridik tavsifini o‘zida namoyon qiladi.

Shaxsning xatoli tasavvurlaridan kelib chiqqan holda xatolarni yuridik va faktik xatolarga bo‘lish qabul qilingan.

NOTA BENE !

Yuridik xato (error juris) – shaxsning o‘zi sodir etadigan qilmishining yuridik mohiyatini (jinoiyligini yoki jinoiy emasligini) va uni sodir etishning yuridik oqibatlarini (kvalifikatsiyasi, shakli, jazo miqdori) noto‘g‘ri baholashidir.

Yuridik xatoning quyidagi turlari ajralib turadi:

– **jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari holatlariga ko‘ra xato qilish**, ya‘ni shaxs o‘zi sodir etgan qilmishini jinoyat to‘g‘risidagi qonun

hujjatlarida ko'zda tutilmagan deb o'ylaydi, aslida esa, uning harakatlari qonun bo'yicha jinoyat deb topiladi. «Qonunni bilmaslik jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi» degan qoidadan kelib chiqilib, mazkur tarzdagi xato aybning qasd shaklini ham, jinoiy javobgarlik masalasini ham rad etmaydi;

– shaxsning sodir etgan qilmishi qonun bo'yicha jinoyat hisoblanmasa-da, **u o'zi sodir etgan qilmishini jinoyat sifatida (xayoliy jinoyat) xato baholaydi.** Bunday qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyati va huquqqa xiloflik belgilari mavjud bo'lmaganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, shuning uchun huquqiy ahamiyatiga ko'ra, ayb inkor etiladi.

– **subyektning sodir etgan jinoyati oqibatiga nisbatan xato** uning kvalifikatsiyasiga, mazkur qilmish uchun belgilanadigan jazo miqdoriga va turiga nisbatan bo'ladi. Holatlarning nomlanishi aybning mohiyatiga ta'sir qilmaydi va u aybdor ongini to'liq qamrab olmagan bo'ladi, shuning uchun xato baho berish qasdni ham, jinoiy javobgarlikni ham inkor etmaydi.

Shunday qilib, sodir etilayotgan qilmishning yuridik mohiyati va yuridik oqibatlariga nisbatan yanglishayotgan shaxsning jinoiy javobgarligi subyektning bu qilmishni baholashiga emas, balki qonun hujjatlariga muvofiq kelib chiqadi. Bunday yuridik xato na aybga, na jinoyat kvalifikatsiyasiga va na jazo tayinlashga ta'sir qiladi.

NOTA BENE !

Faktik xato (error facti) deganda, jinoyat tarkibining obyektiv belgilari, huquqqa xilof ijtimoiy xavfli qilmish darajasi va xarakterini ifodalovchi faktik holatlar haqida shaxsning noto'g'ri tasavvuri yoki yanglishishi tushuniladi.

Qilmishning xavfliligi ko'plab holatlar bilan aniqlanar ekan, o'z navbatida, shaxs faktik xatosi ham ijtimoiy xavfliligi va sodir etilganlik darajasi hamda oqibatlarga nisbatan ham turli xil bo'lishi mumkin. Faktik xatoning jinoyat-huquqiy mazmuni, jinoyatning qanday elementiga va

uning ijtimoiy xavflilik xususiyatiga va oqibatiga nisbatan ta'siri shaxsda noto'g'ri bo'lishi, xato tasavvur qilishi yoki baholashi bilan aniqlanadi.

Predmetdan noto'g'ri tushunish va baholash orqali paydo bo'lgan tasavvurlardan kelib chiqib, faktik xatolarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- sodir etilayotgan qilmishning ijtimoiy xavfliligiga nisbatan;
- tajovuz obyektiga nisbatan;
- yetkazilgan oqibatga nisbatan;
- sababiy bog'lanishga nisbatan;
- javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar.

Sodir etilayotgan qilmishning ijtimoiy xavfliligiga nisbatan xatoda, birinchidan, shaxs qilmishini noto'g'ri ijtimoiy xavfliligini yo'qotuvchi faktik holatlar kuchda bo'ladi. Masalan, shaxs ombor hududiga kirib, hisobdan chiqarilgan va yo'q qilishga mo'ljallangan, qimmatga ega bo'lmagan mulkni «o'g'irlydi». Mazkur xato aybning shakliga ta'sir qilmaydi va o'z-o'zidan qasddan sodir etilgan deb topiladi, ammo bu holat bo'yicha jinoiy javobgarlik masalasi tugallangan jinoyatga nisbatan vujudga kelmaydi, chunki jinoiy maqsad amalga oshmagan va faktik jihatdan tanlangan (o'g'irlanmoqchi bo'lgan) tajovuz obyektiga hech qanday zarar yetkazilmaganligi uchun jinoyatga suiqasd sifatida baholanadi, ya'ni jinoyat sodir qilgan shaxsning harakati aybdor fikrining yo'nalishi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak. Ikkinchidan, shaxs o'z xatti-harakatlarini huquqiy hisoblab, ularning ijtimoiy xavfliligi xususiyatini anglamaydi. Odatda, bunday holatlar jinoyatning obyektiv tomoni va qilmishga ijtimoiy xavfli xarakter kasb etuvchi qandaydir muhim faktik holatni bilmaslik bilan izohlanadi. Bunday xato aybning qasd shaklini inkor etadi, shuning uchun faqat qasddan sodir etilgan qilmish uchun jinoiy javobgarlik mavjud normalarda ular jinoiy javobgarlikni istisno etadi. Masalan, shaxs tomonidan qalbaki pullarni haqiqiy deb o'ylagan holda o'tkazishi qasd bo'lmaganligi uchun jinoyat deb hisoblanmaydi. Agar qonunchilik jinoiy qilmishni aybning har qanday formasida jazoga sazovor deb hisoblasa, shaxs ijtimoiy xavfli oqibatni anglashi mumkin yoki anglashi kerak bo'lgan hollarda uning harakatlari

ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan qilmish uchun jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiradi. Bunday turdagi xatoga juda ko'p hollarda yo'l qo'yiladigan holat sifatida zaruriy mudofaa misol bo'ladi. «Agar hodisa holatlariga ko'ra, mudofaa choralari qo'llagan shaxs o'zining yanglishganini bilmagan va bilishi ham mumkin bo'lmagan bo'lsa»¹, ya'ni qilmishning ijtimoiy xavfli xususiyatiga nisbatan uzrli xato bo'lganida zaruriy mudofaa holatida zarar yetkazish uchun javobgarlik kelib chiqmaydi. Biroq ehtiyotsizlik orqasida o'lim yoki sog'liqqa jiddiy zarar yetkazilganda jinoiy javobgarlik kelib chiqsa, aybli xato qilmishning ijtimoiy xavfliligiga nisbatan jinoiy javobgarlik kelib chiqishi mumkin, ammo qasddan sodir etilgan qilmish uchun emas, balki zaruriy mudofaa holatida bo'lgan, ish holatiga ko'ra tajovuzning xayoliyligini va o'zining «mudofaalanuvchi» harakatlarining ijtimoiy xavfini anglashi mumkin va lozim bo'lgan shaxsning ehtiyotsizlik orqasida zarar yetkazishi uchun javobgarlik kelib chiqishi mumkin².

Shaxsning jinoyat obyektiga nisbatan xato qilishi sud-tergov amaliyotida ko'p kuzatiladigan holat hisoblanadi. Bu xatoning o'ziga xos xususiyati shundaki, u qasd doirasida namoyon bo'ladi. Qoida tariqasida bunday xatoga yo'l qo'yish ayb shaklini o'zgartirmaydi faqat mazmun-mohiyatini, uning tomonlarini aniqlashtiradi.

Tajovuz obyektiga nisbatan xato – bu shaxsning jinoyat objekti ijtimoiy va yuridik mohiyati haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishidir. Uning mohiyati: jinoyat subyekti bir vaqtda ma'lum bir obyektga tajovuz qilyapman deb hisoblaydi, aslida esa, u boshqa ko'zda tutilmagan obyektga nisbatan tajovuzni amalga oshirayotgan bo'ladi. Mazkur xato guruhiga **jinoyat predmetiga va jabrlanuvchiga nisbatan yo'l qo'yiladigan xatolarni** ham kiritish mumkin, o'z navbatida, ular bir xil turga kirmaydi. Bu ko'rinishda xatolarni bir guruhga birlashtirish zarurati shundaki, bu turkum xatolarning barchasi, asosan, obyekt belgilariga nisbatan yo'l qo'yiladi. Bunday xatolarning barchasi aybdor o'ylagan va

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий хавфли тажовузлардан зарурий мудофаа ҳукукини таъминловчи қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, 10-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. – 79-б.

² Ўша жойда. 3-банд, 10-хатбошиси.

hisoblagan obyektga (o'z navbatida, xato qilingan «yaroqsiz» predmet va jabrlanuvchi ham kiritiladi) nisbatan suiqasd sifatida baholanadi. Bunday kvalifikatsiya bir tomondan, jinoyat sodir etgan, uning ongi va oldindan ko'ra olishi bilan qamrab olmagan obyektiv holatlarda shaxsni ayblashni inkor etishi bilan, boshqa tomondan esa, zarar aslida boshqa bir obyektga yetkazilgani uchun, aybdorning ongida individuallashtirilgan obyektga nisbatan tugallangan tajovuzning mavjud emasligi bilan bog'langan. Masalan, dorixonadan shaxs tarkibida narkotik modda saqlovchi dorini o'g'irlashga harakat qiladi, lekin u boshqa bir dorini o'g'irlaydi. Bunday xato jinoyatni kvalifikatsiya qilishda qasdning yo'naltirilganligidan kelib chiqadi. Bu holatda shunga e'tibor berish kerakki, faktik holatdan olib qaraganda, aybdorning qasdi qaratilgan obyekt zarar ko'rmaydi, shuning uchun qilmish tugallanmagan jinoyat sifatida ko'rib, jinoyatga suiqasd sifatida qaraladi (yuqoridagi misol JK 25-moddasi va 271-moddasi 1-qismi).

O'z navbatida, obyektga nisbatan bo'lgan xatodan predmet va jabrlanuvchi shaxsiga nisbatan bo'lgan xatolarni ham farqlash lozim. Bunday xato (bir uydagi mol-mulk o'rniga ikkinchi uydagi mol-mulknini o'g'irlash, bir odamning o'rniga boshqasini o'ldirish) ayb shakliga ham, jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ham, jinoiy javobgarlik belgilashga ham ta'sir etmaydi.

Yetkazilgan oqibatlarga nisbatan xato. Qonunga muvofiq aybdor shaxsning o'z qilmishiga turli xil ruhiy munosabatlari u yoki bu ayb shaklini hosil qiladi. Bu oqibatlar haqiqatda kelib chiqmasdan oldin ular shaxs tasavvurida namoyon bo'ladi. Ish holati bo'yicha biz, oldindan ko'ra bilish kabi intellektning bunday ko'rinishi bilan to'qnashamiz. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishda shaxsning oldindan ko'ra olishi natijaga – kelib chiqqan oqibatlarga mos kelmasligi ham mumkin.

Oqibatga nisbatan xatolar turli xil bo'lishi mumkin. Masalan, shaxs qandaydir oqibat paydo bo'lishi yoki yuzaga kelmasligiga nisbatan yanglishishi mumkin. o'z navbatida, har qaysi xatolardagi bunday yanglishishlar oqibatning sifat yoxud hajm tavsifiga nisbatan bo'lishi

mumkin. Shu sababga ko‘ra, yetkazilgan zararga nisbatan xato uning hajmi yoxud sifat tavsifiga nisbatan bo‘lishi mumkin.

Yetkazilgan oqibatning sifatiga nisbatan bo‘lgan xato, ya’ni aybdor oldindan kelib chiqishini ko‘ra bilgan ijtimoiy xavfi katta oqibat faktik jihatdan yuzaga kelmasligi yoki oldindan ko‘ra bilmagan oqibat yuzaga kelishida ifodalanadi. Bunday xato oldindan ko‘ra bilmagan faktik oqibat uchun qasddan zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlikni istisno etsada, ehtiyotsizlik orqasida zarar yetkazganlik uchun jinoiy javobgarlikni yuzaga keltirishi mumkin. Qasd qaratilgan qilmish kutilgan oqibatni yuzaga keltirmasa, u oqibatga nisbatan suiqasd sifatida baholanishi kerak, bundan tashqari, faktik yuzaga kelgan zarar ehtiyotsizlik orqasida yetkazilgan zarar deb baholanadi. Masalan, o‘zganing uy-joyini o‘t qo‘yish orqali yo‘q qilishga qaratilgan jinoyat subyektining urinishi amalga oshmasa va buning natijasida hodisa joyida tasodifan mavjud bo‘lgan shaxs sog‘lig‘iga o‘rtacha og‘irlikdagi tan jarohati yetkazilsa, aybdorning qilmishi og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan mol-mulkka zarar yetkazishga suiqasd qilish (JK 173-moddasi 2-qismi «b» bandi) va ehtiyotsizlik oqibatida badanga o‘rtacha og‘irlikdagi shikast yetkazish sifatida (JK 111-moddasi 1-qismi) kvalifikatsiya qilinishi lozim. Agar aybdorning qasdi bilan qamrab olinmagan oqibat yuzaga kelsa va bu oqibat qonunchilikka ko‘ra, kvalifikatsiya qilinuvchi belgi sifatida belgilangan bo‘lsa, bu holatda jinoyatlar jami yuzaga kelmaydi va qilmish asosiy jinoyat bilan birga kelib chiqqan oqibatga kvalifikatsiya qilinadi. Agar shaxsning qasddan og‘ir tan jarohati yetkazishi jabrlanuvchining o‘limiga olib kelsa, bunday qilmish JK 104-moddasi 3-qismi «d» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdorning **ijtimoiy xavfli qilmishi miqdoriga nisbatan xatoga** yo‘l qo‘yishi – bu uning jinoyat og‘irlik darajasida yanglishishini anglatadi. Bu holatda ijtimoiy xavfli qilmish natijasida yetkazilgan zarar darajasi oldindan kutilgan zarar darajasidan ortiq yoki kam bo‘lishi mumkin. Bu turdagi xatolar jinoiy yo‘l bilan yetkazilgan zarar miqdoriga ko‘ra javobgarlikni vujudga keltiruvchi jinoyatlardan boshqa (masalan, JK 161-moddasi – qo‘poruvchilik natijasida yetkazilgan mulkiy zararining

miqdori) barcha jinoyatlarda ayb shakliga ham, jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ham umuman ta'sir qilmaydi. Bu tartibda ayb shakli, jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmasligi qonunchilik tomonidan o'rnatilgan chegaradan chetga chiqmagan holda bo'lishi mumkin.

Demak, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish natijasida mehnat qobiliyatini 33% yo'qotishda ham, 70 va 80% da ham aynan kvalifikatsiya qilinadi. Qonun bilan ish ko'ruvchi tomonidan kelib chiqqan oqibatning og'irlik darajasiga qarab jinoyatni kvalifikatsiya qilish lozim bo'lsa, bu holatda aybdor qasdi yo'naltirilganligi asosida kvalifikatsiya qilinadi. Agar yuzaga kelgan oqibat subyekt o'ylagan oqibatdan yuqori bo'lib ketsa (masalan, shaxs tan jarohati yetkazmoqchi bo'lib harakat qilishi natijasida o'limning yuzaga kelishi), bu holda mazkur oqibat uchun qasddan yetkazganlik xususiyati javobgarlikni inkor etadi. Og'irroq zarar uchun ehtiyotsizlik orqasida zarar yetkazilganlikda jinoiy javobgarlik belgilanadi.

Sababiy bog'lanishga nisbatan xato sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishning voqealar rivojlanishi tufayli noto'g'ri tasavvur qilinishi hisoblanadi. Bu turdagi xatoning jinoiy javobgarlik masalasiga ta'sir qilishi oqibat aybdor qasdi bilan qamrab olinib, kelib chiqqan oqibat uning sodir etmoqchi bo'lgan harakatlari natijasida emas, balki boshqa bir harakat natijasida yuzaga keladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, qasd hamma detallarni emas, balki umumiy rivojlanish qoidalariga asosidagi detallarni anglay oladi. Sababiy bog'lanishning umumiy rivojlanishiga nisbatan xato nazarda tutilgan jinoiy oqibat kelib chiqsa, ayb shakli va jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir etmaydi. Ayrim hollarda sababiy bog'liqlik rivojlanishining qoidalariga nisbatan xato qasdni inkor qiladi, ammo subyekt kelib chiqqan oqibatni oldindan ko'ra bilishi shart yoki mumkin bo'lgan hollarda ehtiyotsizlik orqasida jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishiga asos bo'ladi. Masalan, avtomobilni boshqarayotgan tajribasiz haydovchi burilishda to'satdan qattiq tormoz berib, yo'l chetidagi shag'alga sirg'angan mashina birdan burilishi natijasida avtomashina ichidagi yo'lovchilar turli darajada tan jarohatlari olishdi. Mazkur holatda haydovchining zarur malakaga ega emasligi, sababiy bog'lanish

rivojlanishi bilan to'liq qamrab olinmaganligi uchun shaxs yuz berishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli oqibatni oldindan ko'ra bilmagan, o'z navbatida, haydovchi mazkur holatni oldindan ko'ra bilishi mumkin yoki lozim edi. Boshqa hollarda sababiy bog'lanishning rivojlanishi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ta'sir etishi mumkin. Bu ijtimoiy xavfli oqibat qasd bilan qamrab olinadi, lekin u sodir etmoqchi bo'lgan harakat bilan emas, balki boshqa bir harakat natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Jinoyatni og'irlashtiruvchi holatlarga nisbatan xato bor holatlarni yo'q deb, yo'q holatlarni bor deb tasavvur qilish natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun mazkur xato tasavvur ikki turda bo'lishi mumkin. Birinchidan, jinoyat subyekti jinoyatni og'irlashtiruvchi holat mavjud bo'lmaganda, shunday holat mavjudligi haqida xato tasavvurga ega bo'ladi; ikkinchidan, shaxs sodir etayotgan qilmishining kvalifikatsiya qilinuvchi belgilarini sodir etayotgan, deb hisoblaydi, faktik jihatdan esa, shaxs ongi bilan anglamagan holda jinoyatni og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'ladi.

Birinchi holatda xatoni belgilashda shaxs ongida og'irlashtiruvchi holat sodir etayotganini tasavvur qilishi ahamiyatga ega. Shuning uchun qilmish qasd yo'naltirilgan va qamrab olgan doirasida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Biroq bu tugallangan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas, chunki qilmishning ijtimoiy xavfliligini oshiruvchi kvalifikatsiyaga ta'sir qiluvchi jinoyat belgilari faktik jihatdan sodir etilmagan. Jinoyatni kvalifikatsiya qilishda kvalifikatsiyaga ta'sir qiluvchi belgilarga nisbatan shaxs xato tasavvur qilsa, faktik jihatdan tamom bo'lgan jinoyat suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak, chunki ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqdi, lekin aybdorning ongi va qasdi bilan qamrab olingan javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar amalda to'liq yuz bermadi.

Keltirilgan ikkinchi holatga ko'ra, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarga nisbatan xatoning turida shaxs sodir etayotgan qilmishini ijtimoiy xavfliligini oshiruvchi kvalifikatsiyaga ta'sir qiluvchi belgilarisiz amalga oshirayotganday tasavvur etib, uning ongi bilan yuridik jihatdan mavjud og'irlashtiruvchi holat to'liq qamrab olinmaydi. o'z navbatida

sodir etilayotgan qilmish subyekt belgilari mavjud bo'lmaganligi uchun jinoyat og'irlashtiruvchi holatlarsiz kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Ko'rib chiqilayotgan faktik xato turi, nafaqat, qilmishning kvalifikatsiyaga ta'sir qiluvchi og'irlashtiruvchi holatlarini ko'zda tutadi, balki jinoyat tarkibining mustaqil belgilari sifatida ham qaralishi mumkin. Masalan, o'g'irlik bilan bosqinchilik sodir qilinish usuli (yashirincha yoki ochiq) bo'yicha farqlanadi. o'g'irlik jinoyatining kvalifikatsiya qiluvchi asosiy mezoni, bu – aybdorning sodir etayotgan qilmish haqidagi subyekt tasavvuri bo'lsa, bu aybdor qasdining yo'naltirilganligiga asosan kvalifikatsiya qilinishi lozim¹.

Jinoyat tarkibining obyektiv tomoni belgilariga yuz bergan oqibatga, sababiy bog'lanishning rivojlanishiga, javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarga nisbatan xatodan tashqari **jinoyatni sodir etish vositasiga nisbatan xato** turini ham kiritish mumkin. Buni to'rt turga bo'lish mumkin.

Birinchi turdagi vositaga nisbatan xatoga aybdor tomonidan o'zi mo'ljallagan vositadan boshqa, lekin uning o'rnini bosadigan vositadan foydalanish tushuniladi. Mazkur turdagi vositaga nisbatan xato qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir qilmaydi. Sodir qilingan qilmishning obyektiv tomoni oxiriga yetgan bo'lsa, shaxs qasdining yo'naltirilganligiga muvofiq, jinoyat tugallangan deb kvalifikatsiya qilinadi.

Ikkinchi turdagi vositaga nisbatan xatoda ishlatiladigan vositani aybdor past darajali deb hisoblaydi yoki o'ylaydi. Agar jinoyat sodir etilishi natijasida kelib chiqqan oqibat aybdor kutgandan ko'ra og'irroq bo'lib chiqsa, bunda mazkur harakatlar ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan deb kvalifikatsiya qilinishi lozim, zero, shaxs kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatni oldindan ko'ra bilmagan bo'lsa-da, mazkur holatni oldindan ko'ra bilishi mumkin va lozim edi.

Uchinchi turdagi xatoning mohiyatini aybdor o'zi yaroqli deb ishlatayotgan vosita aslida yaroqsiz bo'lib chiqishiga nisbatan bo'lgan xato

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкини ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори, 1-банд, 3-банднинг 1-хатбошиси // Тўплам, 1-жилд. – 220–221-б.

tashkil qiladi. Bunday holatda sodir etilgan qilmish qasdning yo‘naltirilganligiga muvofiq, jinoyatga suiqasd qilish deb kvalifikatsiya qilinadi.

To‘rtinchi turdagi vositaga nisbatan xato ishlatiladigan vosita har qanday holatda ham yaroqsiz bo‘lib, buni subyekt o‘ziga dalda berishda, o‘zining ustunligini qo‘pollikda va o‘z-o‘ziga ishonishda ishlatishda ifodalanadi (fitnada, buzishda). Bunda jinoiy javobgarlik istisno etiladi.

Sud-tergov amaliyotida hozirga qadar haqiqatan ham shaxs o‘zi sodir etgan qilmishining huquqqa xilofligini tushunganmi, uni jinoiy javobgarlikka tortmaslik asosli bo‘ladimi, degan masala bahsli bo‘lib qolmoqda. Agar mazkur turdagi xatolarning mavjud bo‘lganligi aniqlansa, sud ishni o‘rganib chiqish uchun qo‘shimcha tergovga qaytarishi lozim.

«Jinoyatning subyekt tomoni» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar

1. Jinoyat subyekt tomoni o‘zida nimani ifoda etadi? Ularning ahamiyati nimada?

2. Jinoyat subyekt tomonini qanday belgilar hosil qiladi? Jinoyat tarkibi subyekt tomonining zaruriy va fakultativ belgilarining ahamiyati va ularning roli qanday?

3. Ayb jinoyat subyekt tomonida qanday o‘rin tutadi va uning qanday turlari mavjud? Aybning qanday turi o‘zida katta ijtimoiy xavfni namoyon etadi va nima uchun?

4. Qasdning qanday turlari mavjud? To‘g‘ri qasdning egri qasddan qanday farqlari mavjud?

5. Formal tarkibli jinoyatlar qanday qasd bilan sodir etilishi mumkin?

6. Qasdning qaysi bir turi katta ijtimoiy xavfni namoyon etadi-yu, qaysi biri kichik ijtimoiy xavfni?

7. Qasd noaniq bo‘lganida (konkret bo‘lmaganida) kvalifikatsiya qilish tartibi qanday?

8. Ehtiyotsizlik o‘zida nimani ifodalaydi va uning turlari qanday?

9. Egri qasddan o‘z-o‘ziga ishonishning qanday farqli tomonlari mavjud?

10. Beparvolik obyektiv va subyekt belgilarining mohiyati nimada?
11. Murakkab aybli jinoyatlar to'g'risida qanday holatlarda gapirish mumkin?
12. Kazus nima? Unda jinoiy javobgarlikka yo'l qo'yiladimi?
13. Kazus jinoiy beparvolikdan nimasi bilan farq qiladi?
14. Jinoyat motivi va maqsadining jinoyat-huquqiy ahamiyati nimadan iborat? Ularning farqi nimada?
15. Jinoyat sodir etgan shaxsning hissiy holati o'zida nimalarni namoyon etadi? Hissiyotning jinoyat-huquqiy ahamiyati nimada? JK Maxsus qismidagi qaysi moddalarda jinoyat tarkibining tashkiliy belgilari sifatida ular namoyon bo'ladi?
16. Jinoyat huquqida yuridik va faktik xatolar deganda nima tushuniladi?
17. Yuridik va faktik xatolarning turlarini aytib bering. Ularning jinoyat kvalifikatsiyasiga qanday ta'siri bor?

Qo'shimcha adabiyotlar

o'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Волков Б.С. Мотивы преступлений (Уголовно-правовое и социально-психологическое исследование).– Казань: Казанский ун-т, 1982. – 152 Б.

Дагель П.С., Котов Д.П. Субъективная сторона преступления и ее установление. – Воронеж: 1974. – 244 Б.

Дагель П.С. Неосторожность. Уголовно-правовые и криминологические проблемы. – М.: 1977. – 144 Б.

Злобин Г.А., Никифоров Б.С. Умысел и его формы. – М.: 1972. – 264 Б.

Лунев В.В. Субъективное вменение. – М.: «Спарк», 2000. – 94 Б.

Миненок М.Г., Миненок Д.М. Корысть. Криминологические и уголовно-правовые проблемы. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 367 Б.

Рарог А.И. Квалификация преступлений по субъективным признакам. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 304 Б.

Рарог А.И. Проблемы субъективной стороны преступления. – М.: 1991. – 94 Б.

Скляр С.В. Вина и мотив преступного поведения. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2004. – 326 Б.

Тяжкова И.М. Неосторожные преступления. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 278 Б.

Ilmiy maqolalar

Закирова У.А. Жиноят мотиви ва мақсади // Адвокат журнали. – 2017. №5. –Б. 6-7.

Кабулов Р. Уголовно-правовое понятие вменяемости и невменяемости // Ж. Актуальные проблемы ведомственного здравоохранения. 2000. №1. – 36–39-б.

Рустамбаев А.М. Вина, мотив, цель в преступлениях, составляющих сексуальное насилие // Ёш олимлар илмий мақолалари тўплами. 2003. № 5. – 157–163-б.

Селезнев М. Умысел как форма вины // Ж. Российская юстиция. 1997. № 3. – 11-б.

Скляр С.В. Проблемы определения понятия вины в уголовном праве России // Ж. Уголовное право. 2003. №2. – 71-б.

Филимонов В. Теоретическое проблемы учения о вине в уголовном праве // Ж. Уголовное право. 2004. №3. – 69–71-б.

VIII BOB. JINOYAT SUBYEKTI

1-§. Jinoyat subyekti tushunchasi

Jinoyat subyekti jinoyat tarkibining ajralmas elementi hisoblanadi.

Jinoyat subyekti va uning belgilari JK Umumiy qismining IV bobida belgilab berilgan bo‘lib, bu bob «Javobgarlikka tortilishi lozim bo‘lgan shaxslar» deb nomlanadi. Bu belgilarni umumiy jinoyat subyektiga tegishli deb nomlash belgilab qo‘yilgan.

Jinoyat kodeksi Umumiy qismining ko‘pgina moddalarida jinoyat tarkibining umumiy tushunchasi doirasida boshqa qo‘shimcha belgilari ham namoyon bo‘ladi, jumladan, boshqarish tartibiga qarshi jinoyatlar va boshqa obyektning muayyan ko‘rinishiga nisbatan tajovuzlar – mansabdorlik jinoyatlari ko‘rib chiqilishida – jinoyatlarning mazkur fakultativ belgilari zaruriy xususiyatga ega bo‘lib, ular jinoyatning maxsus subyekti belgilariga xos bo‘ladi.

NOTA BENE !

Jinoyat subyekti – jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan va ushbu qonunda belgilangan yoshga yetgan aqli raso jismoniy shaxsdir.

JK 17-moddasida jinoyat subyektining umumiy belgilariga ta’rif berilgan hamda ular quyidagi uchta zaruriy elementlar majmui orqali ifodalanadi:

- jismoniy shaxsligi;
- aqli rasoligi;
- JKga muvofiq jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi subyektning yoshi.

Ushbu element (belgi)lar birontasining mavjud bo‘lmasligi jinoyat subyektining, demak jinoyat tarkibining mavjud emasligidan dalolat beradi.

Jinoyat kodeksi qoidalariga ko‘ra, faqat jismoniy shaxs, ya’ni inson jinoiy javobgar bo‘lishi mumkin. Aytish kerakki, jinoyat qonunchiligida

jismoniy shaxs tushunchasi to'g'ridan-to'g'ri berilmagan. Biroq, Jinoyat Kodeksi va boshqa huquqiy aktlarning mohiyatidan ko'rinadiki, jinoyat huquqidagi jismoniy shaxs tushunchasi Fuqarolik Kodeksining 16-moddasidagi tushunchaga o'xshash bo'lib, unga ko'ra «fuqaro zamirida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlar fuqarolari va shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi».

Jinoyat subyekti faqat jismoniy shaxs bo'lishi mumkin, bu esa O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi bo'yicha yuridik shaxsning jinoiy javobgarligi bundan mustasno ekanligini bildiradi. Yuridik shaxslar fuqarolik qonunchiligi bo'yicha faqat mulkiy javobgar bo'ladilar. Ular qachonki jinoyat natijasida mulkiy yoki boshqa zarar yetkazilgan bo'lsa, bunda mazkur yuridik shaxsning rahbari jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin, masalan, JK 196-moddasi bo'yicha atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik uchun. Demak, agar biron-bir tashkilot, masalan, shaxtada mehnat muhofazasi qoidalari buzilishi natijasida odamlarga shikast etsa, buning uchun yuridik shaxs sifatida shaxta emas, balki mazkur qoidalarning buzilishida aybdor bo'lgan muayyan shaxs javobgarlikka tortiladi.

Hayvonlar jinoyat subyekti bo'lishi mumkin emas, masalan, it biror-bir odamni tishlab olsa yoki uning sog'lig'iga zarar yetkazsa, uni jinoyat subyekti deya olmaymiz. Sud-tergov amaliyotida aniqlanishi kerak bo'lgan yagona holat bu, it jinoyat sodir etish quroli sifatida foydalanilganligi yoki foydalanilmaganligidir. Masalan, inson tomonidan o'rgatilgan it buyruq berilishi natijasida inson sog'lig'iga zarar yetkazsa, bunda hayvon tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning egasi javobgarlikka tortiladi.

Aytish kerakki, jinoiy javobgarlik shaxs bilan chambarchas bog'langan bo'lib, shaxs o'zining ijtimoiy xavfli, qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan qilmishi uchun javobgardir. Bu bilan mazkur holat jinoyat huquqining asoslantirilgan tamoyillari asosida shaxsning aybini belgilashda ongli va maqsadli jinoiy qilmishi uchun shaxsiy javobgarlik o'rnatishga ruxsat beradi.

Shunday qilib, yuridik shaxslarni yoki hayvonlarni emas, balki faqat insonlarni, ya'ni o'z qilmishining xususiyatini va ijtimoiy xavflilik

darajasini anglab yetish qobiliyatiga ega bo'lgan, o'z qilmishiga hisob bera oladigan va ularni boshqara oladigan **aqli raso** jismoniy shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin. Agar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs bunday qobiliyatga ega bo'lmasa (aqli noraso bo'lsa), jinoyat subyekti bo'lmasligi mumkin.

Shaxs o'z qilmishlariga javob bera olishi va jinoiy javobgarlikka tortilishi uchun u yetarli yoshga yetganlik bilan bog'liq holda qilmishini aniq anglay olish darajasiga ega bo'lmog'i ham lozim. Aniq anglay olish va ijtimoiy rivojlanish darajasi ma'lum yoshga yetish bilan paydo bo'ladi, qachonki oila, maktab, ijtimoiy muhit ta'sirida nima yaxshiyu nima yomon, qanday hollarda uning harakatlari jamiyat va boshqa insonlarga zarar yetkazishini tushunadi.

Yosh nafaqat jinoyat subyektining insonga xos bo'lgan umumiy alomati, shuningdek, jinoiy javobgarlikning paydo bo'lishi yosh bilan bog'liq. Yosh chegarasini o'rnatishda qonun chiqaruvchi tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganda jinoiy javobgarlikka tortilish masalasini hal etishga imkon yaratuvchi, shaxsning kerakli rivojlanish darajasi, hayotiy tajribasi barkamolligini aniqlash mumkin bo'lgan talablar e'tiborga olinadi. Bundan tashqari, jinoyat yoshini o'rganish jarayonida qonun chiqaruvchi tibbiyot, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlar xulosalarini hisobga oladi, shuningdek, ko'pchilik o'smirlar uchun odatiy bo'lgan hayot yo'lining turli bosqichlaridagi shakllanish va rivojlanish sharoitlaridan kelib chiqadi.

Jinoyat qonuni yosh tushunchasini aks ettiruvchi maxsus normaga ega emas, u faqat, agar shaxs qandaydir jinoyat sodir etganda, jinoiy javobgarlikni vujudga keltiruvchi yosh chegaralarini ko'rsatadi.

2-§. Jinoiy javobgarlik kelib chiqadigan yosh

JK 17-moddasi 1-qismi holatiga ko'ra, shaxs qonunda belgilangan yoshga yetmay turib jinoiy qilmish sodir etgan bo'lsa, bu holda shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas, shuningdek, jinoyat subyekti bo'lib ham hisoblanmaydi.

Yosh deganda, u yoki bu shaxsning alohida psixofiziologik holatini tavsiflovchi, tibbiy-biologik, ijtimoiy psixologik va huquqiy o'zgarishlar bilan aloqador bo'lgan davrning o'tishi tushuniladi.

Jinoyat qonunchiligi yosh to'g'risida hech qanday maxsus normalarni aks ettirmaydi, u faqat agar shaxs qandaydir jinoyat sodir etgan bo'lsa, jinoiy javobgarlik necha yoshdan kelib chiqishini ko'rsatadi xolos. Yosh tushunchasini jinoyat huquqi belgilaydi.

NOTA BENE !

Yosh deganda, u yoki bu shaxsning alohida psixo-fiziologik holatini tavsiflovchi, tibbiy-biologik, ijtimoiy psixologik va huquqiy o'zgarishlar bilan aloqador bo'lgan, tug'ilishdan to inson hayotining qandaydir xronologik muddatigacha o'tgan vaqtning kalendar davri tushuniladi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, yuridik adabiyotlarda yosh subyektning yuridik belgisi sifatida insonning tug'ilishidan to jinoyat sodir etishigacha bo'lgan vaqtning miqdori bilan aniqlanadi¹.

Umumiy qoidalarga ko'ra, sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik shaxs 16 yoshga to'lganda vujudga keladi. Voyaga yetmagan shaxs ijtimoiy ongining yetarli darajasi o'z xulqini jamiyatda o'rnatilgan qoidalarga moslashtirishni talab qilish imkonini beradi, shuning uchun voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlari uchun javobgarlikka tortilishlari mumkin. Faqat JK 17-moddasi 2, 3 va 4-qismlarida ko'rsatilgan maxsus jinoyat tarkiblari uchungina javobgarlik 13, 14 yoki 18 yoshdan vujudga keladi.

Yosh chegarasini belgilashga bunday xususiy yondashuv shu bilan izohlanadiki, umumiy jinoyat yoshidan farqli ravishda ba'zi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik vaqtliroq vujudga keladi.

Xususan, **JK 17-moddasi 2-qismiga** ko'ra, og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi) jinoyati uchun

¹ См. подробнее: Коченов М.М. Теоретические основы судебно-психологической экспертизы. Автореф. дис. ...докт психол. наук. – М.: 1991. – С. 34; Боровых Л.В. Проблема возраста в механизме уголовно-правового регулирования. Автореф. дис. ...канд. юрид. наук. – СПб.: 1993. – С.8; Щукина Г.И. Возрастные особенности школьника. – Л.: 1995. – С. 3; Михеев Р.И. Проблемы вменяемости, вины и уголовной ответственности (Теория и практика). Автореф. дис. ...докт юрид. наук. – М.: 1995. – С. 17.

javobgarlik 13 yoshdan vujudga kelishi mumkin. **JK 17-moddasi 3-qismi** ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgunga qadar 14 yoshga to'lgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan jinoyatlarning aniq chegarasini o'rnatgan.

Shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladigan yosh haqidagi umumiy qoidalardan istisno, ya'ni 13 yoshdan 16 yoshgacha shaxslar jinoyat subyekti bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat tarkibi shunday zaruratdan kelib chiqqanki, berilgan jinoyat tarkiblari ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan jinoyatlarni tavsiflaydi. Ular og'irlashtiruvchi holatlarni nazarda tutadigan, kvalifikatsiya qilinadigan yoki alohida kvalifikatsiya qilinadigan jinoyat tarkiblarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, **JK 17-moddasi 2- va 3-qismida** sanab o'tilgan jinoyatlar ikki obyektga tajovuz qiluvchi murakkab tarkibli jinoyatlar hisoblanadi yoki tajovuzni amalga oshirish aybning murakkab shaklini tashkil etuvchi qandaydir ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqaradi yoki bu obyektlarga tajovuz boshqa mustaqil jinoyatni sodir etish orqali amalga oshiriladi. Masalan, o'smir 15 yoshida ommaviy tartibsizliklarda (JK 244-moddasi) ishtirok etsa, uni bu norma orqali javobgarlikka tortish mumkin emas, chunki bu jinoyat uchun javobgarlik 16 yoshdan vujudga keladi. Shu bilan birgalikda, ommaviy tartibsizliklar Jinoyat kodeksining boshqa moddalarida ko'rsatilgan shaxsga qarshi zo'ravonlik harakatlari, bosqinchilik, o't qo'yish, mulkka zarar yetkazish yoki yo'q qilish hamda boshqa harakatlar bilan kuzatiladi hamda ular uchun javobgarlik 14 yoshdan belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, o'smir qanday faktik harakatlar sodir etganidan qat'i nazar, uning harakatlari shu normalar orqali kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Ko'rsatib o'tilgan yoshning minimal chegarasi (13 va 14 yosh) qonun chiqaruvchi tomonidan, jinoyat qonunida belgilangan yoshga yetguniga qadar, shaxs JK bilan taqiqlangan u yoki bu qilmishining ijtimoiy xavfli ekanligini anglashi, o'z irodasini, o'z jinoiy xatti-harakatlarini sodir etishning birinchi damlaridayoq nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishidan dalolat beruvchi shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanish

xususiyatlarini, shuningdek, kriminologik mezonlarini¹ hisobga olgan holda o‘rnatiladi.

Ba’zi hollarda esa shaxs jinoiy javobgarlikka faqat voyaga yetganidagina tortiladi². Jumladan, **JK 17-moddasi 4-qismi** javobgarlikni 18 yoshdan belgilagan.

Bir qancha jinoyatlar muayyan bir sohadagi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilib, ularning subyektlari faqatgina 18 yoshga to‘lgan shaxslar bo‘lishi mumkin. Bunday holatda gap jinoyat subyekti faqat voyaga yetgan shaxslar bo‘lishi mumkin bo‘lgan jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar va boshqa jinoyatlar haqida ketyapti. **JK 17-moddasi 4-qismida** ko‘rsatilgan ko‘pgina jinoyat tarkiblari aybdor shaxsning kasbiy yoki xizmat faoliyati bilan yoki normativ-huquqiy aktlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib chiqadigan majburiyatlardan bilan u yoki bu tarzda bog‘liq. Xususan, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsizlarni ta‘minlashdan bo‘yin tovlash (JK 122-moddasi) yoki aksincha, ota-onasini moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlash (JK 123-moddasi) jinoyat turlari uchun jinoiy javobgarlik aybdor shaxsning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 64- va 66-moddalari³ ko‘rsatmalaridan kelib chiqadigan

¹ Уголовный кодекс Республики Узбекистан: научно-практический комментарий. / А.С. Якубов, М.Х. Рустамбаев и др.; отв. ред. А.С. Якубов. – Т.: Адолат, 1996 (автор Раздела – А.С. Якубов). – С. 36.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси, 22-модда.

³ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартиришлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартиришлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартиришлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. -21, 23 б.

majburiyatlari yoki harbiy xizmat fuqarolarning voyaga yetishi bilan o'tashi kerak bo'lgan majburiyati¹ hisoblanadi. Bunday holatlar buzilishining zaruriy sharti shaxs 18 yoshga to'lganidagina bo'lishi mumkin.

JK 17-moddasi 5-qismi ko'rilayotgan moddaning 2, 3, 4-qismlarida keltirilgan jinoyat tarkiblari aniq bo'lgan qoidani o'rnatadi, berilgan qismlarda sanab o'tilmagan boshqa jinoyat tarkiblarining subyektlari jinoiy javobgarlik vujudga kelishining umumiy yoshi 16 yoshga to'lgan shaxslar hisoblangan jinoyatlar taalluqli.

Aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni qo'llashning insonparvarlik tamoyilini aks ettiruvchi bir qancha xususiyatlarini belgilab beradi. Bu o'z xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglab yetmagan voyaga yetmagan shaxslar bilan bog'liq. Xususan, bunday holatlarda voyaga yetmaganlar javobgarligi o'ziga xosliklarini tartibga soluvchi normalar o'rnatilgan Jinoyat kodeksining Umumiy qismi 6-bo'limi talablari hisobga olinadi. Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jinoiy jazo tayinlashning o'ziga xosliklariga ega maxsus normalar 18 yoshga to'lgan, ya'ni voyaga yetgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi umumiy normalardan farqli ravishda jinoiy javobgarlikning yengilligi bilan ajralib turadi.

Qonun tomonidan jinoiy javobgarlikning kelib chiqishi yuqori chegaralarining belgilanib qo'yilishi o'zining aksini topmadi. Bu esa, qonunda ko'rsatilgan yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs hatto katta yoshda (70–80 yosh va h.k.) bo'lsa ham, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Biroq sud har bir alohida holatda Jinoyat kodeksining 54-moddasi (Jazo tayinlashning umumiy asoslari) talablari asosida jinoiy jazoni individuallashtirish va uni tayinlashda jinoyat sodir etgan shaxsning yoshini e'tiborga olishi lozim.

¹ См.: Закон Республики Узбекистан от 12 декабря 2002 г. № 436-II «О всеобщей воинской обязанности и военной службе», ч.3 ст.4 // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2002 г., №12, ст.217; 2003 г., № 9-10, ст. 149; 2005 г., № 1, ст. 18; 2006 г., № 6, ст. 262.

Har bir ish bo'yicha majburiy tartibda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning aniq yoshi o'rnatilishi lozim. Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan voyaga yetmagan shaxsning yoshi jinoyat-protsessual qonuni hujjatlari asosida o'rnatiladi (JPK 548-moddasi)¹. Sud va tergov organlari jinoiy javobgarlikka tortilayotgan voyaga yetmagan shaxsning tug'ilgan yilini, oyini va kunini aniqlashi lozim. «Ayni vaqtda, shu narsani e'tiborda tutish kerakki, shaxs tug'ilgan kundan boshlab emas, balki tug'ilgan kuni o'tganidan so'ng, ya'ni ertasi kunning nol soatidan boshlab jinoyat uchun javobgarlik boshlanadigan yoshga to'lgan deb hisoblanadi». Bu voyaga yetgan, lekin yoshini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lmagan shaxslarga ham tegishli hisoblanadi.

«Sudlar ishda albatta, voyaga yetmaganlarning tug'ilish guvoohnomasi yoki pasportidan fotonusxa mavjudligiga ahamiyat berishlari kerak. Ishda bunday hujjatlar yo'qligi aniqlangan taqdirda sudning o'zi bunday kamchilikni bartaraf qilishi zarur». Ish materiallarida voyaga yetmagan va voyaga yetgan shaxslarning yoshi to'g'risidagi hujjatlari bo'lmagan taqdirda, ularning yoshi sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan aniqlanadi. «Sudlanuvchining yoshi sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan aniqlanayotganda, uning tug'ilgan kuni deb, ekspertlar aniqlagan yilning oxirgi kuni hisoblanadi. Yosh eng kam va eng ko'p yillar miqdori bilan aniqlanganda, sud ekspertlar tomonidan belgilangan eng kam yoshdan kelib chiqishi lozim»².

3-§. Aqli rasolik va aqli norasolik: tushuncha va mezonlar

Jinoyat subyekti faqatgina ong va irodasi bor, ya'ni aqli raso shaxs bo'lishi mumkin.

Qonunchilik bilan o'rnatilgan jinoyat subyektining belgisi sifatida aqli rasolik va shaxsning yoshi o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'langan

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари ҳақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарори 21-сон қарори, 5-банди 1-қисми // Тўплам, 2-жилд. – Б. 25.

² Ўша жойда.

bo‘lib, jinoyat tarkibida o‘zaro bir-birini to‘ldirib turadi, jinoyat subyektinigina emas, balki jinoyat tarkibini aniqlashda ham muhim ahamiyatga egadir. Bu belgilarning mavjud bo‘lmasligi yoki ulardan birining mavjud bo‘lmasligi ham jinoyat tarkibining yo‘qligini bildiradi. Shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning aybdorlik va jinoiy javobgarlik masalasi bekor bo‘ladi.

O‘z xatti-harakatlarining faktik tomonini va ahamiyatini to‘g‘ri tushunib yetish va baholash qobiliyati hamda shu bilan birga o‘zining harakatlarini va irodasini ongli boshqarish aqli raso shaxsni aqli noraso shaxsdan ajratib turadi.

NOTA BENE !

Jinoyat subyekti belgisi sifatida **aqli rasolik** shaxsning muayyan rivojlanish bosqichidagi qobiliyati, ijtimoiylashuvidan kelib chiquvchi yoshdagi va jinoyat sodir etish vaqtidagi ruhiy jihatdan sog‘lig‘i hamda harakatlari uchun o‘z-o‘ziga hisob berishi va ularni boshqarishi, keyinchalik jinoiy javobgarlik va jazoni o‘tashdagi ruhiy holati sifatida belgilanadi.

Aqli rasolik jinoiy javobgarlikning va aybning dastlabki sharti bo‘lib, u shaxsning o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglashi va boshqara olishi bilan belgilanadi (**JK 18-moddasi 1-qismi**).

JK 18-moddasi 1- va 2-qismlarini taqqoslovchi tahlildan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, aqli rasolik insonning muhim va ajralmas xususiyatlaridan biri bo‘lib, aqli norasolikka nisbatan bir qadar keng va ayni paytda ixcham tushuncha hisoblanadi. Aqli raso deb, nafaqat ruhiy jihatdan sog‘lom shaxs, qandaydir ruhiy buzilishi bo‘lgan, ammo jinoyat sodir etish vaqtida o‘z harakatlarini u yoki bu sharoit yoki holatda ongli va to‘g‘ri baholay olish imkoniyatiga ega shaxs ham topilishi mumkin. Bu holatda so‘z sud-psixiatriya va sud-tergov amaliyotida bo‘lgan shaxsning o‘z jinoiy harakatlarini anglash va ularni boshqarish qobiliyatini yo‘qotmaydigan ruhiy kasalliklar va buzilishlar to‘g‘risida boradi. Xatto tibbiy mazmunda ham «ruhiy nosog‘lom»ligi tasdiqlangan jinoyat

subyekti aqli raso bo'lishi mumkin. Bunda so'z, nafaqat, ruhiyatning «chegara» holatlari haqida, balki surunkali kasalliklar haqida boradi, aynan: shizofreniya (remissiya holatlarida), epilepsiya (tutqanoqdan oldin) va boshqa holatlarda.

Shu bilan birgalikda, amaliyotda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning aqli rasoligiga nisbatan har qanday shubhalar, qachonki, uning o'zini tutishi o'z-o'zini boshqarishiga to'g'ri kelmasa, tashqi omillarga noto'g'ri reaksiya va boshqalar, aybsizlik prezumpsiyasi mazmunidan kelib chiqib, shu shaxsning foydasiga hal qilinishi kerak. Bu holatlarda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan dastlabki tergovda uning ruhiy holatini aniqlash uchun JPK 173-moddasi 1-qismiga ko'ra, majburiy tartibda sud-psixiatriya ekspertizasi o'tkaziladi. Keyinchalik jinoyat sodir etgan shaxsning aqli rasoligi to'g'risidagi masalani hal qilish sud-psixiatriya xulosasi asosida sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi JPK 446-moddasiga ko'ra amalga oshiriladi.

Aqli rasolik va aqli norasolikni tartibga soluvchi qonunchilikka ko'ra, bu ikki tushunchalarni ajratib turuvchi formula ikki mezonning majmuidan tashkil topib, ulardan biri yuridik mezon, ikkinchisi esa tibbiy mezondir.

Yuridik mezon ikki belgini xarakterlaydi: intellektual va irodaviy.

Aqli rasolikning intellektual belgisi jinoyat sodir etish vaqtida shaxsning sodir etayotgan qilmishi faktik xususiyatini va ijtimoiy xavfini anglash qobiliyati sifatida ko'riladi.

Aqli rasolikning irodaviy belgisi shaxsning jinoiy qilmish sodir etish vaqtidagi o'z harakatlarini boshqara olish qobiliyatini, ya'ni o'zining ichki xohishini va ishonchi orqali o'z irodasini boshqarish qobiliyatini anglatadi.

Shaxsning o'zi tomonidan sodir etgan jinoiy qilmishini tushunish qobiliyati va buni sodir etish jarayonida ongli qaror qabul qilishi jinoyat subyektini qasddan yoki ehtiyotsizlikdan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganlikda ayblash uchun yetarli asos bo'lib xizmat qiladi. Bu o'z navbatida, ayb uchun javobgarlik prinsipida (JK 9-moddasi) bevosita o'z aksini topgan.

Intellektual va irodaviy belgilar, albatta, birgalikda olib qaralishi kerak.

Aqli rasolikning tibbiy mezoni sud-psixiatriya ekspertizasidan kelib chiqib aniqlanadi, zero bu jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsning tibbiyot nuqtai nazaridan biologik va psixologik butunligi, fikrlash jarayonining me'yorda ekanligi va boshqa fikrlash faoliyatining o'ziga xosliklarini o'rnatadi.

Aqli rasolikning tibbiy mezoni sog'lom insonning psixik va tibbiy nuqtai nazardan ruhiy holatini aks ettiradi.

Aqli norasolik aqli rasolik tushunchasiga qarama-qarshi tushuncha bo'lib, u jinoyat qonunchiligida ochib beriladi (**JK 18-moddasi 2-qismi**).

Qandaydir ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan aqli noraso shaxs jinoyat subyekti bo'la olmaydi. U jinoiy javobgarlikka tortilmasligi va unga nisbatan jinoiy jazo tayinlash mumkin bo'lmaganligi tufayli, unga faqatgina tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanishi mumkin. Ongli va maqsadli harakatlarning bo'lmasligi aqli noraso qilmishni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatini shartlaydi.

NOTA BENE !

Aqli norasolik – bu shunday holatki, bunda shaxs jinoyat sodir etish vaqtida sodir etayotgan harakatlar (harakatsizligi)ning ijtimoiy xavfli xususiyatini anglay va boshqara olmaydi. Bu o'z navbatida, jinoiy javobgarlikni istisno qiladi.

Aqli norasolikda ruhiyatning kasallik jarayonlari tufayli, qoidaga ko'ra, miyaning qabul qilish funksiyasi buziladi, buning natijasida, odatda, ongning muhim sifati – anglash yo'qoladi.

Aqli norasolik ham aqli rasolik kabi ikki: yuridik (psixologik) va tibbiy (biologik yoki psixiatrik) mezonlar orqali belgilanuvchi, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni jinoyat subyekti hisoblamasdan oldin, uning ruhiy holati to'g'risida har tomonlama baho berish imkonini beradi.

Aqli norasolikning yuridik mezoni jinoyat sodir etish vaqtida shaxsda o'z harakatlarining faktik xususiyatini va qilmishining ijtimoiy xavfini anglash (intellektual) va boshqarish (irodaviy) imkoni yo'qligida aks etadi. Bu mezon ruhiy buzilishlar og'irligini psixologik tushunchalar

orqali aniqlaydi va bu bilan sudga ekspert bahosi natijasini tushuntirib, shaxsning aqli rasoligini istisno qiladi.

Yuridik mezonni o'rnatish uchun uning elementlaridan birining bo'lishi yetarli: yoki intellektual yoki irodaviy payt orasida «yoki» bog'lovchisidan foydalanish orqali **JK 18-moddasi 2-qismi** dispozitsiyasini ifodalashda tasdiqlangan.

Aqli norasolik yuridik mezonining **intellektual belgisi** jinoyat sodir etish vaqtida harakatlarni anglay olmasligini bildiradi, ya'ni bu qandaydir ruhiy buzilishi bo'lgan shaxsning u yoki bu muayyan sharoit yoki holatda o'z jinoiy qilmishining ijtimoiy xavfliligi va faktik xususiyatini to'la anglay olmasligidir. Ruhiy kasal shaxsning normal fikrlash faoliyatining buzilganligi unga obyektiv borliqda o'zini to'g'ri tutish va atrof-tashqi olam hodisalarini qabul qilish imkoniyatini bermaydi. Ruhiyati buzilgan shaxs har bir muayyan holatda nafaqat o'z harakatlarini anglamaydi, balki ular oxir-oqibat nimalarga olib kelishini ham tushunmaydi. Yuridik mezonning intellektual belgisi jinoyat qonunida (**JK 18-moddasi 2-qismi**) qandaydir ruhiy kasallik sababli «o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan» deb bejiz ko'rsatilmagan.

Ta'kidlash joizki, amaliyotda shunday holatlar borki, shaxs o'z qilmishini anglaydi, ammo ularni boshqarish imkoni bo'lmaydi, ya'ni uning irodaviy holati shikastlangan. Bu holatda so'z yuridik mezonning irodaviy belgisi to'g'risida boradi.

Yuridik mezonning **irodaviy belgisi**, o'z-o'zidan, ruhiy buzilishlar ta'siri ostida, ya'ni kasallik holatida shaxsning o'z harakatlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmasligida ko'rinadi. Ya'ni, e'tibor shaxsning jinoyat sodir etish vaqtidagi kasallik holatiga emas, balki uning ruhiy holatiga qaratilishi kerak. Ruhiy kasallik inson ongini buzib, boshqa psixik funksiyalari buzilishiga ham olib keladi hamda buning natijasida shaxsning nafaqat o'z harakatlarini anglashi va tushunishi, balki boshqarish qobiliyati ham yo'qoladi, masalan, ruhiy kasallarda o'g'irlikka moyilligi kuchli (kleptomaniya), o't qo'yishga hirs (piromaniya), maqsadsiz xayollarga intilish, daydilik (dradomaniya), odam o'ldirish yoki o'zini-o'zi o'ldirishga intilish (gomitsidomaniya, suitsidomaniya) kabi

holatlar paydo bo‘ladi. Bu kasalliklar o‘z harakatlarini tushunish va ruhiy buzilishlar (ruhiy kasalliklar)dan biri bo‘lganda bunday intilish va qiziqishlarga qarshilik qila olmaydi, ularni doim kuzatib yuradi va tinchlik bermaydi.

Shunday qilib, aqli norasolik holati, tibbiy va yuridik mezonlar majmuini tashkil qilib, jinoyat sodir etish vaqtida shaxs yo o‘z harakatlarining faktik xususiyatini va ijtimoiy xavfini anglay olmaslik qobiliyati bo‘lmasligiga (intellektual belgi) yoki ularni boshqara olish qobiliyatining bo‘lmasligiga (irodaviy belgi) yo‘l qo‘yadi. Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishda yuridik mezonning intellektual va tibbiy belgisi birgalikda shaxs aqli norasoligini ifodalaydi. Bu holatda so‘z «ideal» aqli norasolik holati haqida boradi, qachonki, ruhiy buzilish bo‘lganda shaxs huquqbuzarlik sodir etgan vaqtda nafaqat o‘z harakatlarining faktik xususiyatini va ijtimoiy xavfini anglay olmaydi, balki ularni boshqara olmaydi ham. Odatda, bu patologik mastlik yoki surunkali ruhiy buzilishlar va boshqa kasallik holatlarida bo‘ladi. Shaxsni aqli noraso deb topish uchun yuridik mezon tibbiy mezonning natijasi bo‘lishi lozim.

JK 18-moddasi 2-qismiga ko‘ra, aqli norasolikning tibbiy mezoni quyidagi to‘rtta guruh ruhiy kasallikning mavjudligida ko‘rinadi:

- surunkali ruhiy kasallik;
- vaqtinchalik ruhiy kasallik;
- aqlning pastligi;
- kasallikning boshqa holatlari.

Tibbiy mezonni o‘rnatish uchun qonunda ko‘rsatilgan biron-bir ruhiy kasallikning xohlagan guruhidan aqalli bittasi mavjud bo‘lishi lozim.

Sud psixiatriyasi va jinoyat huquqida **surunkali ruhiy kasalliklarga** amalda davolab bo‘lmaydigan yoki qiyin davolanadigan ruhiy kasalliklar taalluqlidir. Mazkur kasalliklar rivojlanish yoki o‘tib ketish xususiyatiga ega. Ular kasal ruhiyatini chuqur va turg‘un o‘zgarishlarga olib keladi.

Sud psixiatriyasida bunday ruhiy kasalliklar deb, quyidagilar qabul qilingan: shizofreniya, epilepsiya, maniakal-depressiv psixoz, miya sifilisi,

progressiv falajlik, qarilik aqli zaifligi, epidemik entsefalit va boshqa qiyin davolanadigan yoki umuman davolab bo‘lmaydigan ruhiy kasalliklar.

Shizofreniya – bu surunkali o‘sib boruvchi ruhiy kasallikdir. Biroq, bu kasallikning mavjud bo‘lishi shaxsning jinoyat sodir etishda aqli rasoligi to‘g‘risidagi masala yuridik mezonidan kelib chiqib aniqlanadi, agar u muayyan holat va zarur vaziyatga xos bo‘lsa, shaxsning ayni paytdagi ruhiy holatiga ta’sir o‘tkazuvchi holatlar hisobga olinib hal qilinadi¹.

Epilepsiya («yiqiluvchi kasallik») – bu mushaklarning tortishuvi va tortishuvisiz boradigan paroksizmlardan, psixozlar, chuqur darajadagi aqli zaiflikka olib keladigan, o‘ziga xos shaxs o‘zgarishidan va klinik ko‘rinishidan iborat bo‘lgan kasallik. Berilgan guruhdagi ruhiy kasalliklar orasida sud-psixiatriya amaliyotida keng tarqalganlik bo‘yicha epilepsiya shizofreniyadan keyingi ikkinchi kasallik hisoblanadi. Kasallikdagi tutqanoqlar soni har xil, to‘satdan turli paytda va turli joyda bo‘lishi mumkin, ya’ni hayoti davomida bir martadan to‘ sutkasiga bir necha martagacha. Qoidaga ko‘ra, kasallar tutqanoq paytida hushidan ketadi, o‘ziga kelganda esa, hech narsani eslay olmaydi. Shu bilan birga, epilepsiyada shizofreniyadagi kabi, jinoyat sodir etish vaqtida shaxsning aqli rasoligi istisno etilmaydi².

Maniakal-depressiv psixoz – depressiv va maniakal shakldagi fazalarda o‘tadigan kasallik. Birinchi holatda, maniakal faza yuqori kayfiyat va haddan tashqari hayajonlanish bilan, ikkinchi depressiv fazada – kayfiyatning tushishi, mehnat qobiliyatining pasayishi, o‘z-o‘ziga ishonchsizlik, somatik va vegetativ o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi³.

Progressiv falajlikka kelsak, bu odatda, sifilis bilan kasallanganlarning 1–5 % ida 10–12 yil o‘tgandan so‘ng kuzatiladi va qoidaga ko‘ra, tez o‘sovchi aqli zaiflik hamda nevrologik buzilishlar bilan xarakterlanadi. Progressiv falajlikda miyaning og‘ir xastalanishi kuzatiladi, qaysiki, miya sifilisi ruhiy kasalligidek birmuncha yengil shaklga ega⁴.

¹ Каранг: Судебная психиатрия. М., 1986, Б. 139.

² Каранг: Судебная психиатрия. М., 1986, Б. 154–155.

³ Ўша жойда, Б. 167–168.

⁴ Ўша жойда, Б. 218–221.

Tibbiy mezonning ikkinchi guruhini birinchi guruhdagi ruhiy kasalliklarga taqqoslaganda, qisqa muddat kechadigan va davolab bo‘ladigan **ruhiyatning vaqtinchalik buzilishi** tashkil qiladi. Ko‘pgina hollarda bu kasalliklar to‘satdan paydo bo‘lishi va kasalning to‘liq sog‘ayishi bilan tugaydi.

Bunday buzilishlarga psixiatriyada **istisno holatlar** deb nomlanadigan, tashqi muhit bilan bog‘liq, to‘satdan paydo bo‘ladigan ruhiyatning qisqa muddatli buzilishlari taalluqli.

Kasallikning istisno holatlariga quyidagilar kiradi:

– oddiy alkogolli mast bo‘lishdan farqlash lozim bo‘lgan patologik alkogolli mastlik;

– patologik affekt;

– ongning g‘ira-shira holati;

– «qisqa ulanish» reaksiyasi;

– patologik uyqu holati, shuningdek, alkogolli psixozlar va h.k¹.

Ruhiy buzilishlarning ushbu guruhi kasal ruhiy faoliyatining aynan qisqa muddat buzilishi bilan xarakterlanadi, qaysiki, har bir jinoyat sodir etgan muayyan shaxsning aqli rasoligi yoki yuridik mezon mavjud bo‘lganda, aqli norasoligi istisno etilmaydi.

Patologik mastlik – o‘tkir qisqa muddatli o‘tadigan ruhiy buzilishlar guruhiga taalluqli bo‘lib, ongning g‘ira-shira buzilishlari, alahsirash va o‘rab turgan olamni buzib qabul qilish bilan tavsiflanadi. Bu holat bir necha minutdan bir necha soatgacha davom etishi mumkin va oddiy alkogolli mastlikdan farq qiladi. Odatda, bu alkogolli intoksikatsiya (xumor) paytida kelib chiqadi.

O‘z navbatida, **patologik affekt** ruhan jarohatlantiruvchi omillar (yaqin qarindoshining o‘limi, og‘ir haqoratlanish, mulkiy shikast yetkazilishi va boshqalar), ya’ni og‘ir ruhiy ta’sirlanish yoki hayajonlanish bilan bog‘liq ruhiyatning qisqa muddat buzilishi bilan xarakterlanadi.

Ongning g‘ira-shira holati istisno holatlar turi sifatida bir shaxsda takroran kelib chiqishi mumkin. Bu ruhiy holat kasalning o‘zini ijtimoiy

¹ Каранг: Судебная психиатрия. М., 1986, Б. 298.

xavfli tutishini belgilovchi alahsirash, gallyutsinatsiya, jahl, g‘azab bilan davom etadi.

«**Qisqa tutashuv**» **reaksiyasi**, shuningdek, ruhiy hayajonlantiruvchi zo‘riqish holati bilan bog‘liq. Bu ruhiy kasallik ongning buzilishida yoki to‘satdan bo‘ladigan impulsiv harakatlarda namoyon bo‘ladi, bu esa, atrofdagilar uchun xavf tug‘dirishi mumkin.

Alkogolli psixozlar orasida oq so‘zak kasalligi tez-tez uchraydi, odatda, u alkogolizm bilan kasallangan shaxsda spirtli ichimliklarning uzoq intoksikatsiyasi to‘xtagach ikki-uch kundan so‘ng paydo bo‘ladi. Oq so‘zak ko‘pincha, ko‘rish va eshitishdagi gallyutsinatsiya, agressiv harakat va qattiq hayajonlanishlar bilan kuzatiladi. Bu paytda kasal hujum qilishi yoki «g‘arazli» dushmanlardan va «kuzatuvchilardan», har xil zararkunandalardan, hasharotlardan, hayvonlardan himoyalaniishi mumkin, shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilishi mumkin.

Alkogolli gallyutsinoz qoidaga ko‘ra, kasal ongining saqlanishi orqali uni doim kuzatib yuruvchi ko‘rish va eshitish gallyutsinatsiyasi mavjudligi bilan farqlanadi. O‘z navbatida, **alkogolli paranoid** alkogolli psixozning turi sifatida nafaqat gallyutsinatsiyalar bilan, balki kasalning ongi saqlansa-da, kuzatish, zaharlash, rashk, o‘ch olish, alahsirashlar kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

Alohida ta‘kidlash joizki, bu guruhdagi vaqtinchalik ruhiy buzilishlar mavjud bo‘lganda aqli norasolik to‘g‘risidagi masala, tibbiy mezon birinchi guruhdagi ruhiy kasalliklardagi kabi kasallik o‘tishining hamma ko‘rsatgichlari va kasalning o‘rab turgan sharoitda to‘g‘ri harakatlanishi hamda o‘zini boshqara olish qobiliyati hisobga olingan holda hal qilinadi.

Tibbiy mezonning uchinchi guruhini **aqli zaiflik (oligofreniya)** tashkil etadi.

Psixiatriyada oligofreniya yoki tug‘ma aqli zaiflik deganda, tug‘ilish vaqtida miyaning jarohatlanishi bilan shartlanadigan yoki bola ruhiyatining kasallik holatlari natijasida go‘daklikda orttirilgan patologik holat tushuniladi. Aqli zaiflik ko‘pincha, nafaqat, miyaning organik o‘zgarishi natijasida, balki har xil jarohat, infeksiya va kasalliklar

oqibatida fikrlash, aqliy qobiliyat, eslash, diqqatni to'plash kabi inson ruhiy funksiyalarining rivojlanmay qolishi bilan tavsiflanadi.

Aqli zaiflikning eng asosiy belgisi umumiy ruhiy nomukammallik hisoblanadi¹.

Tug'ma yoki orttirilgan aqli zaiflik og'irlik darajasiga ko'ra, uch turga bo'linadi:

- debillik (yengil shakli);
- imbetsillik (o'rta shakli);
- idiotiya (og'ir shakli).

Debillik – aqli zaiflikning eng yengil va keng tarqalgan shakli. U ko'pgina hollarda shaxsni har xil jinoyiy qilmishlar sodir etishda aqli rasoligini istisno etmaydi, chunki ular muayyan sharoitda o'z qilmishining xususiyatini anglay oladilar va boshqara oladilar. Aqli zaiflikning bu shaklida shaxsda tafakkurning yetishmasligi yoki fikrlay olish qobiliyatining bo'lmasligi yoki fikrlashning soddaligi kuzatiladi.

Imbetsillik tug'ma yoki orttirilgan aqli zaiflikning yengilroq darajasini aks ettiradi. Bu kasallikka chalinganlar atrofida uchun muayyan xavf tug'diradi va kasallik o'tkirlashgan davrda har xil jinoyatlarni sodir etishga moyil bo'ladilar. Ko'pincha, bu ijtimoiy xavfli harakatlar ularning anglamasligi bilan tavsiflanadi.

Idiotiya – aqli zaiflikning eng og'ir shakli. Bu kasallikda shaxsning nutqi va boshqa ruhiy funksiyalari deyarli umuman bo'lmaydi. Qoidaga ko'ra, bunday kasallar statsionar davolanishga, doimiy qarab turishga muhtoj bo'lishadi. Tashqi omillarning qo'zg'alishi va ta'sir etishi natijasida kasallar atrofida uchun va o'ziga nisbatan yovvoyilashib ketishi mumkin, shuningdek, jinoyat sodir etishga moyil bo'lishadi. Ko'pincha, bu guruh kasallar jinoyat sodir etishda, sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasi asosida aqli noraso deb topiladi.

Tibbiy mezon ruhiy kasalliklarining to'rtinchi guruhini **boshqa tarzdagi ruhiy buzilishlar** tashkil etib, ular qoida bo'yicha, ruhiyatning vaqtinchalik turli buzilishlari bilan kuzatiladi, ammo surunkali yoki vaqtinchalik ruhiy kasallik hisoblanmaydi, faqat o'zining psixopatologik

¹ Каранг: Судебная психиатрия. М., 1986, Б. 249–250; Б. 351–352.

belgilari va xususiyatlariga, kasallik o'tishiga bog'liq holda ularga tenglashtirilishi mumkin. Bunday kasalliklarga tug'ma yoki orttirilgan ko'rinishdagi hissiy-irodaviy tomonning buzilishi bilan tavsiflanadigan psixopatiyaning shakli taalluqli; og'ir infeksiyon kasalliklardan keyin bo'ladigan turli ruhiy buzilishlar; giyohvandlik xumor qilgan davrda giyohvandlarda bo'ladigan asab-ruhiy buzilishlar, to'liq ko'zi ojizlik va karlik bilan bog'liq shaxsning ruhiy o'zgarishi. Sanab o'tilgan ruhiy buzilishlar yoki ruhiy kasalliklardan istalgani alohida olinganda ham aqli norasolik tibbiy mezonini tan olish uchun yetarli hisoblanadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, har doim ham ruhiy buzilishlarning mavjudligi (tibbiy mezon) aqli norasolik holati to'g'risida gapirish uchun asos bo'lmaydi. Ruhiy kasallik shunday darajaga yetishi kerakki, unda shaxs jinoyat sodir etayotgan paytida o'z qilmishini anglab yetmasligi yoki ularni boshqara olmasligi lozim. Boshqacha aytganda, aqli norasolikning yuridik (ruhiy) mezoni tibbiy mezon ruhiy kasalliklarining mohiyatini va chuqurligini belgilaydi.

Aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan sud tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashi mumkin. Bunday majburlov chorasini qo'llash uchun sud, shaxs tomonidan jinoyat qonunida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishning sodir etilganlik faktini, shuningdek, qilmishning aynan aqli noraso shaxs tomonidan sodir etilganligi va kasallik holati shaxsning jamiyat uchun xavfliligini isbotlashi lozim.

Aqli norasolik faqat jinoyat sodir etilgan vaqtga nisbatan belgilanadi. Agar shaxs surunkali ruhiy kasallik, masalan, shizofreniya bilan kasallangan bo'lib, biroq ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish vaqtida remissiya holatida, ya'ni kasallik anchagina tuzalish paytida bo'lgan bo'lsa, yuridik mezon yo'qligi sababli u aqli raso va o'z qilmishi uchun javobgar deb topiladi. Jinoyat sodir etgandan keyin shaxsda ruhiy buzilishlar kelib chiqsa, unga nisbatan ham tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ko'riladi.

Agar aqli norasolik vaqtinchalik ruhiy buzilishlardan kelib chiqqan bo'lsa, jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra, ish yuritish ayblanuvchi

to'liq sog'ayishigacha to'xtatib turiladi. Bu shaxs sog'ayganda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin va unga nisbatan jazo qo'llash mumkin (albatta, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari chegarasi hisobga olinib).

Agar ruhiy kasallik jinoyat sodir etgandan keyin dastlabki tergovda paydo bo'lsa va og'irlashsa, bunday shaxsga nisbatan sud JK 67-moddasi asosida tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llaydi, sog'aygandan keyin ishni ko'rish davom ettirilishi mumkin.

4-§. Mastlik holatida jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarligi

JK 19-moddasiga ko'ra, mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki odamning aql-irodasiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Bunday holat shaxsni aqli noraso deb topish uchun asos bo'lmaydi.

Ko'pgina ijtimoiy xavfli qilmishlar, ayniqsa, shaxsga qarshi jinoyatlar aynan mastlik holatida sodir etiladi. Nafaqat jinoyat subyektini jinoiy javobgarlikka tortish uchun, shuningdek, patologik mastlikda (patologik mastlikni fiziologik (oddiy) mastlikdan farqlash kerak) sodir etilgan jinoyatda javobgarlik mavjud bo'lmagan hollar uchun ham qonun chiqaruvchi kiritgan «alkogolli mastlik» tushunchasini ochib berish maqsadga muvofiq.

JK 19-moddasida intellektual-irodaviy faoliyatga ta'sir qiluvchi alkogolli mastlik yoki narkotik moddalar, psixotrop va boshqa moddalar qabul qilganlik ta'siri ostida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs aqli noraso deb topilmasligi nazarda tutilgan.

Odatda, **fiziologik mastlik** asta-sekinlik bilan boshlanadi. Alkogol ichimliklar ichayotgan shaxs esa o'zini shunday holatga zo'rliksiz solayotganligini angelaydi va tushunadi. Shuning uchun, shaxs mastlik holatida jinoyat sodir etsa, uning aqli rasoligi jinoiy javobgarlikning obyektiv va subyekt tomoni asosida istisno etilmaydi, qaysiki oddiy mastlikda hech qanday shart bilan olib tashlanmaydi.

Fiziologik mastlik holatida obyektiv borliq va atrofni buzib qabul qilish holati bo'lmaydi, faqat patologik mastlikka to'g'ridan-to'g'ri zid

bo'lgan ruhiy faoliyatning vaqtincha buzilishi sodir bo'ladi. O'z-o'zidan fiziologik mastlikda organizmda bo'ladigan tormozlanish jarayonlarining funksiyasi susaysa va shaxs harakatlarini boshqarish yo'qolsa ham, biroq uning harakatlari va qilmishlari normal inson harakatlari kabi motivlashgan xususiyatga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, jinoiy javobgarlik to'g'risidagi masalani hal qilishda intellektual irodaviy faoliyatga ta'sir qiluvchi alkogolli mastlik, shuningdek, narkotik moddalar, psixotrop va boshqa moddalarning ta'siri shaxs irodasiga qarshi zo'rlik, ya'ni jismoniy majburlash natijasida bo'lsa, unda ba'zi hollarda o'sha shaxs harakatida ayb bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Fiziologik mastlik, odatda, uchta darajaga bo'linadi: yengil, o'rta, og'ir.

Mastlikning yengil darajasiga atrofni qabul qilishning pasayishi, intellektual faoliyat sohasining buzilishi, diqqatning buzilishi, reaksiya va fikrlash jarayonining sekinlashuvi, shuningdek, kayfiyatdagi muvozanatning yo'qolishi va buzilishlar xos.

Mastlikning o'rta darajasida qoidaga ko'ra, diqqat tez buziladi, qabul qilishning aniqligi yo'qoladi va fikrlash jarayoni sustlashadi. Bu darajadagi mast holatda bo'lgan shaxslar ko'pincha jahldor va agressiv bo'ladilarki, bu hol urushishga, janjal va jinoyat sodir etishga olib keladi. Mastlikning og'ir darajasida bosh miya funksiyasining jiddiyroq buzilishi kuzatiladi. Bunday holatda shaxsning ongli harakat qilishi va fikrlash qobiliyati yo'qoladi, agressiv buzg'unchi qilmishlarga moyillik paydo bo'ladi.

Mastlikning og'ir darajasi mastning har xil joylarda chuqur uyquga ketishi bilan bog'liq klinik suratda kuzatiladi. Mastlik haqida eslash qoidaga ko'ra, qism xususiyatiga ega bo'ladi.

Bundan, fiziologik mastlikning istalgan darajasida bo'lgan shaxs jinoyat subyekti bo'ladi va jinoiy javobgarlikdan ozod etilmaydi, chunki uning harakatlarida aqli norasolikning ham tibbiy, ham yuridik mezonlari bo'lmaydi, lekin shaxsning patologik mastlik holatidagi kabi kasallik holati hisoblanmagan ruhiy jarayonlari buziladi.

Bila turib ko'p miqdorda alkogol ichish natijasida yuzaga keladigan qisqa muddatli ruhiy buzilishlarni ifodalaydigan fiziologik mastlik holatini **patologik mastlik** holatidan ajrata bilish lozim. Psixiatriyada patologik mastlik holati o'tkir qisqa muddatli o'tadigan ruhiy buzilishlar guruhiga kiradi. U alkogolni nafaqat ko'p, balki kam iste'mol qilganda ham kelib chiqadi. Bu holat uchun ongning to'satdan o'zgarishi xos hisoblanadi. Patologik mastlikning klinik suratida, qoidaga ko'ra, ongning g'ira-shiralik belgilari va gallyutsinatorlik alahsirash hayajonlari birlashadi, natijada, atrofni buzib qabul qilish kelib chiqadi.

Patologik mastlik holatida sodir etiladigan jinoiy harakatlar e'tiborga molik qandaydir hodisaga nisbatan reaksiya hisoblanmaydi. Patologik mastlik qanday to'satdan boshlansa, shunday tugaydi. Ba'zida, u ko'pincha uyquga ko'chadi, qaysiki, undan so'ng to'liq amneziya boshladi, ammo bo'lib o'tgan voqealar haqida ba'zi narsalar esda qoladi.

Patologik mastlik holatida bo'lgan shaxsning bunday o'zini tutishi, avvalo, shu shaxs mavjud bo'lgan atrofni buzib qabul qilishi, maqsadsiz va agressiv harakatlari bilan tushuntiriladi. Sud-psixiatriya amaliyotida shunga e'tibor qilinadiki, patologik mastlik qisqa muddatli psixoz sifatida ko'riladi, agarda, tibbiy va yuridik mezonlarning majmui mavjud bo'lsa, bu holatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs aqli noraso deb topiladi. O'z-o'zidan, fiziologik mastlik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs aqli raso deb topilgani tufayli, jinoyat subyektini bo'lsa va jinoiy javobgarlikka tortilsa, patologik mastlik holatida esa sud aqli norasolikni o'rnatsa, ushbu shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlik istisno etiladi.

Shu bilan birga, qisqa muddatli ruhiy buzilishdan umuman farq qiladigan og'ir darajali fiziologik mastlikni patologik mastlikdan ajrata bilish lozim. Bu holat mastlik holatida turli xil jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish yoki patologik mastlikdagi aqli norasolik to'g'risida so'z borganda esa undan ozod qilish masalasini hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

JK 19-moddasi mazmunidan mastlik deganda, nafaqat, alkogol iste'mol qilishdan, balki intellektual-irodaviy faoliyatga ta'sir qiluvchi,

giyohvand, psixotrop va boshqa moddalar qabul qilishdan kelib chiqqan holat tushuniladi. Mastlikning keyingi turlari jinoyat qonunchiligi uchun yangilik hisoblanadi va tibbiy nuqtai nazardan, alkogolli mastlikdan sezilarli farqqa ega. **JK 19-moddasiga** binoan, giyohvand mastlik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs, agar u jinoyat subyekti hisoblansa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Giyohvand mastlik holati dori shaklidagi yoki dori shaklida bo‘lmagan giyohvand moddalarni qabul qilish yoki ularning organizmga ta‘siri natijasida kelib chiqadi. Bunday mastlik tabletkalar, kukunni qabul qilish, inyeksiya, kukunni burni orqali tortish, giyohvand moddalarni chekish bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustda qabul qilingan «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi Qonuniga ko‘ra, **giyohvand vositalar** deganda, giyohvandlik vositalari ro‘yxatiga kiritilgan va O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olingan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi bo‘lgan preparat va o‘simliklar tushuniladi¹. Berilgan ro‘yxatlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadi va nashr etiladi.

O‘z navbatida, giyohvand dori vositalaridan davolash maqsadlarida foydalaniladi va kasal fuqarolarga shifokor ko‘rsatmasi asosida individual tartibda beriladi. Davolash maqsadlarida foydalaniladigan bu giyohvand moddalar O‘zbekiston Respublikasida oboroti cheklangan giyohvand moddalarning ikkinchi ro‘yxatiga kiritilgan.

Giyohvand mastlik alkogolli mastlikdan farqli ravishda o‘ziga xosliklarga ega va tashqi ko‘rinishiga ko‘ra eyforik sifatida aniqlanishi mumkin. U, shuningdek, holsizlik va uyqusizlik, ko‘pincha yuz ifodasining ma‘nosizligi, palapartish va noaniq nutq bilan tavsiflanadi. O‘zini tutish surati alkogolli mastlik holatida bo‘lgan shaxsning o‘zini tutishini eslatadi va o‘xshaydi, faqat alkogolning hidi bo‘lmaydi. Subyektning o‘zi holsiz, kamharakat va qat‘iyatsiz bo‘lib qoladi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 19 августдаги «Гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида»ги 813–I-сон Қонуни, 3-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 9-сон, 210-модда.

Ko'pincha giyohvand mastlik gallyutsinatorlik hayajonlari bilan kuzatiladi.

Ta'kidlash joizki, bu holatda alkogolli mastlik kabi o'z harakatlarini anglash va boshqarish saqlab qolinadi. Shunga qaramay, bunday holatda shaxs atrofdagilar uchun xavfli bo'ladi va biron-bir jinoyat sodir etishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, giyohvand moddani ularning analoglarini notibbiy usulda va ko'p qabul qilish giyohvandlik deb nomlangan kasallik xususiyatini oladi. Kasallik sifatida giyohvandlikning o'ziga xosligi, giyohvand moddalar, ularning analoglarini qabul qilishga doimiy moyillik, shuningdek, alkogolizm kabi ularga ruhiy va jismoniy bog'liqlik, shaxs ruhiyatida chuqur o'zgarishlar va organizm funksiyalarining ishdan chiqishiga olib keladi. Bunda giyohvandlikning o'ziga xosligi uni nafaqat kasallik sifatida, balki shaxs va jamiyatga katta zarar yetkazadigan muammo sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Giyohvandlik tibbiy aralashuvni talab etadigan kasallikni aks ettiradi, giyohvand moddalar, ularning analoglarini ko'p iste'mol qiladigan va jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan esa jinoiy jazo bilan birgalikda sud JK 91-moddasi 2-qismi asosida giyohvandlikdan majburiy davolash ko'rinishidagi tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashi mumkin.

Shu bilan birga, **JK 19-moddasi** nafaqat alkogolli va giyohvand mastlik holatida jinoyat sodir etganlik uchun, balki psixotrop va boshqa moddalarning inson organizmiga, to'g'rirog'i aql-irodasiga ta'siri va kelib chiqqan holatga nisbatan ham jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi.

Psixotrop moddalar – psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik va tabiiy moddalar.

Aql-irodaga ta'sir qiluvchi boshqa vositalarga giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari taalluqli.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari – kimyoviy tuzilishi va xossalari ko'ra giyohvandlik vositalari va

psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik va tabiiy moddalar¹.

Tibbiy vositalar (dorilar)ga kirmaydigan aql-irodaga ta'sir qiluvchi moddalarning katta guruhini, xususan, aql-irodaga ta'sir qiluvchi xo'jalik, uy-ro'zg'or uchun mo'ljallangan vositalar, zaharli modda va turli xil laklar, bo'yoqlar, yelimlar va shunga o'xshash moddalar tashkil etadi.

Sanab o'tilgan moddalar nafas olinganda aql-irodaga ta'sir etadi va o'zidan ketish holatini keltirib chiqaradi. Bunda bu holatga nafaqat turli birikmalarni, atsetonni, benzinni, dvigateli ishlayotgan avtomobil gazini, «Moment» yelimini, sanoatda ishlatiladigan turli suyuqliklarni va boshqa kimyoviy birikmalarni nafas olish, balki dori vositalarini spirtli ichimliklar bilan qabul qilish ham keltirib chiqaradi. Oxirgi holatda so'z mastlik holatini kuchaytirish uchun qabul qilinadigan aralashmalar to'g'risida boradi, masalan, alkogol bilan dimedrol, barbiturat-alkogolli aralashma, klofelin.

Ta'kidlash joizki, spirtli ichimliklarni ko'p ichish alkogolizmga olib kelishi singari giyohvand moddalar giyohvandlikka, mast qiladigan moddalarni tez-tez ishlatish toksikomaniyaga olib keladi. O'z-o'zidan, **toksikomaniya** o'rganishni keltirib chiqaradigan narkotik modda bo'lmagan vositalarni ko'p iste'mol qilish orqasidan kelib chiqadigan kasallikni aks ettiradi.

Aybdor shaxs tomonidan o'zida bo'lmaslik holatida sodir etilgan jinoyat fiziologik va giyohvandlik ta'sirida bo'lgan shaxsdek javobgarlikdan ozod etmaydi. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 56-moddasi 1-qismi «o» bandiga asosan, aql-irodaga ta'sir qiluvchi alkogolli mastlik yoki giyohvand modda, ularning analoglari, psixotrop moddalar ta'sirida jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Shu bilan birga, sud amaliyotida sudning jinoyat xususiyatidan kelib chiqib, og'irlashtiruvchi holatlarni tan olmaslik huquqi ko'pincha e'tiborga olinmaydi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 19 августдаги «Гийҳвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида»ги 813–I-сон Қонуни, 3-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 9-сон, 210-модда.

5-§. Jinoyatning maxsus subyekt

Jinoyat maxsus subyekt belgilarini oʻrnatish huquqni qoʻllash amaliyotida jinoyatni kvalifikatsiya qilishning shartlaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat subyektining umumiy belgilari JK Maxsus qismi moddalarining dispozitsiyalarida nazarda tutilmagan. Maxsus subyekt belgilari modda dispozitsiyalarida toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatiladi yoki uni sharhlash yoʻli bilan aniqlanadi, alohida hollarda u maxsus normalarda koʻrsatiladi. Masalan, JKning sakkizinchi boʻlimida mansabdor shaxs yoki masʼul shaxs tushunchalari berilgan. Baʼzi hollarda ushbu belgilar asosiy tarkibli jinoyatlarda (mansabdorlik jinoyatlarida mansabdor shaxsning belgilari), kvalifikatsion jinoyatlarda (oʻta xavfli retsivistning belgilari) koʻrsatiladi, boshqa hollarda jazoni yengillashtiruvchi holat boʻlib keladi (masalan, yangi tugʻilgan chaqaloqning ona tomonidan oʻldirilishi).

NOTA BENE !

Jinoyatning maxsus subyekt – jinoyat subyekt zaruriy belgilaridan tashqari yana Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarida belgilangan va shu jinoyatlar uchun zaruriy belgi boʻlgan qoʻshimcha belgilari ham mavjud boʻlgan subyektdir.

Maxsus subyekt belgilarining mavjud emasligi ushbu belgilar ifodalangan jinoyat uchun garchi jinoyat subyekt umumiy belgilari mavjud boʻlsa ham, javobgarlikni istisno etadi. Bu baʼzi hollarda umuman jinoyatni istisno etadi, boshqa hollarda javobgarlik boshqa modda bilan belgilanadi. Masalan, harbiy yoki davlat siri bilan bogʻliq boʻlgan hujjatlarni yoʻqotish ushbu hujjatlarni saqlash majburiyati yuklanmagan boshqa shaxs tomonidan sodir etilsa, JK 163-moddasidagi jinoyat tarkibi mavjud boʻlmaydi. Shuningdek, boshqa davlat foydasiga josuslik qilish Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan amalga oshirilganda JK 160-moddasi bilan emas, balki davlatga xoinlik sifatida JK 157-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O‘zining tarkibiga ko‘ra maxsus subyekt belgilari xilma-xildir. Ular shaxsning turli xil xususiyatlariga taalluqli bo‘lishi mumkin.

Maxsus subyektlarni quyidagi mezonlarga qarab guruhlarga ajratishimiz mumkin.

Huquqiy maqomiga ko‘ra:

– fuqaroviy holatiga qarab: O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo‘lmagan shaxs va xorijiy davlat fuqarosi (JK 157-, 160- va 224-moddalari);

– jinoyat protsessi ishtirokchilari: ayblanuvchi, gumonlanuvchi, guvoh, tarjimon, ekspert va boshqalar (JK 237-, 238-, 240-moddalari);

– harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatga majburlar (JK 279–302-moddalari).

Demografik belgilariga qarab:

– jinsiga qarab: erkak (JK 120-moddasi);

– yoshiga qarab – voyaga yetmagan (JK 127-moddasi yoki 131-moddasi 2-qismi);

– oilaviy, qarindoshlik aloqalariga qarab – ota-ona, ularning o‘rnini bosuvchilar yoki farzandlar (JK 122- va 123-moddalari).

Mansabdorlik holatiga qarab:

– mansabdor shaxs (JK 144-, 146-, 205–212-moddalari);

– huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya (JK 230-, 231-, 234-, 235-moddalari);

– ofitserlar, havo kemasi komandirlari va boshqalar (JK 287-, 288-, 289-moddalari).

Kasbiy majburiyatiga qarab: vrach yoki boshqa tibbiyot yoki farmatsevtika sohasi xodimlari (JK 114-moddasi va boshqalar).

Jabrlanuvchiga nisbatan yuqoriroq holatda bo‘lgan shaxs: jabrlanuvchining boshlig‘i (JK 121-moddasi).

Jinoyat sodir qilayotgan shaxsning jinoyat bilan maxsus holatdaligi: jazoni o‘tash joylaridagi mahkum, oldin sudlangan shaxs, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyati uchun sudlanganlar (JK 220–222-moddalari);

Jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun boshqa zarur mezonlarga qarab, sog‘lig‘iga qarab – shaxsda OITS-infeksiyasining mavjudligi (JK 113-moddasi).

6-§. Jinoyat subyekti va jinoyatchining shaxsi

Jinoyatning umumiy va maxsus subyekting ajralmas qismi hisoblangan umumiy va maxsus belgilaridan tashqari yana sud-tergov amaliyotida belgilanishi shart bo'lgan belgilar ham mavjud. Ularga ayblanuvchi shaxsi, huquqiy maqomi (sudlanganlik va uning huquqiy oqibati sifatida retsidivlikning ma'lum turi), sodir qilingan jinoyatda har bir ayblanuvchi xulqining obyektiv xususiyati (tashkilotchi, dalolatchi, bajaruvchi va h.k.) kabilar kiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, jinoyat huquqi va kriminologiyada bir qarashda o'xshash bo'lgan, lekin mazmun va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan jinoyat subyekti va jinoyatchi shaxsi tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar shubhasiz muhokama qilinadi¹.

Jinoyat subyekti tushunchasini aybdorning shaxsi tushunchalaridan ajrata bilish lozim. Ularning har ikkisi ham bir odamni ifodalaydi. Ammo ularning huquqiy ahamiyati har xil.

Jinoyat subyekti tushunchasi jinoyat-huquqiy kategoriya bo'lib, jinoyatchi shaxs tushunchasiga nisbatan konkretroq va shu bilan birga jinoiy javobgarlikka tortish sharti sifatida bir qator qonunchilik belgilariga ega. Aybdor shaxsi – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning barcha ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlaridir. Bu jinoyat huquqida jinoiy javobgarlikning individuallashtirish funksiyasini bajaruvchi ijtimoiy ahamiyatli tushunchadir. Kriminologiya predmetining muhim tarkibiy qismi bo'lgan jinoyatchi shaxs muammosi jinoyat-huquqiy ahamiyatga ham ega. Jinoyat subyekti belgilarining mavjudligi jinoyatchini aybdor deb topish uchun yetarli va jinoiy javobgarlik asosi hisoblanadi. Biroq jazoni individuallashtirish uchun hamda jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishda jinoyatchining shaxsi e'tiborga olinishi zarur. Jazo tayinlashning umumiy asosi sifatida jinoyatchining shaxsini ham hisobga olish mumkin. Jinoyatchi shaxsining bir qator xususiyatlari jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarda ham o'z ifodasini topgan. Jinoyatchi shaxsini hisobga olish yengilroq jazo tayinlash va shartli hukm qilishda ham o'z

¹ Хотя некоторые авторы предлагали их отождествлять (См.: Карпец И.И. Проблемы преступности. – М.: 1969. – С. 102).

aksini topgan. Bundan tashqari, jinoyatchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar ijtimoiy xavfliligi yo'qolganligi munosabati bilan yoki chin ko'ngildan pushaymonligi munosabati bilan javobgarlik va jazodan ozod qilishda, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddatini belgilashda jinoyatchi shaxsning jinsi va yoshini hisobga olish jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega.

Ya'ni, jinoyat tarkibi doirasidan tashqarida bo'lgan jinoyatchi shaxs xususiyatlari jazoni individuallashtirishda va javobgarlik hamda jazodan ozod qilishda yuridik ahamiyatga ega.

NOTA BENE !

Jinoyat huquqida **jinoyatchining shaxsi** – jinoyat sodir qilgan shaxsning uni jinoyat-huquqiy vositalar yordamida tuzatish imkoniyatlarida ifodalanuvchi ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlar yig'indisi.

Jinoyatchining shaxsi qonunda belgilangan tartibda sud tomonidan chiqarilgan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganidan boshlab, to jazoni o'tab bo'lganidan keyingi sudlanganlik holatining tugashi va olib tashlanguniga qadar hisobga olinadi.

«Jinoyat subyeksi»

mavzusi yuzasidan yakuniy savollar

1. Jinoyat subyeksi nima?
2. Jinoyat tarkibining elementi sifatida jinoyat subyektining ahamiyati nimadan iborat? Subyektning qaysi belgilari zaruriy bo'ladi?
3. Yuridik shaxs jinoyat subyeksi bo'lishi mumkinmi?
4. Umumiy qoida bo'yicha jinoiy javobgarlik qaysi yoshdan yuzaga keladi? Bir qator jinoyatlar uchun 13 va 14 yoshdan javobgarlik o'rnatish haqidagi qonun chiqaruvchining qarori nimadan kelib chiqadi?
5. Qaysi paytdan boshlab shaxs jinoiy javobgarlik kelib chiquvchi yoshga to'lgan deb hisoblanadi?

6. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxsning yoshini tasdiqlovchi hujjatlar yo'qligi tufayli uning yoshi noma'lum bo'lgan hollarda mazkur shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi qanday hal qilinadi?

7. Jinoiy javobgarlik kelib chiquvchi yoshning eng yuqori chegarasi mavjudmi?

8. Jinoyat sodir etgan shaxsning aqli rasoligi mezonlarini aytib o'ting. Aqli rasolikning yuridik mezoni mavjudligini tasdiqlash uchun uning ikkala belgisining (intellektual va irodaviy) mavjudligi shartmi?

9. Aqli norasolikning yuridik (psixologik) mezoni nimadan iborat? Uni nima ta'riflaydi?

10. Aqli norasolik tibbiy mezonining mazmuni nimada? Yuridik mezon bilan u qanday munosabatda bo'ladi?

11. Shaxs ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganidan keyin ruhiy kasallikka duch kelib, aqli noraso bo'lgan hollarda jinoyat tarkibi mavjudmi?

12. Nimaga alkogolli mastlikning har qanday darajasi sodir etilgan qilmish uchun jinoiy javobgarlikni istisno etmaydi?

13. Mastlikning qanday turi aqli rasolikni istisno etadi va jinoiy javobgarlikka olib kelmaydi?

14. Maxsus subyektning belgilarini aytib bering. Ularning ahamiyati nimadan iborat?

15. «Jinoyat subyekt» va «jinoyatchining shaxsi» tushunchalari bir-biri bilan qanday munosabatda bo'ladi? Jinoyat huquqida jinoyatchining shaxsi deganda nima tushuniladi?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Абельцев С.Н. Личность преступника и проблемы криминального насилия. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Закон и право, 2000. – 207 Б.

Агрессия и психическое здоровье / Под ред. Т.Б. Дмитриевой, Б.В. Шостаковича. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 463 Б.

Антонян Ю.М., Бородин С.В. Преступное поведение и психические аномалии. – М.: 1998. – 215 Б.

Ермакова Л.Д. Специальный субъект преступления // Уголовное право Российской Федерации. Общая часть / Под ред. Б.В. Здравомыслова. –СПб.: Издательство Р.Асланова «Юридический центр Пресс». – 217 Б.

Иванов Н.Г. Аномальный субъект преступления: проблемы уголовной ответственности. Учебное пособие для вузов. – М.: Закон и право, ЮНИТИ, 1998. – 224 Б.

Луниц Д.Р. Проблема невменяемости в теории и практике судебной психиатрии. – М.: «Знание», 1966. – 199–219-б.

Назаренко Г.В. Невменяемость. Уголовно-релевантные психические состояния. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 207 Б.

Павлов В.Г. Субъект преступления. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 318 Б.

Павлов В.Г. Субъект преступления в уголовном праве. – СПб.: Санкт-Петербургская юридическая академия, Герда, 1999. – 775-б.

Ilmiy maqolalar

Абдурашулова К.Р. Нежная, милая, но преступница // Вечерний Ташкент. – 17 апреля. – 1998.

Мамадалиев У.О., Журабаев О. Уголовно-правовой статус иностранных граждан в Республике Узбекистан // Ж. Ҳуқуқ–Право–Law. 2005. № 4. – 51–54-б.

IX BOB. TAMOM BO‘LMAGAN JINOYATLAR

1-§. Jinoyat sodir etish bosqichlari tushunchasi, turlari va ahamiyati

Jinoyat ijtimoiy xavfli qilmish sifatida jinoyatchining u yoki bu qasdi muayyan vaqt (jinoiy niyatning paydo bo‘lishidan boshlab toki uni to‘liq amalga oshirish va jinoiy maqsadga erishgunga qadar bo‘lgan davr) oralig‘ida amalga oshiriladigan jarayon sifatida tushunilib, qisqa vaqt davomida ro‘y berishi ham, uzoq vaqtga cho‘zilishi ham mumkin. Shu bois, qonun chiqaruvchi qasddan sodir etiladigan jinoyatlarni amalga oshirish jarayonini shartli ravishda muayyan bosqichlarga ajratadi, ular o‘z navbatida, tamom bo‘lgan va tamom bo‘lmagan jinoyatlardan iborat.

NOTA BENE !

Jinoyat sodir etish bosqichlari jinoyat huquqi tomonidan qasddan jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish va bevosita bajarish bosqichlari (jinoiy faoliyatning rivojlanish bosqichlari) sifatida tushunilib, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishdan boshlanib, jinoiy oqibatlar kelib chiqishida tamomlanadi.

Bu bosqichlar uchta: 1) jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichi; 2) jinoyat tarkibi obyektiv tomonini bajarish; 3) jinoyatning tamom bo‘lishi va ijtimoiy xavfli oqibatlarning kelib chiqishi. Ular bir-biridan aybli harakatlarning xususiyati va mazmuniga ko‘ra, shuningdek, jinoiy qilmishning tamomlanganlik darajasiga ko‘ra farq qiladi.

Jinoyat qonuni jinoyat sodir etish bosqichi sifatida qasdning shakllanishi va aniqlanishini bosqich sifatida tan olmaydi. Qasdning ayon bo‘lishi jinoyat qonuni maqsadlariga ijtimoiy xavf solmaydi, chunki bunda qonun muhofazasi ostidagi obyektlarga ijtimoiy xavf solinmaydi, shaxs ham biron-bir muayyan harakat sodir etmaydi. Jinoiy qasdning shakllanishi jarayoni, jinoyatni amalga oshirishning usullari, uning eng

samarali bajarish uslublarining tanlanishi faqat shaxsning niyati va fikrlarini tavsiflab, ular hattoki jinoiy bo'lgan taqdirda ham, javobgarlik kelib chiqmaydi.

Qasd shakllanishi jazoga loyiq emasligi, xalqaro va konstitutsiyaviy fikr va tafakkur erkinligi tamoyiliga asoslanadi. Xalqaro jinoyat huquqining umumbashariy tamoyili quyidagicha yangraydi: «Cogitations poenam nemo patitur» («Fikr jazoga sazovor emas»).

Ayni vaqtda, o'z-o'zidan ijtimoiy xavfli bo'lgan hamda jabrlanuvchining huquq va manfaatlariga real tarzda xavf tug'dirayotgan qasdning ayon bo'lishi, qonun chiqaruvchi tomonidan alohida jinoyat deb topilishi mumkin. Masalan, qasdning ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish bilan qo'rqitish (hatto so'z orqali ham) kabi ko'rinishi: o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (JK 112-moddasi) yoxud tovlamachilikdagi qo'rqitish (JK 165-moddasi) va hokazolar jinoyat qonunida tamom bo'lgan mustaqil jinoyat hisoblanadi. Qoida tariqasida, bu tahdidning maqsadi – jabrlanuvchiga ruhiy zo'ravonlik qilib, o'z manfaatlari yo'lida tegishli xatti-harakatlarni amalga oshirishga zo'rlash bo'lib, aynan shunda uning ijtimoiy xavfi namoyon bo'ladi.

Xuddi shunday qasdning shakllanishini jinoyatni sodir etishda dalolatchilik qilish, shuningdek, tuhmat (JK 139-moddasi), haqorat (JK 140-moddasi), targ'ib qilish (JK 150-moddasi), da'vat qilish (JK 159-moddasi 1-qismi) va boshqa shu ko'rinishdagi «og'zaki» deb nomlanadigan jinoyatlardan farqlash lozim, zero, ularning har biri o'z obyektiga – shaxsning sha'ni, qadr-qimmatining daxlsizligini, insoniyatning tinchligi va xavfsizligini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumi xavfsizligini va normal faoliyatini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan tajovuz qiladi.

Tayyorgarlik ko'rish va suiqasd kabi jinoiy xulq-atvor bosqichlari tamom bo'lmagan jinoyatlar turkumiga kiradi, biroq jinoyatlarning barcha tarkiblarida ham bo'lavermaydi.

NOTA BENE !

Tamom bo‘lmagan jinoyat (tayyorgarlik ko‘rish va suiqasd) konkret jinoyat tarkibi belgilarida nazarda tutilgan xatti-harakatlarni to‘liq bajarmaslik yoki jinoiy oqibatlarini keltirib chiqarmaslik bilan tavsiflanadi.

Tamom bo‘lgan jinoyat sodir etilgan qilmishda konkret jinoyat tarkibining qonunda nazarda tutilgan barcha belgilari mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Jumladan, jinoyat ehtiyotsizlik orqasida sodir etilganida, jinoyatga tayyorgarlik va suiqasd bosqichlari mavjud bo‘lmaydi, chunki shaxsning irodasi jinoiy oqibatni keltirib chiqarishga yo‘naltirilmagan. Ijtimoiy xavfli qilmish harakatsizlik bilan sodir etilganda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish umuman mumkin emas.

Tamom bo‘lmagan jinoyatlarning suiqasd qilish bosqichi kesik tarkibli jinoyat tarkiblarida mavjud bo‘lishi mumkin emas, zero, ularning o‘ta yuqori ijtimoiy xavfini inobatga olgan holda, qonun chiqaruvchi qilmishning yuridik tamomlanish vaqtini bir oz oldinga (oldingi bosqichga) suradi. Masalan, bosqinchilik jinoyatida suiqasd qilish imkoni yo‘q, boisi hujum qilishning o‘zi tamom bo‘lgan jinoyat tarkibini ifoda etadi (JK 164-moddasi).

Ta’kidlab o‘tish kerakki, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va suiqasd qilish uchun javobgarlikka tortishga jinoiy qasdning turi bevosita ta’sir qiladi. Egri qasd jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va suiqasd qilish uchun javobgarlikni inkor etadi, chunki jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va suiqasd qilishda shaxsning jinoyat sodir etish istagi natijaga erishishga qaratilgan ongli va maqsadli harakatlaridan iborat. Shuning uchun, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va suiqasd qilish faqatgina to‘g‘ri qasddan sodir etilgan jinoyatlardagina bo‘ladi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi odam o‘ldirishga suiqasd qilish faqat to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi, qachonki, shaxs o‘lim yuz berishini anglagan va istagan bo‘ladi¹ deb tushuntirish bergan.

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 24 сентября 2004 г. № 13 «О судебной практике по делам об умышленном убийстве» // Сборник, Т.2. – С. 459.

Nihoyat, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish ham, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish ham jinoyatchi erishishni ko'zlagan jinoiy natijaning mavjud emasligini nazarda tutadi. Subyektga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra, jinoiy natijaning mavjud emasligi tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan jinoyat o'rtasidagi chegara hisoblanadi. Biroq, agar jinoiy natijaning mavjud emasligi subyektning harakati oqibati bo'lsa (jinoiy niyatni bajarishdan ixtiyoriy qaytish), u holda shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo'lmaydi.

Xullas, faqat qasddan sodir etiladigan jinoyat bosqichlari jinoyat-huquqiy ahamiyat kasb etadi. Ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlar bosqichlari jinoiy deb tan olinmaydi, zero, ehtiyotsiz jinoyatlar ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqmasdan oldin jinoyat-huquqiy jihatdan neytraldir.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish uchun ham, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish uchun ham jinoiy qilmishni sodir etishga qasdning va qilmishning mavjudligi hamda jinoiy natijaning mavjud emasligi bir xilda zarur.

Jinoyat bosqichlari qasddan sodir etilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilishda, chunonchi jinoyat tamom bo'lganmi yoki yo'qmi, tamom bo'lmagan bo'lsa, qaysi bosqichda to'xtatib qo'yilgan – tayyorgarlik ko'rish bosqichida (tayyorgarlik ko'rish bosqichi) yoxud jinoyat tarkibining obyektiv tomonini bajarish bosqichida to'xtatilganligi (jinoyatga suiqasd qilish) nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Bunda tamom bo'lmagan jinoyatni kvalifikatsiya qilishda shunga e'tibor berish lozimki, jinoyatni sodir etishning har keyingi bosqichi oldingi bosqichini o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, o'g'rilik jinoyatini sodir etish niyatidagi shaxs, avval ba'zi tayyorgarlik harakatlarini sodir etib (qurol topadi, turli moslamalar tayyorlaydi va h.k.), keyin o'zganing mulkiga tajovuz qilish davomida, harakatlari unga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra to'xtatilsa, shaxs o'g'rilik jinoyatini sodir etishga suiqasd qilganligi uchun javobgarlikka tortiladi. Shu bilan birga, shaxs o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilsa hamda ushbu mulkdan o'z manfaatlariga ko'ra foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa, uning harakatlari tamom bo'lgan o'g'rilik deb kvalifikatsiya qilinadi.

2-§. Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish

Jinoyat sodir etishning birinchi bosqichi – bu **jinoatga tayyorgarlik ko‘rishdir**.

JK 25-moddasi 1-qismida «Shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoit yaratuvchi qilmishi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra sodir etilishi boshlangunga qadar to‘xtatilgan bo‘lsa, bunday qilmish jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb topiladi» deyiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, aytib o‘tilganidek, faqat to‘g‘ri qasddan sodir etiladigan jinoyatlardagina bo‘ladi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish orqali shaxs o‘z harakatining ijtimoiy xavfliligini bu harakatlari orqali o‘ziga jinoyat sodir etish uchun sharoit yaratayotganligini anglaydi. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish jinoiy faoliyatning dastlabki bosqichi hisoblanganligi bois, boshqa bosqichlarga qaraganda ijtimoiy xavflilik darajasining yuqori emasligi bilan tavsiflanadi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb, jinoyat sodir etish uchun shart-sharoit yaratishga, shuningdek, bundan keyin jinoyatni yashirishga qaratilgan istalgan faoliyatni tushunish lozim. Jinoyatni sodir etishga qasd shakllanishidan farqli ravishda, tayyorgarlik ko‘rish bosqichi nafaqat jinoyat sodir etishni niyat qilish, balki uni sodir etish uchun sharoit yaratuvchi va zarur bo‘lgan konkret ishlarni bajarish bilan tavsiflanadi. Bunda mazkur harakatlarning qay darajada chuqur o‘ylanganligi va qancha vaqt davomida amalga oshirilishi bevosita tayyorlanayotgan jinoyat turiga bog‘liq. Jinoyat qanchalik xavfli va murakkab bo‘lsa (masalan, «buyurtma» qotillik, terroristik akt, josuslik, garovga olish va h.k.), unga tayyorgarlik ko‘rish ham shunga yarasha talab etiladi. Ushbu jinoyatni sodir etish bosqichiga oldindan o‘ylangan qasd mavjudligi xosdir. Situativ xarakterga ega, to‘satdan paydo bo‘ladigan qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda esa, tayyorgarlik bosqichi deyarli yo‘q (masalan, bezorilik harakatlarini sodir etishga bo‘lgan niyat shu zahoti amalga oshiriladi).

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlari suiqasd qilishdan shunisi bilan farqlanadiki, ularning sodir etilishi jarayonida jinoyat qonuni tomonidan muhofaza qilingan obyektlarga bevosita tajovuz qilinmaydi,

ya'ni JK Maxsus qismi konkret moddalari dispozitsiyasida ko'zda tutilgan qilmish hali sodir qilinmaydi. Boshqacha aytganda, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va suiqasd bosqichlari orasidagi tafovut, jinoyat sodir etish harakatlariga asoslanadi. Bu harakatlar ikki xil turda bo'ladi: biri jinoyat tarkibining elementi bo'lsa, ikkinchisi jinoyat sodir etilishini ta'minlovchi aktdir. Bu harakatlarning birinchi turi suiqasd bosqichiga xos bo'lsa, ikkinchisi jinoyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichida namoyon bo'ladi.

Jumladan, harakat jinoyat tarkibining unsuri sifatida, qonunda ko'rsatilgan muayyan alomatlar (talon-toroj qilish, yolg'on ma'lumot tarqatish, targ'ib qilish va h.k.)ga ega. Shu sababli, har qanday harakat, hatto u jinoiy suiqasd bilan sodir etilgan bo'lsa ham, tegishli jinoyat tarkibining obyektiv tomoni sifatida harakatni hosil qilavermaydi. Misol uchun, o't qo'yish maqsadida benzin sotib olish, shubhasiz, harakat bo'lgani holda, o't qo'yish (mulkni qasddan nobud qilish, JK 173-moddasi) tarkibining unsuri hisoblanmaydi, xuddi shuningdek, birovni urish uchun tayoqning egallanishi ham badanga shikast yetkazish tarkibining unsurini hosil qilmaydi va h.k. Bundan tashqari, shuni unutmash kerakki, **JK 25-moddasi 1-qismining** mazmuniga ko'ra, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichida aybdor tomonidan amalga oshirilgan harakatlar, qasddan jinoyat sodir etish uchun shart-sharoit yaratishga, shuningdek, bundan keyin jinoyatni yashirishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Jinoyat sodir etish uchun shart-sharoit yaratish harakatlari deganda, jinoyat sodir etish quroli yoki vositalarini izlash, tayyorlash, moslashtirish, jinoiy sheriklarni topish, til biriktirish yoki kelishuv va jinoyat sodir etishga sharoit yaratuvchi boshqa harakatlar tushuniladi.

Jinoyat sodir etish qurollari yoki vositalarini qidirish qonuniy yo'l bilan (masalan, benzin sotib olish) yoki qonunga xilof ravishda (masalan, kelgusida jinoyat sodir etish uchun qurol, o'q-dorilarni talon-toroj yo'li bilan qo'lga kiritish) egallashdan iborat.

Jinoiy sheriklarni topish o'zga shaxslarni jinoyatda ishtirok etish uchun qidirib topishda hamda yollash yoxud boshqa tarzda jalb qilishda ifodalanadi.

Jinoyat sodir etish qurollari yoki vositalarini tayyorlash ularni yaratishdan, masalan, lom, ochqich, qalbaki hujjatlar yasashdan iborat.

Jinoyat sodir etish qurollari yoki vositalarini moslashtirish shaxs o'z jinoiy niyatini amalga oshirishda foydalanishni mo'ljallagan ma'lum predmetlarga muayyan shakl berish, qayta ishlash kabi harakatlardan iboratdir, masalan, odam o'ldirish uchun otvyorkadan foydalanish va h.k.

Til biriktirish yoki kelishuv – bu kamida ikki shaxsning muayyan jinoyat sodir etishi va (yoki) ulardan birining jinoyat sodir etishi, ikkinchisi esa o'g'irlik moldan, murdadan va h.k.dan qutulishga yordam berishi haqida zarur kelishuvga erishishi.

Til biriktirish ikkiyoqlama xususiyatga, ya'ni jinoyat sodir etishga yoki uni yashirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. U jinoyat sodir etish uchun shart-sharoit yaratishga ham, sodir etilgan jinoyat izlarini yashirishga ham qaratilishi mumkin. Til biriktirish usullari har xil bo'ladi – shaxslar ixtiyoriy tarzda kelishishlari mumkin, kelishuvga tovlamachilik, majburlash, aldash, va'da berish natijasida erishilishi ham mumkin.

Jinoyat sodir etishga sharoit yaratuvchi boshqa harakatlar deganda, boshqa, yuqorida tilga olingandan tashqari jinoyat sodir etishga qulaylik, yengillik tug'diruvchi barcha harakatlarni tushunish mumkin. Masalan, jinoyat sodir etish vaqti va sharoitini aniqlash, jinoyat sodir etishga xalaqit berishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish kabi harakatlar bo'lishi mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, qurollarni topish, moslashtirish, o'zaro til biriktirish va hokazolardan farqli, jinoyat sodir etishga sharoit yaratuvchi boshqa harakatlar harakatsizlik orqali ham bajarilishi mumkin. Masalan, post qo'riqchisi ataylab bino eshigini ochiq qoldirishi oqibatida, uning jinoiy sheriklari mol-mulkni o'g'irlab ketishadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, turli vositalar va qurollarning egallanishi, o'g'irlanishi, o'zlashtirilishi, ro'zg'or buyumlarining tayyorlanishi jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb baholanishi mumkin emas, basharti ulardan muayyan jinoiy maqsadlarda foydalanish niyati ular jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rishidan oldin paydo bo'lganligi isbotlangan bo'lmasa.

Tayyorgarlikni jinoyat sodir etish bosqichi sifatida faqat aniq bir jinoyat sodir etish uchun tayyorgarlik ko‘rilgandagina baholash mumkin. Bunda shaxs o‘z jinoiy niyatini oxirigacha amalga oshirishga tayyor. Shaxs keyinchalik muayyan jinoiy qilmish vositalari yoki qurollari tarzida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan turli predmetlarni «har ehtimolga qarshi» egallagan, yasagan yoki moslashtirgan hollarga jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb qaralishi mumkin emas, chunki bunday harakatlar yagona jinoyat sodir etish bosqichini hosil qilmaydi. To‘g‘ri, ayrim hollarda ular mustaqil jinoyatlar bo‘lishi mumkin, misol uchun, o‘qotar qurol, shuningdek, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda tayyorlash yoki qo‘lga kiritish JK 248-moddasida ko‘zda tutilgan jinoyat tarkibini tashkil qiladi. Shu bilan birga, agar qurol-yarog‘, misol uchun, bosqinchilik sodir etish uchun olinganligi aniqlansa, ishning konkret holatlariga ko‘ra aybdorning harakatlari JK 248-moddasi, 25-moddasi 1-qismi va 164-moddasi 2-qismi «a» bandiga binoan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Aybdorda qonunga xilof ravishda tayyorlangan, egallangan, saqlanayotgan giyohvandlik vositalari ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish (JK 273-moddasi) jinoiy niyatining mavjudligi masalasini hal qilishda, sudlar, mazkur vositalar yoki moddalar o‘tkazishga amalda tayyorgarlik ko‘rilganligi to‘g‘risidagi dalillar majmuidan kelib chiqishlari kerak. Tergov organlari va sudlar giyohvandlik vositalari ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallashdan maqsad nima ekanligini aniqlashlari zarur. Egallash kelgusida o‘tkazish yoki sotish uchun amalga oshirilganligi aniqlangan taqdirda aybdorning harakatlari qayd etilgan jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rish deb ham kvalifikatsiya qilinishi kerak¹. Aks holda, o‘tkazish, sotish maqsadi aniqlanmagan bo‘lsa, aybdor shaxsning harakatlari JK 276-moddasi tegishli qismiga binoan kvalifikatsiya qilinishi shart (Giyohvandlik vositalari ularning analoglari yoki psixotrop

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1995 йил 27 октябрдаги «Гийохвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишга оид жиноят ишлари бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 21-сонли қарори, 4-банд, 2-хатбоши.// Тўплам, 1-жилд. – 35-б.

moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar).

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish faqat tayyorgarlik harakatlari shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra to'xtatilgan holdagina mavjud bo'ladi. Qonun chiqaruvchi maxsus ravishda belgilaydiki, ijtimoiy xavfli qilmish obyektiv sabablarga ko'ra uzilib qolgan bo'lib, yakuniy natijasiz, tamom bo'lmagan jinoyatdir. Jinoyatni sodir etishning aybdorga bog'liq bo'lmagan holda tugatilganligi dastlabki tergovda va sudda isbot qilinishi zarur.

Jinoyat tarkibining obyektiv tomoni amalda bajarilishidan oldin jinoiy faoliyatning to'xtatilgani jinoyatga tayyorgarlik ko'rishni uni sodir etish bosqichi deb ta'riflash imkonini beradi.

Shunday qilib, yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, biz jinoyatga tayyorgarlik ko'rishning, tamom bo'lmagan jinoyatning bir turi sifatida quyidagi ta'rifini keltirishimiz mumkin:

NOTA BENE !

Tayyorgarlik ko'rish tamom bo'lmagan jinoyat bosqichi sifatida, shaxsning, jinoyat sodir etish quroli yoki vositalarini izlash, tayyorlash, moslashtirish, jinoiy sheriklarni topish, til biriktirish yoki kelishuv va jinoyat sodir etishga yoxud uni yashirishga sharoit yaratuvchi boshqa qasddan sodir etilgan harakatlari bo'lib, bunda jinoyat shaxsning o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmay qoladi.

3-§. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish

Suiqasd jinoyat faoliyatining ikkinchi bosqichi hisoblanadi. **JK 25-moddasi 2-qismiga** ko'ra, «Qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi».

Jinoiy faoliyatning mazkur bosqichi jinoyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichiga nisbatan ijtimoiy xavfi yuqoriroq, bunda tayyorgarlik bosqichidan farqli ravishda konkret jinoyat sodir etish uchun sharoit yaratilmasdan, balki uni sodir etishning bevosita boshlanishi, uning

obyektiv tomonining qisman bajarilishi tufayli, jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektga tajovuz qilinadi va zarar yetkazish xavfi vujudga keladi. Qonunga xilof bo‘lgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish xavfi yoki ijtimoiy xavfli oqibatning yuz berishi real bo‘lib qoladi. Ammo jinoyat shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, suiqasd bu qasddan sodir etilgan jinoyatning tugallanmay qolishi yoki aybdor istagan oqibatning ro‘y bermasligidir.

Jinoyatga suiqasd qilishning qonunda belgilangan ta‘rifidan jinoiy faoliyatning ushbu bosqichini tavsiflovchi obyektiv va subyekt belgilarini aniqlab olish mumkin.

Suiqasdning **obyektiv belgilariga** quyidagilar kiradi:

- jinoyatni bajarishning boshlanishi, ya‘ni konkret jinoyat tarkibi obyektiv belgilarida ko‘zda tutilgan harakat (harakatsizlik)ni sodir etish;
- jinoyat tamom bo‘lmaganligi;
- jinoyatning shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatga ko‘ra tugallanishi.

Suiqasd – bu birinchi navbatda, **konkret jinoyat tarkibi obyektiv belgilarida ko‘zda tutilgan, bevosita jinoyat sodir etishga qaratilgan harakat (harakatsizlik)ni bajarishning boshlanishidir.** Ayni shu harakat (harakatsizlik) jinoyatni amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Tajovuz boshlangan bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonun bilan qo‘riqlanadigan obyekt (mulk munosabatlari, hayot yoki sog‘liq xavfsizligi, jinsiy erkinlik va boshq.)ga qarshi qaratiladi, uni jiddiy zarar yetishi xavfi ostiga qo‘yadi.

Aksariyat hollarda, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish faol harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan sodir etiladi, ushbu harakatlar turli xil bo‘lib, muayyan jinoyatning obyektiv tomoni bilan bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun, uy-joyga g‘ayriqonuniy ravishda kirib o‘g‘irlik sodir etishga qasd qilishni aniqlash uchun shaxs uy-joyga g‘ayriqonuniy ravishda kirgan yoki hech bo‘lmasa bunga harakat qilgan, masalan, uy eshigining qulfini buzgan bo‘lishi kerak. Onaning o‘z chaqalog‘ini o‘ldirishga suiqasd qilganligini bilish uchun chaqaloqning ovqatlantirilganligi yoki aksini aniqlash kerak bo‘ladi.

Jinoiy tajovuz tugallanmaganligi (jinoiyat oxiriga yetkazilmaganligi) – jinoiyat sodir etishga suiqasd qilishning yana bir muhim obyektiv alomati. Jinoiyat sodir etishga qasd qilish, jinoiy faoliyat (tamom bo‘lmagan jinoiyat doirasida) rivojlanishining mustaqil bosqichi sifatida, tamom bo‘lgan jinoiyatdan aynan o‘zining tugallanmagani bilan farq qiladi. Suiqasdda jinoiyat obyektiv tomoni to‘liq amalga oshirilmaydi. Subyekt o‘zi niyat qilgan barcha jinoiy harakatlarni amalga oshirolmaydi (harakatsizlik) yoxud u ko‘zlagan jinoiy natija yuzaga kelmaydi.

Xususan, moddiy tarkibli jinoiyatlarga suiqasd qilishda ushbu alomat, asosan, jinoiyat obyektiv tomonining muhim tarkibiy qismi – oqibatning yo‘qligini tavsiflaydi. Masalan, shaxs o‘q otish quroli yordamida odam o‘ldirish jinoiyatini sodir etmoqchi bo‘ladi, ammo nishon xato olinganligi sababli shaxs o‘lmay qoladi. Ayni holda aybdor harakatlari subyekt tugallanganini jinoiy qilmish amalda tugallanmaganidan farq qilish kerak (jinoiyat qonunida nazarda tutilgan jinoiy natija mavjud emas). Ammo moddiy tarkibli jinoiyatlardagi suiqasd jinoiyatchining barcha harakatlarini bajara olmaganini bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin. Misol uchun, subyekt pichoq sanchish uchun qo‘lini ko‘targan, ammo jabrlanuvchi uning qo‘lini ushlab qolgan holat kiradi. Mazkur holatda hayotga tajovuz qilish bilan bog‘liq barcha harakatlar oxiriga yetkazilmaganligini va o‘z-o‘zidan oqibatning kelib chiqmaganligini payqash mumkin.

Jinoiyat sodir etishga suiqasd qilishda ko‘pincha aybdor mo‘ljallamagan, ko‘zda tutmagan ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqadi (masalan, odam o‘ldirishga qasd qilishda jabrlanuvchining sog‘lig‘iga og‘ir shikast yetkaziladi). Bu qilmishni tamom bo‘lgan jinoiyatga aylantirmaydi, chunki jinoiy qilmish tamom bo‘lgan deb topilishi uchun har qanday ijtimoiy xavfli oqibat emas, balki qonunda bevosita ko‘rsatilgan ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi talab etiladi. Bu holatda suiqasdni tamom bo‘lgan jinoiyatdan farqlash uchun aybdor shaxsning qasdini aniqlash zarur. Xususan, odam o‘ldirishga qasd qilishda jabrlanuvchining sog‘lig‘iga og‘ir shikast yetkazilishi odam o‘ldirishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Xullas, jinoiyatga suiqasd qiluvchining harakati (harakatsizligi) ma’lum zararli oqibatlarga olib

kelishi mumkin, ammo ular hech qachon aybdor mo'ljallagan oqibatlar bo'lmaydi.

Qonunda nazarda tutilgan jinoiy oqibatlar ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan paytda emas, balki oradan ma'lum vaqt o'tganidan keyin kelib chiqqan (masalan, jabrlanuvchi unga hayotdan mahrum etish maqsadida shikast yetkazilganidan keyin oradan bir necha kun o'tgach vafot etgan) hollarda jinoyat tamom bo'lgan deb topiladi. Qonun nuqtai nazaridan, agar aybdorning qasddan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) oqibatida, oradan qancha vaqt o'tganidan qat'i nazar, jinoiy oqibat kelib chiqqan bo'lsa, jinoiy qilmish tugallangan deb topiladi.

Formal tarkibli jinoyatlarda suiqasd jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi barcha harakatlarning to'liq bajarilmasligida ifodalanadi. Masalan, shaxs qalbaki pullarni o'tkazishga uringanida qo'lga olinadi.

Obyektiv tomonni xarakterlovchi uchinchi belgi **jinoyatning shaxsga bog'liq bo'lmagan holatga ko'ra, tugallanmay qolishidir**. Jinoyatning tamom bo'lishiga to'sqinlik qilgan turli xil holatlarni bir narsa birlashtiradi, ularning har biri jinoyatchining xohishiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra yuzaga keladi. Bu holatlar turlicha bo'lishi mumkin, masalan, favqulodda to'siqlar, nomaqbul guvohlarning paydo bo'lib qolishi, jabrlanuvchining faol qarshilik ko'rsatishi, jinoyat qurollari va vositalarining yaroqsizligi, ishning haqiqiy holatlarida (jinoyat obyekt, vositalari, harakat usullarida) xatoga yo'l qo'yilishi va h.k.

Mazkur belgi suiqasdning yuqorida ko'rsatilgan obyektiv belgilarini birlashtirib, uni jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdan farqlash imkonini beradi. Masalan, aybdor o'zining ichki hissiyotlari ta'sirida (jabrlanuvchiga rahm-shafqat hissi va h.k.) jinoiy faoliyatini oxirigacha olib bormasa, suiqasd mavjud bo'lmaydi. Bu holda qilmish jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi.

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning **subyekt belgilari** faqat **to'g'ri qasdda** ifodalanadi. Aybdor jinoyat sodir etishga suiqasd qilishda muayyan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etayotganini anglaydi va jinoyatni mantiqiy yakuniga yetkazish, zarur jinoiy natijaga erishishni xohlaydi. Jinoyat obyektiv tomonining yakunlamaganini, u hali mo'ljallagan

harakatlarining barchasini bajarmaganini, ko'zlagan maqsadiga hali erishmaganini shaxs anglaydi.

Subyektning o'z harakati (harakatsizligi)ning tugallanganlik darajasi haqidagi tasavvuri subyekt mezonga asoslanadi.

NOTA BENE !

Suiqasd – bu jinoyat sodir etishga bevosita yo'naltirilgan hamda shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra, oxiriga yetkazilmagan qasddan sodir etilgan harakat (harakatsizlik)dir.

Aybdor tomonidan amalga oshirilgan harakatlarning yakuniga yetkazilganlik darajasiga qarab, suiqasd tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan turlarga bo'linadi.

Tamom bo'lgan suiqasdda subyekt, zarur bo'lgan barcha harakatlarni qilganiga amin, ammo ba'zi obyektiv sabablarga ko'ra jinoiy oqibat kelib chiqmaydi. Bu holatda shaxs amalga oshirishni mo'ljallagan barcha harakatlarni sodir etadi, ammo jinoiy natijaning intihosi izchil harakatlar doirasidan chetda qoladi. Aybdor erishishga intilgan haqiqiy oqibat mavjud bo'lmaydi. Misol uchun, subyekt o'ldirish maqsadida jabrlanuvchiga zahar berdi, lekin shifokorlarning sa'y-harakati bilan jabrdiydaning hayoti saqlab qolinadi.

Tamom bo'lmagan suiqasdda subyekt jinoyatning tamom bo'lishi uchun zarur bo'lgan harakatlarni ularni amalga oshirishga xalaqit bergan sabablar tufayli to'liq bajara olmaydi. Suiqasdning bu turida obyektiv tomon rivojlanmaydi. Bu holatda jinoyat sodir etishga qasd mavjud bo'ladi, ammo jinoyat tarkibi obyektiv belgilarida nazarda tutilgan hamda jinoiy natijaga erishish uchun zarur bo'lgan harakatlar to'la hajmda bajarilmaydi. Misol uchun, o'g'ri omborxonaga g'ayriqonuniy ravishda kirib, zarur boyliklarni olib chiqib ketishga tayyorlaydi, lekin shu yerda ushlanadi va ularni o'g'irlay olmaydi.

Tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning jinoyatni kvalifikatsiya qilishda hech qanday ahamiyati bo'lmasa ham, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash, jazo

tayinlash va jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish masalasini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Jinoyat nazariyasida, shuningdek, yarog‘siz obyektga suiqasd qilish ham ajratilib, u jinoyat subyektining faktik xatoga yo‘l qo‘yishida asoslanadi. Bunda jinoyat sodir etishga «yaroqsiz» suiqasd qilishning ikki turi farqlanadi: 1) «yaroqsiz» obyektga (predmetga) suiqasd qilish; 2) «yaroqsiz» vositalar bilan suiqasd qilish.

Yaroqsiz obyektga suiqasd qilishda, shaxs ishning haqiqiy holatlariga nisbatan xatosi tufayli, uning jinoiy tajovuzi jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektga zarar yetkaza olishga qodir emasligi tushunilishi kerak. Aybdor harakatlari amalda real zarar yetkazmaydi ham. Bu holda shaxs jinoyatni sodir etishni xohlaydi, buning uchun barcha zarur harakatlarni amalga oshiradi, biroq xohlagan natijasini qo‘lga kiritmaydi, chunki jinoyat predmeti xususiyatlari yoki jabrlanuvchiga nisbatan xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘ladi. Misol uchun, aybdor pul o‘g‘irlash maqsadida seyfni ochadi, ammo u yerdan pulni topolmaydi yoxud o‘lib bo‘lgan odamga o‘q uzadi.

Mazkur turdagi suiqasdni kvalifikatsiya qilishda qasdning yo‘naltirilganligiga alohida e‘tibor berish muhim. Masalan, «agar aybdor ishlatishga yaroqsiz bo‘lgan o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlovchi qurilmalarni qonunga xilof ravishda egallagan va bunda ularning sifatiga nisbatan yanglishib yaroqli deb hisoblagan bo‘lsa, sodir etilgan qilmish jinoyatga suiqasd tariqasida kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim»¹.

Yaroqsiz vositalar bilan suiqasd qilishda, shaxs, o‘z xatosi oqibatida, jinoyatni oxiriga yetkazish uchun o‘z xususiyatlariga ko‘ra yaroqsiz bo‘lgan vositalarni qo‘llaydi. Misol uchun, aybdor o‘ldirish maqsadida jabrlanuvchiga zahar beradi, ammo bu zahar emas, zararsiz kukun bo‘lib chiqadi va buning natijasida jabrlanuvchi o‘lmay qoladi, hech qachon o‘lmasdi ham. Yarog‘siz deb, nafaqat foydalanilayotgan vosita, balki jinoiy niyatni amalga oshirish usullari ham tan olinishi mumkin.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги «Қонунга хилоф равишда қуролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 3-сонли қарори, 5-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. – 46–47-б.

Masalan, odam o'ldirishga suiqasd qilishda aybdor zaharli moddadan foydalanadi, ammo uni jabrlanuvchi tanasiga kichik, zarar yetkazmaydigan dozalar bilan kiritadi¹.

Yaroqsiz vositalar bilan suiqasd qilish ham qilmishning ijtimoiy xavfliligini inkor etmaydi, shuning uchun uning kvalifikatsiyasi aybdorning qasdi inobatga olingan holda amalga oshiriladi. Bunda shaxsning jinoyat vositalari zararlilik darajasi, ulardan samaraliroq foydalanish usullariga nisbatan xatosi sud tomonidan jazoni tayinlashda hisobga olinishi lozim.

JK 25-moddasi 3-qismiga ko'ra, «Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik ham ushbu Kodeks Maxsus qismining tamom bo'lgan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi moddasiga muvofiq hal qilinadi».

Tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda jinoyatning oxiriga yetkazilmaganlik sabablari, shuningdek, jinoiy qasdning amalga oshirilganlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, jinoyatga suiqasd qilishdan yengilroq jazoni keltirib chiqarsa, tamom bo'lmagan suiqasd tamom bo'lgan suiqasdga nisbatan yengilroq jazolanadi.

4-§. Jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish

Muayyan hollarda jinoyat sodir etishni boshlagan va uni tamomlash uchun barcha zarur imkoniyatlarga ega bo'lgan shaxs uni sodir etishdan qaytadigan bo'lsa, bu jinoyat huquqida jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi.

JK 26-moddasi 1-qismiga muvofiq, «Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish harakatlarini yoki bevosita jinoyat sodir etishga qaratilgan harakatlarini oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda to'xtatsa, shuningdek, jinoiy oqibat kelib chiqishini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb baholanadi».

¹ Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под ред. д.ю.н., проф. Н.Ф. Кузнецовой и к.ю.н., доц. И.М. Тяжковой. – С. 246.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish – ijtimoiy xavfli, qonunga xilof va aybli qilmishni sodir etishdan o‘zini tiygan va (yoki) muayyan jinoiy oqibatlar kelib chiqishining oldini olgan shaxs xulq-atvorining qonuniy harakatidir. Shaxs boshlagan jinoiy faoliyatini (jinoiyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoiyat sodir etishga qasd qilishni) oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda ixtiyoriy va uzil-kesil to‘xtatishi jinoiyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning asosiy huquqiy oqibati – uning jinoiy javobgarlikni istisno qilishi (**JK 26-moddasi 2-qismi**). Amalda jinoiyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs tayyorgarlik harakatlarini yoki muayyan jinoiyatni sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni to‘xtatadi, zero uning irodasi bundan buyon huquq bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazishga qaratilmagan. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish doimo jinoiyat tarkibini istisno etadi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning asosiy vazifasi ham aynan shu – jinoiyatlarning oldini olish va to‘xtatib qo‘yish. Boshlangan jinoiy faoliyatni to‘xtatib, jinoiy javobgarlikdan qutulish imkoniyatining qonunda mustahkamlanishi shaxsni o‘z jinoiy niyatini yakunlashdan bosh tortishga rag‘batlantiradi.

JK 26-moddasi 1-qismiga ko‘ra, jinoiyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish, jinoiyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini to‘xtatish, ya‘ni jinoiyatga tayyorgarlik ko‘rish va unga suiqasd bosqichida mavjud bo‘lishi mumkin. U jinoiyatga tayyorgarlik ko‘rish harakatlarini to‘xtatishda ifodalanib, bunda jinoiyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish jinoiyatdan qaytishni keltirib chiqaradi va jinoiyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni to‘xtatish yoxud jinoiy oqibatni keltirib chiqarishning oldini olishda ifodalanib, bu jinoiyat sodir etishga qasd qilish bosqichida jinoiyat sodir etishdan qaytishni tavsiflaydi.

Qonundan jinoiyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning ikki asosiy alomati kelib chiqadi: ixtiyoriylik va uzil-kesillik (qat‘iylik).

Ixtiyoriylik deganda, shaxsning boshlagan jinoiy xatti-harakatini o‘z xohishi bilan hech qanday tashqi ta‘sirlarsiz oxiriga yetkazish imkonini borligini anglagan holda to‘xtatishi tushuniladi. Bunday qaytishning motivi turlicha (uyalish, farzandlari taqdiri haqida o‘ylash, jabrlanuvchiga

rahmi kelishi), shuningdek, qarindosh va do'stlarining maslahatlari natijasida bo'lishi mumkin. Motiv qanday bo'lmasin shaxs o'z xohishi bilan jinoyatdan qaytgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish har doim subyektning erkin xohish-irodasi natijasida kelib chiqqan bo'lishi kerak.

Ixtiyoriy qaytishning muhim shartlaridan biri – bu shaxsning jinoyatni davom ettirish va yakuniga yetkazishga imkoni borligini anglashidir. Shu shartlarsiz shaxs agar o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra, jinoyatni yakuniga yetkaza olmasa yoki uni sodir etishga qodir bo'lmasa, uni jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish sifatida baholashga asos bo'lmaydi. Masalan, agar shaxs qasddan odam o'ldirish jinoyatida harakat qilsa, lekin atrofda odamlarning borligi, qurolning yarog'sizligi yoki qo'riqlash signalizatsiyasi ishlab ketganligi tufayli qilmishni sodir etmasa, bu ixtiyoriy qaytish hisoblanmaydi.

Shaxs o'zi boshlagan jinoyatni oxiriga yetkazish imkoniyatini istisno qiluvchi o'tib bo'lmas to'siqlar mavjud deb (hattoki yanglish) qarashi jinoyat sodir etishdan qaytishning ixtiyoriy emas, balki majburiy bo'lganligidan dalolat beradi. Misol uchun, shaxs o'zganing mulkini talon-toroj qilish maqsadida qonunga xilof ravishda kirgan uyda o'rnatilgan o'ziga notanish moslamani signalizatsiya vositasi deb o'ylab, uyni tark etadi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishda **qat'iylik** deganda, shaxsning jinoiy faoliyatni vaqtincha to'xtatganligi emas, balki oxiriga yetkazish uchun to'la imkoniyatlar borligini anglagani holda jinoiy faoliyatni davom ettirishdan butunlay va to'liq voz kechganligi tushuniladi.

O'z-o'zidan ravshanki, ixtiyoriy qaytishda vaqt jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan hollarda ahamiyatga ega bo'lmaydi. Mazkur holatda jinoyat sodir etayotgan shaxs o'zining jinoiy faoliyatini oradan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng davom ettirishini ko'zlab, jinoyat qurolini almashtirish niyatida yoki shunga o'xshagan boshqa niyatlarda to'xtatadi. Misol uchun, agar shaxs bir o'zi uddalay olmasligini tushunib, omborga o'g'irlikka tushishdan qaytgan va omborga tushish, o'g'irlik molni u

yerdan olib chiqish va tashib ketish uchun jinoyatga boshqa shaxslarni ham jalb etishga qaror qilgan bo'lsa, bu jinoyat sodir etishdan uzil-kesil qaytish bo'lmaydi.

Shaxs jinoiy faoliyatni o'ziga bog'liq bo'lmagan holatda to'xtatishga majbur bo'lgan taqdirda ham ixtiyoriy qaytish hisoblanmaydi. Misol uchun, aybdor o'ldirish maqsadida jabrlanuvchiga o'q uzdi, ammo o'q tegmay qoldi – aybdor qayta o'q uzishdan ixtiyoriy qaytganiga ishora qilishi jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishga dalil bo'la olmaydi. Ayni holda, shaxs jinoyat sodir etishga birinchi urinishi uchun javobgarlikka tortilishi kerak, uning jinoyat sodir etishdan qaytishi ixtiyoriy deb topilishi mumkin emas.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishni hosil qiluvchi ushbu alomatlarni qayd etish uchun jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning ba'zi bir shartlarini aniqlash lozim. Bular:

- jinoyatni oxiriga yetkazish mumkinligini anglash;
- jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olish.

Shaxs **jinoyatni oxiriga yetkazish imkoni borligini anglashi** shuni ifodalaydiki, u jinoyatni oxiriga yetkazish uchun barcha imkoniyatlarga, jinoyatni amalga oshirish uchun barcha qurol va vositalarga ega bo'ladi va buni biladi. Ammo, jinoiy tajovuzni hech qanday tashqi ta'sirlar to'xtata olmasligiga qaramay, u o'z jinoiy niyatini amalga oshirishdan qaytadi.

Ushbu shart tamom bo'lmagan jinoyat tarkibining obyektiv tomoni, ya'ni ijtimoiy xavfli qilmish bilan bevosita bog'liq. Bu yerda nafaqat jinoyat sodir etishga suiqasd qilish doirasida jinoyat tarkibini tashkil etadigan harakatlar (harakatsizlik), balki jinoyat sodir etishga shart-sharoit va imkoniyat yaratadigan harakatlar (JK Maxsus qismi tegishli modda dispozitsiyasiga bevosita kiritilmagan harakatlar) to'g'risida ham so'z yuritilmoqda. Shu sababli jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishni tasniflashda jinoiy tajovuzni oxiriga yetkazish mumkinligini anglash faqat jinoyat sodir etishga suiqasd qilishda mavjud bo'lishi mumkin degan fikrga kelmaslik kerak, zero jinoiy niyatni oxiriga yetkazish mumkinligini anglash jinoyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichida ham bo'lishi mumkin.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish ixtiyoriyligi va uzil-kesilligining ikkinchi zarur sharti **shaxs jinoiy oqibat kelib chiqishini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olishidir.** Mazkur shart jinoiy oqibatlarining kelib chiqishi jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan moddiy tarkibli jinoyatlarda bo'lishi mumkin. Bu yerda tafakkurlik belgisi – shaxs ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglashi ham mavjud.

Mazkur shart faqat jinoyat sodir etishga suiqasd qilish bosqichida, shaxs jinoyatni boshlab, uni oxiriga yetkazishdan qaytishga qaror qilgan holda bo'lishi mumkin. Ayni holda aybdor jinoyat sodir etishdan qaytibgina qolmasdan, uning jinoiy oqibatining oldini olishga faol imkoniyat yaratishi ham kerak.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish faqat ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglash va uning kelib chiqishi oldini faol olish bilan jamuljam holda uning ixtiyoriy va uzil-kesil bo'lganidan dalolat berishi mumkin.

NOTA BENE !

Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish harakatlarini yoki bevosita jinoyat sodir etishga qaratilgan harakatlarini (harakatsizligini) boshlangan jinoiy faoliyatini davom ettirish va oxiriga yetkazish obyektiv imkoniyati mavjudligini anglagan holda ixtiyoriy ravishda va uzil-kesil to'xtatsa, **jinoiy sodir etishdan ixtiyoriy qaytish** deb baholanadi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish jinoyatning yuridik tugallanishiga qadar ham **aktiv**, ham **passiv** ko'rinishda ifodalanishi mumkin. Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish bosqichida ixtiyoriy qaytish, odatda, passiv harakat orqali amalga oshiriladi, zotan shaxsning keyingi jinoiy faoliyatdan o'zini tiyishi uning qonuniy harakatlariga ishora qilishi mumkin, biroq ixtiyoriy qaytish aktiv harakat bilan ham amalga oshirilishi mumkin (masalan, jinoyat qurolini yo'qotish, huquqni muhofaza qilish organlariga tayyorlanayotgan jinoyat haqida o'z vaqtida xabar berish va h.k.).

Shuni aytish joizki, jinoyatga suiqasd qilishda jinoyatdan ixtiyoriy qaytishga har doim ham imkoniyat bo'lovermaydi. Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishda jinoyat subyekti tomonidan jinoyatning obyektiv tomoni amalda bajarilishi hisobga olinsa, ushbu bosqichda ma'lum jinoiy oqibatlar kelib chiqishi mumkinligi masalasi yuzaga keladi. Ayni holda nafaqat jinoiy harakatlarni to'xtatish (chunki bunday harakatlar qisman amalga oshirilgan bo'lishi ham mumkin), balki jinoiy oqibatlar kelib chiqishining oldini faol olish ham jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishdan dalolat beradi. Bunda jinoyat sodir etishga suiqasd qilish turlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning passiv shakli ko'pincha, subyekt jinoiy qilmishni oxiriga yetkazmagan va ijtimoiy xavfli oqibat kelib chiqishi uchun barcha zarur harakatlar (harakatsizlik) amalga oshirilmagan tarzda, ya'ni tamom bo'lmagan jinoyatlarda bo'lishi mumkin. Bunda qilmishning tugallanmaganligi, tugallanmagan suiqasdni tavsiflovchi tashqi holat bilan emas, balki ichki motivlar bilan belgilanishi kerak. Misol uchun, subyekt avval jabrlanuvchini o'ldirish niyatida uning oyoq-qo'lini bog'laydi, kaltaklaydi, lekin keyin o'ldirish niyatidan qaytadi. Bunday hollarda shaxs bevosita odam o'ldirishga qaratilgan harakatlarni to'xtatadi, ya'ni ularni sodir etishdan qaytadi (harakatsizlik). Bu holda shaxs muayyan jinoyat tarkibi bilan qamrab olinadigan, uning obyektiv tomonini tashkil etadigan yoki zararli oqibatlar kelib chiqishini ta'minlaydigan harakatlarni sodir etishdan qaytishi kifoya. Masalan, shaxs jabrlanuvchiga o'q uzish uchun uni o'qotar quroldan nishonga oladi, lekin o'q uzmaydi.

Tamom bo'lgan suiqasdda ixtiyoriy qaytish bo'lishi mumkin emas, chunki subyekt jinoiy harakatlarni to'xtatish yo'li bilan jinoyat sodir etilishini to'xtata olmaydi (u jabrlanuvchiga o'q uzgan, uni o'ldirish maqsadida pichoq urgan bo'ladi va h.k.). Shu sababli, jinoyatdan ko'zlangan maqsadga erishish imkonini beradigan keyingi harakatlardan qaytishga bunday hollarda jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb emas, balki jinoyat sodir etishga qayta urinishdan qaytish deb qaralishi kerak.

Tamom bo'lgan jinoyat sodir etishga suiqasd qilishda jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish imkoniyati faqat sodir etilgan harakatlar bilan jinoiy oqibatning kelib chiqishi o'rtasidagi vaqtda uzilish mavjud bo'lgan va mazkur shaxs o'zining faol harakatlari bilan zarar yetkazilishining oldini olishi mumkin bo'lgan kamdan-kam hollarda saqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs mazkur vaqt davomida o'z harakatlarini nazorat qilishi va o'zining harakatlari bilan kelib chiqishi mumkin bo'lgan jinoiy oqibatlar orasidagi bog'liqlik rivojini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, mulkni nobud qilish maqsadida unga o't qo'ygan shaxsda olovni darhol o'chirish imkoniyati bor, soat mexanizmi mavjud bo'lgan portlovchi qurilmani o'rnatib qo'ygan shaxs, uni o'chirib, terrorizm aktining oldini olishga ulguradi.

JK 26-moddasi 3-qismi mazmuniga ko'ra, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish javobgarlikni butun jinoiy xulq-atvorga nisbatan istisno qilmaydi. «Jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs, agar amalda sodir etgan qilmishida boshqa jinoyat tarkibining barcha alomatlari bo'lsa, ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladi».

Bunday hollarda jinoiy javobgarlik subyekt amalda (jinoyat sodir etishdan qaytgan paytgacha) sodir etgan qilmishi uchun kelib chiqadi. Shu sababli, odam o'ldirish uchun zaharli moddani o'g'irlagan shaxs uni sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan bo'lsa, qasddan odam o'ldirish uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, chunki u hech qanday harakat sodir etmagan va ularni sodir etishdan qaytgan, biroq u zaharli moddani qonunga xilof ravishda egallagani uchun JK 251-moddasiga binoan javobgarlikka tortilishi lozim.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishni o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lish, ya'ni shaxsni o'z aybiga iqror bo'lib, keltirilgan zararni bartaraf qilish, tugatish, qoplash, jinoyatning ochilishiga, uning boshqa ishtirokchilari fosh qilinishiga, jinoyat natijasida egallangan mol-mulkni izlab topishga yordam berish bilan bog'liq faol ixtiyoriy harakatlardan farqlay olish lozim. O'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishga aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilish kiradi. O'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lish

javobgarlikni yengillashtiradigan holat hisoblanadi, ba'zi bir hollarda esa, u jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo'lishi ham mumkin.

**«Tamom bo'lmagan jinoyatlar»
mavzusi yuzasidan yakuniy savollar**

1. Jinoyatni sodir qilish bosqichlari nima? Jinoyat sodir qilish haqidagi qasdning paydo bo'lishi jinoyatni sodir qilish bosqichlariga kiradimi?

2. Tamom bo'lmagan jinoyatning qanday turlari mavjud? Ularning jinoyat-huquqiy mohiyati nimada?

3. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deganda nima tushuniladi? Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish jinoyat sodir qilishga qasdning paydo bo'lishidan nima bilan farqlanadi?

4. Jinoyatga suiqasd qilish nimada ifodalanadi? Uning obyektiv va subyekt belgilarini ayting.

5. Jinoyatga suiqasd jinoyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichi hamda tamom bo'lgan jinoyatdan nimasi bilan farq qiladi?

6. Tamom bo'lgan jinoyatni tavsiflang.

7. Suiqasdning qanday turlari mavjud? Tamom bo'lgan suiqasd tamom bo'lmagan suiqasddan qanday farqlanadi?

8. Shaxs jinoyatni oxiriga qadar yetkazmaganligi sabablari jinoyat-huquqiy ahamiyatga egami?

9. Yaroqsiz suiqasd deganda nima tushuniladi?

10. Jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deganda nima tushuniladi? Uning huquqiy oqibatlari qanday?

11. Ixtiyoriy qaytishning qanday shakllari mavjud? Tamom bo'lgan jinoyatdan ham ixtiyoriy qaytish mumkinmi?

12. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishni chin ko'ngildan pushaymon bo'lishdan qanday farqlash mumkin?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Камалова Д.Г. Жиноятга тайёргарлик кўришнинг хусусиятлари ва унинг учун жавобгарликни такомиллаштириш. Монография. – Т.: ТДЮУ, 2018. – 210 б.

Каюмов А.С. Добровольный отказ от совершения преступления и деятельное раскаяние по уголовному законодательству Республики Узбекистан. – Т.: «Адолат», 2000. – 145 Б.

Козлов А.П. Неоконченное преступление. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 360 Б.

Козлов А.П. Неоконченное преступление: Учебное пособие. – Красноярск: 1999. – 224 Б.

Козлов А.П. Учение о стадиях преступления. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 353 Б.

Назаренко Г.В., Ситникова А.И. Неоконченное преступление и его виды. Монография. – М.: 2003. – 131 Б.

Ситникова А.И. Приготовление к преступлению и покушение на преступление: Монография. – М.: «Ось-89», 2006. – 169 Б.

Камалова Д.Г. Жиноятга тайёргарлик кўришнинг хусусиятлари ва унинг учун жавобгарликни такомиллаштириш. Монография. – Т.: ТДЮУ, 2018. – 210 б.

Ilmiy maqolalar

Kamalova D.G. Attempt in Criminal Law of the Republic of Uzbekistan // International Journal of Advanced Research, –India, April 2016, Volume 4 (July). – P.1796–1803.

Kamalova D.G. Uncompleted crime: comparative legal analysis of the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan and Ukraine. International Scientific Journal EURO-AMERICAN SCIENTIFIC COOPERATION: research articles / Responsible editors: Tonkyh S., Pryhodko N., Mintz A. – Hamilton, Canada: «Ascent Graphics Communications», –2015. –Volume 11 (December). –P.40–43.

Гринь М., Ключев А. Отказ от повторной попытки совершения деяния не свидетельствует о добровольном отказе от преступления // Ж. Российская юстиция. 2003. № 1. – 57-б.

Камалова Д.Г. Возможно ли покушение путем бездействия? // Российский следователь Научно-практическое и информационное издание. – 2016. – №18. – С.43–47.

Камалова Д.Г. Жиноят содир этиш босқичлари хақидаги қонун нормаларининг ривожланиш тарихи // Криминологиянинг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (2014 йил 18 январь). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б. 40–46.

Камалова Д.Г. Жиноят содир этишга суиқасд қилиш учун жавобгарликнинг ўзига хос хусусиятлари // ТДЮИ Ахборотномаси илмий-назарий нашр. – 2012. – №4. – Б.122-123.

Камалова Д.Г. Жиноят содир этишдан ихтиёрий қайтишнинг объектив ва субъектив белгилари таҳлили // Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Ахборотномаси. – 2016. – №3. – Б.57–62.

Камалова Д.Г. Жиноят содир этишдан ихтиёрий қайтишнинг ҳуқуқий табиати тўғрисида айрим мулоҳазалар // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2016. – №3. –Б.61–63.

Камалова Д.Г. Жиноят содир этишнинг босқичи сифатида жиноятга суиқасд қилиш // Одил судловнинг коррупцияга қарши курашдаги роли ва аҳамияти. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2-сон). – Т.: ТДЮУ, 2015. – Б.114–120.

Камалова Д.Г. Жиноят ҳуқуқида жиноятга тайёргарлик кўриш // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана.– 2014. – №3-4. – Б.57–60.

Камалова Д.Г. Жиноятга суиқасд қилиш: унинг жиноятга тайёргарлик кўришдан фарқи // Ҳуқуқ ва бурч. Ижтимоий ҳуқуқий журнал. – 2012.– №11(83). – Б.50–54.

Камалова Д.Г. Жиноятга суиқасд қилишнинг ҳуқуқий белгилари // Суд-ҳуқуқ ислохотларини чуқурлаштириш шароитида Жиноят кодексини унификация қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2015 йил 22 май). – Т.: ТДЮУ, 2015. – Б.74–79.

Камалова Д.Г. Жиноятга тайёргарлик кўришнинг илмий таҳлилига доир айрим мулоҳазалар // Инсон ҳуқуқлари ва манфаатларини ишончли ҳимоясини таъминлаш-қонун ижодкорлиги ва ҳуқуқни қўллаш амалиётининг муҳим йўналиш: Халқаро илмий амалий конференция материаллари тўплами (2014 йил 10 декабрь). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, –2015. – Б.367-373.

Камалова Д.Г. Жиноятга тайёргарлик кўришнинг объектив белгилари // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2015. - №2. – Б. 50-53. (12.00.09; №9).

Камалова Д.Г. Жиноятга тайёргарлик кўришнинг объектив белгилари // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2015. – №2. – Б.50–53.

Камалова Д.Г. Жиноятга тайёргарлик кўришнинг субъектив белгилари. // Давлат ва ҳуқуқнинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2015. – Б.76–79.

Камалова Д.Г. Ислом ҳуқуқида жиноят ва жазо // Ҳуқуқ ва бурч. Ижтимоий ҳуқуқий журнал. – 2014. – № 07(103). – Б.53–55.

Камалова Д.Г. К вопросу о сущности и значении годного и негодного покушений на преступление // Российский следователь. Научно-практическое и информационное издание. – 2017. – №1. – С.16–21.

Камалова Д.Г. МДҲга аъзо мамлакатлар жиноят қонунларида тамом бўлмаган жиноятлар учун жавобгарлик масалалари (қиёсий таҳлил) // Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигини такомиллаштириш масалалари: миллий ва хорижий тажриба. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2014 йил 28 октябрь). – Т.: ТДЮУ, 2014. – Б.189–198.

Камалова Д.Г. Некоторые вопросы совершенствования практики назначения наказания за неоконченные преступления // Право и жизнь. Независимый научно-правовой журнал – 2015. – №211(1)-212(2). – М.: Благотворительный Фонд «Центр публичного права». – С.117–129.

Камалова Д.Г. Основания разграничения приготовления к преступлению от покушения на преступления // Социальная функция уголовного права: проблемы обеспечения законотворчества и правосудия. Материалы научно-практической конференции, 12-13 июля 2016 года. / ред.коллегия В.Я.Таций. – Х.: Украина, Право, – 2016. – С. 523–529.

Камалова Д.Г. Субъективные признаки приготовления к преступлению. // Вопросы современной юриспруденции / СБ. ст. по материалам LX междунар. Научно-практической конференции №4(55). Новосибирск: Изд. АНС «СибАК». –2016. – С.87–94.

Камалова Д.Г. Тамом бўлмаган жиноят тушунчаси ва унинг жиноят содир этиш босқичларидан фарқли хусусиятлари // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана.. – 2012. – №2. – Б.47-49.

Камалова Д.Г. Уголовная ответственность за неоконченное преступление в уголовных законах стран СНГ (сравнительно-правовой анализ) // Право и

жизнь. Независимый научно-правовой журнал – №215(1)-216(2)/2016. – М.: Благотворительный Фонд «Центр публичного права». – С.63–71.

Камалова Д.Г. Ўзбекистон Республикаси жиноят қонунчилигида тамом бўлмаган жиноятларнинг жиноят-ҳуқуқий тавсифи // Коррупция: қонун ва жавобгарлик. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2018. – Б.152–154

Камалова Д.Г. Франция ва Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексларида тамом бўлмаган жиноятлар учун жавобгарликнинг қиёсий-ҳуқуқий таҳлили // Жиноят қонунчилигининг либераллаштириши шароитида айрим жиноятларни декриминализация қилиш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2014 йил 29 март). – Т.: ТДЮУ, 2014. – Б.130–137.

Редин М.П. Наказуемость неоконченного преступления // Ж. Следователь. 2005. № 8. – 12–20-б.

Рустамбаев М.Х., Пайзуллаев К. Особенности добровольного отказа в насильственных преступлениях против личности // Конституция — ҳуқуқий давлат қуришнинг асоси. – Т.: «Адолат», 1996. – 28–32-б.

X BOB. JINOYATDA ISHTIROKCHILIK

1-§. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar o'z huquqiy xususiyatlariga ega bo'lib, bu ularni mustaqil jinoyat-huquqiy institutga ajratish imkonini beradi.

NOTA BENE !

Ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi jinoyatda **ishtirokchilik** deb topiladi (**JK 27-moddasi**).

Ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatlarning yuqori ijtimoiy xavfi shu bilan shartlanadiki, bunday holatlarda jinoiy-huquqiy muhofaza obyektlariga sezilarli katta zarar yetkaziladi, jinoiy faoliyat yanada mustahkamroq berkitiladi, bu esa huquq muhofazasi idoralarining uni o'z vaqtida fosh etish va oldini olish bo'yicha ishini qiyinlashtiradi.

Mazkur shart-sharoit alohida tasniflangan jinoyatlar tarkiblarini konstruksiyalashda ko'pincha hisobga olinadi. Masalan, shaxslar guruhi tomonidan yoki uyushgan guruh tomonidan yoki uyushgan guruh a'zosi tomonidan uning manfaatlarida sodir etilgan qasddan qotillik (JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi).

Jinoyatning u yoki boshqa tarkibini kvalifikatsiya qilishda nafaqat uning sodir etilishida shaxsning birgalikdagi ishtirokiga, balki ishtirokchilikning muayyan alomatlari va turlariga ham e'tibor qaratish zarur, bu esa adolat, qonuniylik prinsiplari amalga oshirilishining kafolatidir. Agar ishtirokchilar harakatlarida JK Maxsus qismi moddasida tasvirlangan u yoki bu jinoyatning kvalifikatsiyalovchi alomatlari bo'lsa (masalan, shaxslar guruhi, uyushgan guruh va hokazolar tomonidan jinoyat sodir etilishi), u holda sodir etilgan qilmishni ishtirokchilikning u yoki bu turini tavsiflovchi muayyan alomatlaridan kelib chiqqan holda Maxsus qismning tegishli moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim.

Ishtirokchilik tushunchasining JK Umumiy qismi instituti sifatidagi ta'бири yetarlicha kengdir. Ishtirokchilik jinoiy faoliyatning maxsus shakli sifatida qator obyektiv va subyekt alomatlari bilan tavsiflanadi.

Ishtirokchilikning obyektiv belgilari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bir jinoyatning o'zida ikki va undan ortiq shaxslar ishtiroki;
- jinoyatda ular ishtirokining birgalikda amalga oshirilishi;
- har bir ishtirokchi harakatlari bilan bajaruvchi sodir etgan jinoyat o'rtasida sababiy bog'liqlik mavjudligi.

Ishtirokchilikning birinchi obyektiv alomati – **bir jinoyatning o'zida ikki va ko'proq shaxslar ishtirokini** aniqlash uchun ishtirokchilardan har biri jinoyat subyekt alomatlariga ega bo'lishi zarur, ya'ni aqli raso hamda tegishli muayyan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik yoshi boshlanishiga yetgan bo'lishi darkor.

Ishtirokchilar jinoiy faoliyatining birgalikda amalga oshirilishi shunda ifodalanadiki, jinoyat o'zaro bog'liq va o'zaro shartlanilgan harakatlar (harakatsizlik) bilan amalga oshiriladi, bir necha shaxslarning qilmishlari barcha uchun umumiy jinoiy natijaga erishishga yo'naltirilgan.

Jinoyat sodir etishda ikki yoki undan ortiq shaxslarning birgalikdagi ishtiroki bitta ishtirokchi faoliyatini boshqasining faoliyati to'ldirgan paytda ham mavjud, zero bu ular uchun umumiy ijtimoiy xavfli oqibatga erishish imkonini beradi. Agar shunday birgalikdagi faoliyat faqat tashqi xarakterga ega bo'lib, ichki, anglangan bog'liqlik bo'lmasa, u holda yagona jinoyatdagi ishtirokchilik haqida so'z yuritish mumkin emas. Mazkur hollarda aybdorlar, ularning jinoiy faoliyati obyektiv ravishda umumiy, yagona natijaga sabab bo'lganligiga qaramay, mustaqil jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim.

Ishtirokchilikning har biri jinoyat sodir etilishiga o'zining ma'lum hissasini qo'shadi. Ulardan birlari barcha ishtirokchilarni tashkillashtirish, muvofiqlashtirish bo'yicha harakatlarni bajaradi, boshqalari faqat jinoyat sodir etilishi sharoitlarini yaratadi, uchinchilari uni amalga oshiradi, to'rtinchilari esa jinoyat izlari berkitilishini ta'minlashadi, uning ochilishiga to'sqinlik qilishadi. Shu tariqa aybdorlarning birgalikdagi faoliyati, bir tomondan har bir ishtirokchi harakatlari (harakatsizligi)

o'rtasidagi maqsad birligi va sababiy bog'liqlikda, boshqa tomondan – umumiy jinoiy natijada, shuningdek, boshqa ishtirokchilar tomonidan harakatlar amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratishda ifodalanadi. Qilmish, jinoiy natija va har bir ishtirokchi qilmishining sababiy bog'liqligi birgalikning obyektiv tavsifini tashkil etadi.

Har bir ishtirokchi harakatlari bilan bajaruvchi sodir etgan jinoyat o'rtasidagi sababiy bog'liqlik shunday shart-sharoitni qaror toptirishda namoyon bo'ladiki, bunda obyektiv voqelikda vujudga kelgan zararli oqibatlar barcha ishtirokchilarning birgalikdagi jinoiy faoliyati tufayli yuzaga keladi. Masalan, qotillik bir necha bajaruvchilarining harakatlari uyg'unlikda jinoiy natija – jabrlanuvchi o'limi sababini tashkil etadi.

Aybdorlar o'rtasida rollar taqsimoti belgilangan «murakkab» ishtirokchilikda sababiy bog'liqlik qo'shimcha xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Bu o'rinda jinoiy natija bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi faoliyatining oqibati bo'ladi. Bunda jinoyatning muayyan turini tashkil etuvchi harakatlar bevosita faqat bajaruvchi tomonidan amalga oshirilsa ham, boshqa ishtirokchilar jinoyatni sodir etish uchun sharoitlar yaratgan holda o'z faoliyati bilan umumiy jinoiy natijaga yordam berishadi.

Xususan, bajaruvchining jinoyatni amalga oshirish harakatlari boshlangunga qadar yoki uning jinoyatni amalga oshirishi mobaynida dalolatchilik va yordam berish shaklidagi ishtirokchilik bo'lishi mumkin. Jinoyatni tashkillashtirish uning amalga oshirilishi mobaynida ko'proq bajaruvchi faoliyatini boshlagunga qadar, kamroq esa jinoyat sodir etilishiga rahbarlik sifatida namoyon bo'ladi. Jinoiy natija yuzaga kelgandan keyin har qanday faoliyat, agar u maxsus tilga olinmagan bo'lsa, ishtirokchilik deb tan olinishi mumkin emas. Xususan, oldindan va'da qilinmagan yashirish, jinoyat haqida ma'lum qilmaslik, unga yo'l qo'yish (bular jinoyatga daxldorlik turlarini tashkil etadi) ishtirokchilik sifatida ko'rilishi mumkin emas, zero ular zararli oqibatlar yuzaga kelishi sababi jihatdan shart-sharoit yaratmaydi.

Shuni hisobga olish zarurki, real voqelikda jinoyat bir necha shaxslar intilishlarini qo'shish yo'li bilan yoki ularning har bir mustaqil intilgan natija yuzaga kelganda yoxud bir shaxs qilmishi boshqasining qilmishiga imkon berganda yoki ulardan har birining qilmishi natija bilan sababiy bog'liqlikda turganda sodir etilishi mumkin, shu bilan birga, bu holatlarni ishtirokchilik deb bo'lmaydi.

Bunday vaziyatlarda ishtirokchilik mavjud emasligi shu bilan izohlanadiki, bir necha shaxslarning harakatlari parokanda, chunki ularning har biri boshqasidan ajralgan holda harakat qiladi. Bunda, garchi jinoiy oqibat ularning qo'shilgan harakatlari natijasi bo'lib, binobarin, ularning harakatlari ular uchun umumiy jinoiy oqibat sababi bo'lganda ham, ishtirokchilik mavjud bo'lmaydi. Misol uchun, fuqaro A. tomonidan fuqaro B.ni o'qotar quroldan otib yarador qilishi, fuqaro V.ni yarani bog'lashda infeksiya tushirgani bois fuqaro B.ning o'limi yuz berganida, bu vaziyatni bunga sharoit yaratgan fuqaro A. bilan birgalikdagi jinoiy faoliyat sifatida ko'rish mumkin emas.

Har qanday ishtirokchining ijtimoiy xavfli qilmishlari amalga oshirilgan jinoyat doirasida jinoiy oqibat vujudga kelishining zaruriy sharti bo'lishi kerak.

Ishtirokchilarning harakatlari birgalikda bo'lganligi haqidagi masala nafaqat obyektiv holatlar asosida, balki ko'p jihatdan subyekt alomatlariga ham bog'liq.

Ishtirokchilikning **subyekt belgilari** qatoriga quyidagilar kiradi:

– har bir ishtirokchining hamma uchun umumiy natijaga erishishga intilishi;

– jinoyatni birgalikda amalga oshirish haqidagi o'zaro xabardorlik va ishtirokchilar harakatlarining muvofiqlashganligi.

Jinoyat sodir etishda bir necha shaxslarning birgalikdagi harakati sof obyektiv holat, ya'ni ularning umumiy harakati bilan natijaga erishishdan tashqari, subyekt holatini — boshqa shaxslarning faoliyati qo'shilganligi haqida bilish va ularning harakatini birlashtirish yo'li bilan muayyan natijaga erishishga intilishni ham nazarda tutadi.

Ishtirokchilar o'rtasida jinoyatni sodir etishga oldindan kelishuv mavjud bo'lganda, birgalikni belgilash qiyinchilik tug'dirmaydi. Birgalikning subyekt holatlarini aniqlash jinoyatga ishtirokchilar o'rtasida oldindan kelishuv mavjud bo'lmaganda murakkablashadi.

Shaxs xatti-harakatida ikki holat: **umumiy harakatlar bilan muayyan natijaga erishishga intilish** hamda o'zlari uchun umumiy natijaga intilayotgan boshqa shaxslarning faoliyatini hisobga olish, boshqacha aytganda, **har bir ishtirokchi tomonidan boshqa ishtirokchilar jinoiy faoliyatini anglash** mavjudligi birgalikni aniqlash mezonidir.

Barcha ishtirokchilar uchun muayyan umumiy natijaga erishishga intilish – ishtirokchilikning zaruriy qismidir, aynan shu holat birgalikda sodir etilayotgan jinoyatga nisbatan har bir ishtirokchi niyatining yo'naltirilganligini tavsiflaydi. Bir necha shaxslar harakatini birlashtirish yagona jinoiy natijaga erishishni yengillashtirish zaruriyati bois yuzaga kelgan bo'ladi.

Birgalikda jinoyat sodir etish haqida o'zaro xabardorlik ishtirokchilardan har biri boshqalar bilan birgalikda bitta jinoyat sodir etishda qatnashayotganini anglashini nazarda tutadi.

Ishtirokchilarning o'zaro xabardorligi muvofiqlashganligi shu bilan tavsiflanadiki, jinoyatga ishtirokchilarning har biri, birinchidan, jinoyatni birgalikda sodir etilishi faktini, ikkinchidan, har qanday emas, muayyan jinoyat sodir etilishini, uchinchidan, nafaqat o'z qilmishining, balki boshqa ishtirokchilar (kamida bittasini) qilmishlarining ijtimoiy xavfli mazmunini anglaydi. Masalan, raqobatchini diskreditatsiya qilishda (JK 192-moddasi) oldindan yolg'on, noaniq yoki qing'ir axborot bir shaxs tomonidan tayyorlangan, amalda esa boshqa shaxs tomonidan oshkor etishga (televideniye orqali, gazetada chop etish va hokazo) berilgan bo'lishi mumkin, bunda, agar bajaruvchi o'zi berayotgan informatsiya yolg'onligini anglagan bo'lsa, mazkur jinoyatni sodir etishda ishtirokchilik sifatida kvalifikatsiya qilish mumkin.

Jinoyatning birgalikda sodir etilishini anglash ishtirokchi o'zining ma'lum jinoyat sodir etishga yo'naltirilgan harakatiga kamida bitta boshqa

ishtirokchining harakati ham qo‘shilgani haqida xabardorligini bildiradi. Bajaruvchi boshqa shaxslar bilan birgalikda jinoyat sodir etayotganligini anglamagan hamda mazkur shaxslar uning jinoiy niyatlarini bilmagan hollarda, ishtirokchilik istisno qilinadi.

Har bir ishtirokchi tomonidan o‘z harakatlarining ijtimoiy xavfliligini va jinoyat tarkibi alomatlari bilan qamrab olingan boshqa ishtirokchilar harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglash, birgalikdagi jinoiy faoliyatning ijtimoiy xavfli oqibatlari yuzaga kelishini oldindan ko‘ra bilishni ham nazarda tutadi.

Jinoyat ishtirokchilari harakatlarining o‘zaro muvofiqligi shaxslarning jinoyat sodir etishda niyatlar va xohish-istaklari o‘zaro ifodalanganligida namoyon bo‘ladi. Muvofiqlik jinoyatni birgalikda sodir etishning subyekt ifodasini, ishtirokchilar o‘rtasidagi birdamlikni subyekt tomondan tavsiflaydigan zaruriy ruhiy-psixologik aloqani aks ettiradi.

JK 27-moddasida belgilanuvchi ishtirokchilik tushunchasida jinoyatda barcha ishtirokchilar harakatlari qasddan qilinganlik mazmuniga ko‘rsatma mavjud bo‘lib, bu ehtiyotsizlik tufayli sodir qilingan jinoyatda ishtirokchilik mumkinligini istisno etadi.

Ishtirokchilar qasdining intellektual holati o‘z qilmishlari ijtimoiy xavfliligi va bajaruvchi qilmishining ijtimoiy xavfliligini oldindan anglashni qamrab oladi. Jinoyat ishtirokchilarining ongida bajaruvchi qilmishlarining taxminiy ijtimoiy xavfli oqibatlari, bajaruvchi qilmishi bilan jinoiy oqibati o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik rivoji ham umumiy chizgilar orqali qamrab olinadi.

Ishtirokchilar qasdining intellektual holati nafaqat bajaruvchi qilmishining obyektiv tomoniga taalluqli, balki jinoyat obyektiga va subyektiga – jinoyat bajaruvchisiga mansub holatlarni ham anglash bilan tavsiflanadi.

Ikki va undan ko‘proq shaxsning bitta jinoyat sodir etishdagi faoliyati birgalikdagi jinoyatga barcha ishtirokchilarning yagona, umumiy, har bir ishtirokchi ongi bilan qamrab olingan jinoyat obyektiga tajovuzi bilan shartlanadi.

Jinoyat ishtirokchilari JK Maxsus qismida bayon etilgan, jinoyat subyektini (bajaruvchini) tavsiflovchi zaruriy alomatlarni anglashlari lozim

(masalan, mansabdor shaxs, harbiy xizmatchi va hokazo). Zero, jinoiy qasd bilan harakat qilayotgan shaxs, jinoyatni sodir etishda, JK da mavjud qoidalarga ko‘ra, jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan boshqa shaxslardan (ruhiy kasallardan yoki jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan shaxslardan) jinoyatni bevosita bajaruvchilari sifatida foydalanib, bilvosita zarar yetkazgan holat, ishtirokchilikni tashkil etmaydi.

Ishtirokchilikda qasdning irodaviy holati, mazmuni yagona jinoiy natija yuzaga kelishini istash yoki shunga ongli ravishda yo‘l qo‘yish bilan tavsiflanadi.

Ishtirokchilarning motivlari va maqsadlari o‘zaro to‘g‘ri kelishi mumkin, biroq ular, odatda, jinoyat kvalifikatsiyasiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Sud-tergov amaliyoti bunda faqat mukofot evaziga sodir etilgan g‘arazli qotillik ishtirokchilari uchun istisno qiladi. Qotillikning mukofot taklif etgan tashkilotchisi (dalolatchisi) harakatlari, u ish yuritgan motivlardan kelib chiqqan holda JK 28-moddasi va 97-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiyalanishi lozim.

Jinoyat ishtirokchilari o‘rtasida g‘arazli maqsadlarda qasddan odam o‘ldirish haqida oldindan kelishuv mavjud bo‘lmagan taqdirda bajaruvchining harakatlari JK 97-moddasi 2-qismining «i» bandi bo‘yicha kvalifikatsiyalanadi, jinoyatning boshqa ishtirokchilari harakatlari esa JK 97-moddasining tegishli qismi bo‘yicha, mazkur moddaning ikkinchi qismi «i» bandini istisno etgan holda kvalifikatsiya qilinadi¹.

2-§. Jinoyat ishtirokchilarining turlari

JK 28-moddasi 1-qismiga muvofiq, bajaruvchilar bilan bir qatorda tashkilotchilar, dalolatchilar va yordamchilar ham jinoyat ishtirokchilari deb tan olinadi.

Jinoyat ishtirokchilarini alohida turlarga bo‘lish asosiga, ulardan har birining birgalikda amalga oshirilgan qilmishdagi funksional roli qo‘yilgan. **JK 28-moddasi** aytib o‘tilgan ishtirokchilar turlari o‘rtasidagi farqni har bir ishtirokchining jinoyat tarkibi obyektiv tomonini

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 24 сентября 2004 г. № 13 «О судебной практике по делам об умышленном убийстве» // Сборник, Т. 2. – С. 464.

bajarishdagi harakatlarini tavsiflash bo'yicha belgilaydi. Binobarin, ishtirokchilik turini belgilovchi asosiy mezonlardan biri, har bir ishtirokchining jinoyat sodir etishdagi ishtiroki xarakteri va darajasidir.

Jinoyat sodir etishda shaxs **ishtirokining xarakteri** har bir ishtirokchining funksional rolini belgilaydi.

Uning jinoyatdagi **ishtiroki darajasi** esa, shaxsning o'z rolini bajarish bo'yicha harakatlari jadalligi haqida, uning hamjihatlikda sodir etiluvchi jinoyatga hissasi haqida tasavvur beradi. Masalan, odam o'ldirishda yordamchilik shaxs jinoyat qurbonini qachon va qayerda poylash qulayroqligi xususida maslahat berganda yoxud bajaruvchining iltimosiga ko'ra, unga qotillik qurolini topib berishda, bajaruvchiga jinoyat joyidan tezda g'oyib bo'lishi uchun transport vositasini topib berishda va hokazolarda ifodalanishi mumkin. Har ikki holatda ham yordamchining funksional roli (ya'ni, ishtiroki xarakteri) bir xil, ammo ishtirok darajasi turlichadir. Bundan tashqari, aynan harakatlar tavsifi ishtirokchilarni turlarga ajratish imkonini beruvchi alomatlardir. Ishtirokchilar harakatlarining xarakteri qonun chiqaruvchi tomonidan «tashkil etdi», «rahbarlik qildi», «og'dirdi», «yordamlashdi» kabi ifodalarda tavsiflanadi. Shu tariqa faqat jinoyatdagi ishtirokida, ya'ni yagona jinoyatning tashqi tomonini bajarishda har bir ishtirokchi, bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar o'rtasidagi tafovutni topish, demak ular ayblanayotgan muayyan jinoyatlar tarkiblarini topish ham mumkin.

Ishtirokchilikda sodir etiluvchi jinoyatda **bajaruvchi** markaziy siymo hisoblanadi. Bajaruvchi o'zining qatorida boshqa funksional rolni bajaruvchi shaxslar – tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi harakat qilgan hollardagina mavjuddir.

NOTA BENE !

Jinoyatni bevosita to'la yoki qisman sodir etgan yoxud qonunga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib jinoyat sodir etgan shaxs **bajaruvchi** hisoblanadi (**JK 28-moddasi 2-qismi**).

Bajaruvchi yo'qligi jinoyatda ishtirokchilikni istisno etadi. Uning xatti-harakati jinoyatning boshqa ishtirokchilari qilmishini yuridik baholashga ham ta'sir ko'rsatadi. Muayyan jinoyat subyektini tavsiflovchi alomatlarga ega shaxsgina bajaruvchi deb tan olinishi mumkin, aks holda uning qilmishida jinoiy javobgarlikka jalb etishning zaruriy sharti mavjud bo'lmaganligi bois, jinoyat tarkibi bo'lmaydi. Bu nafaqat barcha subyektlarga xos umumiy belgilarga (muayyan yoshga yetish, aqli rasolik), balki maxsus subyektini tavsiflovchi alomatlarga ham daxldordir. Agar JKning Maxsus qismi moddasi, maxsus subyekt mavjudligini talab etib, jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ushbu maxsus subyekt alomatlariga ega bo'lmasa (masalan, mansabdor shaxs, harbiy xizmatchi, tergovchi, sudya va hokazo bo'lmasa), u holda shaxs mazkur jinoyat tarkibining obyektiv tomoniga kiruvchi muayyan harakatlarni amalga oshirganda ham, jinoyatning bajaruvchisi deb tan olinishi mumkin emas.

JK 28-moddasi 2-qismi holatlaridan kelib chiqib, bajaruvchilikning bir necha muhim belgilarini ajratish mumkin:

- jinoiy qasdni, ya'ni jinoyatni to'liq yoki qisman bajarish;
- jinoyatni bevosita sodir etish;
- jinoyatni qonun kuchiga ko'ra javobgarlikka tortilmaydigan boshqa shaxslardan yoki o'zga vositalardan foydalanish orqali sodir etish (jinoiatni bilvosita sodir etish).

Jinoyatni to'liq sodir etish – bu JK Maxsus qismi moddasi dispozitsiyasidagi ta'rifiga muvofiq qilmishni to'liq hajmda bajarishdir. Mazkur holatda jinoyatda jinoyat tarkibining obyektiv tomoni to'liq bajariladi.

Jinoiy qasdni qisman bajarish jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holda tugallanmay qolgan yoki modda dispozitsiyasida (jinoyatlarning moddiy tarkiblarida) ko'zda tutilgan jinoiy oqibatni yuzaga keltirmagan qilmishni sodir etishda ifodalanadi.

Jinoyatni bevosita sodir etish shuni bildiradiki, shaxs muayyan jinoyat tarkibining obyektiv belgilarini qamrab oladigan qilmishni amalda sodir etadi. Bunda bajaruvchi yakka tartibda hamda boshqa shaxslar (birgalikda bajaruvchilar) bilan birga harakat qilishi mumkin. Keyingi

holatda birgalikda bajaruvchilar o'rtasida rollar taqsimlangan bo'lib, ularning har biri jinoiy qilmishning obyektiv tomonini qisman bajaradi. Masalan, bosqinchilik hujumini sodir etishda bir bajaruvchi jabrlanuvchi hayot yoki sog'lig'i uchun xavfli zo'rlikni qo'llaydi yoki shunday zo'rlikni qo'llash bilan tahdid qiladi, boshqasi esa jabrlanuvchining mol-mulkini egallaydi, bunda ikki subyekt ham jabrlanuvchi mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida harakat qilishadi.

Birgalikda bajaruvchilik tushunchasi jinoiy qonunchilikda mavjud emas. Biroq jinoyatda shunday ishtirokchilik mavjudligi Oliy sud Plenumi tushuntirishlarida ishtirokchilik shakli¹ hamda ishtirokchilik turi² sifatida nazarda tutiladi.

Jinoyatni bilvosita sodir etish shundan iboratki, bajaruvchi jinoyatni sodir etish uchun boshqa shaxsning jismoniy harakatlaridan foydalanadi.

Tergov va sud jinoyatning obyektiv tomoni aqli norasoligi yoki tegishli yoshga yetmaganligi sababi bo'yicha jinoiy javobgar bo'lmaydigan shaxslar tomonidan bevosita amalga oshiriladigan holatlarga alohida e'tibor qaratishi lozim. Masalan, agar jinoyat muayyan qilmishi uchun jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilsa, uni jinoyat sodir etishga og'dirgan shaxs mazkur jinoyat bajaruvchisi hisoblanadi, uning voyaga yetmaganga nisbatan harakatlari esa qo'shimcha tarzda JK 127-moddasi 3-qismi bo'yicha voyaga yetmagan shaxsni jinoyat sodir etishga jalb qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi shart.

«Voyaga yetmaganlarning katta yoshdagilar ishtirokida sodir etgan jinoyatlari haqidagi ish ko'rib chiqilayotganda katta yoshdagi shaxs va o'smir o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatini sinchiklab aniqlash lozim, chunki ana shu ma'lumotlar katta kishining voyaga yetmagan shaxsni jinoyat yoki g'ayriijtimoiy harakat sodir etishga jalb qilishdagi rolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

¹ «Действия лиц, совершивших угон транспортных средств в составе организованной группы, независимо от роли каждого участника, должно рассматриваться как **соисполнительство**» (см.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 20 декабря 1996 г. № 37 «О судебной практике об уgone транспортных средств» // Сборник. Т. 1. – С. 321).

² См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 3 февраля 2006 г. № 1 «О практике назначения судами уголовного наказания» // Сборник. Т. 2. – С. 493.

Sudlarga 18 yoshga to'lgan va jinoyatni qasddan sodir etgan shaxslariga voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin ekanligi tushuntirilsin. Shuningdek, katta yoshdagi kishi o'z harakatlari bilan voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilayotganini bilgani holda yoki shunday fikrga yo'l qo'yganini ham aniqlash lozim. Agarda katta yoshdagi kishi shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilsa-yu, uning voyaga yetmaganligini bilmasa yoki bilishi mumkin bo'lmasa, bu holda JKning 127-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas»¹.

Mazkur holatda, aqli noraso shaxs tomonidan boshqa shaxs ko'rsatmalari asosida jinoyat sodir etilgani kabi, ko'rsatma bergan shaxs harakatlari bajaruvchilik sifatida, amalda jinoyatni sodir etgan shaxs harakatlari esa, jinoyat quroli sifatida tavsiflanishi shart.

Oxirgi zarurat holatida turgan boshqa shaxslarni majbur qilgan holda o'z jinoiy maqsadiga erishgan shaxslarni ham jinoyatning bilvosita bajaruvchilari sifatida tan olish lozim. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, bayon etilgan vaziyatda bevosita «bajaruvchi»ga nisbatan uni o'z irodasiga qarshi harakat qilishga majburlash maqsadida ruhiy yoki jismoniy majbur qilishdan foydalaniladi. Masalan, do'kon kassiri to'pponcha qaratilgani bois pullarni kassadan oladi va ularni jinoyatchiga beradi.

Nihoyat, bilvosita jinoyat sodir etilishi aybsiz holda harakat qiladigan bevosita «bajaruvchi»da jinoyat tarkibining asosiy obyektiv alomatlariga nisbatan xato mavjud bo'lgan hamda bilvosita bajaruvchi shunday xatoni yuzaga keltirgan yoki atayin foydalangan hollarda ham uchraydi. Misol uchun, kontrabanda jinoyatchi samolyotda hech nimadan shubhalanmayotgan yo'lovchidan boshqa shahardagi tanishiga «jo'natma»ni yetkazishni iltimos qiladi, yoki, firibgar mashina o'g'risi o'z avtomobili kalitini yo'qotganligi bahonasida tasodifiy o'tkinchidan transport vositasini harakatlantirishga yordam berishini so'raydi.

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 15 сентября 2000 г. № 21 «О судебной практике по делам о преступлениях несовершеннолетних» (с изменениями и дополнениями, внесенными постановлением Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 июня 2002 г. № 10 и 3 февраля 2006 г. № 5) // Сборник, Т.2. – С. 301.

JK 28-moddasi 2-qismida jinoyatni sodir etishda bajaruvchi tomonidan «oʻzga vositalar»dan foydalanish haqida ham soʻz yuritiladi. Mazkur holatda gap, jinoyat quroli yoki vositasi sifatida foydalanish mumkin boʻlgan, yuqori xavflilik manbai haqida boradi. Fuqarolik huquqida yuqori xavflilik manbai tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning egasi javobgar hisoblanadi. Jinoyat qonunchiligida mazkur prinsipdan foydalanish mumkin emas, chunki javobgarlik jinoyatni sodir etgan shaxs zimmasida hisoblanadi. Shu munosabat bilan avtomobil egasi emas, avtomobilni bevosita boshqarib, bevosita oʻzga shaxsni urib yuborgan shaxs javobgar boʻladi. Yuqori xavflilik manbalaridan jinoyat sodir etish vositalari (yoki qurollari) sifatida foydalanish holatlari ham aynan shunday kvalifikatsiyalanishi shart.

Bajaruvchi sodir etgan jinoyatining subyekt tomoni **toʻgʻri** yoki **egri qasd** bilan xarakterlanadi. Bajaruvchi boshqa ishtirokchilar bilan birgalikda oʻzi sodir etayotgan harakatlarining ijtimoiy xavfli xarakterini anglaydi, ular uchun umumiy, yagona oqibat yuzaga kelishi mumkinligi yoki muqarrarligini oldindan koʻra biladi va shu oqibatining yuzaga kelishini istaydi yoki ongli ravishda shunga yoʻl qoʻyadi.

Jinoyat tashkilotchisi – jinoyat ishtirokchilari ichida eng xavfli kishidir. U, odatda, jinoyat tashabbuskori boʻladi, muayyan jinoyatni sodir etish «gʻoya»si unga tegishli boʻladi, shundan soʻng u amalga oshirgan barcha narsa (ishtirokchilarni izlab topish va birlashtirish, jinoyat sodir etish rejasini ishlab chiqish va ishtirokchilar harakatini uning ijrosiga yoʻnaltirish, zaruriyatga koʻra ishtirokchilar harakatlarini muvofiqlashtirish hamda toʻgʻirlash va h.k.) jinoiy qasdni bajarishga yoʻnaltirilgan boʻladi.

Shu oʻrinda yodda tutish lozimki, jinoyatni sodir etishda tashabbus faqat tashkilotchiga tegishli boʻlmasligi ham mumkin. Gʻayriijtimoiy kayfiyatdagi shaxslar guruhi mavjud muayyan sharoitlarda, jinoyat bajaruvchilaridan biri ham tashabbuskor boʻlib, uning roli jinoyatni sodir etish haqida fikr bildirishda ifodalanadi. Sud amaliyotida shunday «tashabbus» namoyon boʻlishiga, masalan, bir guruh shaxslar tomonidan bezorilik, nomusga tegish va hokazo jinoyatlarda duch kelish mumkin.

Jinoyat tashabbuskori dalolatchi bo'lishi ham mumkin. Uning roli jinoyat bajaruvchisida yoki boshqa ishtirokchilarda jinoyat sodir etishga qasd tug'dirishda mujassamlashadi. Dalolatchi undan nariga bormaydi. Agar u ishtirokchilarni birlashtirish, ularga jinoyat sodir etish rejasini tayyorlash uchun harakatlar qilsa, ishtirokchilar faoliyatiga rahbarlik qilsa, u tashkilotchiga aylanadi.

NOTA BENE !

Jinoyatning tayyorlanishiga yoki sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs **tashkilotchi** deb tan olinadi (**JK 28-moddasi 3-qismi**).

JK 28-moddasi 3-qismidagi qoidalardan kelib chiqqan holda tashkilotchilik faoliyatining ikki turini ajratish mumkin:

- jinoyatga tayyorgarlik ko'rishga rahbarlik qilish;
- jinoyatni sodir etishga rahbarlik qilish.

Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmani tashkil qilish yoxud unga rahbarlik qilishni ham tashkilotchilik faoliyatining turi deb tan olish lozim. Mazkur holatda tashkilotchi javobgarligi JK Maxsus qismi (242-modda) normalari bilan belgilanadi va binobarin, alohida turdagi jinoyatni tashkil etadi. Tashkilotchi rollar taqsimoti bilan ishtirokchilik doirasida harakat qilgan bo'lsa, uning javobgarligi JK Umumiy qismida ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha yuzaga keladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rishga rahbarlik qilish jinoiy faoliyatga tayyorgarlikda, aynan: jinoyatni tashkillashtirishda, ishtirokchilarni yollashda, ularni jinoyat sodir etish qurollari va vositalari bilan ta'minlashda, jinoiy rejalarini ishlab chiqishda, ishtirokchilar o'rtasida rollarni taqsimlashda va hokazolarda ifodalanadi.

Mazkur bosqich oldindan kelishuv bilan qamrab olinadi, chunki buningsiz jinoyat sodir etishning tayyorgarlik bosqichiga rahbarlik qilish mumkin emas. Biroq bu ishtirokdagi jinoyat tashkilotchisi amalda uyushgan guruh tashkilotchisi va rahbariga aylanishini bildirmaydi. Uyushgan guruh uchun jinoiy faoliyatni amalga oshirishda barqarorlik va yaqqol ifodalangan jinoiy yo'naltirilganlik xosdir. Mazkur holatda

oldindan kelishgan bir guruh shaxslar tomonidan jinoyat sodir etish ko‘rinishidagi ishtirokchilik shakli mavjud (Masalan, JK 135-moddasi 2-qismi «e» bandi, 137-moddasi 1-qismi «v» bandi, 164-moddasi 2-qismi «b» bandi).

Jinoyatni tashkil qilishning ikkinchi shakli shundan iboratki, tashkilotchi jinoyat tashabbuskori bo‘lmagani holda jinoiy qasd amalga oshirilishini ta’minlab, ishtirokchilar jinoiy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi.

Jinoyatni sodir etishga rahbarlik qilish bevosita jinoyat sodir etilish vaqtida ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirib, tartibga solishni o‘zida ifoda etadi. Odatda, rahbarlik jinoyat sodir etish joyida amalga oshiriladi va bajaruvchi (bajaruvchilar) harakatini boshqarishdan iborat bo‘ladi. Biroq tajovuz joyida turmasdan, zarur ko‘rsatmalarni bajaruvchiga kommunikatsiya vositalari yordamida (telefon, ratsiya va boshq.) bergan shaxs ham jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilishi mumkin.

Ishtirokchilikda muayyan jinoyatni sodir etishda tashkilotchi jinoyat tarkibining amalda bajarilishida qatnashgani yoki qatnashmaganligidan yoxud faqat jinoyatni bevosita bajaruvchilari jinoiy faoliyatining muvaffaqiyatiga sabab bo‘lgan harakatlarni sodir etishidan qat’i nazar, jinoiy faoliyat rahnamosi, rahbari sifatida jinoyatni bevosita sodir etishga rahbarlik qiladi.

Jinoyat tashkilotchisi doimo **to‘g‘ri qasd** bilan harakat qiladi. U ishtirokchilar bajarishi shart bo‘lgan harakatlar mazmunini anglaydi, o‘z faoliyati natijasida jinoyat sodir etilishi mumkinligini oldindan ko‘ra biladi va shuni istaydi ham. Jinoyat tashkilotchisi o‘z qilmishi va boshqa ishtirokchilar qilmishlari ijtimoiy xavfli xarakterini anglaydi, ba’zi holatlarda guruh tarkibi haqida ma’lumotga ega (jinoyat sodir etishga tayyorgarlik qilishga rahbarlik holatida), butun guruh faoliyatining natijasida ijtimoiy xavfli oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligi yoki muqarrarligini oldindan ko‘ra biladi hamda ushbu oqibatlar yuzaga kelishini istaydi ham.

Agar tashkilotchi jinoyatning tayyorlanishiga yoki sodir etilishiga rahbarlik qilgan bo‘lsa-da, biroq jinoyat tarkibining obyektiv tomoni

bajarilishida bevosita ishtirok etmasa, uning harakatlari **JK 28-moddasi 3-qismi** va JK Maxsus qismining jinoyat bajaruvchisi uchun javobgarlikni ko‘zda tutadigan tegishli modda bo‘yicha tasniflanadi.

NOTA BENE !

Jinoyat sodir etishga qiziqtirgan, ya’ni qasddan boshqa shaxsda qonun bilan taqiqlangan muayyan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishga qat’iyat uyg‘otgan shaxs **dalolatchi** deb topiladi (**JK 28-moddasi 4-qismi**).

Dalolatchilik – bu muayyan shaxs yoki bir guruh shaxslarni muayyan aniq bir jinoyat sodir etishga qiziqtirishdir. Umuman, jinoiy faoliyatga yoki noaniq shaxslar doirasiga qarata qilingan da’vat dalolatchilik hisoblanmaydi. Dalolatchilik obyekt bo‘yicha ham, subyekt bo‘yicha ham aniqlashtirilgan bo‘lishi shart.

Jinoyat sodir etishga da’vat etsa-da, jinoyat aynan qaysi obyektga qarshi qaratilishini ko‘rsatmaydigan shaxs dalolatchi deb topilishi mumkin emas.

Umuman olganda, jinoyat sodir etishga umumiy yoki noaniq shaxslar guruhini dalolat qilish dalolatchilik hisoblanmaydi. Bunday harakatlar muayyan hollarda alohida jinoyat tarkibini tashkil qilishi mumkin. Masalan, davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof ravishda o‘zgartirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish jinoyati (JK 159-moddasi), qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rluk bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etish (JK 244¹-moddasi).

Dalolatchining qonuniy ta’rifida unda amalga oshiriladigan vosita va shakllar aks etmagan. Dalolatchilik vosita va shakllarining to‘la ro‘yxatini mustahkamlab qo‘yish mumkin emas, shuning uchun u turli xil harakatlarda ifodalanishi mumkin. Bu yerda dalolatchi qanday vosita va shakllarni ishga solgani emas, balki bu vositalar qanchalik samara bergani muhimdir. Shuning uchun alohida hollardagina dalolatchi tomonidan ishlatilgan u yoki bu vosita va shakllarning samaradorligi haqida so‘z yuritish mumkin.

Dalolatchilik og‘dirib olish, iltimos qilish, ishontirish, undirish, buyruq berish, zo‘rluk ishlatish, aldash va boshqa yo‘llar bilan amalga

oshirilishi mumkin. Dalolatchilikning bu tashqi ifodalanish shakllari yozma yoki og‘zaki faoliyatda, konklyudent yoki boshqa harakatlarda (imo-ishora va boshq.) yuzaga chiqishi mumkin.

Majburlash jismoniy yoki ruhiy bo‘lishi mumkin. Ruhiy majburlash ko‘pincha, dalolatchi tomonidan qo‘rqitish orqali sodir etiladi. Dalolatchi, masalan shaxsni do‘pposlash vositasida uni jinoyat sodir etishga majburlashi, aynan shu maqsadga dalolatchi kaltaklash yoki unga boshqa zarar yetkazish tahdidi vositasida erishishi ham mumkin. Ushbu ma’noda tahdid ruhiy majburlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Buyruq berish dalolatchilik vositasi sifatida faqatgina dalolatchiga xizmat bo‘yicha bo‘ysunadigan shaxslarga nisbatan ishlatilishi mumkin.

Jinoiy buyruqni qonuniy ijro etish natijasida bevosita sodir etgan xizmat bo‘yicha bo‘ysunuvdagi shaxs o‘zining sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikka tortilmaydi. Bu hollarda noqonuniy buyruq bergan yoki majburlagan shaxs, agar (harbiy xizmatchilar, mansabdor shaxslar uchun) majburiy bo‘lsa, bevosita zarar yetkazuvchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Ishontirish dalolatchi tomonidan jinoyat sodir etish motivi bo‘lib keladigan holatlarni bajaruvchi yoki yordamchiga xabar qilishdan iborat. Dalolatchilik vositasi sifatida ishontirishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, tashqi tomondan dalolatchining jinoyatda o‘z manfaatlarini bo‘lmaydi. Bajaruvchining irodasiga ta’sir etib, dalolatchi u yoki bu qilmishni sodir etishning maqsadga muvofiqligi va zarurligiga, jinoyat sodir etilishi bajaruvchi manfaatlarida ekanligiga ishontirishga harakat qiladi.

Ishontirish obyektiv tomondan dalolatchi va u qiziqtirayotgan shaxs orasida aloqalarni talab etuvchi davomli jarayondir. Aloqa vaqtida dalolatchi bajaruvchi tomonidan qaror qilinishiga turtki beruvchi motivlarni tug‘dirishgagina emas, balki dalolatchi istagan qarorning qabul qilinishiga to’sqinlik qiluvchi motivlarni kuchsizlantirishga, yo‘q qilishga harakat qiladi.

Ishontirishga yaqin bo‘lgan boshqa bir vosita — shaxsda jinoyat sodir etishga bo‘lgan qat’iyatni uyg‘otuvchi bir vaqtning o‘zidagi akt sifatidagi

maslahatdir. Bu borada dalolatchilikning maslahatini jinoyatdagi aqliy yordamchilikni tashkil etuvchi yordamchilik maslahatidan ajrata bilish lozim. Dalolatchining aqliy yordamchidan farqini qo'llanilgan vositalar emas, balki bajaruvchida uyg'otiladigan motivlar bilan bog'liq holda qarash kerak. Ishontirishda dalolatchi tashqi tomondan jinoyatga hech qanday aloqasi bo'lmagandek ko'rinsa-da, uning manfaatlari jinoyatni sodir etgan bajaruvchining manfaatlariga ma'lum darajada mos keladi. Dalolatchi qiziqtirilayotgan shaxsda jinoyat sodir etish istagini uyg'otadi, aqliy yordamchi esa faqatgina mavjud istakni mustahkamlaydi, yangilarni keltiradi, jinoyat sodir etishga qo'shimcha motivlar uyg'otadi. Shu sababli muayyan holda dalolatchilikmi yoki aqliy yordamchilik bo'lganligini aniqlash maqsadida maslahatning shaxsda mavjud jinoiy istakni mustahkamlash va yo'naltirishga yoki bu istakni uyg'otishga olib kelganligini bilish lozim.

Iltimos ishontirish va maslahatdan farqli ravishda dalolatchining manfaatlariga asoslanadi. Iltimos yordamida dalolatchi bajaruvchini bevosita o'zining yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari uchun xizmat qiluvchi harakatlarni sodir etishga undaydi. Shubhasiz, iltimos dalolatchi tomonidan faqat o'zining tanishlari, do'stlari va xizmatdoshlariga qilinishi mumkin. Dalolatchilik vositasining ruhiy ta'siri, asosan, dalolatchilik va qiziqtirilayotgan shaxs o'rtasidagi munosabatlarning tabiatiga bog'liq.

Ko'ndirish iltimosdan shunisi bilan farq qiladiki, dalolatchi shaxsni jinoyat sodir etishga rozi qilish uchun o'zining bor imkoniyatini ishga soladi. Ko'ndirish bir necha marta iltimos qilish shaklida bo'lishi mumkin.

Amaliyotda dalolat qilishning boshqa turlari ham uchraydi. Jinoyat qilish uchun mukofot va'da qilish, to'g'ridan-to'g'ri **shaxsni sotib olish** yoki aldash bunga misol bo'ladi. Bu kabilar amaliyotda «buyurtma» jinoyatlar deb nomlanadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, agar shaxs rag'batlantirish orqali jinoiy niyatni yuzaga keltirsa, bunda dalolatchilik sifatida, agar unga alohida shartlar qo'ysa, jinoyatni rejalashtirib, uning tartibini o'rnatsa, bu faoliyat tashkilotchilik sifatida baholanishi, shaxsning o'zi esa tashkilotchi deb topilishi shart.

Yuqorida sanab o‘tilgan dalolatchilikning barcha vositalari amaliyotda ko‘p uchraydi. Biroq, ular dalolatchilik vositasi sifatida muayyan sharoitda, aniq holatlarda tan olinishi kerak. O‘z navbatida, subyektning har qanday boshqa harakatlari, agar uning yordamida jinoyat bajaruvchisida ko‘zda tutilgan jinoiy niyatning amalga oshirilishiga qat’iylik va ishonch yuzaga kelgan hamda shakllangan bo‘lsa, dalolatchilik deb tan olinishi zarur. Ko‘zda tutilayotgan bajaruvchining subyekt xususiyatlarini hisobga olgan holda dalolatchi do‘q-po‘pisa, xushomad, ba‘zan esa ishora, yo‘l-yo‘lakay tashlangan so‘z kabilarga murojaat qilishi mumkin.

Obyektiv tomondan dalolatchilik faqatgina muayyan bajaruvchini jinoyat sodir etishga qiziqtirishga yo‘naltirilgan faol harakatlar bilan ifodalanadi. Harakatsizlik natijasida shaxsni jinoyat sodir etishga jalb etish mumkin emas, harakatsizlik faqatgina jinoyat sodir etishga yordam berishi mumkin, bu esa dalolatchilik chegarasidan chiqadi va muayyan holatlarda yordamchilik bo‘ladi. Konklyudent rozilik yoki muayyan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish bilan bog‘liq bajaruvchining harakatlarini so‘zsiz qabul qilish dalolatchilik sifatida ko‘rilishi mumkin emas.

Dalolatchilikning subyekt tomoni dalolatchi qanday harakat sodir etishidan qat’i nazar, bajaruvchida jinoyat sodir etish istagini uyg‘otishga va bu istakni so‘ndirmaslikka harakat qilishda ifodalanadi. Dalolatchi qilmishini kvalifikatsiya qilish va jinoiy javobgarlikka tortish uchun uning qanday motivlar hamda maqsadlarda ish yuritganligining ahamiyati yo‘q. Shuning uchun u boshqa shaxsni keyinchalik uni fosh etish maqsadida jinoyat sodir etishga qiziqtirgan, ya’ni «jinoyat provokatsiyasi» holida ham javobgarlikka tortiladi.

Dalolatchi, odatda, ishtirokchi-bajaruvchi tomonidan sodir etilgan muayyan jinoyat obyektiv tomonini tashkil etuvchi harakatlarni amalga oshirishda bevosita ishtirok etmaydi, dalolatchining harakatlari Jinoyat kodeksi Maxsus qismining bajaruvchi tomonidan sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bo‘yicha, **JK 28-moddasi 4-qismiga** tayangan holda kvalifikatsiya qilinadi.

Dalolatchi bajaruvchilardan biri sifatida jinoyat sodir etishda bevosita ishtirok etgan va bir vaqtning o'zida tajovuz tashabbuskori bo'lganida birgalikdagi bajaruvchilik holati sud tomonidan jazoni individuallashtirishda inobatga olinishi lozim.

Jinoyatning sodir etilishidagi o'zining obyektiv roli bo'yicha **yordamchi**, (ba'zi istisnolar bilan) boshqa ishtirokchilarga qaraganda kamroq xavf tug'diruvchi shaxsdir: jinoyatni sodir etish tashabbusi unga tegishli bo'lmaydi, u boshqa shaxslarning jinoiy faoliyatiga rahbarlik qilmaydi. U bajaruvchiga faqatgina uning jinoiy niyatining amalga oshirilishida jinoyat tarkibining obyektiv tomonini tashkil etuvchi harakatlarni bajarmasdan ko'maklashadi. Biroq mazkur chegaralarda ham yordamchilarning harakat doirasi juda keng bo'lishi mumkin: qasddan odam o'ldirish, o'g'rilik va boshqa shu kabilarning ko'zda tutilayotgan jarblanuvchilar oila a'zolari tarkibi haqidagi ma'lumotlarni bajaruvchiga yetkazishidan tortib unga jinoyat sodir etish qurollarini taqdim etishigacha.

NOTA BENE !

Jinoyat sodir etilishiga maslahat, ko'rsatma berish, jinoyat qurollarini taqdim qilish, to'siqlarni bartaraf etish, shuningdek, jinoyat izlarini va vositalarini yoki jinoiy yo'l bilan topilgan buyumlarni olish yoki sotib berishga oldindan va'da beradigan shaxs **yordamchi** deb topiladi (**JK 28-moddasi 5-qismi**).

Qonunda berilgan ta'rifda nafaqat yordamchi faoliyatining yo'nalishi (jinoyat sodir etishga ko'maklashish) belgilab berilgan, balki yordamchilarning uslub va vositalari ro'yxati berilgan. **JK 28-moddasi 5-qismida** sanab o'tilganidan boshqa hech bir harakat yordamchilik sifatida tan olinishi mumkin emas.

Qo'llaniladigan vosita va usullardan kelib chiqib yordamchilikning ikki turini – intellektual (aqliy) va jismoniy turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Intellektual yordamchilik – bajaruvchi ongi va irodasiga ruhiy ta'sir etishdir. Bu ma'noda aqliy ta'sir belgilariga ega va ular bilan

tavsiflanadigan harakatlar bajaruvchining ongli va irodaviy faoliyatiga ta'sir etadi. Bu harakatlar bajaruvchi jinoyiy niyatining qat'iylovini mustahkamlash va yordamchining muayyan ishontirishlari yordamida qasdning yanada aniqlashuviga ko'maklashadi.

Intellektual yordamchilik quyidagilardan iborat:

– jinoyat sodir etilishiga maslahatlar va ko'rsatmalar berish bilan ko'maklashish;

– jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoyiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirishga oldindan va'da berish;

– jinoyiy yo'l bilan topilgan buyumlarni olish yoki sotib berishga oldindan va'da berish.

Agar, jinoyat sodir etish xohish-istagi oldindan mavjud bo'lib, **maslahat va ko'rsatmalar** ushbu istakni mustahkamlashga yo'naltirilgan taqdirda, yuqorida ta'kidlanganidek, dalolatchilik emas, yordamchilik vositasi sifatida tan olinadi.

Ruhiy (aqliy) yordamchilikka jinoyat sodir etgan shaxsni yoki jinoyat hodisasi bilan faktik yaxlitlikni tashkil etuvchi boshqa element va belgilarni yashirishga va'da berish hollari kiradi. Ularga, xususan, jinoyat qurol va vositalari, jinoyat izlari va narsalari kiradi.

Jinoyat izlari – jinoyat hodisasi haqida guvohlik beruvchi mavjud voqelikda aks etgan faktik, ko'pincha, salbiy xarakterdagi ma'lumotlardir. Ularga, jumladan, poyafzal izlari, olishuv izlari, barmoq va qo'l izlari va shu kabilar, biologik chiqindi va qoldiqlar (qon, suyuqlik, soch va hokazo), murda kabilar kiradi.

Bajaruvchiga yuqorida sanab o'tilgan jinoyat elementlarini jinoyatchi bilan bir qatorda **yashirish va'dasini berayotib**, yordamchi shu orqali bajaruvchida qilmishga nisbatan qat'iyatni mustahkamlaydi, uning qasdi shakllanishiga ko'maklashadi. Yordamchining ishontirishlari bajaruvchida uni yashirish, u haqda xabar bermasliklari, unga to'sqinlik qilmasliklari umidiga asoslangan jinoyat sodir etish niyatini kuchaytiradi. Bunda yordamchining o'z va'dasining ustidan chiqishi yoki chiqmasligining

ahamiyati yo‘q, chunki u sodir etilayotgan jinoyatda o‘zining vazifasini ado etdi – qilmishga nisbatan bajaruvchining qat’iyatini mustahkamladi.

Agar mazkur shaxsni va jinoyatga oid boshqa elementlarni yashirish haqida bajaruvchiga oldindan va’da berilmagan bo‘lsa, ular jinoyatda ishtirokchilik sifatida emas, balki jinoyatga daxldorlik kabi baholanishi shart.

(Jinoyatga daxldorlik haqida mazkur bobning 5-§ da to‘liqroq so‘z yuritiladi.)

Jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni **olish yoki o‘tkazish oldindan va’da berilgan** bo‘lsa, yordamchining xatti-harakati jinoyatning obyektiv tomonini tashkil qiladi. «... Jinoiy yo‘l bilan topilgan mahsulotni oldindan va’da bergan holda olish yoxud uni aynan bir shaxsning o‘zidan, bu mahsulotni sotishda unga ko‘maklashayotganini bilgani holda, doimiy ravishda olish jinoyatda yordamchi tariqasidagi ishtirokchilik qilish deb baholanmog‘i kerak»¹.

Jinoyat sodir etgan shaxsni, jinoyat quroli, vositalari va izlari, shuningdek, jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni yashirish vaziyatidagi kabi jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni olish yoki o‘tkazish to‘g‘risida va’da berish jinoyat sodir etishdan oldin yoki jinoyat sodir etish vaqtida amalga oshirilishi lozim. Zero, bu yerda so‘z narsalarni olish yoki o‘tkazish haqida emas, balki aynan va’da berish haqida bormoqda. Biroq, agar shaxs jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan narsalarni olishi yoki o‘tkazishi fakti bajaruvchi bilan kelishib olinmagan bo‘lsa, narsalarni oluvchi yoki o‘tkazuvchining harakatlari yordamchilik turidagi ishtirokchilik belgilarini tashkil etmaydi. Bunday holatlar subyekt mol-mulkning noqonuniy topilganligi fakti haqida oldindan bilganligi sharti bilan JK 171-moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jismoniy yordamchilikka bajaruvchiga jinoyatning obyektiv tomonini bajarishga imkon beruvchi harakatlar mansubdir. Agar ruhiy yordamchilik muayyan turdagi ishontirishlar orqali mavjud jinoiy niyatni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lsa, jismoniy yordamchilikda shaxs

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 20 декабря 1996 г. № 36 «О судебной практике по делам о преступлениях и иных правонарушениях в сфере охраны окружающей среды и природопользования» // Сборник, Т.1. – С. 317-318.

jinoyat vositalarini yetkazib berish yoki shart-sharoit yaratib berish orqali jinoyat sodir etish imkonini vujudga keltiradi.

Jismoniy yordamchilik quyidagilarda ifodalanadi:

– jinoyat sodir etish uchun bajaruvchiga zarur vositalarni yetkazib berish (masalan, katta miqdordagi mol-mulkni o‘g‘irlash jinoyatini amalga oshirish uchun mashina taqdim etish);

– bajaruvchi sodir etadigan jinoyatga qo‘yilgan to‘siqlarni olib tashlash (masalan, moddiy qimmatliklar omborini talon-toroj qilish uchun ochiq qoldirish).

Jinoyat sodir etish vositalarini yetkazib berish yordamchi tomonidan bajaruvchiga atrofdagi moddiy dunyoga tegishli, jinoiy qilmishni amalga oshirish uchun ishlatiladigan zarur bo‘lgan turli buyumlarni topshirishda ifodalanadi. Bularga lom, qurol, transport vositalari, yoqilg‘i materiallari va boshqa shu kabilar kirib, ular o‘z xossalari bo‘yicha bajaruvchiga muayyan jinoyat obyektiv tomonini amalga oshirishga ko‘maklashish imkoniyatiga ega bo‘lgan moddiy dunyoning turli xil narsalari xizmat qilishi mumkin.

Bajaruvchi tomonidan jinoyat sodir etishda to‘siqlarni olib tashlash ikki xil mazmunga ega. Birinchi holatda u tevarak-atrofdagi bajaruvchi jinoiy niyatini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiluvchi u yoki bu elementlarni olib qo‘yishdan iborat o‘zgarishlarda aks etadi. Ikkinchi holatda esa, aksincha, tevarak-atrofdagi bajaruvchiga jinoyat obyektiv tomonini amalga oshirishga yordam berishga mo‘ljallangan biror-bir narsalar bilan to‘ldirish ko‘zda tutiladi.

To‘siqlarni bartaraf qilish, masalan qo‘riqchilar yoki jinoyat guvohlarining diqqatini chalg‘itish, signalizatsiyani uzib qo‘yish va hokazo kabi harakatlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Yordamchining harakatlari, jinoyat boshqa ishtirokchilarining harakatlari singari, ishtirokchilik haqida birgalikdagi jinoiy faoliyat sifatida guvohlik berishi uchun bajaruvchining harakatlari bilan sababiy bog‘liqlikda bo‘lishi lozim. Bu holat yordamchining xatti-harakatlari bajaruvchilikidan oldin yoki uning qilmishi bilan bir vaqtda amalga oshirilgandagina yuzaga chiqishi mumkin. Agar yordamchining faoliyati

bajaruvchi tajovuzi nihoyasiga yetgan lahzadan keyin amalga oshirilgan bo'lsa, bu faoliyat bajaruvchi qilmishi bilan sababiy bog'liqlikda bo'lmaganligi uchun yordamchilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Obyektiv tomondan yordamchilik faol harakat, shuningdek, harakatsizlik orqali amalga oshirilishi mumkin. Biroq, yordamchi harakatsizlikda, faqatgina qonun bilan unga harakat qilish majburiyati yuklangan bo'lgandagina ayblanishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, yordamchining xatti-harakatlari ular qanday shaklda amalga oshirilishidan qat'i nazar, qay bir tarzda yordam berishdan tashqari, JK Maxsus qismi moddasida ko'rsatib o'tilgan jinoyatning obyektiv tomonini ifodalamasligi shart. Aks holda yordamchi bajaruvchiga qilmishning obyektiv tomonini bajarishda yordam bersa, uning ishtirokidan qat'i nazar, u jinoyat yordamchisidan uning bajaruvchisiga aylanib qoladi.

Yordamchilik jinoyat sodir etayotgan aniq bir shaxs yoki guruhga ko'maklashishdan iborat bo'lgan harakatdir.

Subyekt tomonidan yordamchilik **to'g'ri** yoki **egri qasd** bilan xarakterlanadi. Aybdor birgalikda sodir etilayotgan jinoyatning faktik holatlarini, o'z harakatlari bilan muayyan shaxs yoki guruhga qilmishni sodir etishda ko'maklashayotganini, o'zining harakatlari bajaruvchi tomonidan sodir etilgan jinoyat bilan sababiy bog'lanishda ekanligini va buning natijasida u jinoyatni amalga oshirishda bajaruvchi bilan birga ishtirok etayotganini anglaydi. Yordamchi kelib chiqadigan jinoiy oqibatni oldindan ko'ra bilgani holda, uning yuz berishini istaydi va bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Yordamchilikning subyekt tomoni, ishtirokchilikning boshqa turlari singari, jinoyat tarkibi barcha obyektiv belgilari va boshqa baholovchi holatlarning aybdor tomonidan anglanishini ham o'z ichiga oladi.

3-§. Ishtirokchilik shakllari

Ishtirokchilik shakli deganda, bir necha shaxslarning jinoyat sodir etilishi jarayonida birgalikdagi faoliyati xarakteri tushuniladi.

Ishtirokchilik shakllari jinoyat sodir etishdagi o‘zaro aloqadorlik, ishtirokchilar harakatining oldindan til biriktirgan holda amalga oshirilish darajasi, subyekt aloqadorligi va xususiyatiga ko‘ra farq qiladi. Qayd etilgan belgilarning har biri birgalikdagi jinoiy faoliyat tavsifi uchun katta ahamiyatga ega, chunki ular ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, til biriktirganlik va umumiy maqsadga erishish uchun muvofiqlashtirilganlik darajasini ochib beradi. Shubhasiz, ishtirokchilar xatti-harakatlarining hamjihatligi va uyushganligi darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, istalgan natijaga erishish shunchalik oson bo‘ladi. Birgalikdagi jinoiy faoliyatni tahlil etish jarayonida shu narsa ayon bo‘ladiki, tergov va sud organlari xodimlari tomonidan mazkur belgilarning to‘g‘ri aniqlanishi ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatlarning to‘g‘ri kvalifikatsiya qilinishining muhim shartidir.

Ta’kidlash zarurki, jinoiy-huquqiy doktrina ishtirokchilik shakllaridan tashqari **ishtirokchilik turlarini** ham ajratadi¹. Ishtirokchilikning shakllarga va turlarga bo‘linishi asosida, turli xil mezonlarga tayanadigan ikki mustaqil tasnif mavjud. Agar ishtirokchilikni shakllarga bo‘lish umuman birgalikdagi jinoiy faoliyatning ijtimoiy xavfliligi xarakteri va darajasini belgilash bilan bog‘liq bo‘lsa, ishtirokchilikning turini belgilash ishtirokchilar javobgarligini asoslash va individuallashtirish imkonini beradi.

Afsuski, zamonaviy jinoyat-huquqiy adabiyotlar tahlili ishtirokchilikni turlarga (shakllarga) bo‘lishga yagona yondashuv yo‘qligini namoyish etadi. Bu, eng avvalo, ishtirokchilikni turlarga (shakllarga) ajratish mezonlarini belgilashdagi tafovutlar bilan izohlanadi. Mazkur ishda taklif etilayotgan ishtirokchilikni turlarga tasniflash esa obyektiv va subyekt mezonlarning o‘zaro shartlanganligi va bog‘liqligiga asoslanadi.

Ishtirokchilikning obyektiv mezoni sodir etilayotgan jinoyat yuzasidan ishtirokchilar o‘rtasida jinoyat obyektiv tomonini sodir etishdagi aloqadorlikni ifodalaydi, ya’ni rollarning taqsimlanishi, kim qaysi vazifani bajarishining belgilab qo‘yilishi va boshqalarni belgilaydi. Mazkur mezon

¹ В специальной литературе их также нередко именуют формами соучастия.

ishtirokchilar obyektiv o'zaro harakatining ifodasi bo'lgani holda ishtirokchilikni oddiy va murakkab turlarga ajratish asosida qo'yiladi.

Jumladan, **ishtirokchilikning oddiy turiga** doir obyektiv alomatlar shunda namoyon bo'ladiki, jinoyat ikki yoki ko'proq shaxslar tomonidan birgalikda sodir etiladi hamda ijtimoiy xavfli qilmishning obyektiv tomoni barcha ishtirokchilar tomonidan rollar taqsimotisiz qisman yoki to'liq bajariladi, bu esa birgalikdagi bajaruvchilikdan guvohlik beradi. Oddiy ishtirokchilikda ishtirokchilardan biri jinoyat sodir etishga qiziqtirishi, tashkilotchi yoki dalolatchiga aylanishi, shu bilan birga ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishida bevosita qatnashishi mumkin bo'lgan vaziyatlar ham mavjud. Bunday vaziyatlarda unga boshqa ishtirokchilar (boshqalarning so'zsiz, konklyudent roziligidan dalolat beruvchi) qo'shilishi mumkin. Boshqalarning jinoiy tajovuzga qo'shilishida ifodalanadigan va amaliyotda, ayniqsa, voyaga yetmaganlar, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etiladigan nomusga tegish, bezorilik va boshqa shu kabi jinoyatlarda ko'p uchraydigan birgalikdagi bajaruvchilikning aniq namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Murakkab ishtirokchilikda ham jinoyat bir necha shaxslar tomonidan sodir etiladi, biroq ularning faoliyati belgilangan rollar taqsimoti, ya'ni jinoyatning bevosita bajaruvchisi qatorida tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi yoki aqalli ulardan biri mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Murakkab ishtirokchilik ishtirokchilikning turi sifatida shu bilan xarakterlanadiki, jinoyat obyektiv tomonini tashkil etuvchi, JK Maxsus qismining muayyan moddasida nazarda tutilgan qilmish bevosita barcha ishtirokchilar tomonidan emas, faqat ulardan biri yoki bir nechasi tomonidan sodir etiladi. Boshqalar esa, jinoyat obyektiv tomonini bajarishda umuman ishtirok etishmaydi, hatto qisman bajarishmaydi va uning sodir etilishi jarayonida bevosita ishtirok qilishmaydi. Masalan, o'g'irlikning bir ishtirokchisi (tashkilotchisi) jinoyat sodir etilishini tashkillashtirdi, reja tuzdi, ishtirokchilarni yig'di va hokazo, boshqa ishtirokchi (bajaruvchi) esa o'zganing mulki yashirincha o'g'irlanishini bevosita sodir etdi, uchinchisi (yordamchi) o'g'irlangan mulkni olib ketish

uchun transport vositasini taqdim etdi va keyinchalik mol-mulkni o‘tkazdi, shundan so‘ng olingan mablag‘ barcha ishtirokchilar o‘rtasida bo‘lib olindi.

Ishtirokchilikning subyekt mezon ishtirokchilar harakatlarining muvofiqligi darajasi, ularning aloqalari xarakteri bilan tavsiflanadi. Ushbu mezonga muvofiq ishtirokchilikning barcha holatlari oldindan kelishilmagan ishtirokchilik hamda oldindan kelishilgan ishtirokchilikka ajratiladi.

NOTA BENE !

Oldindan til biriktirish deganda, jinoyat ishtirokchilari o‘rtasida jinoyat sodir etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish to‘g‘risida bunday harakatlarni amalga oshirishdan avval kelishib olish tushuniladi (JK Maxsus qismi sakkizinchi bo‘limi).

Oldindan til biriktirilmagan ishtirokchilik bevosita jinoyat sodir etish jarayonida yoki muayyan vaqt oralig‘ida ishtirokchilik jinoyatini amalga oshirish jarayonida bir vaqtning o‘zida (masalan, ikki shaxs jabrlanuvchiga tajovuz qilib, uni o‘lgunicha do‘pposlaydilar), shuningdek, muayyan vaqtdan so‘ng (masalan, bir shaxs do‘pposlashga tushadi, ikkinchisi bir ozdan so‘ng unga qo‘shiladi va ular birgalikda jabrlanuvchini o‘ldirishadi) vujudga kelishi mumkin bo‘lgan oldindan (jinoyat sodir etilishidan oldin) til biriktirishning bo‘lmasligi bilan tavsiflanadi. Bunday ishtirokchilikda til biriktirilganlik darajasi minimal bo‘lib, jinoyat obyektiv tomonini tashkil qiluvchi harakatlar to‘liq yoki qisman amalga oshiriladi, ishtirokchilar o‘z harakati orqali boshqasining harakatini to‘ldiradi.

Oldindan kelishilgan ishtirokchilikda birgalikda jinoyat sodir etish haqida oldindan til biriktirib, shuningdek, jinoyat sodir etilishidan oldinroq til biriktirgan holda jinoyat sodir etiladi. Ishtirokchilikni kvalifikatsiya qilish uchun bu kelishuvga erishilganidan so‘ng qancha vaqt o‘tganligi ahamiyatga ega emas. Vaqt katta hamda kichik oraliqlarda hisoblanishi mumkin: daqiqalar, soatlar, sutkalar, oylar, yillar va hokazo. Ishtirokchilar

o‘rtasida u yoki bu jinoyatni sodir etish yuzasidan kelishuv og‘zaki yoki yozma, til biriktiruv, shartli belgi, boshni chayqatish, imo-ishora va boshqa shu kabi shakllarda ifodalanishi mumkin. Oldindan til biriktirish tomonlarning ko‘zda tutilayotgan jinoyatning birgalikda sodir etilishidan xabardorligidan, uni sodir etishda har bir ishtirokchining o‘z vazifalarini bilishi, hamjihatlikning nisbatan yuqori darajasi bilan tavsiflanadi.

Ishtirokchilik turlari uning shakllari bilan chambarchas bog‘liq. Birgalikdagi jinoiy faoliyatning muayyan holatlarida ishtirokchilikning har xil turlari va shakllari bo‘lishi mumkin. Oldindan til biriktirish ishtirokchiligi bir guruh shaxslar, uyushgan guruh, jinoiy uyushma tomonidan oldindan til biriktirib sodir etiladigan jinoyatlarda bo‘ladi. O‘z navbatida, ishtirokchilikning keyingi ikki shakli ko‘pincha, harakatdagi shaxslar o‘rtasida rollar taqsimoti bilan (ishtirokchilikning murakkab turi), kamroq holatlarda esa birgalikda bajaruvchilik turi (ishtirokchilikning oddiy turi) sifatida ifodalanishi mumkin.

Ishtirokchilikni turlarga ajratish muhim yuridik ahamiyatga ega, bu ishtirokchilar harakatlari tasnifini to‘g‘ri aniqlashga imkon yaratadi. Xususan, oddiy ishtirokchilikda bajaruvchilar harakatlari faqat JK Maxsus qismi moddasi bo‘yicha JK 28-moddasiga (ishtirokchilar turlari) izoh qilmasdan kvalifikatsiya qilinadi, chunki ularning o‘zlari muayyan jinoiy qilmishning obyektiv tomonini to‘liq yoki qisman bajarishadi. Murakkab ishtirokchilikda esa, aksincha. Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi kabi ishtirokchilarning harakatlari jinoyat obyektiv tomonini bevosita bajaruvchisining harakatlari kabi JK Maxsus qismining o‘sha moddasi bo‘yicha, biroq JK 28-moddasi tegishli qismiga izoh qilgan holda tasniflanadi (ular bir vaqtning o‘zida jinoyatning birgalikda bajaruvchilari bo‘lgan holatlardan tashqari).

Demak, ishtirokchilik shakllari haqidagi masalaga qaytgan holda shuni ta’kidlab o‘tamizki, **JK 29-moddasi 1-qismiga** asosan, jinoyatdagi ishtirokchilik shakllari sifatida oddiy ishtirokchilik; murakkab ishtirokchilik; uyushgan guruh; jinoiy uyushma tan olinadi.

JK 29-moddasi 2-qismida ishtirokchilikning eng kam xavfli shakli – **oddiy ishtirokchilik** tushunchasi belgilangan.

NOTA BENE !

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi odiy **ishtirokchilik** deb topiladi (**JK 29-moddasi 2-qismi**).

Oldindan kelishuv mavjud emasligi ishtirokchilik mazkur shaklining asosiy xususiyatidir. Odiy ishtirokchilik, garchi ishtirokchilar o'rtasida rollar taqsimoti bo'lsa-da, doimo birgalikda bajaruvchilikni taqozo etadi (birgalikda aybdorlik).

Rollar taqsimoti ishtirokchilikning murakkab shakllariga, ayniqsa, uyushgan guruhga va jinoiy uyushmaga ko'proq xos ekanligiga qaramay, sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyat sodir etish tashabbusi o'z harakatlari bilan go'yoki boshqa birga bajaruvchining harakatlariga namuna ko'rsatayotgan bir bajaruvchidan chiqishi mumkin. Biroq bu holat jinoyat tashabbuskori ahamiyatini hech ham o'zgartirmaydi va uning harakatlari bajaruvchi qilmishi belgilari bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi, rollar taqsimoti esa tashabbuskor-bajaruvchi qilmishi bilan qamrab olinadi.

Ishtirokchilikning mazkur shakli minimal darajada muvofiqlashgan bo'lib, bu jinoyat boshlanishi paytiga qadar kelishib olish imkoni yo'qligi bilan izohlanadi. Ishtirokchilikning ushbu shakli ayrim shaxslarning boshqalar allaqachon boshlab qo'ygan jinoiy tajovuziga qo'shilish imkoniyatini nazarda tutadi.

Jinoyatda ishtirokchilikning eng keng tarqalgan va eng xavfli shakli – bu **murakkab ishtirokchilikdir**.

NOTA BENE !

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi **murakkab ishtirokchilik** deb topiladi (**JK 29-moddasi 3-qismi**).

Ishtirokchilikning bu shakli uchun asosiy element bo‘lib, ikki yoki undan ortiq shaxsning jinoyat sodir etish boshlangunga qadar, shuningdek, JK Maxsus qismida ko‘rsatilgan jinoiy qilmishning (jinoiy faoliyatning emas) hech bo‘lmaganda bir kishi tomonidan sodir etish boshlanguncha til birlashtirilganligi hisoblanadi.

Kelishuv natijasida ishtirokchilarga tayyorlanayotgan jinoyat haqida umumiy ma‘lumotlar ma‘lum bo‘ladi. Kelishuv og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘lishi mumkin. Odatda, kamroq ishtirokchilar konklyudent harakatlari (jimgina rozilik) natijasida ahdlashuvga erishishadi.

Oldindan muvofiqlashtirilgan jinoyat birgalikda bajarilishi ham, rollar taqsimlangan holda sodir etilishi ham mumkin (tor ma‘nodagi ishtirokchilik). Tashkilotchi, shuningdek, o‘zi tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi vazifalarini bajarishi ham mumkin. Ushbu holatlarda jinoyatni kvalifikatsiya qilishda, muayyan jinoyatni ko‘rsatish bilan birga JK Umumiy qismining jinoyatning tashkilotchisiga doir tushunchalar ko‘rsatilgan, ya‘ni JK 28-moddasi 3-qismiga ishora qilish lozim, zotan unda tashkilotchilik uchun dalolatchi va yordamchiga nisbatan og‘irroq javobgarlik ko‘zda tutiladi. Ushbu holat yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi ham bir necha bora ta‘kidlab o‘tgan, unga ko‘ra, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib sodir etilgan jinoyat to‘g‘risidagi ayblov hukmining tasvirlov qismida har bir ishtirokchi tomonidan qanday jinoiy harakatlari amalga oshirilganligi aniq ko‘rsatib o‘tilishi shart¹.

Shuni ta‘kidlash kerakki, jinoyatda ishtirokchilik oldindan til birlashtirib birgalikda bajarish shaklida (murakkab ishtirokchilik) va ushbu holatsiz (oddiy ishtirokchilik) shaklida, qonun chiqaruvchi tomonidan ayrim jinoyatlar tarkibida kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida ko‘zda tutiladi. JK Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida mazkur kvalifikatsiyalovchi belgilar «bir guruh shaxslar tomonidan» (JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi, 235-moddasi 2-qismi «v» bandi), «bir guruh shaxslar tomonidan

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 2 мая 1997 г. № 2 «О судебном приговоре» (с изменениями и дополнениями, внесенными постановлениями Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 июня 2002 г. № 10, 19 декабря 2003 г. № 20 и 3 февраля 2006 г. № 5) // Сборник, Т.1. – С. 338.

oldindan til biriktirib» (190-moddasi 2-qismi «b» bandi), «oldindan til biriktirib yoki bir guruh shaxslar tomonidan» (JK 244¹-moddasi 3-qismi «a» bandi) kabi tushunchalar orqali namoyon bo‘ladi.

Shuni nazarda tutish lozimki, qonunda «bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib» jumlasini juda kam, asosan, shaxsga qarshi jinoyatlarda uchraydi (masalan, JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi, 104-moddasi 2-qismi «k» bandi, 118-moddasi 2-qismi «v» bandi). Shuni aytib o‘tish joizki, jinoiy javobgarlik uchun birgalikdagi ishtirokchilar uchun oldindan til biriktirilganlik belgisi ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Qonun ushbu jinoyatning yuqoriroq ijtimoiy xavfini faqat jinoyat ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan amalga oshirilganligi bilan bog‘laydi. Aniqlanishi zarur bo‘lgan birgina holat – barcha birgalikdagi ishtirokchilarda ushbu jinoiy qilmishni sodir etishga bo‘lgan qasd mavjudligidir. Agar ushbu holat qolgan ishtirokchilar ongini qamrab olmasa, unda ushbu band bo‘yicha kvalifikatsiya qilishning iloji yo‘q.

Shuni nazarda tutish lozimki, alohida jinoyat tarkibi konstruksiyasida uyushgan guruh kvalifikatsiyalovchi belgisi mavjud bo‘lmaganda, biroq jinoyat amalda uyushgan guruh tomonidan amalga oshirilsa, mazkur holat JK 56-moddasi «m» bandiga muvofiq, jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi lozim. Ushbu qoida xuddi shunday holatda jinoyat uyushgan guruh va jinoiy uyushma tomonidan sodir etilganda ham qo‘llaniladi.

«Bir guruh shaxslar tomonidan» iborasi qo‘llanganda faqat jinoyatni birgalikda bir joyda va bir vaqtda bajaruvchi ishtirokchilar harakatlari tushunilishi sud-tergov amaliyoti tomonidan tasdiqlanadi. Masalan, Oliy sud Plenumi tushuntirishlariga ko‘ra, «Jabrlanuvchiga nisbatan zo‘rluk ishlatib, uni hayotdan mahrum qilish jarayonida bevosita ishtirok etgan ikki yoki undan ortiq shaxsning harakatlari JK 97-moddasi ikkinchi qismining «p» bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunda o‘limga sabab bo‘lgan shikast ishtirokchilarning har biri tomonidan yetkazilgan bo‘lishi shart emas (masalan, ishtirokchilardan biri jabrlanuvchining qarshiligini bartaraf etib, uni o‘zini himoya qilish imkoniyatidan mahrum etgan, boshqasi esa, unga halok etuvchi shikast yetkazgan).

Qasddan odam o'ldirishda bevosita ishtirok etmagan hamda jabr-lanuvchiga nisbatan jismoniy zo'rlik ishlatmagan, biroq o'zgalar tomonidan qotillik sodir etilishida ko'maklashgan boshqa shaxslarning harakatlari Jinoyat kodeksi 28-, 97-moddasining tegishli qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi»¹.

Masalan, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan talon-toroj deganda, bu jinoyatni sodir etishga oldindan kelishib olgan ikki yoki undan ortiq shaxs qatnashgan talon-toroj tushuniladi. Bu yerda gap bajaruvchiga jinoyat qurollarini taqdim etish, obyekt rejasini tuzish, qimmatliklarga ega shaxslarni ko'rsatish va hokazolar haqida emas, balki qonun bilan qo'riqlanadigan obyektga ikkitadan kam bo'lmagan shaxslarning bevosita tajovuzi haqida ketmoqda.

Ta'kidlash joizki, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib o'zgalar mulkini talon-toroj qilishda ifodalanadigan mulkka qarshi jinoyatlarni sodir etishda ishtirokchilarning barchasi tajovuzni amalga oshirishi majburan shart emas. Tajovuz ularning biri tomonidan amalga oshirilishi va jinoyat obyektiv tomonini qisman sodir etgan boshqa ishtirokchilarning qasdi bilan birinchisining harakatlari qamrab olinishi muhimdir. Aks holda, gap faqatgina bajaruvchi eksessi haqida borishi mumkin.

Alohida holatni mansabdor shaxslarning oldindan til biriktirishi tashkil etadi. Bunda ishtirokchilar tarkibi maxsus subyektlar – mansabdor shaxslardan iborat bo'lishi lozim, aks holda mazkur asos bo'yicha javobgarlikka tortish qonuniy bo'lishi mumkin emas. Masalan: «jinoyatni sodir etishda avvaldan, ya'ni jinoyat boshlanguncha kelishib olgan ikki yoki undan ortiq mansabdor shaxs ishtirok etgan bo'lsa, pora olish bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda sodir etilgan hisoblanadi. Jinoyat mansabdor shaxslardan loaqal biri pora olgan paytdan e'tiboran tugallangan deb hisoblanadi»².

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 24 сентября 2004 г., № 13 «О судебной практике по делам об умышленном убийстве» // Сборник, Т.2. – С. 466.

² См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 24 сентября 1999 г. № 19 «О судебной практике по делам о взяточничестве» (с изменениями и дополнениями, внесенными постановлением Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 июня 2002 г. № 10) // Сборник, Т.1. – С. 482.

Agar Maxsus qism normasi «oldindan til biriktirib» degan ta'rif bilan cheklangan bo'lsa, kvalifikatsiya qilinadigan holatlarni belgilashda, uni jinoiy guruh yoki jinoiy uyushma sifatida talqin qilib bo'lmaydi.

Uyushgan guruh – oddiy va murakkab ishtirokchilikka nisbatan xavfliroq ishtirokchilik shaklidir.

NOTA BENE !

Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borishi uchun oldindan bir guruhga birlashishi **uyushgan guruh** deb topiladi (**JK 29-moddasi 4-qismi**).

Ushbu ishtirokchilik shakli oldindan til biriktirish, barqarorlik, vazifalarning taqsimlanishi, bir qancha jinoyat sodir etish maqsadida tuzilganligi kabi qator o'ziga xos belgilar bilan tavsiflanadi.

Uyushgan guruh barqarorligi deganda, guruh ishtirokchilari o'rtasidagi doimiy aloqadorlik va jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish yoxud bir yoki bir necha marotaba jinoyat sodir etishning maxsus usullaridan foydalanish tushuniladi.

Obyektiv tomondan barqarorlik ikkiyoqlama tavsiflanadi: birinchidan, tashkilotchi (rahbar) shaxsining jinoiy faoliyatni amalga oshirish maqsadi asosida tashkil etilgan guruh o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, umumiy jinoiy maqsad va manfaat, jinoiy guruh a'zolari o'rtasida vazifalarning taqsimlanganligi; ikkinchidan, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish jarayonida maxsus usullardan foydalanish, guruhdagi qat'iy tartib, doimiy nazorat va guruh a'zolari harakatini boshqarish, yuqori darajada kelishganlik va uyushganlik.

«Jumladan, jinoiy faoliyatning oldindan rejalashtirilganligi, jinoiy qasdni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vositalarning tayyorlanishi, ishtirokchilarni tanlash, yollash va ular o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi, jinoyatni yashirish choralarini ta'minlash, guruhda o'rnatilgan intizomga va tashkilotchining ko'rsatmalariga bo'ysunishlik jinoiy guruhning uyushganligidan dalolat beradi»¹.

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 20 декабря 1996 г. № 37 «О судебной практике об угоне транспортных средств» (с изменениями и дополнениями, внесенными

Shuni aytish kerakki, Oliy sud instansiyasi uyushgan guruh jinoiy ishtirokchilik shaklini ifodalovchi u yoki bu belgilar yuzasidan tushuntirishlarni doimo yoritib boradi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarida uyushgan guruhni tavsiflovchi belgilarni aniqlash yuzasidan tushuntirishlar berilgan. Xususan, qayd etiladiki, «uyushgan guruh deganda, transport vositalarini olib qochish yoki boshqa jinoyatlarni sodir etish maqsadida ikki yoki undan ko‘p shaxslarning barqaror birlashmasi tushunilishi kerak»¹. Mazkur qoida uyushgan guruh belgilari bo‘yicha sodir etilgan boshqa jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga ham birday tegishlidir.

«Jinoiy guruhni uyushgan deb kvalifikatsiya qilish uchun asosiy mezon tariqasida, masalan, guruhning barqarorligini, unda tashkilotchining bo‘lishini, odatda, bir necha jinoyatni sodir etish maqsadida tuzilganligini, jinoyatni amalga oshirish rejasi va yo‘l-yo‘rig‘i ishlanganligini, har bir ishtirokchi o‘rtasida vazifalar taqsimlanganligini, texnika bilan ta‘minlanganligini, jinoyatni yashirish choralari ko‘rilganligini, umumiy intizomga va jinoiy guruh tashkilotchisining ko‘rsatmalariga itoat qilinishini va shu kabilarni hisobga olish lozim»².

Jinoiy faoliyat uyushgan guruhning (jinoiy uyushmaning ham) asosiy tavsiflaridan biridir. Uyushgan guruh faoliyati ma‘lum darajada bir necha marotaba jinoyat sodir etishga, o‘z faoliyatini muayyan vaqt oralig‘idagi davomiylikka qaratadi.

Uyushgan guruhning jinoiy faoliyati tizimli xarakterga ega. U jinoyat sodir etish hisobiga mavjud bo‘ladi va bu uyushgan guruh alohida a‘zolarining va butun guruhning malakasidan guvohlik beradi. Qonunning uyushgan guruh va uning a‘zolariga nisbatan qattiqligi ham shu bilan izohlanadi, chunki ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof qilmishlar guruh a‘zolari tomonidan jinoiy faoliyatga aylantiriladi.

постановлением Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 июня 2002 г. № 10, 3 февраля 2006 г. № 5) // Сборник. Т. I. – С. 321.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Транспорт воситаларини олиб қочиш ишлари бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 37-сонли қарори, 5-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. – 73-б.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1995 йил 27 октябрдаги «Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишга оид жиноят ишлари бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 21-сонли қарори, 3-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. – 35-б.

Barqarorlik va jinoiy faoliyat kabi belgilar, uyushgan guruhning oldindan til biriktirib birgalikda jinoyat sodir qilishi murakkab ishtirokchilik, ya'ni oldindan til biriktirgan bir guruh shaxslardan farqlovchi asosiy tafovutidir.

Uyushgan guruhni xususiyatlovchi belgilardan biri – bu uning barqaror ekanligidir. Bunda tashkilotchi jinoiy rejani tuzadi, ishtirokchilar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, ular faoliyatini yo'naltiradi va guruhdagi tartibni mustahkamlaydi, shuningdek, guruh intizomini nazorat qiladi va hokazo. Bundan tashqari, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etiladigan jinoyatlar bir martalik tajovuzga qaratilgan bo'ladi, uyushgan guruh, qoida tariqasida, mazkur guruhning jinoiy faoliyatidan darak beruvchi bir necha marta jinoyat sodir etishga yo'naltiriladi (qaratiladi).

Uyushgan jinoiy guruh ishtirokchilari harakatini kvalifikatsiya qilish oldindan til biriktirib, jinoyat sodir etishdan farq qiladi. Agar jinoyat oldindan til biriktirgan holda bir necha bajaruvchilar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u faqat Maxsus qismdagi tegishli moddaning o'zi bilan 28-moddani qo'llamagan holda kvalifikatsiya qilinadi. Uyushgan guruh tomonidan jinoyat sodir etilganda ishtirokchilarning jinoyat sodir etishdagi vazifasi qanday bo'lganligidan qat'i nazar (tashkilotchi, bajaruvchi, dalolatchi, yordamchi, ishtirokchi), Jinoyat kodeksining 28-moddasini qo'llagan holda javobgarlik belgilanadi. «Uyushgan guruh tarkibida transport vositasini olib qochishda qatnashgan shaxslarning harakatlarini, ularning har birining roolidan qat'i nazar, ishtirokchilik deb topishlik lozim»¹.

Masalaning bu kabi hal etilishi JK 30-moddasi 3-qismida mustahkamlangan qoida bilan bog'liq bo'lib, unga muvofiq, «uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki unga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan jinoyatlar uchun, basharti, bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo'lsa, javobgarlikka tortiladilar».

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Транспорт воситаларини олиб қочиш ишлари бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 37-сонли қарори, 5-банд, 4-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. – 73-б.

(Ishtirokchilarning javobgarligi doirasi haqida batafsilroq shu bobning 4-§ ga qarang.)

Sud-tergov amaliyotida uyushgan guruh a'zolaridan biri bir jinoyatni sodir etishda ishtirok etib, keyin o'zining jinoiy faoliyatini to'xtatgan hollar ham uchrab turadi. Bunday hollarda ularning jinoiy qilmishlari sonidan qat'i nazar, u uyushgan guruh tarkibida jinoyat sodir etganligi uchun (o'zi buni anglagan hollarda) jinoiy javobgarlikka tortiladi. Shunday holatlar uchun JK Maxsus qismida «jinoyat uyushgan guruh a'zosi yoki uning manfaatlari yo'lida sodir etilsa» degan birikma ko'rsatib o'tiladi (masalan, JK 97-moddasi 2-qismi «p» bandi, 104-moddasi 3-qismi «g» bandi).

Shuni nazarda tutish lozimki, alohida jinoyat tarkibi konstruksiyasida uyushgan guruh belgisi mavjud bo'lmaganda (masalan, JK 114-moddasi), biroq jinoyat amalda uyushgan guruh tomonidan amalga oshirilsa, mazkur belgi JK 56-moddasi «m» bandiga muvofiq, jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi lozim.

Tashkil etiladigan jinoiy uyushma sodir etmoqchi bo'lgan jinoyatlarning xavfliligini inobatga olib, qonun chiqaruvchi jinoiy uyushmaning o'zini va undagi ishtirokchilarni JK 242-moddasi belgilari bo'yicha mustaqil jinoyatlarga kiritadi va shu bilan jinoiy uyushmaning amalda jinoyat sodir etganligi yoki etmaganligidan qat'i nazar, tashkil etilishining dastlabki bosqichidanoq jinoiy jazoga tortilishini mustahkamlaydi. Bunda jinoiy uyushgan guruhni qurollangan deb topish uchun, uning hatto bir a'zosida qurol (o'qotar, sovuq) mavjudligi kifoya qiladi. Jinoiy jazoga sazovor bo'lish uchun, shunday qurolli uyushgan guruhni tuzishning o'zi yetarli, ya'ni uyushgan qurolli guruh tuzilgan, unga rahbarlik qilish yoxud a'zo bo'lishga rozilik berilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi. Uyushgan qurolli guruh tomonidan amalga oshirilgan konkret jinoyatlarni JK 242-moddasi 2-qismi bo'yicha JK Maxsus qismining tegishli moddalari jami bilan kvalifikatsiya qilish lozim.

Jinoiy uyushma ishtirokchilik barcha shakllari ichida eng xavflisidir. Jinoiy uyushmaning xavfliligi u tomonidan sodir etiladigan jinoyatning xususiyati va og‘irlik darajasi bilan belgilanadi.

NOTA BENE !

Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun oldindan birlashishi **jinoiy uyushma** deb topiladi (**JK 29-moddasi 5-qismi**).

Jinoiy uyushma yoki uyushgan guruh birlashmasi ikki shaxsdan iborat bo‘lishi mumkin emas, u ishtirokchilarning ko‘proq sonini talab etadi. Jinoiy uyushma a‘zolari ko‘pchilikni tashkil qilib, ular o‘rtasida, qoida tariqasida, jinoiy maqsadga erishish uchun ma‘lum bilimlardan foydalanishga oid vazifalar taqsimlanishi mumkin.

Jinoiy uyushma asosiy belgilaridan biri uning tarkibiy bo‘g‘inining ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhlardan iborat bo‘lishidir.

Jinoiy uyushmaning tarkibiy bo‘g‘ini deganda, rahbar bilan birgalikda ikki yoki undan ortiq shaxsdan iborat, jinoiy uyushmaning maqsadlaridan kelib chiqib muayyan yo‘nalishda faoliyat yuritadigan guruh tushuniladi. Bu kabi faoliyat, masalan, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, jinoiy yo‘l bilan topilgan mol-mulk yoki giyohvandlik va psixotrop moddalarning o‘tkazish joylarini izlab topish; jinoiy uyushmani transport vositalari yoki boshqa texnik vositalar bilan ta‘minlash; davlat organlari mansabdor shaxslari, tijorat va shu kabi boshqa tashkilotlarning vakillari bilan jinoiy uyushmani va sodir etiladigan jinoyatlarni jazodan ozod qilish maqsadida aloqalar o‘rnatish; jinoiy yo‘l bilan topilgan pullar va boshqa mol-mulkni yashirish; jinoiy uyushma a‘zolari, jinoyat sodir etish vosita va qurollari, jinoyat izlari va jinoiy yo‘l bilan topilgan narsalarni yashirishga sharoit yaratish kabilar bo‘lishi mumkin.

Boshqa guruhlardan alohida holda mustaqil jinoyat sodir etuvchi bu kabi guruhlarni jinoiy uyushma deb topish uchun har bir guruh jinoiy uyushma maqsadini amalga oshirish uchun alohida-alohida harakat qilishi kerak. Buni aniqlash uchun barcha guruhlar faoliyati yagona tashkiliy

boshqaruv asosida boshqarilganligiga e'tibor berish lozim. Yagona tashkiliy boshqaruv, bitta tashkilotchidan, shuningdek, bir guruh tashkilotchilar, «jinoiy obro'li odamlar»dan iborat bo'lishi mumkin.

Shunga ko'ra, kvalifikatsiya qilishda shunga e'tibor qaratish lozimki, jinoiy uyushmaning alohida a'zolari mazkur jinoiy tashkilotning ichida harakat qilayotganligini anglamasliklari mumkin. Bu holatlar jinoiy uyushmaning mazmun va mohiyatiga hech bir tarzda ta'sir etmaydi va mazkur shaxs jinoiy uyushma tarkibida sodir etgan jinoyatlari uchun javobgarlikka tortiladi.

Jinoiy uyushmaning barqarorligi va uyushganligi nisbatan davomli jinoiy faoliyatni va uyushma qatnashchilari sodir etishga intiladigan jinoyatlarning og'irligini keltirib chiqaradi. Jinoiy uyushma ishtirokchilikning boshqa shakllaridan yuqori darajada uyushganligi, barqarorligi, texnik vositalari bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra, a'zolarining birgalikdagi keskin harakati kabilar bilan farq qiladi.

Tashkil etiladigan jinoiy uyushma sodir etmoqchi bo'lgan jinoyatlarning xavfliligini inobatga olib, qonun chiqaruvchi jinoiy uyushmaning o'zini va undagi ishtirokchilarni JK 242-moddasi belgilari bo'yicha mustaqil jinoyatlarga kiritadi va shu bilan jinoiy uyushmaning amalda jinoyat sodir etganligi yoki etmaganligidan qat'i nazar, tashkil etilishining dastlabki bosqichidanoq jinoiy jazoga tortilishini mustahkamlaydi.

Ishtirokchilik shakllarini aniqlash hamda mos ravishda har bir ishtirokchining rolini, uning maqomini belgilash, ishtirokchilikda sodir qilingan jinoyatlar uchun javobgarlik masalasini hal qilishda ishtirokchilar o'rtasidagi subyekt munosabatlar, xarakteri va barqarorligini, o'zaro muvofiqlik darajasi, ishtirokchilarning tashkiliy tuzilishi hamda boshqa zarur belgilarni batafsil aniqlash muhim.

4-§. Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik asoslari va doirasi

JK 16-moddasi 2-qismiga muvofiq, jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish jinoiy javobgarlikka

tortish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Mazkur qoida bir shaxs tomonidan sodir etiladigan jinoyatga ham, ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatlarga ham birdek taalluqlidir. Shu sababli, ishtirokchilik jinoiy javobgarlikning qo‘shimcha asoslarini vujudga keltirmaydi. Barcha ishtirokchilar jinoiy javobgarlikka yagona asos bo‘yicha tortiladi, ya’ni ularning qilmishi, qoida tariqasida, JK Maxsus qismining bir moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. Bunda har bir ishtirokchi o‘zi sodir etgan qilmishi uchun mustaqil javob beradi va individual ravishda javobgarlikka tortiladi. Jinoyat huquqining eng ustuvor tamoyillaridan biri, aybli javobgarlik prinsipiga asosan, jinoyat ishtirokchilari faqat jinoiy qasdi doirasida javobgar bo‘lishi mumkin. Zotan, **JK 30-moddasi 3-qismiga** muvofiq, «Boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo‘ladi». Qonun, konkret ishtirokchining jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmishlar uchun jamoaviy javobgarlikni istisno etadi. Bunda har bir ishtirokchi o‘zi sodir etgan qilmishi uchun mustaqil javob beradi va individual ravishda javobgarlikka tortiladi.

Ishtirokchilarning javobgarlik asoslari haqida so‘z yurita turib, birinchi navbatda, shuni inobatga olish lozimki, birgalikda jinoyat sodir qilish (birgalikda jinoiy faoliyat olib borish) uchun javobgarlik bajaruvchining (birgalikda bajaruvchining) jinoiy harakatlarini aniq ko‘rsatib o‘tgan JK Maxsus qismi normalari hamda jinoyatni ishtirokchilikda amalga oshirgan shaxslar faoliyatini tavsiflovchi JK Umumiy qismining tegishli normalari (27–30-moddalar)ni qo‘llagan holda belgilanadi. Har bir ishtirokchi, ishtirokchilikda sodir qilingan jinoyatda qanday harakatlar bajarganidan qat’i nazar, jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim, chunki u qonun tomonidan qo‘riqlanayotgan ijtimoiy munosabatlarga nisbatan tajovuz qiladi, uning shaxsiy harakatlari esa ijtimoiy xavfli xarakterga egadir¹.

Binobarin, **JK 30-moddasi 1-qismiga** muvofiq, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham ushbu Kodeks Maxsus qismining bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo‘yicha

¹ Курс уголовного права. Общая часть. Том 1: Учение о преступлении. Учебник для вузов. Под ред. д.ю.н., проф. Н.Ф. Кузнецовой и к.ю.н., доц. И.М. Тяжковой. – С. 441.

javobgarlikka tortiladilar. Bu o'rinda birgalikda jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarligi qilmishni sodir qilishdagi ishtirokining xarakteri va darajasi bilan belgilanadi. Jinoyat sodir etilishida shaxs ishtirokining darajasi va xarakteri esa, o'z navbatida, tegishli shaxs ijtimoiy xavfliligi darajasini belgilaydi.

Jinoyatdagi ishtirok xususiyati aybdorning ishtirokchilikda sodir qilingan jinoyatdagi funksional rolini aniqlaydi. Xususan, agar ishtirokchi jinoiy qilmishning obyektiv tomonini to'liq yoki qisman bajarsa, u bajaruvchi yoki muvofiq ravishda birgalikda bajaruvchi deb tan olinib, uning harakatlari, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, faqat JK Maxsus qismi tegishli moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Agar ishtirokchi bajaruvchiga (bajaruvchilarga) ko'mak bergan holda tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi rolini bajargan bo'lsa, uning harakatlari, bajaruvchi (bajaruvchilar) qilmishini qamrab oluvchi modda bilan kvalifikatsiya qilinib, JK 28-moddasining tegishli qismiga ham havola qilinadi¹. Bunda ishtirokchi tomonidan tanlangan rol uning xatti-harakatlarining ijtimoiy xavfliligi darajasini belgilaydi. Shu bilan birga, funksional vazifaning bir xilligida har bir ishtirokchi harakatlarining takroriyligi darajasi, irodaning jinoyatni tashkillashtirishga yo'naltirilganligi (qaratilganligi), bajaruvchini ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishga qiziqtirish yoki unga bunda yordam berish turlicha bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ishtirokchilar harakatlarini kvalifikatsiya qilishda hamda ularga jazo tayinlashda birgalikdagi jinoiy faoliyatga amalda kiritgan ulushi inobatga olinishi zarur.

Umumiy qoidaga ko'ra, jinoyatning barcha ishtirokchilari JK Maxsus qismining bitta moddasi, bitta qismi (bandi) bo'yicha javobgar bo'lishadi. Shu bilan birga, ishtirokchilar ayblanayotgan jinoyatlar JK moddasining turli qismlarida (turli bandlarida), turli moddalarida, hattoki, turli boblari va bo'limlarida nazarda tutilishi mumkin. Bu ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatni hamda ishtirokchining o'zini tavsiflovchi turli xil obyektiv va subyekt belgilarni hisobga olish bilan bog'liqdir.

¹ Такой подход к юридической оценке сложного вида соучастия обусловлен тем, что описание объективной стороны конкретного состава преступления рассчитано именно на индивидуальные действия субъекта.

Jumladan, ijtimoiy xavfli qilmishni, uning ijtimoiy xavfli oqibatlarini tavsiflovchi obyektiv belgilar boshqa ishtirokchilarning qasdi bilan qamrab olingan bo'lsa, javobgarlik ularning zimmasiga yuklatilishi mumkin. Masalan, o'zga shaxsning mulkini uy-joyiga kirib o'g'irlashga qiziqtirishda dalolatchi hamda bajaruvchiga o'g'rilikning aynan shu yo'l bilan sodir etilishi ma'lum bo'lsa, mazkur baholovchi belgi har ikkala ishtirokchini ayblashga asos bo'ladi. Obyektiv belgilar jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektning ma'lum bir individual belgilariga taalluqli bo'lishi mumkin. Masalan, agar kichik yoshdagi voyaga yetmagan shaxsning nomusiga tegishda jinoyat bajaruvchisi jabrlanuvchi o'n to'rt yoshga yetmaganligini bilmaganida, biroq bu haqda jabrlanuvchi o'n olti yoshda deb bajaruvchiga xabar qilgan jinoyat tashkilotchisiga ma'lum bo'lganida, bajaruvchi o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxsning nomusiga tegish jinoyati uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Yoki, masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hayotiga tajovuz qilish jinoyati (JK 158-moddasi 1-qismi) faqat, jabrlanuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ekanligi ma'lum bo'lgan sharoitda sodir qilinishi mumkin. Agar ishtirokchilardan biri, boshqa shaxslar bilan birgalikda harakat qilgan holda, ko'rsatilgan vaziyatni anglamasa, uning harakatlari boshqa ishtirokchilardan farqli, JK 158-moddasi 1-qismi bo'yicha emas, JK 97-moddasi bo'yicha qasddan odam o'ldirish deb kvalifikatsiya qilinishi shart.

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar tarkibi subyekt tomonining aqliy (intellektual) elementi jinoyat ishtirokchilari o'z qilmishlarining, birgalikdagi harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglashi, irodaviy elementi esa, jinoiy natijaga erishish niyati yoki birgalikdagi xatti-harakatlarini birlashtirish orqali bu natijaga erishilishiga ongli yo'l qo'yishda ifodalanadigan qasd bilan belgilanadi. Biroq, shuni yana bir bor ta'kidlab o'tamizki, sud-tergov amaliyotida moddiy mukofot evaziga (yollanma tarzda) odam o'ldirish holatidagi ishtirokchilarning harakatlarini yuridik baholashda alohida yondashuv ishlab chiqilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tushuntirishlariga muvofiq, «Qotillik uchun haq va'da qilgan tashkilotchi (buyurtmachi)ning

harakatlari u qaysi sabablarga ko'ra shunday qilganligidan kelib chiqib, Jinoyat kodeksining 28, 97-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinmog'i kerak»¹. Masalan, agar qasddan odam o'ldirish jinoyati sodir etilganda yordamchi bajaruvchining jabrlanuvchi bilan yomon munosabatda bo'lganligi sababli «oddiy» qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 1-qismi) sodir etilgan bo'lsa-yu, keyinchalik jabrlanuvchiga nisbatan hech qanday nafrat bo'lmaganligi va bajaruvchi tamagirlik niyatida qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etganligi aniqlansa, yordamchi bajaruvchi tomonidan sodir etilgan jinoyat kvalifikatsiya belgisi emas, balki oddiy qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun javobgarlikka tortiladi.

Agar obyektiv yoxud subyektiv belgilar qaysidir ishtirokchi shaxsi bilan bog'liq bo'lsa, bu belgi haqida boshqa ishtirokchilar bilish-bilmasligidan qat'i nazar, shu shaxsni ayblashga asos bo'ladi. Masalan, o'g'rilikni takroran sodir etishda takroriylik belgisi jinoyatni takroran sodir etgan shaxsga tegishli bo'ladi, ishtirokchilarning birida retsivid bo'lishi esa aynan mana shu ishtirokchiga nisbatan retsividning tan olinishini anglatadi.

Ishtirokchilarning jazosini individuallashtirishda ham xuddi shu qoida amal qiladi. Ishtirokchilardan birining shaxsiga mansub yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar faqat shu ishtirokchiga jazo tayinlashda hisobga olinadi.

Bajaruvchining qilmishi jinoyat barcha ishtirokchilarining harakatlari natijasi bo'lganligi sababli bu ishtirokchilar muayyan tarzda bajaruvchining qilmishlari bilan bog'langandir. Bu bog'lanish tashkilotchi yoki dalolatchi tomonidan ko'zda tutilgan jinoyat tarkibi obyektiv tomoni ular jinoiy qasdga undagan shaxs tomonidan amalga oshirilishi bilan to'ldiriladi. Shu bilan birga tashkilotchisi, dalolatchisi bilan ular tomonidan tashkil etilgan bajaruvchi faoliyati sababiy bog'lanish jinoiy-huquqiy ma'nodagi oqibat bo'lib keluvchi bu faoliyatning natijasi yuzaga kelishigacha davom etadi. Shu sababli, ishtirokchi harakatlaridagi

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасдан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 14-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 197-б.

tugallangan jinoyat tarkibi bajaruvchi tomonidan muayyan jinoyat tarkibining obyektiv tomoni barcha majburiy belgilarining amalga oshirilishida bo‘ladi.

Moddiy tarkibli jinoyatlarda bajaruvchining xatti-harakatlari (harakatsizligi) natijasida qonunda nazarda tutilgan oqibatlarining yuzaga kelishi yetarli hisoblanadi. Formal tarkibli jinoyatlarda bajaruvchi qonun bilan taqiqlangan qilmishni sodir etishi lozim. Faqat shu holdagina tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchilarning harakatlari tugallangan deb baholanishi kerak. Agar bajaruvchi u yoki bu sabablarga ko‘ra, o‘z qilmishini oxiriga yetkazmagan bo‘lsa, javobgarlik jinoyatga suiqasd qilish yoki jinoyat sodir etishga tayyorgarlik uchungina yuzaga keladi. Xuddi shunday tarzda boshqa ishtirokchilarning harakatlarini ham kvalifikatsiya qilish lozim: ular suiqasdni tashkillashtirganlari yoki jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlari uchun, suiqasdga yoki jinoyatga tayyorgarlikka qiziqtirganlari uchun, va nihoyat, jinoyatga suiqasd yoki tayyorgarlikka yordam berganliklari uchun javobgarlikka tortiladi.

Ishtirokchilar boshlab bergan sababiy qatorni davom ettiruvchi bajaruvchi faoliyati ularning qasdi bilan qamrab olingan natijada ayblash hajmini belgilab beradi. Bajaruvchi jinoyat rivojlanishining muayyan bosqichida jinoyatga suiqasd qilish yoki tayyorgarlik ko‘rish bosqichida to‘xtagan hollarda yuzaga kelmagan natijada ishtirokchilarni ayblash mumkin emas. Ular bajaruvchi sodir etgan qilmish uchungina javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Jinoyat ishtirokchilari harakatlarining kvalifikatsiyasi, shuningdek, ishtirokchilik shakliga bog‘liq bo‘ladi va maxsus belgilar bilan ifodalanadi. Jumladan, JKda qayd etiladiki, oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilari hamda a‘zolari tayyorgarlik ko‘rilishi yoki sodir etilishida o‘zlari qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar (**JK 30-moddasi 2-qismi**); uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan barcha jinoyatlar uchun, basharti, bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo‘lsa, javobgarlikka tortiladilar (**JK 30-moddasi 3-qismi**).

Birinchi holatda oldindan til biriktirgan guruh tarkibida jinoyat sodir etgan ishtirokchilar harakatlari JK 28-moddasini qoʻllamasdan kvalifikatsiya qilinadi, chunki ularning barchasi birgalikdagi bajaruvchilar deb tan olinadilar.

Oxirgi holatda qonun chiqaruvchi uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkilotchisi va rahbarlariga mazkur jinoiy tuzilmalar aʼzolari yoki ularning manfaatlarida harakat qilgan boshqa shaxslar sodir etgan barcha jinoyatlar uchun javobgar ekanligini belgilaydi. Shu bilan birga, sodir qilingan jinoyatlar uyushgan guruh, jinoiy uyushma yoki uning strukturaviy boʻgʻinlari tashkilotchilari va rahbarlari qasdi bilan qamrab olingan boʻlishi, guruh ishtirokchilari esa mazkur jinoyatlarga tayyorgarlik koʻrishda bevosita ishtirok etishgan boʻlishi shart, ushbu jinoyatlar sodir etilishida keyingi ishtiroki yoxud ishtirok etmaganligi ahamiyati yoʻq. Agar uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning bironta aʼzosi tomonidan sodir qilingan qilmish koʻrsatilgan jinoiy tuzilmalar tashkilotchisi (rahbari) qasdi bilan qamrab olinmagan va sababiy jihatdan bogʻlanmagan boʻlsa, bajaruvchi eksessi holati yuzaga keladi.

5-§. Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlikning maxsus masalalari

Jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlikning maxsus masalalari ishtirokchilar harakatlarini kvalifikatsiya qilish uchun muhim ahamiyatga ega holatlar, xususan, bajaruvchining eksessi, ishtirokchilarning jinoyatdan ixtiyoriy qaytishi, maxsus subyekt va shunga oʻxshash holatlar bilan bogʻliq.

Bajaruvchi eksessi tushunchasining (lotincha excessus – chekinish, ogʻish, boʻyin tovlash) qonuniy mustahkamlanishi **JK 30-moddasi 4-qismida** ifodalangan boʻlib, unda boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar boʻlishi belgilanadi.

Bajaruvchi eksessi JKda nazarda tutilgan har qanday ishtirokchilik shaklida boʻlishi mumkin, bunda bajaruvchining boshqa ishtirokchilar bilan oldindan kelishilmagan mustaqil harakatlari yuridik ahamiyat kasb

etishi shart. Masalan, odam o'ldirish jinoyati oldindan kelishib olinganidek kech oqshomda emas, kunduzi sodir etilgan yoxud o'qotar emas, sovuq qurol yordamida sodir etilgan bo'lsa, eksess holati mavjud bo'lmaydi, zero, mazkur shart-sharoitlarning amalga oshirilgan ish kvalifikatsiyasiga hech qanday ta'siri yo'q. Eksessda ishtirokchilarning birgalikdagi jinoiy faoliyati yuzasidan obyektiv asoslar (ishtirokchilar harakatlari bilan sodir qilingan jinoyat o'rtasidagi sababiy bog'lanish), subyekt asoslar (bajaruvchilar o'rtasidagi subyekt aloqalar) mavjud bo'lmaydi, bu esa qolgan ishtirokchilarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkonini beradi.

Eksess bajaruvchi sifat va miqdor belgilariga ko'ra, bajaruvchi harakatlari umumiy jinoiy niyatdan qanchalik chetga chiqishi xarakteriga bog'liqdir.

Sifat ko'rsatkichli eksessda bajaruvchining harakatlari boshqa ishtirokchilar bilan kelishib olingan jinoyatlar bilan bir qatorda yana bir yoki bir necha jinoyat sodir etishni zimmasiga oladi. Masalan, talonchilik sodir etish uchun til biriktirishda ishtirokchilardan biri o'zganing mulkini talon-toroj qilgandan so'ng qasddan jabrlanuvchini o'ldiradi yoki qonunga xilof ravishda giyohvand va psixotrop moddalarni egallab oladi. Bu holda, bajaruvchi sodir qilingan jinoyatlar jami bo'yicha yoxud amalda sodir qilingan jinoyati va birgalikda qasd qilgan jinoyatga tayyorgarlik uchun javobgarlikka tortilishi ham mumkin. Bunda, boshqa ishtirokchilar faqat birgalikda qasd qilgan jinoyat yoki unga tayyorgarlik ko'rish uchun javobgarlikka tortiladilar.

Miqdor ko'rsatkichli eksessda bajaruvchi boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olingan jinoyatni sodir qiladi, lekin uning oqibati boshqa ishtirokchilar o'ylaganidan ko'ra og'irroq bo'ladi (masalan, o'rtacha og'ir tan jarohatlari o'rniga – og'ir tan jarohatlari, talonchilik o'rniga – bosqinchilik) yoki oldindan til biriktirilgan jinoyatning kvalifikatsiyali turini sodir etadi (oddiy odam o'ldirish o'rniga – o'ta shafqatsizlik bilan). Bajaruvchi eksessining mazkur turida boshqa ishtirokchilar o'zlarining niyati bilan qamrab olingan tugallangan jinoyat uchun yoki tugallanmagan jinoyat (tayyorgarlik ko'rish yoxud suiqasd) uchun javobgarlikka tortilishadi.

Jinoyat huquqi nazariyasida «muvaqqiyatsiz ishtirokchilik» tushunchasiga doimo alohida urg‘u berilib, keng ma’noda u natijasiz (samarasiz) jinoiy tashkilotchilik, dalolatchilik yoki yordamchilik faoliyati sifatida tushunilgan, zero, bu holatda bajaruvchi jinoyat sodir qilishga umuman niyat qilmagan yoki jinoyat sodir qilishdan ixtiyoriy qaytgan bo‘ladi¹.

Mazkur holatlarda bajaruvchi umuman javobgarlikka tortilishi mumkin emas, jinoyatning boshqa ishtirokchilari esa ishtirokchilikda jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rish yoki suiqasd qilish uchun (bajaruvchi jinoyatdan qaysi bosqichda bosh tortganiga bog‘liq) jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Bajaruvchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra, ishtirokchilar jinoiy qasdini oxirigacha yetkazmagan bo‘lsa (masalan, jinoiy faoliyatga huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki boshqa shaxslar tomonidan chek qo‘yilgan), uning harakatlari tugallanmagan jinoyat to‘g‘risidagi normalar asosida (25-moddaga havola qilib) kvalifikatsiya qilinadi, boshqa barcha ishtirokchilarning harakatlari esa JK 25–28-moddalari va JK Maxsus qismi tegishli moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Umuman, ishtirokchilikda jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish huquqiga nafaqat bajaruvchi, balki boshqa harakatdagi shaxslar ham ega. Ixtiyoriy qaytish istalgan ishtirokchida, ishtirokchilikning har qanday shaklida, jinoyatni bajarishning har qanday bosqichida, biroq jinoiy oqibat yuzaga kelgan paytga qadar amalga oshirilishi mumkin. Bunda tashkilotchi, dalolatchi va yordamchining ixtiyoriy qaytishiga nisbatan qonun qattiqroq talablar belgilaydi. Jumladan, **JK 30-moddasi 5-qismiga** muvofiq, «Tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytib, jinoyatning oldini olish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan barcha choralarni o‘z vaqtida ko‘rganligi jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlikni istisno qiladi». Mazkur qoidadan aniq-ravshan ma’lum bo‘ladiki, tashkilotchining, dalolatchining yoki yordamchining ixtiyoriy rad etishi faqat faol bo‘lishi, ya’ni tayyorlanayotgan jinoyatning bartaraf

¹ При неудавшемся соучастии отсутствуют либо преступные деяния исполнителя, либо объективная связь между его деяниями и деяниями других соучастников, в силу чего намерения последних остаются нереализованными, несмотря на все их усилия.

etilishini ta'minlovchi harakatlarda ifodalanishi darkor. Hokimiyat organlariga vaqtida xabar berishdan tashqari yana tashkilotchi yoki dalolatchi bajaruvchiga jinoyat sodir etmaslikka, yordamchini bajaruvchiga ko'maklashmaslikka ko'ndirishda, tajovuz qaratilgan shaxsni o'z vaqtida ogohlantirishda ifodalanadigan boshqa choralar ham ko'rilishi lozim. Bunda jinoyat tashkilotchisi yoki dalolatchining bajaruvchini ko'ndirish turidagi ixtiyoriy qaytishi moddiy tarkibli jinoyatda jinoiy natijaning oldini olish, formal tarkibli jinoyatlarda esa, butun obyektiv tomonning amalga oshirilishining oldini olishi lozimligi sharti bilangina bo'lishi mumkin. Aks holda, tashkilotchi va dalolatchi sodir etilgan qilmish uchun javobgarlikka tortiladi, ularning jinoyatning oldini olishga qaratilgan harakatlari esa sud tomonidan jazo tayinlash vaqtida yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi mumkin.

Yordamchi o'zining harakatsizligi bilan jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishni ifodalashi mumkin. Biroq yordamchi bunday xulq-atvorini baholashda muayyan vaziyatdan kelib chiqishi lozim, ya'ni yordamchining harakatsizligi jinoyatda ishtirokchilikdan ixtiyoriy qaytish sifatida, agar bu harakatsizlik u bajarishi lozim bo'lgan harakatlarni amalga oshirmasligida ifodalangan bo'lsa, masalan, bajaruvchiga seyf kalitini taqdim etishga va'da berib, so'zining ustidan chiqmagan bo'lsa, tan olinishi mumkin. Bu vaziyatda, agar bajaruvchi jinoyat sodir etishga qaror qilsa, uning harakatlari yordamchining harakatlari bilan sababiy bog'liqlikda bo'lmaydi.

Shu bilan birga, yordamchining ixtiyoriy qaytishini yordamchilikning turidan kelib chiqib alohida ajratilgan holda ko'rib chiqish lozim. (Ruhiiy) aqliy yordamchining ixtiyoriy qaytishi bajaruvchiga yordam berishga, ko'maklashishga qaratilgan o'zining barcha harakatlarini to'liq neytrallashtirishida ifodalanishi lozim. Gap shundaki, yordamchining maslahat va ko'rsatmalari ularning bajaruvchiga ma'lum qilinganidan so'ng oxirgisi tomonidan yordamchining irodasidan qat'i nazar, ishlatilishi mumkin, bu esa yordamchi harakatlari va bajaruvchi sodir etgan jinoyat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni keltirib chiqaradi. Ixtiyoriy qaytish majburiy element sifatida jinoiy natijaning yuz bermasligini taqozo

etganligi sababli, yordamchining ixtiyoriy qaytishi haqida, faqat u o'z harakatlari oqibatlarini to'liq bartaraf etganidan so'nggina namoyon bo'lishi mumkin. Agar yordamchining mazkur intilishlari natijasiz yakunlansa, jinoyat sodir etilsa, uning harakatlari ixtiyoriy qaytish sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Mazkur masala jismoniy yordamchilikda bir oz boshqacha hal qilinadi. Bunday hollarda, ko'pincha jinoyat sodir etilishini yengillashtirishi lozim bo'lgan jinoyat quroli va vositalarini taqdim etmaslikda, shuningdek, jinoyat sodir etilishiga to'siqlarni bartaraf etmaslikda, agar bu to'siqlarni bartaraf etish tashabbusi yordamchining o'zidan chiqqan bo'lsa, ifodalanadigan yordamchining passiv xulq-atvori yetarli bo'ladi.

Agar birgalikdagi bajaruvchi boshqa bajaruvchilar tomonidan jinoyat sodir etilishiga ko'maklashuvchi yoki uni osonlashtiruvchi harakatlarni sodir etishni boshlamagan bo'lsa, ixtiyoriy qaytish uning passiv xulqida, ya'ni birgalikdagi bajaruvchilikni tashkil etuvchi harakatlardan o'zini saqlashda ifodalanishi zarur. Bunday hollarda shaxsning jinoiy javobgarligi istisno etiladi, biroq u **JK 241-moddasi 2-qismida** ko'rsatilgan shartlarning mavjudligida jinoyat haqida xabar bermaganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Agar bajaruvchi jinoyatni oxirigacha yetkazishdan bosh tortsa yoki o'ziga bog'liq bo'lmagan holda bajara olmasa va harakatni sodir etsa, ishtirokchilarning harakatini kvalifikatsiya qilish qiyinlashadi. Bunday holda tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi tashkilotchilik, dalolatchilik, yordamchilikka suiqasd qilganlik uchun javobgar bo'ladilar.

Maxsus subyektli jinoyatlarda ishtirokchilikni kvalifikatsiya qilish masalasi ham alohida ko'rib chiqishni talab etadi. Afsuski, ushbu masala hali to'liq hal qilinmagan. Shuning uchun mazkur vaziyatda O'zbekiston Respublikasining jinoyat-huquqiy doktrinasi va sud-tergov amaliyotiga tayanish darkor. Ularni tahlil qilishdan shu narsa kelib chiqadiki, maxsus subyekt belgilariga mos kelmaydigan shaxslar tegishli jinoyatni bevosita bajaruvchilar ham, birgalikda bajaruvchilar ham bo'lishlari mumkin emas, ularning maxsus subyektli jinoyatni sodir etishdagi ishtiroki faqat

tashkilotchilik faoliyatida, dalolatchilik yoki yordamchilikda namoyon bo'lishi mumkin. Xususan, agar JK Maxsus qismining tegishli moddasida maxsus ko'rsatilgan jinoyat subyekti bo'lmagan shaxs bevosita ushbu jinoyatni sodir etgan bo'lsa, ya'ni amalda to'liq yoki qisman uning obyektiv tomonini bajargan bo'lsa, bu shaxs mazkur jinoyat uchun JK 28-moddasining tegishli qismiga havola qilingan holda jinoiy javobgarlikka tortilishi shart.

Shuni nazarda tutish kerakki, maxsus subyektli jinoyatda ishtirokchilik vaziyatini shaxs jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan yoki aqli noraso bo'lgan holatlardan ajrata bilish zarur. Ko'rsatilgan ikki holatda ishtirokchilik haqida emas, balki bilvosita (vositachi) bajaruvchilik haqida gap ketadi.

6-§. Jinoyatga daxldorlik

NOTA BENE !

Jinoyatga daxldorlik – bu jinoiy daxldorlikning jinoyat haqida oldindan va'da bermagan holda xabar qilmaslik, oldindan va'da bermagan holda jinoyatchini yashirganlik va oldindan va'da bermagan holda jinoyatga yo'l qo'yganlikda ifodalanuvchi bajaruvchining qilmishi bilan sababiy bog'lanishda bo'lmagan shaklidir.

Daxldorlik ishtirokchilikdan shu bilan farqlanadiki, bunda jinoyatga daxldor shaxslar sodir etilgan jinoyatga muayyan munosabatda daxldor bo'lsalar-da, u bilan sababiy bog'lanishda bo'lmaydilar, jinoiy natijaning kelib chiqishiga ko'maklashmaydilar.

Jinoyatga daxldorlik jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradigan va jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan bo'lishi mumkin. Jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradiganlarga oldindan va'da bermagan holda jinoyat sodir etilayotganligi yoki jinoyat sodir etilganligi haqida aniq bila turib, oldindan va'da bermagan holda hokimiyat organlariga xabar

qilmaslik yoxud jinoyat sodir qilishga yo‘l qo‘yib berish¹ (JK 205-, 208-moddalari va boshqalar), oldindan va‘da bermagan holda xabar qilmaslik va oldindan va‘da bermagan holda yashirganlik, agar mazkur holatlar o‘ta og‘ir va og‘ir jinoyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa (JK 241-moddasi), kabilarni aytish mumkin.

Jinoyatga daxldorlikning ijtimoiy xavfliligi shundan iboratki, u huquqni muhofaza etish organlariga o‘z faoliyatini, xususan, jinoyat sodir etishning oldini olish faoliyatini samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi. Jinoyat haqida xabar qilmaslik, jinoyatni yashirish singari, jinoyatchilarda yoki jinoyat sodir etish niyatida bo‘lgan shaxslarda jazosiz qolish hissini vujudga keltiradi, ongda salbiy tasavvurni shakllantiradi, muayyan hollarda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan aybdor shaxslarning javobgarlikdan va jazodan qutulib qolishiga yordam beradi.

JK 31-moddasi 1-qismi tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida **oldindan va‘da bermagan holda xabar qilmaslik** shaklini ko‘rib chiqadi.

Oldindan va‘da qilinmagan xabar bermaslikning **obyektiv tomoni** harakatsizlikdan, ya‘ni og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki jinoyat sodir etilganligi haqida aniq bila turib xabar bermaslikdan iborat passiv xulq-atvorda ifodalanadi.

Ko‘p hollarda, jinoyat haqida xabar berish, avvalambor, fuqaroviy burch bo‘lganligi sababli xabar qilmaslik axloqiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilishi lozim. Biroq ba‘zi hollarda, ayniqsa, qonun chiqaruvchi tomonidan eng xavfli deb belgilangan hollarda (ular tajovuzning ijtimoiy xavflilik darajasida ifodalanadi) Jinoyat kodeksining 241-moddasi mazmunida jinoiy jazoga sazovor qilmish sifatida ko‘rib chiqilishi lozim.

Tayyorlanayotgan jinoyat – jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishda ifodalanadigan tugallanmagan jinoyat bosqichidir. U jinoyat sodir etish sharoitlarini yaratish, jinoyat sodir etish rejalarining ishlab chiqilishi, ishtirokchilarning qidirib topilishiga qaratilgan harakatlarda va ijtimoiy

¹ Надо сказать, что такая форма прикосновенности к преступлению как попустительство в УК не предусмотрена (ст. 31), однако она выделяется в теории уголовного права, в связи с чем, ее отдельное рассмотрение представляется целесообразным.

xavfli qilmish sodir etishga bo'lgan boshqa shu kabi tayyorgarlik harakatlarida ifodalanadi. Bundan tashqari, jinoyatga tayyorgarlik zarur qurolga ega bo'lish, atrofni o'rganish, ishtirokchilarni qidirish va hokazolarda ifodalanishi mumkin.

(Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish haqida batafsilroq mazkur tom IX bobining «Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik» deb nomlanuvchi 2-§ ga qarang.)

Sodir etilayotgan jinoyat – suiqasdda ifodalanadigan tugallanmagan jinoyat bosqichidir. Amaliyotda har xil maxsus akt jinoiy jazoga sazovor qilmishni tashkil etadigan, ammo umuman olganda tugallangan jinoyat tarkibini tashkil etmaydigan davomli jinoyatlar ham uchraydi. Bu kabilar ham sodir etilayotgan jinoyat deb topilishi lozim.

(Jinoyat sodir etishga suiqasd haqida batafsilroq mazkur tom IX bobining «Jinoyat sodir etishga suiqasd» deb nomlanuvchi 3-§ ga qarang.)

Sodir etilgan jinoyat jinoyat tarkiblari formal va moddiy konstruksiyalaridan kelib chiqib, tugallangan jinoyatdir. U JK Maxsus qismi aniq moddalari konstruksiyalari bo'yicha tugallangan jinoyat tarkibini tashkil qiladigan harakatlarda o'z ifodasini topadi.

Xabar bermaslikni tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida aniq bila turib aybdorning huquqni muhofaza qilish organlari: surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sudlarga ma'lum qilmaganligida qayd etish mumkin. Mazkur organlarni xabardor qilishlik og'zaki yoki yozma; shaxsan yoki boshqa shaxslar yordamida; ma'lumot kim tomonidan berilayotganligini ko'rsatib yoki anonim tarzda va hokazo ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin, bunda ma'lumot berish shakli va turi ahamiyatga ega emas. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berilayotgan ma'lum bo'lgan tayyorlanayotgan jinoyat, sodir etilayotgan jinoyat yoki sodir etilgan jinoyatlar haqidagi ma'lumotlar to'liq va o'z vaqtida yetkazilishi darkor. Ya'ni, shaxs jinoyat bilan bog'liq unga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni juda tez vaqt ichida xabar berishi shart.

Tugallanmagan yoki tugallangan jinoyat haqida xabar bermaslik jinoyat faktining mavjudligi uchun asosiy shartlardan biri – aybdor shaxs xabardorligining haqiqiyligidir.

Jinoyatchi xabardorligining haqiqiyliги shuni anglatadiki, unga ayon bo‘lgan faktlar, boshqa shaxs yoki shaxslar tomonidan sodir etilayotgan qilmishning jinoyatligi unda hech qanday shubha-gumon uyg‘otmaydi. Bunda, aybdor shaxs shuni tushunib yetishi kerakki, tayyorlanayotgan jinoyat, sodir etilayotgan jinoyat yoki sodir etilgan jinoyatlar o‘zining xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar kategoriyasiga kiradi.

Subyekt tomondan aybdor tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyatni aniq bila turib xabar bermayotganligini biladi, o‘z harakatlari xarakterini anglaydi, bu harakatlar oqibatini oldindan ko‘ra biladi hamda istaydi yoxud shunga ongli ravishda yo‘l qo‘yadi. Bunda motiv va maqsad jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega emas.

JK 31-moddasi 2-qismi daxldorlikning oldindan va‘da bermagan holda yashirganlik shaklini belgilaydi. Uning ijtimoiy xavfliligi jinoyatni fosh etishda qiyinchiliklar tug‘dirishidadir.

Oldindan va‘da bermagan holda jinoyatni yashirganlik – jinoyat tugallanishigacha bajaruvchiga va‘da berilmagan yashirishdir. U jinoyat bilan sababiy bog‘lanishda bo‘lmaydi, shu holat bilan oldindan va‘da bergan holda yashirish shaklidagi yordamchilikdan farq qiladi.

Oldindan va‘da bermasdan jinoyatni yashirish **obyektiv tomondan** aynan harakatlarda, ya‘ni jinoyatchiga jismoniy ko‘mak berish, u yashirinishi mumkin bo‘lgan turar joyni taqdim etish orqali uni odil sudlov organlaridan yashirish, uni qalbaki yoki o‘zga shaxslarga tegishli hujjatlar bilan ta‘minlashda ifodalanadi.

(Jinoyatchini, jinoyat vositalari va qurollari, jinoyat izlari, jinoiy yo‘l bilan topilgan narsalarni yashirish tushunchasi haqida batafsilroq mazkur bobning «Jinoyat ishtirokchilarining turlari» deb nomlanuvchi 2-§ ga qarang.)

Jinoyatda yordamchilikdan farqliroq, uni yashirganlik jinoyatga daxldorlikning shakli sifatida shundan kelib chiqadiki, yashirishga rozilik jinoyat tugallanganidan keyin beriladi va shuning uchun u jinoyat bilan sababiy-oqibat bog‘liqlikda bo‘lmaydi. Oldindan va‘da bermagan holda

yashirishni uning obyektiv tomoniga kiradigan harakatlardan biri bajarilgan paytdan boshlab tugallangan deb hisoblash lozim.

Oldindan va'da qilmagan holda jinoiy yo'l bilan topilganligi aniq ayon bo'lgan mulkni olish oldindan va'da bermagan holda yashirish deb qaralishi mumkin emas, chunki bu qilmish JK 171-moddasida javobgarlik belgilangan jinoyatning mustaqil tarkibini tashkil qiladi.

Yashirish **subyekt tomondan** faqat **to'g'ri qasd** bilan amalga oshiriladi. Yashiruvchi, birinchidan, o'ta og'ir yoki og'ir jinoyatni yashirayotganligini, ikkinchidan, o'z harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglaydi. Shaxs jinoyatni yashirganlik uchun faqat o'zi bilgan jinoyat uchungina javobgarlikka tortilishi mumkin. Jinoyatni yashirish jinoyatining tarkibi formal bo'lganligi sababli aybdor o'zi amalga oshirayotgan harakatlarning sodir etilishini xohlaydi.

Faqat 16 yoshga yetgan shaxslar oldindan va'da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik uchun javobgarlikka tortiladilar. Bunda **JK 31-moddasi 3-qismiga** ko'ra, oldindan va'da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaganlik yoki jinoyatni yashirganlik uchun gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining yaqin qarindoshlari javobgarlikka tortilmaydi. JK Maxsus qismining sakkizinchi bo'limida izohlanishicha, yaqin qarindoshlarga qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari kiradi.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat haqida xabar bermaganlik va uni yashirganlik bilan birga, jinoyatga daxldorlikning JK Umumiy qismida nazarda tutilmagan uchinchi shakli – jinoyatga yo'l qo'yib berish ham ajratib ko'rsatiladi.

Oldindan va'da bermagan holda yo'l qo'yib berish jinoyatga to'sqinlik qilishi shart bo'lgan va bunga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan shaxsning jinoyat sodir etilishga to'sqinlik qilmaganligidan iboratdir. Oldindan va'da qilingan holda jinoyatga yo'l qo'yib berish yordamchilik ko'rinishida jinoyatda ishtirokchilikni tashkil qiladi.

Jinoyatga yo‘l qo‘yib berish **obyektiv tomondan** biror shaxs zimmasida xizmat yoki mansab holatiga ko‘ra, qonun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatgan bo‘lishiga qaramay, harakatsizlik, tayyorlanayotgan jinoyatni bartaraf etish, sodir etilayotgan jinoyatning oldini olish yoki jinoyat sodir etgan shaxsning kelgusi jinoiy faoliyatiga to‘sqinlik qilish choralari ko‘rmaslikda namoyon bo‘ladi.

Yo‘l qo‘yib berish **subyekt tomondan to‘g‘ri qasd** bilan tavsiflanadi. Aybdor o‘z passiv xulq-atvorining (harakat qilishning real imkoni bo‘lgani holda) ijtimoiy xavfini tushunadi va shuni xohlaydi.

Aytish lozimki, oldindan va‘da bermay jinoyatga yo‘l qo‘yib berish xavf ostida qoldirish (JK 117-moddasi), mulkni qo‘riqlashga vijdotsiz munosabatda bo‘lish (JK 172-moddasi), hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish (JK 205-moddasi), hokimiyat harakatsizligi (JK 208-moddasi) kabi jinoyatlarning alohida tarkibi sifatida nazarda tutilgan.

«Jinoyatda ishtirokchilik» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar

1. Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatning yuqoriroq ijtimoiy xavfliligi nimada?
2. Ishtirokchilikning obyektiv belgilari nimalardan iborat?
3. Ishtirokchilikning subyekt belgilari nimalardan iborat?
4. Javobgarlik kelib chiqadigan yoshga to‘lmagan, aqli noraso yoki aybsiz holda harakat qilgan shaxs bilan ishtirokchilik vujudga kelishi mumkinmi?
5. Jinoyat ishtirokchilarining qanday turlari mavjud? Jinoyat ishtirokchilarining qanday turi eng xavfli ko‘rinadi va nima uchun?
6. Jinoyatni bilvosita sodir etish nima?
7. Boshqa shaxsning jinoyatni sodir etish maqsadini qo‘llab-quvvatlagan shaxs dalolatchi deb topiladimi?
8. Dalolatchilik intellektual yordamchilikdan nima bilan farqlanadi?
9. Jinoyat sodir etilishini kuzatgan va uning oldini olish bo‘yicha hech qanday choralarni ko‘rmagan shaxs yordamchi deb topilishi mumkinmi?

10. Ishtirokchilikning qanday turlari va shakllari ajratiladi? Amaldagi qonunchilikka muvofiq ishtirokchilikni shakllarga tasniflashning qanday mezonlari bor?

11. Birgalikdagi bajaruvchilik nima? Rollar taqsimoti bilan ishtirokchilik nima?

12. Birgalikdagi bajaruvchilik (oddiy ishtirokchilik) va rollar taqsimoti bilan ishtirokchilik (murakkab ishtirokchilik) mavjudligida ishtirokchilarning xatti-harakatlarini kvalifikatsiya qilish qoidalari qanday?

13. Jinoyat sodir etishda odiy ishtirokchilik deganda nima tushuniladi? Bunda kvalifikatsiya qilishning qoidalari qanday?

14. Murakkab ishtirokchilik nima? Uning jinoyat-huquqiy ahamiyati nimada?

15. Uyushgan guruh deganda nima tushuniladi?

16. Jinoiy uyushma deganda nima tushuniladi?

17. Bir guruh shaxslar deganda nima tushuniladi? Agar ikkinchi jinoyat ishtirokchisi aqli noraso shaxs bo'lgan bo'lsa, guruh mavjud bo'ladimi?

18. Uyushgan guruh va jinoiy uyushma o'rtasidagi hamda uyushgan guruh va oldindan til biriktirgan bir guruh shaxslar o'rtasidagi farq nimadan iborat?

19. Jinoyat ishtirokchilarining javobgarligi asoslari va doirasini ta'riflab bering.

20. Bajaruvchi eksessi nima, uning qanday turlari mavjud?

21. Muvaffaqiyatsiz ishtirokchilik deganda nima tushuniladi? Muvaffaqiyatsiz ishtirokchilikda tashkilotchi, dalolatchi va yordamchining xatti-harakatlarini kvalifikatsiya qilish qoidalari qanday?

22. Jinoyat ishtirokchilari jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytishining o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.

23. Maxsus subyektli jinoyatlarda ishtirokchilik uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

24. Jinoyatga daxldorlik nima? Jinoyatga daxldorlik va ishtirokchilik o'rtasidagi farq nimada?

25. Jinoyatga daxldorlikning qanday turlari mavjud, ularning jinoyat-huquqiy ahamiyati nimadan iborat?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Абдумажидов Г.А., Абдурасулова К.Р. Правовой анализ организованной преступности и наркомании // Ж. Научные Труды Академии финансовой полиции. Вып.2. – Алматы.: Жеты жаргы. 2001. – 144–147-б.

Галиакбаров Р.Р. Борьба с групповыми преступлениями. Вопросы квалификации. – Кубань: Кубанский государственный аграрный университет, 2000. – 200 Б.

Козлов А.П. Соучастие: традиции и реальность. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 362 Б.

Топильская Е.В. Организованная преступность. – СПб.: «Юридический центр Пресс». 1999. – 256 Б.

Ilmiy maqolalar

Зуфаров Р.А. Институт соучастия в уголовном праве зарубежных стран // Иштирокчиликда содир этиладиган жиноятларга қарши курашнинг миллий тажрибаси: бугунги ҳолати ва қонунчиликни такомиллаштириш истиқболлари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2016 йил 25 апрель). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – Б. 45-54.

Ниёзова С.С. Бир гуруҳ шахслар томонидан жинсий жиноятларни содир этганлик учун жавобгарлик масалалари ҳамда жабрланувчининг хулқ-атвориға доир айрим мулоҳазалар // Иштирокчиликда содир этиладиган жиноятларга қарши курашнинг миллий тажрибаси: бугунги ҳолати ва қонунчиликни такомиллаштириш истиқболлари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2016 йил 25 апрель). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – Б. 134-143.

Рустамбаев А.М. Общие черты и различия уголовно-правовых признаков групповой и организованной преступности // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2005. № 5 (27). – 39-43-б.

Рустамбаев А.М. Типичные недостатки практики привлечения к уголовной ответственности лидеров, организаторов преступных группировок // Вестник ТГЮИ, 2-ой выпуск. 2006. – 55–58-б.

Соттиев И.А., Якубов А.С. Критерии классификации и уголовно-правовое значение «простейших» форм соучастия // Конституция – ҳуқуқий давлат куришнинг асоси. – Т.: 1996. – 163–166-б.

Щепельков В.Ф. Определение вида соучастников в преступлениях со специальным субъектом // Ж. Российский следователь. 2003. № 7. – 36–38-б.

Эрматов Ф.О. Бир груҳ шахслар томонидан талончилик қилганлик учун жавобгарлик // Иштирокчиликда содир этиладиган жиноятларга қарши курашнинг миллий тажрибаси: бугунги ҳолати ва қонунчиликни такомиллаштириш истиқболлари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2016 йил 25 апрель). – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – Б. 143-150.

Якубов А.С. Уголовно-правовые основы борьбы с организованными формами преступной деятельности в Республике Узбекистан // Ж. Маяк Востока. 1995. № 2. – 55–58-б.

XI BOB. BIR QANCHA JINOYAT SODIR ETISH

1-§. Bir qancha jinoyat sodir etish tushunchasi va turlari

Bir shaxs tomonidan bir vaqtning o'zida yoki turli vaqtda bir qancha jinoyatlarni sodir etilishi tergov-sud amaliyotida ko'p uchraydigan hodisadir. Jinoyat huquqida bu hodisa bir qancha jinoyat sodir etish deb nomlanadi.

Bir qancha jinoyat sodir etish huquqiy nuqtai nazardan tegishli huquqiy oqibatlarga olib keluvchi jinoyatning muayyan shakllarini aks ettiruvchi jinoiy-huquqiy atama sifatida tavsiflanishi lozim.

NOTA BENE !

Bir qancha jinoyat sodir etish – bir shaxs tomonidan bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket tamomlangan yoki tamomlanmagan bo'lishidan, shaxsan o'zi yoki ishtirokchilikda sodir etilgan yoki etilmagan bo'lishidan qat'i nazar, ushbu jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy-huquqiy oqibatlar mavjudlik sharti bo'lganda, ikki yoki undan ortiq har biri jinoyatlarning mustaqil tarkibini tashkil etuvchi jinoiy qilmish sodir etishdan iboratdir.

Quyidagi belgilar bir qancha jinoyat sodir etishga xosdir:

– JK Maxsus qismining aynan bir moddasida, turli moddalarida yoki moddaning turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarning shaxs tomonidan sodir etilishi;

– bir qancha jinoyatni tashkil etuvchi qilmishlarning har biri alohida jinoyat bo'lishi;

– shunday jinoiy qilmishlarni sodir etish faktidan kelib chiqadigan jinoiy-huquqiy oqibatlarning mavjudligi (jinoyatlar bo'yicha sudlanganlik tugallangan yoki olib tashlangan bo'lsa yoxud ular uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqishi istisno qilinadigan bo'lsa, bu bir qancha jinoyat sodir etishni tashkil qilmaydi).

Aybdorning biri JK 14-moddasiga muvofiq, jinoyat deb hisoblanmaydigan va ma'muriy yoki intizomiy huquqbuzarlik sifatida

yoxud axloqqa xilof harakat sifatida kvalifikatsiya qilinadigan, ikkinchisi esa jinoyat bo‘lib hisoblanadigan qilmishlari takroran jinoyat sodir etishni tashkil etmaydi. Masalan, mayda bezorilik (MJtK 183-moddasida ko‘zda tutilgan) va bezorilik (JK 277-moddasi) takroran jinoyat sodir etish (shu jumladan, bir qancha jinoyat sodir etish)ni tashkil etmaydi.

Bir qancha jinoyat sodir etish aybdor shaxsining ham (shaxsning jinoyatlar sodir etishga, ko‘pincha professional jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishga ko‘proq moyilligini namoyon qiladi), umuman sodir etilgan qilmishning ham (natijada jinoyat huquqi tomonidan qo‘riqlanadigan munosabatlarning kengroq doirasi zarar ko‘radi, jamiyatning boshqa beqaror a‘zolarida jazolanmay qolish mumkin degan xomhayol uyg‘otadi, jinoyatlar buzilishi va dinamikasida keng tarqalgan hodisaga aylanadi) ijtimoiy xavfliligi kattaroq ekanligidan dalolat beradi. Bu JK Maxsus qismining ko‘p normalarida aks etgan bo‘lib, bu moddalar sanksiyalarida bir qancha jinoyat sodir etishning turli ko‘rinishlari (shakllari) uchun ko‘proq javobgarlik nazarda tutilgan.

Bir qancha jinoyat sodir etishning yuridik mazmuni shundan iboratki, u jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir o‘tkazadi, jazo tayinlashning maxsus qoidalarini (bir necha marta sodir etilganda jazo tayinlash va bir necha hukm bo‘yicha jazo tayinlash) keltirib chiqaradi, javobgarlik va jazodan ozod qilish masalalarini hal qilishga, xususan, yarashuvga (JK 66¹-moddasi), shartli hukm qilish (JK 72-moddasi), jazoni o‘tashdan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish (JK 73-moddasi)ga ta‘sir ko‘rsatadi.

JKning Umumiy qismida bir qancha jinoyat sodir etishning uchta ko‘rinishi (shakli) ajratib ko‘rsatiladi: takroran jinoyat sodir etish, jinoyatlar majmui, retsdiv jinoyat. Bunda mazkur ko‘rinishlarning tasnifi va nisbati to‘g‘risida yuridik adabiyotlarda turli nuqtai nazarlar mavjud. Biroq ularni tadqiq etish mazkur ishimiz doirasidan chetga chiqib ketgan bo‘lar edi. Ta‘kidlab o‘tamizki, biz qonun chiqaruvchi tomonidan JKning VIII bobida taklif etilgan tasniflashga qo‘shilamiz. Bunday tasniflash qoidalariga binoan, bir qancha jinoyat sodir etish shakllari takroran jinoyat sodir etish, jinoyatlar majmui, retsdiv jinoyat hisoblanadi. Jinoyat huquqi

tegishli huquqiy oqibatlarni, ya'ni jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, jazo tayinlash xususiyatlari, javobgarlik va jazodan ozod qilish xususiyatlarini aynan shu huquqiy tushunchalar bilan bog'laydi.

Bir qancha jinoyat sodir etish turlarining shakllanishiga jinoyatlarning bir xil, turdosh va har xil turlari birlashib ketishi ta'sir o'tkazadi.

Asosiy yoki kvalifikatsiya qilinuvchi muhim yuridik belgilari bo'yicha to'la mos tushadigan jinoyatlar **bir xil jinoyatlar** deb tan olinadi¹. Masalan, qasddan odam o'ldirish va o'ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan xuddi shunday odam o'ldirishni bir xil jinoyat deb topish lozim. Qilmishning kvalifikatsiya qilinishga ta'sir etadigan ikkinchi yo'l bilan alohida usulda odam o'ldirish bu jinoyatlarning bir xil ekanligini o'zgartirmaydi, chunki har ikkala holatda ham jinoyat sodir etish usuli (boshqa odamni hayotdan mahrum qilish), shuningdek, qilmishning boshqa muhim yuridik belgilari (tajovuz obyekti, ayb shakli, subyektning belgilari) bir xildir.

Tajovuz obyekti, ayb shakllari bo'yicha o'xshash, lekin qilmishning obyektiv tomoni belgilari, uning motivlari va maqsadlariga ko'ra farqlanadigan jinoyatlar **turdosh jinoyatlar** hisoblanadi. Masalan, nomusga tegish (JK 118-moddasi) bilan jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-moddasi), talonchilik (JK 166-moddasi) bilan o'g'rilik (JK 169-moddasi) turdosh jinoyatlardir.

Muhim yuridik belgilari bo'yicha to'la farq qiladigan jinoyatlar **har xil jinoyatlar** hisoblanadi. Masalan, nomusga tegish (JK 118-moddasi) va davlatga xiyonat qilish (JK 157-moddasi), firibgarlik (JK 168-moddasi) va bezorilik (JK 277-moddasi) har xil jinoyatlardandir.

Bir qancha jinoyat sodir etishni bitta murakkab jinoyatlardan: davomli, uzoqqa cho'zilgan va tarkibli jinoyatlardan ajrata bilish kerak.

¹ Данный вывод, в частности, следует из анализа положений постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан «О практике назначения судами уголовного наказания», где в ч.6 п.49 указано, что «при признании лица виновным в совершении **тождественных деяний, предусмотренных разными частями одной и той же статьи Особенной части Уголовного кодекса**, наказание назначается по той части статьи, которой установлено более строгое наказание (статья 33 УК)» (см.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 3 февраля 2006 г. № 1 «О практике назначения судами уголовного наказания» // Сборник, Т.2. – С. 505).

Bir qancha jinoyat sodir etishga xos bo'lgan xususiyat bir necha alohida jinoyatlardir. Tegishli alohida bir jinoyat bir qancha jinoyat sodir etishning tarkibiy elementidir. o'zining obyektiv belgilariga ko'ra alohida jinoyatlar bir-biridan ancha farq qiladi. Yuridik adabiyotlarda ularni oddiy va murakkab jinoyatlarga bo'lish qabul qilingan.

Oddiy alohida jinoyatlar uch turga bo'linadi: bir oqibatni keltirib chiqaruvchi bir harakatli (harakatsizlikka ega) jinoyatlar; bir qilmishli va bir necha oqibatli jinoyatlar; ikki yoki undan ortiq qilmishli jinoyatlar; muqobil qilmishli jinoyatlar.

Masalan, odam o'ldirish oddiy alohida jinoyatga misol bo'la oladi. Bunda bir qilmish bir oqibatni – jabrlanuvchining o'limini keltirib chiqaradi. O'g'rilik ham shunday jinoyat hisoblanadi. Bunda bir qilmish – o'zganing mulkini yashirincha talon-toroj qilish, bir oqibat – mulk egasiga mulkiy ziyon yetkazish mavjud.

Oddiy alohida jinoyat oqibatlari tegishli tarkib doirasidan tashqarida bo'lgan (formal tarkibli jinoyatlar) bir qilmishdan iborat bo'lishi mumkin. O'ldirish bilan qo'rqitish yoki zo'rlik ishlatish (JK 112-moddasi), yolg'on guvohlik berish (JK 238-moddasi) shunga misol bo'la oladi.

Qonunda ko'rsatilgan bir necha oqibatni keltirib chiqargan bir qilmishli jinoyatlarga misol JK 204-moddasining 1-qismi bo'lishi mumkin, bunda bir harakat – alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlar tartibini buzish va ikki oqibat – katta zarar yoki boshqa og'ir oqibatlar ko'rsatilgan.

Ikki harakatli oddiy alohida jinoyatlarga mansab soxtakorligi (JK 209-moddasi 1-qismi) misol bo'la oladi. Bu yerda hujjatlarga soxta ma'lumotlar kiritish va ularni taqdim etish ushbu qilmishni sodir etishning variantlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Muqobil qilmishli oddiy alohida jinoyatlarga, qisman, mansabdor shaxsning sud yoki sudyaning hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarorini qasddan bajarmasligi yoxud ularning bajarilishiga to'sqinlik qilishi kiradi. Ushbu holatda jinoiy javobgarlikka tortish uchun ko'rsatilgan harakatlardan hech bo'lmaganda bittasining sodir etilishi yetarlidir (masalan, faqat mazkur sud hujjatlarining bajarilishiga to'sqinlik qilish).

Murakkab alohida jinoyatlarning turlari, yuqorida qayd etilganidek, davomli, uzoqqa cho‘zilgan va tarkibli jinoyatlardir.

Davomli, uzoqqa cho‘zilgan va tarkibli jinoyatlar qonun chiqaruvchiga belgilarning har birini JKning muayyan moddasi yoki modda qismida tasvirlangan tarkibga birlashtirishga imkon beradigan obyektiv va subyekt belgilarning mustahkam yuridik umumiyliги bilan tavsiflanadi¹.

NOTA BENE !

Davomli jinoyat deganda, yagona maqsad yo‘lida amalga oshiriladigan umumiy qasd doirasida birlashgan ikki va undan ortiq ijtimoiy xavfli harakatlar tushuniladi.

Davomli jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, barcha jinoyatlarning o‘zaro bog‘liqligi bir butunni tashkil qilishda namoyon bo‘ladigan barcha epizodlarning yagonaligidadir. Davomli jinoyatning alohida aktlari, ular mustaqil jinoyat xarakteriga ega bo‘lmasa, mustaqil kvalifikatsiya qilinmaydi; o‘zining yig‘indisida bir martalik jinoyat sifatida qaraladi. Masalan, o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish (JK 103-moddasi), o‘zini o‘zi o‘ldirishga undash, ya’ni ko‘ndirish, aldash yoki boshqa yo‘l bilan o‘zga shaxsda o‘zini o‘zi o‘ldirish hissini uyg‘otish (103¹-modda), qiynash (JK 110-moddasi), bir-biriga tobe bo‘lmagan harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish (JK 285-moddasi) va hokazo.

Shunday qilib, davomli jinoyat «bir qator aynan o‘xshash xatti-harakatlar bilan turli vaqtlarda sodir etilgan bo‘lsa-da, biroq yagona qasd bilan qamrab olingan, obykti va sodir etish usuli, oqibatlari bir xilligi jihatidan o‘zaro o‘xshash» bo‘ladi².

«Davomli jinoyat sodir etilishi davrida shaxs tomonidan boshqa jinoyat sodir etilgan bo‘lib, uning belgilari Jinoyat kodeksining davomli

¹ Уголовное право России. Часть Общая: учеб. для вузов: учеб. для студентов вузов, обучающихся по специальности «Юриспруденция» / Отв. ред. проф. Л.Л. Кругликов. 2-е изд., перераб. и доп. – С. 326.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2008 йил 15 майдаги «Бир неча жиноят содир этилганда қилмишни квалификация қилишга доир масалалар тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 4-банд, 1-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси, 2008 й., 3-сон. – 13-б.

jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi dispozitsiyasi bilan qamrab olinmasa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining davomli jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi hamda boshqa jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalari majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi»¹.

Alohida e'tiborga talon-toroj va mansabdorlik jinoyatlaridagi davomli jinoyatlarni takroran sodir etiladigan jinoyatlardan farqlash hollari molikdir.

Davomli talon-toroj – bir qator o'xshash harakatlardan iborat, aybdorning yagona qasdi bilan qamrab olingan va yig'indisi bitta qilmishni tashkil etadigan o'zganing mulkini noqonuniy o'zlashtirish umumiy maqsadiga ega.

Masalan, aybdor televizor o'g'irlash maqsadida har gal zavodning kirish darvozasidan bittadan detal olib chiqib ketadi. Navbatdagi shunday holda u ushlab olinganda qilmish talon-torojning takroriyligini bildirmaydi, chunki ellik marta bo'lsa-da, bittadan detal olib chiqib ketish aybdorning yagona maqsadi – televizor o'g'irlash bilan qamrab olingan. «Davomli talon-toroj sodir etilgan hollarda aybdorning harakatlari talon-toroj qilingan umumiy summani hisobga olgan holda tavsiflanishi zarur.

Agar shaxsning harakatlari davomli jinoyat xususiyatiga ega bo'lmasdan bir necha mustaqil epizodlardan, misol uchun, o'g'rilik, talonchilik, firibgarlik va boshqalardan iborat bo'lsa, bu harakatlar talon-toroj qilingan umumiy summadan kelib chiqqan holda tavsiflanishi mumkin emas. Bunday hollarda jinoyatni o'zganing mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi moddasining dispozitsiyasiga muvofiq, jumladan, takroriylik belgisi bilan tavsiflash lozim»².

«Pora olish, pora berish yoki pora olish-berishda vositachilik qilishni takroriylik belgisiga ko'ra tavsiflash ushbu jinoyatning o'zini ikki marotabadan kam bo'lmagan miqdorda sodir etilishini va ulardan hech biri uchun shaxsning sudlanmaganligini hamda jinoiy javobgarlikka tortishning muddati o'tib ketmaganligini taqozo etadi.

¹ Ўша жойда 78-79 б.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори, 5-банд, 2 ва 3-хатбошилари // Тўплам, 1-жилд. – 116-б.

Mansabdor shaxsning bir vaqtning o'zida bir necha shaxsdan poralarni olishi, basharti pora beruvchilarning har biri uchun alohida qilmish sodir etilsa, takroriy pora olish deb tavsiflanishi lozim»¹.

NOTA BENE !

Uzoqqa cho'zilgan jinoyat deganda, qonun bilan jinoiy jazo qo'llash tahdidi bilan aybdorga yuklatilgan vazifalarning uzoq vaqt mobaynida bajarilmasligidan iborat qilmish tushuniladi va bir jinoyatning uzoqqa cho'zilgan uzluksiz tarkibini tashkil qiladi (**JK 32-moddasi 4-qismi**).

Uzoqqa cho'zilgan jinoyatning o'ziga xos belgisi uning vaqtdagi tanaffuslar bilan sodir etiladigan davomli jinoyatlardan farqli ravishda muntazam davom etishidadir. Uzoqqa cho'zilgan jinoyat tarkibini boshqa barcha jinoyat tarkiblari turlaridan ajratuvchi ikkinchi xususiyat – bu muayyan harakatni amalga oshirish majburiyatining mavjudligidir. Ushbu murakkab bir martalik jinoyatning bu turi vazifalarni bajarmaslikning nihoyasiga yetishi paytidan tugallangan deb hisoblanadi, chunki uzoqqa cho'zilgan tarkibli jinoyatlarning obyektiv tomoni qasdning yagonaligi va jinoiy qilmishning boshlang'ich bosqichi va aybdorning keyingi harakatlari o'rtasidagi ichki bog'liqlik bilan qamrab olinadigan butun davr mobaynida amalga oshiriladi. Muayyan vaqtda davom etuvchi yagona jinoyatni tashkil qiladigan vazifalarni uzoq vaqt bajarmaslik ham bitta umumiy qasdga yo'naltirilgan bo'ladi. Qancha vaqt mobaynida amalga oshirilishidan qat'i nazar, bitta jinoyat sifatida, takroran sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik aktlarini esa uzoqqa cho'zilgan jinoyatni sodir etish bo'yicha bitta qilmishning qatori sifatida ko'rilishi kerak. Uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarga qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish (JK 248-moddasi), o'zining biron-bir a'zosini mayib qilish yo'li bilan yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo'yin tovlash (JK 290-moddasi), zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (JK 138-moddasi) va boshqalar misol bo'ladi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 24 сентябрдаги «Порахўрлик ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 19-сонли қарори, 8-банд, 1 ва 2-хатбошилари // Тўплам, 1-жилд. – 238-б.

Muayyan harakatni bajarish va ish orqali jinoiy xulqni tuzatish majburiyati turli xil normativ-huquqiy aktlardan kelib chiqishi mumkin. Masalan, JK 122-moddasi – voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, JK 123-moddasi – ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-, 66-moddalari qoidalaridan to'g'ridan-to'g'ri kelib chiqadi¹.

Tarkibli jinoyatlar o'z ichiga ikki yoki undan ortiq bitta alohida jinoyatni tashkil etuvchi jinoyatlarni oladi. Murakkab alohida jinoyatlarning ushbu turi ajratib olib va subyekt yo'nalganligini hisobga olmay huquqiy baho berganda, JKning turli moddalarida nazarda tutilgan mustaqil qilmishlar sifatida ko'rib chiqish mumkin bo'lgan g'ayrihuquqiy harakatlarni tarkibiy elementlar sifatida o'z ichiga oladi. Biroq, tegishli jinoiy qilmish tuzilishida bu harakatlar mustaqil ahamiyatga ega emas, alohida kvalifikatsiya qilinmaydi, balki ushbu jinoyatning tarkibi doirasiga kirib ketadi. Boshqacha qilib aytganda, ular bir qancha jinoyat sodir etish emas, bitta alohida jinoyat tarkibi doirasiga kirib ketadi. Masalan, bezorilik ko'pincha jabrlanuvchini haqorat qilish, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish, o'zganing mulkiga qasddan shikast yetkazish yoxud nobud qilish, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish va h.k. lar bilan birga ro'y beradi, biroq ko'rsatib o'tilgan harakatlar mustaqil jinoiy-huquqiy baholanmaydi. Shaxsga, fuqarolarning mulkiga nisbatan ko'rsatilgan tajovuzlar bilan bog'liq bezorilik harakatlari bezorilikning tarkibi bilan to'la qamrab olinadi va JKning boshqa moddalarida bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilinmaydi¹. Bu tajovuzlar (ikki yoki undan ortiq) ularning ichki birligi va organik aloqasi tufayli jinoyatning bir tarkibiga birlashadi.

NOTA BENE !

Tarkibli jinoyat – har biri alohida ajratilgan holda mustaqil jinoyat bo'lgan, biroq ularning organik birligi tufayli JK Maxsus qismining moddalarida bilan qamrab olinadigan yagona jinoyatni tashkil etuvchi o'zaro bog'langan qilmishlardan iborat jinoyatdir.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, 64, 66-моддалар.

Alohida tarkibli jinoyatga amalda ikkita ijtimoiy xavfli qilmish, ya'ni talonchilik (JK 166-moddasi) sifatida baholanishi mumkin bo'lgan o'zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-toroj qilishni va JK 104, 105, 112-moddalarida nazarda tutilgan jinoyat belgilariga mos tushishi mumkin bo'lgan sog'liq yoki hayot uchun xavfli bo'lgan jismoniy zo'rlik ishlatish yoki bunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishni birlashtirgan bosqinchilik (JK 164-moddasi) misol bo'la oladi. Alohida tarkibli jinoyatlar sirasiga hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (JK 206-moddasi), bezorilik (JK 277-moddasi)ni ham kiritish mumkin.

2-§. Takroran jinoyat sodir etish

Jinoyatni takroran sodir etish – bir xil, ba'zan esa bir turdagi jinoyatlardan iborat o'ziga xos tuzilishga ega barqaror aloqalar tizimidir.

NOTA BENE !

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aynan bir moddasida, qismida, Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni shaxs turli vaqtlarda sodir etgan, ammo ularning birortasi uchun ham sudlangan bo'lmasa, **takroran** jinoyat sodir etish deb topiladi (**JK 32-moddasi 1-qismi**).

Takroran jinoyat sodir etishning bir qancha belgilari quyidagilardir:

- shaxs tomonidan ikki yoki undan ortiq jinoyatning sodir etilishi;
- jinoyatning turli vaqtlarda sodir etilishi;
- aynan bir moddada, qismida, ba'zi hollarda esa, turli moddalarda nazarda tutilgan yangi jinoyatning sodir etilishi;
- shaxsning sodir etilgan jinoiy qilmishlaridan birortasi uchun ham sudlanmaganligi.

Jinoyat qonuni ma'nosida takroran jinoyat sodir etish (umuman, bir qancha jinoyat sodir etish singari) bir shaxs tomonidan har biri jinoiy jazoga sazovor, jinoyat bo'lmish ijtimoiy xavfli harakatlarni kamida ikki marta sodir etishni nazarda tutadi. Jinoyat kodeksi qator dispozitsiyalarida ma'muriy preyuditsiya nazarda tutilgan hollariga qaramay, harakatlardan

biri o‘zida ma‘muriy huquqbuzarlik, boshqasi jinoiy qilmish belgilarini aks ettiruvchi shaxs qilmishi takroran jinoyat sodir etish belgilari bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan holatdir. Masalan, «Jinoyat kodeksining 183-moddasi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka ma‘muriy tartibda javobgarlikka tortilganidan keyin bir yil mobaynida monopoliyaga qarshi qonunlarni takroran buzgan shaxslar tortilishi lozim»¹. Biroq, ma‘muriy preyuditsiyaning mavjudligi jinoiy jazoga sazovor jinoyatlarning ham ma‘muriy preyuditsiyasida takroran sodir etishni tan olish imkoni va zarurati sifatida qabul qilinishi mumkin emas. **JK 32-moddasi 1-qismining** mazmunida qonun chiqaruvchi takroran jinoyat sodir etish deganda, aybdor tomonidan ham birinchi, ham keyingi hollarda jinoyat qonuni nuqtai nazaridan jinoyat deb topiladigan harakatlarni sodir etishini nazarda tutgani shubhasizdir.

«Tamom bo‘lgan jinoyat ham, jazoga sazovor bo‘lgan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish ham, shuningdek, ishtirokchilikda jinoyat sodir etish ham takroran jinoyat sodir etish deb topiladi» (**JK 32-moddasi 1-qismi**). Bunda shuni ham unutmaslik kerakki, «umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo‘naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o‘xshash bir necha jinoiy qilmishlardan iborat bo‘lgan (davomli) jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi» (**JK 32-moddasi 3-qismi**). Xuddi shunday «vazifalarini uzoq vaqt mobaynida bajarmaslikdan iborat bo‘lib, bir jinoyatning uzluksiz tarkibini tashkil qilgan (uzoqqa cho‘zilgan) jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi» (**JK 32-moddasi 4-qismi**).

Jinoyatlarning turli vaqtlarda sodir etilishi (ketma-ket sodir etilishi) ularning bir-biridan vaqt bo‘yicha ajratilishi, ya‘ni ularning har biri keyingisidan kichik bo‘lsa-da, muayyan vaqt oralig‘i bilan ajratilishini taqozo etadi. Vaqtdagi uzilish davomli bo‘lmasligi mumkin, biroq u har doim bir jinoyatni boshqasidan ajratish imkonini berishi lozim. Biroq, bunday vaqt oralig‘i sodir etilgan jinoyatlar o‘rtasida aybdorning huquqqa

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 15 мартдаги «Савдо соҳасидаги жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 9-сонли қарори, 2-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. – 51-б.

xilof xulqi jinoyatga qarshi yo‘naltirilganligining barqarorlik darajasi va xavfliligini aks ettiruvchi o‘zaro ichki aloqasi va bog‘liqligi yo‘qotilishiga olib kelgan holatda davomli bo‘lishi mumkin emas.

Shaxs tomonidan sodir etilgan birinchi (ilgarigi) va yangi (keyingi) jinoyat o‘rtasida o‘zaro aloqa va bog‘liqlik mazkur shaxs jamiyatga qarshi (jinoiy) xulqining davom etishi sifatida qarash imkonini beruvchi takroran jinoyat sodir etishda mavjud bo‘ladi. Mazkur aloqa qayd etilishining jinoiy-huquqiy usuli bo‘lib, ilgari sodir etilgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari hisoblanadi. Oqibatda, ilgarigi va keyingi sodir etilgan jinoyat o‘rtasida oldingi jinoyatning jinoiy-huquqiy oqibatlarini bekor qilmaydigan muddatlargina o‘tishi mumkin. Ilgarigi va keyingi jinoyat o‘rtasida birinchi qilmishning jinoiy-huquqiy ahamiyatini bekor qiluvchi katta vaqt davri o‘tgan bo‘lsa, jinoyatlarning bunday birikuvi, takroran jinoyat sodir etish haqida so‘z yuritish imkonini bermaydi. Shuni ta’kidlash lozimki, «agar shaxs ilgari sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan bo‘lsa, jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi» (**JK 32-moddasi 2-qismi**).

«Qasddan takroran yoki ilgari sodir etilgan jinoyat uchun sudlangandan so‘ng qasddan yangi jinoyat sodir etilishi, agar birinchi jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortish muddati o‘tib ketgan, sudlanganlik belgilangan tartibda tugallangan yoki olib tashlangan yoxud shaxs muqaddam sodir etgan jinoiy xatti-harakat uchun qonunda javobgarlik bekor qilingan bo‘lsa, shuningdek, JK 65, 66, 66¹, 68, 69, 70, 71, 76-moddalariga binoan shaxs ilgari sodir etgan jinoyati uchun jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod etilgan bo‘lsa, jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida e’tirof etilishi mumkin emas»¹.

Mohiyatan, jinoyatlarni turli vaqtlarda sodir etish subyektda jamiyatga qarshi qarashlar va motivlar barqarorligining guvohligi, aybdor shaxsining yuqori ijtimoiy xavfliligi ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Jinoyatlarni turli vaqtda sodir etish subyektning turli xil hayotiy vaziyatlarda bo‘lishi va

¹ Қараңг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 10-банд // Тўплам, 2-жилд. – 228-б.

ijtimoiy normalar hamda jinoyat qonuniga muvofiq, xulq-atvor variantini tanlash real imkoniyatiga ega bo‘la turib, qonun bilan taqiqlangan xulq-atvorni tanlashini ko‘rsatadi. Har bir muayyan vaziyatda tegishli xulq-atvorni tanlashda shaxs huquqqa xilof variantlarni tanlar ekan, bu jamiyatga qarshi harakatlari qarashlarining barqarorligi, muayyan hayotiy pozitsiyasi uning yuqori ijtimoiy xavfliligidan dalolat beradi.

Takroriylikda faqat jinoyatchi shaxsi emas, balki sodir etilgan qilmishning o‘zi ham katta ijtimoiy xavf tug‘diradi. Takroriylikni tashkil etuvchi ikkinchi va keyingi jinoyatlar katta xavf tug‘diradi, chunki jinoyat huquqi tomonidan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga, ko‘p jabrlanuvchilarga katta ziyon yetkazadi. Bu holatni inobatga olgan holda, qonun chiqaruvchi takroranlikni ko‘p jinoyatlarning kvalifikatsiya qilinuvchi belgilariga kiritgan (masalan, JK 97-moddasi 2-qismi «r» bandi, 118-moddasi 2-qismi «b» bandi, 135-moddasi 2-qismi «d» bandi va h.k.).

Qoida tariqasida, takroran jinoyat sodir etish bir xil jinoyatlarni sodir etishni tashkil etadi; masalan, valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish (JK 177-moddasi) mazkur jinoyatni yana bir bor sodir etilgan holdagina takroran sodir etilgan deb topiladi yoki Jinoyat kodeksi maxsus qismi moddasining bir qismi bo‘yicha, agarda mazkur moddada mazkur jinoyatlarga jinoiy javobgarlik belgilagan bo‘lsa (masalan, JK 228-, 248-, 273-moddalari)¹.

Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan alohida hollarda, jinoyatni takroran sodir etish nafaqat bir xil, balki bir turdagi yoki turli turdagi jinoyatlarning birikuvidan tashkil topadi. Masalan, nomusga tegishdan (JK 118-moddasi) so‘ng sodir etilgan jinsiy ehtiyojni zo‘rluk ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-moddasi) kabi bir turdagi jinoyatlarni aybdorning bu jinoyatlarning birortasi uchun ham sudlanmagan taqdirda takroran jinoyat sodir etish deb kvalifikatsiya qilish lozim.

Bunga misol sifatida bir turdagi jinoyat tarkiblaridan darak beruvchi tarkiblar maxsus ko‘zda tutilgan mansabdorlik jinoyatlarini sodir etishni

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2008 йил 15 майдаги «Бир неча жиноят содир этилганда қилмишни квалификация қилишга доир масалалар тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 2-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси, 2008 й., 3-сон. – 13-б.

keltirish mumkin. Masalan, JK 210-moddasi 2-qismi «a» bandi, 211-moddasi 2-qismi «a» bandi, 212-moddasi 2-qismi «a» bandi, 213-moddasi 3-qismi «a» bandi.

Javobgarlik Jinoyat kodeksi maxsus qismi moddalarida alohida nazarda tutilgan va mazkur tajovuz maxsus qism turli boblariga tegishli jinoyatlarni sodir etish har xil turdagi jinoyatlarni takroran sodir etish deb topiladi. Boshqacha qilib aytganda, keyingi ijtimoiy xavfli qilmish turli xil turdosh obyektlarga tajovuz qiladi. Jinoyat kodeksida mazkur tarkiblar juda ko'p, ularga quyidagilar kiradi: JK 104-moddasi 3-qismi «b» bandi, 105-moddasi 2-qismi «k» bandi JK 97-moddasi bilan birgalikda; JK 128-moddasi 2-qismi «b» bandi JK 118- va 119-moddalari bilan birgalikda; JK 131-moddasi 4-qismi «b» bandi JK 135- va 137-moddalari bilan birgalikda va boshqalar.

Shaxsning sodir etgan jinoyatlardan birortasi uchun ham sudlanganlik faktining yo'qligi – takroran jinoyat sodir etishni jinoyatlar retsivididan farqlashga imkon beruvchi asosiy belgilardan biridir. Mazkur belgining mazmuni shundan iboratki, takroran jinoyat sodir etishni tashkil qiluvchi har bir jinoyat jinoiy-huquqiy oqibatga ega bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, jinoyatni takroran sodir etish faqatgina aybdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmagan yoki Jinoyat kodeksi umumiy qismi XII bobi qoidalari asosida jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan yoxud Jinoyat kodeksi umumiy qismi XIII bobida nazarda tutilgan holatlar asosida jazodan ozod etilgan hollardagina mavjud bo'ladi.

Sudlanganlik kabi jinoiy-huquqiy oqibat (uning aybdor shaxsdan olib tashlanmagan yoki o'chmaganligi hollarida) faqat retsividga, tabiiyki, bir qancha jinoyat sodir etishning mazkur shakliga tegishli shartlar mavjud bo'lsa, tegishli bo'ladi.

Jinoyatni takroran sodir etish belgisi ko'pgina moddalarda ijtimoiy xavfli qilmishning kvalifikatsiya belgisi bo'lganligi sababli shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatlar mazkur holda Jinoyat kodeksi moddasining takroran jinoyatni sodir etish uchun jazoni nazarda tutuvchi tegishli qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Muayyan jinoyat tarkibi konstruksiyasida mazkur baholovchi belgi nazarda tutilmagan bo'lsa, qilmish sud tomonidan JK 56-moddasi 1-qismi «n» bandi asosida jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olinadi.

Takroran jinoyatni sodir etish belgilari tugallangan va tugallanmagan jinoyatlarga ham, shuningdek, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarga ham tegishlidir. Qonunning mazkur qoidalaridan, tugallanmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar jinoiy jazoga sazovor xulq-atvor deb topilar ekan, tegishli ravishda takroran jinoyatni sodir etish belgilari mavjudligida shaxs, Jinoyat kodeksining Maxsus qismi tegishli moddalarini bo'yicha Umumiy qism 25-moddasi (Tayyorgarlik yoki suiqasd) tegishli qismiga va takroran jinoyat sodir etish kvalifikatsiyasini nazarda tutuvchi Maxsus qism moddasi muayyan bandi va qismiga havola qilinib javobgarlikka tortiladi. Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarga ham kvalifikatsiya qoidalari aybdorning roli va ishtirokchilik shakli ko'rsatilgan holda qo'llaniladi.

Yuridik adabiyotda takroran jinoyatni sodir etishning ikki turi belgilangan: umumiy va maxsus.

Umumiy takroriylik, qoida tariqasida, bir turdagi yoki har xil turdagi jinoyatlarni takroran sodir etishdan iborat. Bu JK 56-moddasi 1-qismi «n» bandi tartibida og'irlashtiruvchi holat deb topiladi va tegishlicha sodir etilgan qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir o'tkazmaydi.

Maxsus takroriylik – yuqorida so'z yuritilgan, jinoyatni kvalifikatsiya qilishga va jazoning og'irligiga ta'sir etadigan hamda qasddan bir xil yangi jinoyat sodir etish yoki alohida nazarda tutilgan hollarda qasddan bir xil yoxud har xil jinoyatlar sodir etishdagi takroranlikdir.

3-§. Jinoyatlar majmui

NOTA BENE !

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining turli moddalarida yoki bitta moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan, javobgarlikka tortiladigan ikki yoki bir necha jinoiy qilmishni sodir etish, agarda ulardan birortasi uchun ham shaxs sudlangan bo'lmasa, **jinoiatlar majmui** deb topiladi (**JK 33-moddasi 1-qismi**).

Jinoyatlar majmui uchun quyidagi belgilar xosdir:

– shaxs tomonidan ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etilishi;

– JK Maxsus qismining mustaqil moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinadigan, ya'ni bir xildagi yoki har xil jinoyatlar sodir etilishi;

– agarda birortasi uchun ham shaxs sudlanmagan bo'lsa, ya'ni ular hech bo'lmaganda bittasi uchun sud hukmi chiqquniga qadar sodir etilgan bo'lishi.

Shaxsning ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etishi, jinoyatlar majmuining zarur belgisi sifatida, jinoyatlarning har biri alohida, mustaqil, yagona jinoyat xususiyatiga ega ekanligini anglatadi. Bunda ularning uyg'unlashib ketishi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, aybdor ikki yoki undan ortiq oddiy alohida jinoyat sodir etishi yoki bitta oddiy va shu bilan birga davomli yoxud uzoqqa cho'zilgan jinoyat sodir etishi yo bo'lmasa ikkita davomli yoki uzoqqa cho'zilgan jinoyat sodir etishi mumkin.

Jinoyat majmui uchun, shuningdek, jinoyatlar ketma-ketligi turli vaqtlarda sodir etilishi xosdir. Keyingi jinoiy qilmish ma'muriy yoki boshqa huquqbuzarlikni emas, balki aynan jinoyatni tashkil etadi. Faqat shuni ta'kidlash lozimki, jinoyat majmui bir qilmish bilan ikkita jinoyatni sodir etish hollarida ham vujudga kelishi mumkin. Bu hodisa jinoyat huquqi nazariyasida jinoyatlarning ideal majmui (jami) deb nomlanadi.

Jinoyat kodeksining turli moddalariga tushadigan qilmishlarni sodir etish qonunda «...Maxsus qismning turli moddalarida yoki bitta moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan» qilmishlarni sodir etish kabi ifodalanadigan turli xildagi va bir turdagi jinoyatlarni sodir etish majmui deb tan olishdan boshqa narsa emas.

JK 33-moddasi 2-qismiga asosan, «agar shaxs sodir etgan qilmishda ushbu Kodeks Maxsus ayni bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarning alomatlari mavjud bo'lsa, u moddaning og'irroq jazo belgilangan qismi bo'yicha javobgarlikka tortiladi». Shuni nazarda tutish zarurki, ushbu norma ijtimoiy xavfli qilmishning mazmunida JK maxsus qismi aynan bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan kvalifikatsiyalovchi belgilar mavjud hollarni nazarda tutadi. Aynan shunday hollarda qonun chiqaruvchi og'irroq javobgarlik nazarda tutilgan modda qismi bo'yicha javobgarlik kelib chiqishini belgilab qo'ygan. Bunday hollarda, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishda jinoyatlar majmui

mavjud emas. Biroq bir qator hollarda har xil jinoyatlar uchun javobgarlik JK maxsus qismining aynan turli moddalarida nazarda tutiladi. Bu, asosan, modda qismi tegishli alohida jinoyatni to'la tasvirlab mustaqil sanksiyaga ega bo'lgan moddalarda mavjud. Masalan, JK 148-moddasining 1-qismida bila turib, g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatish yoki ishga tiklash to'g'risidagi sud qarorini bajarmaslik, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan, ushbu moddaning 2-qismida esa ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish uchun; JK 234-moddasi 1-qismida bila turib, qonunga xilof ravishda ushlab turish, ya'ni surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan qonuniy asosga ega bo'lmagan holda shaxs erkinligining qisqa muddatga cheklanishi, shu moddaning 2-qismida esa, bila turib qonunga xilof ravishda hibsga olish yoki hibsdan saqlash uchun javobgarlik belgilangan. Shuning uchun agar aybdor avvaliga shaxsni ishga tiklash haqidagi sud qarorini bajarmagan bo'lsa, keyin ayolni homiladorligi motiviga asoslanib ishga qabul qilmagan bo'lsa uning harakatlari mehnat qilish huquqini buzish sifatida JK 148-moddasi 1- va 2-qismlari bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Jinoyatlar majmui faqat har xil yoki turdosh jinoyatlar bo'yicha hosil bo'ladi, lekin aynan bir xil jinoyatlar bo'yicha hosil bo'lmaydi. Jinoyatlar majmuining jinoyatlar takroranligidan farqi ham mana shunda. Jinoyatlar majmuida sodir etilgan qilmish har doim shaxs tomonidan ikki yoki undan ortiq turdosh yoxud mustaqil kvalifikatsiya qilinadigan har xil jinoyatlar sodir etilishini nazarda tutadi, jinoyatlar takroranligida esa sodir etilayotgan ijtimoiy xavfli qilmish bir xil bo'ladi va faqat alohida hollarda turdosh yoki har xil bo'lishi mumkin.

Masalan, o'g'rilik (JK 169 - moddasi) va odam o'ldirish (JK 97-moddasi)da jinoyatlar majmui mavjud. Bu qonunga zid qilmishlar jinoiy-huquqiy himoyaning turli obyektlariga qaratilgan: birinchisi – o'zganing mulkini yashirincha talon-toroj qilish, ikkinchisi – boshqa odamni zo'rlik ishlatib hayotdan mahrum qilish. Bu holatda har xil jinoiy tajovuzlar yaqqol mavjud. Masalan, o'g'rilik (JK 169-moddasi) va

firibgarlik (JK 168-moddasi) sodir etishda jinoyatlar majmuida tajovuzlarning turdoshligi haqida gapirish mumkin bo'lib, bularda aynan bir obyektga tajovuz haqida gap bormoqda va ular JK maxsus qismining bir bobiga birlashtirilgan.

Jinoyatlar majmuining muhim belgisiga ko'ra, jinoyatlar majmuini tashkil qiluvchi yoki bir necha jinoyatlarning birontasi uchun ham shaxs sudlangan bo'lmaydi, ya'ni jinoyatlar jamiga kiruvchi qilmishlarning har biri sudlangunga qadar sodir etiladi, hali sud tomonidan muhokama qilinmagan va uning yuzasidan ayblov hukmi chiqarilmagan bo'ladi. Mazkur belgi jinoyat qonunida «ularning birortasi uchun ham shaxs sudlangan bo'lmasa» iborasi bilan ifodalangan.

Jinoyatlar majmui uning tarkibiga kiruvchi barcha qilmishlarning shaxs tomonidan sudlangungacha sodir etilishini anglatadi. Bundan tashqari, shuni unutmazlik kerakki, aybdor shaxs ilgari sodir etgan jinoyat uchun Jinoyat kodeksi Umumiy qismi XII bobi moddalari asosida jinoiy javobgarlikdan ozod etilmagan bo'lsa, jinoyatlar majmui bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi. Shaxs jazodan ozod etilsa-da, biroq javobgarlikdan ozod etilmasa va sudlanganlik kabi jinoiy-huquqiy oqibat olib tashlanmagan yoki o'chmagan bo'lsa, bu holat jinoyatlar majmui emas, balki retsidiv jinoyat deb topilishi kerak.

Jinoyatlar majmui jinoyat huquqi nazariyasida turlarga bo'linadi: jinoyatlar ideal majmui va jinoyatlar real majmui.

Jinoyatlarning real majmui turli vaqtlarda sodir etiladigan ikki yoki undan ortiq har xil jinoyatlarni sodir etish uchun javobgarlikni ko'zda tutuvchi bir qancha jinoyat sodir etish shaklidir.

Boshqacha qilib aytganda, aybdor har xil mustaqil harakatlar bilan ikki yoki undan ortiq jinoyatlar sodir etadi. Sud-tergov amaliyotida jinoyatlar majmuining mazkur turi jinoyat ideal majmuiga qaraganda ko'proq uchraydi.

Vaqt bo'yicha jinoyatlar real majmuiga kiruvchi uzilish tufayli bu holatni kvalifikatsiya qilish qiyinchilik tug'dirmaydi: qancha jinoyat bo'lsa, ular nazarda tutilgan JKning shuncha moddasi bor. Masalan, avval

bosqinchilik (JK 164-moddasi), keyin bezorilik (JK 277-moddasi) sodir etilgan.

Jinoyatlar real majmuining xususiyati qilmishlarning vaqtda bir-biriga mos tushmasligidir. Bunda jinoiy qilmishlar bir vaqtda sodir etilgandek bo‘lib ko‘rinishi ham mumkin. Bunday kombinatsiyaga faqat bir subyekt sodir etgan qilmishlar umumiy belgilarga ega bo‘lgan vaziyatlardagina yo‘l qo‘yilishi mumkin. Masalan, qisman, bezorilik oqibatida odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi «l» bandi) JK 277-moddasi bo‘yicha qo‘shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi. Ayni paytda «agar jamoat tartibini qo‘pol ravishda buzish va jamiyatga nisbatan ochiqdan-ochiq hurmatsizlik bildirish, shuningdek, o‘zganing mol-mulkini yo‘q qilish yoki unga shikast yetkazish bilan bog‘liq harakatlar aybdor tomonidan bezorilik oqibatida odam o‘ldirish jinoyatidan so‘ng qasddan sodir etilgan bo‘lsa, qilmish JK 97-moddasi ikkinchi qismining «l» bandi hamda Jinoyat kodeksi 277-moddasining tegishli qismlari bo‘yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak»¹.

Jinoyatlarning ideal majmui – bir necha jinoyatlarning konstruktiv tarkibiy qismi bo‘lib, bunda bir qilmish bilan bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq jinoyatlar sodir etiladi, aniqroq qilib aytganda, ikki yoki undan ortiq jinoiy oqibatlar yuzaga keladi. Bunda shaxs bir harakat bilan ikkita jinoyat sodir etayotganligi haqida gapirish o‘rinlidir. Masalan, shaxs o‘ch olish maqsadida qo‘shnisining uyiga uning mulkini nobud qilish va qarindoshlarini hayotdan mahrum etish yoki ularga og‘ir tan jarohati yetkazish niyatida o‘t qo‘yadi. Bunday holda shaxs ikki jinoyat sodir etmoqda: o‘zganing mulkini yo‘q qilayapti (JK 173-moddasi) va odam o‘ldirmoqda (JK 97-moddasi) yoki og‘ir tan jarohati yetkazayotir (JK 104-moddasi).

Sud-tergov amaliyotida jinoyatlar majmuining mazkur turi jinoyat ideal majmuiga qaraganda ko‘proq uchraydi.

Jinoyatlar ideal majmuida sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish jinoyatlar real majmuidagiga qaraganda murakkabroqdir.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасдан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 16-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 198-б.

Jinoyatlar ideal majmui qonun chiqaruvchi tomonidan maxsus normalarda inobatga olinmagan hollarda sodir etilgan qilmish JK maxsus qismining bir necha moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Yuqorida keltirilgan misol aynan qonun chiqaruvchi tomonidan inobatga olinmagan jinoyatlar ideal majmui hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyatlar ideal majmui maxsus normada inobatga olingan hollarda sodir etilgan qilmish JK Maxsus qismining faqat shu normasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Qonun chiqaruvchi tomonidan maxsus normada inobatga olingan jinoyat ideal majmuiga JK 102-moddasi bo'yicha ehtiyotsizlik natijasida odam o'ldirish belgilari bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etuvchi o'limga olib kelganlik fakti mavjud bo'lishiga qaramay, JK 104-moddasi 3-qismining «d» bandi bilan qamrab olingan jabrlanuvchining o'limiga olib kelgan qasddan tanaga og'ir shikast yetkazish misol bo'la oladi. Jabrlanuvchiga tanosil kasalligini yuqtirish bilan birga ro'y bergan va JK 118-moddasi 3-qismining «d» bandi bilan qamrab olingan holda nomusga tegishni (og'ir oqibatlarga olib kelgan nomusga tegish) ham shunga o'xshash misol sifatida keltirib o'tish mumkin.

Xuddi shunday, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlariga ko'ra, «agar jinoyatlardan biri boshqasini sodir etish vositasi yoki usuli bo'lib, har ikkala jinoyat belgilari Jinoyat kodeksi tegishli moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining faqat og'irroq jinoyat uchun javobgarlik belgilovchi bitta moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak. Bunda qilmishni yengilroq jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi modda bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi (masalan, xizmat mavqeidan foydalangan holda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish faqat JK 182-moddasi ikkinchi qismi «g» bandi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim)»¹.

«Agar qonunning bitta normasida jinoyat natijasida kelib chiqadigan turli ijtimoiy-xavfli oqibatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, qilmish jinoyatlar

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2008 йил 15 майдаги «Бир неча жиноят содир этилганда қилмишни квалификация қилишга доир масалалар тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 10-банд //Тўплам, 2008 й., 3-сон. – 14-б.

majmui sifatida Jinoyat kodeksining bevosita har bir obyektga ziyon yetkazilishi uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi tegishli moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak»¹.

«Amaldagi qonunlarga muvofiq savdo faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadi. Bunday ruxsatnomaning yo'qligi Jinoyat kodeksining 190-moddasi bo'yicha javobgarlikni yuzaga keltiradi.

Agar bunda aybdorning savdo faoliyatini faqat ruxsatnoma (litsenziya)siz amalga oshiribgina qolmay, balki ro'yxatdan o'tishdan ham bo'yin tovlaganligi aniqlansa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining 188-va 190-moddalari majmui bilan kvalifikatsiya qilinmog'i lozim»².

Jinoyatlarning ideal majmuini **jinoiyat-huquqiy normalar raqobatidan** ajratish lozim. Jinoyat-huquqiy normalar raqobati aybdor shaxs qilmishining Jinoyat kodeksi Maxsus qismi ikki yoki undan ortiq moddalari bo'yicha kvalifikatsiya qilish mumkinligi aniqlangan jinoyatlarning ideal majmui bilan tashqi o'xshashlikka ega bo'ladi. Bitta qilmish bilan sodir etiladigan ikki yoki undan ortiq jinoyatlar bo'lganda va ularning har biri maxsus qism turli moddalari bilan ko'zda tutilgan javobgarlik bo'lgandagi jinoyatlar ideal majmuidan farqli o'laroq jinoiyat-huquqiy normalar raqobatida ikki yoki undan ortiq jinoiyat-huquqiy normalar belgilari, ya'ni Maxsus qism moddalari bilan qamrab olinadigan bitta qilmish bo'ladi. Amaldagi jinoiyat qonuni mazkur vaziyatda qaysi norma qo'llanishi lozimligini ko'rsatmaydi. Boshqa tomondan, raqobatdagi normalar yig'indisi bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilish noto'g'ridir, chunki, birinchidan, bu bitta jinoiy qilmish sodir etilgan bo'la turib, sun'iy ravishda bir qancha jinoyat sodir etishni yuzaga keltiradi; ikkinchidan, qator hollarda raqobatdagi normalarni jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish asossiz tarzda jinoiy javobgarlikni oshiradi. Bu borada normalar raqobatlashuvida kvalifikatsiya qilish qoidalari mavjud.

¹ Ўша жойда, 8-банд, 2-хатбоши.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 15 мартдаги «Савдо соҳасидаги жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 9-сонли қарори, 5-банди // Тўплам, 1-жилд. – 52-б.

Xususan, eng keng tarqalgan raqobatdagi normalar turi – bu **umumiy** va **maxsus norma raqobatidir**. Mazkur holatda raqobatlashuvchi ikkita jinoyat-huquqiy normalardan biri umumiy, ikkinchisi esa, maxsus, ya'ni umumiy normada bayon etilgan turli xil qilmishlarni nazarda tutuvchi norma bo'ladi. Bu yerda normalar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilish mumkin emas, shaxsni maxsus normani qo'llab aybdor deb topish to'g'riroq bo'ladi. Masalan, o'zboshimchalik, ya'ni haqiqiy va faraz qilingan huquqlarni amalga oshirish (JK 229-moddasi) va yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish (JK 229¹-moddasi). Quyidagilar umumiy normaga nisbatan maxsus normani qo'llashga asos bo'lib hisoblanadi. Har ikki modda sodir etilgan qilmishni u yoki bu darajada qamrab oladi. Biroq maxsus norma nisbatan aniqroq dispozitsiyani va shundan kelib chiqib, sodir etilgan huquqqa xilof ijtimoiy xavfli qilmishning o'ziga xos xususiyatlari va spetsifik tomonlarining aniqlanishini nazarda tutgani uchun maxsus normaning qo'llanilishi qilmish kvalifikatsiyasi nuqtai nazaridan ham, aybdorni jinoiy javobgarlikka tortish nuqtai nazaridan ham asosli bo'ladi. Shunday qilib, JK 229¹-moddasi JK 229-moddasida mustahkamlangan belgilar bilan bir qatorda qilmishning ijtimoiy xavflilik xarakteri va darajasini ifodalovchi maxsus belgilarga ham ega.

Kvalifikatsiyalovchi belgilarga ega qilmish sodir etilgan bir paytda, ushbu qilmishda aybni yengillashtiruvchi kvalifikatsiya qilishga sabab bo'ladigan boshqa belgilar ham mavjud bo'lganda, jinoyatlar majmui bo'lmaydi. Qilmish mazkur holatda jinoyatni sodir etganlik uchun yengilroq jazoni ko'zda tutgan JK moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi (masalan, affekt holatida o'ta shafqatsizlik bilan odam o'ldirish, JKning 98-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarur).

«Agar aynan bir jinoyatni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikni yengillashtiruvchi kvalifikatsiya belgilari Jinoyat kodeksining bir necha moddasida nazarda tutilgan bo'lsa, qilmish Jinoyat kodeksining javobgarlikni ko'proq yengillashtiruvchi moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak (masalan, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib va

kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odam o'ldirish faqat JK 100-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim)»¹.

Raqobatdagi normalarni **normalar kolliziyasidan** farqlash talab etiladi. Zero, oxirgi holat normalar o'rtasida muayyan ziddiyat, qarama-qarshilik mavjud bo'lishini taqozo etadi, raqobatdagi normalarda esa bu holat yo'q. Normalar kolliziyasi, mazkur normalarga aloqador konkret jinoyatlar mavjudmi yoki yo'qmi, bundan qat'i nazar, vujudga kelishi mumkin.

4-§. Retsidiv jinoyat

Retsidiv jinoyat bir qancha jinoyatlar tizimida eng xavfli shaklidir.

NOTA BENE !

Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat deb topiladi (**JK 34-moddasi 1-qismi**).

Retsidiv jinoyat bir qancha jinoyatlar shakli sifatida, ilgari qasddan qilgan jinoyati uchun shaxs muayyan turdagi jazoga hukm qilinganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir qilganlikdan iboratdir. Bu quyidagi ikkita belgiga asoslangan umumiy yoki oddiy retsidiv jinoyatdir:

- qasddan yangi jinoyat sodir etilishi;
- ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun shaxsning hukm qilinganligi.

Ta'kidlash joizki, mazkur belgilar JK 34-moddasida ko'rsatib o'tilgan, barcha turdagi retsidiv jinoyatlar uchun – oddiy, xavfli va o'ta xavfli retsidiv jinoyatlar uchun umumiy bo'lib hisoblanadi.

Retsidiv jinoyat shaxs ilgari sodir qilgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin maxsus qismning boshqa bir moddasida nazarda tutilgan **jinoyatni qasddan** sodir etishidir. Shu sababli aybning ehtiyotsizlik shaklidagi ikki

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2008 йил 15 майдаги «Бир неча жиноят содир этилганда қилмишни квалификация қилишга доир масалалар тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 9-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси, 2008 й., 3-сон. – 14-б.

yoki undan ortiq jinoyatni sodir etish hollari, garchi shaxs ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan jinoyati uchun ilgari javobgarlikka tortilgan bo'lsa-da, retsdiv jinoyat deb topilishi mumkin emas. Mazkur qoida to'la ravishda ehtiyotsizlik orqasida va qasddan jinoyat sodir etish hollariga ham tegishlidir.

Sudlangandan so'ng takroran qasddan jinoyat sodir etilishi shaxsning unga ogohlantiruv-tarbiyaviy ta'sir etilganligiga qaramay, to'g'ri yo'lga kirmaganligidan guvohlik beradi. Shuning uchun, bunday jinoyat jamiyat va davlat tomonidan yanada qattiqroq qayta javobni (reaksiyani), retsdivistga nisbatan qo'shimcha jinoiy javobgarlik va jazo choralari qo'llash zaruratini taqozo etadi.

Retsdiv jinoyatlarga turli vaqtda, ketma-ket sodir etilish xos bo'lib, bunda qasddan sodir etiladigan yangi jinoyatlar o'xshash, bir turdagi va har xil turdagi jinoyatlar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, «Jinoyat kodeksi 34-moddasi mazmuniga ko'ra, retsdiv jinoyat mavjudligi haqidagi masalani hal etishda shaxs sudlanayotgan yoki muqaddam sudlangan qasddan sodir etilgan jinoyat tamom bo'lgan yoki tamom bo'lmagan jinoyat ekanligi, shuningdek, ushbu jinoyatlardan qay birida bo'lsin shaxs bajaruvchi yoki ishtirokchi bo'lganligi ahamiyatga ega emas»¹.

Retsdiv jinoyatning aniqlovchi belgisi **shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinganligidir**. Hukm qilinganlik retsdiv jinoyatni takroran jinoyat sodir etishdan farqlash imkonini beruvchi asosiy belgi bo'lib hisoblanadigan jinoiy-huquqiy oqibatdir.

«Takroran va retsdiv jinoyat sodir etilishi qonunda belgilangan asoslar va doirada og'irroq jazo tayinlanishiga olib kelishini inobatga olib, har bir ish bo'yicha JK 77–80-moddalariga muvofiq tugallangan yoki olib tashlangan sudlanganlik holati mavjudligi haqidagi materiallar tekshirib chiqilishi va shunga asoslanib, retsdiv jinoyat bor-yo'qligi to'g'risidagi

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 9-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 227-б.

masala hal etilishi kerak»¹. Shu bilan birga, mahkumning holatini og‘irlashtirishning oldini olish maqsadida, shuni esda tutish lozimki, JKning 65, 66, 66¹, 68, 69, 70, 71, 76-moddalariga binoan shaxs ilgari sodir etgan jinoyati uchun jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod etilgan bo‘lsa, sudlanganligi belgilangan tartibda olib tashlangan yoki o‘chgan bo‘lsa, shuningdek, qonunda shaxs ilgari sodir qilgan qilmish jinoiyliги bekor qilingan taqdirda, sudlanmagan hisoblanadi.

Sudlanganlikning mavjudligi u yoki bu darajada jazoning turi va hajmiga ta’sir etadi hamda turli xil jinoiy-huquqiy oqibatlariga olib keladi. Ilgari jinoiy javobgarlikka tortilib, keyinchalik yana qasddan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlash masalasini hal qilishda, sudlar jazo tayinlashning individuallashtirish prinsipiga asoslanib, ashaddiy tarzda tuzalish yo‘liga tushishni istamayotgan retsidivist shaxslarga asossiz ravishda yengilroq jazo berish JK maqsadlari ro‘yobga oshishiga xalaqit berishini inobatga olishlari shart.

Jinoyat qonunida retsidiv jinoyat haqida Jinoyat kodeksi umumiy qismi normalarida ham, maxsus qismi normalarida ham so‘z boradi.

Umumiy qism normalarida retsidiv jinoyat:

– jazo tayinlashda JK 56-moddasi 2-qismi «n» bandiga muvofiq og‘irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi mumkin;

– JK 60-moddasida nazarda tutilgan qoida bo‘yicha jazo tayinlashning alohida tartibi qo‘llanishini keltirib chiqaradi;

– jazoni ijro etish muddatlari o‘tishining uzilishiga asos bo‘lib hisoblanadi (JK 69-moddasi 2-qismi);

– JK 72-moddasi 7-qismida mustahkamlangan shartlar mavjud bo‘lganda shartli hukm qilish qoidalarining qo‘llanilishiga to‘sqinlik qiladi;

– aybdorning chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilinishiga (JK 71-moddasi 1-qismi) to‘sqinlik qiladi;

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 9-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 227-б.

– jazo o‘tash muddatidan ilgari shartli ozod qilishda yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishda jazoning haqiqiy o‘talgan muddatini ko‘paytirishga asos bo‘ladi;

– jazoni ijro etish koloniyasi turini belgilashga asos bo‘ladi;

– amnistiya aktini qo‘llash masalasini hal qilishda hisobga olinadigan shartlardan biri bo‘lishi mumkin.

Jinoyat kodeksi maxsus qismi normalarida retsdiv jinoyat xavfli va o‘ta xavfli retsdiv jinoyat bilan bog‘liq va jinoyat tarkibining baholanadigan belgisi sifatida tan olinadi.

JK 34-moddasi 2-qismiga ko‘ra, «Ilgari hukm qilingan jinoyatiga o‘xshash jinoyat sodir etgan, ushbu Kodeksda alohida ko‘rsatilgan hollarda esa, maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi **xavfli retsdiv** jinoyat deb topiladi».

Oddiy retsdivdan farqli ravishda xavfli retsdiv qonun chiqaruvchi tomonidan ba‘zi jinoyat tarkiblari uchun baholanadigan belgi kabi ta‘riflanadi. Xavfli retsdiv jinoyat Jinoyat kodeksi maxsus qismining ko‘pgina moddalarida jinoyatlarning baholanadigan belgilari sifatida nazarda tutiladi. Masalan, JK 97-moddasi 2-qismi «r» bandi, 104-moddasi 3-qismi «b» bandi, 164-moddasi 3-qismi «a» bandi va boshqalar. Xavfli retsdiv jinoyat modda konstruksiyasida baholanadigan belgi sifatida nazarda tutilmagan bo‘lsa va shaxs tomonidan mazkur jinoyat takroran sodir etilgan bo‘lsa, shaxs bu jinoyati uchun sudlangan bo‘lib, mol-mulkni qasddan nobud qilish (JK 173-moddasi) jinoyatini sodir etgan hollarda uning qilmishi JK 56-moddasi 1-qismi «n» bandiga havola qilinib jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Xavfli retsdiv holati dastlabki tergov organi tomonidan jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinayotganda ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lishi lozim va keyinchalik bu sud hukmining tavsif qismida ham o‘z aksini topishi kerak. Xavfli retsdiv jinoyatga nisbatan ham sudlanganlik olib tashlanishi va o‘chganligi hamda shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun javobgarlik yoki jazodan ozod qilinishi kabi boshqa hollarda ham xavfli retsdiv jinoyat deb topish asoslarining olib

tashlanishi qoidalari qo'llaniladi. Misol uchun, «agar muqaddam sodir etilgan qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallangan yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlangan bo'lsa, shuningdek, agar qotillik jinoyati sodir etilgan paytga kelib ilgari jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari o'tgan bo'lsa, qilmish JK 97-moddasi ikkinchi qismining «r» bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas»¹.

o'ta xavfli retsivid jinoyat bir qancha jinoyat sodir etishning nisbatan eng og'ir shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi.

JK 34-moddasi 3-qismi shaxsni o'ta xavfli retsivist deb topishning quyidagi asoslarini keltiradi: «besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya'ni:

a) ilgari o'ta og'ir jinoyati uchun yoki ikki marta og'ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o'ta og'ir jinoyat sodir etilishi;

b) ilgari og'ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldinkeyinligidan qat'i nazar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og'ir jinoyat sodir etishi o'ta xavfli retsivid jinoyat deb topiladi».

Mazkur variantlarni bayon qilish barobarida, qonun chiqaruvchi jinoyatlarni sodir qilishda ayb shakliga to'xtalmaydi. Biroq, JK 15-moddasi mazmunidan kelib chiqadiki, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar faqat qasddan sodir qilinishi mumkin. Binobarin, jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilashda eng quyi chegara sifatida kamida besh yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi namoyon bo'ladi. Bu hol jinoyatlarning qonundagi tasnifiga to'liq muvofiqdir.

«Jinoyat kodeksi 34-moddasi uchinchi qismini qo'llashda ozodlikdan mahrum qilish jazosiga sudlangan shaxs deganda, muqaddam sudning

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 21-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 199–200-б.

qonuniy kuchga kirgan hukmiga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlangan shaxs tushunilib, bunda hukm ijroga qaratilganligining, shu jumladan, shaxs mazkur jazoni o'tamaganligi (masalan, shaxsning jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganligi, jazo ijrosi JPK 533-moddasiga muvofiq kechiktirilganligi)ning yoki qisman o'taganligining (masalan, keyinchalik jazodan muddatidan ilgari shartli, amnistiya aktiga asosan, kasalligi oqibatida ozod qilinganligining, jazo yengilrog'i bilan almashtirilganligining) ahamiyati yo'q, hukm jazoni ijro etish muddatlari o'tib ketganligi uchun ijroga qaratilmagan holler (JK 69-moddasi) bundan mustasno.

Shu munosabat bilan JK 34-moddasi 3-qismida ko'rsatilgan belgilar mavjud bo'lganda, sud ilgari shartli hukm qilingan yoxud hukm ijrosi kechiktirilgan shaxsni ham, agar bu shaxs tegishlicha sinov muddati yoki hukm ijrosi kechiktirilgan davr ichida yangi jinoyat sodir etsa, o'ta xavfli retsdivist deb topishga haqli»¹.

O'ta xavfli retsdiv jinoyatning asosiy o'ziga xos belgisi uning o'ta xavfli retsdiv deb, faqat sud tomonidan topilishining mustahkamlanganligidir (**JK 34-moddasi 4-qismi**). Bu qoida shundan dalolat beradiki, sudlar ijtimoiy xavflilik haqiqiy tabiati va darajasini aniqlashda ustunlikka ega bo'ladi va sudyalarda har bir muayyan vaziyatda ish holatlari va o'ta xavfli retsdivist maqomini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladigan aybdor shaxsi haqidagi aniq ma'lumotlardan kelib chiqishlari lozim.

JK 34-moddasi 4-qismi shaxsni o'ta xavfli retsdivist deb topish to'g'risidagi masala hal qilinayotgan vaqtda uning boshqa davlatlar sudlarining hukmlari bo'yicha sudlanganligi ham hisobga olinishi mumkinligini ham qayd etadi. Bu shundan dalolat beradiki, shaxsni o'ta xavfli retsdivist deb topishda aybdor shaxsining tabiati haqidagi ma'lumotlar katta ahamiyatga egadir, chunki boshqa davlat sudining ayblov hukmi ham aybdor xulqining muayyan ijtimoiy qoralanishi, hukm qilinishini ifodalaydi. Lekin, boshqa davlatda sodir etilgan jinoyat og'ir

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2008 йил 15 майдаги «Бир неча жиноят содир этилганда қилмишни квалификация қилишга доир масалалар тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 27-банд // Тўплам, 2008 й., 3-сон. – 16-б.

yoki o‘ta og‘ir bo‘lishi bilan birga, aybdor besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, sudlar shaxsning boshqa davlat hududida sodir etgan jinoiy jazoga sazovor qilmishi va shu bilan bog‘liq uni aybdor deb topish milliy jinoyat qonunchiligiga muvofiq kelishi lozimligini ham nazarda tutishlari kerak.

Qonun ilgari qasddan jinoyat sodir etgan muayyan shaxslarga nisbatan cheklashlarni mustahkamlaydi. Masalan, «shaxsni o‘ta xavfli retsivist deb topish haqidagi masalani hal etishda shuni nazarda tutish lozimki, JK 34-moddasining oltinchi qismiga ko‘ra, o‘n sakkiz yoshgacha sodir qilingan jinoyat uchun sudlanganlik shaxsni o‘ta xavfli retsivist deb topishda hisobga olinmaydi. Shundan kelib chiqib, agar shaxs muqaddam bir necha jinoyat uchun sudlangan bo‘lib, ulardan ayrimlarini voyaga yetmagan yoshda sodir etgan bo‘lsa, faqat voyaga yetgan davrda sodir etilgan jinoyatlar uchun sudlanganlik e‘tiborga olinishi lozim»¹.

Bunda shuni inobatga olish zarurki, «yangidan bir necha jinoyat sodir etgan shaxsni o‘ta xavfli retsivist deb topish haqidagi masalani hal qilishda sud, jinoyatlar yoki hukmlar majmui bo‘yicha tayinlangan uzil-kesil jazo muddatidan emas, balki sodir etilishi shaxsni o‘ta xavfli retsivist deb topish uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinoyat uchun tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo muddatidan kelib chiqishi lozim»².

JPK 466-moddasi 3-bandiga muvofiq, shaxs o‘ta xavfli retsivist deb topilganligi haqida hukmning kirish qismida ko‘rsatib o‘tilishi shart. Shu yerda qonunda belgilangan tartibda o‘chmagan yoki olib tashlanmagan avvalgi sudlanganliklar ham qayd etilishi lozim. «JKning 77-moddasiga muvofiq, sudlanganlik muddatining o‘tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi munosabati bilan uning barcha huquqiy oqibatlarini bekor bo‘ladi. Shuning uchun u hukmning kirish va tavsif qismlarida

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 9-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 228-б.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2008 йил 15 майдаги «Бир неча жиноят содир этилганда қилмишни квалификация қилишга доир масалалар тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 25-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси, 2008 й., 3-сон. – 16-б.

ko'rsatilmaydi»¹. Shu asnoda, Oliy sud Plenumi tushuntiradiki, olib tashlangan yoki o'chgan sudlanganlik hukmning tavsif qismida faqatgina u ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxsga koloniya turini tayinlash uchun ahamiyatga ega bo'lgandagina ko'rsatilishi mumkin. Hukmning tavsif qismida aybdorni o'ta xavfli retsivist deb topish to'g'risida asoslantirilgan xulosalar bo'lishi kerak. Ayblov hukmining qaror qismida boshqa masalalardan tashqari yana sudlanuvchining o'ta xavfli retsivist deb topilganligi (basharti sud shunday qaror qabul qilgan bo'lsa) to'g'risidagi qaror yoritilishi lozim.

Yuqorida, voyaga yetmagan yoshda olingan, o'chgan yoki olib tashlangan sudlanganlik yuzasidan cheklovlar, retsivid jinoyatning eng xavfli turida tan olinganligi bois, ular nafaqat o'ta xavfli retsivid jinoyat, balki retsivid jinoyatlarning boshqa turlariga ham tegishli bo'lishi darkor.

Sudning shaxsni o'ta xavfli retsivist deb topish vakolatini ko'zda tutib, **JK 34-moddasi 7-qismida** jinoyat qonuni shuni tushuntiradiki, o'ta xavfli retsivist bilan bog'liq jinoiy-huquqiy oqibatlar faqatgina keyinchalik jinoyat sodir etish bilan tan olinadi. «Ushbu Kodeks maxsus qismining o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi moddalari shaxs ushbu jinoyatni sodir etgunga qadar qonunda belgilangan tartibda o'ta xavfli retsivist deb topilgan bo'lsagina qo'llaniladi» (**JK 34-moddasi 7-qismi**). Boshqacha aytganda, jinoyatni o'ta xavfli retsivid sifatida kvalifikatsiya qilish uchun, ushbu retsivid aniq qayd qilinishi shart, bu holat esa faqat shaxs sud tomonidan o'ta xavfli retsivist deb topilganidan so'ng vujudga keladi.

Sud tomonidan shaxsni o'ta xavfli retsivist deb topish bir qator huquqiy oqibatlarga olib keladi:

– o'ta xavfli retsivist tomonidan jinoyat sodir etganlik Maxsus qismning ko'p moddalarida qonun chiqaruvchi tomonidan tasniflovchi yoki alohida kvalifikatsiya belgisi sifatida baholanadi;

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 2 мая 1997 г. № 2 «О судебном приговоре» (с изменениями и дополнениями, внесенными постановлениями Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 июня 2002 г. № 10, 19 декабря 2003 г. № 20 и 3 февраля 2006 г. № 5) // Сборник, Т.1. – С. 338.

– o‘ta xavfli retdivist erkaklar ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni maxsus tartibli koloniyalarda, ayollar esa qattiq tartibli koloniyalarda o‘tashadi;

– o‘ta xavfli retdivistlarga ozodlikdan mahrum etish jazosi muddatining bir qismini turma qamog‘ida saqlash tarzida o‘tash tayinlanishi mumkin;

– ularga nisbatan jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etishni qo‘llashning bir qancha cheklashlari belgilanishi mumkin;

– ularga nisbatan shartli ravishda jazo tayinlash, jazo muddatidan ilgari shartli ozod etish va jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish mumkin emas;

– o‘ta xavfli retdivistlarga nisbatan sudlanganlikni olib tashlashning alohida tartibi belgilanadi. Mazkur turdagi retdiv JK 79-moddasi 2-qismiga asosan, sudlanganlikni olib tashlanishi yo‘li bilan bekor qilinishi mumkin.

Qonunda belgilangan tartibda oddiy, xavfli va o‘ta xavfli turlarga bo‘linishdan tashqari, jinoyat-huquqiy doktrinada sudlanganlik miqdori, sodir qilingan jinoyatlar xarakteri, ularning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra, oddiy va murakkab, umumiy va maxsus, penitentsiar va o‘ta xavfli retdiv jinoyatlar turlari ajratiladi.

Oddiy retdiv shaxs ikki bor sudlangan bo‘ladi. **Murakkab retdiv** – bu o‘ziga xos, bir qanchalik retdiv, bunda aybdor shaxs uch marotaba va undan ko‘proq sudlangan.

Umumiy retdiv shunda namoyon bo‘ladiki, aybdorning «arxivi» turli xil jinoyatlardan tarkib topgan (bevosita va turdosh obyekt bo‘yicha tafovutga ega hamda ayb shakli turlicha bo‘lgan jinoyatlar). Misol uchun, bojxona qonunchiligini buzganlik uchun sudlanganligi bo‘la turib, shaxs o‘g‘rilik yoki bezorilik va hokazo jinoyatni sodir qiladi. **Maxsus retdiv** bir-biriga yaqin yoki turdosh jinoyatlarni o‘z ichiga oladi (bir xil bevosita va turdosh obyektga ega hamda ayb shakli bir bo‘lgan jinoyatlar). Masalan, shaxs bosqinchilik jinoyati uchun sudlangan bo‘lib, xuddi shu jinoyat yoxud o‘g‘rilik, firibgarlik jinoyatini sodir etadi. Umumiy retdivga nisbatan murakkab retdiv xavfliroq tusga egadir.

Penitentsiar retsidivda ilgari ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxs, avvalgi jinoyat uchun sudlanganlik muddati davomida yangi jinoyat sodir qilib, yana ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinadi. Mazkur retsidiv turining nomi ham jazoni ozodlikdan mahrum qilish joylarida o‘tash bilan bog‘liq.

o‘ta xavfli retsidiv tushunchasi jinoyat huquqida uning qonundagi ta‘rifiga to‘la mos, ya‘ni u, sud hukmiga asosan, o‘ta xavfli retsidivist deb topilgan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilgan paytda kuzatiladi.

«Bir qancha jinoyat sodir etish» mavzusi yuzasidan yakuniy savollar

1. Bir qancha jinoyat sodir etish deganda nima tushuniladi? Uning ahamiyati nimada?

2. Bir qancha jinoyatlar sodir etishning qanday zaruriy belgilari mavjud?

3. Qanday turdagi jinoiy qilmishlar bir qancha jinoyatlarni tashkil qiladi?

4. Bir qancha jinoyatlarning yagona jinoyatdan farqi nimada? Davomli, uzoqqa cho‘zilgan va tarkibli jinoyatlar ostida nima tushuniladi?

5. Amaldagi qonunchilikda bir qancha jinoyat sodir etishning qanday turlari mavjud?

6. Takroran jinoyat sodir etish deganda nima tushuniladi? Bir qancha jinoyat sodir etishning mazkur turi bo‘yicha kvalifikatsiya qilishning qanday o‘ziga xos xususiyatlari bor?

7. Jinoyatlar majmui ostida nima tushuniladi? Uning qanday zaruriy belgilari mavjud? Jinoyatlar majmuining qanday turlarini bilasiz?

8. Jinoyatlar majmuini takroriylikdan farqlab bering.

9. Jinoyatlar real majmuining jinoyatlar ideal majmuidan tafovuti nimada? Qilmishni jinoyatlar ideal majmui bo‘yicha kvalifikatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari nimada? Qonun tomonidan inobatga olingan jinoyatlar ideal majmui va qonunda inobatga olinmagan jinoyatlar ideal majmui nimada ifodalanadi?

10. Raqobatdagi normalar deganda nima tushuniladi? Uning bir qancha jinoyatlarni sodir etishdan qanday farqlari mavjud? U yoki bu turdagi raqobatdagi normalar mavjudligida kvalifikatsiya qilish qoidalari nimadan iborat?

11. Retsidiv jinoyat ostida nima tushuniladi, uning asosiy belgilari nimada? Qilmishda jinoyatlar majmui va retsidiv birikishi mumkinmi?

12. Amaldagi JKda retsidivning qanday turlari ajratiladi? Jinoyat-huquqiy doktrinada retsidivning qaysi turlari mavjud?

13. Retsidiv jinoyatni topishda qanday sudlanganlik turlari inobatga olinmaydi?

14. Retsidivning takroriy jinoyat sodir etishdan farqi nimada?

15. Xavfli retsidiv oddiy retsidivdan qanday farqlanadi? Qay holatda shaxs o'ta xavfli retsidivist deb tan olinadi?

16. Retsidiv jinoyat qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Бытко Ю.И. Учение о рецидиве преступлений в российском уголовном праве: история и современность. – Саратов: 1998. – 220 Б.

Горелик А.С. Конкуренция уголовно-правовых норм. – Красноярск: 1996. – 67 Б.

Иногамова-Хегай Л.В. Конкуренция норм уголовного права. – М.: 1999. – 288 Б.

Красиков Ю.А. Множественность преступлений (понятие, виды, наказуемость). – М.: 1998. – 96 Б.

Малков В.П., Тимершин Х.А. Множественность преступлений. – Уфа.: УВШ МВД РФ, 1995. – 238 Б.

Яковлев А.М. Совокупность преступлений. – М.: Госюриздат, 1964. – 119 Б.

Ilmiy maqolalar

Бикеев И. Актуальные проблемы ответственности за множественность преступлений // Ж. Уголовное право. 2001. № 4. – 13–14-б.

Бойко А. Верните неоднократность // Ж. Законность. 2006. № 1. – 12-б.

Бражник Ф. Множественность преступлений – отражение их совокупной общественной опасности // Ж. Уголовное право. 2000. № 3. – 6–10-б.

Бриллиантов А.В. Множественность преступлений в уголовном законе // Ж. Российский следователь. 2004. № 2. – 11–13-б.

Иногимова Л. Неоднократность и конкуренция норм. Некоторые спорные вопросы квалификации преступлений и назначения наказания // Ж. Уголовное право. 2002. № 2. – 30–33-б.

Спивак С. Понятие совокупности преступлений и ее виды // Ж. Российская юстиция. 2005. № 5. – 44-б.

Шнитенков А. Проблемы квалификации при совокупности преступлений // Ж. Российская юстиция. 2005. № 2. – 68-б.

XII BOB. QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILADIGAN HOLATLAR

1-§. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi u yoki bu qilmishning jinoiyligi masalasini hal etganda unda jinoyat tarkibining barcha belgilari, albatta, haqiqatda mavjudligi talabidan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, qilmishlar tashqi jihatdan (ya’ni, rasman) sodir etilishi uchun javobgarlik JK da ko‘zda tutilgan harakatlar yoki harakatsizlikka o‘xshagan bo‘lsa-da, haqiqatda jinoyat tarkibining barcha elementlariga ega bo‘lmasa, jinoyat deb tan olinishi mumkin emas va kerak emas. Bunday holatlarda jinoiy javobgarlik istisno etiladi.

JK 35-moddasida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar sifatida u yoki bu holatlarni tan olishning yo‘naltiruvchi asoslari belgilab beriladi, nafaqat huquqni qo‘llaydigan organlar uchun, balki qonun chiqaruvchilar uchun ham JK III bo‘limining biror-bir qoidalarini o‘zgartirish, to‘ldirish yoki bekor qilishda ularga amal qilish majburiy bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu qoidalar JK 3–10-moddalarida mustahkamlangan tamoyillarga, chunonchi, adolat va gumanizm tamoyillariga uning muntazam muvofiq amal qilishidan dalolat beradi.

JK 35-moddasi 1-qismiga muvofiq, «qilmishda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo‘lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy yoki aybli bo‘lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi».

Qonunda ushbu belgilarning yo‘qligiga ishora qilish tasodifiy emas, balki JK 14-moddasining qoidalari bilan belgilab berilgan: «Jinoyat kodeksi bilan jazo qo‘llash tahdidi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jinoyat deb topiladi». Shu tufayli hech bo‘lmasa bitta belgisining yo‘qligi sodir etilgan harakat yoki harakatsizlikni jinoyat soniga kiritishga imkon bermaydi, ya’ni shunday harakatning jinoiyligini istisno qiladi. Masalan, «jinoyatni istisno qiluvchi holatlar (masalan, kam ahamiyatli qilmishlar bo‘lgani uchun) ijtimoiy

xavfli bo‘lmasligi mumkin yoki huquqqa qarshi yo‘nalgan bo‘lmasligi mumkin (masalan, zaruriy mudofaa; oxirgi zarurat; ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chog‘ida zarar yetkazish) yoki aybli harakat bo‘lmasligi mumkin (buyruqni yoki boshqacha tarzda vazifani bajarish; kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilik, jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud shunday majburlashni qo‘llash bilan qo‘rqitish natijasida), oxirgi ikkita holatda aybning mavjudligi JK 40- va 41-moddalariga muvofiq, jinoiyligi oldindan ayon bo‘lgan buyruq yoki boshqa farmoyishni bajarib, jinoyat sodir etgan shaxs uchun yoki ularning tavakkalchiligi odamlarning halok bo‘lish xavfi, ekologiya halokati yoxud boshqacha og‘ir oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini bila turib qilingan bo‘lsa, ular jinoiy javobgarlikka tortiladi»¹.

Shuni hisobga olish lozimki, **JK 35-moddasi 1-qismi** hech bo‘lmasa bittasining yo‘qligi sodir etilgan qilmishning jinoiy emasligidan dalolat beradigan belgilarning barchasini to‘liq belgilab beradi. Shu tufayli ushbu normada ko‘rsatilmagan boshqa elementlar biror-bir holatni qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida tan olish uchun asos yaratib berishi mumkin emas.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar masalasi umuman biror-bir qilmish uchun javobgarlik belgilanganda emas, faqat uni amalga oshirishning muayyan vaziyati tufayli boshqacha mazmun kasb etgan muayyan jinoyat sodir etilgan holatda yuzaga keladi. Shunday qilib, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar ma‘lum bir qilmishning xususiyatini aks ettirib, uning ijtimoiy foydali ekanligi, uning ma‘naviy jihatdan va qonun tomonidan ma‘qullanishi yoki uning mumkin ekanligidan dalolat beradi (qilmishning kam ahamiyatli bo‘lgan holatida). Bunday hollarda qilmish o‘z yuridik mohiyatiga ko‘ra faqat tashqi jihatidan JK da ko‘zda tutilgan jinoyat tarkibining belgilariga o‘xshash bo‘ladi.

JK 35-moddasining 2-qismida muayyan qilmishda mavjud bo‘lgan holda uning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning ro‘yxati keltirilgan: «kam ahamiyatli qilmishlar; zaruriy mudofaa; oxirgi zarurat; ijtimoiy

¹ Уголовное право. Общая часть: Учебник / А.С. Якубов, Р. Кабулов и др. – С. 345

xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chogʻida zarar yetkazish; buyruqni yoki boshqacha tarzda vazifani bajarish; kasb yoki xoʻjalik faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan asosli tavakkalchilik va jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud shunday majburlashni qoʻllash bilan qoʻrqitish natijasida».

Ushbu roʻyxat toʻliq qamrab oluvchi boʻlib, shu tufayli unda koʻrsatilmagan boshqa holatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb tan olinishi mumkin emas. Shu sababli, masalan, mavjudligi bilan qilmishning jinoiyligi belgilanadigan voqealar yoki harakatlar yoki harakatsizlik yoki uning boshqa manbalarda istisno etilishi asoslanadigan holatlar shunday qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat deb tan olinmaydi.

Shuni qayd etish lozimki, qonun nafaqat qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarni mustahkamlab qolmasdan, balki ularning qonuniyligi shartlarini ham belgilab beradi, ularga JK III boʻlimining 36, 37, 38, 39, 40-moddalari bagʻishlangan. Ushbu shartlarga mos kelmaslik muayyan harakatlarni koʻrib chiqilayotgan holatlarning birortasiga kiritilishiga imkon bermaydi.

JKda qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarning mustahkamlanishi, bir tomondan, jinoiy-repressiv choralar qoʻllanishining kamayishiga, boshqa tomondan, fuqarolarning huquqiy faolligi oshishiga olib keladi. Ushbu holatlar fuqarolarning jinoyatchilikka qarshi kurashda ishtirok etishining eng muhim shakli boʻlib, u insonlarning ongli irodaviy faol harakatlarida amalga oshiriladi. Shunday qilib, ushbu institutning meʼyorlari pirovardida JK vazifalarining hal etilishiga qaratilgan.

2-§. Qilmishning kam ahamiyatli ekanligi

Vatanimizdagi jinoyat toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari uchun anʼanaviy boʻlgan shaxsning kam ahamiyatli qilmish sodir etgan holda uni jinoiy javobgarlikka tortilishini istisno qiladigan qoidalar **JK 36-moddasida** aks ettirilgan, uning qoidalariga koʻra, «garchi ushbu Kodeksda jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlar mavjud boʻlsa-da, oʻzining kam

ahamiyatligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi».

NOTA BENE !

Qilmishning kam ahamiyatli bo'lishi qilmish biror-bir jinoyatning barcha alomatlariga ega ekanligi, birinchi navbatda, shaxsning aybdorligi va jinoiy huquqqa qarshi ekanligini bildiradi, lekin bunday qilmishning mohiyat tomoni jinoyat deb tan olish uchun unga qo'yiladigan talablarga javob bermasligi, ya'ni buzilishi ijtimoiy xavfli qilmish deb qaraladigan chegaralardan tashqari yotadi, bu esa uning jazolanishini istisno etadi.

Jinoyat tarkibining moddiy belgisi jihatidan kam ahamiyatli qilmish uni jinoyat deb tan olish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy xavf darajasiga yetmaydi (masalan, yozish ruchkasini, daftarni yoki birovning bog'idan olmani yashirin o'g'irlash). Bunday qilmish yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atilmaydi, qo'zg'atilgan ish esa **JK 36-moddasiga** tayangan holda JPK 83-moddasining 2-qismiga muvofiq tugatilishi lozim.

Kam ahamiyatli qilmishning xususiyati shuki, u qilmishning jinoiylikni istisno qiladigan boshqa holatlardan farqli ravishda ijtimoiy foydali va ma'naviy jihatdan hamda qonun tomonidan ma'qullanishi mumkin emas.

Qilmishning kam ahamiyatli ekanligi masalasi u tergov va sud organlari tomonidan har bir muayyan holat yuzasidan hal etilishida ifodalanadi. Huquqni muhofaza qilish organlari sodir etilgan qilmish kam ahamiyatli ekanligi belgisiga ega ekanligi yoki ega emasligini uning xarakteri va ijtimoiy xavfliligining darajasini hisobga olish asosida aniqlaydilar. Qilmishni kam ahamiyatli deb tan olish muayyan jinoiy qilmish sodir etilgan barcha holatlarning jamuljamligini tahlil qilishga asoslanishi lozim (aybning shakli, jinoyatni sodir etish usuli, motiv, sharoitlari va bosqichi, yuzaga kelgan oqibatlarining og'irligi, jinoyatdagi sheriklardan har biri ishtirok etishining darajasi, xarakteri va hokazo). Xususan, agar aybdor shaxs jabrlanuvchini o'ldirishga qaratilgan harakatlarni sodir etgan bo'lsa, lekin amalda unga hech qanday zarar

yetkazilmagan bo'lsa, sodir etilgan qilmish odam o'ldirishga qasd qilish deb malakalanishi lozim va kam ahamiyatli deb qaralishi mumkin emas. Xuddi shu holatda, agar jabrlanuvchini qo'rqitmoqchi bo'lib, aybdor shaxs shunday bir qilmishni sodir etgan bo'lsa va uning oqibatida jabrlanuvchiga og'ir tan jarohatlari (ruhiy shikastlanish) yetkazilgan bo'lsa, bu qilmish ham kam ahamiyatli deb tan olinishi mumkin emas, chunki kam ahamiyatli bo'lishining tegishlicha obyektiv elementi mavjud emas, subyekt belgisi mavjud bo'lsa ham.

Qilmishning kam ahamiyatli ekanligi masalasini hal etishga aybdor shaxsini tavsiflovchi xususiyatlar ta'sir etmaydi. Faqat qilmishning o'z xususiyatlarigina bunday qaror qabul qilishda hisobga olinishi kerak, aybdor shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar faqat jazoning turi va miqdorini belgilash uchungina, ya'ni shaxsning qilmishida jinoyat tarkibining moddiy va rasmiy belgilari aniqlanganidan keyingina muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bir qator hollarda jinoiy qonunchilik ma'lum miqdorda (ancha, ko'p miqdorda va juda ko'p miqdorda) zarar yetkazilishini jinoyatning majburiy belgisi deb tan olishini qayd etish lozim. Bunday hollarda kam ahamiyatli zarar yetkazilishi sodir etilgan qilmish hatto, rasman jinoyat belgilariga mos kelmasligini ko'rsatadi. Jinoiy ish bunday hollarda **JK 36-moddasi** bo'yicha kam ahamiyatli ekanligi yuzasidan emas, balki **JK 36-moddasiga** havola etmagan holda JPKning 83-moddasi 2-bandi bo'yicha jinoyat tarkibining mavjud emasligi tufayli tugatilishi lozim bo'ladi. Masalan, JKning 173-moddasi faqat ancha miqdorda sodir etilgan o'zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki buzish uchun jinoiy javobgarlikni ko'zda tutadi. Shuning uchun bu jinoyatni sodir etish oqibatida ancha miqdordagi zarardan kamroq zarar yetkazilgan bo'lsa, qilmish hatto rasman JKning 173-moddasida ko'zda tutilgan jinoyat belgilariga mos kelmaydi. Bunday qilmish yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atilmaydi, qo'zg'atilgan ish esa qilmishning kam ahamiyatli ekanligi tufayli emas, jinoyat tarkibining yo'qligi sababli tugatilishi lozim, chunki uning majburiy belgisi – ancha miqdordagi zarar mavjud bo'lmaydi.

3-§. Zaruriy mudofaa

Zaruriy mudofaa har bir kishiga tug‘ilishidan xos bo‘lgan, umumiy ko‘rinishida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida mustahkamlangan uning sha’ni, qadr-qimmatini, hayoti va sog‘lig‘iga tajovuz qilishdan himoyalaniş huquqidan kelib chiqadi¹. Ko‘rib chiqilayotgan jinoiy-huquqiy institutning ijtimoiy foydali maqsadi – huquq bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarni himoya qilish aynan shunda namoyon bo‘ladi.

Zaruriy mudofaa ijtimoiy xavfli va huquqqa qarshi bo‘lgan tajovuzlardan – jinoyatlardan himoya qilishning usullaridan biri bo‘lib, uning oqibatida tajovuzchi shaxsga zarar yetkaziladi, bu esa uning jinoiy qilmish bilan tashqi jihatdan o‘xshashligini belgilab beradi. Ayni paytda, zaruriy mudofaa fuqarolarning ijtimoiy foydali faoliyati bo‘ladi, chunki u majburan tusga ega bo‘lib, jinoiy harakatlarning oldini olish va unga chek qo‘yishga qaratilgan. Aynan ushbu ko‘rsatilgan sabablar tufayli qonun «zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya’ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog‘ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 12 б.

chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi» deb belgilaydi (**JK 37-moddasi 1-qismi**).

NOTA BENE !

Zaruriy mudofaa – bu ijtimoiy xavfli bo'lgan tajovuzdan qonuniy himoya qilish bo'lib, tajovuzchiga noilojlikdan zarar yetkazish orqali amalga oshiriladi hamda tajovuzning xarakteriga va ijtimoiy xavfliligi darajasiga mos keladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, JK himoya qilish obyektlari sifatida shaxsni, uning huquqlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'rsatadi. Bunda JK 2-moddasining qoidalaridan farqli ravishda, ushbu obyektlar umumiy ahamiyatga ega bo'ladi hamda Kodeks tomonidan jazo tahdidi ostida himoya qilinadigan barcha ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Xususan, atrof tabiiy muhitning, mulkning saqlanishini ta'minlash, insoniyat tinchligi va xavfsizligi manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan munosabatlarni shunday munosabatlar deb tan olish kerak. **JK 37-moddasi 1-qismida** sanab o'tilgan zaruriy mudofaada himoya qilinadigan obyektlar umuman olganda JKning himoyasi ostida bo'lgan munosabatlarning yagona formulasini ta'riflashi lozim: shaxs – jamiyat – davlat, bu yuridik texnikaning xususiyatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lib, rasmiy jihatdan boshqacha bo'lgan munosabatlarni himoya qilishga qaratilgan harakatlarni zaruriy mudofaa deb tan olishga ta'sir etmaydi. «Zaruriy mudofaa to'g'risidagi qonunni qo'llash davlat mulki, jamoat tartibi, boshqa fuqarolarning hayoti, sha'ni, qadr-qimmatini, manfaatlarini tajovuzdan qo'riqlashga ham oiddir»¹.

Zaruriy mudofaada himoya qilish shaxsning tajovuzchiga ma'lum zarar yetkazuvchi faol harakatlarida ifodalanganligi tufayli, qonun ushbu mudofaa mos kelishi lozim bo'lgan ma'lum shartlarni ko'rsatadi. Mudofaaning ushbu qonun shartlariga mos kelmasligi undan chetga chiqish bo'lib, u ijtimoiy xavfli bo'lganligi tufayli jinoyat deb tan olinadi.

1

Vatanimizdagi jinoiy huquq nazariyasi va sud amaliyotida ishlab chiqilgan zaruriy mudofaa qonuniy bo‘lishining shartlari jamlangan holda, **JK 37-moddasida** mustahkamlangan ushbu shartlar mavjudligi zaruriy mudofaa holatidan dalolat beruvchi ikkita elementga: tajovuzga va undan himoyalanişga daxldor bo‘ladi. Bunda faqat ushbu shartlarga to‘la muvofiq kelishi shaxsning harakatlarini zaruriy mudofaa sifatida malakalashga imkon berishi ko‘zda tutiladi.

Tajovuzga oid bo‘lgan zaruriy mudofaa shartlari, umuman olganda, mavjudligi shaxsga zaruriy mudofaa qoidalari bo‘yicha o‘zini himoya qilishga imkon beradigan holatlarni aniqlashga qaratilgan. Ushbu shartlar tajovuzni zaruriy mudofaaning mustaqil elementi sifatida bir necha jihatidan tavsiflaydi, ya’ni: tajovuzning turi, uning xarakteri, mavjudligi va haqiqiyliigi. Faqat unga qarshi himoyalaniş amalga oshirilgan tajovuz barcha talab etiladigan shartlarga javob bergan holdagina u zaruriy mudofaa uchun asos deb tan olinishi mumkin, aks holda jinoiy qonunchilikning qaralayotgan instituti qo‘llanilishi mumkin emas.

Zaruriy mudofaaning qonuniy bo‘lishining tajovuzga oid birinchi sharti sifatida tajovuzning ijtimoiy xavfli va huquqqa qarshi bo‘lishi tan olinadi.

«Jinoyat kodeksining maxsus qismida nazarda tutilgan harakatlar uni sodir etgan shaxsning javobgarlikka tortilganligi yoki ruhiy kasallik tufayli, jinoiy javobgarlik yoshiga to‘lmaganligi sababli va boshqa asoslarga ko‘ra, javobgarlikdan ozod qilinganligidan qat’i nazar, Jinoyat kodeksining 37-moddasi doirasida himoyalanişiga asos beruvchi **ijtimoiy xavfli tajovuz** deb hisoblanadi»¹. Bunda huquqqa qarshi bo‘lishining alomati faqat tajovuzning obyektiv tomoniga tegishli bo‘ladi, ya’ni JK tegishli moddasining dispozitsiyasida ta’riflangan qilmishning o‘zi huquqqa qarshi deb tan olinadi, jinoyat subyekting tavsifi esa, JK 37-moddasi jihatidan u yoki bu **qilmishning huquqqa qarshi** deb tan olinishiga ta’sir etmaydi. Shunday qilib, zaruriy mudofaa aqli noraso bo‘lgan, kichik yoshli shaxslarning qilmishlariga qarshi, shuningdek,

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий хавфли тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, 1-банд // Тўплам, 1-жилд. – 77-б.

amalda xato mavjud bo'lgan holda harakat qiluvchi shaxslarning qilmishlariga qarshi amalga oshirilishi mumkin bo'ladi, ya'ni ularga xos bo'lgan xususiyatlari tufayli o'zlari sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan, lekin ular sodir etgan harakatlarni huquqqa qarshi xususiyatlarga ega bo'lgan holda mumkin bo'ladi.

Aslida har qanday ijtimoiy xavfli tajovuzdan – jinoyatdan zaruriy mudofaa mumkin bo'ladi. Lekin, shunga qaramay, har qanday jinoyat ham zaruriy mudofaa harakati uchun qonuniy shart bo'lavermaydi.

Tergov va sud organlari har bir muayyan holatda sodir etilgan qilmish zaruriy mudofaa holatini belgilab berish-bermasligi masalasini hal etishga individual yondashishi kerak.

Eng avvalo, tajovuzchiga zarar yetkazish orqali himoya qilinadigan qilmish himoya qilinadigan munosabatlarga shu ondagi va boshqacha oldini olib bo'lmaydigan zarar yetkazilishi bilan tajovuz qilishi lozim va faqat tajovuzchiga jismoniy ta'sir etish bilangina uning oldini olish mumkin bo'lishi lozim. Sud amaliyoti ko'rsatishicha, bunday harakatlarga, asosan, shaxsning hayoti, sog'lig'i, jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar, bezorilik, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatish va boshqa jinoyatlar, ya'ni zo'rlik ishlatish bilan kechadigan, agressiv va buzg'unchilik xarakteriga ega bo'lgan jinoyatlar kiradi.

Ayni paytda, bir qator huquqqa qarshi tajovuzlar mavjudki, ular shu ondagi va boshqacha oldini olib bo'lmaydigan zarar yetkazilishi bilan tajovuz qilmaydi yoki ularning sodir etilishidan zarar zo'rlik harakatlari bilan oldi olinishi lozim bo'lmaydi. Bunday jinoyatlar sifatida, masalan, mehnat huquqini buzish, tuhmat, pora berish va boshqalar tan olinadi. Shu sababli bunday qilmish sodir etilishiga chek qo'yish maqsadida tajovuzchiga zarar yetkazish zaruriy mudofaa deb qaralishi mumkin emas, zarar yetkazgan shaxs esa umumiy asoslarda javobgarlikka tortilishi lozim bo'ladi.

Bundan tashqari, zaruriy mudofaa doirasida unga javoban zarar yetkazishga huquq beradigan ijtimoiy xavfli tajovuz faqat hujum qiluvchining qasddan faol xulqida (harakatida) ifodalanishi mumkin.

Ya'ni, ehtiyotsizlik orqali jinoyat sodir etilishida, shuningdek, harakatsizlik (biror-bir vazifani bajarmaslik) yo'li bilan jinoyat sodir etilishida zaruriy mudofaa huquqi mavjud emas.

Shuni ta'kidlash lozimki, qonun faqat JK bilan taqiqlangan tajovuzlardan zaruriy mudofaa qilish huquqini tan oladi. Shu sababli, hatto ijtimoiy xavfli bo'lganda ham shaxs qonun bilan taqiqlanmagan noqonuniy harakatlari sodir etgan holda unga zarar yetkazish mumkin emas. Bu mazkur institutning qo'llanishida yaxlitlikka yordam beradi, shuningdek, jinoiy qonunchilikning adolat va insonparvarlik tamoyillarining amalga oshirilgani bo'ladi. Ushbu masalani boshqacha hal etish zaruriy mudofaa holatlarining asossiz kengaytirilishiga olib kelgan bo'lar edi.

Xuddi shuningdek, rasman tarkibida sodir etilishi uchun JK da javobgarlik ko'zda tutilgan jinoyat tarkibining alomatlari bo'lgan, lekin aslida jinoiy bo'lmagan qilmishlar huquqqa qarshi qilmish sifatida qaralishi mumkin emas. Xususan, kam ahamiyatli ekanligi, oxirgi zarurat va hokazolar tufayli qilmishning jinoiylikni istisno qiladigan holatlar bo'lganda bu qilmishlar jinoiy bo'lmaydi. Bunday qilmishlarga qarshi mudofaa qilgan shaxslarning harakatlari umumiy asoslarda ularga ushbu harakatlarning xarakteri avvaldan ma'lum bo'lishi sharti bilan ijtimoiy xavfli bo'lgan jinoiy harakatlari, ya'ni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakatlari deb qaralishi lozim.

Zaruriy mudofaa yuzasidan ishlarni tergov qilishda va hal etishda, shuningdek, ba'zi holatlarda mansabdor shaxslar tashqi jihatdan huquqqa qarshi holatlarga o'xshash bo'lgan, lekin aslida shunday bo'lmagan harakatlarni amalga oshirishga vakolatli bo'ladi. Bunday harakatlari, masalan, maxsus vositani qo'llash, qurolni ishlatish holatlari va hokazolar bo'ladi. Bunday holatlarda mansabdor shaxsning harakatlari qonunchilik talablariga mosligi yoki, aksincha, huquqqa qarshi ekanligidan **rasmiy mezon** deyiladigan mezon dalolat beradi. Ushbu mezon shundan iboratki, barcha mansabdor shaxslarning harakatlari nafaqat mohiyati yuzasidan, balki rasmiy jihatidan ham qonuniy bo'lishi lozim, ya'ni faqat qonun bilan belgilangan shakliga amal qilingan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Shu munosabatda mansabdor shaxslarning rasmiy ravishda noqonuniy

bo‘lgan va aslida huquqqa qarshi bo‘lgan harakatlariga qarshigina zaruriy mudofaaga yo‘l qo‘yilishi mumkin .

Zaruriy mudofaa qonuniyligining ikkinchi sharti – tajovuz mavjud bo‘lishidir.

Tajovuz mavjudligi deb, obyektiv ravishda shu ondagi va boshqacha oldini olib bo‘lmaydigan holda ijtimoiy xavf yetkazishi mumkin bo‘lgan qilmish sifatida tavsiflaydigan belgilarning jamuljamligi tushuniladi.

Huquqqa qarshi qilmish mavjudligi quyidagi hollarda aniqlanadi:

- shu ondagi zarar yetkazishning haqiqiy xavfi mavjud bo‘lganda;
- zarar yetkazilayotgan paytda.

Huquqqa qarshi tajovuzning mavjudligi va uni amalga oshirishning haqiqiy xavfi bo‘lganda shaxsning mudofaa qilinadigan manfaatga shu ondagi va boshqacha oldini olib bo‘lmaydigan zarar yetkazilishining haqiqiy xavfi yuzaga kelgan holdayoq tajovuzchi shaxsga zarar yetkazish huquqini ko‘zda tutadi. Bu holda shaxs tajovuzning o‘zi yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan zaruriy mudofaaning preventiv (oldini oluvchi) choralarini amalga oshiradi. Shunday qilib, mudofaalanuvchi huquqqa qarshi harakatning yoki harakatsizlikning amalga oshirila boshlanishini, albatta, kutib o‘tirishi shart emas, chunki bu ba’zi holatlarda qonun bilan himoya qilinadigan obyektga zarar yetkazilishi xavfi ostiga qo‘yishi mumkin, fuqarolar tomonidan ushbu talabning bajarilishi esa og‘ir va qaytarib bo‘lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lar edi.

Huquqqa qarshi tajovuzning va uni amalga oshirishning haqiqiy xavfi mavjudligi masalasi tergov va sud organlari tomonidan haqiqiy ma’lumotlarga asoslangan holda mudofaalanuvchining subyekt tasavvurlaridan kelib chiqib hal etilishi lozim. Boshqacha aytganda, zaruriy mudofaani amalga oshiruvchi shaxsning huquqqa qarshi tajovuzining va uni amalga oshirishining haqiqiy xavfi mavjudligi to‘g‘risidagi subyekt tasavvuri amaliy vaziyatga, tajovuz qiluvchining haqiqiy harakatlariga asoslangan bo‘lishi lozim. Xususan, ular so‘zlar, imo-ishoralar bilan muayyan tahdid qilish, qurolni namoyish etish va boshqa qo‘rqitish usullari bo‘lishi mumkin.

Zarar yetkazishning haqiqiy xavfi tug'ilmagan, ya'ni tajovuz mavjud bo'lmagan hollarda, shuningdek, zaruriy mudofaa holati ham yo'qligini ko'zda tutish lozim. Shu sababli bunday holda taxmin etilgan tajovuzchiga zarar yetkazish umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim.

Huquqqa qarshi tajovuzning uni amalga oshirish davrida (ya'ni, zarar yetkazilayotgan vaqtda) mavjudligi so'zsiz bo'ladi, bu davr tajovuzning amalda davom etish davridir. Shu munosabatda jinoiy qilmishning aslida boshlanishi va tugashi masalalari alohida e'tiborga molik bo'ladi.

Jinoiy tajovuzning amalda boshlanishi deb, JK da javobgarlik ko'zda tutilgan harakat yoki harakatsizlikning xronologik jihatdan birinchi elementining sodir etilishi, ya'ni jinoyat tarkibini amalga oshirish boshlanishi tan olinishi kerak. Bunda ushbu tarkibning tugallangan bo'lishi, tajovuzchining qilmishida uning barcha alomatlari mavjud bo'lishi ahamiyatga ega emas. Masalan, o'g'rilik qilish, voqealarning keyingi rivojidan qat'i nazar, shaxsning o'zga mulkni egallagan paytidan boshlanadi.

Tajovuzning amalda tugallanishi esa zarar yetkazilishining xavfi tugagan yoki jinoiy oqibat yuzaga kelgan vaziyatni bildiradi.

Tajovuzning amalda tugallanishi quyidagi hollarda aniqlanishi lozim:

– jinoyat tajovuzchining irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli (jinoyatga suiqasd) yoki uning irodasiga ko'ra (jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy voz kechish) to'xtatilgan bo'lsa;

– tajovuzchi o'z maqsadiga yetgan bo'lsa.

Tajovuzning amalda tugallanishining vaqti muayyan qilmishning elementlari jamuljamligidan kelib chiqib aniqlanishi lozim, bunda tajovuzchining ijtimoiy xavfli maqsadiga obyektiv yetganligi masalasi ustuvor bo'lishi kerak. Shunday qilib, tajovuzchi o'z jinoiy maqsadiga yetmagan bo'lsa va u tajovuzning muayyan vaqtida unga erishishdan voz kechmagan bo'lsa, u tugallangan deb e'tirof etilishi mumkin emas.

«Zaruriy mudofaa holati tajovuz tugagandan so'ng ham bo'lishi mumkin, agar himoyalalanuvchi ish holatlariga ko'ra tajovuz tugagan vaqtni aniq anglay olmagan bo'lsa. Xujum vaqtida ishlatilgan qurol va boshqa

ashyolarning tajovuzchidan himoyalalanuvchining qo‘liga o‘tib qolishining o‘zi tajovuz tugaganligidan dalolat bermaydi»¹.

Tajovuzchiga mudofaalanuvchi tajovuz amalda tugaganidan keyin yetkazilgan va himoya qilish vositalarini qo‘llashning zarurati ochiqdan-ochiq qolmagan holda yetkazilgan bo‘lsa, mudofaalanuvchi umumiy asoslarda jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim. Boshqacha aytganda, bunday vaziyatda zaruriy mudofaa mavjud bo‘lmaydi, chunki tugagan tajovuzga qarshi mudofaa umuman ortiqcha bo‘lib, mantiqan mumkin bo‘lmaydi. «Sudlanuvchining bunday harakatlariga to‘g‘ri huquqiy baho berish maqsadida sudlar yuz bergan voqeaning barcha holatlarini hisobga olib, bu harakatlar ular tomonidan ijtimoiy xavfli tajovuz sababli kuchli ruhiy hayajonlanish holatida sodir etilgan-etilmaganligini aniqlashlari zarur»².

Tajovuzni tavsiflaydigan zaruriy mudofaaning yakuniy sharti **tajovuzning haqiqiyli** bo‘ladi.

Tajovuzning haqiqiyli huquq bilan himoya qilinadigan manfaatlarga zarar yetkazish xavfi mudofaalanuvchi shaxsning xayolidagina tug‘ilganligi emas, balki obyektiv mavjudligini bildiradi. Tajovuz haqiqiyliyining belgisi zaruriy mudofaani xayoliy mudofaadan farqlash imkonini beradi.

Xayoliy mudofaa deb, taxmin etilgan tajovuzchiga haqiqiy ijtimoiy xavfli tajovuz bo‘lmagan holda, shaxs uni mavjud deb xato taxmin etgan holda zarar yetkazilishi holatlari tan olinishi lozim³. Boshqacha aytganda, xayoliy mudofaa holati faqat ish holatlari tajovuzning xayoliyligidan dalolat berganda mumkin bo‘ladi, tajovuzning xayoliyligi deganda, huquqqa qarshi harakatning sodir etilishi ehtimolidan u yoki bu darajada dalolat beruvchi ba’zi holatlar mavjudligi tushunilishi lozim.

Xayoliy mudofaada zarar yetkazish obyektiv holda ijtimoiy xavfli bo‘ladi, shuning uchun bunday harakatlar uchun javobgarlik masalasi

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий хавфли тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, 2-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. – 77-б.

² Ўша жойда.

³ Ўша жойда.

amaldagi xato to'g'risidagi umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda hal etilishi lozim.

«Agar hodisa holatlariga ko'ra, mudofaa choralari qo'llagan shaxs o'zining yanglishganini bilmagan va bilishi ham mumkin bo'lmagan bo'lsa, uning harakatlari zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb hisoblanishi kerak»¹.

Bunday xayoliy mudofaaning xususiy ko'rinishi deb huquqqa qarshi tajovuzdan himoya qilish shaxs tomonidan bevosita jinoiy qilmish tugaganidan keyin amalga oshirilgan holda, mudofaalanuvchi uchun ish holatlariga ko'ra uning tugallanish payti aniq bo'lmaganligi sharti bilan, tan olinadi.

Mudofaalanuvchining harakatlari bu vaziyatda zaruriy mudofaa deb tan olinishi tufayli ularga ushbu huquqiy institutning barcha shartlari qo'llanishini ta'kidlash lozim. Xususan, xayoliy mudofaada shaxsning harakatlari bilan tegishli haqiqiy tajovuz sharoitida yo'l qo'yiladigan zararning doirasidan ochiqdan-ochiq chiqib ketadigan zarar yetkazilgan bo'lsa, ular zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb qaralishi, ushbu shaxsning o'zi esa qonunchilik bilan belgilangan javobgarlikka tortilishi lozim.

«Agar shaxs tajovuzning aslida yo'q va xayoliyligini bila turib, ish holatlariga ko'ra ham uni, albatta, bilishi mumkin bo'lgani holda zarar yetkazsa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining ehtiyotsizlik orqasida zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan tavsiflanishi lozim»².

Tajovuzning xayoliyligi bo'lmagan, shaxs tomonidan go'yoki xayoliy mudofaa holatida zarar yetkazilgan holatda esa uning harakatlari ehtiyotsizlik orqasidan harakatlar kabi emas, balki qasddan jinoyat sifatida malakalanishi lozim. Bunday vaziyatda xayoliy tajovuz ham mavjud bo'lmagani uchun, shaxsning harakatlari xayoliy mudofaa bilan emas,

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий хавфли тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, 10-банд.

² Ўша жойда, 10-банд, 1-хатбоши.

balki aybdor shaxsning hech narsaga asoslanmagan gumonsirashi tufayli amalga oshirilgan bo‘ladi.

Shaxsning harakatlarida zaruriy mudofaa holati tajovuz va himoya qilish mavjud bo‘lganda aniqlanishi lozim. Ayni paytda ushbu elementlarning faqat yuzaki jamuljamligining mavjudligi shaxsning qilmishini zaruriy mudofaa sifatida malakalashga imkon bermaydi, lekin ularning qonuniylik shartlari bilan ta‘minlanadigan qat‘iy o‘zaro muvofiqligi va o‘zaro kelishilganligini talab etadi, ushbu elementlar ularga javob berishi lozim.

Zaruriy mudofaada himoya qilishning qonuniyligi shartlari, tajovuz qonuniyligi shartlaridan farqli ravishda, himoya qilish uning ko‘rinishi, ijtimoiy foydali manfaatga qaratilganligi jihatidan, shuningdek, qat‘iy belgilangan shaxslarga mudofaa paytida zarar yetkazilishi jihatidan, yetkazilgan zararning tajovuz xarakteriga va xavfiga muvofiqligi, mos kelishi jihatidan ta‘riflanadi.

Zaruriy mudofaada himoya qilish doimo ijtimoiy xavfli tajovuzga javob berishga qaratilgan harakatlarda namoyon bo‘ladi, bu qonunning o‘zida ham ko‘rsatilgan. Bunda ushbu harakatlar doimo mudofaalanuvchining tashabbusiga ko‘ra amalga oshirilishi hamda **faol bo‘lishiga** e‘tibor berish lozim. Himoya qilishda tajovuzchi va mudofaalanuvchining harakatlari aynan bir xil bo‘lishi, shuningdek, tajovuz qilish va himoyalani vositalarining bir xil bo‘lishi talab etilmaydi. Bundan tashqari, mudofaalanuvchi harakatlarining faol ekanligi yana ular bevosita tajovuzchiga qarshi qaratilganligida namoyon bo‘ladi.

Zaruriy mudofaa jarayonida himoya qilishda harakatlarning faol ekanligi, u nafaqat tajovuzga javob berish, balki aks hujumga o‘tishi mumkinligi, tajovuz qiluvchi shaxsni unga zo‘rlik ishlatish orqali majburlashga o‘tishi mumkinligida ifodalanadi.

Ijtimoiy xavfli tajovuzga javob berish faol himoya harakatlari qo‘llanmagan holda, passiv himoya qilish orqali (masalan, hujumdan qochish, qochib ketish va hokazolar) amalga oshirilgan holatlar zaruriy mudofaa sifatida tan olinmaydi, hatto uning oqibatida tajovuz qiluvchiga ma‘lum zarar yetkazilgan bo‘lsa ham (masalan, quvlash davomida

tajovuzchi yiqilib tushib, tan jarohatini olgan bo'lsa va hokazo). Bunday harakatlar, umuman, hatto jinoyatning rasman belgilariga ham ega bo'lmaydi, shuning uchun bunday shaklida zaruriy mudofaa sifatida malakalanishi mumkin emas.

Zaruriy mudofaada himoya qilish qonuniyligining majburiy sharti uning **maqsadga qaratilganligi** bo'lishi lozim, ya'ni bunda mudofaalanuvchining xulqi ijtimoiy foydali manfaatga erishuviga yo'naltirilganligidan dalolat beruvchi obyektiv va subyekt alomatlarining tizimi tushunilishi lozim. Bu esa, tajovuz qaratilgan ma'lum ijtimoiy munosabatlarning himoya qilish talabi sifatida tushuniladi. Bunda himoya qilish harakatlari ham mudofaalanuvchining huquqlari va manfaatlariga tajovuzchi shaxslarga qarshi, ham boshqa shaxslarning, shuningdek, muassasalar, tashkilotlar, jamiyat va davlatning huquqlari va manfaatlariga tajovuzchi shaxslarga qarshi qaratilishi mumkinligini unutmaslik lozim, tajovuzning muayyan qaratilishi bunda ahamiyatga ega bo'lmaydi. Mudofaa qilish harakatlarini ijtimoiy foydali manfaatga erishuvga qaratilgan deb tan olishda jabrlanuvchining rasman yordam so'rab murojaat qilganligi, uning yordam ko'rsatishga rozilik berganligi yoki yordam ko'rsatmaslik talabi ham ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Zaruriy mudofaani amalga oshirish huquqi har bir insonning subyekt huquqidir va shuning uchun ham himoya qilishni, shu jumladan boshqa shaxslarga qarshi qaratilgan tajovuzlarda himoya qilishni amalga oshirish qarori mudofaalanuvchining mutlaq prerogativ huquqi bo'ladi.

Zaruriy mudofaaning ijtimoiy foydali manfaatga erishuviga qaratilmaganligi shaxsning himoya qilish harakatlarini ma'nosidan mahrum etadi, bir qator holatlarda esa jinoyatga aylantiradi.

Xususan, **zaruriy mudofaani qo'zg'atish** jinoyat bo'ladi, bunda keyinchalik zaruriy mudofaa niqobi ostida unga zarar yetkazish uchun biror-bir shaxs boshqa shaxs tomonidan agressiv harakatlarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan sharoitlarni ongli ravishda hosil qilishi holatlari tushuniladi. Bu holda mudofaalanuvchi ijtimoiy foydali manfaatga erishish uchun emas, balki faqat o'zining g'arazli motivlaridan kelib chiqib harakat qilgani uchun bunday harakatlarni zaruriy mudofaa sifatida malakalash

mumkin emas, bu **JK 37-moddasi 4-qismida** bevosita ko'rsatilgan. Bunday holda «mudofaalanuvchining» harakatlari qasddan qilingan jinoyat deb malakalanishi lozim. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlariga ko'ra, «agar shaxs ziyon yetkazish (urishish, azob berish, o'ch olish va boshqalar) niyatida hujumning kelib chiqishiga sababchi bo'lsa, bunday harakatlarni zaruriy mudofaa yo'sinida qilingan deb topish mumkin emas. Bu holatlarda sodir etilgan xatti-harakatlar umumiy asoslarda tavsiflanishi lozim»¹.

Zaruriy mudofaaning maqsadga qaratilgan bo'lishi qonuniylikning majburiy sharti sifatida subyekt tomonidan ham mudofaalanuvchi shaxsning harakatlari ijtimoiy foydali manfaatga erishuviga qaratilgan bo'lishi lozimligini bildiradi. Xususan, mudofaalanuvchi o'zi amalga oshiradigan harakatlarning ijtimoiy foydali xarakterini anglab yetishi lozim. Shu bilan huquqqa qarshi tajovuzning oldini olayotganligini bilmay turib tajovuz qilayotgan shaxsning himoya qilinadigan huquq bilan manfaatlarini buzgan shaxs zaruriy mudofaa holatida himoya qilishni amalga oshirgan shaxs deb qaralishi umuman mumkin emas. Irodaviy jihati ham bunda katta ahamiyatga ega bo'ladi, ya'ni mudofaalanuvchi tajovuzga chek qo'yish orqali ijtimoiy foydali manfaatga erishishni istashi lozim. Shunday qilib, zaruriy mudofaaning maqsadga qaratilganligi nafaqat shaxsning himoya qilish harakatlarining ijtimoiy foydali bo'lishini ko'zda tutadi, balki ushbu shaxs shu maqsadga erishuvini anglashi va unga intilishini talab etadi.

Zaruriy mudofaada himoya qilish qonuniyligining keyingi sharti **zaruriy mudofaa** uchinchi shaxslarga, ularning huquqlari va manfaatlariga yoki jamiyat yoki davlatga zarar yetkazish emas, balki **mutlaqo faqat tajovuzchi shaxsga zarar yetkazilishi orqali amalga oshirilishi lozimligi bo'lib, bu JK 37-moddasi 1-qismida** ochiq-oydin ko'rsatiladi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий ҳавфли тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, 3-банд // Тўплам, 1-жилд. – 77–78-б.

Qonunning ushbu talabi zaruriy mudofaa huquqi tajovuzchining huquqqa qarshi harakatlari natijasida paydo bo'lishi bilan belgilab beriladi, ularga chek qo'yish maqsadida unga zarar yetkazish zarurati tug'iladi.

Shuni hisobga olish lozimki, tajovuzchiga zaruriy mudofaa paytida zarar yetkazish huquqqa qarshi harakatni kim sodir etishi, himoya qilish kimga qarshi qaratilganligi, shuningdek, tajovuzchi mudofaalanuvchi bilan qanday munosabatlarda bo'lishiga bog'liq bo'lmaydi. Shu sababli mudofaa ham mudofaalanuvchiga yaqin shaxslarga qarshi (turmush o'rtog'i, qarindoshi, do'sti va boshqalar), ham mutlaqo notanish shaxslarga qarshi, oddiy fuqaroga yoki hokimiyat vakiliga qarshi qaratilgan bo'lishi mumkin va hokazo.

Mudofaalanuvchi tomonidan tajovuzga javob berish oqibatida begona shaxslarga, ya'ni uchinchi shaxslarga zarar yetkazilgan bo'lsa, uning harakatlari muayyan holatlariga qarab quyidagicha kvalifikatsiyalanishi lozim:

– ushbu jinoiy-huquqiy institutning qonun talab etgan barcha belgilari mavjud bo'lgan holda, oxirgi zarurat sifatida;

– xayoliy mudofaa to'g'risidagi qoidalarga muvofiq, sodir etilgan qilmishda barcha zaruriy shartlar mavjud bo'lgan holda zaruriy mudofaa yoki ehtiyotsizlik orqasidan jinoyat sifatida;

– umumiy asoslarda odatdagi qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilgan jinoyat sifatida. Ehtiyotsizlik orqasidan jinoyatdan farqli ravishda, xayoliy mudofaada aybdor shaxs ehtiyotsizlik orqasidan zarar yetkazgan uchinchi shaxslarning harakatlari uning ongida amalga oshirilayotgan tajovuz bilan bog'liq bo'lmaydi. Masalan, mudofaalanuvchi qurollangan talonchilarning tajovuziga chek qo'yish maqsadida ulardan biriga jamoat joyida o't ochsa va bunda o'tkinchi yo'lovchilardan biriga o'q tegsa;

– aybsiz zarar yetkazish sifatida. Bunday holatlarda shaxsning harakatlari JK 24-moddasiga ko'ra jinoiy jazolanmaydigan bo'ladi.

Zaruriy mudofaada himoyalaniş javob berilayotgan tajovuzga muvofiq kelishi lozim, bu yetkazilgan va oldi olingan zararining muvofiqligida ifodalanadi. Mudofaalanuvchi shaxsning harakatlarida

himoyalaniş qonuniyligining ushbu shartini aniqlash jarayonida tergov va sud organlari tajovuzning xarakteri va xavfli ekanligiga hamda mudofaalanuvchining huquqqa qarshi harakatga javob berish yuzasidan kuchi va imkoniyatlariga, shuningdek, himoyalanişning muvofiqligini aniqlashda hisobga olinishi lozim bo‘lgan boshqa holatlarga e‘tibor berishi lozim.

Tajovuz xarakteri deb, bu holda jinoiy qasdning tashqi namoyon bo‘lishi, ya‘ni qilmishning obyektiv tomonining sifat xususiyatlari tushuniladi. Tajovuz xarakterini baholash amalga oshiriladigan tarkibiy elementlari uning intensivligi, tezligi va to‘satdanligi jinoiy natijaga erishishdagi qat‘iyligi bo‘ladi. Bundan tashqari, tajovuz xarakterini aniqlashda, shuningdek, jinoiy qasdga erishish usuli (zo‘rlik ishlatish bilan yoki zo‘rliksiz) ham hisobga olinishi lozim.

Himoyalanişning tajovuz xavfiga muvofiq bo‘lishining talabi himoyalanişning, albatta, jinoiy qilmishning ichki tomoniga muvofiq bo‘lishini ko‘zda tutadi, jinoyatning ichki tomoni deganda, ma‘lum ijtimoiy munosabatlarga (jinoyat obyektiga) zarar yetkazishga qaratilganligi tushuniladi, ularning qadr-qimmati qanchalik ko‘p bo‘lsa, ularga tajovuz bo‘lganda jinoyat shunchalik xavfli bo‘ladi. Bundan kelib chiqib, **tajovuzning xavfli bo‘lishi** uning jinoyat zararliligi jihatidan ta‘riflaydigan xususiyati bo‘lib, jinoyat jamiyat uchun qanchalik zararli bo‘lsa, qilmish shunchalik xavfli bo‘ladi. Bunda tajovuz xavfliligini baholash ham amalga yetkazilgan, ham taxminiy yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarariga ko‘ra o‘tkaziladi.

Himoyalanişning muvofiqligini aniqlashda hisobga olinishi lozim bo‘lgan boshqa holatlar muayyan qilmishning tajovuzchilar soni va mudofaalanuvchilarning soni, ularning yoshi, jismoniy rivojlanishi, qurolining mavjudligi, tajovuzning vaqti va joyi kabi elementlarini qamrab oladi¹. Bundan tashqari, mudofaalanuvchiga tajovuzchining shaxsi to‘g‘risida ma‘lum bo‘lgan kriminologik ma‘lumotlar; tajovuzchining mudofaalanuvchi shaxsga nisbatan tajovuzdan avval ma‘lum vaqt

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий хавfli тажовузлардан зарурий мудофаа хуқуқини таъминловчи қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши хақида»ги 39-сонли қарори, 5-банд // Тўплам, 1-жилд. – 78-б.

davomida bo‘lgan agressivligi; jinoyatning sharoitlari; mudofaalanuvchi shaxsning jinsi; himoya vositalarining mavjudligi va ulardan foydalanish turi; mudofaalanuvchining ruhiy holati va boshqalar hisobga olinishi lozim.

Shuni hisobga olish lozimki, himoyaning javob beriladigan tajovuzga muvofiqligi ham bitta tajovuzchiga qarshi amalga oshiriladigan, ham bir guruh tajovuz qilayotgan shaxslarga qarshi amalga oshirilayotgan zaruriy mudofaada mavjud bo‘lishi lozim. Ayni paytda, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etiladigan tajovuzning xarakteri va xavfli ekanligi guruhning har bir a’zosining alohida harakatlaridan kelib chiqib emas, butun guruhning harakatlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Shu sababli «agar tajovuz bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, mudofaalanuvchi hujum qiluvchilarning har biriga nisbatan guruhdagi barcha tajovuzchilar harakatining xarakteri va xavflilik darajasiga qarab tegishli himoya choralarini ko‘rishga haqli»¹. Bunda shu guruh a’zolari harakatlarining avvaldan kelishilganligi ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

Mudofaaning muvofiq bo‘lishi himoyalanişning yaxlit bir butunlik deb qaraladigan tajovuzning alohida elementlariga emas, balki uning barcha elementlariga muvofiqligini ko‘zda tutishini qayd etish kerak. Shuning uchun mudofaalanuvchining harakatlarini baholashda, masalan, faqat yetkazilgan zararning og‘irligidan yoki himoyalaniş va tajovuz qilishning vositalari muvofiqligidan kelib chiqish mumkin emas, chunki tajovuz tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida himoyalanişchi hamma vaqt ham yuz bergan xavfning xarakterini aniq anglab olmaydi va himoyaning tajovuzga nisbatan muvofiq usulini tanlay olmaydi². Shuningdek, mudofaa va tajovuzning intensivligida mutanosiblik ham talab etilmaydi.

Himoyalanişning tajovuz xarakteri va xavfiga muvofiq bo‘lishining shartini mudofaaning yetarli bo‘lishi talabi deb tushunmaslik lozim, chunki tajovuzga javob beruvchi shaxs, odatda, har doim ham tajovuzning

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий хавфли тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, 5-банд // Тўплам, 1-жилд. – 78-б.

² Ўша жойда.

xarakteri va xavfini aniq baholay olishi va jinoyatning oldini olish uchun kerakli va yetarli zararni yetkaza olishi mumkin bo'lmaydi. Zaruriy mudofaa holatidagi shaxs tomonidan yetkaziladigan zarar javob beriladigan tajovuz yetkazishi mumkin bo'lgan va tahdid solgan zarardan kamroq, unga teng yoki undan ko'proq bo'lishi mumkin. Lekin bu holat sodir etilgan qilmishni zaruriy mudofaa deb baholanishiga ta'sir etmaydi, chunki zaruriy mudofaaning maqsadi tajovuzdan yetkaziladigan ehtimoliy zararni kamaytirish emas (oxirgi zaruratdagi kabi), balki uning oldini olish, himoya qilinadigan manfaatlarni himoyalash bo'ladi.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish bo'lmashligi to'g'risidagi qonun talabi zaruriy mudofaada himoyalash qonuniyligining mustaqil sharti bo'ladi, «tajovuzning xususiyati va xavfliligi darajasiga butunlay muvofiq kelmaydigan mudofaa» shunday deb tan olinadi (**JK 37-moddasi 2-qismi**). Lekin avval qarab chiqilgan mudofaa qonuniyligi shartlaridan farqli ravishda shaxs harakatlarining mazkur belgisiga muvofiq emasligi (ya'ni, mudofaa chegarasidan chetga chiqish) bunday mudofaa holatining yo'qligi va sodir etilgan qilmishlarni umumiy asoslarda malakalash talabini keltirib chiqarmaydi, balki qilmishni zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan qilmish sifatida maxsus malakalashga olib keladi, bu esa qonun tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb qaraladi (JK 55-moddasi 1-qismi «e» bandi). Bunda shuni qayd etish lozimki, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish faqat u tajovuzchining qonun bilan himoyalash huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga zarar yetkazish bilan amalga oshirilgan holda jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi. Jinoiy qonunchilik bilan himoyalashmaydigan obyektlarga zarar yetkazish esa zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish sifatida qaralishi mumkin emas va JK bo'yicha javobgarlikka tortilishi mumkin emas, lekin tegishli sharoitlar bo'lganda ma'muriy yoki intizomiy aybli qilmish yoki fuqarolik delikti deb malakalanishi mumkin.

Obyektiv jihatidan mudofaa chegarasidan chetga chiqish himoyalashning tajovuz xarakteriga va xavfiga ochiq-oydin butunlay muvofiq kelmasligidan iborat. Bunda tajovuzchiga juda katta zarar, jinoiy

harakatni amalga oshirishdan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararga nisbatan ancha og'irroq zarar yetkaziladi. Bunday hollarda, himoya qilish zaruriy bo'lmaydi va muvofiq bo'lmaydi. Bunday himoya qilish so'zsiz holda tajovuzning xarakteri bilan ham, xavfi bilan ham, u sodir bo'lgan haqiqiy vaziyat bilan ham keltirib chiqarilmagan mudofaa vositalari va usullarini qo'llash oqibati bo'lishi mumkin.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish faqat qat'iy belgilangan holatda – zaruriy mudofaa holatida bo'lishi mumkin, bu esa muayyan qilmishda zaruriy mudofaa qonuniyligining barcha shartlari mavjud bo'lishini talab etadi. Ayni paytda, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish shaxs xayoliy tajovuzdan himoya qilishni amalga oshirgan hollarda – xayoliy mudofaa holatlarida ham yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, xayoliy mudofaada shaxsning harakatlari bilan tegishli haqiqiy tajovuz sharoitida yo'l qo'yiladigan zararning chegarasidan ochiq-oydin chetga chiqadigan zarar yetkazilgan bo'lsa, ular zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb malakalanishi lozim.

Subyekt jihatidan zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish aybning qasddan bo'lgan turiga kiradi. «Tajovuzchiga uning hujumini qaytarish vaqtida ehtiyotsizlik bilan yetkazilgan zarar jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi»¹.

Ayni paytda yuzaga kelgan jinoiy oqibatlar yuzasidan mudofaa-lanuvchida faqat o'ziga ishonish yoki ehtiyotsizlik tariqasidagi aybning ehtiyotsiz turi bo'lishi mumkin, qasd esa zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishdan iborat bo'lgan qilmishning o'zida mavjud bo'ladi. Masalan, «zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir tan jarohati yetkazilganlik tajovuzchining o'limiga olib kelsa, himoyalalanuvchining aybi tajovuzchining o'limiga nisbatan ehtiyotsizlik oqibatida yuz bergan bo'lsa, Jinoyat kodeksining 107-moddasi bilan tavsiflanishi kerak»². Yuzaga kelgan oqibatlarga nisbatan faqat aybning qasddan bo'lgan shakli mavjud bo'lishiga asoslangan ushbu masalani

¹ Ўша жойда.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий хавfli тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, 7-банд.

boshqacha hal etish jinoiy javobgarlik chegarasini asossiz toraytirib, JK vazifalari hal etilishiga yordam bermaydi. Agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishda mudofaalanuvchi jinoiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligini anglab yetgan va ularning yuzaga kelishini istagan yoki ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, uning harakatlari tegishli qasddan sodir etilgan mustaqil jinoyat deb malakalanishi lozim. Bunda zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish alomatiga ko'ra malakalash talab etilmaydi, lekin bu holat sud tomonidan, albatta, yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi lozim.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishda subyekt tomoning majburiy elementi mudofaalanuvchi o'z oldiga qo'ygan o'ziga xos **maqsad**, ya'ni huquq bilan himoyalangan manfaatga tajovuzdan himoya qilish, bunday tajovuzga javob berish bo'ladi. Bu maqsadning yo'qligi mudofaalanuvchining harakatlarini zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish bilan sodir etilgan deb malakalashga imkon bermaydi.

Agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishning oqibatida tajovuzchining o'limi yuz bersa yoki unga og'ir tan jarohati yetkazilsa, u holda mudofaalanuvchi mos holda JK 100- va 107-moddalari bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim. JK ning ushbu moddalari bo'yicha zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishda malakalash, shuningdek, u yoki bu jinoyatning malakalovchi alomatlari mavjud bo'lganda ham o'tkazilishi lozimligini unutmaslik lozim. Jumladan, «zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib odam o'ldirish Jinoyat kodeksi 97 - moddasi 2-qismining «a, b, d, j, r, s» bandlarida ko'rsatilgan holatlarda sodir etilgan hollarda ham Jinoyat kodeksining 100-moddasi bilan tavsiflanishi lozim»¹ va JK 107-moddasi bo'yicha ham shunday malakalanish o'tkazilishi kerak.

Tergov va sud organlari, shuningdek, «zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib, sodir etilgan qasddan odam o'ldirish, qasddan og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish jinoyatlarini kuchli hayajonlanish holatida yuz bergan odam o'ldirish, og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohatlari yetkazish jinoyatlaridan farq qila bilishlari kerak. Bu yerda shuni nazarda tutish

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий ҳавfli тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, 9-банд. – 79-б.

kerakki, kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida sodir etilgan jinoyatlarda jabrlanuvchiga zarar yetkazish himoyalaniş maqsadida bo‘lmaydi, demak, zaruriy mudofaa holatida ham yuz bermaydi. Bundan tashqari, jabrlanuvchining xatti-harakatlari tufayli to‘satdan yuz bergan ruhiy hayajonlanish jinoyatlari (Jinoyat kodeksining 98-, 106-moddalari) xuddi shunday hayajonlanish ta’siri ostida vujudga keladi, zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan jinoyatlar uchun esa bunday belgi bo‘lishi shart emas.

Agar himoyalalanuvchi to‘satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida zaruriy mudofaa chegarasidan chiqsa, ayblanuvchining harakati Jinoyat kodeksining 100- yoki 107-moddalari bilan tavsiflanishi kerak»¹.

Shaxsning harakatlarida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish malakalanganda huquqni muhofaza qilish organlari faqat umumiy ifodalash bilan cheklanmasligi lozim. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish mavjudligi to‘g‘risidagi xulosa ishning muayyan holatlariga asoslanishi lozim, bunda «himoyaning hujum xarakteri va xavflilik darajasiga butunlay nomuvofiq ekanligini anglatuvchi»² xulosa, albatta, ko‘rsatilishi lozim.

Zaruriy mudofaa huquqining subyekti unga qarshi tajovuz qilingan yoki boshqa shaxslarga, jamiyat yoki davlatga qarshi qaratilgan tajovuzga mustaqil javob beruvchi istalgan jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. Bunda ushbu subyektning layoqati ahamiyatga ega emas. Shuningdek, shaxsning lavozim va jamoat maqomi ham ahamiyatga ega bo‘lmaydi; zaruriy mudofaa huquqi har bir insonga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi va u ham oddiy fuqaro tomonidan, ham chet el fuqarosi, mansabdor shaxs, jamoat arbobi va boshqalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishning subyektlari faqat tegishli jinoyatning subyektlari bo‘lgan shaxslar bo‘lishi mumkin. Jumladan, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishda o‘lim yoki og‘ir tan jarohati yetkazilishi uchun faqat 16 yoshga yetgan aqli raso shaxslargina javobgarlikka tortilishi mumkin.

¹ Ўша жойда, 8-банд. – 78–79-б.

² Ўша жойда, 11-банд. – 79-б.

Zaruriy mudofaa huquqi har bir insonning mutlaqo shaxsiy, ma'naviy huquqi bo'lib, shaxs, jamiyat yoki davlatning manfaatlariga ijtimoiy xavfli tajovuz sodir etilishi oqibatida yuzaga keladi. Shuning uchun har bir inson o'zining zaruriy mudofaa huquqidan foydalanish-foydalanmasligini o'zi mustaqil hal etadi. Bunda ushbu huquqdan foydalanish biror-bir tashqi holatlarga, xususan, «boshqa shaxslarga yoki hokimiyat organlariga yordam so'rab murojaat qilish yoxud tajovuzdan o'zga yo'sinda qutulish imkoniyati bor - yo'qligidan qat'i nazar» bog'liq bo'lmaydi (**JK 37-moddasi 3-qismi**). «Tajovuzga uchragan shaxs, undan qochib qutulish, boshqa fuqarolarga va hokimiyat vakillariga yordam so'rab murojaat qilish yoki boshqa usullar bilan tajovuzdan saqlanish imkoniyatiga ega bo'lsa, bunday holda tajovuzga qarshi aktiv ravishda mudofaalanish huquqiga ega bo'lmaydilar»¹ degan fikr mutlaqo noto'g'ri.

Shaxslarning ma'lum bir toifasi uchun zaruriy mudofaani amalga oshirish huquqi ma'naviy kategoriyalar sohasidan huquqiy belgilanish sohasiga o'tishi, ya'ni huquqiy burchi bo'lishini ta'kidlash lozim. Bunday shaxslar sirasiga militsiya xodimlari, ichki ishlar organlari boshqa bo'linmalarining xodimlari, harbiy xizmatchilar, Davlat xavfsizlik xizmati xodimlari, inkassatorlar va boshqalar kiradi. Ushbu shaxslar tomonidan zaruriy mudofaani amalga oshirish ularning xizmat burchi bo'ladi.

4-§. Oxirgi zarurat

Oxirgi zarurat zaruriy mudofaa bilan bir qatorda qilmishning jinoyatligini istisno qiladigan eng ko'p tarqalgan holatlarga kiradi. Lekin zaruriy mudofaadan farqli ravishda oxirgi zarurat huquqqa qarshi tajovuzning oldini olish bo'lmaydi, balki huquq bilan muhofaza qilinadigan manfaatlar to'qnashuvida ziddiyatlarni hal etishning huquqiy mexanizmi bo'ladi. Oxirgi zarurat holatida bo'lgan shaxs tanlashi lozim: yoki tahdid solayotgan xavfga yo'l qo'yish yoki boshqa qonuniy manfaatlariga zarar yetkazish bilan ularni buzish orqali bu xavfni bartaraf etish. Oxirgi holda shaxsning qilmishi rasman jinoyatdan farq qilmasligi

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Ижтимоий хавfli тажовузлардан зарурий мудофаа ҳуқуқини таъминловчи қонунларнинг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 39-сонли қарори, муқаддима, 3-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. – 76-б.

mumkin, lekin uning ma'lum shartlarga muvofiq bo'lgan holatida u ijtimoiy foydali va qonuniy deb tan olinadi.

NOTA BENE !

Oxirgi zarurat – bu qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat bo'lib, unda ushbu shaxsning yoki boshqa fuqarolarning hayoti yoki huquqlariga, jamiyat va davlatning qonuni bilan himoyalangan manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni bartaraf etish uchun boshqa huquqlarga va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkaziladi, tahdid solayotgan xavf boshqa vositalar bilan bartaraf etilmaydigan bo'lganligi va yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kamroq bo'lishi sharti bilan.

Oxirgi zarurat qonuniy bo'lishining **JK 38-moddasi 1-qismida** ko'rsatilgan shartlari ikkita guruhga bo'linadi, ulardan biri tahdid soluvchi xavfga oid talablarni belgilaydi, ikkinchisi esa xavfni bartaraf etish qilmishining qonuniyligiga oid talablarni belgilaydi.

Tahdid soluvchi xavfga oid talablar, birinchi navbatda, boshqa huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazilishining qonuniy asosi sifatida huquq bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazilishi tahdidning yuzaga kelishini belgilab beruvchi holatlarga yaxlit ta'rif berishi lozim. Faqat ushbu holatlar barcha kerakli shartlarga javob bergan holdagina shaxs oxirgi zarurat huquqini amalga oshirishi mumkin, aks holda uning harakatlari umumiy asoslarda mustaqil jinoyat sifatida malakalanishi lozim. Ushbu shartlar aytib o'tilgan holatlarni ularning ijtimoiy xavfli ekanligi, mavjudligi va haqiqiyliги jihatidan ta'riflaydi.

Ijtimoiy xavflilik ularga xos bo'lgan xususiyatlar tufayli, holatlar yoki xavf manbalari aynan jinoiy qonunchilik himoyasi ostida bo'lgan, ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan obyektlarga tahdid yuzaga kelishini belgilab beradi. Shunday obyektlar sifatida JK oxirgi zarurat holatida qilmishni amalga oshirgan shaxs, boshqa shaxslarning shaxsi yoki huquqlari, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'rsatadi. Atrof muhitga, mulkka, boshqaruv

tartibiga zarar yetkazish bilan tahdid soluvchi holatlar ijtimoiy xavfli va oxirgi zarurat holatiga olib keladigan deb tan olinadi.

Shuni hisobga olish lozimki, oxirgi zarurat holatida tahdid soluvchi xavfni belgilab beruvchi holatlar faqat ijtimoiy xavfli bo'lishi lozim, zaruriy mudofaadan farqli ravishda Bu yerda jinoyatning huquqqa qarshi bo'lishining belgisi talab etilmaydi. Bu shart nafaqat boshqa kishilarning tajovuz qilishi, balki: tabiat kuchlarining ta'siri (tabiiy ofatlar, ob-havo sharoitlari va hokazolar), inson organizmining fiziologik va patologik jarayonlari (oriqlashuv, suvsizlashuv, kasallik va boshqalar); yuqori xavf manbalari; hayvonlarning harakati; mashinalar va mexanizmlarning nosozligi va boshqalar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, aybsiz qilmishlar ham xavf manbai deb tan olinishi mumkin.

Keyinchalik oxirgi zaruratni amalga oshiruvchi shaxsning harakatlari ham xavf manbai bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tergov va sud organlari obyektiv ravishda ijtimoiy xavfli oqibatlariga olib kelgan qilmishni amalga oshirishning subyekt tomoniga e'tibor berishi lozim. Jumladan, ushbu qilmish shaxs tomonidan qasddan, o'zi uchun yoki boshqa shaxs uchun yoki boshqa ijtimoiy manfaat uchun xavfli holatni yuzaga keltirib, keyin biror-bir jinoiy qilmishni sodir etgan holda oxirgi zaruratga havola etish maqsadida sodir etilgan bo'lsa, uning harakatlari umumiy asoslarda oddiy jinoyat sifatida malakalanishi lozim. Bunday harakatlar oxirgi zarurat provokatsiyasi deyiladi. Bunday holda jinoyat qasdi nafaqat birlamchi qilmishni, balki shaxs o'zining g'arazli maqsadida foydalanmoqchi bo'lgan keyingi oxirgi zaruratni qamrab olishi lozim. Bu sababdan, agar shaxs avval qasddan jinoyatni sodir etsa, keyin esa jinoyat ijtimoiy xavfli oqibatlarining oldini olish uchun uning ongida qamrab olinmagan yana bir ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etsa, ikkinchi qilmishi oxirgi zarurat holatida sodir etilgan deb qaralishi lozim. Masalan, agar shaxs boshqa kishiga qasddan og'ir tan jarohatini yetkazgan bo'lsa, keyin esa uning hayotini saqlab qolish uchun avtomobilni olib qochib ketsa, keyingi qilmishi oxirgi zarurat holatida sodir etilgan deb malakalanishi va javobgarlikka tortilmasligi lozim.

Birlamchi qilmishni shaxs ehtiyotsizlik orqasidan yoki umuman aybsiz sodir etgan holda, unda birlamchi qilmish tufayli yuzaga keltirilgan kattaroq zararning oldini olish uchun keyinchalik kamroq zararni yetkazish doimo oxirgi zarurat qoidalariga ko'ra malakalanishi lozim. Birlamchi qilmish esa mustaqil huquqiy baholanishi kerak.

Oxirgi zaruratda xavf manbai deb, fuqarolar va mansabdor shaxslarning ma'lum qonuniy harakatlari (harakatsizligi) ham tan olinishi mumkin. Jumladan, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar sifatida: zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, jinoyatchini ushlash va boshqalar mavjud bo'lganda sodir etilgan harakatni (harakatsizlikni) tan olish lozim. So'zsiz ravishda, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqishda, buyruqni bajarishda sodir etilgan qilmishlar va hokazolar xavf manbai deb tan olinishi lozim. Bunday harakatlarga qarshi oxirgi zarurat doimo mumkin va qonuniy bo'ladi.

Xavfning mavjudligi qonun bilan qo'riqlanadigan obyektlarga shu ondagi va oldini olib bo'lmaydigan zarar yetkazilishining haqiqiy tahdidi mavjudligini yoki shunday zarar yetkazilib, hali yuzaga kelmaganligini bildiradi¹. Ma'lum sharoitlarda mumkin bo'lgan yoki o'tib ketgan yoki bartaraf etilgan xavf mavjud deb tan olinmaydi va oxirgi zarurat holatini yuzaga keltirmaydi. Bunday holda zarar yetkazish oxirgi zarurat holatida sodir etilgan deb qaralishi mumkin emas, balki umumiy asoslarda mustaqil huquqiy baholanishi lozim.

Xavf uzoq davom etadigan bo'lishi mumkin, masalan, sel oqishining tahdidi, avariya holatdagi inshoot qulab tushishi xavfi va hokazo, shuning uchun oxirgi zaruratni qo'llash asosi qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga haqiqatda xavf solingan butun davr mobaynida mavjud bo'ladi. Xavf holatining tugashi oxirgi zaruratni qo'llash uchun asos yo'qolishini bildiradi².

¹ В соответствии с УК Республики Узбекистан, наличие опасности понимается как близость ее наступления. «При оценке правомерности деяния, совершенного в состоянии крайней необходимости, учитываются характер и степень предотвращаемой опасности, реальность и близость ее наступления, фактическая возможность лица по ее предотвращению, его душевное состояние в сложившейся ситуации и другие обстоятельства дела» (ч. 4 ст. 38).

² Уголовное право России. Часть Общая: учеб. для вузов: учеб. для студентов вузов, обучающихся по специальности «Юриспруденция» / Отв. ред. проф. Л.Л. Кругликов. 2-е изд., перераб. и доп. – С. 308.

Oxirgi zaruratdagi xavf mos keladigan zaruriy sharti uning **haqiqiyli** bo'lishi lozim, ya'ni u obyektiv ravishda, amalda mavjud bo'lishi kerak. Xavf haqiqiy bo'lmagan, lekin faqat subyektning uning mavjudligi haqidagi xato tasavvuridan iborat bo'lgan holda esa uni bartaraf etishga qaratilgan shaxsning qilmishi xayoliy oxirgi zarurat holatida sodir etilgan deb qaralishi lozim, bunday holatlarda javobgarlik masalasi amaldagi xato to'g'risidagi qoidalarga ko'ra hal etiladi.

Jumladan, shaxsning harakati shaxs o'z taxminining xatoligini anglab yetmagan va sodir bo'lgan voqeaning butun vaziyatidan kelib chiqib, anglab yetishi kerak bo'lmasligi sharti bilan **oxirgi zarurat holatida sodir etilgan** deb qaralishi lozim. Va agar shaxs o'z taxmini xato ekanligini ish holatlariga ko'ra anglab yetishi lozim va mumkin bo'lsa-da, anglab yetmagan bo'lsa, **ehtiyotsizlik orqasidan jinoyat** sifatida malakalanadi. Umuman olganda, oxirgi zaruratda xavfning xayoliy bo'lishining sodir etilgan qilmish malakalanishiga ta'sir etishi zaruriy mudofaadagi kabi ta'siriga o'xshash bo'ladi.

(«Xayoliy mudofaa» tushunchasi haqida mazkur bobning «Zaruriy mudofaa» deb nomlanuvchi 3-§ da batafsil tushuntirilgan.)

Tahdid solayotgan xavfni bartaraf etishga qaratilgan qilmishning qonuniyligi uning nazariya va amaliyotda ishlab chiqilgan hamda **JK 38-moddasi 1-qismida** mustahkamlangan ma'lum mezonlarga muvofiq bo'lishini talab etadi. Ushbu mezonlar qilmishni uning ijtimoiy foydali maqsadi, aynan shunday qilmishni amalga oshirish majburiyligi (xavfni boshqa vositalar bilan bartaraf etish mumkin emasligi), uning uchinchi shaxslar huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazishga qaratilganligi, yetkazilgan zarar hamda oldi olingan zararining muvofiq bo'lishi jihatidan ta'riflaydi. Bundan tashqari, bunday qilmishga alohida o'ziga xos talab sifatida qonun oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqmaslikni ajratib ko'rsatadi. Faqat qilmishning barcha belgilangan shartlarga muvofiq kelishi uni oxirgi zarurat holatida sodir etilgan, ya'ni jinoiy bo'lmagan va jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan deb tan olishga imkon beradi.

Oxirgi zaruratda qilmish qonun bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazish xavfini bartaraf etishga qaratiladi, ya'ni u ijtimoiy foydali

bo'lib, **ijtimoiy foydali** manfaatga erishish maqsadiga xizmat qiladi. Bunda jinoiy qonun huquq bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan barcha qilmishlarni emas, balki qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlar va manfaatlarga tahdid soluvchi xavfni bartaraf etishga qaratilgan qilmishlarni ijtimoiy foydali deb tan oladi. Boshqa manfaatlarni himoya qilish ijtimoiy foydali deb tan olinmaydi va shuning uchun oxirgi zarurat deb qaralishi mumkin emas.

Qilmishning majburiyligi (xavfni boshqa vositalar bilan bartaraf etib bo'lmazligi) yuzaga kelgan sharoitda huquq bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish xavfni bartaraf etishning yagona mumkin bo'lgan, oxirgi usuli ekanligini bildiradi (jinoiy huquq ko'rib chiqilgan institutining nomlanishi ham shundan kelib chiqadi). Boshqacha aytganda, jinoyat qonuni himoyasi ostida bo'lgan huquqlar va manfaatlarga zarar yetkazilishi xavfi yuzaga kelganda shaxs qonuniy harakatlar bilan zararning oldini olishga intilishi va faqat tahdid soluvchi xavfni bartaraf etish mumkin bo'lmagan holdagina bir manfaatni boshqasi uchun majburan qurbon qilishi kerak, chunki xavfni bartaraf etishning boshqa vositalari yo'q yoki yetarli bo'lmaydi. Shunday qilib, shaxs, eng avvalo, huquq bilan qo'riqlanadigan manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga va faqat bu mumkin bo'lmaganda ularning kamroq ahamiyatli bo'lganiga zarar yetkazilishiga intilishi lozim. Ushbu masalani shunday hal etish oxirgi zaruratda jinoyat qonuni bilan teng ravishda himoya qilinadigan obyektlar to'qnashuvi tufayli kelib chiqadi.

Xavfni boshqa huquq bilan qo'riqlanadigan manfaatga zarar yetkazmay bartaraf etish imkoniyati harakatlarning qonuniyligini istisno etadi; ushbu institutning zaruriy mudofaadan farqi ham shundan iborat, u boshqa imkoniyat bo'lganda ham zarar yetkazilishiga yo'l qo'yadi. Bunday holatlarda sodir etilgan qilmish umumiy asoslarda malakalanishi lozim. Bunda tergov va sud organlari qilmishning subyekt tomoniga e'tibor berishi lozim, ya'ni agar shaxs huquq bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazmagan holda xavfni bartaraf etishning boshqa imkoni mavjudligini anglab yetgan yoki ish holatlariga ko'ra anglab yetishi lozim bo'lgan holda uning harakatlari tegishli qasddan yoki

ehtiyotsiz jinoyat sifatida malakalanishi lozim. Agar shaxs unda zarar yetkazilishi bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa qilmishlarni amalga oshirish imkoni mavjudligini anglab yetmagan va ish holatlariga ko‘ra anglab yetishi mumkin bo‘lmagan holda bu qilmishni oxirgi zarurat qoidalariga ko‘ra malakalash lozim.

Shuni ta’kidlash lozimki, qilmishni oxirgi zaruratda amalga oshirish majburiyligi uning shu vaziyatda yagonaligini bildirmaydi, ya’ni aynan shu qilmish yagona bo‘lishi lozimligi talab etilmaydi. Qilmishning majburiyligi faqat zarar yetkazish majburiyligi bo‘lib, lekin uni yetkazish usullari majburiy bo‘lmaydi.

Oxirgi zarurat holatida sodir etilgan harakat alomatlariga mos keluvchi qilmishni sodir etish **faqat uchinchi shaxslarning huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazishi lozim.**

Uchinchi shaxslar deb, oxirgi zaruratda bartaraf etiladigan xavfni yuzaga keltirish bilan bog‘liq bo‘lmagan jismoniy va yuridik shaxslar, umuman davlat va jamiyat tushuniladi.

U yoki bu shaxsni, jamiyat yoki davlatni **JK 38-moddasi** ma’nosida uchinchi shaxs deb tan olish uchun yuzaga kelgan xavfga daxlsizligini ham subyekt, ham obyektiv alomati sifatida aniqlash lozim bo‘ladi. Jumladan, obyektiv elementi tegishli shaxs, jamiyat yoki davlat faoliyati amalda oxirgi zaruratda bartaraf etiladigan xavfga olib kelmaganligini ko‘zda tutadi. Subyekt tomonidan esa, uchinchi shaxslarning huquqlari va manfaatlariga yetkazilgan zarar deb tan olish uchun oxirgi zarurat holatida harakat qilgan shaxs ushbu shaxslarning bartaraf etilayotgan xavfga daxli yo‘qligini anglab yetishi va ularga zarar yetkazishni istaganligi holatini aniqlash kerak bo‘ladi.

Oxirgi zarurat holati qonuniyligining majburiy sharti **yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kamroq bo‘lishi** talabidir. Yetkaziladigan zarar va bartaraf etilgan xavf muvofiqligining ushbu talabi oxirgi zaruratda zarar tajovuzchining o‘ziga emas, uchinchi shaxslarning qonun bilan qo‘riqlanadigan huquqlari va manfaatlariga yetkazilishi tufayli kelib chiqadi.

Teng zarar, shuningdek, kattaroq zarar yetkazilishi muvofiqlik shartining buzilishi bo‘ladi. Ayni paytda ushbu shart subyektning mumkin bo‘lganlaridan eng kam zarar yetkazish majburiyatini bildirmaydi. Shuning uchun, agar xavfni bartaraf etish uchun shaxsning bartaraf etiladigan xavfga qaraganda kamroq zarar yetkazadigan bir necha usullari mavjud bo‘lsa, u holda shaxs ulardan istalgan usulni qo‘llashga haqli bo‘ladi va uning harakatlari oxirgi zarurat holatida sodir etilgan deb qaralishi lozim. Bunda sodir etilgan qilmishni malakalashga ushbu usullardan birortasi boshqalariga qaraganda kamroq zararga olib kelishi ta’sir etmaydi. Bu holda faqat yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kamroqligi ahamiyatli bo‘ladi.

Yetkazilgan va oldi olingan zararining muvofiqligi zarar yetkazilgan va yetkazilmagan ne‘matlar va manfaatlarning muvofiqligini bildiradi. Ushbu zarar turlarining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini qiyoslashda asos qilib olish mumkin bo‘lgan usul mavjud emas. Qaysi ne‘mat qimmatli ekanligi, qaysi zarar kamroq bo‘lishi masalasi har bir muayyan holda ishning aniq holatlariga bog‘liq holda hal etiladi. Bunda zarar yetkazilishi oldi olingan buzilgan ne‘matning muhimligi, tahdid solgan xavf turi, xavf bartaraf etilmagan holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlar va hokazolar hisobga olinadi.

Tergov va sud organlari yetkazilgan va bartaraf etilgan zararining sifat-miqdor muvofiqligi tamoyiliga tayanishi kerak, jumladan:

– **yetkazilgan zarar bartaraf etilgan xavfdan boshqacha bo‘lgan holda.** Bu vaziyatda tergov va sud organlari yetkazilgan zarar xususiyatiga ko‘ra bartaraf etiladigan xavfga qaraganda kamroq bo‘lishiga e’tibor berishi kerak (masalan, hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish maqsadida mulkiy zarar yetkazilishi, insoniyatga qarshi jinoyatning oldini olish maqsadida hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazish va hokazo);

– **sifat jihatidan bir xil,** ya’ni ayni bir xil ijtimoiy munosabatlarga qarshi yo‘nalgan **zarar yetkazilgan holda.** Bunday holat yuz berganda oldi olingan zarar faqat miqdor jihatidan u oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo‘lishi sharti bilan kamroq deb tan olinishi lozim (masalan, ikki

va undan ortiq shaxslarga og‘irligi shu kabi tan jarohati yetkazilishining oldini olish maqsadida og‘ir tan jarohatini yetkazish va hokazo);

– **bartaraf etilgan xavfdan sifati va darajasi farqlanadigan zarar yetkazilgan holda**, ayniqsa boshqa obyektlarning ko‘proq sonini qutqarish maqsadida JK himoya qiladigan imtiyozli obyektlarning kamroq soniga zarar yetkazilishi (masalan, bir nechta kishilarga og‘ir tan jarohatlari yetkazilishining oldini olish uchun bir kishini o‘ldirish) bunday holda oxirgi zarurat zarar yetkaziladigan va bartaraf etiladigan JK himoya qiladigan obyektlarning xarakteri o‘rtasida keskin nomuvofiqlik bo‘lmagan holda qonuniy deb tan olinishi kerak. Bu holda yetkazilgan zarar va oldi olingan zararga nisbatan ahamiyati masalasini hal etish ko‘proq ishning muayyan holatlariga bog‘liq bo‘ladi: xavf bo‘lgan va zarar yetkazilgan obyektlarning individual xususiyatlari, tahdid solgan va yetkazilgan zararining haqiqiy miqdori va boshqalar. Xuddi shunday tarzda bir yoki bir necha katta ahamiyatli ne‘matlarni kam ahamiyatli ko‘proq ne‘matlarga zarar yetkazilishi holatida himoya qilish masalasi hal etilishi kerak (masalan, o‘z mulkini o‘zganing mulkiga, jamoat tartibiga, boshqaruv tartibiga zarar yetkazish orqali himoya qilish va hokazo).

Oxirgi zarurat qonuniyligining mustaqil sharti sifatida **qonun shaxsning oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqmasligi** shartini ko‘rsatadi (**JK 38-moddasi 2-qismi**).

«Agar boshqa vositalar orqali xavfning oldini olish mumkin bo‘lsa yoki keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketsa, qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga bunday zarar yetkazish oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topiladi» (**JK 38-moddasi 3-qismi**).

Shuni qayd etish lozimki, bu shartlardan hech bo‘lmasa bittasi bo‘lmaganda oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb hisoblanadi: qilmish majburiyligi yoki yetkazilgan zarar muvofiqligi va ularning jamuljamligi bu holda talab etilmaydi. Ayni paytda oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish faqat shunday zarurat bo‘lganda mumkin bo‘ladi, shuning uchun qilmishni oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishda sodir etilgan deb tan olish uchun tergov va sud organlari oxirgi

zarurat holati mavjudligini, ya'ni majburiyligi yoki muvofiqligidan tashqari barcha avval sharhlangan shartlar mavjudligini aniqlashi lozim.

Shaxs qilmishini oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishda sodir etilgan deb malakalash uchun tergov va sud organlari **subyekt tomonining** shakliga alohida e'tibor berishi kerak, u qilmishni baholashga hal etuvchi ta'sir ko'rsatadi. Bunda tahdid solgan xavf keltirib chiqargan kuchli ruhiy hayajon holatida shaxs har doim ham oxirgi zarurat chegarasini to'g'ri aniqlab va belgilab ololmaydi. Shu sababli, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishni aniqlaganda tergov va sud organlari har bir muayyan holatga individual yondashishi kerak.

Qilmish majburiyligi mavjud emasligi alomatiga ko'ra oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishga **qasd** yoki **ehtiyotsizlik** shaklidagi ayb xos bo'ladi, ya'ni shaxs xavfni zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lmagan usulda bartaraf etish imkonini anglab yetgan yoki ish holatlariga ko'ra anglab yetishi lozim bo'lgan holat bo'ladi. Bu holda sodir etilgan qilmish JK 55-moddasining 1-qismi «e» bandiga havola etgan holda tegishli qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan jinoyat deb, ya'ni oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish bilan sodir etilgan jinoyat deb malakalanishi kerak.

Agar oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish oldi olingan zarardan kattaroq zarar yetkazilishida ifodalansa, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish uchun javobgarlik faqat qilmish jinoiy ehtiyotsizlik shaklida sodir etilgan holda yuzaga keladi. Boshqacha aytganda, aybdor shaxs u oldi olinayotgan zararga qaraganda kattaroq yoki teng zarar yetkazilayotganligini ish holatlariga ko'ra anglashi lozim bo'lsa-da, anglab yetmaydi. Shu holda kattaroq zararni yetkazish qasdi aniqlansa (masalan, jabrlanuvchiga og'ir tan jarohatini yetkazishga yo'l qo'ymaslik uchun uni o'ldirish), sodir etilgan qilmish tegishli qasddan jinoyat deb malakalanishi lozim, bunda oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish bo'lmaydi.

Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishda subyekt tomonning majburiy elementi **ijtimoiy foydali maqsadi** bo'ladi: kattaroq zarar yetkazishni kamroq zarar yetkazish orqali bartaraf etish. Oxirgi zarurat qonuniyligining umumiy sharti bo'lgan holda ushbu shart oxirgi zarurat

chegarasidan chetga chiqishda sodir etilgan qilmish sifatida baholashda alohida ahamiyat kasb etadi.

JK da oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishda sodir etilgan maxsus jinoyat tarkiblari yo'qligini qayd etish lozim. Shuning uchun bunday qilmishlarni tegishli qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan jinoyat uchun javobgarlikni ko'zda tutgan moddalar bo'yicha malakalab, u oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqishda sodir etilganligini ko'rsatish kerak, bu esa qonun tomonidan yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olinadi (JK 55-moddasi 1-qismi «e» bandi).

Oxirgi zarurat huquqi har bir insonga uning yoshi, layoqati, ijtimoiy maqomi va boshqa omillaridan qat'i nazar tegishli bo'ladi – qonunda bu jihatdan biror-bir cheklash mavjud emas. Har kim ushbu subyekt huquqidan ushbu ne'matlarni o'z kuchi bilan himoya qilish uchun foydalanishi mumkin, lekin uni amalga oshirmasligi ham mumkin. Ayni paytda ba'zi shaxslar uchun xavfni bartaraf qilish kasbiy va xizmat burchi bo'ladi, masalan, ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari va hokazo. Bu shaxslarga ularning xizmat yoki kasbiy vazifalarini bajarganida oxirgi zarurat qoidalariga taalluqli bo'lmaydi, ya'ni ular oxirgi zarurat tufayli, ya'ni bu holda ularning huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazilishi mumkinligi tufayli xavfni bartaraf qilishdan bosh torta olmaydi, lekin xavfni bartaraf qilishda ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari va boshqalar uchunchi shaxslar huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazish kerak bo'lgan vaziyatga duch kelishi mumkin (masalan, yong'in ichagini tortib o'tkazish uchun avtomashina oynasini sindirish), bu holda ularning harakatlari qaralayotgan moddaning qoidalariga muvofiq baholanishi lozim.

Ayni paytda oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish subyektlari deb, tegishli jinoyat uchun jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan va bunday jinoyat subyektlarining barcha kerakli alomatlariga ega bo'lgan layoqatli jismoniy shaxslar tan olinishi mumkin.

Sud-tergov amaliyotida, ko'pincha, u yoki bu qilmishni zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan deb malakalashda ma'lum qiyinchiliklar

kelib chiqadi. Ayni paytda to'g'ri malakalash yetkazilgan zararining chegarasini aniqlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquqiy maqomiga bevosita ta'sir etadi. Bundan tashqari, sodir etilgan qilmishning to'g'ri malakalanishi JK vazifalariga erishish, huquqni muhofaza qilish organlarining obro'si va mavqei ortishiga xizmat qiladi.

Shu sababli tergov va sud organlari zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat farqlariga e'tibor berishi lozim:

– zaruriy mudofaada shaxs qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlari va manfaatlarini huquqqa qarshi tajovuzdan himoya qiladi. Oxirgi zaruratda esa, shaxsning harakatlari faqat huquqqa qarshi tajovuzgina emas, xavf yuzaga kelishining vaziyati, turli manbalari bilan belgilab beriladi (masalan, tabiat kuchlari, fiziologik va patologik jarayonlar, mexanizmlar nosozligi va hokazo);

– oxirgi zarurat holatida qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlar va manfaatlarga zarar yetkazish tahdid solgan xavfni bartaraf etishning yagona, oxirgi vositasi bo'ladi. Zaruriy mudofaada himoya vositalari mudofaalanuvchi tomonidan tanlanadi va tajovuzning xarakteri va xavfi darajasiga mos kelishi kerak, bu zarar yetkazishni istisno etmaydi. Zaruriy mudofaada himoya qilish tajovuzdan qochish mumkin bo'lganda ham qonuniy bo'ladi;

– zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi turlicha. Jumladan, zaruriy mudofaada zarar faqat (haqiqiy yoki xayoliy) tajovuzchiga yetkaziladi, oxirgi zaruratda esa faqat uchinchi shaxslar manfaatlariga, ya'ni xavfni bartaraf etuvchi shaxs tomonidan shu xavfga daxlsiz deb idrok etilganlarning manfaatlariga yetkaziladi;

– zaruriy mudofaa holatida zararining muvofiqligi yetkazilgan zarar oldi olingan zarardan kamroq bo'lishini talab etmaydi – u kamroq, teng yoki ko'proq bo'lishi mumkin. Oxirgi zaruratda zarar yetkazilgan holda u, albatta, oldi olingan zarardan kamroq bo'lishi kerak;

– zaruriy mudofaada himoya qilish faqat faol harakatda ifodalanadi, oxirgi zaruratda xavfni bartaraf etish ham harakat, ham harakatsizlik orqali amalga oshirilishi mumkin.

5-§. Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab odil sudlov manfaatlarini ta'minlashning eng muhim elementlaridan biridir, chunki u keyingi jinoiy faoliyatga chek qo'yish, qochish yoxud dalil-isbotlarni yashirish yoki yo'q qilishning oldini olishga qaratiladi (JPK 220-moddasining 1-qismi). Bundan tashqari, shaxsni ushlab JK vazifalarini, uning tamoyillarini amalga oshirish uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Aynan shuning uchun jinoiy qonunchilik va sud-tergov amaliyoti bu institutni hatto uni amalga oshirish natijasida ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning huquqlari va manfaatlariga ma'lum zarar yetkazilgan holda ham ijtimoiy foydali deb qaraydi. Bu hollarda ushlab tashqi jihatdan jinoyatdan farq qilmasligi mumkin, lekin aslida u bunday emas. Shu munosabatda ushlovchi shaxsning harakatlarini to'g'ri malakalash uchun uning harakatlari **JK 39-moddasida** mustahkamlangan ushlabda zarar yetkazish qonuniyligi shartlariga muvofiq kelishi talab etiladi.

NOTA BENE !

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat idoralariga topshirish maqsadida **ushlab paytida zarar yetkazish**, bunda ushlab vositalari va usullariga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga, shuningdek, ushlab sharoitiga mos kelishiga amal qilingan bo'lsa, jinoyat bo'lmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab paytida zarar yetkazish qonuniyligi shartlari, bir tomondan, ushlab huquqini amalga oshirish, ikkinchi tomondan, noqonuniy harakatlar va sudsiz jazolash imkonini istisno qilishga imkon beradi. Ushbu shartlar sharhlanayotgan institut ikkita elementiga: ushlabga va ushlabda yetkaziladigan zararga taalluqli bo'ladi, ularning har birining alohida va birgalikda qonuniyligini aniqlaydi va ushlab jarayonida zarar yetkazish qonuniyligini ko'rsatadi.

Ushlash qonuniyligi shartlari mavjudligi qonunchilik tomonidan qisqa muddatli erkinlikdan mahrum etish huquqi uchun yetarli va kerakli asos deb tan olinadigan holatlarning yaxlit ta'rifini beradi. Bu holatlar ushbu institutning amalda barcha muhim jihatlarini, ya'ni ushlash asosi va subyekti, uni amalga oshirishning usullari va vositalari; ushlash maqsadi va uning bajarilishi mumkin bo'lgan vaqti. Faqat bajariladigan qisqa muddatli ozodlikdan mahrum etish harakatining barcha belgilangan shartlarga muvofiqligi uni qonuniy harakat sifatida malakalashga imkon beradi.

Ushlangan shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi ushlash huquqini amalga oshirish uchun asos bo'ladi, qonunda bu bevosita ko'rsatilgan (**JK 39-moddasi 1-qismi**). Ushlash huquqi istalgan (odatda zo'rlik ishlatib sodir etilgan) jinoyatni sodir etish paytidan boshlab yuzaga keladi. Ijtimoiy xavfli qilmish sifatida, shuningdek, tugallanmagan jinoyat holatlari (jinoyatga suiqasd va jinoyatga tayyorgarlik) tan olinishi lozim. Bundan tashqari, ijrochilik, yordamchilik, dalolatchilik, undan ham tashkilotchilik shaklidagi jinoyatda ishtirok etish shaklida amalga oshiriladigan harakatlarning (harakatsizlikning) ijtimoiy xavfi ochiq ko'rinadi.

Ushlash huquqini amalga oshirish asosi deb tan olish uchun sodir etiladigan qilmishning ijtimoiy xavfining darajasi ahamiyatli emas. Ayni paytda, sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligi darajasi shaxsni hokimiyat organlariga yetkazish zaruratiga, ushbu shaxsga zarar yetkazishga, ushlashning tegishli usullari va vositalarini qo'llashga ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsni jinoyat bo'lmagan ma'muriy huquqbuzarlik, intizomiy qilmishni sodir etgani uchun ushlash mumkin emasligini qayd etish lozim. Xuddi shunday, jinoiy qasdini aniqlagan holda ham ushlash mumkin emas, chunki shaxs hali hech qanday ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etmagan. «Sof qasdini» aniqlash jinoiy javobgarlikni, demakki, ushlash huquqini istisno etadi.

JK 39-moddasi ma'nosidagi **ushlash** faqat uning jinoiy-protsessual ma'nosida, ya'ni JPK 221-moddasi qoidalariga ko'ra, shaxs ijtimoiy xavfli

qilmish sodir etgan deb o‘ylashga asos bo‘lgan holda namoyon bo‘ladi, bu esa quyidagilar bilan tasdiqlanishi lozim:

- shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo‘lga tushsa;

- jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatsalar;

- uning o‘zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;

- shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo‘ladigan ma’lumotlar mavjud bo‘lib, u qochmoqchi bo‘lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo‘q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo‘lsa.

Ushlanishi mumkin bo‘lgan shaxs faqat jinoyat sodir etgan hamda ushlanishdan immuniteti bo‘lmagan shaxslargina bo‘lishi mumkinligini ta’kidlash lozim. Xususan, deputatlar, sudyalalar va prokurorlar, shuningdek, diplomatik yoki boshqa daxlsizlikka ega bo‘lgan shaxslar ushlanishi mumkin emas, ular jinoyatni sodir etish paytida yoki uni sodir etganidan keyin darhol ushlangan holatlar bundan istisno (JPK 4-moddasi 2-qismi, 221-moddasi). Lekin bunday ushlanish faqat ularning shaxsini aniqlash: ularni taqdim etuvchilar u yoki bu turdagi daxlsizlikka ega ekanligini ko‘rsatuvchi diplomatik yoki konsullik kartochkasini, xizmat guvohnomasi yoki boshqa hujjatlarni taqdim etishgacha davom etadi.

Shaxsni ushlanish subyekti etib tan olishga faqat uning jinoiy qilmishni sodir etishi holati ta’sir etadi, bunda uning yoshi, aqli rasoligi, ijtimoiy maqomi va qilmishga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlari e’tiborga olinmaydi.

JPK 83-moddasi va 84-moddasining 1-qismiga muvofiq, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlanish huquqi jinoiy ish bo‘yicha ish yurituvga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi holatlar bo‘lganda yo‘qoladi:

- jinoiy ish qo‘zg‘atilgan va uning yuzasidan tergov yoki sud muhokamasi o‘tkazilib jinoyat voqeasi mavjud emasligi aniqlangan;

- jinoyat tarkibi mavjud emas;

- shaxsning jinoyatni sodir etishga daxli yo‘q;

– sodir etilgan jinoyat yoki shaxs amnistiya akti ta'sir doirasiga tushadi;

– shaxsga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan qarori (ajrimi) yoki vakolatli mansabdor shaxsning ishni qo'zg'atishni rad etish yoki ushbu ayblov yuzasidan uni tugatish to'g'risidagi bekor qilinmagan qarori mavjud;

– JPK 325-moddasida ko'zda tutilmagan holatlardan tashqari, ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bo'yicha qo'zg'atilishi mumkin bo'lsa, jabrlanuvchining shikoyati bo'lmagan holda;

– shaxs ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish vaqtiga kelib jinoiy javobgarlikka tortiladigan yoshga yetmaganligi.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni qisqa muddatli ozodlikdan mahrum etish harakatlari faqat ular qonunda **ushbu shaxsni hokimiyat vakillariga topshirish** deb ko'rsatilgan qonuniy maqsadga qaratilganligida ushlar deb tan olinishi mumkin. Xuddi shu holatda, agar ushlar boshqacha maqsad ko'zlangan bo'lsa, u qonuniy deb qaralishi mumkin emas. Masalan, sudsiz o'zboshimcha jazolash maqsadida amalga oshirilgan qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilish ham noqonuniy deb tan olinadi.

Tergov va sud organlari subyektning jinoiy qilmishni sodir etgan shaxsni ushlar harakatlarning maqsadini aniqlashga alohida e'tibor berishi lozim, u ushlar qisqa muddatli bo'lishi hamda ushlayotgan shaxsning ushlangan shaxsni darhol hokimiyat organlariga yetkazish zarurligini anglab yetishi kabi jihatlardan kelib chiqib, aniqlanishini ko'zda tutadi. Bunda ushlar qisqa muddatli bo'lishi va uning zarurligi har bir muayyan holatda ishning barcha holatlarini birgalikda hisobga olgan holda aniqlanadi (ushlar vaziyati, hokimiyat organining yaqinligi, ushlovchi shaxsning ushlangan shaxsni ushbu organlarga yetkazish imkoniyati, sodir etilgan qilmishning xavfli ekanligi va hokazo). Muayyan ishning holatlari ushlovchi shaxs tomonidan biror-bir mezon buzilganligidan dalolat bersa (masalan, ozodlikdan mahrum qilish asossiz uzoq davom etgan yoki avval ushlangan shaxs ozodlikda qonuniy bo'lganligi shaxsga ma'lum bo'lgan – tegishli ehtiyot chorasi tanlanganda

yoki jinoiy javobgarlikka tortish muddati tugaganda yoki ozodikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlanganda) tergov va sud organlari ushbu shaxsning qasdi yo‘naltirilganligi masalasini muhokama qilib, kerakli belgilari mavjud bo‘lganda uni tegishli jinoyat sodir etganligi uchun javobgarlikka tortishi lozim.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda ushlovchi faqat uni hokimiyat organlariga berish maqsadini ko‘zlashi lozim. Bunday qonun aynan qaysi hokimiyat organlari haqida gap ketayotganligini aniqlamaydi. Shuning uchun ham jinoiy qilmishni sodir etgan shaxsni huquqni muhofaza qilish organlariga, ijroiya, qonun chiqaruvchi yoki sud hokimiyati organlari, tegishli muassasa, korxonalar ma‘muriyatiga topshirish maqsadlari qonuniy deb tan olinishi lozim (masalan, tashkilot direktoriga, korxonalar rahbariga topshirish va hokazo). Ushlangan shaxsni ushbu tuzilmalarga yoki mansabdor shaxslarga yetkazish maqsadini qo‘ygan holda ushlovchi shaxs ushlangan shaxsning tegishli hokimiyat organlariga yetkazilishini anglab yetadi.

Ushlangan shaxsni tegishli hokimiyat vakillariga topshirish ham (masalan, ichki ishlar organlari xodimlariga, DXX vakillariga va hokazo) uni hokimiyat organlariga topshirish sifatida tan olinishi kerakligini qayd etish lozim. Ayni paytda, ushlangan shaxsni nokonstitutsiyaviy organlarga topshirish maqsadi qonuniy deb qaralishi mumkin emas.

Maqsadi belgisiga ko‘ra, ushlash qonuniyligini tan olish uchun tergov va sud organlari faqat ushlovchi shaxsning harakatlari tegishli yo‘naltirilganligini aniqlashi lozim. Bunda jinoiy qilmishni sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish sifatida amaliy natijasiga erishish talab etilmaydi (masalan, ko‘rilgan choralarga qaramay, ushlangan shaxs qochib ketgan, yashiringan hollarda va hokazo). Fuqaroda ushbu ko‘rsatilgan maqsadning bo‘lishi ham ko‘rib chiqilgan harakatlarga qonuniylik beradi, natijasi emas.

Ushlashning barcha holatlarini puxta baholash ushlanayotgan shaxsga qonuniy tarzda zarar yetkazishdan uni o‘zboshimcha jazolashni to‘g‘ri ajratish uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsga zarar yetkazishning haqiqiy maqsadlarini muayyan ishning barcha

holatlarini, jumladan, ushlovchi shaxsning faoliyati motivlari, ushlashning tanlangan usullari va vositalari, vaziyati, yetkazilgan zararining xarakteri va og'irligi, shuningdek, qasdining qaratilganligidan dalolat beruvchi boshqa barcha holatlarni tahlil qilish asosida aniqlash lozim.

Ushlash qonuniyligining mustaqil sharti faqat **ushlashning muayyan usullari va vositalaridan foydalanish** bo'ladi.

Usullar deganda, ushlashni amalga oshirishning, jinoiy qilmishni sodir etgan shaxsga ta'sir etishning turli taktik usullari (masalan, jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish, aldov, ishontirish orqali ta'sir etish va hokazo), **vositalar** deganda esa, ushlash davomida ishlatiladigan jami qurollar, texnik moslamalar va boshqa buyumlar tushuniladi (masalan, qo'l kishanlari, o'qotar qurol, arqon va boshqalar).

U yoki bu usul yoki vositadan foydalanishning turi va intensivligi har bir muayyan holatda sodir etilgan jinoyatning og'irligi, jinoyatni sodir etgan shaxsning xavfliligi va ushlash vaziyati bilan belgilab beriladi. Jumladan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatni (masalan, odam o'ldirish, talonchilik va boshqalar) sodir etgan shaxsni qisqa muddatli ozodlikdan mahrum etish davomida qo'l kishanini ishlatish qonuniy bo'ladi. Kamroq og'irlikdagi qilmishni (masalan, tuhmat, haqorat va boshqalar) sodir etgan shaxsni ushlashda xuddi shu vositadan foydalanish qonunga muvofiq kelmaydigan deb hisoblanishi kerak. Belgilangan mezonlarga ochiqdan-ochiq mos kelmaydigan usullar va vositalarni qo'llash noqonuniy ushlash sifatida malakalanishi lozim, ushlanayotgan shaxs unga qarshilik ko'rsatishi mumkin, bu unga zarar yetkazish uchun asos bo'lmasligi lozim. Masalan, agar ushbu shaxs jabrlanuvchini haqorat qilgan bo'lsa, u esa uni ushlash maqsadida ushlanayotgan shaxsning shaxsi bilan ham, u sodir etgan qilmishning og'irligi bilan ham, ushlash vaziyati bilan ham belgilanmagan maxsus vositalarni qo'llaydigan bo'lsa (to'qmoq, ko'zni shikastlovchi gaz va hokazolar), u holda ushlangan shaxs qonuniy qarshilik ko'rsatishga haqli bo'ladi.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda zarar yetkazish faqat u jinoiy qonunchilik nazariyasida ishlab chiqilgan va **JK 39-**

moddasida mustahkamlangan qonuniylikning tegishli shartlariga muvofiq bo‘lgan holdagina qonuniy deb tan olinishi lozim.

Ushlashda zarar yetkazilishi qonuni bo‘lishining majburiy sharti **uning faqat qat’iy cheklangan shaxslar doirasiga zarar yetkazishga qaratilganligi bo‘ladi, bunday shaxslarga qonun ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxslarni kiritadi.** Ushlovchi tomonidan aybdor shaxsni qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilish maqsadida boshqa shaxslarning ushbu qilmishga daxlsiz ekanligini bila turib ularga zarar yetkazilishi oxirgi zarurat qoidalari bo‘yicha malakalanishi kerak. Ushlovchi shaxs tomonidan ushbu holat anglanmagan bo‘lsa, uning harakatlari amaliy xato to‘g‘risidagi qoidalar bo‘yicha malakalanadi.

Ushlashda yetkaziladigan zarar ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning har qanday huquqlari va manfaatlariga taalluqli bo‘lishi mumkin. Jumladan, ushlanayotgan shaxsning sog‘lig‘i, mulki, qadr-qiymati va sha’niga zarar yetkazilishi mumkin va hokazo. Shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning hayotiga ham zarar yetkazilishi mumkin. Lekin o‘ldirish favqulodda holat sifatida qaralishi lozim, ya’ni u faqat aybdor shaxsning jinoiy javobgarlikdan bosh tortishining zarariga muvofiq kelgan holatlardagina oqlanishi mumkin. Masalan, og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirgan, terrorchi bo‘lgan yoki insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etgan shaxsni o‘ldirish oqlangan bo‘ladi. Lekin ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlash jarayonida uni o‘ldirish holatida tergov va sud organlari yetkazilgan zararining muvofiqligi masalasini muhokama qilishi kerak, bunda ular hayotidan mahrum qilish odil sudlov manfaatlarini amalga oshirishni istisno etishini ko‘zda tutishi lozim.

Ushlanayotgan shaxsga zarar yetkazish, uni amalga oshirmagan holda ushlovchi shaxsning huquqlari va manfaatlariga xavf solmagan holda ushlashni amalga oshirish mumkin bo‘lmagan, **majburan chora** bo‘lishi lozim. Bunda majburan holda zarar yetkazilishi doimo holat masalasi bo‘lishi, ya’ni ushlashning vaziyati, ushlanayotgan shaxsga va ishning boshqa muayyan holatlariga bog‘liq bo‘lishini hisobga olish lozim.

Zarar noilojlikdan yetkazilganligini aniqlash uchun tergov va sud organlari quyidagilarni tahlil qilishi lozim:

– ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning jinoiy javobgarlikdan qochish imkoniyati. Bunda sud-tergov organlari ushbu shaxsni ushlashga qarshilik ko‘rsatish choralarining faolligi va samarali bo‘lishiga e‘tibor qaratishi lozim, u ijtimoiy xavfli qilmishni to‘xtatish, hokimiyat organlariga borish talablarini bajarishni rad etish; qilmish sodir etilgan joyidan yoki hokimiyat organlariga yetkazish yo‘lidan qochib ketish va hokazo;

– ushlashni amalga oshiruvchi shaxsning uni zarar yetkazmagan holda amalga oshirish imkoniyatlari. Bu imkoniyatni aniqlash uchun ushlanayotgan va ushlovchi shaxslarning soni, ularning jinsi, yoshi, qurollanishi, jismoniy kuchiga va hokazolarga e‘tibor berish lozim.

Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda zarar yetkazishning qonuniyligi faqat **yetkazilayotgan zarar muvofiq bo‘lgan** holdagina mavjud bo‘ladi. Bunda zararning muvofiq bo‘lishi uning qilmish xavfliligiga va uni sodir etgan shaxsga, shuningdek, ushlash vaziyatiga muvofiq kelishini bildiradi.

Yetkazilgan zararning muvofiqligini aniqlashda quyidagilarga alohida e‘tibor berish lozim: ushlash amalga oshirilgan vaziyat, ya‘ni ushlashni amalga oshirish vaqti va joyining xususiyatlarini ko‘rsatuvchi turli holatlar majmuasi; ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning harakatlari, uning ushlovchi shaxsning qonuniy faoliyatiga ko‘rsatgan qarshiligining intensivligi; ushbu shaxs, shuningdek, uni ushlovchi shaxs ega bo‘lgan kuch va imkoniyatlar, vositalar, ularning ruhiy holati va boshqa holatlar, ularning barchasini qamrab oluvchi ro‘yxat Bu yerda keltirilishi mumkin emas.

Shuni hisobga olish lozimki, yetkazilgan zararning muvofiqligi bo‘lishi uning qonunda belgilangan barcha shartlarga, ya‘ni qilmishning, shaxsning xavfliligi va ushlash vaziyatiga muvofiqligini talab etadi. Lekin bu shartlarning zarar yetkazilishi muvofiq bo‘lishiga ta‘siri turlicha bo‘ladi, jumladan, qilmishning va uni sodir etgan shaxsning xavfliligi yetkazilgan zararning yuqori chegarasini, boshqacha aytganda, miqdorini

aniqlashga imkon beradi. Masalan, qilmish qanchalik xavfli bo'lsa, uni sodir etgan shaxsga shunchalik jiddiy zarar yetkazilishi mumkin va aksincha, qilmishning ijtimoiy xavfi qanchalik kam bo'lsa, ushlar jarayonida shunchalik kam zararni yetkazish mumkin bo'ladi. Yetkazilgan zararining ushlar vaziyatiga muvofiqligi mezon boshqacha ahamiyatga ega, chunki u faqat ushlar uchun kerakli va yetarli bo'lgan zarar yetkazilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunda ushlar amalga oshiruvchi shaxs uchun vaziyat qanchalik noqulay bo'lsa, yetarli zararining darajasi shuncha yuqori bo'lishini ta'kidlash lozim, u ba'zi hollarda hatto yo'l qo'yiladigan zararga teng bo'lishi mumkin. Ayni paytda, ushlar vaziyati ushlar amalga oshiruvchi shaxs foydasiga o'zgarsa, yetkaziladigan zararining yetarlilik chegarasi shunchalik kamayadi.

Vaziyatning qulayligi yoki noqulayligi har bir muayyan holatda baholanishi kerak bo'lgan holat masalasi ekanligini ta'kidlash lozim. Bunday baholash davomida tergov va sud organlari ushlovchi shaxs va ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning kuchlari, imkoniyatlari va vositalarining o'zaro nisbati taxminan teng bo'lgan, shuningdek, bunday muvozanat ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxs foydasiga buzilgan holatdagi vaziyat noqulay vaziyat deb qaralishi lozimligini hisobga olishi kerak.

Yetkaziladigan zararining muvofiq bo'lishi uning belgilangan chegaralarga muvofiq bo'lishini, jumladan, chegarasidan chetga chiqmasligini talab etadi. Bunda zararining yuqoridagi ikkita chegarasidan birini buzish, ularning qaysi biri kamroq bo'lishiga qarab, chegaradan chetga chiqish bo'ladi. Ayni paytda, xuddi shunday holatda shaxs qattiq qarshilik ko'rsatsa va qonun tomonidan himoyalangan huquq va erkinliklarga zarar yetkazish xavfini tug'dirsa, bu holda yetkaziladigan zarar ruxsat etilgan chegaradan chetga chiqmasligi lozimdir. Biroq, ushlanishdan qochish maqsadida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs ushlovchiga hujum qilsa, bu holda u ruxsat berilgan chegaradan chetga chiquvchi zararni yetkazishga haqlidir. Lekin bu holat sharhlanayotgan modda qoidalari emas, balki zaruriy o'z-o'zini himoya qilish qoidalari asosida tahlil etiladi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashda yetkaziladigan zararning mutanosibligi ushbu zarar jinoyatchi yetkazgan zarardan oshib ketmasligini talab etmaydi. Ushlash vaqtida yetkaziladigan zarar shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish natijasida yetkazgan zarardan kam, unga teng yoki undan oshgan bo'lishi mumkin. Faqat shuni belgilash lozimki, yetkaziladigan zarar ijtimoiy xavfli qilmish yetkazishi mumkin bo'lgan va konkret yetkazilgan zararlarga nomutanosib bo'lmasligi lozim, ya'ni shaxsni ushlash uchun zarur bo'lgan choralar belgilangan chegaralardan chetga chiqmagan bo'lishi zarur. Ushbu masalaga boshqacha yondashuv fuqaroning ushlashni amalga oshirish huquqini asossiz tarzda cheklanishiga olib kelishi mumkin. Shuni aniq belgilash zarurki, yetkazilayotgan zarar ijtimoiy xavfli qilmish oqibatida yetkazilgan amaldagi va potentsial zararga nomutanosib emas, ya'ni shaxsni ushlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar chegarasidan chetga chiqilmagan.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida yetkazilgan zararning qonuniyligini belgilovchi alohida shart sifatida **ushlash choralari**ni qo'llashda chegaradan chiqib ketmaslik xizmat qiladi.

«Ushlash vositalari va usullariga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga, shuningdek, ushlash sharoitiga butunlay mos kelmaydigan, ushlash zarurati taqozo etmagan holda ushlanayotgan shaxsga qasddan zarar yetkazish **ushlash choralari chegarasidan chetga chiqish** deb topiladi» (**JK 39-moddasi 2-qismi**). Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlash choralaridan chetga chiqish, majburan holda zarar yetkazilishi va nisbatan tenglik belgilaridan tashqari yuqorida sanab o'tilgan boshqa shartlar mavjud bo'lgandagina huquqiy hisoblanadi.

Jinoyat kodeksiga binoan, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash uchun zarur bo'lgan choralarni oshirib yuborish deb, qo'llangan choralarni ushlash holatiga hamda shaxs va u sodir etgan jinoyatning xavfliligiga ochiq nomutanosibligiga aytiladi. Bunda, «ochiq nomutanosiblik» tushunchasi tavsifiy ma'noga ega bo'lib, har qaysi holatda u alohida aniqlanadi. Ayni ushlash choralari ba'zi hollarda qonuniy bo'lsa, boshqa hollarda choralarni oshirib yuborish sifatida

baholanadi. «Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida unga yetkazilgan zararning qonuniyligini baholashda, qilmishni sodir etgan shaxsning ushlanishdan qochish maqsadida qilgan harakatlari, ushlovchining kuchi va imkoniyatlari, ruhiy holati va ushlab bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa holatlar hisobga olinadi» (**JK 39-moddasi 3-qismi**).

Sud va tergov organlari ushlab choralardan chetga chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan qilmishni kvalifikatsiya qilishda uning **subyekt tomoniga** e‘tibor qaratishlari shart. Qonundagi ko‘rsatmaga muvofiq, ushlab vositalari va usullarining nomutanosibliigi, mazkur nomutanosiblik, shuningdek, shaxsga yetkazilayotgan zarar xarakteri va darajasi, aybdorning jinoiy qasdi bilan qamrab olingan bo‘lsa, jinoiy qilmish sifatida tan olinadi. Ushlab choralardan chetga chiqishda ehtiyotsizlik bilan har qanday darajadagi shikast yetkazilganda, shuningdek, shaxs ongi bilan qamrab olinmagan shikast yetkazish uchun shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab huquqiga yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi va mansabidan qat‘i nazar, har qanday jismoniy shaxs egadir. «Maxsus vakolatli shaxslar bilan bir qatorda jabrlanuvchi va boshqa fuqarolar ham ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab huquqiga egadirlar» (**JK 39-moddasi 4-qismi**). Shuni alohida qayd etish zarurki, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan shaxsni ushlab huquqi, har bir insonning zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat huquqi singari, subyekt huquqi bo‘lib, jinoiy qilmish sodir etgan shaxsni ushlab yoki bundan o‘zini tiyish to‘g‘risidagi masalani hal qilish faqat uning vakolatiga tegishlidir. Ayni paytda, alohida bir guruh shaxslarga, ya‘ni qonun tomonidan maxsus vakil etib tayinlangan shaxslarga ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab ularning kasb yoki xizmat burchlari hisoblanib, ular ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlabdan chekinishlari mumkin emas. Bu guruhdagi shaxslarga ichki ishlar organlari, DXX, prokuratura va boshqa organ xizmatchilari, ya‘ni xavfsizlik va jamoat tartibini saqlashga mas‘ul shaxslar kiradi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlabning qonuniyligini ko‘rsatuvchi u yoki bu belgilarni ushlovchi harakatlarida obyektiv

tomonning yo‘qligi alohida e‘tiborga loyiq masaladir. Xususan, ushbu belgining mavjud emasligi ushlarining qonuniyligini (ushlar subyekti, vaqt chegaralari va boshqalar), demakki, zarar yetkazishning qonuniyligini (zarar yetkazishga majbur bo‘lish va uni ushlar holatiga muvofiqligi va boshqalar) belgilashga taalluqlidir. Bunday hollarda sud va tergov xodimlari ushlovchi shaxsning mavjud faktik xatosini aniqlashlari va shunga bog‘liq tarzda, uni quyidagicha baholashlari lozimdir:

– **JK 39-moddasi** qoidalari bo‘yicha, vujudga kelgan shart-sharoitlarda aybdor o‘z taxminlarining xato ekanligini anglamagan va anglashi mumkin bo‘lmagan holatlarda;

– ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan tegishli jinoyat sifatida basharti ushbu holatda shaxs o‘z taxmini noto‘g‘ri ekanligini anglashi lozim bo‘lgan, lekin anglamaganligi aniqlansa;

– tegishli qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida, aybdor o‘z harakatining ijtimoiy xavfini anglagan tarzda ularni amalga oshirishni istagan bo‘lsa.

Tergov va sud amaliyotida u yoki bu qilmishni zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlar vaqtida zarar yetkazish deb topishda, ularni sodir etilish belgilariga ko‘ra farqlash masalasida ayrim qiyinchiliklar mavjud. Shu bilan birga, qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qila olish jinoiy javobgarlikka tortiluvchi shaxsning huquqiy maqomini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, qilmishni to‘g‘ri va aniq kvalifikatsiya qilish, Jinoyat kodeksi oldida turgan vazifalarning bajarilishini ta‘minlash huquqni muhofaza qiluvchi organlarning obro‘-e‘tibori va nufuzini ko‘tarish uchun muhimdir.

Shu sababli tergov va sud organlari ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlar vaqtida zarar yetkazish institutini zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratdan farqlashda quyidagilarga e‘tibor berishlari lozim:

– ushlariga bo‘lgan huquq ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishi bilan vujudga kelsa, zaruriy mudofaa mudofaalanuvchi shaxsga qarshi yo‘naltirilgan tajovuz sodir etilishi bilan, oxirgi zaruratga bo‘lgan huquq esa nafaqat shaxsdan, balki xohlagan manbadan kelib chiquvchi xavfning paydo bo‘lishi natijasida yuzaga keladi;

– ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash bo‘yicha tashabbus barcha hollarda bunday huquqqa ega bo‘lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratda esa shaxs bunday sharoitga kirib qolishi tufayli majbur bo‘ladi;

– ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash huquqi bunday qilmish sodir etilishi bilan vujudga keladi va amalga oshiriladi, zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat esa tajovuz yoki xavfning amalga oshirilishi fakti bilan shartlangan bo‘ladi;

– ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashdan asosiy maqsad bunday shaxsni hokimiyat organlariga topshirish bo‘lsa, zaruriy mudofaa va oxirgi zaruratda esa, tajovuzchini yengish va xavfni barataraf etish hisoblanadi.

6-§. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish

JK 40-moddasida O‘zbekiston jinoiy-huquqiy amaliyotida birinchi marotaba, buyruq yoki boshqa farmoyishni, shuningdek, mansab vazifalarini qonuniy bajarish tufayli zarar yetkazilishi jinoiylikni istisno etadigan holat sifatida qonuniy shaklda qayd etildi. Bugungi kunda mazkur shartlar asosida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni (harakatsizlikni) baholash qonunchilik darajasida hal etilgan.

Mazkur shartlarga asoslanib amalga oshiriladigan harakat yoki harakatsizlik tegishli huquqiy shartlar mavjud bo‘lgandagina qonuniy deb tavsiflanishi mumkin. «Shaxsning buyruq yoki boshqa farmoyishni, shuningdek, mansab vazifalarini **qonunan** bajarishi tufayli zarar yetkazilgan bo‘lsa, jinoyat deb topilmaydi» (**JK 40-moddasi 1-qismi**).

NOTA BENE !

Qonuniy buyruq yoki boshqa farmoyish yoxud mansab vazifalarini ijro etish uchun harakat qilayotgan shaxs tomonidan jinoyat qonuni tomonidan qo‘riqlanayotgan manfaatlarga ziyon yetkazilgan taqdirda, **buyruq yoki boshqa farmoyishning bajarilishi** qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat deb topiladi.

Ushbu shartlar tegishli xatti-harakatlarni (harakatsizlikni) amalga oshirish qonuniyligiga, ya'ni buyruq, farmoyish va mansab vazifasi qonuniyligiga hamda mazkur buyruq (farmoyish, mansab vazifasi) ijrosining qonuniyligiga doir hisoblanadi. Aynan, qilmish ko'rsatib o'tilgan barcha belgilarga mos bo'lsa, jinoiy javobgarlik istisno qilinadi.

Buyruq, farmoyish yoki xizmat majburiyatlarining qonuniyligini aks ettiruvchi birinchi belgilardan biri – bu **rasman muvofiq** kelishidir.

NOTA BENE !

Buyruq deganda, vakolatli shaxsning ijro etish majburiyati yuklangan shaxsga bergan ma'lum bir harakat (harakatsizlik) ni bajarish haqidagi qonun va qonunosti aktlarga asoslangan talabi tushuniladi.

Aynan shu ta'rif buyruqni boshqa ta'sir choralari – iltimos, ishontirish, majburlovdan ajratib turadi. Buyruqlar bilan birga «**tavsiyalar**», «**farmoyishlar**» va «**farmonlar**» ham berilishi mumkin. Bular masalalarni hal qilish, ularni qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan shaxsning huquqiy maqomi bo'yicha o'zaro farqlanadi. Bu aktlarning asosiy umumiy jihati – ularning ijro etish majburiyati yuklangan shaxs tomonidan bajarilishidir.

Qonun tomonidan buyruq yoki boshqa farmoyishlarning shakli aniq belgilanmagan. Tashkilotlarni boshqarish amaliyotida ular yozma, og'zaki yoki namoyishkorona (belgi, bayroqcha va h.k.) shaklda bo'lishi, shuningdek, texnik aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin. Lekin ayrim hollarda buyruqning faqat yozma shaklda bo'lishi talab qilinadi. Bunday talablarga rioya etilmasligi uning haqiqiy emas, deb topilishiga sabab bo'ladi.

Buyruq yoki boshqa farmoyishlardan farqli ravishda **mansab majburiyatlari** vakolatiga qarab, xodimlardan bajarilishi talab qilinadigan funksional majburiyatlar doirasini o'zida aks ettiradi. Demak, mansab majburiyatlari subyekt qanday lavozimga egaligiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, xizmat majburiyatlari ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat shartnomasida belgilangan yozma

shartnomasida bo‘lishi kerak (MK 73-moddasi 1-qismi). Aks holda, ular g‘ayriqonuniy deb hisoblanishi mumkin.

Buyruq, farmoyish va boshqa boshqaruv aktlari qonuniyligining muhim sharti – uning qonun talablariga mos kelishi, ya’ni **mazmunidir**. Buyruq, farmoyish yoki boshqa xizmat majburiyatlari ichki huquqiy talablarga zid bo‘lmasligi shart. Bundan tashqari, nafaqat Jinoyat kodeksi talablariga, balki boshqa qonunlar va qonunosti hujjatlariga ham qarama-qarshilik mavjud bo‘lmasligi lozim.

Qabul qilingan boshqaruv akti, shuningdek, mansab vazifalarini belgilash, tegishli xatti-harakatni ijro etayotgan mansabdor shaxsning o‘z funksional vakolatlari doirasida qabul qilingan bo‘lishi kerak. Buyruq yoki boshqa farmoyishlar, agar ular boshliqning vakolati doirasidan chetga chiqilgan bo‘lsa, o‘z mohiyatiga ko‘ra noqonuniy hisoblanadi, zero ularni belgilashda tegishli huquqqa ega shaxsning irodasi kuzatilmaydi, mazkur vaziyatda esa bu zaruriy talabdir.

Buyruq, farmoyish yoki boshqa boshqaruv aktlarini ijro etish **huquqiylik shartlariga** mos kelgan taqdirda qilmishni jinoiyligini istisno qiladigan holat deb topilishi mumkin. Boshqacha aytganda, buyruq, farmoyish va boshqa xizmat majburiyatlari jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida keltirilib o‘tilgan talablarga zid bo‘lmagan harakat yoki harakatsizlik orqali bajarilishi kerak. Aks holda bunday harakat yoki harakatsizlik mustaqil jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Masalan, tashkilot xodimlarining unga qo‘yiladigan soliqlarni eng ko‘p suratda qisqartirishga bo‘lgan intilishlari haqidagi farmoyish vakolatli shaxs tomonidan berilsa, bu soliqlarni to‘lashdan qochayotgan qaysi bir xodim ushbu sharhlanayotgan modda qoidalariga muvofiq berilgan farmoyishning ta’sir kuchi bilan o‘zi sodir etgan qilmishi uchun jinoiy javobgarlikni istisno qiladi degan ma’noni bermaydi.

Subyekt tomondan, buyruq va boshqa farmoyishlarni ijro etishda Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga ma’lum darajada zarar yetkazilishi subyektning istagi bilan qamrab olinmagan bo‘lishi kerak. Agar bajaruvchi yetkazilgan zararning g‘ayrihuquqiy ekanligini anglasa, bunday hollarda sodir etilgan g‘ayrihuquqiy qilmish

xizmat yuzasidan qaram bo'lgan vaziyatda sodir etilgan deb topiladi. Boshqacha aytsak, buyruq yoki farmoyishni bajarish oqibatida ma'lum zarar yetkazgan shaxs, buyruq yoki farmoyishni obyektiv belgilariga ko'ra qonunchilikka muvofiq deb anglagan bo'lishida ifodalanadi. Aks holda, agar bajaruvchi yetkazilgan zararni g'ayrihuquqiy ekanligini anglasa, bunday hollarda sodir etilgan jinoiy qilmish xizmat yuzasidan qaram bo'lgan vaziyatda sodir etilgan deb topiladi. Xususan, **JK 40-moddasi 2-qismiga** muvofiq, «jinoiyligi oldindan ayon bo'lgan buyruq yoki boshqa farmoyishni bajarib, jinoyat sodir etgan shaxs, umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi».

Buyruq yoki farmoyishning jinoiyligini oldindan bilishi, bajaruvchi farmoyishlarning g'ayriqonuniy ekanligini obyektiv tomondan anglagan yoki anglamagan bo'lishi mumkin bo'lmagan holatlarda namoyon bo'lishida ifodalanadi. Bu kabi buyruq va farmoyish sifatida u yoki bu jinoyatni sodir qilish to'g'risidagi ko'rsatmalarni tushunish mumkin. Ijrochi buyruqning jinoiyligini oldindan bila turib uni bajarsa, bunday holat ishtirokchilik sifatida baholanib, buyruq beruvchi tashkilotchi, uni ijro etuvchi esa bajaruvchi shaxs deb topiladi.

Shuni nazarda tutish lozimki, oldindan jinoiyligi ayon bo'lgan ma'lum buyruq yoki farmoyishni ijro etish umumiy asosda baholanishi lozimligi haqidagi qonun oldindan jinoiyligi ma'lum mansab vazifalarini ijro etishda jinoyat sodir etgan shaxslarni javobgarlikdan ozod qilmaydi. Qonunning bunday talqin etilishi yuridik til xususiyatlariga bog'liq bo'lib, sodir etilgan qilmishning baholanishiga ta'sir qilmaydi, shu sababdan oldindan jinoiyligi ma'lum mansab vazifalarini ijro etishda jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy asoslarda javobgarlikka tortilishi lozim bo'ladi. Bu masalaning o'zgacha yechimi alohida kategoriyadagi shaxslarga asossiz ravishda javobgarlikdan qutulib qolish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida, Jinoyat kodeksining odillik va javobgarlikning muqarrarligi tamoyillariga zid keladi.

JK 40-moddasiga muvofiq, shaxsning u yoki bu qilmishini amalga oshirishini baholashda, uning tomonidan qilmishni subyekt baholashi alohida ahamiyatga ega. Zero, shaxs g'ayrihuquqiy yoki jinoiyligi ma'lum

bo'lgan buyruq, farmoyish yoki boshqa xizmat majburiyatlarini bajarmaslik yoki buzish, agar bunday qilmish qonunda jinoyat deb belgilangan bo'lsa ham, jinoiy javobgarlikni istisno qiladi.

Xullas, bajaruvchi tomonidan Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga yetkazilgan zarar uchun o'sha buyruq yoki boshqa farmoyishni bergan shaxs javobgarlikka tortiladi, bunday hollarda bajaruvchi jinoyatni sodir etishning quroli sifatida xizmat qilib yoki boshqa farmoyishlarni ijro etgan qilmishi uchun javobgarlikka tortilmaydi, lekin ushbu buyruq yoki farmoyishning qonunga zid bo'lganligining oldindan ma'lum bo'lishi bundan mustasno.

JK 40-moddasi 3-qismiga muvofiq, «g'ayriqonuniy ravishda berilgan buyruq yoki farmoyishni yoxud mansab vazifasini bajarmagan yoki buzgan shaxs javobgarlikka tortilmaydi. Shaxsning amalda sodir etgan qilmishida boshqa bir jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lsagina, u javobgarlikka tortiladi». Mazkur qoidalar ushbu modda va JKning, noqonuniy buyruq, farmoyish va mansab vazifalarini buzish holatlarini ko'zda tutgan boshqa moddalari o'rtasidagi kolliziyalarni hal etadi. Mazkur qoidalar noqonuniy buyruq, farmoyish va mansab vazifasini bajarmaganlik yoki buzish holatlarida, buyruqni bajarmaganlik yoki buzish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarishi lozim paytda, jinoiylikni istisno qiladi (masalan, JK 279, 280-moddalari). Shuni ko'zda tutish lozimki, har qanday g'ayrihuquqiy yoki jinoiyliigi ma'lum bo'lgan buyruq, farmoyish yoki boshqa xizmat majburiyatlarini bajarmaslik yoki buzish, jinoiy javobgarlikni istisno qiladi. Ayni paytda, sud va tergov organlari sodir etilgan harakatda boshqa jinoyat tarkibi mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashlari lozim, chunki agar u aniqlansa, shaxs jinoyat uchun javobgarlikka tortiladi.

JK 40-moddasi qoidalari, faqat ichki ishlar, Qurolli Kuchlar, DXX, prokuratura organlari yoki boshqa davlat muassasalarida xizmat qiluvchi shaxslarga tegishli emas. Huquqiy-tashkiliy shaklidan qat'i nazar, istalgan korxonada, tashkilotning ishchi-xizmatchisi buyruq yoki farmoyish, shuningdek, mansab vazifasini ijro etish yo'lida jinoyat sodir etgan shaxs ham jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

7-§. Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik

O‘zbekiston jinoyat qonunida kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik kabi qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida alohida institut mavjudligining ahamiyati katta, zero, bu jamiyatning taraqqiy etishiga ko‘mak berib, ma‘lum holatlarda turli eksperimentlarni amalga oshirgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilib, qaror qabul qilishda yanada tashabbuskorroq bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Ayni paytda, qonun asossiz, mas‘uliyatsiz harakatlarni sodir etishning oldini oladi va xavfli harakatlarni sodir etish yoki etmaslikning qonuniyligini belgilab beruvchi shartlarni ko‘rsatadi. Ushbu shartlar buzilgan holatda shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga asos paydo bo‘ladi.

JK 41-moddasida ijtimoiy foydali maqsadga erishish uchun kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik qilib, huquqlar va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat deb topilmasligining shartlari ixchamlashgan shaklda ko‘rsatilib o‘tilgan. Mazkur shartlar, birinchidan, qilmishdagi tavakkalchilikni ijtimoiy foydasi tarafidan, ikkinchidan, uni amalga oshirishdagi xatti-harakatlarni ma‘lum darajadagi xavfsizligiga rioya qilinganligi tarafidan tavsiflanadi. Aynan shunda, qilmish mazkur barcha talablarga rioya etilganda, u kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik sifatida tan olinib, mos ravishda, jinoyatni istisno qilishi mumkin.

NOTA BENE !

Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik, jinoiyligni istisno qiluvchi holat sifatida, ijtimoiy foydali natijaga erishish maqsadida, kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik oqibatida huquqlar va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish hamda ushbu natijaga tavakkalchilikka bog‘liq harakatlar bilan erishish imkoniyati mavjud bo‘lmagan taqdirda hamda tavakkalchilikka yo‘l qo‘ygan shaxs, zarar yetkazilishining oldini olish uchun barcha chora-tadbirlar ko‘rishidan iborat.

Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilikning shartlaridan birinchisi – bu **ijtimoiy foydali maqsadga yo‘naltirilganligidir. Xususan, JK 41-moddasi 1-qismiga** asosan, «Ijtimoiy foydali maqsadga erishish uchun kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik qilib, huquqlar va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat deb topilmaydi». Bu shuni anglatadiki, tavakkalchilik jamiyat va davlat uchun manfaat keltiruvchi natijalarga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Bunda shuni e‘tiborga olish lozimki, tavakkal qilib sodir etilgan harakatlardan hosil bo‘lgan ijobiy natija sezilarli suratda ushbu harakatlar tufayli yuzaga kelgan salbiy oqibatlardan ustun bo‘lishi kerak. Xususan, tavakkal qilib sodir etilgan harakatning ijtimoiy foydali maqsadi, insonlar hayoti va sog‘lig‘ini asrab qolishi, ish mahsuldorligini sezilarli sur‘atda oshiruvchi yangi texnika yoki texnologiyani kashf etish, rivojlanish sur‘atlarini keskin tarzda oshiruvchi yangi fizik qonunlarni va kimyoviy elementlarni topish va hokazolarni qamrab oladi.

Shaxsiy maqsadlarga yo‘naltirilgan tavakkalchilik asosli deb hisoblanmaydi. Ayni paytda, shaxsiy maqsadlarni shaxsiy motiv (sabab)lardan farqlash darkor. Ushbu talab qo‘yilishiga sabab –shaxsiy motivlarning shaxsiy maqsadlarga mos kelmasligidir. Chunki, motiv u yoki bu qilmish sodir etish istagini tug‘diruvchi sababdir. Shu sababli shaxsiy motiv ijtimoiy foydali maqsadga qaratilgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, olqishlarga sazovor bo‘lish uchun shaxsni o‘limdan qutqarish.

Shuni nazarda tutish lozimki, ijtimoiy foydali maqsad qilmishni kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq tavakkalchilik sifatida kvalifikatsiya qilish, unga to‘g‘ri huquqiy baho berish hamda jinoiy javobgarlik masalasini hal qilish uchun muhimdir (basharti subyekt jinoiy javobgarlikka tortilgan bo‘lsa).

«Agar sodir etilgan harakat zamonaviy ilmiy-texnika bilimlari va tajribalariga muvofiq kelgan, qo‘yilgan maqsadga esa, tavakkal qilmay erishishning iloji bo‘lmagan hamda shaxs huquqlar va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazilishining oldini olish uchun

tegishli choralarni ko'rgan bo'lsa, bunday tavakkalchilik asosli deb topiladi» (**JK 41-moddasi 2-qismi**).

Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik qonuniyligining ikkinchi sharti **tavakkalchilik qilmay turib ijtimoiy foydali maqsadlarga erishib bo'lmazligidir**. Ushbu maqsadni oddiy usullar bilan amalga oshirish imkoni borligi ayon bo'lgan holatlarda xavfli harakatlarning qonuniyligi o'z kuchini yo'qotadi va yetkazilgan zarar uchun javobgarlik umumiy asosda kuchga kiradi. Ayni paytda, sud va tergov organlari ushbu masalani hal etishga alohida yondashmoqlari lozimdir, chunki jamiyatga manfaatli maqsadlarni oddiy usullar bilan amalga oshirish imkoni har qaysi ishning alohida holatlari va faktlarga bog'liqdir. Shu sabab, u mavhum shaklda emas, balki aniq shaklda, ya'ni ishning konkret holatlariga nisbatan tatbiq etilish imkoniga ega bo'lishi lozimdir.

Shuni nazarda tutish lozimki, ijtimoiy foydali maqsadni hech qanday zararsiz amalga oshirish imkoni yo'qligi, o'sha zararni yetkazmaslik iloji yo'qligini anglatmaydi, ya'ni bunda huquq va erkinliklarga zarar yetishi ehtimoli bor deb aytiladi, lekin ushbu zararni yetkazmaslikning iloji yo'q deb ko'rsatilmaydi. Aks holda, ya'ni subyekt oldindan qaytarib bo'lmaydigan zararli oqibatlarni yuzaga kelishini bilgan holda, xavfli harakatlarni sodir etsa, ular ko'rilayotgan modda qoidalari asosida baholanishi mumkin bo'lmaydi, chunki ushbu holatda lozim bo'lgan tavakkal etib harakat qilish elementi mavjud bo'lmaydi.

Xavfli harakatlar ular zararli oqibatlarni yuzaga kelishi oldini olish imkoniyatlarini obyektiv tarzda ko'rsatuvchi **zamonaviy ilmiy-texnika bilimlariga va tajribalariga muvofiq kelgan** holatda oqlanadi. Shaxs o'z tavakkalchilik tarzidagi harakatlarini amalga oshirishda tibbiyot, texnika sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlardan kelib chiqishi lozim. Shu bilan birga, shuni inobatga olish lozimki, qonun tavakkalchilik texnikaviy me'yorlar va qoidalarga emas, balki zamonaviy ilmiy-texnika bilimlari va tajribalariga muvofiq kelishini talab etadi.

Tavakkalchilik bilan bog'liq qilmishlarning zamonaviy bilim va tajribalarga mosligi haqidagi qonun talablari, avvalo, bunday

qilmishlarning subyekt bilimlar va subyekt tajribalarga muvofiq bo'lishini bildiradi.

Tavakkalchilik harakatlarini amalga oshirishning muhim shartlaridan biri – **shaxs boshqalarning huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazilishining oldini olish uchun tegishli choralarni ko'rgan bo'lishligidir**. Ko'rilgan chora-tadbirlarning zarurligi obyektiv va subyekt mezonlar asosida belgilanadi.

Obyektiv tomondan xavfsizlik choralari ko'rish zarurligi shundan iboratki, tavakkalchilik bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish sharoiti aynan shu choralarning ko'rilishini talab qiladi (masalan, yong'in bilan bog'liq tajribalarni o'tkazishda yong'in xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rish zarur).

Subyekt tomondan xavfsizlik choralari ko'rish zarurligi shuni bildiradiki, shaxs kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibat va uning hajmini anglay oladi, shu sababli zarar kelib chiqmasligi yoki ahamiyatsiz bo'lishi uchun ham u shunday choralarni ko'rish lozim bo'ladi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, zarur choralarni ko'rish har qaysi holatda ishning barcha holatlarini o'rganib chiqish asosida hal etilishi lozim bo'lgan faktlarga ham bog'liqdir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha shartlar mavjud bo'lgan taqdirdagina tavakkalchilik asosli va huquqiy hisoblanadi, yetkazilgan zarar esa jinoiy emas deb topiladi. Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkal qilishdan ko'zlangan ijtimoiy foydali natijaga erishilmagan va yetkazilgan zarar ijtimoiy foydali maqsadga erishish natijasida olinishi mumkin bo'lgan natijadan ko'proq bo'lgan taqdirda ham tavakkalchi shaxsni javobgarlikka tortishga sabab bo'lmaydi. «Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik qilishda ko'zlangan ijtimoiy foydali natijaga erishilmagan va keltirilgan zarar ijtimoiy foydali maqsadga erishish natijasida olinishi mumkin bo'lgan foydali natijadan ko'proq bo'lgan taqdirda ham yetkazilgan zarar javobgarlikka sabab bo'lmaydi» (**JK 41-moddasi 3-qismi**).

Ayni paytda, agar shaxsning harakati qonuniylik shartlaridan biriga muvofiq kelmasa, u umumiy asosda baholanadi va xavf mavjud bo'lgan

holat jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida JK 55-moddasi 1-qismi «e» bandiga muvofiq, ya'ni shaxsning ijtimoiy foydali maqsadi bo'lganligi tufayli jazoni yengillashtiruvchi holat qatoriga kiritiladi.

Ammo, shaxs ishning haqiqiy holatlari bo'yicha xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa (masalan, ijtimoiy foydali maqsadini amalga oshirish uchun xato harakat qilsa; ma'lum xavfsizlik choralarini ko'rish borasida xatolikka yo'l qo'ygan bo'lsa), ushbu holatda aybdor shaxsning harakatlarini faktik xato bilan bog'liq qonun-qoidalar asosida kvalifikatsiya qilinishi lozimdir, ya'ni tavakkalchilik qonuniy shartlar asosida amalga oshirilganligi tufayli ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Subyekt tavakkalchilik harakatlarini amalga oshirishda qonuniy shartlarga rioya qilmagan holatlarda uning harakatlari qasddan yoki ehtiyotsizlik sifatida umumiy asoslarda javobgarlikka tortiladi.

Odamlarning halok bo'lishi, ekologik falokat va boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lishi oldindan ma'lum bo'lgan xavfli harakatlarni oqlangan deb tan olmaslik xavfli harakatlarning qonuniyligini belgilovchi alohida bir shartdir. «Tavakkalchilik odamlarning halok bo'lish xavfi, ekologiya halokati yoxud boshqacha og'ir oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligini bila turib qilingan bo'lsa, asosli deb topilmaydi» (**JK 41-moddasi 4-qismi**).

Odamlarning halok bo'lish xavfi deganda, tavakkalchilikni amalga oshirish oqibatida ikki yoki undan ortiq odamlarning hayoti xavf ostida qolishi tushuniladi.

Ekologik halokat – insonlar faoliyati natijasida tabiatga zarar yetkazilishi va bu zarar insoniyatning keyingi hayoti uchun jiddiy xavfni keltirib chiqarishini bildiradi (gaz, neft avariylari, keng qamrovli o'rmon yong'inlari).

Boshqa og'ir oqibatlar sifatida bir necha shaxslar sog'lig'iga og'ir shikast yetkazilishi, transport tizimining uzoq muddatga izdan chiqishi, portlash yoki yong'in natijasida uylar va boshqa inshootlarning vayron bo'lishi va shu kabi holatlar tushuniladi. Agar ularning natijasida teng bo'lmagan manfaat ko'zlangan bo'lsa, ushbu harakatlar oqlanmagan deb tan olinadi (masalan, hosildorlikni oshirish). Ayni paytda, agar shu kabi

tahdidlar muhim manfaatlarni amalga oshirishda yuzaga kelsa (masalan, odamlarni ko‘milib qolgan joydan qutqarish, yangi texnologiyalarni, ya’ni avvalgisidan ancha samarali texnologiyalarni kashf etish) xavfli harakatlar asosli deb tan olinadi. Ayni damda bu holatlarda yetadigan manfaat va tegishli harakatlar tahdid solayotgan manfaatga qiyosiy baholanishi lozim bo‘ladi. Ular ochiq muvofiq bo‘lmagan yoki teng bo‘lgan holatda bunday maqsadlarga erishish asossiz xavfli harakat deb tan olinishi lozim.

Sud va tergov organlari kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq asosli tavakkalchilik holatida zarar yetkazishning oxirgi zarurat holatida zarar yetkazishga juda o‘xshashligi bois, aybdorning harakatlarini kvalifikatsiya qilishda ma’lum qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin.

Shuning uchun kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq asosli tavakkalchilik holatida zarar yetkazishni oxirgi zarurat holatidan farqlash imkonini beradigan quyidagi belgilarga e’tibor qaratishlari lozim:

– oxirgi zaruratda xavf manbai mavjud bo‘lib, qilmishning o‘zi zararni bartaraf etishga qaratilgan bo‘ladi, asosli tavakkalchilikda esa, qilmish tahdid soluvchi xavf bilan shartlanmaydi, u ijtimoiy foydali maqsadga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi;

– oxirgi zaruratda yetkazilgan zarar bartaraf etilgan zarardan kamroq bo‘lishi kerak, asosli tavakkalchilikda esa zararining hajmi tavakkal qiluvchi shaxs qilmishini baholashda unchalik ahamiyatga ega emas;

– tavakkalchilik bilan bog‘liq qilmishlar asosida zarar yetkazish ehtimoliy bo‘lib, oqibatning kelib chiqishi zarur hisoblanmaydi, oxirgi zaruratda esa zarar yetkazish – ko‘proq zarar yetkazilishini oldini olishning yagona vositasidir.

8-§. Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqitish

Jismoniy yoki ruhiy majburlash – qilmishning jinoiyligini inkor etuvchi yana bir holat hisoblanadi. Jismoniy yoki ruhiy majburlash – bu shaxsga nisbatan g‘ayriqonuniy kuch (jismoniy yoki ruhiy) ishlatishning qo‘llanilishi bo‘lib, mazkur shaxs tomonidan, uning xohish-istagiga qarshi, jamiyat uchun xavfli qilmishning sodir etilishiga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday vaziyatda harakatlar shaxsning xohish-istagisiz

sodir etilishi natijasida uning javobgarligi inkor etiladi, shunday ekan shaxs aybsiz hisoblanadi. Haqiqatda, majburlovchi bunday vaziyatda jinoyatning “tirik quoli” sifatida chiqadi, majburlovchi esa jinoyat subyekti hisoblanadi va javobgar bo‘ladi.

Bevosita jinoiy qilmish sodir qilingan lahzada yoki unga qadar (chunki talab qilinayotgan harakatlar sodir etilishi rad etilgan taqdirda takroran zo‘rlik orqali ta’sir ko‘rsatish xavfi saqlanib qoladi) shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan jismoniy va ruhiy majburlash jinoyatning vaziyati sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Real hollarda, jismoniy va ruhiy majburlash kamdan-kam hollarda bir-biridan alohida amalga oshiriladi: ko‘pgina hollarda, har qanday jismoniy majburlash ruhiy ta’sir, ruhiy majburlash esa jismoniy kuch ishlatish elementlaridan iborat bo‘ladi.

NOTA BENE !

Jismoniy majburlash boshqa shaxsga nisbatan majburiy xarakterga ega, ya’ni uning irodasiga qarshi, irodasini so‘ndirish yoki uni bo‘ysundirish yoxud shaxsning harakat erkinligini cheklash maqsadida sodir etiladigan jismoniy choralarning qo‘llanilishidan iborat.

Jismoniy majburlashda zo‘rlik ishlatish xarakteriga ega choralar sog‘likka turli darajada og‘ir tan jarohatlarini yetkazish, turli kuchli ta’sir etuvchi va giyohvandlik moddalarining qo‘llanilishi, izolyatsiya qilish va boshqalarda ifodalanishi mumkin – malakalash uchun bu choralarning konkret belgilash xarakteri mavjud emas.

Ruhiy majburlash boshqa shaxsga hayotga, sog‘likka, mulkka yoki majburlanuvchi shaxs yoki uning yaqinlarining huquq va manfaatlariga zarar yetkazish xavfida, shuningdek shaxsning ruhiyatiga to‘g‘ri ta’sir (turli psixotrop moddalarning qo‘llanilishi, gipnoz va hokazolar) o‘tkazishda namoyon bo‘ladigan ruhiy zo‘rlik choralarini amalga oshirish orqali ta’sir o‘tkazishdan iborat. Jinoyatni malakalash uchun shaxsning irodasini so‘ndirish yoki bo‘ysundirish, uning harakatlari erkinligini cheklashni belgilashda qo‘llaniladigan aniq usullar mavjud emas.

Majburlash majburlanuvchi shaxsning xohish-irodasiga qarshi sodir etiladigan ham majburiy jismoniy va hamda ruhiy alomati sifatida namoyish etilishini ta'kidlash zarur. Aks holda majburlash sodir bo'lmaydi (misol, do'kon qorovuli bosqinchilarning sherigi bo'lgan holda, o'ziga sherikchilikda shubha uyg'otmaslik uchun o'zini bog'lab qo'yishni so'raydi).

Shu bilan bir vaqtda faqat shaxsning irodasiga qarshi g'ayriqonuniy choralarning qo'llanilishi majburlash sifatida e'tirof etilishi lozim. Qonun bilan ruxsat berilgan, bir qator hollarda esa hatto talab qilingan choralarning qo'llanilishini esa majburlash sifatida ko'rib chiqilmaydi (masalan, qamoqqa olish, noqonuniy harakatlar ustidan shikoyat qilish tahdidi va boshqalar). Bunday holatlarda majburlangan deyilayotgan shaxsning uchinchi shaxslar huquq va manfaatlariga zarar yetkazishda ifodalangan qilmishini, zaruriy sharoitlar mavjudligida, tegishli qasddan yoxud ehtiyotsizlik oqibatidagi jinoyat sifatida malakalash lozim.

Jismoniy yoxud ruhiy majburlash uchinchi shaxslarning huquq va erkinliklariga zarar yetkazgan majburlanuvchi shaxsning xohish-istagining xulq-atvoriga turli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini hisobga olish zarur. Xususan, shaxs o'z harakatlarini tanlash erkinligidan yoxud mutlaqo cheklangan, yoxud bunday cheklov xususiy xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Shaxs faoliyati erkinligining turli xarakterga ega ekanligi turli huquqiy baholashga olib keladi, xususan, agar:

- **shaxs o'z harakatlarini boshqara olmasa** (masalan, to'liq izolyatsiyalanish yoki gipnoz uyqusi holatida bo'lish va boshqalar). Bunday holatda majburlanuvchi majburlovchining qo'lida faqat qurol va xatti-harakatlarni tanlash imkoniyatidan to'liq mahrum hisoblanadi, amalga oshirilayotgan jinoiy-huquqiy harakatlar yoki harakatsizligi davomida irodasini namoyish qilish imkoniyati yo'qligi sababli bunday shaxsning javobgarligi inkor etiladi;

- **shaxs o'z harakatlarini boshqarish imkoniyatini saqlab qoladi** (masalan, zarar yetkazish xavfida, qiynoq tahdidida va boshqalarda). Bunday vaziyatda majburlanuvchining qilmishi JKning 38-moddasiga

muvoqif o'ta zaruriyat qoidalariga ko'ra baholanadi. Ammo, agar qilmish o'ta zaruriyatning qonuniyligi shartlariga javob bermasa yoxud uning chegaralaridan o'tishi mavjud bo'lsa, unda majburlangan shaxsning harakatlari mustaqil jinoyat sifatida tavsiflanishi lozim. Bunda uning majburiylik ostida sodir etilishi Jinoyat kodeksining 55-moddasi 1-qismi "g" bandi bo'yicha yengillashtiruvchi holat sifatida ko'rib chiqiladi.

**«Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar»
mavzusi yuzasidan yakuniy savollar**

1. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar deganda nima tushuniladi? Ushbu holatlarni qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida baholash mezonlari qanday?

2. Qilmishning kam ahamiyatligi nimadan iborat? Qilmishni kam ahamiyatli deb topish uchun qaysi holatlar inobatga olinishi zarur?

3. Zaruriy mudofaa ostida nima tushuniladi?

4. Kim zaruriy mudofaani qo'llashga haqli?

5. Qaysi holatlarda zaruriy mudofaa vujudga keladi?

6. Zaruriy mudofaa holatidagi g'ayriqonuniy tajovuz qanday talablarga javob berishi shart?

7. Zaruriy mudofaaning himoyaga taalluqli huquqqa muvofiqligi shartlari nimadan iborat?

8. Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish ostida nima tushuniladi? U nimada ifodalanishi mumkin?

9. G'ayriqonuniy tajovuzdan himoyalananayotgan shaxsning kuchli ruhiy hayajonlanishi holatining jinoyat-huquqiy mohiyati nimadan iborat?

10. Xayoliy mudofaa nima? O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy ko'rsatmalarida xayoliy mudofaa holatida sodir qilingan qilmishning kvalifikatsiyasiga doir qanday yondashuv mavjud?

11. Oxirgi zarurat ostida nima tushuniladi? Oxirgi zarurat holati mavjudligini qanday shartlar belgilaydi?

12. Tahdid qilayotgan xavf va uni bartaraf etishga qaratilgan harakatlarga oid oxirgi zaruratning huquqqa muvofiqligi shartlari qanday?

13. Oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish mumkinmi?

14. Oxirgi zarurat holati zaruriy mudofaa holatidan qanday farqlanadi?

15. Jismoniy va ruhiy zo‘rlash ostida nima tushuniladi? Ushbu xatti-harakat jinoylikni istisno qilishi mumkinmi?

16. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish ostida nima tushuniladi?

17. Qanday shartlarda ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish huquqqa muvofiq topiladi? Ular ma’muriy huquqbuzarliklarga nisbatan qo‘llanishi mumkinmi?

18. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida, ushlab uchun zarur bo‘lgan choralarning chegarasidan chetga chiqish nimadan iborat? Ushlab vaqtida inson o‘limiga yo‘l qo‘yish mumkinmi?

19. Qaysi shartlarda buyruq yoki boshqa farmoyishni bajarish jinoylikni istisno qiluvchi holat deb tan olinadi?

20. Oldindan jinoy buyruqni (farmoyish yoki mansab vazifasini) bajarish deganda nima tushuniladi? Qilmishni bunday holatda kvalifikatsiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

21. Qanday holatlarda kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq tavakkalchilik asosli deb topiladi?

22. Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik holatida qonun bilan qo‘riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazish chegarasidan chiqish mumkinmi?

23. Kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik holatining oxirgi zarurat holatidan qanday farqlari mavjud?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Орехов В.В. Необходимая оборона и иные обстоятельства, исключющие преступность деяния. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 217 Б.

Сидоренко Э.Л. Отрицательное поведение потерпевшего и уголовный закон. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 310 Б.

Широков К. Согласие на причинение вреда как обстоятельство, исключаящее преступность деяния // Ж. Законность. 2006. № 9. – 53 б.

Ўразалиев М.Қ. Қилмишнинг жиноийлигини истисно қилувчи ҳолат сифатида касб ёки хўжалик фаолиятига боғлиқ асосли таваккалчиликка психологик шарҳ // Жиноят ва жиноят процессуал қонунчилигини такомиллаштириш масалалари: миллий ва хорижий тажриба. Халқаро илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, ТДЮУ, 2014. – Б.127-137

RUSTAMBAYEV MIRZAYUSUP XAKIMOVICH

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist,
yuridik fanlar doktori, professor

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQI
K U R S I**

I T O M

**UMUMIY QISM
JINOYAT HAQIDA TA’LIMOT**

Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik
(2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan)

«Complex Print» nashriyoti, Toshkent, 2018

Muharrir: O.Rahimov

Texnik muharrir: Murakayeva Z.I.

Korrektorlar: Qosimjonova D.R., Ahmadaliyev M.B., Rasulov Z.F.

Dizayner: B.Gabbasov

Bosishga ruxsat berildi 12.12.2018. Buyurtma № 3-и Format 60x84/16.

Times New Roman garniturasida bilan raqamli usuli bilan bosildi.

Hajmi: 27.88 sh-b.t. 22,66 n.-x.t. Adadi 80 nusxa

Nashriyot lisenziya Ai №004, 20.07.2018 y.

«Complex Print» nashriyoti, Toshkent sh., A.Navoiy ko‘ch., 24.

Tel.: +998 71 244 40 89

«Complex Print» bosmaxonasida chop etildi.

Lisenziya № 10-3606, 10.12.2016 y.

Toshkent sh., A.Navoiy ko‘ch., 24.

Tel.: +998 71 244 40 89